Nordic

Scientific-practical e-journal

NORDIC SCIENTIFIC-PRACTICAL E-JOURNAL

VOLUME-4

NORDIK ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI

4-SON

© Nordic International University

Muassis

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

Xalqaro Nordik universiteti O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining №057216 raqamli Guvohnomasi asosida “Nordic” ilmiy-amaliy elektron jurnalini nashr etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Jurnalda maqolalar o‘zbek, rus, ingliz va fin tillarida nashr etiladi.

KENGASH A’ZOLARI

Saidahror G‘ulomov	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Marat Raxmutlaev	Texnika fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Baxtiyor Salimov	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Olim Murtazayev	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Shavkat Hasanov	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Mahammadsiddik Amonboyev	Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor	**O‘zbekiston**
Nuriddin Murodullayev	Xalqaro Nordik universiteti prorektori	**O‘zbekiston**
Petri Juhani Raivo	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**Finlandiya**
Pekka Auvinen	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**Finlandiya**
Alisher Jo‘rayev	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Nizomiddin Urmonov	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	**O‘zbekiston**
Bruno Dallago	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**Italiya**
Kobil Ruziyev	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**Angliya**
Ihtiyor Bobojonov	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**Germaniya**
Odiljon Abdurazzakov	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Mirza Tulayev	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	**O‘zbekiston**
Munis Abdullayev	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	**O‘zbekiston**
Xasan Sabirov	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	**O‘zbekiston**
Zulfiya Xamidova	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	**O‘zbekiston**
Lochin Raxmonov	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Alijon Ergashev	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Musoxon Isakov	Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	**O‘zbekiston**
Maxammadmurod Shomirzayev	Pedagogika fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Xusniddin Jo‘rayev	Pedagogika fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Qurbonniyoz Panjiyev	Pedagogika fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Dilafro‘z Miraliyeva	Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Nigora Lutfullayeva	Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Dilshod Nasriddinov	Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Elbek Qosimov	Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD	**O‘zbekiston**

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

MUNDARIJA

1. KIMYO ABDULLAEVA	Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda axloqiy qadryatlarni shakllantirishning psixoligik xususiyatlari	4
2. MUNAVVARXON ABDURASHITOVA	Oiladagi ijtimoiy muammolarning psixologik yechimlari	11
3. ROBIYA ABDURAXMONOVA	Umumta’lim maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatini treninglar orqali rivojlantirish	16
4. AROLOV DAVRONJON	Maktab o‘quvchilarida ijodkorlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	22
5. GULNOZA BAYNAZAROVA	Kreativ pedagogika: ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar va ularning samaradorligi	28
6. MAQSUDA ISHMURATOVA	Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari	32
7. FARANGIZ MADRAIMOVA	Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bilingvizmning kognitiv jarayonlar dinamikasiga ta’sir xususiyatlari	38
8. XURSHIDA MAMAJANOVA	Talabalik davrida addiktiv xulq-atvorning psixologik xususiyatlari	42
9. KAMOLA MIRZAEVA	Maktab o‘quvchilarini tarbiyalashda maktab, mahalla va oila hamkorligining o‘rni	47
10. NARGIZA MURODOVA	O‘quvchilarda kitob o‘qishga qiziqishni ivojlantirishning psixologik xususiyatlari	52
11. NODIRA NAZIRQULOVA	Talabalik davrida o‘z-o‘ziga baho berishni o‘quv faoliyatga ta’siri	59
12. LOBAR NISHONOVA	O‘smirlik davrida psixoemotsional holatlarning o‘ziga xos jihatlari	65
13. GAVHAR QO‘YSINOVA	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mustaqil ta’limni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	71
14. DILDORA RASULEVA	Uzluksiz ta’lim jarayonida inklyuziv ta’lim uzviyligini ta’minlash yo‘llari	78
15. SAIDA SAIDARIPOVA	O‘yin texnologiyalari vositasida autizm sindromi bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish	83
16. UMIDA SOBIROVA	Zamonaviy ta’lim tizimi rahbarlarining ijtimoiypsixologik kompetentligini	88
17. ABROR TEMIROV	Kredit-modul tizimi sharoitida pedagogik o‘lchovlarning didaktik vazifalarini amalga oshirish texnologiyalari	93
18. ELMIRA USMONOVA	Professional ta’lim tizimida o‘quvchilar kompetensiyalarini shakllantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish	97
19. UMIDA YORMATOVA	Zamonaviy ta’lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini o‘rganish muammolari	102
20. DILAFRUZ ZAFAROVA	Innovatsion ta’lim muhitida talabalarning loyihalash kompetansiyasini rivojlantirish tizimi	108
21. KAMOLA MADJITOVA	Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik ijodkorligini rivojlantirish (ingliz tili miqyosida)	113
22. ZAXRO SAIDRAHMATOVA	Ayollarda baxt haqida tasavvurlarining ijtimoiy-psixologik jihatlari	118
23. BARNO SAIPOVA	Maktabgacha ta‘lim pedagoglarining kreativ kompetentligini takomillashtirish	125
24. GO‘ZAL TOJIEVA	Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini loyihalash kompentensiyalarini rivojlantirish metodikasi	132
25. AZIMOVA ANZIRAT	Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini kreativ yondashuv asosida rivojlantirishning mexanizmlari	137
26. NEGMATOVA MAXFUZA	Alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlash va ularning faoliyatini takomillashtirish	142
27. QUTLIEVA DILNOZA	6-7 yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda o‘quv lug‘atlaridan foydalanishning didaktik asoslari	147
28. RAXMONOVA SABRINA	Теория и практика эмоционально развивающего воспитания и образования детей старшего дошкольного возраста	153
29. KOMILOVA SHAXRIBONU	Педагогическая поддержка развития коммуникативной культуры детей старшего дошкольного возраста в игровом пространстве дошкольной организации	161 169
30. NAFISA QODIROVA	Maktabgacha ta’limda o‘quv-tarbiya jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish	175
31. MANZURA BOYMURODOVA	Bolalarda xalq marosimlari vositasida tabiatga muhabbat hissini shakllantirish	179
32. JUMAEVA AZIZABONU	Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi tushunchalarini shakllanishining pedagogik sharoitlari	187
33. JUMAEVA GULSUM	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutq madaniyati va tafakkurini rivojlantirishda kreativ yondashuv	194
34. MURTAZOEVA DILFUZA	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda zamonaviy yondashuv	194
35. MUSAYEVA LOBAR	Boshlang‘ich ta’lim jarayonida tarbiya faninio‘qitishda interfaol texnologiyalardan foydalanish metodikasi	201
36. SIROJIDDIN ABLAZOV	Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish mexanizmini takomillashtirish	208
37. DILMUROD PRIMOV	Ta’lim muassasalarida fanlararo integratsiyani ta’minlashning zamonaviy texnologiyalari	213
38. NA’MUNA ERGASHEVA	Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish metodikasi	214
39. JO‘RABEK RAHIMOV	Professional ta’limda pedagoglarning ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari	222
40. MAMATXANOVA ZIYODA	Bo‘lajak menejerlarning sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha amaliy tayyorgarligini takomillashtirish	228
41. VASILA ABIDJANOVA	Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv amaliyotlarini tashkil etishning zamonaviy texnologiyalari	234
42. NOZIMABONU TOJIBOYEVA	Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini tayyorlashda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash metodikasi	241
43. NISHONOVA DILSO‘Z	Ta’lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv kompetentligini takomillashtirish	248
44. JABBOROVA ROZA	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning usul va vazifalari	256
45. МИРЗАЖАНОВА НАРГИЗА	Совершенствование модели развития человеческого потенциала в управлении средих учебных заведений	261
46. NORMURODOVA NODIRA	Maktabgacha ta’lim tashkiloti uslubchisining metodik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	269
47. OMONOVA XUSNIDAXON	Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy yondashuv asosida boshqarishni takomillashtirish	275
48. TAXIROVA SAYYORA	Ta’lim muassasalari boshqaruvida inson resurslarini boshqarish (hrm) mexanizmini takomillashtirish	281
49. ABDULXAYEVA XUSNIDAXON	Mechanisms for assessing the professional competence of educators in the management of vocational educational institutions	288
50. ROBIYA ERMATOVA	Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash mexanizmini rivojlantirish	296
51. LOLA DJURAKULOVA	Inklyuziv ta’lim sohasida tarbiyachi pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish yo‘llari	302
52. DILDORA XAMRAYEVA	Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasi	306
53. OYDINA OTABAYEVA	MTT pedagoglarining kasbiy kompetentligini treninglar vositasida rivojlantirish metodikasi	312

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0008-3450-5900

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA AXLOQIY QADRYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLIGIK XUSUSIYATLARI

Kimyo Abdullayeva



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Xususan, «Rostgo‘ylik», «Do‘stlarga yordam berish» va «Kattalarga hurmat» kabi axloqiy qadriyatlar bolalar ongida qanday rivojlanishi va ularning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri, bolalar o‘zining axloqiy tushunchalarini atrof-muhitdan, o‘qituvchi va ota-onalardan qanday olishi va shu orqali xulq-atvorlarini shakllantirishi, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda psixologik omillar, o‘qitish yondashuvlari va ijtimoiy faktorlarning roli haqida ma’lumotlar taqdim etilgan. Maqola bolalar psixologiyasiga oid nazariy va amaliy jihatlarni yoritadi va axloqiy ta’lim jarayonida samara beradigan metodlarni belgilaydi.

Kalit so‘zlar: Maktab, axloqiy qoidalar, qadriyat, o‘quvchi, ta’lim-tarbiya, xulq-atvor, qadryatlar, ota-ona, empatiya.

KIRISH

Jahon mamlakatlaridan biri Yaponiyada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘ziga o‘zi xizmat qilish tendensiyasi mavjud. Bu ularni mustaqil bo‘lishga va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishda yordam beradi. Xitoy ta’lim tizimida Konfutsiy ta’limoti asosida shakllangan milliy va ma’naviy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish yetakchi o‘rinda turadi. Bu qadriyatlar oila va jamiyatga sadoqat, mehnatsevarlik, o‘zaro hurmat kabi tushunchalar asosida tarbiyalanadi. Xitoy maktablarida milliy qahramonlar, madaniy an’ana va tarixiy shaxslar hayoti haqida o‘quv darslari o‘tkaziladi.

Shuningdek, davlat bayramlari, tarixiy tadbirlar orqali o‘quvchilarga Xitoyning milliy an’analari va qadriyatlari o‘rgatiladi. O‘zbekiston va Xitoyda ta’lim tizimi orqali yoshlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish borasida ko‘p jihatdan o‘xshashliklar mavjud. Ikkala davlatda ham ta’lim jarayoni milliy madaniy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, u yosh avlodning milliy o‘ziga xosligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Xitoyda kollektiv g‘oyalar va intizomga katta e’tibor berilsa, O‘zbekistonda esa shaxsiy o‘zini anglash va erkin fikrlashga ham katta ahamiyat qaratilgan. Bu ikki tizimning o‘zaro tajriba almashishi ta’limda ma’naviy tarbiya samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin[1].

Yangi O‘zbekistonimizning istiqboli ko‘p jihatdan yoshlarning salohiyatiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalashga bog‘liq. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Boshqacha qilib aytganda, yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash, ularda to‘g‘ri munosabatni shakllantirish, ularning ruhan tetik shaxs sifatida rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish zarurati bosh maqsadlardan biridir.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi maktablarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning 51,3 %ini o‘g‘il bolalar tashkil etmoqda. Jami o‘quvchilardan: o‘g‘il bolalar -3,2 million nafar (51,3 %) qiz bolalar – 3,1 million nafar (48,7 %)ni tashkil etgan[2]. Yurtimizda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar soni yildan yilga oshib bormoqda. Bolalar soni ko‘paygani sari yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi. Pedagoglarlar ta’lim bilan bir qatorda axloqiy qadriyatlarni ham o‘rgatib borishadi.

Bu tadqiqotda bolalarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda pedagogik yondashuvlarning ahamiyati ham ko‘rib chiqiladi. Pedagoglar, ota-onalar va jamiyat o‘rtasida hamkorlikda axloqiy targ‘ibot va tarbiya jarayonlari samarali bo‘lishi mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarning axloqiy qadriyatlarni to‘g‘ri tushunishlari va ularga amal qilishlari uchun maktabda muhit yaratish zarur. Tadqiqotda axloqiy tarbiya metodlari va usullari, shu jumladan, hikoyalar, muammoli vaziyatlar, o‘yinlar, rolli o‘yinlar va boshqa interaktiv usullar orqali bolalarning axloqiy qarashlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari tahlil qilinadi.

Tadqiqotda, shuningdek, axloqiy qadriyatlarning bolalar psixologiyasiga mos ravishda shakllanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar ham ko‘rib chiqiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun pedagoglarning psixologik bilimlarga ega bo‘lishi, bolalar bilan ishlashda individual yondashuvlar va ularning ehtiyojlariga mos metodlardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi.

Axloqiy qadriyatlar faqatgina umumiy ta’lim jarayonlarida emas, balki bolalarning shaxsiy hayotida ham o‘z aksini topishi zarur. Maktabda o‘rganilgan axloqiy tushunchalar, oilada va jamiyatda mustahkamlanishi lozim. Shuning uchun o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida mustahkam aloqalar o‘rnatilishi kerak.

Shuningdek, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda madaniy va milliy xususiyatlar ham e’tiborga olinishi kerak. Har bir millatning o‘ziga xos axloqiy normalari va qadriyatlari mavjud, shuning uchun ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar ham inobatga olinishi zarur. «Rostgo‘ylikni o‘rganish testi», «Do‘stlarga yordam berish», «Kattalarga hurmat darajasini o‘rganish testi»da respondentlar xulq-atvor turlari bo‘yicha natijalar aniqlandi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish mavzusida Rossiyalik olimlardan A.B.Усачеванинг «Восприятие межличностных отношений в семье детьми младшего школьного возраста[3]» ilmiy ishida boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar nuqtai nazaridan oiladagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari tahlil qilingan.

L.V. Kuznetsovaning «Диагностика и коррекция чуства одиночества детей младшего школьного возраста[4]» ilmiy ishida kichik maktab yoshidagi bolalarning yolg‘izlik tuyg‘usini tashxislash va tuzatish usullari o‘rganilgan, «**Внутриличностный конфликт у детей младшего школьного возраста**» maqolada boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo ziddiyatlarni kelib chiqish sabablari keltirilgan,

N.N. Selimovaning «**Психолог-педагогическая характеристка младшего шлольного возраста**[5]» maqolasida boshlang‘ich maktab yoshining asoslarini ochib beradi, ijodiy fikrlashni rivojlantirish bosqichlarini o‘rganadi, bolada o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengishning asosiy yo‘nalishlarini ochib beradi. «Age features of children of primary school age: primary school pedagogy» boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlari, aqliy rivojlanishida kechikish (CPD) bo‘lgan o‘quvchini tarbiyalash va eshitish qobiliyati buzilgan bolani tarbiyalashda nimalarga alohida e’tibor berish kerak. Bularning barchasi ushbu maqolada muhokama qilinadi.

A.A. Guziyeva «Features of primary school age[6]» nomli maqolasida boshlang‘ich maktab yoshining xususiyatlari tasvirlangan, oilaviy munosabatlar tushunchalarini, ular qanday qurilganligini, qanday amalga oshirilishini, shuningdek, boshlang‘ich maktab yoshining xususiyatlarini ko‘rib chiqilgan.

O.V. Yefremenko «**Младший школьный возраст**[7]» nomli maqolada yosh bosqichining yetakchi faoliyati, ushbu yoshdagi o‘quv faoliyati motivlari, yosh o‘quvchining biologik xususiyatlari, ma’lum bir yosh davridagi neoplazmalar, boshlang‘ich maktab yoshidagi kognitiv jarayonlarning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish: idrok, e’tibor, xotira, tasavvur va fikrlash jihatlari o‘rganilgan.

---

[1] Talipova Sh.H. «Xitoy ta’limi bilan O‘zbekiston ta’limida ma’naviy qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga singdirishning o‘zaro o‘xshashlik tomonlari»// scientific-methodical journal. 2025. 12-16 b.

[2] Maktablarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar soni 6 milliondan oshdi // https://kun.uz/17543192#!

[3] Усачева А.В. Восприятие межличностных отношений в семье детьми младшего школьного возраста: Avtoreferat. Pedagogika fanlari doktori 2014. – 232 b.

[4] Кузнецова Л.В. Диагностика и коррекция чуства одиночества детей младшего школьного возраста: Avtoreferat. Pedagogika fanlari doktori – Vladikavkaz: 2006. – 24 b.

[5] Селимова Н.Н Психолог-педагогическая характеристка младшего шлольного возраста: Avtoreferat. Pedagogika fanlari doktori 2017. – 150 b.

[6] Гузиёва А.А. Features of primary school age // art-talant publikatsi. 2021. –189 b

[7] Ефременко О.В. Младший школьный возраст // xalqaro konf. 2023. –125-129

O‘zbek olim va psixologlaridan A.A. Jumabayeva «Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar xulq atvorining psixologik xususiyatlari[8]» nomli ilmiy ishda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda xulq atvor va ular ta’sirida o‘zgargan xarakterdagi adaptiv hislatlar bo‘lib, ularning orasida ma’naviyatni, milliy urf-odatlar ta’sirida o‘zgargan tushuncha, munosabat va ijtimoiy xulqqa aloqador sifatlar keltirilgan.

S.X. Mirzayeva, D.A. O‘ralovalarning «Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni shakllanishi[9]» nomli maqolasida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni shakllanishi sabablarini o‘rganishgan,

S.U. Maxmudovning «Kichik maktab yoshidagi bollarni ijtimoiylashuvining psixologik shartlari[10]» maqolasida kichik maktab yoshidagi bolalar ijtimoiylashivuning obektiv va subektiv omillarini aniqlash hamda bolaning oila va maktab sharoitida ijtimoiylashuvi borasida so‘z yuritilgan.

N.N.Sharipovaning «Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijodiy faoliyat jaroyoniga tayyorlashning pedagogik ahamiyati[11]» maqolasida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijodiy faoliyat jarayoniga tayyorlash, uning pedagogik ahamiyati, o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi, zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish usullari, yo‘llari va samaradorligi haqida fikrlar yuritilgan.

M.N. A’zamova, N.U. Egamberdiyevalarning «Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasida milliy qadyatlarning o‘rni[12]» maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni tarbiyalashda qadriyatlarning o‘rni tasvirlangan,

S. Qurbonovaning «Kichik maktab yoshidagi bollarda aqliy intelektning rivojlanishi[13]» maqolasida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda aqliy va o‘quv materialini o‘zlashtirish imkoniyatlariga tahliliy yondashuvlar asosida munosabat bildirilgan. Ta’limning mazmuni o‘quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi o‘z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog‘liqligi munosabatlar orqali bayon qilingan,

M. Axmedova «Social psychological characteristics of improving the education process of primary school students[14]» maqolasida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari haqida nazariy ma’lumotlar, shuningdek, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv jarayonini rivojlantirish, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Kichik maktab yoshidagi bolalarning axloqiy qadriyatlari asosan oila, maktab va jamiyat orqali shakllanadi. Bu yosh davrida ular kattalarga taqlid qilishga moyil bo‘lib, ota-ona, o‘qituvchi va do‘stlarining xulq-atvorini o‘zlashtiradilar. Taqlid orqali axloqiy qadriyatlarni o‘rganish jarayonida bolalarda halollik, hurmat, yordam ko‘rsatish, va o‘zgalarga e’tiborli bo‘lish kabi qadriyatlar rivojlanadi. Shu sababli, kattalarning bolalar oldidagi xulq-atvori juda katta ahamiyatga ega.

Ularga yoshligidan quyidagi tushunchalar tushuntirilishi lozim: bola buni tushunolmaydi deb o‘ylash noo‘rin. Yiqilgan bolaga turishga yordam berish, o‘simliklar va hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish, o‘yinchog‘ini do‘stiga berish, tik turgan kishiga joy berish va eng muhimi, boshqalarga ko‘rsatilgan xizmatdan zavqlanishni o‘rgatish kerak. Kamtarlik, to‘g‘rilik, halollik va quvnoqlik xususiyatlarini o‘zida tarbiyalash. Ushbu xususiyatlar har tomonlama sog‘lom shaxsni tarbiyalashning eng muhim omillaridan biridir.

Kamtarlik har bir insonning eng muhim va olijanob fazilatlaridan biridir. U asosan maktab yoshidan boshlab tarbiyalanadi. Ammo maktabgacha yoshdan boshlab bolalarga kamtarlik tuyg‘usini singdirish, manmanlik, takabburlik va maqtanishdan xalos bo‘lish kerak. Maktab yoshdagi bolalar o‘zlarini boshqa bolalardan ustun qo‘yishga harakat qilishadi. Ba’zan u ota-onasining kasbi bilan maqtanishni ham yaxshi ko‘radi. Bunday holda, bolalarning ota-onalari bilan tegishli ishlarni bajarish, har bir kasbning zarurligi va ahamiyatini aniq misollar bilan tushuntirish kerak. Agar bolalar ba’zi ishlarni bajara olmasalar va boshqalarni kamsitsalar, o‘qituvchi bolaga o‘zini o‘zi qadrlash mumkin emasligini bilmaydigan o‘rtog‘iga o‘rgatish kerakligini anglatadi. Poklik va rostgo‘ylikni tarbiyalash yolg‘on va insofsizlikning paydo bo‘lishiga qarshi profilaktika va kurash bilan uzviy bog‘liqdir.

Maktab ta’lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda tushuntirish va taqlid qilish usulidan foydalanish katta natija beradi.Tushuntirish odatda bolalarga yangi axloqiy tushunchalar, normalar, axloqiy qonunlarni taqdim etishda qo‘llaniladi. Maktab yoshdagi bolalarni tushuntirish jonli so‘z va kattalar misoliga asoslanadi.

Psixologik jihatdan qaraganda, kichik maktab yoshidagi bolalar axloqiy tushunchalarni konkret va amaliy vaziyatlar orqali o‘zlashtiradilar. Ularning axloqiy rivojlanishi asosan konkret operatsiyalar bosqichiga to‘g‘ri keladi, ya’ni ular ko‘proq aniq vaziyatlarga asoslanib xulosa chiqaradilar va umumiy axloqiy tamoyillarni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli, ularga axloqiy qadriyatlarni tushuntirishda qiyin so‘zlar va murakkab tushunchalardan foydalanmasdan, amaliy hayotiy misollar keltirish samarali bo‘ladi. Masalan, kattalarga qo‘lini ko‘kragiga qo‘yib «Salom berishi» va hokazo. Kichik yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun ta’lim jarayonida o‘yinlardan foydalanish juda samarali usul hisoblanadi.

Psixologlar tomonidan aniqlanishicha, o‘yin jarayonida bolalar tezroq o‘zlashtirishadi va qiyin tushunchalarni o‘yin orqali yanada osonroq anglaydilar. Masalan, jamoaviy o‘yinlar orqali ularga hamkorlik, o‘zaro yordam va muloqot qilish kabi ijtimoiy qadriyatlarni singdirish mumkin. Bundan tashqari, hikoyalar va ertaklar orqali ham axloqiy qadriyatlarni bolalarga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olgan holda, o‘qituvchi maktab yoshdagi bolalarning barcha guruhlarida axloqiy mavzularda hikoya va ertaklardan foydalanishi mumkin. Suhbat uchun tanlangan ertak yoki hikoyaning mazmuni yorqin, tushunarli va bolaning hissiy qo‘zg‘alishiga yetarlicha ta’sir qilishi kerak.

Axloqiy mavzulardagi ertaklardan misollar ko‘rsatib, bolalar axloq normalari va qoidalarini, ijobiy xulq-atvor shakllarini o‘rganadilar. Maktabda bolalarning axloqiy tajribasini kengaytirish, xulq-atvorning axloqiy sabablarini aniqlash o‘qituvchidan aql-idrokni talab qiladi. Ertak

[8] Jumabaeva.A.A. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar xulq atvorining psixologik xususiyatlari // BMI. 2015. – 69 b.

[9] Mirzayeva.S.X. O‘ralovalar.D.A. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni shakllanishi // xalqaro onlayn konf. 2023. –202-208 b.

[10] Maxmudov.S.U. Kichik maktab yoshidagi bollarni ijtimoiylashuvining psixologik shartlari // ilmiy maqola // JDPU. 2024. –201 b.

[11] Sharipova N.N. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijodiy faoliyat jaroyoniga tayyorlashning pedagogik ahamiyati // BuhDU. Образование и инновационные исследования. 2022. – 209-212 b.

[12] A’zamova.M.N. va Egamberdiyeva N.U. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasida milliy qadyatlarning o‘rni // onlayn xalqaro konf. – 88-91 b.

[13] Qurbonova S. Kichik maktab yoshidagi bollarda aqliy intelektning rivojlanishi // onlayn ilmiy maqola. FarDU. 2022. – 73-79 b.

[14] Axmedova M Social psychological characteristics of improving the education process of primary school students // International Scientific Journal Science and Innovation. 2023. – 582-585 b.

qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qilish jarayonida bolalar o‘z fikrlarini bildirishni o‘rganadilar. Ertak qahramonlarining har bir harakati ongli ravishda, axloq qoidalari doirasida amalga oshiriladi. Badiiy adabiyotlarni o‘qish, badiiy asarlar va amaliy san’at buyumlarini tomosha qilish, multfilmlarni tomosha qilish, musiqa tinglash va qo‘shiq aytish bolalarda estetik tuyg‘uni uyg‘otadi, shu bilan birga axloq qoidalari va me’yorlarini o‘zlashtirdi.

Bolalarning axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvorini baholashga xizmat qiladigan «Rostgo‘ylikni o‘rganish» so‘rovnomasi orqali ularning halollik va vijdonlilik darajasi aniqlanadi. Ushbu metodika bolalarning haqiqatni gapirishga moyilligi va yolg‘on gapirishga qanday munosabatda ekanligini o‘rganishga yordam beradi.


«Do‘stlarga yordam berish» so‘rovnomasi bolalarning mehribonligi, hamdardlik hissi va jamoadagi o‘zaro munosabatlarini baholashga qaratilgan. Ularning do‘stlariga yordam berishga tayyorligi, hamkorlikka ochiqligi va ijtimoiy faolligi aniqlanadi.

«Kattalarga hurmatni o‘rganish» so‘rovnomasi esa bolalarning odob-axloq qoidalariga rioya qilish darajasini, ota-onalar, o‘qituvchilar va kattalar bilan qanday munosabatda bo‘lishini baholaydi. Bu metodika yordamida ularning tarbiyalanganlik darajasi va hurmat bilan muloqot qilish qobiliyati o‘rganiladi.

Ushbu metodikalar natijalariga tayangan holda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va axloqiy fazilatlarning qanchalik shakllanganligini aniqlash va ularni rivojlantirish bo‘yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

NATIJALAR

«Rostgo‘ylikni o‘rganish», «Do‘stlarga yordam berish», «Kattalarga hurmatni o‘rganish» so‘rovnomalari 1-4-sinflar o‘rtasida o‘tkazildi. Natijalar quyidagi rasmda ifodalangan.



1-rasm. Rostgo‘ylikni o‘rganishdan umumiy olingan natijalar (n=100)

«Rostgo‘ylikni o‘rganish», «Do‘stlarga yordam berish», «Kattalarga hurmatni o‘rganish» so‘rovnomalari bo‘yicha olingan umumiy natijalarga ko‘ra, Rostgo‘ylikni o‘rganish so‘rovnomasi bo‘yicha 1-sinf o‘quvchilaridan olingan natijalar 40 %ni qayd etdi. 1-sinf o‘quvchilari hali rostgo‘ylikning muhimligini to‘liq tushunmaydigan yoshda, bu esa ularning 40 % darajasida qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ularni rostgo‘ylikka o‘rgatish uchun jazodan ko‘ra rag‘batlantirish, tushuntirish va ijobiy namuna ko‘rsatish samaraliroq bo‘ladi. Bu yoshda bolalarga rostgo‘ylikni o‘yinlar, ertaklar va hayotiy misollar orqali tushuntirish foydali bo‘lishi mumkin.

Do‘stlarga yordam berish so‘rovnomasi bo‘yicha esa olingan natijalar 65 %i tashkil qildi. Kichik yoshdagi bolalar ijtimoiylashuv jarayonida bo‘lib, do‘stlik va hamkorlik ularga tabiiy xulq-atvor sifatida shakllanadi. Ular ko‘pincha birgalikda o‘ynash, o‘zaro yordam berish va do‘stlari bilan birga bo‘lishdan zavqlanishadi. Do‘stlariga yordam berish orqali o‘zlarini guruhning bir qismi sifatida his qilishadi.

Kattalarga hurmatni o‘rganish so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, 70 %ni ko‘rsatdi. Odatda kichik yoshdagi bolalar ko‘pincha ota-onalar va ustozlarning ko‘rsatmalariga ergashishadi. Ota-onalar odatda bolalarga «Kattalarga hurmat bilan gapir!», «O‘qituvchingni tingla!», «Bobongga hurmat ko‘rsat!» kabi nasihatlar berishadi. Bolalar atrofdagilar tomonidan maqtov olishni yoqtirganlari uchun kattalarga hurmat qilishga intilishadi.

2-3-sinf o‘quvchilari do‘stlarga yordam berish so‘rovnomasi bo‘yicha esa olingan natijalar 55 % - 60 %i natijani qayd etdi. 2-3-sinf bolalari ijtimoiy guruhlarda harakat qilishni davom ettirishadi va do‘stlariga yordam berish ular uchun hali ham muhim. Jamoaviy o‘yinlar va sinf ichidagi vazifalar hamkorlik qilishni rag‘batlantiradi. O‘qituvchilar va ota-onalar «yaxshi bola bo‘lish» tushunchasini singdirishadi, bu esa bolalarni yordam berishga undaydi.

Kattalarga hurmatni o‘rganish so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, 68 % - 72 %i barqaror natijani ko‘rsatdi. 2-3-sinf bolalarida kattalarni hurmat qilish hissi hali ham kuchli, chunki ular o‘qituvchi, ota-ona va boshqa kattalar oldida itoatkor bo‘lishga odatlangan. Tarbiyaning ta’siri davom etadi, va madaniy qadriyatlar ularni hurmat qilishga undaydi. Kattalarning fikri hali ham ular uchun muhim, ular maqtov va rag‘batni yaxshi ko‘rishadi.


Rostgo‘ylikni o‘rganish so‘rovnomasi bo‘yicha 2-3-sinf o‘quvchilaridan olingan natijalar 45 % - 38 %i past natijani qayd etdi. 2-3-sinf bolalari yolg‘onning oqibatlarini tushunishni boshlashadi, shu sababli rostgo‘ylik darajasi ozgina oshishi mumkin. O‘qituvchilar va ota-onalar «yolg‘on gapirish yomon» deb uqtirishadi, bu esa bolalarni rostgo‘y bo‘lishga undaydi. Ammo ular yolg‘onning ba’zi hollarda «foydali» bo‘lishi mumkinligini ham tushuna boshlashadi, masalan, jazodan qochish yoki muammolardan qutulish uchun.

Rostgo‘ylikni o‘rganish so‘rovnomasi bo‘yicha 4-sinf o‘quvchilaridan olingan natijalar ko‘ra, 30 %i past natija aniqlandi. Bolalar tushuncha jihatidan ancha rivojlanishadi va ba’zan o‘z foydalarini o‘ylab, haqiqatni yashirishlari mumkin. Shu bilan birga, o‘zaro ishonch tushunchasi shakllanadi, shuning uchun ular do‘stlari yoki o‘qituvchilarga nisbatan rostgo‘y bo‘lishga harakat qilishadi.Agar bola atrofidagi kattalar yolg‘on gapirayotganini ko‘rsa, u ham shunday qilishga moyil bo‘ladi.

Do‘stlarga yordam berish so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalar 35 %i past natijani ko‘rsatdi. Bunda do‘stlarga yordam berishning pasayishi tabiiy jarayon, chunki bolalar mustaqillik va raqobat muhitiga ko‘proq moslashishadi. Ular o‘z manfaatlarini ustun qo‘ya boshlashadi, shu sababli yordam berish har doim ham muhim deb hisoblanmaydi. Raqobat va ijtimoiy guruhlarning shakllanishi yordam darajasiga ta’sir qiladi, bolalar faqat o‘z do‘stlariga yordam berishga moyil bo‘lishadi. Buning oldini olish uchun kattalar bolalarga hamkorlik va mehribonlikning muhimligini tushuntirishlari, yordam berishning faqat boshqalarga emas, balki o‘zlariga ham foyda keltirishini ko‘rsatishlari kerak.

Kattalarga hurmatni o‘rganish so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, 80 %i yuqori natijani qayd etdi. Bunga sabab, kattalarni hurmat qilish 4-sinf bolalari orasida juda yuqori, chunki bu yoshda ular hali ham ijtimoiy qoidalarga rioya qilishga moyil. Ular o‘zlarini «yaxshi bola» sifatida ko‘rsatishni xohlashadi va kattalar ularning hayotida muhim o‘rin tutishini anglab yetishadi. Maktab va oila tarbiyasi bu xulq-at-

vorni shakllantirishda katta rol o‘ynaydi, shuningdek, jazodan qochish instinkti ham ta’sir qiladi. Kelajakda o‘smirlik davriga kirishganda, bu hurmat darajasi pasayishi mumkin, chunki o‘smirlar mustaqillikka intila boshlaydi.



2-rasm. Rostgo‘ylikni o‘rganishda qizlarda olingan natijalar


Rostgo‘ylikni o‘rganish so‘rovnomasi bo‘yicha 1-sinf qizlaradan olingan natijalar ko‘ra 35 %i past natijani qayd etdi. Ba’zi hollarda, bolalar uchun rostgo‘ylik va yolg‘onchilikni farqlashda chalkashliklar yuzaga kelishi mumkin. Ular ma’lum holatlarda yolg‘onni yengillashtiruvchi yoki himoya qiluvchi vosita sifatida ko‘rishi mumkin. Shuningdek, aynan shu so‘rovnoma bo‘yicha 2-sinf qiz bolalarda ham olingan natijalar 45 %i past natijani ko‘rsatdi. Bunga sabab yuqorida aytib o‘tilgan fikrlar. 4-sinf qizlari bu so‘rovnomada 50 %i o‘rta darajada natija qayd etdi. Bunga sabab o‘quvchilarining o‘rta darajadagi natijalari, yoshga xos psixologik xususiyatlar, o‘qitish metodlari va ijtimoiy omillarning kombinatsiyasi natijasidir. Ularni yanada samarali o‘rgatish uchun interaktiv, tajriba asosidagi metodlar va ijtimoiy o‘zaro munosabatlarga ko‘proq’tibor qaratish mumkin.

Do‘stlarga yordam berish so‘rovnomasi bo‘yicha 1-sinf qiz bolalarda olingan natijalar 50 %i o‘rta darajani ko‘rsatdi. Bu yoshdagi bolalar hali o‘zlarini to‘liq tushunmaydilar va boshqalarga yordam berishning murakkab jihatlarini anglashda davom etmoqdalar. Boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rganish jarayonida, vaqt o‘tishi bilan, bolalar ko‘proq yordam ko‘rsatishga va boshqalarga empatiya bildirishga moyil bo‘ladilar.

Aynan shu so‘rovnoma bo‘yicha 2-3-4-sinflar deyarli bir xil 60 % - 65 %i nisbatan yuqoriroq natijani qayd etdi. Bu yoshda bolalar empatiya, o‘zaro yordam, va jamoaviy ishda ishtirok etish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirganlar. Ular do‘stlariga yordam berishga tayyor, ijtimoiy normativlarni anglashadi va o‘zaro munosabatlarda ijobiy rol o‘ynashni o‘rganmoqdalar. Shuningdek, oilaviy va maktab muhitining ham ijtimoiy xulq-atvorga ta’siri juda katta bo‘ladi. Bu natija, bolalarning yanada rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi.

Kattalarga hurmatni o‘rganish so‘rovnomasi bo‘yicha qiz bolalarda olingan natija 1-2-sinf o‘quvchilari deyarli bir xil 40 % - 45 %i past natijani ko‘rsatdi. Bu yoshdagi bolalar ko‘proq o‘z manfaatlariga, o‘z histuyg‘ulariga e’tibor qaratishadi va boshqalarga hurmat ko‘rsatish uchun ijtimoiy va emotsional rivojlanish jarayonida bo‘lishadi. Kattalarga hurmatni o‘rganish uchun ular ko‘proq vaqt va tajribaga ega bo‘lishlari kerak. Ijtimoiy ta’sirlar, oila va maktabdagi muhit, shuningdek, o‘qitish uslublari ham bu jarayonda katta rol o‘ynaydi.

3-4-sinflarda ham xuddi shunday farq bilan 50 % - 55 %i o‘quvchilar o‘rta darajadagi natija aniqlandi. Ular o‘zlarining shaxsiy qadr-qimmatini va boshqalar bilan munosabatlarini anglashni boshlaydilar, lekin hali kattalarga hurmat ko‘rsatishning murakkab jihatlarini to‘liq o‘zlashtirishlari kerak. Ijtimoiy ta’sirlar, o‘qitish usullari va oilaviy muhit ham bu jarayonda katta rol o‘ynaydi. Bolalarga hurmatni o‘rganish uchun vaqt va tajriba zarur bo‘ladi.



3-rasm. Rostgo‘ylikni o‘rganishda o‘g‘il bolalarda olingan natijalar

Rostgo‘ylikni o‘rganish so‘rovnomasi bo‘yicha 1-3-sinf o‘g‘il bolalardan olingan natijalar ko‘ra 35 % - 45 %i past natijani qayd etdi. Bu yoshdagi bolalar hali o‘z xulq-atvorini boshqarish va boshqalarning ehtiyojlarini o‘zlarining ehtiyojlari bilan solishtirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shuningdek, ijtimoiy muhit, oila va o‘qitish metodikasi ham bu jarayonda katta rol o‘ynaydi. Ularning rostgo‘ylikni to‘liq o‘rganishi uchun vaqt, amaliy tajriba kerak bo‘ladi.

Aynan shu so‘rovnoma bo‘yicha 2-4-sinf o‘g‘il bolalarda 45 % - 50 %i o‘rta daraja deyarli bir xil natija aniqlandi. Bunga sabab bolalar o‘rtasida rostgo‘ylikni tushunish va unga rioya qilishga bo‘lgan qiziqish va e’tibor hali mukammal emasligini bildiradi. Bu, ko‘pincha, oilada yoki maktabda bu qadriyatlarni yetarlicha o‘rgatishning yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Do‘stlarga yordam berish so‘rovnomasi bo‘yicha 1-2-sinf qiz bolalarda olingan natijalar 50 % - 60 %i o‘rta darajadagi natija qayd etildi. Bu yoshdagi bolalar do‘stlarga yordam berish, ularning o‘zaro munosabatlarida muhim rol o‘ynaydi. Biroq, bu yoshdagi bolalar hali ham o‘z manfaatlarini boshqalarnikiga qaraganda birinchi o‘rinda qo‘yishlari mumkin, shuning uchun do‘stlarga yordam berishdan ko‘ra o‘z manfaatlariga ko‘proq e’tibor berishlari mumkin.

Shu so‘rovnoma bo‘yicha 3-4-sinf o‘quvchilari 70 %i yuqori bir xil natijani qayd etishdi. Bu yoshdagi bolalar ijtimoiy guruhda faol ishtirok etishni va boshqalar bilan birga ishlashni o‘rganadilar. Do‘stlarga yordam berish, ularning guruhdagi rolini anglash va jamoaviy ishda yordam ko‘rsatish orqali shakllanadi.

Kattalarga hurmatni o‘rganish so‘rovnomasi bo‘yicha o‘g‘il bolalarda olingan natija ko‘ra 40 %ida past daraja aniqlandi. O‘g‘il bolalar 1-2-sinf yoshida o‘zini boshqalardan ajratish va mustaqil fikr yuritishni o‘rganayotgan bo‘lishadi. Bu yoshda bolalar ko‘proq o‘z manfaatlarini va ehtiyojlarini birinchi o‘ringa qo‘yishga moyil bo‘ladilar. Kattalarga hurmatni o‘rganish va ularni qadrlash, ularga bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish ko‘proq vaqt va rivojlanish darajasini talab qiladi.

Bu so‘rovnoma bo‘yicha eng yuqori foizni 4-sinf o‘quvchilari 55 %i o‘rta daraja natijani ko‘rsatdi. Bolalar o‘zlariga to‘g‘ri ijtimoiy o‘rnaklarni qidiradilar, bu o‘rnaklarning katta qismi oiladan keladi. 4-sinf yoshidagi

bolalar o‘z oilasida kattalarga hurmatni qanday ko‘rsatishni o‘rganadilar va bu ularga hurmatni amalda qanday ko‘rsatishni tushunishga yordam beradi. 55 %i natija, oilaviy muhitda kattalarga hurmat ko‘rsatilgan, lekin bu haqdagi qadriyatlarning bolalar uchun to‘liq anglanmasligi yoki ijtimoiy muhitda kattalarga hurmatni ko‘rsatish bo‘yicha ko‘proq qo‘llab-quvvatlash kerakligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish murakkab va bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayondir. Ushbu yosh davrida bolalar atrof-muhitni, ayniqsa kattalarning xulq-atvorini kuzatish va taqlid qilish orqali axloqiy me’yorlarni o‘zlashtiradilar. Bolalarning axloqiy tushunchalari ularning oila, maktab va jamoadagi tajribalariga bog‘liq bo‘lib, pedagogik va psixologik ta’sir jarayonlari bu shakllanishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchilar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari shuni ko‘rsatdiki, halollik, mehribonlik, hurmat va hamkorlik kabi qadriyatlarning shakllanishi turli omillarga bog‘liq. Xususan, «Rostgo‘ylikni o‘rganish» so‘rovnomasi bolalarning haqiqatga bo‘lgan munosabatini, «Do‘stlarga yordam berish» metodikasi esa ularning hamdardlik va ko‘mak berishga tayyorlik darajasini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, «Kattalarga hurmatni o‘rganish» so‘rovnomasi orqali bolalarning odob-axloq normalarini qanchalik o‘zlashtirganligi baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchi va ota-onalar tomonidan berilgan tarbiya sifati axloqiy fazilatlarning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Psixologik jihatdan olib qaralganda, bu davrda bolalarda axloqiy qadriyatlarni anglash hali mustahkam shakllanmagan bo‘lib, ular ko‘pincha tashqi baholarga va rag‘batlantirish-tanbeh tizimiga tayanadilar. L.V.Kuznetsovaning o‘z tadqiqotida kichik maktab yoshidagi bolalar uchun yolg‘izlik hissi va axloqiy qadriyatlarning shakllanishi o‘zaro bog‘liq ekanligini ta’kidlab, o‘quv muhitida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini ko‘rsatadi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, bolalarning ijtimoiy izolyatsiyaga tushib qolishi axloqiy rivojlanish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

N.N.Saidova esa kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini o‘rganib, bu davrda axloqiy tushunchalar endigina shakllana boshlashini va ularni rivojlantirish uchun maxsus ta’limiy va tarbiyaviy yondashuvlar zarurligini ta’kidlaydi. Bolalarning xulq-atvori va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘qituvchilarning didaktik yondashuvlari muhim o‘rin tutishini qayd etadi.

A.V.Usacheva oiladagi o‘zaro munosabatlarning kichik maktab yoshidagi bolalar axloqiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganib, bolalar oiladagi tarbiyaviy uslub va qadriyatlarga asoslanib, jamiyatda o‘z o‘rnini topishini ta’kidlaydi. U oiladagi iliq munosabatlar, ota-onaning e’tibori va axloqiy qadriyatlarning bola ongida shakllanishiga qanday ta’sir qilishini ochib bergan.

Umuman olganda, bu natijalari kichik maktab yoshidagi bolalarda axloqiy qadriyatlarning rivojlanishi ularning tarbiyaviy muhitiga, shaxsiy tajribalariga va psixologik xususiyatlariga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Kelgusida bu borada yanada samarali pedagogik strategiyalar ishlab chiqish va o‘quvchilarning axloqiy kamolotini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha izchil tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud.

XULOSA

Tajriba sinovidan kelib chiqqan holda umumiy xulosa shuki, Bolalarda rostgo‘ylikni shakllantirish jarayoni uzoq davom etadigan tabiiy rivojlanish bosqichlaridan biridir. Kichik yoshdagi bolalar hali rostgo‘ylik tushunchasini to‘liq anglab yetmagan bo‘lishadi. Ayniqsa, 1-3-sinflarda rostgo‘ylik darajasi past bo‘lib, 4-sinfga kelib, bu ko‘rsatkich yanada pasaygan. Bu esa, bolalarning o‘z manfaatlarini himoya qilish va ijtimoiy moslashuv jarayoniga ko‘proq e’tibor qaratishlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ularni rostgo‘ylikka o‘rgatish uchun jazodan ko‘ra, rag‘batlantirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish usullari samaraliroq hisoblanadi. Ota-onalar va o‘qituvchilar bolalar bilan ochiq muloqot qilishlari, ularga rostgo‘ylikning muhimligini tushuntirishlari va shaxsiy namunalar orqali to‘g‘ri yo‘nalish berishlari kerak.

Do‘stlarga yordam berish tendensiyasi ham yosh o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. 1-2-sinflarda bolalar bir-birlariga yordam berishga moyil bo‘lishsa, 4-sinfga kelib, bu ko‘rsatkich pasayadi. Bolalar mustaqillikni anglay boshlashadi va o‘z manfaatlariga ko‘proq e’tibor qaratishadi. Shu sababli, yordam berish qadriyatlarini bolalar ongida mustahkamlash uchun jamoaviy faoliyatlar, guruh bo‘lib ishlash va ijtimoiy loyihalar muhim ahamiyat kasb etadi. Sinf ichida hamkorlikka asoslangan o‘yinlar va topshiriqlar tashkil qilish, bolalarga yordam berishning nafaqat do‘stlik, balki jamiyat uchun ham muhimligini tushuntirish samarali bo‘lishi mumkin.

Kattalarga hurmat qilish darajasi esa yoshga qarab o‘zgarish tendensiyasiga ega. 1-2-sinf o‘quvchilarida bu ko‘rsatkich nisbatan past bo‘lsa, 4-sinfga kelib, sezilarli darajada ortgan. Bunga bolalarning atrof-muhitni yaxshi tushuna boshlashlari va ijtimoiy qoidalarga rioya qilishni muhim deb bilishlari sabab bo‘lishi mumkin. Oila va maktab muhitining bolalar hurmat darajasiga katta ta’siri bor. Kattalarga hurmatni oshirish uchun bolalarga shunchaki qoidalarni o‘rgatish kifoya emas, balki ularga hurmatning ahamiyatini tushuntirish, bu qadriyatni hayotiy misollar orqali ko‘rsatish zarur. Atrofdagi kattalar bolalarga hurmat bilan muomala qilganida, bolalar ham buni qabul qiladi va o‘z xulq-atvorlarida namoyon eta boshlaydilar.

Ushbu olingan so‘rovnomalar natijalariga ko‘ra, past natija ko‘rsatgan sinovchilar uchun rivojlantiruvchi dastur ishlab chiqildi va bu dasturdan so‘ng sinovchilar sifat ko‘rsatkichlari o‘rta darajaga ko‘tarildi. Dasturda o‘qitishning interaktiv usullari, ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish va individual yondashuvlarga katta e’tibor qaratildi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR

1. Кузнецова Л.В. Диагностика и коррекция чуства одиночества детей младшего школьного возраста: Avtoreferat. Pedagogika fanlari doktori – Vladikavkaz: 2006. – 24 b.

2. Селимова Н.Н Психолог-педагогическая характеристка младшего шлольного возраста: Avtoreferat. Pedagogika fanlari doktori. 2017. – 150 b.

3. Усачева А.В. Восприятие межличностных отношений в семье детьми младшего школьного возраста: Avtoreferat. Pedagogika fanlari doktori. 2014. – 232 b.

4. Axmedova M. Social psychological characteristics of improving the education process of primary school students // International Scientific Journal Science and Innovation. 2023. – 582-585 b.

5. A’zamova M.N. va Egamberdiyeva.N.U. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasida milliy qadyatlarning o‘rni // onlayn xalqaro konf. –88-91 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.05.2019 yildagi PQ-4307-son. https://lex.uz/ru/docs/-4320700

7. Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-dekabr, O‘zbekiston yoshlari forumida ishtiroki. https://daryo.uz/2020/12/25/

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.12.2018 yildagi 999-son. https://lex.uz/docs/-4097076?ONDATE=09.03.2019

9. Respublikasi Prezidentining 30.09.2024 PQ№346 sonli qarori. https://xalqtaliminfo.uz/document-show/114

10 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 16.08.1999 399-son. https://lex.uz/docs/-6576269

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0007-9512-432X

OILADAGI IJTIMOIY MUAMMOLARNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI



Munavvarxon Abdurashitova

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Ushbu maqolada jamiyatimizdagi oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, turli oilalarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolarga psixologik yechim topish, kelib chiqayotgan nizolarni oldini olish, uning salbiy oqibatlarini tushuntirish, yosh oilalarning ijtimoiy psixologik muammolarini o‘rganish, ajrimlarni oldini olish asosiy maqsad qilib olingan.

Tadqiqotda oila va uning jamiyatdagi o‘rni, insonlar hayotidagi ahamiyati hamda psixologik xususiyatlari tahlil qilindi. Turli oilalardagi turli munosabatlar, ajrimlarning kelib chiqish sabablari va omillari, nizolarni hal qilish usullari o‘rganildi. Oilalarda yuzaga keladigan ijtimoiy muammolar va ularni bartaraf etishda qo‘llaniladigan psixologik usullar keng tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Oila, muammo, nizo, muhit, hamkorlik, turmush, yoshlar, ma’naviyat, jamiyat, mahalla, meros, axloq, tarbiya, munosabat, daraja, oqibat, nikoh, turmush tarzi.

KIRISH

Jahon miqyosida oila va oilaviy munosabatlar, oilaviy zo‘ravonlik masalalari global muammo bo‘lib kelayotgani hammamizga ma’lum. Xorij olimlarining oilaviy muammolarni oldini olishga qaratilgan ilmiy izlanishlari va qarashlarida ham ushbu masala to‘liq tahlil etilgan. Oila quruvchilarning nikohga tayyor emasligi, oila masalalariga jiddiy e’tibor qaratmasligi, bir-birini tushunmasligi kabi turli sabablarga ko‘ra ko‘plab oilalarda nizoli vaziyatlar yuzaga kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida oilalarda, ayniqsa, yosh oilalarda ajrimlar sonining ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Oiladagi ajrimlar esa butun dunyo bo‘yicha zamonning eng muhim va dolzarb muammosi bo‘lmoqda. Dunyo bo‘yicha Portugaliya Ispaniya va Lyuksemburg oilaviy ajrimlar sonida eng yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda, u yerda har 100 ta oilaning o‘rtacha 85 yoki 90 nafari ajrashib ketadi. Oilalarda ajrim darajasi eng past bo‘lgan davlatlar esa Hindiston, Chili va Turkiya davlatlari hisoblanadi.

Mustaqil diyorimizda barcha sohada olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, yurt ravnaqi, mustaqil xalqning kelajakdagi yangi avlodlari uchun zamin bo‘lmoqda. Mustaqillikka erishgan birinchi kunimizdanoq, umuminsoniy va o‘zbekona oilaviy qadriyatlarimizni har tomonlama tiklashga, ularga chuqurroq nazar tashlashga katta imkoniyat yaratildi. Jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lgan oila deb atalmish muqaddas dargohni asrab-avaylash har bir insonning vazifasidir.

Har qanday davlatning ma’naviyatini yuksaltirish va uni tanitishda oilaning ahamiyati kattadir. Chunki insonning sof tuyg‘ulari, insoniylik fazilatlari jamiki yaxshi tushunchalar oiladan boshlanadi. Shu sababli bugungi kunda davlatimizda yosh oilalarga katta e’tibor qaratilmoqda, ularga har qanaqa sharoitlar yaratib berilmoqda, lekin afsuski yosh oilalarimiz ichida og‘riqli nuqtalar ham mavjud. Ajrashishlar soni kundankunga ortib bormoqda, bunga sabab yoshlarning erta turmush qurishi va keyinchalik kelisha olmay qolishi, qaynona-kelin munosabatlarining keskinligi va yana ko‘plab muammolar sabab bo‘lmoqda.

Hozirgi rivojlanayotgan jamiyatga har tomonlama sog‘lom fikrlaydigan, axloqiy pok, yuksak ma’naviy hislatlarga boy, imon-e’tiqodi butun, o‘z xalqi, o‘z ona Vataniga, oilasiga fidoiy, barkamol, yetuk shaxslar kerak. Bunda jamiyatda oilaning rolini oshirish uni yanada mustahkamlash, oiladagi sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish, yosh oilalardagi muammolar yuzasidan tadqiqot olib borish asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda «Oila – kichik Vatan, oila tinch bo‘lsa, Vatan tinch bo‘ladi»[1]. Shu bois yoshlarni oilaviy hayotga maqsadli tayyorlash ishlarini zamonaviy yondoshuvlar asosida tashkil etish taqozo etiladi. Buning uchun barcha hududlarda yosh kelin-kuyovlarga oilaning jamiyatda tutgan o‘rni, nikoh, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari, tinch va farovon oilani barpo etishda oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, oilada vujudga keladigan turli noaxloqiy holatlarning oldini olish va bartaraf etish yo‘llari, farzand tarbiyasida er-xotinning gender tengligi va boshqa masalalar yuzasidan bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish ham zarur. Eng muhim masalalardan biri bu qizlarni kelinlikka, onalikka, yigitlarni kuyovlikka, otalikka tayyorlash hisoblanadi. Kelinlik va kuyovlikning o‘ziga xos mahorati mavjud. Mana shu bilimlarni bugungi avlodlarga yetkazish, avlodlar uzviyligini ta’minlash, kelinlik va kuyovlik an’analarining zamonaviy qirralarini yoritish juda muhimdir.

Oilalardagi nizolarni hal qilishda milliy va ma’naviy qadriyatlarga suyanib, oilaning ta’lim-tarbiya salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda urf-odat va an’analarni saqlagan holda farzandlarni oilaparvar qilib tarbiyalash, oilalarda ma’naviy-axloqiy sog‘lom muhitni yaratish zarur. Shuningdek, yoshlar oila tushunchasi, er va ayollikning burch va mas’uliyatini to‘liq his etmasligi; ayrim ota-onalarning farzand tarbiyasi va ta’limiga mas’uliyatsizlik bilan qarashi; oilaning moddiy-ma’naviy holati: kamchilik, boriga qanoat qilmaslik, o‘zaro tushunish, sabr-toqatning yetishmasligi; er yoki xotinning xiyonati, ayolga nisbatan zo‘ravonlik; internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali oila qadriyatlariga yot bo‘lgan omillarning ta’siri kabi ijtimoiy masalalar ham o‘ta ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda oiladagi ijtimoiy muammolar va ularning psixologik yechimlari, bu yo‘nalishdagi tarixiy va qiyosiy amaliyot, psixologik jarayonlar, bu borada mahalla institutining tutgan o‘rni, an’anaviy qadriyatlar kabi masalalar olimlarimiz tomonidan keng o‘rganilgan.

Respublikamiz psixolog olimlardan M.G. Davletshin, V.M. Karimova, G‘.B. Shoumarov, E. G‘oziyev, F.A. Akromova, R.S. Samarov, U.B. Shamsiyev, B.X. Umarov, N.X. Lutfullayeva, D.K. Arapbayeva, N.A. Sog‘inov, X. Fayziyeva, M.H. Abdusamatov, I.A. Jabborov, X.K. Karimov, I.I. Raximova, U.S. Saribayeva, N.Soliyeva va boshqalar tomonidan ham mana shunday oila-nikoh munosabatlari, rivojlanishi, ijtimoiylashuvi, undagi ziddiyatlar, ajrimlar, oilada farzand tarbiyasi mavzularida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Oilada yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan ijtimoiy muammolar sabablarini aniqlash va ularning oldini olish masalalarini ijobiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularning kimlar o‘rtasida yuz berayotganligini farqlab olish kerak. Shu maqsadda oilaviy hayotga moslashish muammosi bo‘yicha «Rafiq va rafiqa munosabatini baholash shkalasi» (E. G‘oziyev metodikasi) va oilaviy munosabatlardagi ma’naviy axloqiy muhitni o‘rganishda, shaxsning xulq-atvorini tadqiq qilishda K. Tomasning «Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarini aniqlash» so‘rovnomasidan foydalanishni muvofiq deb bildik.

Ishimiz samarali o‘tishi uchun qulay ilmiy, tashkiliy va texnik sharoitlar yaratilishi kerak. Buni o‘tkazish va tajriba sinovlarni olib borish uchun tadqiqotda ishtirok etuvchi respondentlar guruhini aniqlash lozim. Jarayonda Farg‘ona viloyati Quva tumani bo‘yicha turli yoshdagi oilalardan 25 nafar juftlik tanlab olindi. Ikkita tadqiqot metodi uchun jami 50 nafar respondent jalb etildi. Ishlarni aniq rejalashtirish va amalga oshirish muddatlari belgilandi. Tadqiqotning nazariy bazasini yaratish uchun ilmiy adabiyotlar to‘plandi.

O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy hujjatlari, qaror va farmonlari o‘rganildi. Jarayon uchun Farg‘ona viloyati Quva tuman hokimligi Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i hamda tuman FHDYo bo‘limi mudirasi va xodimlari yordamidan foydalanildi. Zarur bo‘lgan va ma’lumotlarni tahlil qilish uchun kerakli texnik vositalar tayyorlandi. So‘rovnoma, trening dasturlar va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlandi. Respondentlarga tadqiqot to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etildi. Shundan so‘ng tanlab olingan respondentlar metodikaning yo‘riqnomalari bilan tanishtirildi. Ularga ishning maqsadi va usullari haqida tushuntirish berildi.

Tadqiqotni tinch va xotirjam muhitda o‘tkazish uchun barcha sharoitlar yaratildi. Suhbat va treninglar uchun maxsus xonalar ajratildi. Berilgan vaqt oralig‘ida har bir respondent so‘rovnoma varaqasini yo‘riqnoma asosida to‘ldirib berdi. Taqdiqiqot davomida qatnashuvchilar bilan yuzaga kelgan barcha savollarga oydinlik kiritildi. So‘rovnoma blankalari berildi va respondentlar javob berishdi. Tajriba sinovi o‘tka-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqidan. Surxondaryo.19.01.2018.https://www.xabar.uz

zish uchun alohida xona ajratildi va har bir kelgan juftliklarga tajriba olishdan maqsad nima ekanligi tushuntirib berildi. Shuningdek tadqiqot muvafaqqiyatli yakunlandi.

Oiladagi ijtimoiy muammolar va ularning psixologik yechimlarini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari oilaviy nizolarni kamaytirish, sog‘lom munosabatlarni shakllantirish va jamiyat barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Kelgusidagi tadqiqotchilar uchun quyidagi metodlar qo‘llaniladi.

Ijtimoiy muammola bo‘lgan oilalardagi stress va uni yengish yo‘llari yanada chuqurroq o‘rganish taqozo etiladi. Oila a’zolarining bir-biriga psixologik yordam ko‘rsatish usullarini takomillahtirish. Oila ichidagi kommunikatsiya strategiyalarini psixologik jihatdan o‘rganish taklif etiladi.

Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash (o‘zaro ishonch, mehr-muhabbat) samarali muloqot va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash oiladagi muammolarni o‘rganishni taqozo etadi. Oiladagi ijtimoiy muammolar turli omillar, jumladan, moliyaviy muammolar, ish bilan bog‘liq stresslar, qarama-qarshiliklar va turli ijtimoiy bosimlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Bu muammolar oilaviy a’zolarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ular o‘rtasida ishonch va o‘zaro tushunishni yo‘qotishga olib kelishi mumkin.

NATIJALAR


Ushbu ish bo‘yicha tanlangan ikkita metodika respondentlar orasida o‘tkazildi. Respondentlar Farg‘ona viloyati Quva tumanidagi turli oila juftliklaridan tanlab olindi va savollarga javob berdi. Quyidagi jadvalda «Rafiq va rafiqa munosabatini baholash shkalasi» (E. G‘oziyev metodikasi) bo‘yicha tahlil ifodasini ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval. Rafiq va rafiqa munosabatini baholash shkalasi» (E.G‘oziyev metodikasi)

№	Natijalar	Ayol *(N=25 nafar)*		Erkak *(N=25 nafar)*	
		5-7 yil tajribali oilalar			
		m	%	m	%
1	23-27 ball	13	52%	9	35%
2	18-22 ball	3	12%	5	20%
3	17 balldan kam	9	35%	11	44%

Bunda rafiq va rafiqa munosabatini baholash metodikasi bo‘yicha olingan umumiy natijalarga ko‘ra, rafiqa 23-27 oralig‘idagi ballni ayollar 52% natija qayd etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, respondentlar o‘z oilaviy turmushidan unchalik baxtiyor emas. Turmushdan qoniqish va xotirjamlik omilidan biri – o‘z shaxsiy xulq-atvorida berkinib yotadi, undan foydalanishga harakat qilishi lozim. Shu bois turmush o‘rtog‘iga ko‘proq mehr qo‘yishi, unga nisbatan ishqibozligini orttirishi lozim. Biroq respondentlarning xatti-harakati ularning hulq-atvoriga salbiy ta’sir etsa, u holda rafiq bilan jiddiyroq gaplashib olishga jazm qilinadi va oilada nizoni oldi olinadi. Keyingi respondentlar 18-22 oralig‘ida ball to‘pladilar va 12% natijani ko‘rsatdi. Demak, bu respondentlar o‘z nikohi yoki turmushidan mamnun, xotirjamlik va osoyishtalikni yoqtiradi. O‘xtin-o‘xtin bolalikdagi qadrdonlarini qumsaydilar. Ular hech qachon turmush ziddiyatlarini keltirib chiqarmaydi. Uning oilaviy hayotdagi norozilikka hech bir aloqasi yo‘q. Navbatdagi rafiqalar 17 dan kam bal to‘pladi va 35% yuqori natija aniqlandi. Bunday respondentlar gohida turmush yo‘ldoshi bilan nizo chiqaradi, lekin shunga qaramasdan turmushi yaxshi, muvaffaqiyatli. Shuning uchun ular turmushdan mamnun va tolei yorqin inson hisoblanadilar. Ushbu javoblardan ayollarda ustun holat oilaviy turmushdan baxtiyorlik darajasi unchalik emasligini anglatadi.

Endi yuqorida berilgan rasm bo‘yicha rafiq, erkak respondentlar natijalarini ko‘rib chiqamiz.




1-rasm. Rafiq va rafiqa munosabatini baholash metodikasi bo‘yicha olingan umumiy natijalar

Rafiq respondentlar 23-27 oralig‘ida ball to‘plab 35 foizi o‘rta natijani qayd etdi. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, erkaklar o‘z turmushidan to‘liq baxtiyor emaslar yoki u bilan bog‘liq qoniqarsiz his-tuyg‘ulari bor. Ular turmush o‘rtog‘lariga nisbatan ko‘proq mehr ko‘rsatish, hissiyotlarini ochiq ifoda etish va u bilan samimiyroq bo‘lishligi muhim.

Respondentlar 18-22 oralig‘ida ball to‘plab 20% past natijani ko‘rsatdi. Bu natija shuni anglatadiki, erkaklar o‘z turmushidan mamnun va barqaror hayotni qadrlaydi. Ular osoyishtalik va xotirjamlikni yaxshi ko‘radi, oilaviy hayotida katta muammolar yo‘q. Ular turmushidagi barqarorlik va muvozanatdan qoniqish hosil qiladi va oilaviy hayotini ijobiy deb baholaydilar.

Keyingi respondentlar 17 balldan kam ball to‘plab, 44% yuqori natijani qayd etdi. Bundan ko‘rininb turibdiki, erkaklar ba’zan turmush yo‘ldoshi bilan nizo chiqarishi mumkin, lekin bu uzoq davom etmaydi va jiddiy muammoga aylanmaydi. Ular oilaviy hayotini umumiy jihatdan yaxshi va muvaffaqiyatli deb hisoblaydi. Turmushida qiyinchiliklar bo‘lsa ham, ularni oddiy hayotiy holat sifatida qabul qiladilar va optimistik ruhda yashaydilar. Umuman olganda erkaklar oiladagi munosabatlarda, shaxslararo muloqotlarda, nizoli holatlarni amalga oshirishlari mumkin bo‘ladi.

K. **Tomasning «Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarini aniqlash» so‘rovnomasi**, insonlarning nizolarni hal qilish uslublarini, ya’ni qanday strategiyalarni qo‘llashini tahlil qilishga yordam beradi. Shaxsning qaysi strategiya yoki usulga moyil bo‘lishi, uning turmush tarzini, psixologik holatini va boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, shaxsiy va ish munosabatlarini yaxshilashda foydali bo‘lishi mumkin.



2-rasm. K.Tomasning «Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarini aniqlash» so‘rovnomasining umumiy tahlil natijalari

K. Tomasning «Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarini aniqlash» so‘rovnomasining rasmda keltirilgan beshta shkalasida raqobat, hamkorlik, kelishuv, vaziyatdan qochish va moslashuvning turli shaxslar tomonidan turli nizoli vaziyatlarda qanday qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Ushbu shkalalarni rafiqa va rafiqning munosabatlariga nisbatan psixologik tahlil qilish orqali, ularning oilaviy hayotidagi xulq-atvorini va qaror qabul qilish usullarini yaxshiroq tushunish mumkin. Har bir strategiya har ikkala shaxs uchun qanday natija berishini ko‘rib chiqamiz.

So‘rovnomaning umumiy tahlil natijalariga ko‘ra, raqobat shkalasi bo‘yicha respondent rafiqalar o‘rta darajani 55 foizni qayd etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ayollar o‘z pozitsiyasini himoya qilishga moyil. Ular ba’zan o‘z manfaatlarini boshqalarning manfaatlaridan ustun qo‘yishligi, ayniqsa, oilaviy nizolarda, o‘z nuqtayi nazarini kuchli himoya qilishga qarshi chiqishida seziladi. Ayyollarning raqobatni qo‘llash darajasi o‘rtacha bo‘lib, u oilaviy bahs-munozaralarda ba’zan o‘z manfaatini ta’minlashga intiladi.

Navbatdagi hamkorlik shkalasi bo‘yicha respondentlar o‘rta darajani 60 foizni tashkil qildi. Demak, rafiqalar o‘z oilasidagi nizolarni hal qilishda hamkorlikni yuqori darajada qadrlaydi. Ular o‘zlarining va boshqalarning manfaatlarini qondirishga harakat qiladilar, bu esa ularning oilaviy hayotida ijobiy dinamizmni yaratadi. Ular bu strategiyani turmush o‘rtog‘i bilan samarali ishlashda qo‘llaydilar, muammolarni hal qilishda konstruktiv yondashuvni tanlaydilar.

Keyingi kelishuv shkalasi bo‘yicha respondentlar yuqori darajani 70 foizni tashkil qildi. Bundan ko‘rinadiki, rafiqalar yuqori darajada kelishuvni afzal ko‘radilar, ya’ni ular o‘zining va boshqalarining fikrini birlashtirishga, muvozanat yaratishga intiladilar. Bu strategiya ularning oilasida barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Navbatdagi vaziyatdan qochish shkalasi bo‘yicha respondentlar yuqori darajani 60 foizni qayd etdi. Bu natija shuni anglatadiki, rafiqalar ba’zan nizolarni oldini olish yoki ularni chetlab o‘tish istagiga egalar. Bunday holatlarda, muammo yoki nizolardan qochish orqali vaqt o‘tkazishga intiladilar. Bu strategiya, ko‘pincha kichik nizolardan qochishga yordam beradi, ammo ba’zan bu holat muammo hal qilinmasligiga olib kelishi mumkin.

Oxirgi moslashuv shkalasi bo‘yicha respondentlar yuqori darajani 80 foizni tashkil qildi. Demak, rafiqalar moslashuvga yuqori darajada moyil. U o‘z manfaatlarini boshqalar bilan moslashtirishga tayyor va o‘z fikrlarini boshqalarning manfaatlariga qarshi qo‘ymaydilar. Bu, ularning oilasidagi janjallarni yengillashtirishga, turmush o‘rtog‘iga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga yordam beradi. Ularning moslashuvchanligi baxtli va sog‘lom munosabatlarini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

So‘rovnomaning umumiy tahlil natijalariga ko‘ra, raqobat shkalasi bo‘yicha respondent rafiqlar esa past daraja 35% ni qayd etdi. Bu natija shuni anglatadiki, rafiqlar o‘z manfaatlarini himoya qilishda unchalik agressiv emas. Ular o‘z nuqtayi nazarini faqat zarur bo‘lganda kuchliroq himoya qiladi. Erkaklar ko‘pincha turmush o‘rtog‘ining fikrini inobatga oladilar, bu ularning oilasida tartibni saqlashga yordam beradi.

Hamkorlik shkalasi bo‘yicha respondentlar o‘rta daraja 65% ni tashkil qildi. Demak, rafiq, erkaklar hamkorlikni yuqori darajada qo‘llaydi. Ular oilaviy nizolarni hal qilishda o‘zaro manfaatlarga qaratilgan yondashuvni tanlaydi. Ular o‘zlarining va boshqalarining manfaatlarini muvozanatlashga intiladilar, turmush o‘rtog‘ining fikriga hurmat bilan qaraydilar. Bu oilada tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Kelishuv shkalasi bo‘yicha respondentlar yuqori daraja 80% foiz aniqlandi. Bundan ko‘rinadiki, rafiqlar yuqori darajada kelishuvni afzal ko‘radilar. Ular turmush o‘rtog‘i bilan muammolarni hal qilishda ko‘proq muvofiqlikka erishishga harakat qiladilar. Rafiqlar ko‘pincha oilasidagi kichik nizolarni tezda hal qilishga intiladilar va o‘zaro tushunishni kuchaytiradilar.

Vaziyatdan qochish shkalasi bo‘yicha respondentlar yuqori daraja 70% foizni qayd etdilar. Bunda rafiqlar ba’zan nizolardan chetlashadi, ko‘pincha muammo yoki qarama-qarshiliklarni o‘z vaqtida hal qilishni o‘ylamaydilar. Biroq, bu ularning ba’zi vaziyatlarda nizolardan qochishga harakat qilayotganligiini ko‘rsatadi, lekin bu ba’zan muammolarni ko‘paytirishi mumkin.

Moslashuv shkalasi bo‘yicha respondentlar past daraja 45% foizni tashkil qildi. Bu natija shuni anglatadiki, rafiqlar moslashuvchanlikka nisbatan kamroq moyil. Ular o‘z pozitsiyasini mustahkamlashni afzal ko‘radilar va o‘z fikrlarini boshqalarga qarshi qo‘yishligi mumkin. Bu, ularning ba’zi vaziyatlarda qat’iyatli qarorlar qabul qilishligiga yordam beradi, lekin bu ham ba’zan oilaviy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijasidan quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Psixologik yechimlar oilaviy nizolarni hal qilishda va oilaviy aloqalarni yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Birinchi navbatda, ochiq va halol muloqot, hissiyotlarni samarali ifodalash va o‘zaro hurmat asosida muammolarni hal qilish zarur. O‘zaro yordamlashish va tushunishga harakat qilish, hamda konstruktiv fikr almashish oilaviy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Psixoterapiya va maslahatlar ham oiladagi nizolarni hal qilishda foydali bo‘lishi mumkin, chunki ular o‘z-o‘zini tahlil qilish, muammolarni tan olish va ularni yengish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

2. Bundan tashqari, stressni boshqarish, vaqtni birgalikda o‘tkazish va oila a’zolari o‘rtasidagi ruhiy qo‘llab-quvvatlash ham oilaviy muammolarni yengishga yordam beradi. Oila ichidagi har bir a’zoning ehtiyojlari va hissiyotlariga e’tibor berish, ular bilan muloqotda bo‘lish, ijtimoiy va psixologik xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi. Shunday qilib, oiladagi ijtimoiy muammolarni psixologik jihatdan yechish, oilaviy barqarorlik va baxtni saqlash uchun zarurdir. Mavzu maqsadidan kelib chiqqan holda tajriba sinov o‘tkazildi. Mana shu tajribadan kelib chiqib quyidagi xulosalar ifodalandi.

3. Rafiqa va rafiqning oilaviy munosabatlaridagi xulq-atvori va nizolarni hal qilishdagi yondashuvlari o‘zaro farq qiladi, ammo ularning umumiy yondashuvi barqarorlik va tinchlikni saqlashga intilishdir. Rafiqa o‘z pozitsiyasini himoya qilishga moyil bo‘lsa-da, o‘z manfaatlarini boshqalarning manfaatlari bilan muvozanatlashishga, hamkorlik va kelishuvni qadrlashga harakat qiladi. Bu, oiladagi ijobiy dinamizmni yaratadi va konstruktiv yondashuvni qo‘llash orqali muammolarni hal qilishda samarali bo‘ladi. Rafiq esa, ko‘proq kelishuvga intiladi, oilaviy nizolarni tezda hal qilishga harakat qiladi va oilasidagi tartibni saqlash uchun turmush o‘rtog‘ining fikrini inobatga oladi. Rafiqning ba’zan nizolardan qochishga moyil bo‘lishi, ba’zi hollarda muammo yoki qarama-qarshiliklarni hal qilmaslikka olib kelishi mumkin.

4. Rafiqaning yuqori darajadagi moslashuvchanligi uning oilaviy munosabatlaridagi ijobiy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlaydi, ammo rafiqning kamroq moslashuvchanligi ba’zan qat’iyatli qarorlar qabul qilishga yordam beradi, lekin bu oilaviy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Yaxshi oilaviy munosabatlarni saqlash va rivojlantirish uchun har ikkala tomon hamkorlik va kelishuvga tayanib, o‘zaro tushunishga harakat qilishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi «2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish kontseptsiyachini tadiqlash to‘g‘risida»gi PQ- 4190-son qarori/Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.02.2019., 07/19/4190/2614-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022., 06/22/60/0082-son. https://kengash.gov.uz/news/3001

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqidan. Surxondaryo.19.01.2018. https://www.xabar.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-3808-son. 27.06.2018.https://lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi 76-modda. – Toshkent. 2023. https://constitution.uz.

5. Lutfullayeva N.X. «Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari». Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2006. 154 b.

6. Ziyavitdinova G.Z. Oilaviy hayotga tayyorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixol: f. bo‘yicha falsafa doktori... diss. avtoref. – T.: O‘zMU, 2021. – 50.

7. Djuxonova N.X «O‘zbek va qirg‘iz qizlarini oilaga tayyorlashda etnik stereotiplari va psixologik ustanovkalari» Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T. – 54 b.

8. http://lib7.com/aziatyy/341-semeino-brachnue-otnoshenija-korea.html

9. https://ru.wikipedia.org/wiki

10. http://www.ipfe.org/

11. https://lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

12. https://psixologiyabuxdu.uz – Psixologiya ilmiy jurnali

13. https: // stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0002-1371-2456

UMUMTA’LIM MAKTAB RAHBARLARINING LIDERLIK QOBILIYATINI TRENINGLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Ushbu maqola umumta’lim maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini treninglar orqali rivojlantirishning pedagogik va psixologik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuningdek, umumta’lim maktab rahbarlarini liderlik qobiliyatlarini qay darajada ekanligi, rahbarlik faoliyatida liderlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda trening metodlarining o‘rni tahlil qilinadi. Ilmiy manbalar va amaliy tajribalar asosida samarali trening dasturlarining tarkibiy qismlari, ulardan foydalanish tamoyillari va kutilayotgan natijalar yoritiladi. Rahbarlarning strategik fikrlashi, qaror qabul qilish qobiliyati, jamoani boshqarish va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda interaktiv trening texnologiyalarining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Liderlik qobiliyati, ta’lim sifati, strategik fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalar, rahbarlik ko‘nikmalari, innovatsion boshqaruv, o‘zini rivojlantirish.

KIRISH

Jahonda boshqaruvchilarning o‘zini-o‘zi mustaqil rivojlantirishga doir shaxsiy kompetensiyalarini faollashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim ijtimoiy-ma’naviy muhitida rahbarlarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishning nazariy, metodologik va uslubiy asoslarini takomillashtirish, mazkur qobiliyatning ish faoliyatdagi samaradorlik mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalarini raqamli transformatsiyaga mos tarzda aniqlashtirish, kommunikativ va tashkilotchilik ko‘nikmalarini mustahkamlashning pedagogik mexanizmlarini modifikatsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davrda rahbarlarda liderlik qobiliyatini oshirish bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borilmoqda. AQSHning Sirakuza Universitetidagi Maksvell fuqarolik va jamoat ishlari, maktab rahbarlik va boshqaruv sohasida ayollarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus dasturlarni taklif etgan[1].

O‘zbekistonda ham rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. 2022-yilda «Rahbar ayollar maktabi»[2] kursida 46 nafar faol ayol rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirdi. 2022-yil 26-fevraldan Xalq ta’lim tizimidagi rahbar kadrlar uchun «Ta’limda liderlik»[3] kurslari tashkil etildi. Dunyo miqyosida rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab nufuzli ta’lim muassasalari mavjud. Masalan, AQShning Garvard Biznes Maktabi, Buyuk Britaniyaning Oksford Universiteti, Said Biznes Maktabi va Fransiyaning INSEAD biznes maktabi rahbarlik bo‘yicha yetakchi dasturlarni taklif etadi. Ushbu maktablar global miqyosda yuqori reytinglarga ega bo‘lib, rahbarlik va boshqaruv sohasida ilg‘or ta’lim berishadi.

O‘zbekistonda ham rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bir qator muassasalar faoliyat yuritmoqda. Masalan, «Yuksalish Liderlar Akademiyasi». Ular tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishadi. Maktab rahbarlarining liderlik qobiliyati ta’lim tizimining samarali ishlashida asosiy omil hisoblanadi. Liderlik faqat ma’muriy yoki boshqaruv qobiliyatlarini o‘z ichiga olmay, balki pedagogik, kommunikativ, motivatsion va innovatsion qobiliyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Liderlikning bunday o‘lchamlari haqida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud.

Leithwood tomonidan olib borilgan tadqiqotlar maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini samarali o‘rganishga yordam beradi. Ularning fikriga ko‘ra, rahbarlik ko‘nikmalari rahbarlarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi va o‘qituvchilarni yuqori natijalarga erishishga undash imkonini beradi.

Robinson maktab rahbarlarining ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘rganib, rahbarlik qobiliyatining o‘qituvchilar va talabalarning o‘quv natijalariga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatgan[4].

Maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun treninglar va boshqa professional rivojlanish dasturlari muhim vositalardir. Treninglar orqali rahbarlar pedagogik va boshqaruv ko‘nikmalarini mustahkamlashi mumkin.

Harris tomonidan olib borilgan tadqiqotlar maktab rahbarlarini o‘qituvchi sifatida rivojlantirishning samaradorligini ko‘rsatgan[5].

Day esa rahbarlikning doimiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun treninglar, seminarlar va boshqa ko‘nikmalarni o‘rganishga ehtiyoj borligini ta’kidlaydi[6]. Guskey tadqiqoti treninglarning o‘qituvchilar va rahbarlarning malakasini oshirishdagi muhim rolini ko‘rsatadi. Uning fikriga ko‘ra, treninglar ta’lim tizimining o‘zgarishlariga moslashish uchun zarur[7].

O‘zbekiston sharoitida maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan treninglarning samaradorligini o‘rganishda quyidagi ilmiy maqolalar va tadqiqotlardan foydalanilgan. Ushbu manbalar rahbarlar uchun treninglar tashkil etish va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tushunishga yordam beradi.

Abduqodirovning maqolasida maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. U rahbarlar uchun treninglarda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va rahbarlarning pedagogik faoliyatiga ta’sirini o‘rganadi. Tadqiqotda, O‘zbekistonda rahbarlarning liderlik ko‘nikmalarini oshirish uchun texnologik innovatsiyalarni qo‘llashning samaradorligi va yangi yondashuvlar taqdim etilgan. Ushbu maqolada rahbarlar uchun treninglarni takomillashtirishda ishlatilgan.[8]

Kamilovning maqolasi umumta’lim maktablarida rahbarlik faoliyatini samarali tashkil etishning pedagogik asoslarini yoritadi. U rahbarlarning boshqaruv va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda treninglarning roli, shuningdek, rahbarlik faoliyatini amalga oshirishda muhim bo‘lgan pedagogik yondashuvlar va metodlarni ko‘rsatadi. Ushbu ilmiy ishda rahbarlarning malakasini oshirish uchun o‘qitish usullari va treninglar metodikasiga oid tahlillar mavjud[9].

Muhammedovning maqolasi O‘zbekistonda rahbarlikni rivojlantirishning metodik yondashuvlari va ularga asoslangan treninglar haqida batafsil ma’lumot beradi. U maktab rahbarlarining boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy metodlar va metodikalar taqdim etgan. Bu maqolada rahbarlarning treninglar orqali malakasini oshirishning usullari tahlil qilingan va O‘zbekistondagi maktab rahbarlari uchun qo‘llaniladigan maxsus trening dasturlari ko‘rib chiqilgan[10].

Tashpulatovning ilmiy ishida rahbarlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar va amaliy metodlar tahlil qilingan. U rahbarlarning pedagogik va boshqaruv ko‘nikmalarini o‘stirishda treninglarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Maqolada, shuningdek, rahbarlar uchun treninglarni tashkil etishda o‘zaro munosabatlar, kommunikatsiya va qaror qabul qilish kabi muhim aspektlar ham o‘rganilgan. Bu manba maqolada rahbarlarning liderlik qobiliyatlarini oshirishda qo‘llaniladigan pedagogik metodlarni ishlab chiqishda ishlatilgan[11].

---

[1] https://www.tadqiqot.uz
[2] https://www.uz24.uz
[3] https://www.kun.uz
[4] https://www.imdb.com
[5] https://contextualscience.org/publications/harris_2008
[6] https://asd.gsfc.nasa.gov/Craig.Markwardt/doy2004
[7] https://books.google.com/books/about/Evaluating_Professional_Development.
[8] Abduqodirov A. (2020). «Maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.»
[9] Kamilov A. (2019). Umumta’lim maktablarida rahbarlik faoliyatini samarali tashkil etishning pedagogik asoslari.
[10] Muhammedov Z. (2021). Ta’lim tizimida rahbarlikni rivojlantirish: O‘zbekiston sharoitida qo‘llaniladigan metodikalar.
[11] Tashpulatov N. (2017). Rahbarlikni rivojlantirishda pedagogik yondoshuvlar va amaliy metodlar.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Rahbar shaxsining intellektualligi, xodimlar bilan ijobiy munosabat muhitini shakllantirishida namoyon bo‘ladi. Bunga asosan liderlik qobiliyatini diagnostika qilish jarayonida asosiy e’tibor rahbarning individual psixologik xususiyatlari, liderlik qobiliyati va samaradorligi, kommunikativ imkoniyatiga qaratilishi lozim.

Ta’lim tizimi rahbarlarini diagnostika qilish jarayonida turli usullardan foydalaniladi. Diagnostika jarayonida to‘liq rasmiylashtirilmagan metodikalar sifatida kuzatish, suhbat, faoliyat natijalari tahlili usullarini qo‘llash mumkin. Ushbu metodikalar ayniqsa, obyektivlashtirish qiyin bo‘lgan psixik jarayonlar (masalan, anglash qiyin bo‘lgan subyektiv kechinmalar, shaxsiy qarashlar) yoki tez o‘zgaruvchan jihatlarni (maqsad, holat, kayfiyat va b.) o‘rganayotganda kerakli ma’lumotlarni beradi. To‘liq rasmiylashtirilmagan metodikalarni qo‘llash o‘ziga xos qiyinchiliklarga ega (masalan, sinaluvchini kuzatish bir necha oylar davomida olib boriladi) va tashxis qo‘yuvchining yuqori kasbiy mahorati va malakasiga asoslanadi.

Rasmiylashtirilgan metodikalar sifatida psixodiagnostik testlar, so‘rovnomalar individual va guruhiy ravishda qo‘llash imkonini beradi. Psixodiagnostik testlarning asosiy jihati standartlashtirilgan bo‘lib, rahbar shaxsining psixologik xususiyatlarini miqdoriy va sifat jihatdan aniqlashga qaratiladi.

Anketa so‘rovnomasi rahbarlarda liderlik qobiliyatini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etishda ijobiy samara beradi. Shu bilan birga anketa so‘rovnomasi inson haqida uning psixologik xususiyatlariga aloqador bo‘lmagan ma’lumotlarni olish uchun qo‘llaniladi (masalan, sinaluvchi hayoti haqida). Bunday so‘rovnomalar qat’iy belgilangan tartibga, savollar mazmuni va shakliga, aniq ko‘rsatilgan javob shakliga ega. Anketa so‘rovnomalari ochiq savollar, yopiq savollar va yarim yopiq savollar (javob beruvchi mavjud javob variantlaridan tanlaydi yoki o‘zining shaxsiy javobini beradi) bilan farqlanadi. Anketa so‘rovlarida hamma ko‘rinishlari birga qo‘llaniladi.

Nazariy usul. Tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlashda, rahbarlarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy tushunchalari tahlil qilinadi. Bu usul yordamida rahbarlikning turli nazariyalari, boshqaruv usullari va ularning ta’lim jarayonidagi rolini o‘rganish mumkin. Nazariy tahlil yordamida liderlikning psixologik va pedagogik jihatlari aniqlanadi, shuningdek, rahbarlik qobiliyatlarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy tushunchalar va yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Umumta’lim maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatini treninglar orqali rivojlantirish maqsadida biz pedagogik tadqiqotimizni Toshkent shahar, Uchtepa tumanida joylashgan «Thompson school maktabida» tashkil etdik. Pedagogik tadqiqotimiz uchun «Thompson school» maktab rahbarlari respondent sifatida tanlab olindi.

Tadqiqotning samarali o‘tishini ta’minlash uchun pedagogik shart-sharoitlar nafaqat rahbarlarning malakasini oshirishga, balki ta’lim jarayoniga ham to‘g‘ri integratsiya qilinishi kerak. Bu shart-sharoitlar maktabda o‘qitish va rahbarlikni boshqarishning samarali usullarini tatbiq etishga imkon beradi. O‘quvchilarga sifatli ta’lim berishda ham pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Tadqiqotimizda 32 nafar xodim va rahbarlar ishtirok etishdi. Ular bilan anketa, so‘rovnoma va test o‘tkazdik. Har bir vazifani bajarishdan oldin ma’lumotlar berilib o‘tildi va ketma-ketlikda bajarildi. Tadqiqotda pedagogik shart-sharoitlar faqat metodik yondashuvlarga emas, balki rahbarlarning psixologik tayyorgarligiga ham asoslanishi kerak. Rahbarlarning malakasini oshirish uchun psixologik holatni boshqarish va stressga qarshi kurashish metodlarini o‘rgatish zarur. Pedagogik shart-sharoitlar rahbarning shaxsiy va professional rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Rahbarlarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot davomida o‘quv jarayonini tahlil qilish va monitoring qilish tizimi muhim ahamiyatga ega. O‘quv jarayonida o‘zgarishlarni kuzatish, rahbarlarning faoliyatini baholash va natijalarini qayd etish orqali bu tizimning samaradorligini oshirish mumkin. Bunday tizim rahbarlarning o‘z malakasini oshirish jarayonini doimiy ravishda monitoring qilish imkonini yaratadi[12] .

Liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish zarur. Masalan, interfaol metodlar, masofaviy o‘qish, treninglar va seminarlar yordamida rahbarlarning malakasini oshirish mumkin. Bu metodlar rahbarlar uchun amaliy tajriba va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin[13].

Bundan tashqari, pedagogik texnologiyalar tinglovchilar bilan interaktiv muloqotda bo‘lish, ularni fikrlashga, tanqidiy tahlil qilishga, va o‘z fikrlarini ifodalashga undashda muhim rol o‘ynaydi. Bu metodika rahbarlar uchun yangi pedagogik yondashuvlar va texnikalar yordamida o‘z liderlik qobiliyatlarini shakllantirishga imkon yaratadi. Umumta’lim maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatini treninglar orqali rivojlantirish mavzusida tadqiqot mavzusini yoritishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasi quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi mumkin:

1. Maqsadni belgilash bosqichi.

Maqsad. Umumta’lim maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan treninglar uchun pedagogik texnologiyalarni tanlash va ularni samarali qo‘llash yo‘llarini aniqlash.

Vazifalar. Liderlik qobiliyatlari rivojlanishiga xizmat qiladigan pedagogik texnologiyalarni aniqlash.

Trening jarayonida foydalaniladigan metodlarni o‘rganish va moslashtirish. Texnologiyalarning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

2. Pedagogik texnologiyalarni tanlash. Pedagogik texnologiyalarni tanlashda quyidagi yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Hamkorlik texnologiyasi. Rahbarlar o‘rtasida jamoaviy muloqotni yo‘lga qo‘yish, fikr almashish va o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Innovatsion trening texnologiyalari. Rahbarlarning tanqidiy fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi interaktiv trening texnikalari (masalan, rolli o‘yinlar, case-study).

Modulli o‘qitish texnologiyasi. Liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga oid trening dasturlarini modullarga ajratib, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Refleksiv texnologiyalar. Trening davomida rahbarlarning o‘zini tahlil qilish va o‘z liderlik qobiliyatlarini baholash bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT): Onlayn platformalar, video treninglar, elektron qo‘llanmalar va boshqalarni qo‘llash.

3. Metodikani ishlab chiqish bosqichi. Tadqiqot mavzusini yoritishda metodika quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topishi mumkin:

a) Tayyorlov bosqichi. Trening ishtirokchilarining ehtiyojlarini aniqlash; trening mavzulari va maqsadlariga mos texnologiyalarni tanlash; trening materiallarini tayyorlash: slaydlar, vaziyatli masalalar, testlar va interaktiv vositalar.

[12] Ivanov A. Liderstvo v Obrazovanii / A. Ivanov. – Moskva: Nauka, 2020. – 250 s.

[13] Makarov P. Metody Razvitiya Liderstva v Shkolax / P. Makarov. – Astana: Kazaxstan Nauka, 2021. – 160 s

b) Asosiy bosqich. **Interfaol trening.** Ishtirokchilarni amaliy faoliyatga jalb qilish (rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish).

Amaliy mashqlar. Rahbarlarning liderlikka oid qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muayyan vazifalarni bajarish.

Fikr-mulohaza sessiyalari. Ishtirokchilarning tajriba almashishi va mashg‘ulotlar natijalarini muhokama qilish.

c) Refleksiya va baholash. Trening natijalarini tahlil qilish uchun rahbarlarning o‘z-o‘zini baholash, guruh baholashi va trenerlarning ekspert baholarini olish; rahbarlik qobiliyatlarining rivojlanish dinamikasini o‘lchash uchun maxsus diagnostik testlar va monitoring.

4. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda innovatsion yondashuvlar. *Gamifikatsiya.* O‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini qo‘shish orqali ishtirokchilarni yanada faol jalb qilish.

VR va AR texnologiyalari. Virtual muhitda rahbarlik vaziyatlarini simulyatsiya qilish.

Onlayn trening platformalari. Uzoq masofadagi rahbarlar uchun masofaviy trening modullarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish.

Tarmoqli o‘rganish (network learning). Rahbarlarning bir-biri bilan bog‘lanib, liderlik qobiliyatlari bo‘yicha fikr almashish imkoniyatini yaratish.

5. Monitoring va tahlil qilish bosqichi. Samaradorlikni baholash: Treninglarning rahbarlar liderlik qobiliyatlariga ta’sirini o‘rganish uchun oldindan va keyin test o‘tkazish.

Refleksiya. Trening ishtirokchilarining fikr-mulohazalarini yig‘ish va kelgusi treninglarni takomillashtirish uchun foydalanish.

Davomiy rivojlanish. Liderlik qobiliyatlarini qo‘llashni davom ettirish uchun keyingi trening va qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish

Bu metodika umumta’lim maktablari rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali natijalarni ta’minlashi bilan birga, amaliyotda qo‘llash uchun qulay va tizimli yondashuvni yaratadi.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari o‘tkazishning asosiy maqsadi – umumta’lim maktablari rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun trening va metodik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash edi. Tajriba guruhi va nazorat guruhi orasidagi farqlarni tahlil qilish orqali, o‘tkazilgan treninglarning samaradorligi aniqlandi.

Tajriba guruhi, innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llagan holda, jamoa boshqaruvi, motivatsiya berish, kommunikativ qobiliyatlar va strategik rejalashtirish kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli o‘zgarishlarni kuzatdi. Nazorat guruhi esa, treninglarda qatnashmagan bo‘lib, ular faqat o‘zlarining odatiy boshqaruv faoliyatlarini davom ettirdilar.

Maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ahamiyatini tahlil qilish.

Bu bosqichda umumta’lim maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi va ularning ahamiyati tahlil qilinadi. Omillarni aniqlash uchun quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

Ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili – ilg‘or tajribalar va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda yetakchilik qobiliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash.

So‘rovnoma va intervyu – maktab rahbarlari, o‘qituvchilar va psixologlar o‘rtasida so‘rov o‘tkazish orqali muhim omillarni tasdiqlash.

Ekspert baholash – tajribali mutaxassislar (ta’lim sohasidagi trenerlar, psixologlar, ta’lim boshqaruvchilari) fikrlariga tayanib, asosiy omillarning nisbiy ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqot muammosi doirasida aniqlashtirilgan baholash mezonlari

1-jadval. Kommunikativ qobiliyatlar

Ko‘rsatkich	Baholash mezoni	Baholash usuli
Muloqot uslublari	Rahbarning tinglash, tushuntirish va murosaga kelish qobiliyati.	Kuzatish, suhbat, so‘rovnoma
Aloqa texnikalari	Samarali kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash.	Trening natijalarini tahlil qilish
Muammolarni hal qilish	Muloqotdagi qiyinchiliklarni hal qilish tezligi va sifat darajasi.	Amaliy mashqlar

Izoh: Kommunikativ qobiliyatlar rahbarning jamoa bilan samarali muloqot qilish, murosaga kelish va jamoa a’zolarining fikrlarini inobatga olish ko‘nikmalarini ifodalaydi. Ushbu ko‘nikmalar rahbarning umumiy boshqaruv samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

2-jadval. Strategik rejalashtirish qobiliyati

Ko‘rsatkich	Baholash mezoni	Baholash usuli
Uzoq muddatli rejalashtirish	Rejalarni ishlab chiqish sifati va ularning samaradorligi.	Rahbarlik faoliyatining monitoringi
Qaror qabul qilish	Tahlil qobiliyati va qarorlarning ijrosi.	Amaliy holatlar orqali baholash
Maqsadga yo‘naltirilganlik	Rejalar asosida natijalarga erishish darajasi.	Kuzatuv, hisobotlarni tahlil qilish

Izoh: Strategik rejalashtirish rahbarlik faoliyatining asosiy komponentlaridan biridir. Jamoani maqsadga yo‘naltirish va natijaga erishish rahbarning samaradorligini ko‘rsatadi.

3-jadval. Motivatsiya berish qobiliyati

Ko‘rsatkich	Baholash mezoni	Baholash usuli
Rag‘batlantirish	Jamoa ichidagi motivatsiya darajasi.	Kuzatish, so‘rovnoma
Shaxsiy yondashuv	Individual motivatsion strategiyalarni qo‘llash.	Trening bahosi
Jamoa ruhini ko‘tarish	Jamoaning umumiy maqsadlarga sadoqat darajasi.	Jamoa faoliyati natijalari

Izoh: Rahbarning motivatsiya berish ko‘nikmasi jamoaning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

4-jadval. Rahbarning motivatsiya berish ko‘nikmasi

Ko‘rsatkich	Baholash mezoni	Baholash usuli
Texnologiyalarni qo‘llash	Zamonaviy vositalardan foydalanish darajasi.	Amaliy mashg‘ulotlar tahlili
Innovatsion qarorlar	Innovatsion yondashuvni joriy qilish tezligi va sifati.	Kuzatuv, amaliyot natijalari
Yaratilish qobiliyati	Yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va tatbiq etish.	Intervyu, jamoa tahlili

Izoh: Innovatsion yondashuv bugungi kunda lider rahbarlarning ajralmas xususiyati hisoblanadi. Bu qobiliyat ta'lim tizimining zamonaviy talablariga javob beradi.

5-jadval. Jamoani boshqarish va rahbarlik qilish

Ko'rsatkich	Baholash mezoni	Baholash usuli
Jamoaviy ishni tashkil qilish	Jamoada vazifalarni to'g'ri taqsimlash va nazorat qilish.	Kuzatuv, hisobotlarni tahlil
Muammolarni hal qilish	Jamoada yuzaga kelgan qiyinchiliklarga javob berish qobiliyati.	Vaziyat tahlili
Ishonchni shakllantirish	Rahbar va jamoa o'rtasidagi o'zaro ishonch darajasi.	Jamoa fikrlarini so'rash

Izoh: Jamoani boshqarish rahbarning samaradorligi va faoliyati natijalarini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir.

Yuqoridagi mezonlar asosida rahbarlarning liderlik qobiliyatlari baholanadi. Har bir mezon aniq ko'rsatkichlar va usullar yordamida kuzatilib, olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bu yondashuv rahbarlar faoliyatini kompleks baholash va ularning shaxsiy hamda professional rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

So'rovnoma orqali omillarning nisbiy ahamiyatini baholash. Har bir savol bo'yicha o'rtacha ball hisoblanadi (1 dan 5 gacha).

O'rtacha ball quyidagicha talqin qilinadi: 4,5 – 5,0 → Yuqori darajada liderlik qobiliyati; 3,5 – 4,4 → Yetarli darajada liderlik qobiliyati; 2,5 – 3,4 → O'rtacha darajada liderlik qobiliyati; 1,0 – 2,4 → Yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish kerak.

Test natijalarini baholash. A javoblari ko'p bo'lsa → Rahbarlik qobiliyati yuqori. B javoblari ko'p bo'lsa → Yetakchilik qobiliyati rivojlantirishni talab etadi. C va D javoblari ko'p bo'lsa → Liderlik qobiliyatlari zaif, maxsus treninglar talab etiladi.

6-jadval. Tadqiqotda qatnashgan ishtirokchilarning umumiy soni

Ishtirokchi (rahbar va xodim)	Rahbarlar	Xodimlar	Jami
Ishtirokchi erkaklar	4	11	15
Ishtirokchi ayollar	21	12	33
Jami	25	23	48

Y.P. Platonovning «Rahbar shaxsining psixologik xususiyatlarini ekspert baholash» metodikasi

Rahbar shaxsining psixologik xususiyatlarini xodimlar tomonidan baholanishi doimo muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda Y.P.Platonov tomonidan ishlab chiqilgan «Rahbar shaxsining psixologik xususiyatlarini ekspert baholash metodikasi» qo'llaniladi. Metodika rahbar shaxsining 9 nafar psixologik xususiyatlarini aks ettiradi, ular faoliyatdagi har bir xususiyatni 7 ta tasdiqning namoyon bo'lishi bilan aniqlanadi.

Quyidagi blankada baholash uchun rahbarning to'qqizta asosiy xususiyatlari ajratilgan:

- aniqlik faoliyatning turli jabhalarida qiziqishlar tarkibini ochib beradi;
- anglanganlik – tashkiliy faoliyat maqsadlarini anglash;
- maqsadga intiluvchanlik – tashkiliy faoliyat motivlarining ustuvorligi;
- tanlash jamoaning psixologik xususiyatlarini teran va to'liq aks ettirish qobiliyati;
- xushmuomalalik qobiliyati;
- samaradorlik odamlarni o'ziga jalb qilish, ularni safarbar etish qobiliyati;
- talabchanlik vaziyatning xususiyatlariga qarab ushbu sifatni turli shakllarda namoyish etishga tayyorlik;
- tanqidiylik belgilangan me'yorlardan sezilarli og'ishlarni aniqlash va ko'rsatish qobiliyati;
- mas'uliyat o'z ishi va jamoa faoliyati natijalari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati.

Test natijasiga asosan, rahbar faoliyatida o'z shaxsining 9 ta psixologik xususiyatlari namoyon bo'lishi borasida xulosa qilinadi.

Rahbarning liderlik qobiliyati va samaradorligi xodimlarga ta'sir etish, faoliyat maqsadini belgilash va unga erishish yo'llarini aniqlash, faoliyatning samaradorligiga erishishga yo'nalganlik kabi jihatlar bilan belgilanadi. Rahbarning liderlik qobiliyati va samaradorligini baholashda bir qator so'rovnomalar qo'llaniladi.

V.V. Sinyavskiy va V.A. Fedoroshin tomonidan ishlab chiqilgan «Kommunikativ va tashkilotchilik layoqatlarini aniqlash so'rovnomasi» (KOS) 5 ta mezon asosida savollar bo'lib, rahbar shaxsida kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatini baholash imkonini beradi.

XULOSALAR

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagicha xulosalarga ega bo'ldik.

1. O'zbekiston umumta'lim maktablarida rahbarlarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini o'rganishga qaratilgan tizimli yondashuvni taklif qilishda ifodalanadi. Tadqiqotda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha innovatsion metodikalarni joriy etish, rahbarlarning boshqaruv ko'nikmalarini oshirishda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini o'rganish taqdim etilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, bu ishda umumta'lim maktablari rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishning yangi pedagogik modelini ishlab chiqish va uni o'rganish uchun zarur metodologik asoslar keltirilgan. Ushbu model O'zbekiston sharoitida maktab rahbarlarining boshqaruv sifatini oshirishga, o'quvchilar va o'qituvchilar orasida samarali kommunikatsiya va motivatsiyani yaratishga yordam berishi mumkin.

2. Amaliy natijalar orasida maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatini yanada samarali qilish uchun ko'plab zamonaviy trening va malaka oshirish kurslarining ishlab chiqilishi va joriy etilishi alohida e'tiborga loyiqdir. Tadqiqotda taqdim etilgan metodik yondashuvlar, o'quv jarayonini boshqarish va rahbarlar orasida raqamli texnologiya-

larni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Bu esa, ta’lim tizimidagi boshqaruvning sifatini oshirish, ta’lim muassasalarining rivojlanishini ta’minlash, hamda rahbarlarning liderlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy natijalaridan biri, O‘zbekiston ta’lim tizimida rahbarlarning malakasini oshirish uchun o‘tkaziladigan kurslar va treninglarda ishtirok etayotgan rahbarlar uchun tayyorlangan metodik qo‘llanmalar va o‘quv dasturlarining samaradorligini oshirish bo‘lishi mumkin. Bu qo‘llanmalar ta’lim tizimidagi rahbarlarni yangicha pedagogik yondashuvlar bilan tanishtirishga va ularni zamonaviy boshqaruv texnikalariga o‘rgatishga yordam beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari, umumta’lim maktablarining rahbarlarini malaka oshirishga qaratilgan dasturlarni shakllantirishda, maktab rahbarlarining faoliyatini yaxshilashga va ta’lim tizimining yuqori sifatini ta’minlashga qaratilgan qonuniy va huquqiy asoslarni takomillashtirishda foydali bo‘lishi mumkin. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan yondashuvlar va metodlar ta’lim tizimining sifatini oshirishga va rahbarlarning boshqaruv samaradorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, umumta’lim maktablarida rahbarlarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoniga yangi pedagogik yondashuvlar va metodikalarni qo‘llashning ahamiyatini o‘rganish yotadi. Maktab rahbarlarining boshqaruv samaradorligini oshirish va ularning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda amaldagi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy trening dasturlarining integratsiyasini o‘rganish, tizimli tarzda yondashuvni taklif etish bu tadqiqotning ajralib turadigan jihatlaridir.

Tadqiqotda ilgari surilgan rahbarlarning boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan trening texnologiyalari va metodologiyalarni amalda qo‘llash, rahbarlar malakasini oshirishda samarali tizimni yaratish imkonini berdi. Bu yondashuv, nafaqat rahbarlarning amaliy ko‘nikmalarini, balki o‘quvchilar bilan muvaffaqiyatli muloqot o‘rnatish, motivatsiyani oshirish va ta’lim jarayonini samarali boshqarish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni ham oshiradi.

4. Tadqiqotning amaliy yangiligi shundaki, bu ishda rahbarlarning malakasini oshirishga qaratilgan treninglar va kurslarning samaradorligini o‘rganish uchun yangi pedagogik metodlar va texnologiyalar ishlab chiqildi. Bu metodikalar O‘zbekiston ta’lim tizimi sharoitida rahbarlar uchun malaka oshirish kurslarini takomillashtirish va ta’limning umumiy sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Tadqiqotda keltirilgan usullar va strategiyalar O‘zbekistonning ta’lim tizimida rahbarlar uchun trening va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishda amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu metodologik yondashuvlar ta’lim muassasalarida rahbarlarning rahbarlik sifatini oshirishga, jamiyatda o‘zgarishlarni amalga oshirishda faol qatnashishlarini ta’minlashga yordam beradi.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR

1. Ismoilov Sh. «O‘zbekistondagi umumta’lim maktablarida boshqaruv tizimini rivojlantirish: Muammolar va yechimlar». – Toshkent, 2018. – 49-b.

2. Abduqodirov A. «Maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish». – Toshkent, 2020. – 118 b.

3. Kamilov A. «Umumta’lim maktablarida rahbarlik faoliyatini samarali tashkil etishning pedagogik asoslari». 2020.

4. Muhammedov Z. «Ta’lim tizimida rahbarlikni rivojlantirish: O‘zbekiston sharoitida qo‘llaniladigan metodikalar». 2021.

5. Tashpulatov N. «Rahbarlikni rivojlantirishda pedagogik yondoshuvlar va amaliy metodlar». 2017.

7. Rashidov F. Umumta’lim Tizimida Rahbarlik / F. Rashidov. – Toshkent: Talim Ilmiy Nashr, 2020. – 130 b.

8. Leithwood K. «Teacher Leadership and Educational Leadership». 2001.

9. Robinson V. M. J. «School Leadership and Student Outcomes: Identifying What Works and Why». 2007.

10. Harris A. «Distributed Leadership: Developing Tomorrow’s Leaders». 2008.

11. Guskey L. M. «Leadership Development and Education». 2000.

12. Fullan M. «Leading in a Culture of Change». 2001.

13. Hojiyev R.B, Ikramov R.A. Yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari /TVCHDPI// 2021.

14. Chemers M. (1997) An integrative theory of leadership. Lawrence Erlbaum Associates, Publishers. ISBN 978-0-8058-2679-1

15. Academic Research in Educational Sciences, 2(2), 544-555. Hojiyev R.B., Xolmo‘minov G.B., Sharipov M.L. (2020) Raising a Harmoniously Developed Generation is a Priority of Democratic Reforms in Uzbekistan // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, №8(5). 1

16. https://www.tadqiqot.uz

17. https://www.uz24.uz

18. https://www.kun.uz

19.https://www.scirp.org/reference

20.https://www.imdb.com

21.https://contextualscience.org/publications/harris_2008

22.https://asd.gsfc.nasa.gov/Craig.Markwardt/doy2004

23.https://books.google.com/books/about/Evaluating_Professional_Development.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0003-7320-4637

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Arolov Davronjon



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasida faol sanalgan shakl, metod va vositalariga alohida e’tibor qaratgan holda, ularning amaliy jarayonlarda tutgan o‘rni va hamiyati haqida fikr-mulohaza yuritadi. Bundan tashqari ma’lum bir metodlar bu borada qanchalik darajaga ega ekani haqida qisqacha ma’lumot beradi. Ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqish va ularni informatika fani o‘quv jarayonida qo‘llash usullari, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan ta’lim metodlarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda va o‘qitish samaradorligini oshirishda qo‘llaniladi

Kalit so‘zlar: O‘quvchi, ijodkorlik, ijodkorlik qobiliyati, ta’lim, muammoli ta’lim, abstraktdeduktiv metodi, Innovatsion metodlar, ilg‘or texnologiyalar, maktab ta’limi, innovatsion texnologiyalar, o‘quvchilarning qobiliyatlari.

KIRISH

Bugungi kunda jadal ijtimoiy o‘zgarishlar davri, rivojlanayotgan jamiyatda ijodiy fikrlash qobiliyatining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati keskin ortib bormoqda. Shuning uchun ham o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi dolzarbdir. Zamonaviy maktabning muhim vazifasi o‘quvchilar uchun eng yuqori darajadagi psixologik qulaylikni ta’minlaydigan va ularning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda intensiv rivojlanish imkoniyatini ta’minlaydigan o‘quv sharoitlarini yaratishdir.

Hozirgi vaqtda maktabdagi har bir ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarni hayotda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lishga tayyorlashni maqsad qilgan va XXI asr ko‘nikmalari bilan ta’minlovchi yangi vazifani bajaradi. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va bunda foydalaniladigan metod va vositalar mavzusi ham bundan mustasno emasdir. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va bunda foydalaniladigan metod va vositalardan ularning turli sharoitlarga moslashish, jamiyatni hurmat qilish, g‘oyalarga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lish intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishi ham kutiladi. Ma’lumki, XXI asrdagi muhim ko‘nikmalar o‘quv faoliyatida kuchaytirilishi kerak bo‘lgan maxsus ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi, ya’ni tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlar, muammolarni hal qilish, metabillash, muloqot qobiliyatlari, hamkorlik, innovatsiyalar, ijodkorlik va axborot savodxonligi kabi yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlaridir.

Xalqaro mehnat tashkiloti ijodkorlikni zamonaviy hayotda zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biri sifatida belgilaydi va ijodkorlikni akademik ta’lim va kasbiy tayyorgarlik jarayoniga integratsiyalashuvining bir qismi sifatida rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Ijodkorlik hozirgi dunyo ta’limining asosiy muammolaridan biridir. Xususan, Yevropada «Maktabda ijodkorlik» loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u YUA (Yevropa Unversitetlar Assotsatsiyasi) tomonidan Sokrat dasturi asosida moliyalashtiriladi. Shuningdek, Mostar unversiteti tomonidan «Ta’limda ijodkorlikning holati» nomli 13 ta davlatda (Avstraliya, Yangi Zelandiya, Xitoy, Hogkong, Tayvan, Hindiston, Filippin, Indoneziya, Vetnam, Tailand) ta’lim sohasidagi shaxslar (1014 nafar o‘qituvchi) o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqot davomida so‘rovnomada qatnashgan respodentlarning 62% o‘qituvchilarni o‘zlari o‘qitadigan fanlardan ijodkorlik xislatlariga ega bo‘lishi zarur deb hisoblaydilar, respondentlarning ko‘pchlik qismi bu faoliyat uchun birinchi navbatda ota-onalar emas, balki o‘qituvchilar javobgar deb hisoblaydilar.

Respublikamizda so‘nggi yillarda maktab tizimini sifatini oshirish, o‘rta ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish, o‘quvchi hayotiy muammolarini hal etishning ijodiy yo‘llarini egallashga yo‘naltirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalashning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratilmoqda.

Mamlakatimizda o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish metodikasining nazariy-uslubiy masalalari M.T. Yulchiyeva, G.F. Adizova, D.S. Qaxorova, M.X. Vaxobova, G.M. Korayeva, H.O. Toshtemirova, Sh.X. Xayitova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan**.** O‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish metodikasining nazariy, uslubiy va tashkiliy masalalari xorijlik Gemma Rodríguez, Nora Perez, Gemma Nunez, Josep-E. Banos & Mar Carrio, Rafael Segundo-Marcos, Ana Merchán Carrillo, Veronica Lopez Fernandez, María Teresa Daza, N.V. Uvarina, O.V. Shtakina, L.N. Shutareva, Sh.Z. Radjapov, S.Sh. Ergasheva, I.A. Urinboeva, A.M. Karimova, G.T. Jalolova, A.N. Mixaylina, Y.A. Xripunova[1] kabi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Ijodkorlik haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo ijodkorlikning mohiyatini mukammal tahlil qilib olish zarur. Ijodkorlik mohiyatini o‘rganish, aytish joiz bo‘lsa, o‘ta murakkab masala sanaladi, chunki uning zimmasiga inson va tabiatni o‘rganishning muhim metodologik masalalarini yechishdek vazifa qo‘yiladi. Ijodkorlikni rivojlantirish manbalari, biologik va ijtimoiy, obyektiv va subyektiv, individual va jamoa o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni bu jarayonlar o‘z ichiga qamrab oladi.

Sh.S. Sharipov ixtirochilikni «tegishli idoralar tomonidan patentlar bilan tasdiqlanadigan yangi texnik yechimni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat turi, ixtirochilik ijodkorligi esa bu jarayonning shaxsdagi zehnlilik, topqirlik, mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi ijodkorlik sifatlari bilan bog‘liq umumiy tavsifi», deb ta’riflagan.

Maktab o‘quvchilari ijodkorligi rivojlanishi haqida fikr bildirar ekanmiz, bu borada M.G. Yaroshevskiy tomonidan berilgan xulosalar diqqatga sazovorligini aytish joiz. Olimning fikricha ijodkorlik jarayoniga tizimli munosabat uch jihatli tarkib va ularning o‘zaro uzviyligida o‘rganishni taqozo etadi. Ular narsa va hodisalar, ijtimoiy va shaxsga taalluqlilik tarkiblardan iboratdir. Bu evristikalar: analoglar, metaforalar, qiyoslash, modellardan iborat bo‘lib, odatda fikrlash mazmunini tashkil etadi va vizual shakl ga ega bo‘ladi.

O‘zbek pedagogi va psixologi Zarifjon G‘ulomov «Ijodiy jarayon shaxsning ichki koinotini ochib beradi, unda har bir inson o‘zining yuksak imkoniyatlarini topadi» – deb yozgan[2].

Maktab o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini shaklantirish quyidagi omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Biologik omil esa nasldan naslga o‘tuvchi ijodkorlik, tashabbuskorlik, fiziologik jihatdan yetuk va boshqa qirralarini o‘z ichiga qamrab oladi. Bu qobiliyatlar buyuk sharq mutaffakkiri Abu Ali ibn Sino tavsifi bilan aytganda – har bir tug‘ilgan chaqaloq genida ma’lum bir iqtidor va iste’dodlar mavjud bo‘ladi va bu qobiliyatlar ijtimoiy muhit tasirida yo e’tibor natijasida rivojlanadi yoki ijtimoiy muhitning e’tiborisizligi natijasida yo‘q bo‘lib ketadi, degan fikrni aytib o‘tgan.

Zero, oliy o‘quv yurtiga birinchi bosqich o‘quvchilikka qabul qilingan o‘quvchi ham yangi o‘zgacha bo‘lgan ijobiy qirralarini ko‘rsatishga harakat qiladi. Bu imkoniyatdan biz pedagoglar samarali foydalanishimiz kerak.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. «Ijodiy faolligini rivojlantiruvchi strategiyalar nazariy va amaliy asoslarini uning maqsadi, obyekti, asosiy tushunchalari, mezonlari va shu kabilar tashkil etadi»[3]. O‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantiruvchi strategiyalar umumiy mohiyati xususida so‘z yuritish uchun, avvalo, ushbu tushunchaning tub ma’nosini anglash talab etiladi.

Maktab o‘quvchilari ijodiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari ularning yoshiga, psixologik holatiga, atrof-muhitga va shaxsiy qobiliyatlariga bog‘liq. Bu xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tar-

[1] Gemma Rodríguez, Nora Pérez, Gemma Núñez, Josep-E. Baños & Mar Carrió, Developing creative and research skills through an open and interprofessional inquiry-based learning course, 2023, Rafael Segundo-Marcos, Ana Merchán Carrillo, Verónica López Fernández, María Teresa Daza González, Age-related changes in creative thinking during late childhood: The contribution of cooperative learning, 2023, Brwa Adnan Saeed, The effect of implementation of a creative thinking model on the development of creative thinking skills in high school students: A systematic review, 2022,

[2] G‘ulomov, Z. *Psixologiya va pedagogik nazariyalar*. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2003.

[3] Даниленко С.В. «Исползование творческих задач по информатике для формирования у будуших учительей информатики готовности к профессионалной деятелности». Диссертация kond.ped.nauk. Тула, 2010. с.38.

biya jarayonini tashkil qilish, ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhimdir.

Namangan viloyati Chust tumanidagi 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchilarida pedagogik tajriba-sinov ishlarining o‘quvchilar bilim darajasini tajriba va nazorat guruhlarida aniqlash hamda qiyosiy tahlil qilish bosqichi 2023-2024 o‘quv yili mobaynida amalga oshirildi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

O‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish o‘z navbatida yangicha yondashuvni talab etadi, bu esa o‘quvchilarda ijodkorligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish demakdir.

O‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish metodikasi 9-sinf «Informatika» fani bo‘yicha ishlab chiqildi.

Metodkani ishlab chiqishda o‘qituvchiga zarur holatda, o‘z vaqtida boshqaruv yechimini qabul qilish imkonini va oxirgi natijaga yetishish jarayoniga tuzatishlar kiritish, belgilangan maqsadga erishilgan natijalarni muvofiqlik darajasini aniqlashni ta’minlaydigan boshqaruv va axborotlarni yig‘ishni quyidagi usul va vositalaridan foydalanildi.

– o‘quv materiallar, o‘quv adabiyotlar, o‘quv topshiriq majmualari;

– o‘qitishning texnik vositalari, kompyuterlaridan foydalanildi.

Metodika bir-biriga bog‘liq bo‘lgan «Kirish», «Asosiy» va «Yakuniy» bosqichlardan iborat.

Kirish bosqich o‘z navbatida bir-biriga bog‘liq *tashkiliy boshlanish, maqsad va vazifalarni belgilash, tayanch bilimlarni faollashtirish* kichik bosqichlarini qamrab oladi.

Tashkiliy boshlanish qism. O‘qituvchining *o‘*quvchilar bilan salomlashishi, davomatni tekshirishi va darsga tayyorgarliklarini tekshirishi o‘tkaziladi.

Maqsad va vazifalarni belgilash qism. O‘quvchilarni mashg‘ulot mavzusi, maqsadi, ish vazifalari va ularning baholash usullari bilan tanishtiriladi. Vazifalar aniqlashtiriladi va o‘quv faoliyat holati yaratiladi.

Tayanch bilimlarni faollashtirish qismi. O‘tilgan mavzu nazariy testlar orqali baholaniladi.

Asosiy bosqich ham o‘zaro bog‘liq bo‘lgan *yangi materialga kirish, o‘quv materialini mustahkamlash* tarkibiy qismlarni qamrab oladi.

Yangi materialni o‘rganishga kirish qismi. Yangi mavzuning mantiqiy tuzilish chizmasi bo‘yicha yangi materialni o‘rganiladigan asosiy unsurlari yuzasidan o‘quvchilarga tushuntirishlar, ushbu yangi o‘quv materialini kichik o‘quv guruhlar tarkibida topshiriq savollari orqali o‘zaro o‘rganish va bir-birlarini o‘qitish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar beriladi. O‘quvchilarning kichik o‘quv guruhlaridagi faoliyatini boshlashiga ruxsat beriladi.

O‘quvchi topshiriq savoli bo‘yicha yangi mavzu materiali bilan avval o‘zi mustaqil tanishib o‘rganib chiqadi, so‘ngra uni guruh a’zolari bilan savol-javob qilish orqali o‘rganadi. Undan so‘ng esa barcha guruhlar oldida o‘z bilimini namoyish etadi, ya’ni «o‘qituvchi» vazifasini bajaradi. Bu paytda, esa boshqa o‘quvchilar tinglaydilar, kuzatadilar, tahlil qiladilar. «Dars»dan so‘ng «o‘qituvchi» ta’lim berish faoliyati baholanadi.

O‘quv materialini mustahkamlash qismi. O‘qituvchi tomonidan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun amaliy faoliyat tashkil etiladi hamda uning vazifalari, amaliy topshiriq mazmunlari, ish o‘rinlari va ularda amalga oshiriladigan amaliy ishlarni bajarish yo‘llari tushuntiriladi, ko‘rsatiladi. Shu bilan birga texnika xavfsizligi qoidalari va mashg‘ulot jarayonida ularga rioya etish bo‘yicha yo‘riqnomalar beriladi. Ish faoliyatini boshlashga ruxsat beriladi.

O‘qituvchi tomonidan mashg‘ulot mobaynida ishlarning to‘g‘ri bajarilishi kuzatiladi, joriy yo‘riqnomalar va o‘quvchilarning savollarga javob beradi. Shu bilan birga qiyin o‘zlashtirayotganlarga ahamiyat beradi hamda yaxshi va tez ishlashga yo‘naltiradi. Namunali bajarilgan ishlar boshqalarga namuna qilib ko‘rsatiladi va aksincha ishlarni bajarishda texnologik ketma-ketlik yoki texnika xavfsizligi buzilsa, mashg‘ulot to‘xtatiladi hamda hamma o‘quv guruhiga qo‘yilgan xatolik qanday oqibatlarga olib kelishi namuna qilib ko‘rsatiladi. Mashg‘ulot tugashidan yarim soat oldin o‘qituvchi va ishlab chiqarish ustasi tomonidan o‘quv-ish o‘rinlarida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari aniq va qisqa savollar orqali tekshiriladi.

Yakuniy bosqich o‘qituvchining shaxsiy kuzatishlar mulohazalari asosida mashg‘ulot tahlili o‘tkaziladi. Guruhlar ishi va tekshirilgan o‘quvchilarning baholash mezoni topshiriqlarni bajarish sifati va mashg‘ulot vaqtidagi uyushqoqligi bo‘ladi.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning ish jarayonida aniqlangan umumiy va alohida kamchiliklariga e’tibor qaratiladi, va keyingi mashg‘ulotlarda ushbu xatolarni qaytarmasliklari uqtiriladi. Dars keyingi mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish bilan tugatiladi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi ilmiy tadqiqotimizda ilgari surilgan farazimizning nechog‘lik to‘g‘ri ekanligini isbotlashdan iborat edi. Bu jarayonni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Tayyorgarlik bosqichi – 2023-2024 o‘quv yilining 2-chorakda o‘tkazilib, bu davrda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

– tadqiqotning asosiy yo‘nalishini aniqlab olish;

– muammoning nazariy va amaliy holatini o‘rganish;

– umumta’lim maktabi o‘qituvchilari bilan so‘rovnomalar o‘tkazish;

– o‘quv-me’yoriy hujjatlarini tahlil qilish va o‘rganish;

– tayanch maktabni tanlash, unda tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish uchun moddiy-texnik, ilmiy-uslubiy negiz va pedagogik shart-sharoitlar mavjudligini o‘rganish;

– tajriba sinov ishlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan materiallarni tayyorlash;

2. Ikkinchi bosqich – 2023-2024 o‘quv yilining 3-chorakda quyidagilar amalga oshirildi:

– rejaga binoan tajriba sinov ishlarini boshlash;

– Informatika va axborot texnologiyalari darslarini tahlil qilib borish;

– tajriba sinov ishlaridan olingan natijalarni miqdor va sifat jihatdan tahlil qilish;

– 9-sinf «Informatika va axborot texnologiyalari » fanini o‘qitishda ljodiy topshiriqlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash;

– ilmiy dalillar yig‘ish, ularni umumlashtirish;

– tajriba sinov ishlari natijalarini muhokama etish;

– ilmiy xulosalar chiqarish, tadqiqot natijalarini ilmiy asoslash, ularni faraz hamda vazifalarga mosligi aniqlash;

– tadqiqotimiz davomida to‘plangan barcha materiallarga statistik ishlov berib, uning ishonchli ekanligini isbotlash va metodik ishlarimizni amaliyotga joriy etish tadbirlari ko‘rildi.

Nazorat sinflarida ta’lim jarayoni amaldagi o‘quv reja va dastur, o‘qitish metodikasiga binoan amalga oshirilgan bo‘lsa, tajriba sinov guruhlarida «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o‘qitishda ijodiy topshiriqlar imkoniyatlaridan foydalanilgan holda bajarildi.

Nazorat va tajriba sinov guruhlarining natijalari muntazam tahlil etildi va bir-biriga qiyoslanib, xulosa chiqarildi. Zarur bo‘lgan hollarda bu jarayonda bevosita ishtirok etuvchi o‘qituvchilar tomonidan bildi-

rilgan fikr-mulohazalar atroflicha muhokama etilib, o‘qitish metodikasiga o‘zgartirishlar kiritildi.

Nazorat va tajriba sinov guruhlarining natijalari muntazam tahlil etildi va bir-biriga qiyoslanib, xulosa chiqarildi. Zarur bo‘lgan hollarda bu jarayonda bevosita ishtirok etuvchi o‘qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar atroflicha muhokama etilib, o‘qitish metodikasiga o‘zgartirishlar kiritildi.

O‘quvchilarda shakllangan bilimlarning sifat ko‘rsatkichlarini baholashda ongli o‘zlashtirish, bilimlarni Davlat ta’lim standartlari doirasida tizimliligi va ulardan ijodiy foydalanish qobiliyati kabilar mezon sifatida foydalanildi. Buning uchun kirish va chiqish nazorat-sinovlaridan foydalandik.

Tajriba sinov ishlarini olib borishda Namangan viloyati Chust tumanidagi 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi tanlanib ma’lum tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi.

Tajriba sinov jarayonida informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish mazmuni, o‘rganish shart-sharoitlari, metodlari tanlanib, savol-javob, pedagogik kuzatish natijalari, o‘quvchilarni bilimini nazorat qilish va baholash mezonlari jamlandi. «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o‘qitishda ljodiy topshiriqlardan foydalanib dars o‘tish, ya’ni o‘quvchilar uyda tanishishlari uchun elektron o‘quv qo‘llanma taqdim qilib, undan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatma berish hamda o‘quvchilarning darsga umumiy ma’lumotga ega bo‘lib kelishlari dars samaradorligini oshirishi ham isbotlandi.

Tadqiqotni amalga oshirish dasturimizga binoan o‘quvchilarda informatika va axborot texnologiyalari fanidan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllanganlik statistik tavsifini tuzish ko‘zda tutilgan edi. Bu umumta’lim maktabida «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o‘qitishda ljodiy topshiriqlardan foydalanish samarali ekanligini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan shakllantiruvchi pedagogik tajriba-sinov ishlarining o‘quvchilar bilim darajasini tajriba va nazorat guruhlarida aniqlash hamda qiyosiy tahlil qilish bosqichi 2023-2024 o‘quv yili mobaynida amalga oshirildi. Jami 50 nafar o‘quvchi qatnashdi.

Nazorat sinflarida o‘qitish jarayonida an’anaviy metod asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, tajriba sinov guruhlarida «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o‘qitishda ljodiy topshiriqlardan foydalangan holda o‘tkazildi. Nazorat va tajriba sinov guruhlarining tajriba boshida va tajriba oxirida olingan natijalar muntazam tahlil etib borildi va ular bir-biriga qiyoslanib, xulosa qilindi. Tajriba sinov guruhida «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o‘qitishda ljodiy topshiriqlardan foydalanishning samaradorligi nazariy asoslanib, amaliy jihatdan isbotlab berildi.

Tajriba sinov ishlarining natijalarini matematik statistika usuli bilan qayta ishlash asosida o‘quvchilarning tajriba materiallarini o‘zlashtirishdagi samaradorligi haqida xulosalar chiqarildi. Bu guruhlardagi o‘quvchilarning bilim va ish-harakat usullarining shakllanganlik darajasidagi farqini aniqlash uchun biz o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi natijalarining statistik tavsifini tuzdik. Shunday qilib, bu guruhlardagi o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini qoniqarsiz, qoniqarli, yaxshi va a’lo kabi baholarni qo‘llash imkonini beradi. Buning uchun biz yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek ikkita mustaqil guruhlar oldik (har bir guruh a’zolarining soni ham bir-biriga bog‘liq emas) va qoniqarsiz, qoniqarli, yaxshi va a’lo kabi to‘rt mezonli shaklda tanladik.

O‘tkazilgan tajriba ishlarida o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishni baholash bir qator olimlarning matematik statistik ma’lumotlarni qayta ishlab chiqishga oid usullaridan foydalanish orqali o‘rganib chiqildi va tajriba sinov natijalariga tadbiq qilindi.

NATIJALAR VA STATISTIK TAHLIL

Ilmiy tadqiqot ishlarining muvaffaqiyati nazariy g‘oyalarning amaliy faoliyatdagi samaradorlik darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun, ushbu tadqiqot ishida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasini ishlab chiqish, samarali yo‘llari, metod hamda vositalarini aniqlash, tajriba-sinov bosqichlarini belgilash va ular o‘rtasida izchillik hamda uzviylikning qaror topishini ta’minlash muhim vazifalardan biridir.

Pedagogik tadqiqotlarlarda faraz sifatida nazorat sinflarida olib borilgan an’anaviy metodika asosida olingan natijalar tajriba guruhlarida olib borilgan «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o‘qitishda ljodiy topshiriqlardan foydalanish asosida olingan natijalar bilan taqqoslanib, tajriba guruhlaridagi olingan natijalarning samarali ekanligi ko‘rsatiladi. Shuning uchun ham, biz tajriba-sinov ishlariga tanlangan farazning to‘g‘riligini tekshirish maqsadida matematik-statistika usullaridan foydalandik. Tajriba natijalarini qayta ishlashda matematik-statistika usullaridan biri sifatida Xi kvadrat mezoni tanlandi.

Bunda H_0 faraz sifatida har ikki (tajriba va nazorat) sinflarida baholash turlari bo‘yicha kutilayotgan ehtimollar teng (p_{11}қ$p_{21,}$ p_{12}қp_{22}, … p_{1c}қp_{2c}) deb, alternativ (muqobil) H_1 faraz sifatida (p_{11}≠$p_{21,}$ p_{12}≠p_{22}, … p_{1c}≠p_{2c}) olindi. Ushbu statistik farazni tekshirish uchun X2 mezonidan foydalanildi. Ya’ni:

$$T_{kuzatuv} = \frac{1}{n_1 n_2} \sum_{i=1}^{C} \frac{(n_1 O_{2i} - n_2 O_{1i})^2}{O_{1i} + O_{2i}}$$

formulasidan foydalandik.

Bu yerda, T statistik qiymat, n_1 va n_2 tajriba sinov ishlarida ishtirok etgan nazorat va tajriba guruhlaridagi talabalar soni bo‘lib, n_1 nazorat guruhi o‘quvchilar soni, n_2 – tajriba guruhi o‘quvchilar soni O_{1i} va O_{2i} lar mos ravishda nazorat va tajriba guruhlarida olingan baholar soni.

$T_{kuzatuv}$ qiymati T_{kr} bilan taqqoslanadi. Agar $T_{kuzatuv} > T_{kr}$ bo‘lsa H_0 faraz rad etilib H_1 faraz qabul qilinadi.

Bu yerdagi T_{kr} – normallashgan chetlanish ishonchlilik ehtimoli p asosida aniqlanadi.

Ozodlik darajasi esa KқC-1 formulasi orqali topiladi.

C-baholash turlari sonini bildiradi.

X^2 mezonini tajriba natijalari tanlangan nazorat va tajriba sinfi o‘quvchilarida 4 xil baholash turlari asosida olib borilgani uchun Cқ4 ga teng. Unda, pқ0,05 deb olsak, KқC-1қ3 ga teng bo‘lib, X^2 jadvali asosida olingan T_{kr}қ 7,81 ga teng.

Tadqiqot ishlari natijalarini tahlil etish uchun hisoblash ishlarini quyidagi formula asosida olib boramiz:

$$T = \frac{1}{n_1 n_2}\left(\frac{(n_1 O_{21} - n_2 O_{11})^2}{O_{11} + O_{21}} + \frac{(n_1 O_{22} - n_2 O_{12})^2}{O_{12} + O_{22}} + \frac{(n_1 O_{23} - n_2 O_{13})^2}{O_{13} + O_{23}} + \frac{(n_1 O_{24} - n_2 O_{14})^2}{O_{14} + O_{24}}\right)$$

Tajriba sinov ishlari natijasida olingan ma’lumotlar ishonchli ekanligini aniqlash maqsadida X^2 (xi kvadrat) mezoni asosida ish olib borilgan bo‘lib, unda o‘rta qiymatlarning tengligi haqidagi H_0: $T_{kr} = T_{kuzatuv}$ farazni, unga muqobil (alternativ) H_1: $T_{kr} < T_{kuzatuv}$ faraz olingan.

Tajriba sinov ishlarini olib borishda tajriba va nazorat sinflarini ajratib olish uchun Namangan viloyati Chust tumanidagi 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi 9-sinf o‘quvchilaridan nazorat ishi olindi.

Nazorat ishi natijalariga ko‘ra olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirildi.

$T_{kuzatuv} > T_{kr}$

Sinflarning natijalari

Ta'lim muassasa nomi	Sinflar	O'quvchilar soni	5 baho	4 baho	3 baho	2 baho	Samaradorlik
Namangan viloyati Chust tumanidagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi	9-A	25	6	11	6	0	68%
	9-B	25	3	10	10	0	57%


Tajriba-sinov ishlarini olib borish maqsadida Namangan viloyati Chust tumanidagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi 9-sinflarini tanlab oldi. Bu sinflarda darslar ikki xil usul: an'anaviy va noan'anaviy usullar asosida o'tkazildi. 9-sinflarning 9-A va 9-B sinflari «Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan tajriba va nazorat sinflari tanlab oldi. Tajriba guruhida mashg'ulotlar ljodiy topshiriqlardan foydalanib yaratilgan «Informatika» fanidan ijodiy topshiriqlar asosida, nazorat guruhida esa an'anaviy dars o'tish usuli yordamida olib bordi. Tajriba guruhida dars jarayoni kompyuterning texnik vositalari, elektron doska yordamida dars mashg'ulotlarida tayyorlangan «Informatika» ijodiy topshiriqlarni qo'llab o'quv mashg'ulotlari o'tildi. Nazorat guruhida dars jarayoni an'anaviy dars o'tish usuli bo'yicha olib borildi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida 9-sinf o'quvchilaridan fanni o'qitish mazmuni, o'rganish shart-sharoitlari, metodlari tanlanib, savol-javob, pedagogik kuzatish natijalari, o'quvchilarni bilimini nazorat qilish va baholash mezonlari jamlandi.

Namangan viloyati Chust tumanidagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabida olingan natijalar

Tanlanmalar	5(a'lo)	4(yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	O'quvchilar soni
Tajriba guruhi	O_{11}қ7	O_{12}қ12	O_{13}қ6	O_{14}қ0	n_2қ25
Nazorat guruhi	O_{21}қ4	O_{22}қ10	O_{23}қ11	O_{24}қ0	n_1қ25
	$O_{11}+O_{21}$қ11	$O_{12}+O_{22}$қ22	$O_{13}+O_{23}$қ17	$O_{14}+O_{24}$қ0	n_1+n_2қ50

$$T=\frac{1}{22\cdot 23}\left(\frac{(23\cdot 5-22\cdot 2)^2}{7}+\frac{(23\cdot 12-22\cdot 6)^2}{18}+\frac{(23\cdot 4-22\cdot 13)^2}{17}+\frac{(23\cdot 1-22\cdot 2)^2}{3}\right)=8{,}37$$

Yuqoridagi hisobga ko'ra Tқ8,37> T_{kr}қ7,81 bo'lganligi uchun nolinchi faraz rad etiladi va H_1 faraz qabul qilinadi. Bundan ko'rinadiki, tanlangan guruhda o'tkazilgan tajriba sinov ishlari samarali.



Baholar dinamikasi

Tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Umumta'lim «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o'qitishda ljodiy topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarda qisqa vaqtda yaxlit mavzularni eslab saqlab qolish, ular bo'yicha amaliy mashg'ulotlar bajara olish, ya'ni o'zlashtirish sifatini oshirdi. Bunda ta'limning samaradorligi va o'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetentlik matematik statistik mezonlar orqali 1,16 barobarga, ya'ni 16% ga oshganligi isbotlandi.

XULOSA

Maktab o'quvchilarida ijodkorlikni rivojlantirish muammosi doirasida olib borgan tadqiqot ishlarimiz natijalari bo'yicha quyidagi xulosalar chiqarishimizga asos bo'ldi, jumladan:

1. Umumiy o'rta maktablarda informatika fanini o'qitish informatika fanini o'qitishni davr talablari darajasida amalga oshirish imkonini beradigan obyektiv shart-sharoitlarning yaratilmaganligi (informatika fanini o'qitish jarayonining zamonaviy o'quv jihozlari, texnika vositalari, o'quv-metodik adabiyotlar, fan dasturi, darslik, o'quv hamda metodik qo'llanmalar, shuningdek, ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlanishi) dalillandi.

2. Mazkur ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan informatika fani o'qituvchilarining mutaxassislik fanlari hamda pedagogik bilimlar asoslarini puxta o'zlashtirmaganliklari aniqlandi.

3. Egallagan mustaqil va pedagogik bilimlarni amaliyotda qo'llay olish malakasiga ega emasliklari, informatika fani o'qituvchilarining o'z ustida ishlash va ijodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmasiga ega emasliklari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalana olmasliklari tahlil etildi.

4. Ta'lim muassasalarining yetarli darajada o'quv moddiy-texnik bazasiga ega emasligi, maktab o'quvchilarida ijodkorlikni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish lozimligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi qonun va qonun osti hujjatlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020-yildgi PF-6079-son https://lex.uz/ru/docs/-5030957

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021-yildagi 23-son. https://lex.uz/docs/-5234746

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-sonli farmoni.

4. Sh. Mirziyoyev 18.01.2022-yildagi Maktab ta’limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan

https://qalampir.uz/uz/news/darsliklarni-yangilashga-605-milliard-sum-azhratilmok-da-54398

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning «O‘qituvchi va murabbiylar kuni»ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 2020-yil 1-oktyabr. http://uza.uz/posts/3452

6. Davronov, Z. (2007). *Ilmiy ijod metodologiyasi*. Toshkent: Iqtisod va moliya.

7. Ibragimova, G. N. (2017). *Oliy ta’lim tizimida interfaol texnologiyalar vositasida o‘quvchilardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish*. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye, 4.

8. Ibragimova, G. N. (2016). *Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish*. Toshkent: Fan va texnologiyalar.

9. Davurova, G. A. (2019). *Maktab o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish*. *XXXVII Mejdunarodnaya nauchnaya konferensiya «Aktualniye vizovi sovremennoy nauki»*.

10. Inson taraqqiyoti bo‘yicha Milliy hisobot 2018. Onlayn manzilda http://hdr.undp.org/en/year/2018

11. Siyosat haqida qisqacha ma’lumot: Yoshlarning bandligini oshirish: asosiy mehnat ko‘nikmalarining ahamiyati. 2013. Onlayn: http://www.ilo.org/skills/pubs/WCMS_234467/lang--en/in dex.html

12. European Commission. Innovating Education and Creativity. Maqola: https://ec.europa.eu.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0004-4216-6452

KREATIV PEDAGOGIKA: TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNING SAMARADORLIGI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Ushbu maqolada an’anaviy o‘qitish metodlarida o‘quvchilarning passiv ishtirokini kuchaytirishi va interfaol innovatsion ta’lim texnologiyalarining ijodiy fikrlash hamda muammolarni hal qilish qobiliyatlariga ta’siri o‘rganildi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida o‘tkazilgan eksperimentda tajriba guruhida loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim va aralash ta’lim metodlari qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kreativ pedagogika yordamida ta’lim olgan o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati 73%ga oshgan, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 14,5%ni tashkil etgan. Shuningdek, interfaol va innovatsion metodlar o‘quvchilarning motivatsiyasi, qiziqishi va faolligini sezilarli darajada oshirgan.

Kalit so‘zlar: Kreativ pedagogika, Innovatsion ta’lim metodlari, Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, interfaol o‘qitish usullari, tajriba va nazorat guruhlari tahlili, muammoli ta’lim yondashuvi.

KIRISH

Hozirgi zamonaviy jamiyatda inson kapitalining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri kreativlik va innovatsion fikrlash qobiliyati hisoblanadi. Ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish avvalo ta’lim tizimidan boshlanadi. An’anaviy o‘qitish yondashuvlari asosan o‘quvchilarning yodlash va qayta takrorlash orqali bilim olishlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, muammolarni yechish va yangilik yaratish ko‘nikmalarini to‘liq rivojlantira olmaydi. Shu sababli, kreativ pedagogika tamoyillarini ta’lim jarayoniga joriy qilish zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar ta’lim sohasini tubdan o‘zgartirib, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkoniyat yaratmoqda. Kreativ pedagogika nafaqat o‘quvchilarning individual salohiyatini ochishga, balki jamiyatga raqobatbardosh mutaxassislar yetishtirishga xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlarda, xususan, Skandinaviya mamlakatlarida kreativ pedagogika tamoyillari keng qo‘llanilib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning bilimlarini amalda qo‘llash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar doirasida zamonaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezident qarorlari va farmonlarida o‘quvchilarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, zamonaviy ta’lim usullari bilan ta’minlash asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Ushbu o‘zgarishlar kreativ pedagogikaning milliy ta’lim tizimida keng joriy etilishi zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotda kreativ pedagogikaning o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdagi o‘rnini ilmiy asosda o‘rganishga qaratilgan. Bugungi kunda innovatsion pedagogika usullarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtirish, tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, mustaqil o‘rganish va o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotda interfaol metodlar, muammoli ta’lim va loyiha asosida o‘qitish yondashuvlari ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqotning yangiligi shundaki, unda innovatsion yondashuvlar asosida kreativ pedagogika modellarini shakllantirish va ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini baholash amalga oshiriladi. An’anaviy yondashuvlar bilan kreativ metodlarning natijalarini taqqoslash orqali ushbu metodlarning samaradorligi empirik tahlil qilinadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida kreativ pedagogika tamoyillari bo‘lib, innovatsion o‘qitish metodlarining o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlariga ta’siri hisoblanadi. Agar ta’lim jarayonida kreativ pedagogika tamoyillari va interfaol o‘qitish metodlari samarali qo‘llanilsa, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, mustaqil fikrlash darajasi va o‘quv jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasi sezilarli darajada oshadi.

Kreativ pedagogikaning ta’lim jarayoniga joriy qilinishi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ijodiy va tahliliy tafakkurini shakllantirish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion o‘qitish usullaridan foydalanish o‘quvchilarning faolligi va ijodiy salohiyatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, kelgusida pedagoglarning kreativ metodlarni qo‘llash bo‘yicha malakasini oshirish, ta’lim dasturlarini innovatsion yondashuvlar bilan boyitish va kreativ pedagogika tamoyillarini maktab, kollej va universitetlar darajasida keng joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish zarur.

H.S. Saidahmedovning «Kreativ ta’lim va uning rivojlanish istiqbollari», Q.M. Abdullayevaning «Kreativlikni rivojlantirishda innovatsion metodlarning roli», D.M. Yusupovaning «Kreativ pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishning ilmiy-metodik asoslari», B.X. Xodjayevning «Kreativ ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslari», D.I. Ro‘ziyevaning «O‘quv jarayonida kreativ yondashuvlarni joriy etish», Sh.M. Zufarovning «Ta’lim jarayonida interaktiv metodlarning o‘rni» H.S. Saidahmedovning «Kreativ yondashuvning ta’lim sifatiga ta’siri» kabi asarlari va ilmiy maqolalari o‘rganildi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Ushbu tadqiqotda, kreativ pedagogikaning samaradorligini baholash maqsadida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida taqqoslash amalga oshirildi. Tadqiqotda tajriba guruhiga interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim kabi innovatsion pedagogik usullar qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy ta’lim usullari davom ettirildi. Shuningdek, ilmiy natijalar ishonchli bo‘lishi uchun o‘quvchilarning fikrlari va bilimlarini o‘rganish uchun so‘rovnomalar, testlar va intervyular tashkil etildi.

Tajriba davomida 120 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar tajriba (61 nafar) va nazorat (59 nafar) guruhlariga bo‘lingan. Tajriba guruhida kreativ pedagogika tamoyillariga asoslangan maxsus darsliklar, qo‘llanmalar va interaktiv texnologiyalar qo‘llanilgan. Nazorat guruhida esa an’anaviy o‘quv metodlari va materiallaridan foydalanilgan. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning faoliyatini, ijodiy fikrlashini, motivatsiyasini va darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratildi.

Tajriba natijalari o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabatini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Kreativ pedagogika qo‘llangan guruhlarda o‘quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va ijodiy fikrlash darajasi sezilarli darajada oshdi. O‘quvchilarning dars jarayonida faollik ko‘rsatish dinamikasiga kelsak, interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqi yuqori darajaga ko‘tarildi.

O‘quvchilarning faollik dinamikasi. Tajriba guruhida interfaol metodlar qo‘llanilganda, o‘quvchilarning dars jarayonida savol berishga bo‘lgan qiziqishi 40% dan 82% gacha oshganini ko‘rdik. Bu, o‘quvchilarning faollik ko‘rsatishi va darsga nisbatan ilgari erishilmagan darajada qiziqish bildirishi bilan izohlanadi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga, muhokamalarda faol ishtirok etishga tayyor bo‘lishdi. Bu metodlarning eng muhim jihatlaridan biri o‘quvchilarni o‘z fikrlarini ifoda etish uchun xavfsiz muhit yaratishi va ularga ijodiy fikrlash imkoniyatini taqdim etishidir.

Kreativ pedagogikani amaliyotga tatbiq qilishdagi qiyinchiliklar. Kreativ pedagogikani ta’lim jarayoniga joriy qilishda bir qator muammolar va qiyinchiliklarga duch kelindi. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun turli usullarni taklif qilish mumkin.

Texnologik resurslarning yetishmovchiligi. Birinchi muammo texnologik resurslarning yetishmovchiligi bilan bog‘liq edi. Innovatsion texnologiyalar va interaktiv vositalar o‘qitishda samarali bo‘lsa-da, ularga kirish imkoniyatining cheklanganligi bu usullarni kengaytirish va joriy qilishda qiyinchiliklar tug‘dirdi. Bu muammoni bartaraf etish uchun ta’lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash zarur. O‘qituvchilar uchun innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishga qaratilgan treninglar va kurslar tashkil etilishi kerak.

Ikkinchi muammo pedagoglarning yangi metodlarga moslashishidagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq. O‘qituvchilar yangi pedagogik metod-

larni o‘rganishga tayyor bo‘lishsa-da, ba’zi o‘qituvchilar uchun bu jarayon qiyin bo‘lishi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun o‘qituvchilar uchun kreativ pedagogika bo‘yicha maxsus treninglar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish zarur. O‘qituvchilarni yangi metodlarga o‘rgatish va ularga kerakli bilim va ko‘nikmalarni berish, kreativ pedagogikaning muvaffaqiyatli tatbiqi uchun muhimdir.

O‘quvchilarning an’anaviy metodlarga o‘rganganligi ham bir muammo sifatida ko‘rildi. Ko‘plab o‘quvchilar eski metodlarga odatlanib qolgan va yangi metodlarga ko‘nikishlari vaqt talab etadi. Buning uchun ularni asta-sekin yangi metodlarga o‘rgatish va kreativ ta’lim usullarini bosqichma-bosqich tatbiq etish kerak. Bu jarayonni mukammal amalga oshirish uchun o‘qituvchilar va o‘quvchilar orasida yaxshi hamkorlik o‘rnatish, motivatsiya va ishonch yaratish muhim ahamiyatga ega.

Interfaol metodlarni yanada kengroq qo‘llash. Tadqiqot natijalariga asoslanib, interfaol metodlarni yanada kengroq qo‘llash tavsiya etiladi. Loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim va o‘yin texnologiyalarini yanada samarali ravishda tatbiq etish kerak. Bu metodlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning o‘qish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

O‘quv dasturlarini kreativ pedagogika tamoyillari asosida takomillashtirish zarur. Ta’lim jarayonini o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga moslashtirish, o‘quvchilarning yanada samarali ta’lim olishlariga yordam beradi. Shu bilan birga, darslarda ijodiy va interaktiv metodlarni qo‘llash, o‘quvchilarning ko‘proq ishtirok etishini ta’minlaydi.

Baholash tizimini yangilash. Faoliyatni baholashda testlar bilan bir qatorda, ijodiy ishlar, loyiha natijalari va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini baholash tizimini rivojlantirish muhim. O‘quvchilarning ijodiy yondashuvlarini, fikrlarini va g‘oyalarini baholash tizimi, kreativ pedagogikaning samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolarni va ularning yechimlarini tavsiflashda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan eng muhim masalalarga to‘xtalib o‘tilgan. Ularning motivatsiyasi, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, va psixologik qulaylikning etishmasligi kabi muammolar, ta’lim jarayonining samaradorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Har bir muammoning yechimlari interaktiv yondashuvlar, texnologiyalarning qo‘llanishi va psixologik treninglar orqali amalga oshirilishi zarur.

Tadqiqotda quyidagi metodologiya qo‘llanildi:

Eksperimental metod. Tadqiqot tajriba guruhida va nazorat guruhida o‘tkazildi. Tajriba guruhiga kreativ pedagogika metodlari, nazorat guruhiga esa an’anaviy ta’lim metodlari tatbiq etildi.

Survey (so‘rovnoma) metodlari. O‘quvchilarning dars jarayoniga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash uchun so‘rovnomalar o‘tkazildi. Bu metod o‘quvchilarning fikrlarini va qoniqish darajasini o‘lchashda muhim vosita bo‘ldi.

Statistik tahlil metodi. O‘quvchilarning kreativi metodlarga bo‘lgan munosabati va darsdan qoniqish darajasini taqqoslash uchun statistik tahlil usullari qo‘llanildi. Bu natijalar o‘quvchilarning ijodiy faoliyatga qiziqishini, o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishlarini o‘lchash imkonini berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari kreativ pedagogikaning ta’lim jarayoniga bo‘lgan ta’sirini chuqur tahlil qilishga imkon berdi. Tadqiqotda tajriba guruhida va nazorat guruhida amalga oshirilgan o‘quv jarayoni davomida o‘quvchilarning kreativ pedagogikaga bo‘lgan munosabati, darslardan qoniqish darajasi va mustaqil fikrlashga intilishi o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kreativ pedagogika metodlari ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari

Guruh	Ishtirokchilar soni	Qo‘llanilgan metodlar
Tajriba guruhi	61	Interfaol darslar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, aqliy hujum, jamoaviy ish
Nazorat guruhi	59	An’anaviy ma’ruza, tushuntirish, yodlashga asoslangan usullar


O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini baholash uchun tadqiqotning boshida va oxirida maxsus testlar o‘tkazildi. Test natijalari quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan:

Kreativ pedagogikaga o‘quvchilarning munosabati

Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi (o‘rtacha ko‘rsatkich)	Nazorat guruhi (o‘rtacha ko‘rsatkich)
Kreativ pedagogikaga ijobiy munosabat	90%	45%
Darslardan qoniqish darajasi	85%	50%
O‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish	88%	40%

Tajriba guruhidagi o‘quvchilarning kreativ pedagogikaga bo‘lgan ijobiy munosabati 90%ni tashkil etdi, bu esa o‘quvchilarning ko‘pchiligi bu yondashuvni qiziqarli va samarali deb bilishini anglatadi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich faqat 45%ni tashkil etdi, bu an’anaviy ta’lim metodlarining o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otishda kam samara berishini ko‘rsatadi. Bu natija, kreativ pedagogika metodlarining o‘quvchilarda ijobiy hissiyotlarni uyg‘otib, dars jarayoniga bo‘lgan motivatsiyani oshirayotganini tasdiqlaydi.

Jadvalda o‘quvchilarning kreativ pedagogikaga munosabati va dars jarayonidan qoniqish darajasi o‘rtacha ko‘rsatkichlarda taqqoslangan.



Kreativ pedagogikaga o‘quvchilarning munosabati.Darslardan qoniqish darajasi tajriba guruhida 85%ni tashkil etdi, bu o‘quvchilarning aksariyati interfaol darslar va zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘tkazilgan darslardan mamnun ekanligini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa qoniqish darajasi 50%ni tashkil etdi. Bu, an’anaviy ta’lim metodlarining o‘quvchilarga to‘liq ishtirok etish imkoniyatini bermasligini va

ularning dars jarayoniga bo‘lgan qoniqish darajasi pastligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning 88%i o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishni bildirgan, bu esa kreativ pedagogika yordamida o‘qitilgan o‘quvchilar mustaqil ravishda bilimlarini oshirishga va o‘z ustida ishlashga intilishlarini anglatadi. Nazorat guruhida bu ko‘rsatkich faqat 40%ni tashkil etdi, bu an’anaviy metodlarning o‘quvchilarni mustaqil ishlashga undashda samarali emasligini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning fikrlariga ko‘ra, kreativ pedagogika metodlari darslarni qiziqarli qiladi, o‘quvchilarga ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash imkoniyatlarini beradi. Ularning fikricha, bu metodlar shaxsiy rivojlanish va kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun zarurdir. Shunday qilib, tadqiqot natijalari kreativ pedagogikaning o‘quvchilarning darsga bo‘lgan munosabatini, qoniqish darajasini va mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligini isbotlaydi. Bu yondashuv nafaqat ta’lim sifatini yaxshilaydi, balki o‘quvchilarni innovatsion fikrlash va ijodiy faoliyatga rag‘batlantiradi.

XULOSA

Zamonaviy ta’limda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan va quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Innovatsion ta’lim metodlari va texnologiyalari orqali o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga ko‘maklashishdan iborat edi. Tadqiqot davomida mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar chuqur o‘rganildi, mavjud muammolar aniqlanib, ularni hal etish yo‘llari tahlil qilindi.

2. Tajriba-sinov jarayonida kreativ pedagogikaga asoslangan ta’lim metodlarining o‘quvchilarning faolligiga, qiziqishiga, o‘zlashtirish sifatiga va ijodiy qobiliyatlariga ta’siri eksperimental ravishda tekshirildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, kreativ pedagogikani qo‘llash ta’lim jarayonida ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

Interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish kabi yondashuvlar o‘quvchilarni darsga faol jalb qilishga, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Tajriba guruhidagi o‘quvchilarning test natijalari, faollik ko‘rsatkichlari va qoniqish darajalari nazorat guruhidagi o‘quvchilarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

So‘rovnoma va intervyular natijalari o‘quvchilarning kreativ darslarga bo‘lgan ijobiy munosabatini va ular o‘zlarining ijodiy salohiyatini namoyon eta olish imkoniyatiga ega bo‘layotganliklarini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar kreativ pedagogikaning o‘quv jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

3. Tadqiqot davomida kreativ pedagogikani amaliyotga tatbiq qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar ham aniqlanib, ularni bartaraf etish yo‘llari ishlab chiqildi. Xususan, o‘quvchilarni yangi metodlarga moslashishidagi qiyinchiliklar, texnologik resurslarning yetishmasligi, psixologik muhitning yetarli emasligi kabi muammolarni hal qilish uchun tavsiyalar berildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va resurslaridan foydalanishning muhimligi ta’kidlandi.

4. Ta’lim dasturlarini kreativ pedagogika tamoyillari asosida modernizatsiya qilinib ularga ijodiy topshiriqlar, loyihalar va muammoli vazifalar kiritildi. O‘quv jarayonida interfaol metodlarni, muammoli ta’lim, loyihalar asosida o‘qitish va o‘yin texnologiyalarini keng qo‘llanildi.

O‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, savollar berish va muhokamalarda faol ishtirok etish uchun aqliy hujum metodidan foydalanib, ularga mustaqil ishlash, ma’lumotlarni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini o‘rgatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli farmoni – Rivojlanish strategiyasi va ta’limni yaxshilash bilan bog‘liq tadqiqotlar uchun.

2. B.X. Xodjayev, Sh.M. Zufarov. «Pedagogik innovatika». — Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – Pedagogik innovatsiyalarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar.

3. D.I. Ro‘ziyeva. «Pedagogik innovatsiyalar va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish». — Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2012. – Innovatsiyalar va ta’lim jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar.

4. N.H. Jorayev. «O‘quv jarayonida kreativ yondashuv». — Samarqand: Ziyo-nashr, 2021. – Kreativ yondashuvlar va ularning ta’limdagi o‘rni haqida tadqiqotlar.

5. Yu.T. Begimqulov. «Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar». — Toshkent: Innovatsion ta’lim, 2018. – Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga kiritish bo‘yicha tadqiqotlar.

6. M.I. Yusupov. «Shaxsiy rivojlanish uchun kreativ pedagogika». — Toshkent: Ilm-ziyo, 2017. – Shaxsiy rivojlanish va kreativ pedagogik yondashuvlar haqida tadqiqotlar.

7. H.S. Saidahmedov. «Kreativ ta’lim va uning rivojlanish istiqbollari». — Toshkent: Ziyo-maktab, 2019. – Kreativ ta’lim va uning istiqbollari haqida tadqiqotlar.

8. Yu.A. Kruglova, O‘.Q. Tolipov. «Ta’lim texnologiyalari nazariyasi». — Toshkent: Ilmiy nashrlar markazi, 2020. – Ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar.

9. Q.M. Abdullayeva. «Kreativlikni rivojlantirishda innovatsion metodlarning roli». Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. — Toshkent: TDPU, 2020. – Kreativlikni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar.

10. D.M. Yusupova. «Kreativ pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishning ilmiy-metodik asoslari»: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2019. – Kreativ pedagogik texnologiyalarni o‘rganish.

11. B.X. Xodjayev. «Kreativ ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslari» // Oliy ta’lim muammolari jurnali. — 2018. — №3. — B. 45-60. – Ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslari bo‘yicha tadqiqotlar.

12. D.I. Ro‘ziyeva. «O‘quv jarayonida kreativ yondashuvlarni joriy etish» // Ta’lim va rivojlanish. — 2019. — №4. — B. 33-42. – Kreativ yondashuvlarni ta’lim jarayonida qo‘llash.

13. Zufarov Sh.M. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlarning o‘rni // Pedagogik innovatsiyalar jurnali. — 2020. — №2. — B. 78-85. – Interaktiv metodlarning ta’lim jarayonidagi roli.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0007-6635-5727

TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI



Maqsuda Ishmuratova

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu maqolada ta’lim va tarbiya tizimida talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy muhitning ahamiyati talabalarning oila qurishga tayyorlik darajasi, oilaviy hayotga tayyorlik muammolari va yechimlarini ko‘rib chiqishdan iborat. Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosini dolzarb psixologik muammo sifatida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslash hamda amaliyotdagi mavjud holatni o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Oila, ma’naviy tayyorlik, qadryatlar, ijtimoiy-psixologik muhit, nikoh, trening, psixokorreksion dastur, metodika.

KIRISH

Mamlakatimizda, hozirgi davrda oila, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi psixologik muhit, ta'lim-tarbiya va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tatqiq etish muhim muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Jamiyatimizda oila mustahkamlash, yoshlarimizni har tomonlama yetuk, sog'lom va barkamol insonlar qilib tarbiyalash, jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari kabi yurtimizdagi ma'naviy o'zgarishlar bilan uyg'un tarzida rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muhim yo'nalishi sifatida doimiy e'tibor berib kelinyapti.

Aytish joizki, jamiyat taraqqiyoti mamlakat iqtisodiy potensialining qanchalik yuksakligi bilan emas, balki bu potensial har bir kishining baxtliligi va har tomonlama rivojlanishi uchun yo'naltirilganligi bilan baholanadi. Insoniy taraqqiyot barcha taraqqiyparvar mamlakatlar e'tirof etayotgan bu jamiyatni rivojlantirish maqsadlari to'g'risida fikr yuritishning yangi va o'ziga xos yo'lidir.

Bunday jamiyat uchun insonning o'zi: uning turmushi va ish sharoitlari, ma'lumot olish imkoniyatlari, salomatligi, jismoniy va ruhiy jihatdan yosh avlodni tarbiyalash imkoniyati, atrof-muhit, turar joy va boshqalardan muhimroq narsa yo'qdir. Mana shunday jamiyat oilalardan tashkil topadi. Oila jamiyatning eng kichik halqasi sanaladi. Oiladagi muammolar jamiyatga, jamiyatdagi muammolar esa oilaga o'z ta'sirini o'tkazadi. Sog'lom jamiyatni sog'lom oilalar tashkil etadi.

Oilaning ijtimoiy-madaniy holatini jamiyatning, oilaning ijtimoiy-madaniy holati belgilab beradi. Jamiyat va oila muntazam ravishda o'zaro ta'sirlashish ichida bo'ladi.

Oilada kishi hayot faoliyatining barcha jabhalari: ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy, g'oyaviy va shaxsiy tomonlari aks etadi. Oilada er-xotinning o'z o'rnini topishi, farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda, ularni o'z iste'dodlarini amalga oshira olishi uchun moddiy va ma'naviy imkoniyat yaratishda barobar ishtirok etishi, o'zaro hurmat, birinibirini qadrlashi, boshqalar bilan muomalada ham totuvlikni irodani saqlashga harakat qilishi oilaviy munosabatlarda asosiy rol o'ynaydi. Buni hamisha yodda tutgan holda barcha yoshlarni oilaviy hayotga har jihatdan tayyorlab borish zarurdir.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorgarligi doimo ularning jinsiy tarbiyalash masalasida namoyon bo'lsa-da, ammo bu bilan cheklanib qolish yetarli emas. Endilikda diqqat-e'tiborni nafaqat jinsiy tarbiyaga, balki oilaviy munosabatlar psixologiyasiga ham qaratish lozim bo'lib bormoqda. Aniqrog'i, jinslararo bo'ladigan munosabatlarning ijtimoiy-ruhiy jihatlari xususidagi ta'lim yoshlar uchun nihoyatda muhim ekanligini turmushdagi muammolar aks ettirmoqda.

Zero qayd etib o'tganimizdek, baxtli oila masalalari bilan shug'ullangan yetakchi sotsiolog va psixolog olimlar ham uning eng muhim shart-sharoitlari mavjudligini aniqlashga intiladilar, ya'ni er-xotinning o'zaro bir-birini tushunishi; alohida uy-joyning mavjudligi; moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganlik; farzandlar; nikoh mustahkamligiga ishonch; oilada bo'sh vaqtni qiziqarli o'tkazish; o'ziga yoqqan ish bilan ta'minlanganlik; ma'lumotning mosligi; ish joyining qulayligi; yaxshi do'stlarning mavjudligi; er-xotinning erkinligidir.

Respublikamizda qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash mavzusida psixolog olimlardan D.U. Abdullayeva[1], F.A. Akramova[2], R. Dushanov, U.V.M. Karim N.X. Lutfullayeva[3], G.Z. Ziyaviddinova va boshqalar tomonidan turmush qurgan va qurmagan yoshlarning oilaviy munosabatlarga nisbatan tayyorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan, lekin talaba qizlarning oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari alohida psixologik muammo sifatida kam o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi olimlaridan V.A. Sesenko, S.V. Kovalev I.V. Grebennikov va boshqalar mazkur muammoning ayrim jihatlarini o'rganishgan.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Muammolarni yechish jarayonida milliy va xorijiy tajribalar tahlili, treninglarning samaradorligini baholashga qaratilgan eksperimental faoliyat va statistik tahlillar birgalikda olib borildi. Bunda nafaqat treninglarning nazariy asoslari o'rganildi, balki amaliy mashg'ulotlar yordamida talabalarning ijtimoiy tasavvurlari rivojlanish dinamikasi kuzatildi. Ilmiy ishda qo'llanilgan usullar o'zaro integratsiyalashgan holda, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan yondashuv asosida amalga oshirildi[4].

1. Nazariy tahlil usuli. Dastlabki bosqichda oila-nikoh munosabatlariga tayyorlik masalalari bo'yicha asarlarning ilmiy-adabiy manbalar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ushbu tahlil natijasida oilaviy hayotga tayyorlikning psixologik jihatlari aniqlanib, treninglarni qo'llashning samaradorligi nazariy jihatdan asoslab berildi.

2. Eksperimental usul. Trening metodikasi talabalar orasida tajriba-sinovdan o'tkazildi. Trening mashg'ulotlari maxsus ishlab chiqilgan dastur asosida tashkil etilib, talaba qizlarining nikohga ma'naviy tayyorgarlik darajasi dinamikasi kuzatib borildi. Tajribada ishtirok etgan talabalar bilan psixologik o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

3. Diagnostik usul. Trening samaradorligini baholash uchun diagnostik usullar – so'rovnomalar, kuzatish, test va baholash mezonlaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali talaba qizlarning treningdan avval va keyingi tayyorlik holati, ijtimoiy tasavvurlari taqqoslandi.

4. Interfaol usul. Talabalarning faol ishtirokini ta'minlash uchun treninglarda interfaol usullar qo'llanildi. Bu usullar talabalarni o'zaro fikr almashishga, jamoaviy ishlashga va amaliy masalalarni hal qilishga jalb etdi.

5. Statistik tahlil usuli. Tajribadan olingan natijalarni tahlil qilish va trening samaradorligini aniqlash uchun statistik usullar qo'llanildi. Natijalar dinamikasi grafiklar, diagrammalar va jadval shaklida taqdim etilib, talabalarning natijalaridagi o'zgarishlar aniq raqamlarda ko'rsatildi. Bu usul tajriba jarayonining obyektiv baholanishini ta'minladi.

Mashg'ulotlar innovatsion ta'lim usullari asosida olib borishda professor-o'qituvchilar ko'magi va maslahatlaridan samarali foydalanildi. Trening o'tkazish uchun xona shinam va keng bo'ldi, maxsus tuzilgan dastur asosida natijaga ko'ra past natija ko'rsatgan respondentlar bilan psixologik treninglar tashkil etildi. Dastur asosida esa treningni boshqaruvchi mashg'ulot ishlanmasi ham tuzildi. Bu mashg'ulotlar talaba qizlarning oila haqida tasavvurlarini boyitishga, ma'naviy-axloqiy qarashlarini o'zgartirishga va qadryatlarini qadrlash kabi yuksak tushunchalarni mustahkamlashga yordamlashuvchi manba bo'lib xizmat qildi. Yuqori natija ko'rsatgan respondentlar kuzatuvga olindi. Treningdan so'ng qayta metodikalar tashkil etildi va natijalar tahlil qilindi.

---

[1] Abdullayeva D.U, R.Varqulov, N.Atabayeva. O ila psixologiyasi – Toshkent: «Tafakkur Bo'stoni», 2015 –28-b

[2] Akramova f.a. the establishment of a healthy psychological climate of the family as the basis of stability of society.

[3] Lutfullayeva N.X. «Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari». Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2006. – 15

[4] Abdullajonova M., Isaqova M., Zokirova M., Isroiljonov S. Ijtimoiy psixologik treningdan praktikum. – F.: FarDU. 2003. – 68 b.

Kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek, G‘.B. Shoumarov, N.A. Sog‘inovlarning «Oilaviy hayotga ma’naviy tayyorlik» testi, «Talaba qizlarni oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini o‘rganish» nomli ijtimoiy-psixologik so‘rovnomalardan foydalanildi.

Tajriba obyekti sifatida tanlangan Chirchiq Davlat Pedagogika Universitetida tajriba sinov ishlari olib borildi. Tajribada jami 60 nafar talaba qizlar ishtirok etdi, jumladan 30 nafari 1-kurs «Tiflopedagogika» yo‘nalishi talaba qizlari, 30 nafari «Matematika» yo‘nalishi 3-kurs talaba qizlari qatnashdilar.

«Nikohga ma’naviy tayyorgarlik» testi aynan bizning ilmiy ishimiz mavzusiga oid metodikalardan biri bo‘lib, keltirilgan 16 ta savol va tasdiqlarning har biriga berilgan javoblardan birini, ya’ni o‘z qarashlariga mos kelganini tanlab javob berishlari so‘raladi.

Metodikaning javoblari butunlay qo‘shilaman – 5, qo‘shilaman – 4, biror narsa deyish qiyin – 3, qo‘shilmayman – 2, mutlaqo qo‘shilmayman – 1 tarzda ifodalanadi. Tasdiqlarning yuqoridagi ro‘yxatdagi tartib raqamlari bo‘yicha toq va juft raqamli tasdiqlar bo‘yicha olingan ballar yig‘indilari alohida-alohida hisoblab chiqariladi.

S1-toq nomerlar yig‘indisi, S2-juft nomerlar yig‘indisi.

Natija quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$K = \frac{32 + S1 - S2}{64} \times 100\%$$

Agar K 50% dan kam bo‘lsa, oilaviy hayotga ma’naviy tayyorgarlik past darajada bo‘ladi. Agar K 50% dan ko‘p bo‘lsa, oilaviy hayotga ma’naviy tayyorgarlik o‘rtacha va yuqori darajada bo‘ladi.

Maxsus tuzilgan mualliflik ijtimoiy psixologik so‘rovnomasidan ham foydalandik. So‘rovnomaga kiritilgan savollardan 11 ta savollari tahlil qilindi. Bu borada talaba qizlarining «Oilaviy hayot haqida tasavvurlarining aniqlash», mavzusidagi savollarga javoblari orqali tasavvurlarining statistik tahlili aniqlandi. Unda 60 nafar talaba qizlari ishtirok etishdi. Mazkur metodikalarning dastlabki natijalarini ochiqlash va talaba qizlarni oilaviy hayot to‘g‘risidagi tasavvurlarini, qarashlarini psixologik jihatlarini rivojlantirish maqsadida quyidagi maxsus tuzilgan dastur asosida mashg‘ulot treninglari tashkil etildi.

1-jadval. Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan psixokorreksion dastur

Dastur	Izohi
Dastur mazmuni:	Yosh talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaviy munosabatlarda mavjud bo‘ladigan yoki vujudga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma malakalarni hosil qilish maqsadida munozara, o‘yin va mashqlar orqali o‘tkaziladigan mashg‘ulot
Dastur maqsadi:	Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ko‘nikmasini shakllantirish, malakasini oshirish, oiladagi munosabatlari haqida tushunchalarini takomillashtirish, er-xotin, ona va kelin rolli pozitsiyalarini shakllantirish.
Dastur natijasi:	Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ko‘nikmasi paydo bo‘ladi, rollar taqsimot to‘g‘risida adekvat fikrlar paydo bo‘ladi, oila haqidagi ijtimoiy psixologik tasavvurlar to‘g‘ri rivojlanadi. Oila haqidagi qadriyatlar yo‘naltiriladi va qarashlar o‘zgartiriladi.
Tanlangan obyekt:	ChDPUning bakalavriat tiflopedagogika yo‘nalishidagi 30 nafar *(1-kurs)*, matematika yo‘nalishidagi 30 nafar *(3-kurs)*, jami 60 nafar respondentlar ishtirok etdi.

Dastur vazifasi:	- talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosini dolzarb psixologik muammo sifatida amaliy jihatdan asoslash hamda amaliyotdagi mavjud holatni korreksiya qilish;	-talaba qizlarning oilaviy hayot to‘g‘risidagi qadriyatlarini shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilish;		-talaba qizlarni oilaviy hayotga nisbatan ijtimoiy-psixologik munosabatini, shaxsning psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda tayyorlash bo‘yicha ijtimoiy-psixologik trening mashg‘ulotlari samaradorligini takomillashtirish hamda zarur taklif-tavsiyalar ishlab chiqish
Tashkiliy qism. Tashkiliy qismning asosiy jihatlari				
Treningni tashkil etishdagi muhim jihatlar:	Mashg‘ulot o‘tkaziladigan joy shinam, keng, erkin harakatlanishga mo‘ljallangan, stullar bilan jihozlangan. Xonada ishtirokchilarning orasiga to‘siq bo‘ladigan ortiqcha jihozlar (ortiqcha stol, stullar) yo‘q.			
Trening ishtirokchilarning joylashuvi:	Guruh a’zolari doira shaklida o‘tiradilar. Chunki, doira shaklida o‘tirishning afzalligi, hamma ishtirokchilar bir-birining borligini his qilishi va bir-birini ko‘rib turishiga imkoniyat bo‘ladi. Bu esa ishtirokchilarda ishonch, qiziqish, diqqat kabi xususiyatlarni vujudga keltiradi.			
Treningdagi guruh a’zolari soni:	Trening 2 guruhda bo‘lib o‘tadi. Ishtirokchilar soni bir guruhda -15 ta; ikkinchi guruhda -17 ta.			
Trening mashg‘uloti davomiyligi:	4 hafta (*2024 yil, 5 noyabrdan-30 noyabrgacha*), Har haftada, 3 marotaba 2 soatdan (*seshanba, payshanba, shanba kunlar 15:00 dan 16:30 gacha*)			
Trening mashg‘uloti usullari:	Suhbat, faol kuzatuv, vizualiyatsiya metodi hamda rolli o‘yinlar, keys			
Treningni tashkil etish bosqichlari:	I bosqich Tashkiliy masalalar	II bosqich Chirchiq Davlat pedagogika Unversiteti talaba qizlari bilan tanishish, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorligini qay darajada ekanligini va tasavvurlarini aniqlash.	III bosqich 1.Psixologik tahlil jarayoni. 2.Vizualizatsiya metodidan foydalanish. 3. Keyslar 4.Syujetli, , rolli o‘yinlar	IV bosqich Trening natijasiga ko‘ra debrifing jarayoni
20 daqiqa	Psixologik tahlil jarayoni			
15 daqiqa	Vizualizatsiya metodidan foydalanish			
20 daqiqa	Keyslar (vedioli)			
30 daqiqa	Psixodramma (Syujetli-rolli o‘yinlar)			

NATIJALAR

Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganish va shu asosda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida talaba qizlarning nikohga ma’naviy tayyorgarlik darajasini aniqlash, talaba qizlarni oilaviy hayotga nisbatan ijtimoiy-psixologik munosabatini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik trening mashg‘ulotlarini amalga oshirish hamda zarur taklif-tavsiyalar ishlab chiqish ishlari olib borildi.

Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni mobaynida 30 nafar 1-kurs tiflopedagogika, 30 nafar 3-kurs matematika ta’lim yo‘nalishi talaba qizlari, jami 60 nafar respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek G‘.B. Shoumarov, N.A. Sog‘inovlarning «Oilaviy hayotga ma’naviy tayyorlik» testi, «Talaba qizlarni oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini o‘rganish» nomli ijtimoiy-psixologik so‘rovnomalardan foydalanildi.

O‘tkazilgan empirik ilmiy ishlar talaba qizlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini, oilaga ma’naviy tayyorligi qay darajada ekanligini ochib berishga asos bo‘ldi.

«Nikohga ma’naviy tayyorgarlik» testi aynan bizning ilmiy ishimiz mavzusiga tegishli metodikalardan biri bo‘lib, nikoh yoshidagi talaba qizlarini nikohga ma’naviy tayyorgarligini ko‘rsatib bera oladi. Chunki qizlarni oilaga tayyorligiga o‘z ishonchni baholashdan va kelajakda bo‘lajak turmush o‘rtog‘ining xulq-atvorini o‘rganish va unga dastlabki moslashuvni ularning tanlagan kasblari, yo‘nalishlariga qarab ham natijalarni solishtirish va tahlil qilish mumkin bo‘ladi (2-jadval).

2-jadval

G‘.B.Shoumarov, N.A.Sog‘inovlarning «Oilaviy hayotga ma’naviy tayyorlik» testi natijalar tahlili

№	ChDPU talaba qizlari *(60 nafar)*	Tiflopedagogika 1- kurs (*30 nafar*)		Matematika 3- kurs *(30 nafar)*	
		Soni	Foizi	soni	Foizi
1	Nikohga ma’naviy tayyorlik testi natijasi **o‘rta va yuqori**	10	50-52 %	9	50-55%
2	Nikohga ma’naviy tayyorlik testi natijasi **past**	20	34-47 %	21	37-47%

Sinaluvchilarning nikohga ma’naviy tayyorgarlik darajalarini aniqlash bilan birgalikda, har ikki yo‘nalish talabalarining kasbi, kursi, yoshi jihatdan qizlaridagi farqlar va o‘xshashlik jihatlari aniqlandi. Unga ko‘ra har ikki yo‘nalish talabalarida nikohga ma’naviy tayyorlik darajalari bo‘yicha sezilarli farqlar ko‘rinmasa-da, lekin 1-kurs Tiflopedagogika yo‘nalishi talaba qizlari 3-kurs matematika yo‘nalishi talaba qizlaridan qisman yuqori natija ko‘rsatishgan va natijalar yuqoridagi jadvalda aks etadi.

Ya’ni bu jadvalda ko‘ringani kabi, respondentlarning o‘rtacha 3/1 qismi oilaga ma’naviy tayyorligi aniqlandi. Tiflopedagogikada 30 nafar respondentdan 10 nafari 50-52% oralig‘ida natija ko‘rsatib, oilaga ma’naviy tayyorlik darajasi aniqlangan.

Matematika yo‘nalishi talabalari esa 30 nafar respondentdan 9 nafari 50-55 % oralig‘ida natija bilan oilaga ma’naviy tayyorlik darajalari aniqlangan. Bu ko‘rsatkich natijalari ishni davom ettirishimizga xizmat qildi va biz past ko‘rsatgich bergan talabalarda psixologik kuzatuvlar, suhbatlar, psixokorreksion treninglar olib bordik. Kuzatuv va suhbatlar natijasida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, talaba qizlarning oilaga tayyorligi, nikoh qurishga bo‘lgan qarashlari va qarama-qarshi jins vakillariga bo‘lgan munosabatlari ham, ma’naviy tushuncha va qadriyatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin ekan.

Quyidagi berilgan 3-jadvalda dastlabki olingan natijalardan so‘ng har ikki yo‘nalish talabalarida past ko‘rsatgich bergan qizlar tanlab olinib, maxsus psixokorreksion dastur asosida bir oy mobaynida shart-sharoitlar asosida psixologik treninglar tashkil etildi.

3-jadval. Trening mashg‘ulotlari olib borilgan talaba qizlar ko‘rsatgich natijalari tahlili

T	ChDPU talaba qizlari *(40 nafar)*	Tiflopedagogika 1- kurs (*20 nafar)*		Matematika 3- kurs (20 nafar)	
		Soni	Foizi	Soni	Foizi
1	Nikohga ma’naviy tayyorlik testi natijasi **o‘rta va yuqori**	12	50-55 %	9	50-55%
2	Nikohga ma’naviy tayyorlik testi natijasi **past**	8	36-48 %	11	39-48%


3-jadvalda ham ko‘rinib turibdiki, dastlabki natijalardan olib borilgan trening mashg‘ulotlaridan so‘ng natijalar ijobiy ko‘rsatkichlari aniqlangan. Maxsus trening mashg‘ulotlaridan so‘ng 1-kurs Tiflopedagogika va Matematika yo‘nalishi talaba qizlarida nikohga ma’naviy tayyorlik ko‘rsatkichlari sezilarli natijalar bergan deya ayta olishimiz mumkin.

So‘rovnomaga 11 ta savollar kiritildi. Bu borada talaba-qizlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini aniqlash bo‘yicha javoblari orqali tasavvurlarining statistik tahlili aniqlandi. Unda 60 nafar talaba qizlar ishtirok etishdi. Quyida keltirilgan jadvalda talaba qizlar tomonidan eng ko‘p tanlangan so‘rovnoma savollarining javoblari keltirilgan.


4-jadval. Talabalar tomonidan eng ko‘p tanlangan so‘rovnoma savollari javoblari

№	Savollar	Javoblar Soni	Tiflopedagogikta’lim yo‘nalishi talabalari tanlovi *(n=30)*		Matematika ta’lim yo‘nalishi talabalari tanlovi *(n=30)*	
			foizi	Soni	Foizi	
1.	Oilaviy hayotga tayyorlash deganda nimani tushunasiz?	Er va xotin munosabatlariga tayyorlik	18	60%	14	47%
2.	Siz o‘zingizni oilaviy hayotga tayyorman deb hisoblaysizmi?	Yo‘q	21	70%	12	40%
3.	Bugungi kunda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kerak deb hisoblaysizmi?	Ha	17	57%	25	83%
4.	Oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida qayerda va kim tomonidan tayyorlash kerak?	Ota-ona tomonidan	26	87%	20	67%
5.	Turmush qurish yoshi qiz bola uchun necha yosh bo‘lishi kerak?	20-21 yosh	19	63%	15	50%
6.	Turmush qurish yoshi yigitlar uchun necha yosh bo‘lishi kerak?	24-25 yosh	17	57%	17	57%
7.	Nikoh shartnomasi haqida eshitganmisiz?	Ha	20	67%	15	50%
8	Oilada o‘zingizni baxtli his qilishingiz uchun nima ustuvorlik qiladi?	Er-xotin o‘zaro bir-birini tushunishi	11	37%	10	33%

9.	Talaba bo'lib oila qursangiz har ikkisini ham teng olib borishga tayyormisiz?	Tayyor emasman (tiflopedagogika) Qisman tayyorman (matematika)	24	80%	17	57%
10.	Oilaviy munosabatlarda kimning fikri ustun bo'lishi kerak?	Er-xotin birgalikda	17	57%	19	63%
11.	Siz oilada o'zingizni ona bo'lishga tayyorman deb hisoblaysizmi?	Bu borada bilimlarim kam deb hisoblayman	23	77%	21	70%



1-rasm. Teflopedagogika ta'lim yo'nalishi talabalar tomonidan eng ko'p tanlangan so'rovnoma javoblar



2-rasm. Matematika ta'lim yo'nalishi talabalar tomonidan eng ko'p tanlangan so'rovnoma javoblari

4-jadvalda va 1-2-rasmlarda keltirilgan so'rovnoma natijalarni taqqoslab tahlil qilindi, har ikkala yo'nalish talabalarining savollarni eng ko'p tanlashlariga ko'ra quyidagicha natijalar olindi. Har ikki guruhda 30 nafardan jami 60 safar talaba qizlar qatnashdilar.

Oilaviy hayotga tayyorlash deganda nimani tushunasiz savoliga «Er va xotin munosabatlariga tayyorlik» javobini teflopedagogika talaba qizlari 18 nafar (60 %i), matematika talaba qizlari 14 nafar (47 %i) tanlaganlar. Talabalar oilaviy hayotga tayyorlik deganda er va xotin munosabatlariga tayyorlikni tushunganlar.

Siz o'zingizni oilaviy hayotga tayyorman deb hisoblaysizmi (?) savoliga «Yo'q» javobini teflopedagogika 21 nafar (70 %i) matematika 12 nafar (40 %i) tanlaganlar. Talabalar oilaviy hayotga tayyor emasligini ta'kidlaganlar.

Bugungi kunda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kerak deb hisoblaysizmi, savoliga «Ha» javobini teflopedagoika 17 nafar (57 %i), matematika 25 nafar (83 %i) tanlaganlar. Talabalar bu yerda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kerakligini keltirib o'tganlar.

Oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida qayerda va kim tomonidan tayyorlash kerak savoliga «Ota-ona tomonidan» javobini teflopedagogika 26 nafar (87 %i), 20 nafar (67 %i) bildirganlar. Talabalar yoshlarni oilaga tayyorlashni ota-onalar tomonidan amlaga oshirish kerakligini yuqori foiz natija ko'rsatildi.

Turmush qurish yoshi qiz bola uchun necha yosh bo'lishi kerak savoliga «20-21 yosh» javobini teflopedagogika 19 nafari (63 %i), matematika 15 nafari (50 %i) berganlar. Talaba qizlar turmush qurish yoshini qizlar uchun 20-21 yosh ta'kidlandi.

Turmush qurish yoshi yigitlar uchun necha yosh bo'lishi kerak savoliga «24-25 yosh» javobini teflopedagogika talaba qizlari 17 nafari (57 %i), matematika yo'nalishi talabalari ham 17 nafari (57 %i) berishgan. Talaba qizlar turmush qurish yoshi yigitlar uchun 24-25 yosh deb bir xil natija qayd etildi.

Nikoh shartnomasi haqida eshitganmisiz (?) savoliga esa talabalar «Ha» javobini teflapedagokika qizlari 20 nafari (67 %i), matematika talaba qizlari esa 15 nafari (50 %i) berganlar. Talaba qizlar nikoh qurish shartnomasi haqida tushunchaga ega bo'ldi.

Oilada o'zingizni baxtli his qilishingiz uchun nima ustuvorlik qiladi? savoliga «Er-xotin o'zaro bir-birini tushunishi» deya javobni teflopedagogika talabalaridan 11 nafari (37 %i), matematika talaba qizlaridan 10 nafari (33 %i) berganlar. Talaba qizlar oilada o'zlarini baxtli his qilishlari uchun er va xotin bir birlarini tushunib yashashlari kerakligini tushunildi.

Talaba bo'lib oila qursangiz har ikkisini ham teng olib borishga tayyormisiz (?) savoliga «Tayyor emasman» javobini teflopedagogika talaba qizlari 24 nafari (80 %i) tanlaganlar. «Qisman tayyorman» javobini matematika talaba qizlarining 17 nafari (57 %i) tanlov qilganlar. Ikki hil tanlovdan ko'rinadiki teflopedagogika talaba qizlari 1-kurs bo'lganligi uchun tayyor emasligini, matematika yo'nalishi talabalari esa 3-kurs bo'lganliklari uchun qisman tayyor ekanliklarini tushunish mumkin. Bu yerda teflopedagogika talabalari 1-kurs bo'lganliklari va yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'zlariga ishonchsizlik hissi mavjud.

Oilaviy munosabatlarda kimning fikri ustun bo'lishi kerak (?) savoliga «Er-xotin birgalikda» deya javobni teflopedagogika talabalaridan 17 nafari (57 %i), matematika talaba qizlaridan 19 nafari (63 %i) berganlar. Bu yerda talaba qizlar oilada, oilaviy munosabatlarda er va xotin birgalikda, hamfikrlikda yashash kerakligi qayd etildi.

Siz oilada o'zingizni ona bo'lishga tayyorman deb hisoblaysizmi (?) savoliga «Bu borada bilimlarim kam deb hisoblayman» javobini teflopedagogika talabalaridan 23 nafari (77 %i), matematika talaba qizlaridan 21 nafari (70 %i) berganlar. Talabalar bu savolga yuqori foizlar bilan ona bo'lishga tayyorlikda bilimlari kamligini bildirildi.

Demak, natijalarni tahlili ham shuni ko'rsatadiki, talaba qizlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini aniqlashda qo'llanilgan ushbu so'rovnoma natijalarida talaba qizlar oilaviy hayotda er va xotin birgalikda harakat qilishlari, hamfikr bo'lishlari kerakligini va oilaviy hayotga tayyorlikda ona rolini bajarishda bilimlari kam ekanliklarini, tayyor emasliklarini yoki qisman tayyor ekanliklarini keltirgan.

Ushbu natijalar tahlillaridan talaba qizlarni oilaga psixologik tayyorlashda, ular bilan olib boriladigan ijtimoiy-psixologik ishlar yo'nalishini aniqlashtirishda, to'plangan material va natijalardan talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, psixologik maslahat o'quv fanlari bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydalanish mumkin.

XULOSA

O‘tkazilgan ilmiy ish yuzasidan ushbu xulosalarga kelindi:

1. Qiz bola shaxsiga nisbatan shakllangan rollarning kelgusida ko‘proq oila muhiti bilan bog‘liq vazifalariga qaratilganligi bilan belgilanishi, turli ma’naviy xususiyatlari bilan ham belgilanishi o‘z tasdig‘ini topdi;

2. Qiz bola shaxsidagi mavjud ijtimoiy rollar ko‘p hollarda uning kognitiv qismiga aloqador bo‘lishi, unga tashqaridan beriladigan tushunchalar, fikrlar, bilimlar, yo‘riqlar, o‘zaro muloqot va ijtimoiy muhit ta’sirida yanada mustahkamlanishi aniqlandi;

3. Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorgarlik tushunchasi va uni nazariy-ilmiy va psixologik mazmunini, qizlarda oilaviy turmushga tayyorgarlikning psixologik xususiyatlarni hosil qilishning muhim bosqichi, davriyligini aniqlashtirishga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy tendensiyaga asoslangan tahlil yordamida qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning sotsial-psixologik omillari, xususiyatlari va mexanizmlar zarurligi o‘z isbotini berdi;

4. Talaba qizlarning oilaviy hayotga nisbatan motivatsion pozitsiyalari, oilaviy rollari, ularning kelajakdagi onalik va ayollik rollariga nisbatan tasavvurlarining rivojlanishiga ta’sir etishi asoslandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva D.U., Varqulov R., Atabayeva N., Oila psixologiyasi. –Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015.– 28 b.

2.Akramova F.A., Psixologik stress holatining paydo bo‘lish omillari va o‘ziga xos xususiyatlari. – Qarshi, 2022. – 493-495 b.

3. Дружинин В.Н.,Психология семьи. – М.: Питер, 2008 . **Стр** –176.

4. Djuxonova N.X., O‘zbek va qirg‘iz qizlarini oilaga tayyorlashda etnik stereotiplari va psixologik ustanovkalari: Dissertatsiya. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori. – Toshkent: O‘ZMU, 2023. – 54 b.

5. Дружинин В.Н. Психология семьи. – М.: Мир, 1996. – **Стр** 44-45. //https://www.livelib.ru/author/303731-vladimir-druzhinin.

6. Гребенников И.В., Хрестоматия по этике и психологии семейной жизни. – М., 2000. **Стр** –58.

7. I. Grebennikov. Mening dunyom. – Toshkent: Sharq, 2022. – 43 b.

8. Ibn Sino. Tadbiri manzil. – Toshkent: Fan, 2012. – 28 b.

9. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 119 b.

10. Kovalev S.V., Journal of The American Society for Mass Spectrometry. Springer US. // № 28(8) 2017. Стр. –1600-1611 pp.

11. Karimova V. The Responsibility of a Teacher for Increasing the Probability of Advancing Student Achievement. № 3-1. – 41-41 pp.

12. Karimova V.M., O‘zbek yoshlarida oila to‘g ‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi. – Toshkent, 1994. –322 b.

13. Kovar L.C., Wasted Lives A Study A Children in mental Hospital and their Families. 1976. – 41 p.

14. Sog‘inov N.A., Habibullayev G‘.F. Oilani o‘rganish psixodiagnostika metodikalari. – Toshkent: Fan, 1996. –38 b.

15. Lutfullaeva N.X. Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. – Toshkent, 2006. –15 b.

16. Ziyavitdinova G.Z. Oilaviy hayotga tayyorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixol:f.bo‘yicha falsafa doktori. diss. Avtoreferat. – Toshkent: O‘ZMU, 2021. – 50-54b.

17. Shoumarov.G‘.B.,Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq. 2010.– 26 b.

18. Sesenko V.A.,Journal of The American Society for Mass Spectrometry. Springer US.// № 26(4) 2017. Стр. – 1543-1560 pp.

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/0009-0003-0080-5001

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA BILINGVIZMNING KOGNITIV JARAYONLAR DINAMIKASIGA TA’SIR XUSUSIYATLARI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ikki tillilik bu – ikki tildan mohirona foydalanish qobiliyati va kognitiv rivojlanish, tilni o‘zlashtirish va ilmiy yutuqlardagi potentsial foydalari bilan tobora ko‘proq tan olinmoqda. Ushbu maqolada Toshkentdagi xususiy boshlang‘ich maktablardan biridagi ikki tillilikning ilmiy-nazariy asoslari o‘rganilgan. Bunda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bilingvizmning kognitiv jarayonlar dinamikasiga ta’siri xususiyatlari chuqur tadqiq qilib o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Bilingvizm, kognitiv jarayonlar, kichik maktab yoshi, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiylik, IQ darajasi, bilingval.

KIRISH

So‘nggi yillarda ikki va undan ortiq tilda so‘zlasha oladigan bolalarning rivojlanishi ilmiy va amaliy tadqiqotlar mavzusiga aylangan. Bilingvizm, ya’ni ikki tilda fikrlay olish va muloqot qila olish qobiliyati, nafaqat lingvistik ko‘nikmalarning shakllanishi, balki bolalarning kognitiv jarayonlari rivojiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayon kichik maktab yoshidagi bolalar uchun juda muhim, chunki bu davrda ularning intellektual va psixologik o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lib, miya funksional faoliyati rivojlanishining intensiv bosqichi hisoblanadi[1].

Bilingvizmning kichik maktab yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha klassik nazariyalardan biri Cummins[2] tomonidan ilgari surilgan «threshold theory» yoki «ikkinchi til bo‘yicha chegaraviy nazariya»dir. Bu nazariya bolalarda ikki tildagi malaka darajasi kognitiv rivojlanish va muvaffaqiyatga turlicha ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Shuningdek, u «Common Underlying Proficiency» (CUP) deb ataladigan tushunchani ham ishlab chiqqan bo‘lib, bu ikkita tilning asosiy malakalari umumiy bo‘lishi mumkinligini nazarda tutadi.

Kichik yoshdagi bilingvizm bolalar ko‘pincha ijodiy va moslashuvchan fikrlashda yaxshiroq natijalarga erishadi. Bu, shuningdek, Miyake va Friedman tadqiqotlarida bilingvizm ijodiy fikrlash va diqqatni jamlash qobiliyatlariga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan[3]. Ikkita tilni egallagan bolalar ko‘proq abstrakt va kengroq fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi mumkin, bu esa ularning kognitiv moslashuvchanlik darajasini oshiradi.

Bilingvizm bolalar ikki tilda bir vaqtda fikrlash va gapirish orqali «kod-almashish» deb ataladigan jarayonni amalga oshiradilar. Kod-almashish kognitiv moslashuvchanlik, ishchi xotira va diqqat jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bialystokning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki[4], kichik yoshdagi bilingvizm o‘quvchilar ko‘pincha diqqatni bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga tez o‘tkazish, turli vaziyatlarga moslashish qobiliyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar bilingv bolalarda ishchi xotiraning o‘ziga xos tarzda rivojlanishini ko‘rsatadi. Masalan, Gathercole va Thomas tadqiqotlari [5]bilingvizm bolalar ishchi xotirani bir til muhitidagi bolalarga nisbatan samaraliroq boshqarishi va ko‘proq axborotni bir vaqtning o‘zida saqlash qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bilingvizmning kognitiv jarayonlar dinamikasiga ta’sir xususiyatlarini aniqlash maqsadida Adizov B.R, Cummis J, Friedman N. P, Thomos E kabi tadqiqotchilar kitoblaridan ma’lumotlar olindi. Jon Karl Ravenning (Raven’s Coloured Progressive Matrices) testi va Volter Poppelreuterning «Poppelreiter» testi Al-Beruniy International school xalqaro maktabinig boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘tkazildi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Dunyo bo‘ylab taxminan 3.3 milliard ikki tilli odamlar bor, bu aholining 43% tashkil qiladi.

Buyuk Britaniya aholisining 36% katta yoshlilari ikki tilli. Bu 24 milliondan ortiq odam ikki tilda muloqot qilishini anglatadi.

Ispan tili AQShda o‘rganiladigan eng mashhur ikkinchi til bo‘lib, tobora ko‘proq talabalar ispan tilidan saboq olishmoqda.

Kaliforniyada AQShning boshqa Shtatlariga qaraganda til o‘rganish bilan bog‘liq atamalar bo‘yicha ko‘proq qidiruvlar olib borilmoqda.

Buyuk Britaniyadagi boshqa yosh guruhlariga qaraganda ko‘proq yoshlar (16-24 yosh) ikki tilli.

Belfast va Brighton har qanday boshqa Buyuk Britaniya shaharga qaraganda ko‘proq ikki tilli odamlar bor.

Indoneziya dunyodagi eng yirik ikki tilli mamlakat bo‘lib, 200 milliondan ortiq ikki tilli shaxslar yashaydi.

1-jadval. 2025-yilda ikki tillilik bo‘yicha jahon statistikasi

Butun Dunyodagi ikki tilli insonlar soni	3.3 milyard
AQSH da	21.6 % Amerika aholisi ikki tilli
Buyuk Britaniyada	36 % Buyuk Britaniya aholisi
AQSH dagi eng ko‘p gaplashiladiga ikkinchi til	Ispan tili
Ikki tilli aholi yosh chegarasi	16-24 yosh

Bundan tashqari, bilingvizmning kognitiv rivojlanishga ta’sirini tadqiq qilish nafaqat akademik ma’noda, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilar va psixologlar uchun bilingval bolalar bilan ishlashda yangi yondashuvlarni taklif etishi, ta’lim metodikasini takomillashtirishga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, ko‘p tilli ta’lim tizimida kichik yoshdagi bolalarda kognitiv jarayonlarning dinamikasini tushunish, ularning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetentsiyasini yaxshilash imkonini beradi[6].

Shu sababli, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bilingvizmning kognitiv jarayonlar dinamikasiga ta’sir xususiyatlarini o‘rganish mavzusi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb va ahamiyatli bo‘lib, zamonaviy ta’lim sohasidagi dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda.

Ravenning (Raven’s Coloured Progressive Matrices)[7] va Poppelreuter testi (P) [8](diqqatni taqsimlashni baholash) kabi metodlar tanlab olindi.

1947-yilda Raven testining bolalar uchun mo‘ljallangan «Coloured Progressive Matrices» (CPM) varianti ishlab chiqildi. Ushbu versiya ranglar va sodda naqshlar yordamida bolalar va intellektual imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun moslashtirilgan.

Raven testi (Raven’s Progressive Matrices) – intellektni o‘lchash uchun ishlatiladigan psixologik testlardan biri bo‘lib, odam-

[1] Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Darslik. – Toshkent: Fan, 2022. – 182 b.

[2] Cummins J. (1976). The Influence of Bilingualism on Cognitive Growth: A Synthesis of Research Findings and Explanatory Hypotheses. Toronto. Working Papers on Bilingualism, №9 – P. 1-43. https://eric.ed.gov/?id=ED125311

[3] Friedman N. P., & Miyake, A. (2004). The relations among inhibition and interference control functions: A latent-variable analysis. *Journal of Experimental Psychology: General, №18,* – P. 893–900.

[4] Bialystok E. (1988) Levels of bilingualism and levels of linguistic awareness. Developmental Psychology, 24, – P. 560 –567.

[5] Gathercole Virginia & Thomas Enlli. (2009). Bilingual first-language development: Dominant language takeover, threatened minority language take-up. Bilingualism: Language and Cognition. 12. – P. 213-237.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi «Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-53-son qarori. https://lex.uz/docs/-6787995

[7] Raven, J., Raven, J.C., & Court, J.H. *Справочник по прогрессивным матрицам Равена и шкалам словарного запаса*. – SA, TX: Harcourt Assessment.2003, updated 2004. – P. 300

[8] Fink GR. Walter Poppelreuter (1886-1939). Remarks on the cover illustration [in German].Nervenarzt 2003; 74:540-1.

ning mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini baholashga mo‘ljallangan. Ushbu testda geometrik shakllar va naqshlar ketma-ketligi beriladi, ishtirokchi bo‘sh joyga mos keladigan shaklni tanlashi kerak.

Bolalar uchun Raven testi (Raven’s Coloured Progressive Matrices) testning maxsus bolalar varianti hisoblanadi. U 5-11 yoshdagi bolalar va intellektual imkoniyatlari cheklangan kattalar uchun mo‘ljallangan. Ushbu test quyidagi xususiyatlarga ega:

Oddiyroq va rangli shakllar. Bolalar uchun mo‘ljallangan versiyada shakllar oddiyroq va rangli bo‘ladi, bu esa bolalarning diqqatini jalb qilishni va ularning testni tushunishini osonlashtiradi.

Qisqa vaqt ichida bajariladi. Testning bolalar uchun varianti 36 ta savoldan iborat va qisqa vaqt ichida bajarilishi mumkin.

Muammoni hal qilish qobiliyatini baholaydi. Test bolalarning abstrakt fikrlash, naqshlarni aniqlash va mantiqiy bog‘lanishlarni topish qobiliyatini o‘lchaydi.

Poppelreuter testi[9](p) (diqqatni taqsimlashni baholash) bolaning diqqatini taqsimlashni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, bu testda bolaga bir nechta chizmalar ko‘rsatiladi va vaqt bilan bog‘liq masala tushuntiriladi. Bolaga ma’lum bo‘lgan ko‘plab obyektlar, «yashirin» holatda bo‘ladi.

Ushbu test jarayonida bolaga uchta alohida bo‘limga bo‘lingan rasm ko‘rsatiladi. Keyin ulardan rasmning ushbu uchta qismi ichida «yashirin» turgan barcha turli obyektlarni aniqlash va nomlash so‘raladi.

Obyektlarga nom berish jarayoni diqqat bilan kuzatiladi va ma’lum bir ketma-ketlikka amal qiladi, bu esa bolaning vazifaga tirishqoqlik bilan yondashishini ta’minlaydi. Vazifani bir oz qiyinlashtirish uchun respondentga bir daqiqalik qat’iy vaqt beriladi.

Agar ushbu vaqt oralig‘ida barcha obyektlar aniqlanmasa va nomlanmasa, vazifa to‘xtatiladi. Aksincha, agar bola bir daqiqadan kamroq vaqt ichida barcha yashirin obyektlarni muvaffaqiyatli nomlasa, vazifani bajarish vaqti qayd etiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, bola uchta ramka bo‘ylab topishi kutilayotgan obyektlarning umumiy soni 14 tani tashkil qiladi va bu har bir elementni qidirishda vazifani ham qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

NATIJALAR

2-jadval. Respondentlarning aqliy rivojlanish darajalarini sinflar kesimida tafovutlarini aniqlash bo‘yicha ko‘rsatgichlari (n=169)

TADQIQOTDA ISHTIROK ETGAN RESPONDENTLAR JAVOBLARINI TAQSIMLASH TENDENSIYALARI	Raven testi baholash mezoni	2-sinf				3-sinf				4-sinf				Jami respondentlar soni
		Jinsi	Soni	Jinsi	Soni	Jinsi	Soni	Jinsi	Soni	Jinsi	Soni	Jinsi	Soni	
			28		19		31		41		23		27	(n=169)
		O‘g‘il		Qiz		O‘g‘il		Qiz		O‘g‘il		Qiz		
	Yuqori	21%		16%		29%		19%		13%		26%		25%
	O‘rta	68%		68%		55%		59%		83%		48%		56%
	Past	11%		16%		16%		22%		4%		26%		19%

J. Ravenning «Rangli progressiv matritsalar» metodikasi Al-Beruniy Xalqaro maktabining 8 yoshdan 10 yoshgacha 169 nafar bo‘lgan bolalarning umumiy intellekt darajasini aniqlash maqsadida qo‘llandi. Tahlili bo‘yicha A seriya (Oddiy naqshlar), Ab seriya (Murakkabroq naqshlar), B seriya (Eng murakkab naqshlar) ya’ni: yuqori, o‘rta, o‘rtadan past darajalarni ko‘rsatdi.

Tadqiqotda olingan natijalarning ko‘rsatishicha 2-sinfda o‘quvchi o‘g‘il bolalarda IQ bo‘yicha yuqori natija 21% ni, qizlarda esa 16 % ni 3-sinfda o‘quvchi o‘g‘il bolalarda IQ bo‘yicha yuqori natija 29% ni, qizlarda esa 19% ni tashkil qildi. Olingan natijalarga ko‘ra, uchinchi sinf o‘quvchilarida yuqori darajadagi IQ ko‘rsatkichlari ikkinchi sinf o‘quvchilariga nisbatan bir qancha baland foizlarni ko‘rsatdi. Buning asosiy sabablardan biri ikkinchi sinf o‘quvchilarida diqqatning ko‘chuvchanligi yuqoriroq ekanligi tufayli ular natijalarida farqlar sezilgan. Ya’ni bu jarayonda uchinchi sinf o‘quvchilarida topshiriqlarni bajarish jarayonida diqqat barqarorligi ulardagi IQ darajasini namoyon etishga yaxshi imkon yaratgan.


2-sinfda o‘quvchi o‘g‘il bolalarda IQ bo‘yicha o‘ziga xos o‘rta darajadagi aql o‘g‘il bolalarda 68% ni, qizlarda ham 68% ni, 3-sinfda o‘quvchi o‘g‘il bolalarda esa IQ bo‘yicha o‘ziga xos o‘rta darajadagi aql 55% ni, qizlarda 59% ni tashkil qildi[10]. Ushbu natijalarda ikkinchi sinf o‘quvchilarida uchinchi sinf o‘quvchilariga nisbatan baland natijalar qayd etilganligini ko‘rish mumkin. Olingan natijalar orqali IQ bo‘yicha o‘rta darajadagi o‘ziga xos aql ikkinchi sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkurning juda keng ko‘lamli ekanligi bilan asoslanadi.

2-sinfda o‘quvchi o‘g‘il bolalarda IQ bo‘yicha o‘rtachadan past aql esa o‘g‘il bolalarda 11% ni, qizlarda 16% ni, 3-sinfda o‘quvchi o‘g‘il bolalarda IQ bo‘yicha o‘rtachadan past aql o‘g‘il bolalarda 16% ni, qizlarda 22% ni ko‘rsatdi.

3-sinfda o‘quvchi o‘g‘il bolalarda IQ bo‘yicha yuqori natija 29% ni, qizlarda esa 19% ni, 4-sinfda o‘quvchi o‘g‘il bolalarda IQ bo‘yicha yuqori natija 13 % ni, qizlarda esa 26% ni tashkil qildi. Uchinchi va to‘rtinchi sinflarda IQ ko‘rsatkichlari yuqori daraja bo‘yicha natijalari yuqorida qayd etib o‘tilganidek yoshlik davrida bolalarda mantiqiy fikrlashning o‘ziga xosligi bilan ifodalanadi.

3-sinfda o‘quvchi o‘g‘il bolalarda IQ bo‘yicha o‘rtachadan past aql o‘g‘il bolalarda 11% ni, qizlarda 16% ni, 4-sinfda o‘quvchi o‘g‘il bolalarda IQ bo‘yicha o‘rtachadan past aql o‘g‘il bolalarda 4% ni, qizlarda 26% ni ko‘rsatdi.


Umumiy 169 nafar o‘quvchilardan olingan tahlillar natijasi esa yuqori darajadagi IQ bo‘yicha aql 25% ni, o‘ziga xos o‘rta darajadagi aql 56 % ni, o‘rtachadan past aql esa 19% ni tashkil qilishi namoyon bo‘ldi. Umumiy natijalarga tayangan holda boshlang‘ich sinfda o‘quvchi respondentlarda IQ darajasi bo‘yicha yuqori va o‘rta ko‘rsatkichlar umumiy hisobda 81% ni tashkil etishi ma’lum bo‘ldi. Past darajadagi IQ bo‘yicha aql natijasi esa 19% ni tashkil etdi. Demak respondentlarda IQ darajasi juda yaxshi yuqori ekanligi hamda bilish jarayonlari faol ekanligi aniqlandi.



4-rasm. Respondentlarning aqliy rivojlanish darajalari foizlar asosidagi ko‘rsatgichlari (n=169)

[9] Лагонда Г.В., Пшеничная О.А., Деятельность Практического Психолога. – М.: Брест, 2007. Стр. – 19

[10] Sodiqova O., Toshboyeva D. Bolalar Psixologiyasi: fanidan o‘quv qo‘llanma – Toshkent: – Noshir, 2013. – 177-178 b.



5-rasm. Poppelreuter testi bo'yicha natijalar tahlili (n=169)

Ikkinchi metodika sifatida respondentlardan diqqat xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan Poppelreuter testi olindi. Poppelreuter test orqali diqqat taqsimlanishi va ko'lami o'rganildi. Diqqat taqsimlanishi deganda inson bir vaqtning o'zida diqqat markazida bir nechta turli xil obyektlarni ushlab turishi tushuniladi. Aynan shu jarayon bir vaqtning o'zida bir nechta harakatlarni bajarish imkonini yaratadi. Diqqat taqsimlanishi deganda yana bir obyektdan ikkinchisiga ongli va mazmunli o'zgarishni ham tushunish mumkin.

MUHOKAMA

Chet tilini o'zlashtirish har tomonlama foydali bo'lib, u insondagi bilim saviyasini hamda dunyoqarashini kengayishiga olib keladi. Bilingvizm boladagi tafakkur egiluvchanligini ta'minlovchi omillardan biri sanaladi. Bilingvlarda bir fikrni turli xil usulda ifodalash qobiliyatlari mavjud bo'ladi.

D.N. Levitov to'g'ri qayd qilib o'tganidek hech bir maktab yoshida salomatlik holatiga va ijtimoy taraqqiyotiga kichik maktab yoshidagi mahkam bog'liq bo'lmaydi[11]. Bola 7 yoshdan 11 yoshgacha jismoniy jihatdan nisbatan osoyishta va bir tekisda rivojlanadi. Bo'yi va og'irligi organizmning tiniqligi o'pkasining hayotiy hajmi ancha tekis va propalg'tsional rivojlanadi.

Tadqiqotchi L.S.Slavinaning ko'rsatishicha[12], boshlang'ich sinfda bilish faolligi yetarli darajada bo'lmagan o'quvchilar uchrashi mumkin. Bunday o'quvchilar intiluvchan jihatidan normal rivojlangan bo'ladilar. Bu rivojlanish ularning o'yin va amaliy faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Faol fikr qilish ular uchun xarakterlidir. Bunday o'quvchilariga o'qituvchi alohida yondashuv bilan qarashi darkor. Ularning fikr qilishi faoliyatiga odatlantirib ularni yutuqlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashi dastlabki paytlarda o'quv vazifalarini bajarishni o'yin va amaliy faoliyatni bilan bog'lab olib borish kerak.

Mashhur psixolog L.S.Vigotskiy to'g'ri ko'rsatib o'tganidek, idrok va xotira maktab ta'limi boshlanishi oldidan anchagina taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'ladi, kichik maktab yoshidagi davrda esa intellekt (aql) jadal taraqqiy etadi.

Bola xususan 7-8 yoshlik davrida konkret narsa va hodisalarning ko'rgazmali xususiyatlari va sifatlariga asoslanib, odatda konkret kategoriyalar bilan fikr yuritadi. Ayrim izohlar bilan mashhur shveytsariyalik psixolog J. Piajening 7-10 yoshdagi o'quvchilar asosan konkret operatsiyalar bosqichida turadilar. Ana shu bosqichda bevosita, tajribadan olingan xususiyatlar tizimlashtirish mumkin, degan fikrlariga qo'shilish mumkin.

XULOSA

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning kognitiv jarayonlar dinamikasiga ta'sir xususiyatlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari kichik maktab yoshidagi bilingv o'quvchilarning kognitiv jarayonlari, xususan, diqqat, xotira va ijodiy tafakkur ko'rsatkichlari boshlang'ich sinf o'quvchilarda yuqori kognitiv moslashuvchanlik kuzatilishi aniqlandi.

1. Bilingvizm o'quvchilarning muammolarni hal etish qobiliyatiga ta'siri ijobiy ekani va bu bilingvizm bolalarning muhitga tez moslashish qobiliyatini oshirishini ko'rsatdi.

2. Tadqiqot davomida ikki tilni egallagan bolalarda ko'p vazifalilik (multitasking) va ijodiy tafakkur (creative thinking) ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi kuzatildi.

3. Kognitiv rivojlanish jarayonida bilingv bolalar uchun o'ziga xos ta'lim metodlarini qo'llashning zaruriyati ilmiy asosda isbotlandi va bunday bolalar uchun mos bo'lgan ta'lim metodlari va strategiyalar taklif qilindi.

Bunda o'quv faoliyati mobaynida kognitiv faoliyat, diqqat xususiyatlari, IQ darajasiga bilingvizmning aqliy komponentlar rivojlanish jarayoniga ta'siri tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi «Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-53-son qarori. https://lex.uz/docs/-6787995

2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Darslik. – Toshkent: Fan, 2022. – 182 b.

3. Cummins J. (1976). The Influence of Bilingualism on Cognitive Growth: A Synthesis of Research Findings and Explanatory Hypotheses. Toronto. Working Papers on Bilingualism, №9 – P. 1-43.

4. Friedman N.P., & Miyake, A. (2004). The relations among inhibition and interference control functions: A latent-variable analysis. Journal of Experimental Psychology: General, №18, – P. 893–900.

5. Bialystok E. (1988) Levels of bilingualism and levels of linguistic awareness. Developmental Psychology, 24, – P. 560 –567.

6. Elizabeth Gration. Bilingualism in 2025: US, UK & Global Statistics, 2025January.

7. Fink GR. Walter Poppelreuter (1886-1939). Remarks on the cover illustration [in German]. Nervenarzt 2003;74:540-1.

8. Friedman N. P., & Miyake, A. (2004). The relations among inhibition and interference control functions: A latent-variable analysis. Journal of Experimental Psychology: General, №18, – P. 893–900.

9. Raven, J. & Raven, John & Court, J. (1998). Руководство по прогрессивным матрицам Равена и шкалам словарного запаса: The Mill Hill Vocabulary Scale.

10. Sodiqova O., Toshboyeva D. Bolalar Psixologiyasi: fanidan o'quv qo'llanma T.Noshir, 2013. – 177-178 bb.

11. Лагонда Г.В., Пшеничная О.А., Деятельность Практического Психолога. – М.: Брест, 2007. Стр. – 19.

[11] Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish Psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Darslik / – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – B. 220

[12] Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish Psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Darslik / – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – B. 220

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/0009-0008-5020-7030

TALABALIK DAVRIDA ADDIKTIV XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Mazkur maqola talabalik davrida addiktiv xulq-atvorning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Talabalar, ayniqsa, yoshlarning psixologik rivojlanish bosqichida turli psixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida, noxush odatlar va qaramliklarni rivojlantirishga moyil bo‘lishadi.

Ushbu izlanish, o‘quvchilar va talabalar orasida keng tarqalgan turli qaramliklar (masalan, internetga, o‘yinga, giyohvand moddalar yoki alkogolga qaramlik) psixologik sabablari va talabalarning ruhiy holati, ijtimoiy muhit, shaxsiy fazilatlari bilan qanday bog‘liq ekanligini tahlil qilishni maqsad qilgan.

Kalit so‘zlar: Talabalik, qaramlik, addektiv, korreksiya. og‘ishgan xulq, oila, deviantlik, tobe xulq, addiksiya, xulq-atvor, mobil telefon.

KIRISH

Jahon ta'lim va ilmiy muassasalarida yoshlarni virtual olam ta'sirlaridan asrash, ularda paydo bo'lgan internetga tobelikni erta bartaraf etish, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirishda psixologik farovonlikni ta'minlash, bo'sh nuqtalarini to'g'ri tashkil etish, salbiy axborotlar oqimiga nisbatan kompetensiyalarini oshirish, internet tarmog'idan to'g'ri foydalana olish malakalarini shakllantirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada internetning shaxsga psixologik, ijtimoiy, madaniy, axloqiy xususiyatlariga ta'sir etish omillarini aniqlash, talaba yoshlarda samarali o'quv faoliyatini va internet bilan oqilona ishlay olish qobiliyatlarini qaror toptirishda fanlararo integratsiyani kuchaytirish, internetdan oqilona foydalanishga xizmat qiluvchi huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik jihatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda[1].

Hindistonda o'tkazilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilga qadar Hindistonning Nyu-Deli shahridagi tibbiyot kollejida 2017-yil bo'lgan bakalavriatshunoslik shifokorlari o'rtasida ish olib borildi. Ma'lumotlarni to'plash uchun testdan o'tgan mustaqil o'zlashtirilgan anketa ishlatilgan. Shuningdek, uyali telefonga qaramlik o'z-o'zidan ishlab chiqilgan 20-bandli mobil telefoniy giyohvandlik o'lchovi (MPAS) yordamida baholandi. Ma'lumotlar IBM SPSS Version 17-yordamida tahlil qilindi. Natijalarga qaraganda tadqiqotda 233 (60.1 %) erkak va 155 (39.9 %) ayol tibbiyot talabalaridan iborat bo'lib, o'rtacha yoshi 20.48 yoshli talabalar mobil telefonga qaram ekanligi isbotlandi[2].

Yangi O'zbekistonda yoshlarni barkamol inson sifatida tarbiyalash, ularni yot mafkuraviy xurujlardan asrash, ular o'rtasida tarbiya buzilishi, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Hozirgi kunda o'smirlar orasida xulq og'ishi ko'payib bormoqda, buni aniqlash uchun o'zbek olimlari tomonidan yoshlar o'rtasida o'tkazilgan «Yoshlarda xulq og'ishini oldini olish omillari sifatida nimalarni nazarda tutasiz?» nomli ijtimoiy-psixologik so'rovnomada Oliy ta'lim muassasalari talabalari, Probatsiya xizmati nazoratidagi xulqi og'ishgan yoshlar faol ishtirok etdi.

Natijalardan ko'rinib turibdiki, xulq og'ishi oldini olishda deviant xulqli yoshlar asosiy omillar biri sifatida «OAV da behayo jangari filmlarni ko'rmaslik» javobini tanlashgan bo'lsa 38.9 %i, sog'lom uyushgan yoshlar esa, «oilada, ta'lim muassasalarida kompleksli chora-tadbirlar samaradorligi kuchaytirish» mulohazasini 57.6 %i tanlashdi. E'tiborli jihati quyidagi berilgan javoblarda ko'rinadi, xulqi og'ishgan yoshlar «oilaviy muhitda diniy va dunyoviy tarbiyani birdek berish» mulohazasini uyushgan yoshlarga nisbatan ko'proq 15.4 %i tanlashgan.

Bu esa bizda, xulqi og'ishgan yoshlar o'zlaridagi xulq og'ish sabablarini yoki bu kabi salbiy hodisalarni oldini olishda oiladagi diniy va dunyoviy tarbiyaning birdek berilishi muhimligini alohida qayd etmoqda, degan tasavvur uyg'otadi[3].

Ilmiy tadqiqotning talabalik davrida addiktiv xulq-atvorning og'ishi haqida rus olimlaridan xatti-harakatlarining oldini V.A. Bardadimov **«Аутентичность личности подростков на разных стадиях аддиктивного поведения**[4]» bu ilmiy tadqiqotida giyohvandlik olish va samarali tuzatish vazifalari, kimyoviy qaramlikni shakllantirishning psixologik omillarini o'rganish uchun oddiy diagnostika vositasini yaratish, shakllangan qaramlikni oldingi olish uchun korreksion dastur ishlab chiqilgan chunki bu davrda rivojlanish beqaror va o'spirinlar psixoterapiya va stressli provokatsiyalarga juda sezgir bo'lishadi. Maqolada kimyoviy moddalarga qaramlik haqida yoritilgan.

T. Danielning «Аддиктивное поведение: понятие, примеры, причины, виды[5]» ushbu maqolada addiktiv xulq-atvor haqida ma'lumot va uni kelib chiqish sabablari haqida so'z yuritilgan.

Tadqiqotchi L.A. Zaxarovaning «Характеристика диагностичуской программы, направленной на изучение аддиктивного поведения подростков с **задержкой психического развития**[6].» Ushbu maqolada psixofaol moddalarga qaram bo'lgan o'spirinlarning o'ziga qaramlik xatti-harakatlarini o'rganishda qo'llaniladigan diagnostika dasturining tavsifi keltirilgan.

Ushbu diagnostika dasturi o'spirinlarning o'ziga qaramlik xatti-harakatlari muammosi bo'yicha psixologik, pedagogik va maxsus adabiyotlarni tahlil qilish asosida tuzilgan. Ilmiy tadqiqotlar davomida ushbu diagnostika dasturini qo'llash rejalashtirilgan, chunki kimyoviy qaramlik bilan og'rigan o'spirinlarning o'ziga qaram bo'lgan xatti-harakatlarga moyilligini o'rganishda eng muhim qadamlardan biridir.

A.M. Miroshkinaning «Причины возникновения аддиктивного поведения у подростков[7]» bu ilmiy maqolada addiktiv xulq-atvor haqida umumiy tushuncha, o'spirinlarda uchraydigan kimyoviy moddalarga qaramlik haqida fikrlar berilgan va bu qaramlik sabablari, oldini olish yo'llari , oilaning ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Shambare, Rugimbana va Zhowa (2012) «Are mobile phones the 21st century addiction[8]» xatti-harakatlarning olti turini ko'rib chiqdilar: odatiy, majburiy, ixtiyoriy, qaram, majburiy va o'ziga qaramlik. Biroq, ularning tadqiqoti faqat uchtasini qo'llab-quvvatladi: qaramlik, odatiy va o'ziga qaramlik. Topilmalar smartfondan foydalanish chuqur ehtiyojni (qaramlik, odatiy va o'ziga qaramlik xulq-atvori) qondiradigan holatni tushuntiradi, shu darajadaki, shaxs smartfondan bir vaqtda foydalanmasdan kundalik hayotining asosiy faoliyatini amalga oshirishda qiynaladi. Misol uchun, ba'zi odamlar ijtimoiy media saytlarini bir necha marta tekshirmasdan tun bo'yi uxlashlari qiyin.

D. Muhiddinovaning «Virtual ijtimoiy makon tahdidlarining yoshlar dunyoqarashiga ta'siri[9]» Ushbu monografiya oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda Virtual ijtimoiy makon va axborotlarning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri masalasining ilmiy tahlili berilgan bo'lib virtual ijtimoiy makon tahdidlari vaziyatida jamiyatning axborot-psixologik himoyasini ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan.

---

[1] Shukurov B.S. Talabalarda internet tobeligini keltirib chiqaruvchi psixologik omillar va uni bartaraf etish yo'llari: Phd dissertatsiyasi. // – Tashkent // 2022, – 5 b..

[2] Internet video game addiction addiction like behavior associated with mobil phone usage among medical students in //–Delhi // 2018. – 192 b. https://www.yourbrainonporn.com/uz/relevant-research-and-articles-about-the-studies/internet-video-game-addiction/addiction-like-behavior-associated-with-mobile-phone-usage-among-medical-students-in-delhi-2018

[3] Choriyev F.A. O'smirlar xulq og'ishini oldini olishning ijtimoiy psixologik omillari // ilmiy jurnal. 2023. – 676-684 b.

[4] Бардадымов В.А. Аутентичность личности подростков на разных стадиях аддиктивного поведения: Avtoreferat. Pedagogika fanlar nomzodi. // – Moskva //. 2012. – 32 b

[5] Даниил Т. Аддиктивное поведение: понятие, примеры, причины, виды // – Moskva. 2021. – 65 b. https://dnevnik-znaniy.ru/karta-sajta

[6] Захарова Л.А. Характеристика диагностичуской программы, направленной на изучение аддиктивного поведения подростков с задержкой психического развития // ilmiy maqola:. – Sankpiterburg. 2019. – 24 – 26 b.

[7] Мирошкина А.М. Причины возникновения аддиктивного поведения у подростков: BMI. – Lisosibirsk. 2021. 113 b.

[8] Shambare., Rugimbana., Zhowa (2012) «Are mobile phones the 21st century addiction // academic jurnal. –England. 2012. – 573-577 b.

[9] Muhiddinova D. Virtual ijtimoiy makon tahdidlarining yoshlar dunyoqarashiga ta'siri: Monografiya. Pedagogika fanlar nomzodi: – Guliston: 2023. – 125 b.

F. Oskenbay, E. Kalybetova, «Addictive Behavior among Adolescents[10]» ushbu maqola internetga qaramlikni tekshirishga qaratilgan bo‘lib, u o‘spirinlarning shaxsiyati va tashvish holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Internetga qaram bo‘lgan shaxslar orasida hissiy intellekt darajasida farqlar mavjud va hissiy intellekt sezilarli darajada tasdiqlangan. Internetga qaramlik o‘smirlarning shaxsiy xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va ularning hissiy beqarorligi va impulsivligiga ta’sir qilishi mumkin. Mediator sifatida hissiy aql internetga qaramlik darajasiga ta’sir qilishi va bunday faoliyatni bashorat qilishi mumkin.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hissiy intellekt (EI) darajasini rivojlantirish va oshirish orqali Internetga qaramlik holatiga ta’sir qilish mumkin. Shuningdek, o‘smirlar orasida internetga qaramlikning ba’zi sabablari quyidagicha taqdim etiladi: doimiy ravishda virtual munosabatlarga muhtoj va bu holatni o‘zgartirishning iloji yo‘q shaxsiy zaruratning sub’ektiv tashvishi «men haqiqiyman» va «men virtual» ma’nolarini farqlay olmaydi. Talabalar orasida internetga qaramlikning empirik tadqiqotlari internetga qaramlikning o‘smirlarning tashvish holatiga, ularning hissiy sohasiga va shaxsiy xususiyatlariga salbiy ta’sirini aniqlangan.

Yuqoridagi nazariy qarashlarni o‘rgangan holda o‘spirin yoshlarning texnologiyadan foydalanish madaniyatini shakllantirish, internetdan to‘g‘ri va foydali foydalanish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli, ta’lim va ilmiy muassasalar yoshlar uchun muqobil, foydali mashg‘ulotlarni ko‘paytirishi, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga e’tibor qaratish maqsadida o‘rganildi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Tadqiqot ishida ikkita metodikadan foydalanildi. Bunda Toshkent shahar Xalqaro Nordik Universitetining turli yo‘nalishda tahsil oluvchi 1-kurs talabalarining 100 nafari ishtirok etishdi. Tadqiqot sinaluvchilarining o‘rtacha yoshi 19 yoshni tashkil qiladi.

T. Liri metodikasi metodikasi. Biz T.Liri metodikasini asosan o‘qituvchilarga tatbiq etganligimiz sababli ham, undagi oktantlar bo‘yicha natijalarni uning o‘zi hamda ularning o‘quvchilari tomonidan baholashga asoslandik. T.Liri metodikasining yana qulay jihatlari uning tarkibiga kiruvchi savollarning (114 ta xarakterologik xususiyatlardan tarkib topgan) tizimlashganligi va ularning bir necha omillar asosida (8 ta psixologik tendensiyalarga) tahlil etish mumkinligida. T.Liri metodikasidagi oktantlarning har biri o‘zida bir necha darajani (to‘rt daraja) ifoda etgan bo‘lib, ularda quyi, o‘rta, yuqori va ekstremalga ajratiladi.

I. Liderlikka moyillik, hukmronlik, zulmkor.

II. O‘ziga ishonch-o‘zini yaxshi ko‘rish.

III. Talabchanlik-murosasiz, shafqatsiz

IV. Ishonchsizlik (skeptizm)- kaysar-salbiylik (negativizm).

V. Yon berishlik-beozor-passiv bo‘ysunuvchanlik.

VI. Ishonuvchanlik-itoatkorlik-tobelik.

VII. Ko‘ngilchanlik-mustaqil emas, haddan tashqari yon beruvchan.

VIII. Rahimdillik-beg‘arazlik-fidokorlik singari oktantlar bilan bir qatorda shaxsning psixologik qiyofasini (profilini) ochib berishga yordam beruvchi ikkita omilga tayanishini ham aytib o‘tish joiz. Chunonchi ular, ustunlik yoki yetakchilik hamda do‘stonalik omillaridir.

A.**Bass va** A.**Darkining «Agressivlikni o‘rganish» metodikasi.** Bass va Darking metodikasining asosiy maqsadi – agressiv xatti-harakatlarni boshqarish va ular bilan bog‘liq salbiy oqibatlarni kamaytirish. Bu metodika shaxsning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga yordam berib, insonlarning boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarini yaxshilashga qaratilgan. Bass va Darkingning «Agressivlikni o‘rganish» metodikasi psixologik jihatdan agressivlikni tushunish va uning oldini olish, shuningdek, bu xatti-harakatlarni boshqarish bo‘yicha turli yondashuvlarni taklif etadi. Bu metodika, shaxslar va guruhlar o‘rtasidagi konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilish va ijtimoiy muhitda o‘zaro hurmat va sabrni rivojlantirishga yordam beradi.

Mazkur metodika 75 ta mulohazadan iborat bo‘lib, respondentlarning javoblari maxsus kalit yordamida ishlab chiqiladi va kalitga asosan sakkizta ko‘rsatkich bo‘yicha ma’lumotlar olinadi. Bu ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. Jismoniy agressiya – boshqa bir shaxsga nisbatan jismoniy harakatlar qilish.

«ha»= 1, «yo‘q»= 0: 1, 25, 31, 41, 48, 55, 62, 68

«yo‘q»=1, «ha»= 0: 9, 7

2. Bilvosita agressiya (косвенная агрессия) – to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, boshqa yo‘llar bilan (chetdan, orqa-varotdan) amalga oshiriladigan agressiya

«ha»= 1, «yo‘q»= 0: 2, 10, 18, 34, 42, 56, 63

«yo‘q»=1, «ha»= 0: 26, 49

3. Jahldorlik – arzimagan bahona yoki sabab bilan ham salbiy hissiyotlarini ko‘rsatish (qo‘pollik, tez jaxl chiqishi).

«ha»= 1, «yo‘q»= 0: 3, 19, 27, 43, 50, 57, 64, 72

«yo‘q»=1, «ha»= 0: 11, 35, 69

4. Salbiy munosabatlar (negativizm) – oppozision (muxolifatchilik) xulq, odatda biror-bir avtoritetga yoki rahbariyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi, bu xulq talab etilgan qonun va odatlarga qarshi passiv qarshilikdan to faol kurashgacha o‘sishi mumkin.

«ha»= 1, «yo‘q»= 0: 4, 12, 20, 28

«yo‘q»=1, «ha»= 0: 36

5. Alamzadalik – atrofdagilarga hasad qilish va ulardan nafratlanish, arzimagan ko‘ngilsizliklarda ranjish, g‘azablanish va «butun dunyoni ayblash».

«ha»= 1, «yo‘q»= 0: 5,13, 21, 29, 37, 44, 51, 58

6. Badgumonlik – atrofdagi insonlarga bo‘lgan ishonchsizlik va ehtiyotkorlik, fikricha, atrofdagilar ularga ataylab yomonlik qilishadi.

«ha» = 1, «yo‘q»= 0: 6, 14, 22, 30, 38, 45, 52, 59

«yo‘q»=1, «ha»= 0: 33, 66, 74, 75

7. Verbal agressiya – negativ hissiyotlarni so‘z yordamida ifodalash (baqirish, janjallashish, tahdid qilish, so‘kish, qarg‘ash).

«ha»= 1, «yo‘q»= 0: 7, 15, 23, 31, 46, 53, 60, 71, 73

«yo‘q»=1, «ha»= 0: 33, 66, 74, 75

8. Aybdorlik hissi – subyekt o‘zining yomonligi, atrofdagilarga zarar keltirishi haqidagi o‘y fikrlari hamda vijdonan qiynalishi.

«ha»= 1, «yo‘q»= 0: 8, 16, 24, 32, 40, 47, 54.61, 67

Metodikani o‘tkazish jarayonida tekshiriluvchilarga quyidagicha yo‘riqnoma berildi: «Quyidagi mulohazalarni diqqat bilan o‘qing va sizga mos kelgan mulohazani qarshisiga «+» belgisini, sizningcha noto‘g‘ri bo‘lgan mulohaza to‘g‘risiga «-» belgisini qo‘ying. Savollarni ko‘p o‘ylamasdan haqqoniy javob berishga harakat qiling». Metodikaning kalitiga ko‘ra ba’zi savollarda «ha» javobiga, ba’zilarida esa «yo‘q» javobiga bir bal beriladi.


NATIJALAR

T. Liri testining respondentlarda sifatlarni baholash ko‘rsatkichlari. T. Liri testi insonning o‘ziga va boshqalarga bo‘lgan munosabatini, shaxsiy xususiyatlarini hamda ijtimoiy muhitdagi xulq-atvorini aniqlash

[10] Oskenbay F., Kalybetova E., Addictive Behavior among Adolescents // ilmiy maqola. – Kazakhistan. 2014. – 407-411 b.

uchun qo‘llaniladi. Ushbu test orqali insonning yetakchilik yoki itoatkorlik darajasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishi va psixologik holati baholanadi. U psixologik maslahatlarda, kadrlar tanlash jarayonida, pedagogik tadqiqotlarda va jamoa bilan ishlashda qo‘llanadi.

T. Liri metodikasi bo‘yicha umumiy olingan natijalar (n=100). Tadqiqot mavzusi bo‘yicha ikkita metodika o‘tkazildi. O‘tkazilgan metodikalar tahlili quyidagi rasmda keltirilgan.



1-rasm. T.Liri testining sifatlarni baholash jadvali metodikasi bo‘yicha umumiy olingan natijalar

1-rasmda T.Liri testining sifatlarini baholash yuzasidan sakkizta shkalada olingan natijalarga ko‘ra, Liderlikka moyillik, hukmronlik shkalasi bo‘yicha 12 % past daraja, o‘rta darajasini 32 % ni qayd etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, liderlikka moyil, hukmronlik, maslahatlar berishga intiluvchan, tashkilotchi va qobiliyatli bo‘ladilar. Yuqori darajasi 46 %i va eng yuqori ekstremal daraja 10 % ni tashkil etgani qayd etildi. Demak, bunday respondentlar tanqidlarni qabul qila olmaydi va fikrlari qotib qolgan va zulmkorlik moyillik kuzatiladi.

Keyingi o‘ziga ishonch, o‘zini yaxshi ko‘rish shkalasi bo‘yicha past daraja 14 %i, o‘rta darajasini 45 %i tashkil qiladi. Bunday respondentlar ishonchli, mustaqil va raqobatlashishga qobiliyatli bo‘lishadi. Yuqori darajasi 29 %i va eng yuqori ekstremal darajani 12 %i ko‘rsatdi. Bundan ko‘rinadiki, guruhda ajralib turuvchi, kibrhavolik va mag‘rurlanishni yoqtiradigan insonlar guruhiga mansub.

Metodikaning talabchanlik, murosasiz, shafqatsiz shkalasi bo‘yicha past daraja 11 %i, o‘rta darajasini 33 %i tashkil etdi. Demak, ochiq, bevositalik va qat’iyatli insonlar bo‘lishadi. Yuqori darajani 36 %i va eng yuqori ekstremal darajani 20 % ni tashkil etdi. Bundan kelib chiqib, bu respondentlar haddan ortiq o‘jar, o‘zini tuta olmaydigan va jahli tez urishishga moyil insonlardir.


Ishonchsizlik, qaysar, salbiy shkalasi bo‘yicha past daraja 15 %i, o‘rta darajasini 42 %i qayd etildi. Bundan aniqlandiki, real muhofazalovchi, shubha bilan qarovchi va konformlikka moyil bo‘lmagan xafa bo‘lishga moyil bo‘lishadi. Yuqori darajani 30 %i, va eng yuqori ekstremal darajani 17 %i qayd etdi. Ular atrofdagilardan norozi va hammadan shubhalanuvchan shaxslar.

Respondentlar yon berishlik, passiv bo‘ysunuvchanlik shkalasi bo‘yicha past daraja 13 %i, o‘rta daraja 29 %i qayd etildi. Demak, ular muloyim, tortinchoq, begonalarning majburiyatlarini o‘z zimmasiga oluvchan insonlar bo‘lishadi. Yuqori darajani 39 %i va ekstremal darajani 19 %i ko‘rsatgani aniqlandi. Ular aybni o‘z zimmasiga oluvchan va o‘zini o‘zi kamsituvchan kabi xislatlarga ega.

Ishonuvchanlik, itoatkorlik shkalasi bo‘yicha past daraja 11 %i, o‘rta darajasini 41 %i tashkil etdi. Bundan ko‘rinadiki, bunday respondentlar atrofdagilarni ishonchiga kirishga ehtiyoji bor va yordamga muhtoj inson bo‘lishadi. Yuqori daraja 33 %i va ekstremal darajasida 15 %i aniqlandi. Bunday respondentlar yuqori qulaylikka moyil va atrofdagilarning fikrlariga bog‘lanib qolishga moyil.

Metodikaning ko‘ngilchanlik, haddan tashqari yon beruvchi shkalasi bo‘yicha past daraja 21 %i, o‘rta darajasini 48 %i tashkil etadi. Bundan ko‘rinadiki, guruh bilan hamkorlikka intiluvchan, xayrixohlikka moyil bo‘lishadi. Yuqori daraja 18 %i va ekstremal darajasida 13 %i qayd etildi. Ular murosakor va xayrixohligini ochiq izoh etuvchanlik xislatiga egadirlar.

Rahmdillik fidokorlik shkalasi bo‘yicha past daraja 15 %i, o‘rta darajasini 42 %i qayd etildi. Demak, respondentlar atrofdagilarni tushunuvchan va ularga yordam ko‘rsatishga shay, muloyim, ko‘ngilli, o‘ta mas’uliyatli bo‘lishadi. Yuqori darajani 31 %i va ekstremal darajasida 12 %i natijani ko‘rsatdi. Bu respondentlar yuqori ijtimoiy ustanovkalarga ega va fidoyi insonlar toifasiga kiradilar.



2-rasm. A.Bass - A.Darkining «Agressivlikni o‘rganish» metodikasidan olingan umumiy natijalar.

2-rasmda A.Bass – A.Darkining «Agressivlikni o‘rganish» metodikasidan olingan umumiy natijalarga ko‘ra, jismoniy agressiya shkalasi bo‘yicha 36 %i respondent past ko‘rsatkichni qayd etdi. Respondentlarning jismoniy agressiya ko‘rsatish ehtimoli unchalik yuqori emas, lekin ma’lum darajada mavjud ekanligini anglashi bilan belgilanadi. Bu odatda ichki stress yoki hayotdagi noqulay vaziyatlarga nisbatan reaksiya sifatida namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi.

Bilvosita agressiya shkalasi bo‘yicha respondentlarning 30 %i past natijada aniqlandi. Bu ham nisbatan past ko‘rsatkich, bilvosita agressiya odamning boshqalarga bevosita zarar bermasdan, o‘zini anglatmagan yo‘l bilan o‘z g‘azabini yoki noroziligini ifodalashini bildiradi. Bu respondent o‘z hissiyotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalashdan ko‘ra, boshqalarga zarar yetkazmasdan ichki yomonlashuvni his qiladi.

Navbatdagi jahldorlik shkalasi bo‘yicha 60 % respondent yuqori natijani ko‘rsatdi. Bu ko‘rsatkich yuqori bo‘lib, shaxsda jahldorlik va g‘azabni boshqarishda qiyinchiliklar mavjudligini namoyon qiladi. Respondent ba’zan o‘zining hissiyotlariga qarshi turishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin va bu hissiyotlar o‘zini ko‘rsata boshlashi mumkin.

Metodikaning salbiy munosabatlar shkalasi bo‘yicha 40 % talabada o‘rta darajadagi natija aniqlandi. Bu ko‘rsatkich o‘rtacha darajada salbiy munosabatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Respondent boshqalarga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishi mumkin, ammo bu juda yuqori darajada emas. Bu respondentning hayotdagi o‘zgarishlarga nisbatan ehtiyotkorligini yoki shubhalarini bildirishi izohlanadi.

Alamzadalik shkalasi bo‘yicha respondentlarning 40 %i o‘rta daraja

natija qayd etildi. Bu ko‘rsatkich respondentda ba’zi darajada alam va xafalik mavjudligini ko‘rsatadi. Bu tuyg‘u uning ruhiy holatiga salbiy ta’-sir qilishi qayd etildi, lekin juda yuqori darajada emas.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar asosida talabalik davrida addiktiv xulq-atvorning psixologik xususiyatlarini o‘rganish, yoshlar va o‘smirlar orasida bu kabi xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

1. Addiktiv xulq-atvor ko‘plab psixologik, ijtimoiy va biologik omillar bilan bog‘liq bo‘lib, u yoshlarning o‘zini anglash va ijtimoiy integratsiyasi jarayonida muhim ta’sir ko‘rsatadi.

2. O‘smirlar va talabalarda addiktiv xulq-atvorning rivojlanishiga olib keluvchi asosiy sabablar orasida stress, o‘zini qadrlashdagi pasayish, oilaviy muammolar, do‘stlar yoki guruh bosimi, shuningdek, internet va virtual makonning salbiy ta’siri mavjud. Shuningdek, yoshlar orasida internetga qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rsatilgan stress va psixologik bosim ham yuqori darajaga chiqishi mumkin.

3. Addiktiv xulq-atvorni oldini olish uchun psixologik yordamning, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning va shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning zarurligini ko‘rsatadi. Yoshlarni addiktiv xulq-atvordan himoya qilish va ularni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun ularning stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, salbiy ijtimoiy ta’sirlarga qarshi tura olishga o‘rgatish lozim.

Talabalik davrida addiktiv xulq-atvorning psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, yoshlarning ijtimoiy va psixologik holatini yaxshilash, ularda o‘zini anglash va o‘zgarishga ijobiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu tadqiqotlar yoshlar salomatligini saqlash va ularning sog‘lom psixologik rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR:

1. Даниил Т. Аддиктивное поведение: понятие, примеры, причины, виды //– Moskva. 2021. – 65 b. https://dnevnik-znaniy.ru/karta-sajta

2. Isoqjonova J.T. Addiktiv xulq-atvor tadqiqot bosqichlari // ilmiy jurnal. – Toshkent. 2023. – 729-731 b.

3. Mamajanova X.Q. Maktab o‘quvchilarida agressiv xulq-atvorining namoyon bo‘lishi va uni bataraf etish mexanizmlari // ilmiy jurnal. – Toshkent. 2021. – 218-221 b.

4. Mirvaliyeva M. Addiktiv xulq-atvor psixologiyasi // NamDU. Iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi. – Namangan. 2022.№3-son. – 172 b.

5. Mamajanova X.Q. O‘smirlik davri addektiv xulq-atvorning eksperemental tahlili // ilmiy jurnal. – Toshkent. 2023. – 267-271 b.

6. Mirzayeva S.H. O‘smirlarda agressiv xulq-atvor shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar // ilmiy maqola. – Toshkent. 2023. – 812-815 b.

7. Захарова Л.А. Характеристика диагностичуской программы, направленной на изучение аддиктивного поведения подростков с задержкой психического развития // ilmiy maqola. – Россия. 2019. – 24-26 b.

8. Shambare., Rugimbana., Zhowa. (2012) Are mobile phones the 21st century addiction // academic jurnal. – England. 2012. – 573-577 b.

9. Oskenbay F., Kalybetova E, Addictive Behavior among Adolescents // ilmiy maqola. – Kazakhistan. 2014. – 407-411 b.

10. Захарова Л.А. Иследование склонности подростков с задержкой психического развития к аддиктивному поведению // ilmiy maqola. – Россия. 2019. – 54-56 b.

11. 33 Most Visited Websites in the World. – America. 2025. 12 b. https:. tech.liga.net/technology/Most visited sites in, year 2021

12. Internet video game addiction addiction like behavior associated with mobil phone usage among medical students in delhi. – Dehli. 2018. – 192 b. https://www.yourbrainonporn.com/uz/relevant-research-and-articles-about-the-studies/internet-video-game-addiction/addiction-like-behavior-associated-with-mobile-phone-usage-among-medical-students-in-delhi-2018

13. Choriyev F.A. O‘smirlar xulq og‘ishini oldini olishning ijtimoiy psixologik omillari // ilmiy jurnal. – Toshkent. 2023. – 676-684 b.

14. XXI asrning yangi epidemiyasi telefonga qaramlik bolalarning salomatligiga qandaj ta’sir korsatadi. Uzreport axborot agentligi https://xs.uz/uz/post/xxi-asrning-yangi-epidemiyasi-telefonga-qaramlik-bolalarning-salomatligiga-qandaj-tasir-korsatadi

15. Xusanov S.M. Ijtimoiy tarmoqlarga tobelikning zararlari va uni yengib o‘tish bo‘yicha tavsiyalar // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Toshkent. 2022 йил №11. – 386-388 b.

16. Tursunboyev B.R. va Mirvaliyeva.M.Y Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi // res.konf, – Andijon 2024. – 698-670 b.

17. Бардадымов В.А Аутентичность личности подростков на разных стадиях аддиктивного поведения: Avtoreferat. Pedagogika fanlar nomzodi. – Moskva 2012. – 32 b.

18. Мирошкина А.М. Причины возникновения аддиктивного поведения у подростков: BMI. – Lisosibirsk. 2021. – 113 b.

19. Muhiddinova D. Virtual ijtimoiy makon tahdidlarining yoshlar dunyoqarashiga ta’siri: Monografiya. Pedagogika fanlar nomzodi. – Guliston. 2023. –125 b.

20. Mirzayev J.T. Internetdan faol foydalanuvchi talaba yoshlar shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlar: Avtoreferat. Psixologiya fanlari nomzodi. – Guliston. GDU. 2021. – 24 b.

21. Shukurov B.S. Talabalarda internet tobeligini keltirib chiqaruvchi psixologik omillar va uni bartaraf etish yo‘llari: Phd dissertatsiyasi. – Tashkent. 2022, –5- bet.

22. Umarova I.B. Xulqi og‘ishgan o‘smirlarda qadryatli motivatsiyani rivojlantirishning psixologik xususiyatlari: Monografiya. – Urganch 2022. – 26 b.

ORCID ID: 0009-0006-7401-2647

MAKTAB O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MAKTAB, MAHALLA VA OILA HAMKORLIGINING O‘RNI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract. Ushbu maqolada maktab, mahalla va oila o‘rtasidagi hamkorlikning o‘quvchilarni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tarbiya jarayonida ushbu uch institutning integratsiyalashgan holda ishlashining pedagogik asoslari yoritilib, ularning o‘zaro muloqoti va resurslarini birlashtirish orqali o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga erishish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Maqolada ta’lim-tarbiya tizimidagi dolzarb muammolar o‘rganilib, ularni hal etishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijalari, nazariy tamoyillar va amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan holda, pedagoglar, ota-onalar va mahalla faollari uchun foydali qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Maktab, oila, hamkorlik, o‘quvchi tarbiyasi, ma’naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, ijtimoiy hamkorlik, tarbiyaviy jarayon.

KIRISH

Jahonda bugungi kunda maktab, oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik tarbiyaviy tizimning ajralmas qismi sifatida, har bir o‘quvchining intellektual, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Jahon miqyosida ta’lim va tarbiya jarayonlari kompleks tizim sifatida qaraladi, bunda jamiyatning barcha a’zolari o‘z mas’uliyatini his qilib, o‘zaro hamkorlikda ishlashlari kerak. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ta’lim va tarbiyaning ijtimoiy aspektlarini muvofiqlashtirish, oilaning va mahallaning tarbiyadagi rolini kuchaytirish yuzasidan bir qator rezolyutsiyalar va strategiyalar qabul qilingan[1].

BMTning Ta’lim bo‘yicha 2030-yilga qadar barqaror rivojlanish maqsadlari ta’limning umumiy sifatini oshirish, barcha yoshdagi bolalarga teng imkoniyatlar yaratish, o‘quvchilarni ijtimoiy mas’uliyatli va ma’naviy boy kishilar sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Shuningdek, OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti) hamkorlikni mustahkamlash va ta’limning sifatini oshirish maqsadida maktablar, oila va mahalla o‘rtasida muvaffaqiyatli muloqotni rivojlantirishga doir global yondashuvlarni ishlab chiqmoqda.

O‘zbekistonda o‘quvchilarning tarbiyaviy rivojlanishiga maktab, oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu borada olib borilayotgan islohotlar maktab va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘naltirish va jamiyatning barcha qatlamlarini tarbiyaviy jarayonga jalb etish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasida yoshlarni istiqlol g‘oyalariga sadoqatli, ma’naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida muhim dasturilamal bo‘ldi[2]. Mamlakatimizda qabul qilingan ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qator me’yoriy hujjatlar, jumladan O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar xalqaro tajribani bilish va ulardan foydalanish chet ellik hamkasblarning o‘quvchilar xavfsizligini ta’minlash sohasidagi haqiqiy muvaffaqiyatlarini ma’lum bir kasbiy nuqtai nazardan to‘liq e’tiborsizlik yoki yetarlicha e’tibor bilan o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan eski noto‘g‘ri qarashlar va yangi stereotiplarni yengib o‘tishga imkon beradi[3].

A. Abduqodirovning fikriga ko‘ra, pedagogik jarayonda o‘qituvchilarning ota-onalar bilan yaqindan muloqotda bo‘lishi, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishida oilaning ta’siri haqida fikr yuritadi. Ushbu tadqiqotda bolalarning tarbiyasi faqat maktabning emas, balki oilaning bevosita ishtirokida amalga oshirilishi kerakligi ta’kidlangan. U oiladagi tarbiyaviy muhit va maktabdagi pedagogik usullar uyg‘unlashishi zarurligini ko‘rsatib bergan[4].

Sh. Olimov mahallaning ta’lim jarayonidagi bevosita roli va mahalla tomonidan taqdim etiladigan pedagogik yordamni o‘rganadi. Uning fikricha mahallaning ta’lim sifatini yaxshilashdagi ishtiroki va mahalliy hamjamiyatning ta’lim-tarbiyaga hissa qo‘shishi haqida muhim g‘oyalar ilgari surilgan. Muallif ta’lim jarayonida mahalla faolligining o‘quvchilarga ta’sirini empirik ma’lumotlar asosida o‘rgangan[5].

N. Rustamov o‘z asarida oilaviy tarbiya va jamiyatdagi ijtimoiy muhitning o‘quvchilar tarbiyasiga ta’sirini tadqiq etgan. U oilaning pedagogik faoliyatni to‘g‘ri tashkil etishdagi roli va jamiyat bilan hamkorligi haqida chuqur tahlillar olib borgan. Rustamov oiladagi sog‘lom tarbiyaviy muhitni yaratish orqali ta’lim jarayonini yanada samarali qilishni taklif qiladi[6].

U. Jalolov mahallaning o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashdagi roli haqida fikr yuritadi. Tadqiqotda o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi uchun maktab va mahalla hamkorligi zarurligi ta’kidlangan. U mahalla tomonidan o‘quvchilarga taqdim etiladigan madaniy-tarbiyaviy tadbirlarning o‘quvchilarning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlariga ta’sirini tahlil qiladi[7].

M. Yo‘ldoshev pedagogik jarayonda mahallaning ishtirokini o‘rgangan va mahalla faolligi bolalarning tarbiyaviy jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida tadqiqot o‘tkazgan. U mahallada amalga oshirilayotgan ta’limiy ishlarni innovatsion yondashuvlar bilan rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi[8].

S. Haqqulovning fikriga ko‘ra maktabning ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikni rivojlantirishdagi rolini haqida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda oilaning tarbiyaviy funksiyasini maktab bilan hamkorlikda mustahkamlash g‘oyasi ilgari surilgan[9].

K. Bekmurodov mahallaning o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi faolligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni tavsiya qiladi. Tadqiqotda mahallalarda o‘quvchilar uchun yaratilayotgan ta’limiy imkoniyatlar tahlil qilingan[10].

B. Saidov O‘zbekiston ta’lim tizimida oilaviy tarbiya va mahalla ta’lim jarayonida ishtirok etishining huquqiy asoslarini o‘rgangan. U ta’lim sifatini oshirishda davlat va jamoatchilik nazoratining ahamiyatini ko‘rsatgan. Muallif ota-onalar va mahallaning ta’lim jarayonidagi mas’uliyatini muhokama qiladi[11].

METODOLOGIYA VA METODLAR

Tadqiqot muammolarini hal qilish uchun qo‘llaniladigan usullar, masalan, so‘rovnomalar, eksperimentlar, monitoring va individual yondashuvlar maktab, mahalla va oila hamkorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Har bir usul o‘ziga xos tarzda o‘quvchilarning shaxsiy va ma’naviy rivojlanishiga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar yordamida o‘quvchilarning tarbiyaviy jarayonidagi muammolarni samarali hal qilish mumkin.

Metodologiya – tadqiqot mavzusini o‘rganish va yoritish jarayonida foydalaniladigan ilmiy usullar va yondashuvlar yig‘indisidir. Quyida ushbu mavzuni yoritish uchun qo‘llanilgan asosiy metodlar keltiriladi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida nazariy-metodik tadqiqot usullardan foydalanildi. Bu usullar yordamida mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, pedagogik va psixologik maqolalar va tadqiqot ishlari tahlil qilindi.

Empirik tadqiqotni ikkinchi bosqichida eksperimental tadqiqot usulidan foydalanildi. Eksperimental tadqiqot usuli yordamida maktab, mahalla va

[1] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida. 2000-yil 23-sentyabr // https://lex.uz/docs/5013007

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2012-yil 19-iyun // https://lex.uz/docs/-6445145

[3] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.Ta’lim to‘g‘risida. 2000-yil 23-sentyabr // https://lex.uz/docs/-5013007

[4] Abduqodirov A. Ta’lim jarayonida maktab va oila hamkorligi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2016. – 120-122 b.

[5] Olimov Sh. Mahalla va ta’lim integratsiyasining pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2017. – 135 -139 b.

[6] Rustamov N. Oila va jamiyat: tarbiyaviy muhitni yaratish. – Samarqand: Zarafshon, 2018. – 150-155 b.

[7] Jalolov U. O‘quvchilarning ijtimoiylashuvida mahallaning o‘rni. – Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti, 2018. – 145-148 b.

[8] Yo‘ldoshev M. Pedagogika va mahalla: yangi yondashuvlar. – Toshkent: Noshir, 2020. – 110-113 b.

[9] Haqqulov S. Oila tarbiyasida maktabning pedagogik yordami. – Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2015. – 130-133 b.

[10] Bekmurodov K. Mahalla ta’limida innovatsiyalar. – Toshkent: Innovatsiya press, 2016. – 140-142 b.

[11] Saidov B. O‘zbekiston ta’lim tizimida oila va mahalla hamkorligi. – Nukus: Qoraqalpoq Davlat Universiteti nashriyoti, 2018. – 125-128 b.

oila o‘rtasidagi hamkorlikning o‘quvchilarning tarbiyasiga ta’siri tekshiriladi. Bu jarayonda tajriba sinfi va nazorat sinfi tashkil etilib, ularning o‘zaro farqi tahlil qilinadi. Misol: O‘quvchilarning turli to‘garaklarda ishtiroki va ularning ijtimoiy xulq-atvoridagi o‘zgarishlar o‘rganiladi.

Uchinchi bosqichda respondentlar orasida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazildi. Ota-onalar, o‘qituvchilar va mahalla faollari o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish o‘quvchilarning tarbiyaviy jarayonida hamkorlikning real holatini o‘rganishga yordam beradi. So‘rovnomalar va intervyular orqali maktab, mahalla va oila hamkorligining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda foydalanildi.

Tadqiqotning to‘rtinchi bosqichida monitoring va kuzatish usulidan foydalanildi. O‘quvchilarning tarbiyaviy rivojlanishini muntazam ravishda kuzatish orqali ularning ma’naviy-axloqiy o‘sish dinamikasi aniqlanadi. Kuzatish natijalari asosida o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi va ulardagi o‘zgarishlar qayd etiladi.

Tadqiqotning beshinchi bosqichida amaliy tadbirlar tahlili amalga oshirildi. Maktab, mahalla va oila tomonidan o‘tkazilgan tadbirlar, jumladan, sport musobaqalari, vatanparvarlik tadbirlari yoki madaniy-ma’rifiy mashg‘ulotlar natijalari tahlil qilinadi. Misol: Forish tumanida o‘tkazilgan tadbirlar orqali o‘quvchilarning darslarda davomatini oshirish va to‘garaklarga jalb qilish bo‘yicha o‘tkazilgan ishlar natijalari tahlil qilinadi.

Tadqiqotning oxirgi bosqichida tahliliy-solishtirma yondashuvdan foydalanildi. Maktab, mahalla va oila hamkorligi modeli boshqa mamlakatlarning tajribasi bilan solishtiriladi. Bu usul orqali O‘zbekistonda ushbu hamkorlikni takomillashtirish yo‘llari o‘rganiladi.

Mazkur metodologiyik usullar maktab, mahalla va oila hamkorligining o‘quvchilar tarbiyasiga ta’sirini keng qamrovli o‘rganish uchun asosiy yo‘nalishlarni belgilaydi. Ushbu metodlar tadqiqot natijalarini ilmiy asosda tahlil qilish va amaliy tavsiyalar berishga yordam beradi.

NATIJALAR

Maktab, mahalla va oila o‘rtasidagi hamkorlikni tadqiqot qilishda quyidagi baholash mezonlari aniqlanadi. Bu mezonlar, hamkorlikning samaradorligini baholash va uning ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘lchash uchun muhimdir. Tadqiqotda quyidagi baholash mezonlari e’tiborga olinadi. Quyida maktab, mahalla va oila o‘rtasidagi hamkorlikni baholash mezonlari jadvali keltirilgan, u har bir mezonni aniqlab, uning baholash usuli va izohlarini o‘z ichiga oladi.

1-jadval. Baholash shkalasi jadvali (maktab, mahalla va oila hamkorligini belgilarini ko‘rsatuvchi har bir omil 0-2 ball bilan belgilandi)

Baholash mezonlari	Ballar (0-2)	Izoh	Baholash usuli
1. Hamkorlikning samaradorligi	0-2	Maktab, mahalla va o‘ila o‘rtasidagi hamkorlikning umumiy samaradorligi (o‘quvchilarning akademik yutuqlari, ijtimoiy faolligi va axloqiy rivojlanishi)	O‘quvchilarning akademik yutuqlari va ijtimoiy faoliyatlarda ishtiroki.
2. O‘quvchilarning ijtimoiylashuvi va ma’naviy rivojlanishi	0-2	O‘quvchilarning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishidagi o‘zgarishlar (faollik, ijtimoiy muammolarni hal qilish)	Ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish.
3. Ota-onalar va o‘qituvchilarning faolligi	0-2	Ota-onalar va o‘qituvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki	Ota-onalar va o‘qituvchilarning darslarga qatnashish va o‘quvchilarga yordam berish darajasi.
4. O‘quvchilarning o‘zgarishlaridagi kuzatish va monitoring	0-2	O‘quvchilarning o‘zgarishlari va rivojlanishlari, hamkorlikning ularning o‘quv faoliyatiga ta’siri	Doimiy kuzatish, o‘quvchilarning akademik va ijtimoiy rivojlanishini tahlil qilish.
5. Mahalla va maktab o‘rtasidagi aloqaning mustahkamlanishi	0-2	Mahalladagi faoliyatlar va maktab o‘rtasidagi aloqaning rivojlanishi	Mahalladagi tadbirlarga o‘quvchilar va ota-onalar ishtirokini baholash.

2-jadval. Ballar taqsimoti:

Ballar		Samaradorlik darajasi
0-5 ball	Minimal samaradorlik	Hamkorlikda sezilarli o‘zgarishlar yo‘q. Ba’zi sohalarda yaxshi natijalar, lekin hamkorlikning ba’zi jihatlari zaif.
6-7 ball	Qoniqarli samaradorlik	Hamkorlikning asosiy jihatlari yaxshi ishlamoqda, ijtimoiy va akademik rivojlanishda ijobiy o‘zgarishlar ko‘rsatilmoqda.
8-9 ball	O‘rta darajadagi samaradorlik	O‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va akademik yutuqlari aniq ravishda yaxshilangan.
10 ball	A’lo darajadagi samaradorlik	Maktab, mahalla va oila o‘rtasidagi hamkorlik o‘quvchilarning barcha sohalarda muvaffaqiyatini ta’minlamoqda.

Tajriba sinov ishlari (eksperimentlar) maktab, mahalla va oila o‘rtasidagi hamkorlikni yaxshilash va o‘quvchilarning tarbiyaviy jarayoniga ta’sirini o‘lchash uchun samarali metodlardan biridir. Ushbu metodika o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonlarini sinovdan o‘tkazish va natijalarni kuzatib borishni ta’minlaydi. Quyida tajriba sinov ishlarini tashkil qilishning metodikasi keltirilgan.

1. Tadqiqot maqsadini aniqlash. Maktabda, mahallada va oilada o‘quvchilarning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini mustahkamlashda hamkorlikning ta’siri.

2. Eksperimentning tarkibini va bosqichlarini belgilash. Tajriba sinov ishlari samarali va aniq bo‘lishi uchun uning tarkibi va bosqichlari quyidagicha belgilanishi lozim:

1-bosqich. Tadqiqot obyektini tanlash – Maktabda ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishni kuzatadigan o‘quvchilar guruhini tanlash.

2-osqich. Hamkorlikni tashkil etish – O‘quvchilarning maktabda, mahallada va oilada faol ishtirok etishlarini ta’minlash. Bunda o‘qituvchilar, ota-onalar va mahalla faollarining birgalikda faoliyat yuritishi zarur.

3-bosqich. Eksperimentni o‘tkazish – Hamkorlikning ta’sirini kuzatish uchun ma’lum muddat davomida amaliy ishlar, seminarlar, o‘quv dasturlari tashkil etish.

3. Sinov metodlarini aniqlash. Sinov metodlari o‘quvchilarning hamkorlikka bo‘lgan munosabatini o‘lchash uchun turli metodlar qo‘llaniladi:

So‘rovlar va anketalar. O‘quvchilarning, ota-onalar va o‘qituvchilarning fikrini olish, o‘quvchilarning tarbiyaviy rivojlanishini baholash.

Muhokama va guruh ishlari. O‘quvchilarga jamiyatdagi masalalar, axloqiy muammolarni muhokama qilish va guruhlarda ishlashni tashkil qilish.

Kuzatish. O‘quvchilarning o‘zgarishlarini, darslardagi va jamiyatdagi faolliklarini kuzatish.

4. Eksperimentni amalga oshirish. Tajriba sinovlarini amalga oshirishda quyidagi qadamlar bajarilishi kerak.

Hamkorlikni tashkil etish. Maktabda va mahallada o‘quvchilar uchun pedagogik va ma’naviy tadbirlar tashkil etiladi. Misol: Maktab va mahalla bilan birgalikda ijtimoiy va axloqiy tadbirlar o‘tkazish.

Ko‘p tomonlama yondashuv. O‘quvchilarga o‘zgarishlarni kuzatish uchun nafaqat maktabda, balki ularning oilasida ham faoliyatlar tashkil etiladi. Misol: Ota-onalar bilan ta’lim va tarbiya masalalarida seminarlar o‘tkazish.

NATIJALARNI TAHLIL QILISH

Tajriba sinov ishlari o‘tkazilgandan so‘ng, natijalar tahlil qilinadi. Bu jarayon davomida quyidagi masalalar yoritilishi kerak:

– O‘quvchilarning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishidagi o‘zgarishlar;

– maktab, mahalla va oila o‘rtasidagi hamkorlikning o‘quvchilarga bo‘lgan ta’siri;

– o‘qituvchilarning, ota-onalarning va mahalla faollarining faolligi va uning ta’siri.

Natijalarni tahlil qilish uchun quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

– Taqqoslash usuli: Sinovdan oldin va keyin o‘quvchilarning bilim darajasini, ijtimoiy faolligini baholash.

– Feedback (teskari aloqa): O‘quvchilardan va ularning ota-onalaridan olingan fikrlar asosida tahlil qilish.

Tajriba sinovining samaradorligini baholash: Tajriba sinovining samaradorligini baholash uchun olingan natijalarga qarab, hamkorlikning o‘quvchilarga ta’siri quyidagicha baholanadi:

– Samarali hamkorlik: O‘quvchilarning ijtimoiy va akademik rivojlanishidagi sezilarli o‘zgarishlar.

– Yuzaga kelgan muammolar: Maktab, mahalla va oila o‘rtasida amalga oshirilgan hamkorlikda uchragan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar.

Quyidagi jadvalda tajriba sinov ishlari jarayonini tashkil qilishning metodikasini tushuntiruvchi asosiy qadamlar va bosqichlari:

Tajriba sinov ishlarini tashkil qilishning asosiy yondashuvlari

1. Hamkorlikni tashkil etish: Maktab, mahalla va oila o‘rtasida ta’lim va tarbiya jarayonlarida yagona yondashuvni yaratish uchun o‘quvchilarni jamiyatdagi masalalarga jalb etish. O‘quvchilarning o‘zgarishlarini kuzatish va ularga pedagogik yordam ko‘rsatish.
2. Amaliy tadbirlar: Sinov jarayonida amaliy tadbirlarni tashkil etish, bunda o‘quvchilar o‘zlarining bilimlarini sinovdan o‘tkazadilar.
3. Monitoring va tahlil: Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning o‘zgarishini doimiy ravishda kuzatib borish va tahlil qilish, tajriba sinovining samaradorligini aniqlash.

Tajriba sinov ishlarini tashkil qilish, maktab, mahalla va oila o‘rtasidagi hamkorlikning samaradorligini aniq o‘lchashga imkon beradi. Bu jarayon, o‘quvchilarning ijtimoiy va akademik rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni yaxshilash va pedagogik metodlarni aniqlashda yordam beradi. Tajriba sinovlarini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun metodik yondashuvlarni izchil amalga oshirish zarur.

3-jadval. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning kerakli xususiyatlari bo‘yicha taqsimoti

Guruh	Mahalla	Maktab	Sinf	O‘quvchilar va oila soni
Tajriba guruhi	Madatkor MFY	2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	9-sinf	33ta
Nazorat guruhi	Yangilanish MFY	22-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	9-sinf	32ta

4-jadval. O‘quvchilarning «Maktab-oila-mahalla» hamkorligi bo‘yicha ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik ko‘rsatkichlari

O‘quv yili	Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	O‘zlashtirish darajasi	Tajriba guruhlarida		Nazorat guruhlarida	
			Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
2023-2024 o‘quv yili		Minimal samaradorlik	7	2	8	7
		Qoniqarli samaradorlik	6	4	9	7
		O‘rta darajadagi samaradorlik	11	13	7	10
		A’lo darajadagi samaradorlik	9	14	8	8

Tajriba guruhi 33 nafar respondentlarni tashkil etadi. Maktab, mahalla va oila hamkorligi bo‘yicha ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik ko‘rsatkichlari 4 ta darajaga bo‘lindi. Ushbu to‘rtta daraja o‘quvchilarning akademik yutuqlari, ijtimoiy faolligi va axloqiy rivojlanishi, faollik, ijtimoiy muammolarni hal qilish, ota-onalar va o‘qituvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki, o‘quvchilarning o‘zgarishlari va rivojlanishlari, hamkorlikning ularning o‘quv faoliyatiga ta’siri, mahalladagi faoliyatlar va maktab o‘rtasidagi aloqaning rivojlanishi kabi hususiyatlardan kelib chiqqan holda shakllantirildi.

Tajriba guruhida tajriba boshida 33 nafar o‘quvchilar soni hamda ularga ergashuvchi oilalar sonidan 7 nafari minimal samaradorlik, 6 nafari qoniqarli samaradorlik, 11 nafari o‘rta darajadagi samaradorlik, 9 nafari a’lo darajadagi samaradorlik ko‘rsatkichlarini qayd etdi. Ushbu ko‘rsatkichni foizlarda ifodalaydigan bo‘lsak, minimal saradorlik 21 %ni, qoniqarli samaradorlik 19 %ni, o‘rta darajadagi samaradorlik 33 %ni, a’lo darajadagi samaradorlik 27 %ni tashkil etdi. Nazorat guruhida tajriba boshida ushbu ko‘rsatkichlar quyidagicha qayd etildi.

Nazorat guruhi 32 ta respondentdan iborat bo‘lib, ularning 8 nafari minimal samaradorlik, 9 nafari qoniqarli samaradorlik, 7 nafari o‘rta darajadagi samaradorlik, 8 nafari a’lo darajadagi samaradorlik ko‘rsatkichlarini qayd etdi. Ushbu ko‘rsatkichni foizlarda ifodalaydigan bo‘lsak, minimal saradorlik 25 %ni, qoniqarli samaradorlik 28 %ni,

o‘rta darajadagi samaradorlik 22 %ni, a’lo darajadagi samaradorlik 25 %ni qayd etildi. Natijalar qayd etilgandan so‘ng, oila, maktab va mahalla hamkorligini rivojlantirish uchun tajriba guruhida tizimli jarayon amalga oshirildi.

XULOSA

Tajriba sinovi natijasida maktab, mahalla va oila hamkorligining o‘quvchilarning ta’lim samaradorligiga ta’sirini o‘rganildi. Bu jarayonda tajriba guruhi va nazorat guruhining o‘zgarishlari solishtirildi. Tajriba guruhida yangi ta’lim metodlari, oila va mahalla bilan hamkorlikda faol o‘qish usullari qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy dars tizimi davom ettirildi. Darslarda o‘quvchilarning faoliyatini mustahkamlashga qaratilgan metodlar asosida ilmiy ishlar tashkil etildi. O‘quvchilarning mustaqil ishlari va o‘qish jarayonidagi faolligi aniq baholandi.

Mahalla, oila va maktab hamkorligi – jamiyat taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. Ushbu uch asosiy institut o‘zaro uyg‘unlikda ishlaganida, har bir bola barkamol inson bo‘lib voyaga yetadi.

1. Ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, mahalla va maktabning hamkorlikdagi tashabbuslari, ijtimoiy loyihalar va huquqiy ko‘mak bolalar tarbiyasida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Agar bu hamkorlik izchil va tizimli yo‘lga qo‘yilsa, natijada yosh avlod axloqiy, intellektual va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxsga aylanishi, jamiyat esa yanada barqaror va farovon bo‘lishi shubhasiz.

2. Mahalla, oila va maktab hamkorligi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu uchlikning o‘zaro hamjihatlikda ishlashi natijasida yosh avlodning tarbiyasi mustahkam poydevorga ega bo‘ladi. Samarali hamkorlik orqali ota-onalar, pedagoglar va mahalla faollari bolalarga to‘g‘ri yo‘nalish bera oladi. Natijada, jamiyatda bilimli, tarbiyali va ijtimoiy mas’uliyatni his qiluvchi shaxslar shakllanadi.

3. Samarali hamkorlikni ta’minlash uchun ota-onalar, pedagoglar va mahalla faollari o‘zaro doimiy muloqotda bo‘lishi lozim. Ota-onalar farzandlarining ta’lim jarayonida faollik ko‘rsatishi, pedagoglar esa oilalar bilan yaqindan hamkorlik qilish orqali bolalarning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari mumkin. Shu bilan birga, mahalla faollari yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda maktab va oilaga yordam ko‘rsatishi muhim. Bunday tizimli yondashuv natijasida har bir bola o‘ziga xos shaxs sifatida shakllanadi.

4. Mahalla, oila va maktab hamkorligi jamiyatda sog‘lom va bilimli avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘zaro hamkorlik bolalarda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiradi, ularga ma’naviy va intellektual jihatdan yetuk shaxs bo‘lish imkonini beradi. Shuningdek, bu hamkorlik ijtimoiy muammolarni kamaytirishga, bolalarning huquqiy va psixologik qo‘llab-quvvatlanishiga ham yordam beradi. Ota-onalar va pedagoglar orasidagi yaqin aloqa o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, ularning qiziqishlari va iste’dodlarini rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, mahalla, oila va maktabning uzviy hamkorligi nafaqat bolalarning tarbiyasiga, balki jamiyatning umumiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Ushbu uch institut o‘zaro birlashgan holda harakat qilsa, yosh avlod axloqiy, ma’naviy va intellektual jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Shu bois, bu hamkorlikni yanada mustahkamlash, uni tizimli asosda rivojlantirish va zamonaviy usullar bilan boyitish kelajak avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A. Ta’lim jarayonida maktab va oila hamkorligi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2016. – 120-122 b.

2. Olimov Sh. Mahalla va ta’lim integratsiyasining pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2017. – 135 -139 b.

3. Rustamov N. Oila va jamiyat: tarbiyaviy muhitni yaratish. – Samarqand: Zarafshon, 2018. – 150-155 b.

4. Jalolov U. O‘quvchilarning ijtimoiylashuvida mahallaning o‘rni. – Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti, – 145-148 b.

5. Yo‘ldoshev M. Pedagogika va mahalla: yangi yondashuvlar. – Toshkent: Noshir, 2020. – 110-113 b.

6. Haqqulov S. Oila tarbiyasida maktabning pedagogik yordami. – Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2015. – 130-133 b.

7. Bekmurodov K. Mahalla ta’limida innovatsiyalar. – Toshkent: Innovatsiya press, 2016. – 140-142 b.

8. Saidov B. O‘zbekiston ta’lim tizimida oila va mahalla hamkorligi. – Nukus: Qoraqalpoq Davlat Universiteti nashriyoti, 2018. – 125-128 b.

9. Matyoqubov D. Oila va maktab munosabatlarining dolzarb masalalari. – Farg‘ona: FarDU nashriyoti, 2019. – 132-134 b.

10. Qosimov A. Mahalla va maktab hamkorligi: pedagogik qarashlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 155-158 b.

11. Бабанский Ю.К. Педагогическое сотрудничество семьи и школы: системный подход. – М.: Российская академия образования, 2003. Стр – 12-120.

12. Поташник М.М. Практические стратегии усиления сотрудничества школы и семьи в нравственном воспитании. – М.: Издательство Образование и педагогика, 2018. Стр – 23-150.

13. Загвязинский В.И. Теоретические модели сотрудничества школы и семьи: практические аспекты управления. – М.: Издательство Педагогические науки, 2015. Стр – 34-205.

14. Караковский В.А. Культурные аспекты партнерства школы и семьи в нравственном и социальном воспитании. – М.: Академия педагогических наук, 2017. Стр – 45–180.

14. Победоносцев Г.А. Эволюция сотрудничества школы и семьи в воспитании детей. – М.: Издательство Гуманитарное образование, 2019. Стр – 8-115.

Ergasheva G. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. – 2013. – 16 b.

17. Беляева Е. В. Дошкольное образование и вовлечение семьи. – М.: Издательство Дошкольное образование, 2019. Стр – 20-145.

18. Бурякова Н.А. Участие родителей в гражданском образовании и управлении школой: модель лидерства учащихся. – М.: Издательство Социальное образование, 2020. Стр – 10-135.

19. Лопатина Л.В. Психологическая поддержка в сотрудничестве школы и семьи. – СПб.: Издательство Психологическая наука, 2022. Стр – 12-140.

20. Толстой А.Н. Здоровьеориентированное образование и роль семьи и сообщества в благополучии учащихся. – М.: Издательство Здоровое образование, 2023. Стр – 18–200.

21. Григорьев С. В. Цифровая трансформация в общении школы и семьи. – М.: Издательство Образовательные технологии, 2021. Стр – 30-160.

22. Pavlina H., Loizos S. The Role of School-Community Cooperation in Cyprus // Urban vs. Rural Education Systems European Journal of Educational Research. – 2023. –№14(3). – B. 102-115.

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/0009-0003-3169-0681

O‘QUVCHILARDA KITOB O‘QISHGA QIZIQISHNI IVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu maqola kitob o‘qishga qiziqishni rivojlantirishning psixologik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, bolalarni kitob o‘qishga qiziqtirishda ota-onalarning ta’siri va kitob o‘qish uchun o‘quvchilarda bo‘sh vaqtlarining to‘g‘ri tashkil qilinganligi, kitob o‘qishga qiziqishni jinsiy tafovutlarga ko‘ra aniqlanganligi, qanday kitoblarni, ya’ni qog‘oz yoki elektron shakldagi kitoblarni mutolaa qilishlari, kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik, o‘qish psixologiyasi, ota-ona ta’siri, o‘zlashtirish, motivatsiya, kitoblar fondi, o‘smirlar.

KIRISH

Jahonda iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yuqori suratlarda taraqqiy qilishi jamiyat a'zolarining ijtimoiy tafakkuridagi ijobiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq. Jamiyatda yashayotgan har bir fuqaroning tafakkuri sog'lom bo'lar ekan, bunday davlatda istiqomat qilayotgan kishilarning ma'naviy qadriyatlarga, san'atga adabiyotga va boshqa sohalarga qarashlari ham ijobiy tomonga yo'naladi. Hozirgi kunda dunyoda eng ko'p kitob o'qiydigan davlat bu Hindiston. Ular haftasiga o'rtacha 10,7 soatini kitob o'qishga bag'ishlaydi. Ikkinchi o'rinda 9,4 soat bilan Tailand turibdi. Uchinchi o'rinda Xitoyliklar haftasiga 8 soat kitob o'qiydi[1]. Biroq dunyoning turli mamlakatlarida kichik maktab yoshidagi bolalarda va o'smirlarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Kitob o'qishga bo'lgan talabning pastligining asosiy sababi o'quvchilar ommaviy axborot manbayi sifatida ijtimoiy tarmoqlar va internetga ustunlik berishdir.

O'zbekistonda o'tkazilgan so'rovlarda qatnashgan respondentlarning 50% dan ortig'i yiliga 3-5 ta kitob o'qishini bildirgan. Ushbu so'rovnomalar zamonaviy kitob formatlari orasida bosma kitoblar hali ham sevib o'qilayotganini ko'rsatdi. Ishtirokchilarning 77 foizi onlayn kitobxonlikni emas qog'oz kitoblar o'qishni afzal bilgan[2].

I. Tixomirova kitob o'qishni o'quvchi rivojlanishining markaziy bo'g'in deb hisoblaydi. «Qiziqish bo'lsa, o'qish ham bo'ladi. Qiziqish bo'lmasa, o'qish bo'lmaydi», deb ta'kidlaydi[3]. O'quvchilarni qanday qilib kitob o'qishga qiziqtirish mumkin? O'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirishi yoshlik davrlaridan boshlab kitob o'qishga nisbatan ko'nikmalarni shakllantirish zarur.

O'quvchilarda o'qishga qiziqishni rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqotlar va nazariyalar ta'lim jarayonini yaxshilashda, shuningdek, o'quvchilarning ilmiy muvaffaqiyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar va nazariyalar orqali o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. O'qish motivatsiyasi, o'quvchi markazli ta'lim yondashuvi, kognitiv va ijtimoiy nazariyalar kabi omillar o'quvchilarda o'qishga qiziqishning rivojlanishida asosiy o'rinni egallaydi. Vigotskiy ta'lim jarayonini o'quvchilarning ijtimoiy faoliyati bilan bog'lagan[4]. Unga ko'ra, o'quvchilarning bilish jarayonlari nafaqat shaxsiy ichki faoliyatlari, balki atrof-muhit va ijtimoiy aloqalar orqali rivojlanadi. Vegotskiyning fikricha, o'qish faqatgina bilishni o'zlashtirish emas, balki o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali rivojlanadi.

O'quvchilar o'zlarining bilimlarini boshqalar bilan muloqotda bo'lish orqali yanada chuqurroq o'zlashtiradilar. O'quvchilarda o'qishga qiziqishni rivojlantirishda John Deveyning o'quvchi markazli ta'lim tamoyillari katta ahamiyatga ega. Devey, ta'limni o'quvchilarning amaliy tajribasi va qiziqishlariga asoslash kerakligini ta'kidlagan. Uning fikricha, o'quvchilarga o'zlari uchun qiziqarli va hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan mavzularni o'rgatish, ularning bilimga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Devey o'qituvchining roli faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarga o'zlarini o'rganish va o'zgarishga intilish imkoniyatini yaratishdan iborat deb hisoblagan.

O'quvchilarda o'qishga qiziqishni rivojlantirishda ijtimoiy ta'sir va o'zaro munosabatlar ham katta rol o'ynaydi. Oilada ota-ona aniq maqsad qo'yib, o'z ustida ishlash, izlanish, tanlagan vosita va usullarni qo'llash natijasini ko'ra bilishi, tarbiyachilik san'atiga ega bo'lishi lozim[5].

Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi o'quvchilarning o'qishga qiziqishini o'zaro ta'sir va ijtimoiy tajriba orqali tushuntiradi. Bandura o'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini ijtimoiy ta'sirlar va ularning o'qituvchilar, ota-onalar, hamkasblari bilan bo'lgan o'zaro aloqalari bilan bog'lagan. O'quvchilar o'qishdan qanday zavq olishlarini, qanday yondashuvlarni tanlashlarini o'zlariga yaqin bo'lgan shaxslarning tajribalaridan o'rganadilar. Agar o'qituvchi yoki ota-onalar o'qishga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lsa, o'quvchilarda ham o'qishga qiziqish ortadi.

V.A. Suxomlinskiyning fikricha, «Kitob o'qish aqlli fikrlovchi tarbiyachi uchun bolaning yuragiga yo'l topishga yordam beradigan so'qmoq yo'liga o'xshaydi»[6]. So'qmoq yo'lidan yurish esa har doim ham oson kechmaydi shu sababli bu jarayonni asta-sekin, biroq, izchil tashkil etish maqsadga muvofiqdir. V.A. Suxomlinskiy kitob o'qitishning ahamiyati haqida so'z yuritar ekan, quyidagilarni yozadi: «Kitob bolalarning ma'naviy hayotida katta rol o'ynaydi, faqat qachonki, bola yaxshi o'qiy olsa». Yaxshi o'qish deganda nima tushuniladi? Bu, eng avvalo, oddiy ko'nikma o'qish texnikasini o'zlashtira olishdir. Farzandi kattalashgani sayin uning yoshiga mos bo'lgan kitoblarni o'qishini ta'minlashi va nazorat qilishi shart. Ya'ni farzandi o'qigan kitoblari bo'yicha savol-javob qilib, uning fikrlarini tinglashi kerak[7].

Nasem Akhtar, Muhammad Ather Khan, Fazal-ur-Rahmanning[8] Masofaviy ta'lim oluvchi o'quvchilarning o'qishga qiziqishlariga ta'sir qiluvchi omillar ilmiy maqolasida o'quvchilarning kitob o'qishga qiziqishi ota-onalarining qiziqishlari bilan sezilarli darajada bog'liqligi va o'qituvchilar o'quvchilarni kitob o'qishga undashlari kerakligi to'g'risida fikr yuritishgan. Tadqiqotchining fikricha, o'quvchilarda kitob o'qish odatlarini rivojlantirish bilan birgalikda ularda aqliy, fikrlash, analiz-sentiz qilish qobiliyatlari ham rivojlanadi. O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga o'zlari qiziqqan janrdagi kitoblarni o'qishlarini tavsiya qilib borishlari kerak.

Viola Tamasova, Zuzana Sulganova tadqiqotlarida oilaviy muhitda o'qish jarayonlarining qadriyatini, ota-onalarning bolalarning o'qish savodxonligini rivojalntirishga ta'siri to'g'risida so'z yurutgan[9]. Muallifning ta'kidlashicha oilada kitobxonlikni rivojlantirishda ota-onalar muhim o'ringa ega hisoblanadi.

Aysegul Go'kselning «O'qishga ta'sir qiluvchi psixologik omillar» ilmiy maqolasida[10] olib borgan tadqiqotining asosiy maqsadi o'qish psixologiyasi mavzusining munosabati, qiziqishi, motivatsiyasi, tashvishi,

[1] https://yoshlarovozi.uz/oz/news/

[2] https://yuz.uz/uz/news/

[3] https//uz.wikipedia.org/wiki/ I.I.Tixomirova

[4] L.S.Vigotskiy. Psixologiya razvitiya cheloveka.-M:Izd-vo Smisl Eksmo, 2005.-136

[5] Oila pedagogikasi. O'quv qo'llanma Andijon-2019 6-bet

[6] Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. - Минск: народная асвета, 2001,-287 с.

[7] **Educational research in universal sciences volume 2, special issue 17, d ecember, 2**023 X.A.Madatov, S.B.Sattarova «Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning asosiy omillari »

[8] Naseem Akhtar* Muhammad Ather Khan** Fazal-ur-Rahman Pakistan Journal of Distance & Online Learning Volume: V, Issue I, 2019, 123-136 Factors Affecting Reading Interests of Distance Learners.

[9] Acta Technologica Dubnicae volume 6, 2016, issue 2 DOI: 10.1515/atd-2016-0009 9 Promotion of Family Reading in the Context of Children's Early Reading Literacy Development Viola Tamášová – Zuzana Šulganová*

[10] Korkut ata türkiyat araştirmalari dergisi Uluslararası TürkDiliveEdebiyatıAraştırmaları Dergisi The Journal of International Turkish Language & Literature Research Okumayı Etkileyen Psikolojik Faktörler Ayşegül Göksel*

o‘z-o‘zini samaradorligini o‘rganishdan iborat. Kitob o‘qish va psixologiya o‘rtasidagi munosabatlar kontekstida o‘qishga ta’sir qiluvchi affektiv xususiyatalar, ya’ni munosabat, o‘z-o‘zini samaradorlik, tashvish, qiziqish va motivatsiya tushunchalarini tushunish orqali o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lagan munosabatalri o‘rganiladi. Muallifning takidlashi bo‘yicha kitob o‘qishdan zavqlanadigan o‘quvchi tez-tez kitob o‘qib turishi yoki kitob o‘qish paytida turli xil strategiyalardan foydalansa o‘quvchini kitob o‘qishga majburlashning hojati yo‘q bo‘ladi.

A.S. Denisovaning tadqiqotida bolalarda kitob o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantiruvchi asosiy muhit sifatida oila va unda tashkil etilayaotgan tarbiya masalalari o‘rganiladi[11]. Muallifning e’tirof etishicha, qachonki oilada ota-onalar kitoblarga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lsa, o‘qilgan kitoblar oila davrasida muhokama qilinsa, yangi chop etilgan kitoblar asarlar haqida ma’lumotlar o‘rtoqlashilsa bolalarda ham kitob o‘qishga bo‘lgan qiqiziqishlar yuzaga keladi. Muallifning fikricha, yoshlikdan shakllantirilgan kitobga nisbatan ijobiy munosabat bolaning butun hayoti davomida o‘z izini qoldiradi. Shu sababli uyda kichkina bo‘lsa ham kutubxona tashkil qilish bolalarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada rivojlantirishga imkoniyat yarata oladi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarni aniqlash borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar tadqiq etildi. V.F. Asmus «O‘qish – mehnat va ijod sifatida» nomli maqolasida adabiy asarni idrok etishni murakkab jarayon ekanligini ochib beradi va kitobxon uni muallif alohida bir olamga olib kirayotganligini tushunishi zarurligini bevosita idrok etishining birlamchi ekanligini qayd etib o‘tadi. Kitobxon ongi o‘qish vaqtida faoldir. U bir paytning o‘zida hayotiy obrazlarni ko‘z o‘ngida gavdalantira oladi va tasvirlanayotgan voqeliklar hayotning o‘zginasi emas, balki badiiy ifoda ekanligini ham tushunib yetadi[12].

Kitobxon ongining faolligi – tafakkur, xotira, xayol, estetik va axloqiy tuyg‘ular hamda ko‘plab psixik jarayonlar kuchini o‘zida birlashtiruvchi maxsus faoliyatdir. Tadqiqotchi haqqoniy o‘qish bu – «mehnat va ijod» ekanligini qayd etib o‘tadi.

S. Gurevichning fikricha, o‘quvchilarda mustaqil kitob o‘qishni rivojlantirish ularni kelajakda barkamol shaxs bo‘lib tarbiyalanishida samarali natija ko‘rsatadi. O‘quvchilarning dunyoqarashini boyitadi, shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantiradi, individual ehtiyojlarini qondiradi, o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni hosil qiladi va ongli ravishda kasb tanlashlariga yordam beradi. Mustaqil kitob o‘qishni tashkil etishdan avval o‘qituvchi o‘quvchilar qachon va qayerda o‘qishi, qaysi kitoblar ularning hamrohiga aylanganligini, qaysilariga tasodifan duch kelganlariga, qaysilari esa ular uchun zerikarli ekanligini bilishi, har bir darsda u yangi kitoblar haqida ma’lumotlar berishi, va qachon nashr etilganligini aniq ko‘rsatib berishi kerak[13].

Murat Gunesh, Bengu Annikizil, Mehmet Sherif, Hasan Murat Baran, Fatma Erkalning «O‘rta maktab o‘quvchilarining o‘qish odatlarini o‘rganish» bo‘yicha tadqiqot olib borishgan va metod ishlab chiqqan. Ushbu tadqiqotda o‘rta maktab o‘quvchilarining o‘qish odatlarini o‘rganish va tadqiqot natijalari orqali muhim jihatlarini maktab ma’murlari, o‘qituvchilar, ota-onalar uchun ma’lumotlarni taqdim etish orqali o‘quvchilarning kitob o‘qish odatlarini qo‘llab-quvvatlovchi strategiyalarni aniqlashga yordam beradi va o‘quvchilarning o‘qish madaniyatini rivojlantirish, ta’lim-tarbiyasini ijobiylashishiga katta yordam beradi.

Tadqiqotchining fikricha, o‘quvchilarga o‘zlari qiziqqan janrdagi kitoblarni tavsiya qilish muhim hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, o‘quvchilarda kitobga bo‘lgan mehr, badiiy asar o‘qishga bo‘lgan qiziqishni tarkib toptirishda kompleks yondashish maqsadga muvofiq.

Ch.X. Mirxoliqova «O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari» mavzusidagi ilmiy ishida 5-7-sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini o‘qishni qo‘llab-quvvatlashga doir chelenj, loyihalar, psixologik ehtiyojga moyillik omillarining o‘zaro ta’siri va muvofiqligini milliy qadriyatlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirgan[14].

P. Babaxanova «O‘smirlarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishi shakllantirish» metodida quyidagi aniq vazifalar belgilanadi:

1. Shahar va qishloq maktablarining farqi 6-8 sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarining mazmuni va tuzilishini o‘rganish.

2. Shahar va qishloq maktablaridagi o‘smir o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarning rivojlanishi va shakllanishining qiyosiy tahlilini o‘tkazish.

3. O‘smirlarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillarning ahamiyatini aniqlash hamda shahar va qishloq maktablarida o‘smirlarning o‘qishga bo‘lagan qiziqishini boshqarishni takomillashtirish hamda yosh kitobxonni tarbiyalash bo‘yicha psixologik-pedagogik tavsiyalar berish[15].

Bu ishda o‘smir yoshdagi shahar va tuman maktab o‘quvchilaridagi o‘g‘il bolalar va qiz bolalarning o‘qishlarida sezilarli darajada farq borligini aytilgan. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot metodida shuni ko‘rishimiz mumkinki, o‘smir o‘g‘il bolalarda va qizlar tomonidan qo‘yilgan kitobxonlik maqsadlari asosan bir xil, ammo og‘il va qiz bolalar rivojlanishining ayrim psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq farqlar mavjud.

Aynan shu omillar asosida M.B.Saidmuradovaning mualliflik huquqi asosida tayyorlangan «Bo‘sh vaqtning to‘g‘ri tashkil etilganligi»[16] nomli so‘rovnomasi, U.A.Barodinaning «o‘qishga qiziqish formulasi» metodikasi[17] va N.Murodovaning «Kitob o‘qishda ota-onaning ta’siri» nomli mualliflik so‘rovnomalari ilmiy ishning mavzusini o‘rganishda asosiy metodikalar sifatida foydalanildi.

Tadqiqotni olib borishdan oldin o‘quvchilarga tadqiqot to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etildi. Shundan so‘ng tanlab olingan 3 ta metodikaning yo‘riqnomalari bilan tanishtirildi. Berilgan vaqt oralig‘ida har bir o‘quvchi so‘rovnoma varaqasini yo‘riqnoma asosida to‘ldirib berdi. Tadiqiqot davomida o‘quvchilarda yuzaga kelgan barcha savollarga oydinlik kiritildi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘dirmaslik uchun barcha kerakli ko‘rsatmalar va yordamlar berildi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarni rag‘batlantirish maqsadida, ularning faol ishtirokini ta’minlash uchun bir qancha qo‘shimcha usullar qo‘llanildi. Tadqiqotning

---

[11] Денисова С.А. Родители о детском чтении и роли библиотек // Ж. Родительское собрание по детскому чтению. – 2008. – С. 30-32

[12] Асмус В.Ф. Чтение как труд и творчество // Вопросы теории и истории эстетики. – М., 1999. – С.62-72

[13] Гуревич С.А. Организация чтения учащихся старших классов. – Москва: Просвещение, 1994. – 206 с.

[14] Ch.X. Mirxoliqova «O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mehanizmlari». Pedagogik ta‘limotlar tarixi (pedagogika fanlari), Dessertatsiya. Phd

[15] Бабаханова М.П.Формирования читательских особенности понимания учебного материала в школьном возрасте. Автореф.дисс. к пс н.-М 1997.-21с.

[16] M.B. Saidmuratova «Bolalarda kitob o’qishga qizishini rivojlantirishning psixologik xusussiyatlari» Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa Doktori Dessertatsiyasi. PhD. Toshkent-2023.

[17] V.A. Borodina V.A.Borodin Motivatsiya v strukture chteniya// Chteniya detey I podrostkov: motiv I potreb.

har bir bosqichida o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘nalishda boshqarish va yo‘-riqnomalarga amal qilish uchun o‘qituvchilar va psixologlarning ko‘magi muhim ahamiyat kasb etdi.


Shuningdek, tadqiqot natijalari tahlil qilinayotganda o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va ularning o‘qishdagi muvaffaqiyatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar inobatga olindi. Olingan natijalar asosida o‘quvchilarning psixologik va ta’lim jihatdan qanday qo‘llab-quvvatlanishi kerakligi haqida tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot yakunida o‘quvchilar, o‘qituvchilar va maktab psixologi o‘rtasida samarali hamkorlik aloqalari rivojlandi, bu esa tadqiqotning muvaffaqiyatli o‘tkazilishiga zamin yaratdi.

NATIJALAR

O‘quvchilarda kitob o‘qishga qiziqishni rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqotlar va nazariyalar ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. O‘quvchilarga o‘zlarining qiziqishlari va ehtiyojlariga mos o‘qish tajribalarini taqdim etish, ularning ilmiy muvaffaqiyatlarini oshirish va kelajakda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.


Kitob o‘qishga qiziqish va o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tishiga oid bir qancha omillar mavjud. Ota-onaning ijobiy ta’siri, kitobga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarda kitob o‘qishga qiziqish va doimiy kitob o‘qish odatini shakllantirishda ota-onaning roli katta. Bu yerda, bo‘sh vaqtni kitob o‘qish bilan o‘tkazishning ahamiyati, ota-onaning ta’siri va kitobga qiziqish haqida nazariy ma’lumotlarni ko‘rib chiqiladi.

Bo‘sh vaqtni kitob o‘qish bilan o‘tkazish, faqat vaqtni bekor ketkazish emas, balki insonning intellektual rivojlanishiga, ijodiy fikrlashiga va shaxsiy o‘sishiga yordam beradigan faoliyatdir. Kitob o‘qish orqali o‘quvchilar yangi bilimlar egallaydi, tasavvurlarini kengaytiradi va yangi dunyoqarashlarga ega bo‘ladi. Kitob o‘qish nafaqat fikrni rivojlantirish, balki tilni boyitish, lug‘atni kengaytirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘stirishga ham yordam beradi.




1-rasm. M.B. Saidmuradovaning «Bo‘sh vaqtning to‘g‘ri tashkil etilganligi» nomli so‘rovnomasi natijalari

Olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, sinaluvchilar o‘smir yoshdagi o‘quvchilar bo‘lganligi sababli muloqot yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Shu sababli 26 % o‘quvchilar do‘stim bilan gaplashaman deb javob berishgan. 18 % o‘quvchilar esa telefonda ijtimoiy tarmoqlarda o‘tiraman, turli o‘yinlar o‘ynashni ma’lum qilishgan. 18 % bolalar uy ishlariga qarashishlarni ma’lum qilishgan. Televizor ko‘raman 12 % o‘quvchilar javob berishgan (1-rasm).




2-rasm. Bo‘sh vaqtning to‘g‘ri tashkil etilganligi natijalari

O‘quvchilarning kitoblarni qayerdan olib o‘qishi haqidagi fikrlari. Bu savolga o‘quvchilar ko‘proq 52 % maktab kutubxonasidan degan javobni berishgan, 34 % o‘quvchilarning esa ota-onalari sotib olib berishadi, 14% o‘quvchilar internetdan degan javoblarni berishgan. O‘g‘zaki savol-javoblardan olingan xulosalarda afsuski o‘quvchilar tuman va mahalla kutubxonasi borligi to‘g‘risida ma’lumotga ega emasliglarini ma’lum qilishgan. Demak, biz maktab kutubxonalaridagi kitoblarni ko‘paytirishimiz, ularga mahalla va tuman kutubxonalari ham mavjud ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etishimiz lozim.



3-rasm. Bo‘sh vaqtning to‘g‘ri tashkil etilganligi natijalari

O‘quvchilarning kitob o‘qish intensevligi haqidagi fikrlari (%) umumlashtirilganda 14 % bolalar bir yilda 2 ta, 12% bolalar har yilda ikkita, 36 % bolalar esa har oyda bitta kitob o‘qishar ekan. 26% bolalar bir yilda 6 ta kitob o‘qishini, 12 % bolalar esa bir yilda 4 ta kitob o‘qishlarini ma’lum qilishgan.



4-rasm. Bo‘sh vaqtning to‘g‘ri tashkil etilganligi natijalari

Bugungi kunda deyarli barcha kitoblarning elektron shakli mavjud bo‘lib, ular internet tarmog‘ida faol ulashilmoqda. Elektron kitoblar

apparat qurilmalarida bir shaklda ma'lum auditoriya uchun ishlab chiqilar ekan. An'anaviy kitob esa o'z navbatida hech qanday auditoriya tanlamaydi[18]. So'rovnomada 26 % o'quvchilar elektron variantdagi kitoblarni, 74 % o'quvchilar qog'oz variantdagi kitoblarni o'qishni afzal bilishgan.

O'quvchilarni kitob o'qishga qiziqishini rivojlantirishda ular bilan boriladigan psixologik ishlar yo'nalishini aniqlashtirishda, to'plangan metodika natijalardan o'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirishda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi to'g'risida maktab kutubxonachisi, sinf rahbarlari va ota-onalari foydalanishlari mumkin.

Kitobga bo'lgan qiziqish o'quvchining yoshiga, ta'lim darajasiga, o'qish muhitiga va boshqa bir qancha omillarga bog'liq ravishda rivojlanadi. Kitob o'qishga bo'lgan qiziqish nafaqat o'qituvchilar va ota-onalarning ta'siriga, balki o'quvchining o'ziga xos shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq.

Kitob o'qishning ijobiy ta'siri ko'p bo'lib, u o'quvchilarni nafaqat bilim bilan, balki shaxsiy rivojlanish va tafakkur qobiliyatlarini oshirishga ham yordam beradi. Ota-onalar va o'qituvchilar kitob o'qishga qiziqishni oshirishda o'quvchilarga o'zlariga mos va qiziqarli kitoblar tanlashda, o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va foydali qilishda muhim rol o'ynaydilar. Kitob o'qish bo'yicha mustahkam odatlarni shakllantirish va bu odatni bolalarga rag'batlantirish, ularning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval. S.A.Barodinaning «O'qishga qiziqish formulasi» metodikasi natijalari


O'quvchilar	Boshlovchi	O'rtacha	Kitobsevar	Xaqiqiy kitobxon
O'g'il bolalar	15,4	35,6	28,3	20,7
Qiz bolalar	10,5	38,3	29,1	22,1

O'quvchilarda kitob o'qishga qiziqish o'quv jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishida katta ahamiyatga ega. Kitob o'qish, o'quvchilarni yangi dunyoqarashlar bilan tanishtiradi, bilimlarini kengaytiradi va ularning tafakkurini rivojlantiradi. O'quvchilarda kitobga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ularning akademik muvaffaqiyatlarini oshiradi, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishlariga ham yordam beradi. O'qish orqali o'quvchilar nafaqat yangi ma'lumotlarga ega bo'lishadi, balki ularning til, nutq va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari ham rivojlanadi. Kitobxon o'quvchi oilada o'rgangan hayotni kitobdagi hayotiy voqealar bilan boyitib, hayot haqidagi tushunchalari, insoniy fazilatlar, yaxshilik, qadriyatlarni, avlodlari hayoti bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat, do'stga sadoqat, hurmat, mehnatsevarlik, sabr toqatlilik fazilatlari yuksalib boradi[19].

Kitob o'qishga qiziqishni rivojlantirishda ota-onalar va o'qituvchilarning roli juda muhimdir. Agar ota-onalar o'zlari kitob o'qisa va bolalari bilan kitoblar haqida suhbatlashsa, bu ularning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qituvchilar esa o'quvchilarga turli janrlar va mavzular bo'yicha qiziqarli va mos kitoblarni tavsiya qilishlari kerak. O'quvchilarga kitob o'qishning foydali va qiziqarli ekanligini tushuntirish, ularni motivatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi.


Bundan tashqari, o'quvchilarga o'qigan kitoblarini boshqa o'quvchilar bilan muhokama qilish imkoniyatlarini yaratish, ular o'rtasida kitoblar haqida fikr almashish va o'qishning ijtimoiy jihatidan zavq olishlariga yordam beradi. O'qish jarayonini qiziqarli qilish uchun turli usullarni qo'llash, masalan, kitoblar bilan bog'liq viktorinalar yoki tanlovlar tashkil etish, bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Kitob o'qish bo'yicha ijobiy odatlarni shakllantirish va bolalarni o'qishga rag'batlantirish orqali, ularda o'qishga bo'lgan qiziqish va muhabbatni shakllantirish mumkin. Shuningdek, bo'sh vaqtlarini kitob o'qish bilan mazmunli o'tkazish, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi va ular o'zlariga yangi g'oyalar, qiziqarli bilimlar oladilar. Bo'sh vaqtlarida kitob o'qishga rag'batlantirilgan bolalar, shuningdek, o'zlariga ko'proq maqsadlar qo'yib, o'z rivojlanishlarini davom ettiradilar. Kitoblar orqali ular hayotdagi turli xil holatlar va muammolarga qanday yondashishni o'rganadilar, bu esa ularda mustahkam axloqiy qadriyatlar va to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.



5-rasm. O'qishga qiziqish formulasi (o'g'il bolalar bo'yicha)

O'g'il bola o'quvchilardan olingan natijalarga qaraganda kitob o'qish darajasi qiz bola o'quvchilarga nisbatan pastroq bo'lgan. Bu holat psixologik jihatdan olib qaralganda o'smir yoshdagi o'g'il bolalar ko'proq harakat va qiziqarli faoliyatlarga, masalan sportga va ijtimoiy tarmoq o'yinlariga, texnalogik faoliyatlarga qaratilganligini ko'rsatadi. O'smirlik davrida o'g'il bolalar o'zlarini jismoniy faoliyat orqali ifoda etishga moyil bo'ladilar. O'g'il bolalar ko'proq haqiqiy dunyo muammolariga qiziqishadi va kitobni faqat ma'lumot olish uchun o'qishga moyil bo'lishi mumkin.




6-rasm. O'qishga qiziqish formulasi (qizlar bo'yicha)

Olingan natijalarda qiz bola o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqishning o'rtacha va yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda o'smir yoshdagi qizlar odatda o'zlarining dunyoqarashlari va shaxsiy qiziqishlarini shakllantirish jarayonida ko'proq kitoblar o'qish orqali ma'lumotlar olishga qiziqishadi. Qizlar odatda, o'z

[18] https://uznel.natlib.uz:444/ Vaetova. E An'anaviy va elektron kitoblar orasidagi kamchiliklar.

[19] Journal of innovations in social sciences www.sciencebox.uzVolume: 03 Issue: 07 | July -2023 ISSN: 2181-2594 Journal of Innovations in Social Sciences Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish davr talabi Sh.Sh.Soliyeva.

shaxsiyatini rivojlantirishda kitoblardan foydalanishga qiziqadilar, bu esa ularning o‘qish motivatsiyasini oshiradi. O‘smirlik davrida shaxsning intellektual rivojlanishi va ijtimoiy qiziqishlarini kengaytirishga yordam beradigan muhim bosqichdir. Qiz bola o‘quvchilarning kitob o‘qishga qiziqishi yuqori bo‘lishi ularning ijtimoiy va madaniy rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi.



7-rasm. O‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqishini rivojlantirishda ota-onaning ta’siri

So‘rovnoma natijalari bo‘yicha tahlil qilinganda 50% yuqori, 27%, o‘rta, 22% past ko‘rsatkichlarni ko‘rishimiz mumkin. 50% yuqori bu ota-onalar farzandlarining kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini yuqori darajada rag‘batlantirishi, ular bilan birgalikda kitoblar haqida suhbatlar olib borishadi. Farzandlari bilan birgalikda kitoblar mutolaa qilishadi va fikr almashishadi. Bundan tashqari ota-onalar kitob o‘qishga qiziqishini namoyon qilish orqali ham ularga namuna bo‘ladilar, kitob o‘qishni kundalik hayotning ajralmas qismiga aylantirganlar.

27 % bu ko‘rsatkich ota-onalarning farzandlarini kitob o‘qishga qiziqtirishi o‘rta darajada ekanligini ko‘rsatadi. Ular farzandlarini kitob o‘qish jarayonlarida rag‘batlantirishadi, lekin birgalikda kitob o‘qish, muhokama qilish jarayonlarida faol ishtirok etishmaydi. Bunday ba’zi cheklovlarga asosan o‘zlarining kitob o‘qish odatlarini farzandlariga ham yetkazib bera olmaydilar.


22 % past darajadagi ko‘rsatkich. Bu ko‘rsatkich ota-onalarning kitob o‘qishga qiziqishini past darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ota-onalar kitob o‘qishni muhim deb hisoblamaydilar yoki o‘zlari kitob o‘qishmaydi.

Olingan natijalar tahlilidan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilish mumkinki, o‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqishini rivojlantirishda ota-onaning ahamiyati kattaligini ko‘rsatadi. Ota-onalar o‘zlarining kitob o‘qishga bo‘lgan munosabatlari va qiziqishlarini farzandlarining ham qiziqishlarini oshib borishiga katta rol o‘ynaydi.

2-jadval. S.A.Barodinaning «O‘qishga qiziqish formulasi» metodikasi treningdan oldingi natijalar

O‘quvchilar	Boshlovchi	O‘rtacha	Kitobsevar	Haqiqiy kitobxon
O‘g‘il bolalar	15,4	35,6	28,3	20,7
Qiz bolalar	10,5	38,3	29,1	22,1

O‘quvchilarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish maqsadida trening dasturi ishlab chiqildi. Treningning maqsadi o‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirish, kitob o‘qishning foydalari va ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, o‘quvchilarning kitob o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishdan iborat. Treningda o‘quvchilarga kitob o‘qishning aqliy rivojlanish, tasavvur va ijodiy fikrlashdagi ahamiyati haqida ma’lumot beriladi. Ular kitob o‘qishning faqat bilim olish emas, balki umumiy dunyoqarashni kengaytirish va shaxsiy rivojlanishga xizmat qilishi haqida tushunchalar olishadi.



8-rasm. Kitob o‘qishga qiziqish darajasi testi treningdan keyingi natijalari

Trening davomida o‘quvchilar kitoblarni qiziqarli va samarali o‘qish usullarini o‘rganadilar, bu esa ularning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan yondashuvlarini o‘zgartiradi va kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Shuningdek, treninglar orqali o‘quvchilarni o‘zlarining o‘quv odatlarini shakllantirish va kitob o‘qishdan zavq olishga rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. So‘rovnomada jami 70 nafar o‘quvchidan 9 nafar o‘quvchida ya’ni 4 nafar qiz bolalar va 5 nafar o‘g‘il bolalarda kitob o‘qishga nisbatan qiziqish yo‘qligi aniqlandi. Kitob o‘qishga qiziqishi mavjud bo‘lmagan o‘quvchilar bilan birgalikda psixologik trening «Men yaxshi kitobxon bo‘la olaman» mashg‘ulotlari olib borildi.

XULOSALAR

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan quyidagilarni xulosa qilamiz.

1. Maktab o‘quvchilari orasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarining katta qismi kitob o‘qishga ajratiladi. Shu bilan birga, ularning vaqtining bir qismi do‘stlari bilan turli muloqotlar va ijtimoiy faoliyatlarga sarflanadi.

2. O‘quvchilar kitob o‘qishni o‘zlariga yoqadigan, qiziqarli va foydali faoliyat sifatida qabul qiladilar. Qizlarning o‘qishga bo‘lgan moyilligi va kitobni o‘rganish jarayonida muhim vosita sifatida ko‘rishlariga asoslanadi. Yigitlar bilan solishtirganda, qizlar o‘quv jarayonida kitob o‘qishga yanada qiziqarli va foydali faoliyat sifatida qarashadi, bu esa ularning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. Tadqiqotlar shuningdek, qizlarning kitob o‘qishga qiziqishining ularning shaxsiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ham ta’kidlaydi.

3.Tadqiqotlar natijasida, o‘quvchilarning katta qismida ota-onalari bilan birgalikda kitob o‘qish mashg‘ulotlari tashkil etilganligi aniqlandi. Bu holat, o‘quvchilarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirishda ota-onalarning muhim rol o‘ynayotganligini ko‘rsatadi. Ota-onalar o‘z farzandlari bilan birga kitob o‘qish orqali ularga o‘qishning qadrini tushuntirib, bu faoliyatni qiziqarli va foydali tarzda taqdim etadilar. Natijada, ota-onalar o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishda asosiy motivatsiya manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ota-onalarning faol ishtiroki o‘quvchilarda kitob o‘qish odatini shakllantirishda va ularni o‘qishga rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

4. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan dasturga ko‘ra, o‘quvchilarga kitoblarni yanada qiziqarli va foydali tarzda o‘rganish imkoniyatlarini yaratdi. Trening jarayonida o‘quvchilar kitob o‘qishning ahamiyatini chuqurroq tushunib, o‘qishdan zavq olishni o‘rgandilar. Maxsus dastur ularga o‘quv faoliyatlarida kitobga bo‘lgan munosabatlarini yanada ijobiy tarzda shakllantirishga yordam berdi. Treninglar orqali o‘quvchilar o‘zlarining o‘quv odatlarini yaxshilash, kitoblarni samarali o‘rganish va

ular bilan turli mavzularda muhokamalar olib borish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa o‘quvchilarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirdi va ularning akademik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amonashivili Sh.A. Pedagogik jarayoning shaxsiy va insonparvarlik asoslari. –M., 1990. – 38 b.

2. Асмус В.Ф. Чтение как труд и творчество // Вопросы теории и истории эстетики. – М., 1999. – С.62-72

3. Borodina V.A. Borodin Motivatsiya v strukture chteniya// Chteniya detey I podrostkov.

4. D.A. Muminova Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi. Monografiya. – Namangan, 2019.

5. Денисова С.А. Родители о детском чтении и роли библиотек // Ж. Родительское собрание по детскому чтению. – 2008. – С. 30-32

6. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. - Минск: народная асвета, 2001,-287 с.

7. Гуревич С.А. Организация чтения учащихся старших классов. – Москва: Просвещение, 1994. – 206 с.

8. Тафаккур гулшани. Тўпловчи Воронцов В. Ватандош ҳамда хорижий алломаларнинг афоризмлари ва ҳикматли сўзлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1999. – 242 б.

9. L.S. Vigotskiy. Psixologiya razvitiya cheloveka. – M.: Izd-vo Smisl Eksmo, 2005. – 136.

10. M.B. Saidmuratova «Bolalarda kitob o‘qishga qizishini rivojlantirishning psixologik xusussiyatlari». Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa Doktori Dessertatsiyasi. PhD. – Toshkent, 2023.

11. Ch.X. Mirxoliqova «O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mehanizmlari». Pedagogik ta’limotlar tarixi (pedagogika fanlari), Dessertatsiya. Phd.

12. Бабаханова М.П. Формирования читательских особенности понимания учебного материала в школьном возрасте. Автореф. дисс. к пс н. – М 1997. – 21с.

13. Acta Technologica Dubnicae volume 6, 2016, issue 2 DOI: 10.1515/atd-2016-0009 9 Promotion of Family Reading in the Context of Children’s Early Reading Literacy Development Viola Tamášová – Zuzana Šulganová.

14. Educational research in universal sciences Volume 2, Special issue 17, december, 2023.

15. X.A. Madatov, S.B. Sattarova «Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning asosiy omillari »

16. Naseem Akhtar Muhammad Ather Khan Fazal-ur-Rahman Pakistan Journal of Distance & Online Learning Volume: V, Issue I, 2019, 123-136 Factors Affecting Reading Interests of Distance Learners

17. Acta Technologica Dubnicae volume 6, 2016, issue 2 DOI: 10.1515/atd-2016-0009 9 Promotion of Family Reading in the Context of Children’s Early Reading Literacy Development Viola Tamášová – Zuzana Šulganová.

18. Korkut ata türkiyat araştirmalari dergisi Uluslararası türk dili ve edebiyatı araştırmaları Dergisi The Journal of International Turkish Language & Literature Research Okumayı Etkileyen Psikolojik Faktörler Ayşegül Göksel.

19. X. Erkinova, N.A. Skarova. Yurtimizda kitobxonlikni rivojlantirish uchun olib borilayotgan islohotlar. International scientific and practical conference «actual issues of primary education: problems, solutions and development prospects» april 26, 2024 31.

20. Journal of innovations in social sciences www.sciencebox.uz-volume: 03 Issue: 07 | July -2023 ISSN: 2181-2594 Journal of

21. X.Qosimova, (2022). Oilada sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishda kitobxonlik madaniyatining ahamiyati. *Science and innovation*, *1*(B8), 142-148.

22. International Journal of social and humanities sciences research (JSHSR) Received/Makale Geliş 28.05.2023. 10.5281/zenodo.8196753 Published /Yayınlanma 30.07.2023 *Araştırma* Volume/Issue (Cilt/Sayı)-ss/pp*Makales* 10(97), 1483-1495 ISSN: 2459-1149 Murat güneş bengü mehmet ismail yavuzkurt hasan murat baran fatma erkal şerif avci annikizil.

23. https://yoshlarovozi.uz/oz/news/

24. https://yuz.uz/uz/news/

25. https://uznel.natlib.uz:444/

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/0009-0006-5925-8876

TALABALIK DAVRIDA O‘Z-O‘ZIGA BAHO BERISHNING O‘QUV FAOLIYATGA TA’SIRI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ilmiy maqola talabalarda o‘z-o‘ziga baho berishning o‘quv faoliyatiga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bunda o‘z-o‘ziga baho berishning talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash, o‘z-o‘zini anglash, o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatlarini aniqlashda qanday ahamiyatga ega ekanligi chuqur tahlil qilinadi. O‘z-o‘ziga baho berishning o‘quvchilarni motivatsiya qilish, ularning mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvini rivojlantirishdagi roli ham maqolada alohida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: O‘z-o‘ziga baho, o‘ziga ishonch, umidsizlik, oila, qobiliyat, o‘z-o‘ziga yuqori baho, o‘z-o‘ziga past baho, o‘z-o‘zini qadrlash.

KIRISH

Jahondagi mamlakatlarda ta'limga e'tibor ortib bormoqda. Zero, ta'lim va tarbiya har qanday rivojlanishning dastlabki bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim sifati bir nechta omillarga bog'liqligi psixologiya va pedagogika fanlarida o'rganilmoqda. Shaxsdagi o'z-o'ziga bo'lgan yuqori bahosi, ta'lim sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi. Statistika ma'lumotlariga qaraganda, yuqori daromadli mamlakatlarda oliy ta'limga qamrov darajasi odatda 70-80 foizni tashkil qiladi, kam daromadli mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 10-20 foiz atrofida.

Bu Markaziy Osiyo jamoatchilik fikrini o'rganish markazi va Dove brendi tomonidan TASS saytida taqdim etilgan o'smirlarning o'zini-o'zi baholash indeksidan kelib chiqadi. Indeks bo'yicha so'rovlar 2020-yil oktyabr oyida 14-17 yoshli 500 nafar qiz (ota-onaning ruxsati bilan), shuningdek, 10-17 yoshli o'smir qizlarning 800 nafar ota-onasi o'rtasida o'tkazildi. Taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, qizlarning 63 foizi tashqi ko'rinishidan mamnun, 33 foizi esa bunga rozi emas. Shu bilan birga, so'rovda qatnashgan ota-onalarning 80 foizi tashqi ko'rinishi bolalarga mos keladi, 18 foizi esa aksincha deb hisoblashadi[1].

O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy o'quv muassasalari soni qariyb 2,5 barobar ko'payib, 186 taga yetdi. Ularning 31 tasi dunyodagi yetakchi universitet va institutlarning filiallaridir. Oliygohlarga qabul kvotasi 3,5 barobarga ortganini, oliy ta'lim qamrovi esa 9 foizdan 38 foizgacha oshganini qayd etish lozim[2].

Talabalarda o'z-o'ziga baho berishning dolzarbligi hozirgi zamon ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarni faqatgina bilim olish bilan cheklanmasdan, mustaqil fikrlovchi, o'zini anglaydigan va tanqidiy yondasha oladigan shaxslar sifatida shakllantirishga qaratilgan. O'z-o'ziga baho berish, talabalarda o'z bilim darajasi va o'zlashtirish jarayonini mustaqil ravishda baholash imkoniyatini yaratadi, bu esa ularning ta'lim faoliyatini samaraliroq va maqsadli qilishga yordam beradi.

Hayot davomida bir kishi muntazam ravishda atrofidagi odamlardan o'zining shaxsiyatini baholaydi. Shaxsning o'zini-o'zi baholashi shaxs kamolotining muhim ko'rsatkichidir. Odamning o'ziga-o'zi qanday munosabatda bo'lishi unga atrofdagilarning qanday munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. O'zini-o'zi baholash shaxsning hal qiluvchi xususiyati, uning o'zagidir. O'zini-o'zi baholash jamoadagi faoliyati, mavqeini, uning boshqa a'zolariga o'zining munosabatini baholashni o'z ichiga oladi.

Shaxsning faolligi, uning jamoa faoliyatida ishtiroki uning o'zini-o'zi tarbiyalashga intilishi, o'zini-o'zi baholash darajasiga bog'liqdir. O'zi haqida keraksiz hech nimaga yaramaydigan subyekt deb o'ylaydigan odam taqdirini yaxshilash uchun istar-istamas kuch-g'ayrat sarflaydi. Aksincha, o'zlarini yuqori baholaydigan odamlar ko'pincha juda qattiq ishlashga moyildirlar. Ular yaxshi ishlamaslikni o'zlariga munosib emas deb hisoblaydilar. Munozara tashqi ko'rinishga, so'zlarga va xatti-harakatlarga bog'liq.

O'zini o'zi baholash shakllanib borgan sayin, ular atrofdagilarning fikridan va hatto faoliyatning aniq natijalaridan tobora mustaqil bo'la boradi. Barqaror o'zini o'zi baholash shakllanishi bilan u o'zini-o'zi mustahkamlash tamoyiliga ega bo'ladi. Bu o'zini o'zi yuqori baholashga ham o'zini o'zi past baholashga ham taalluqlidir. Masalan, ota-ona yoki ulardan birining kamsituvchi munosabati boshqalar ishtirokidagi faoliyat oldida, jumladan imtihon oldidan qat'iy qo'rquvni shakllantirishi mumkin.

G.X. Eshmurodovaning «Shaxsning o'zini o'zi baholashning salbiy ijobiy jihatlari[3]» ushbu maqolada shaxsning o'ziga-o'zi qanday munosabatda bo'lishi unga atrofdagilarning qanday munosabatda bo'lishiga ham bog'liqdir. O'zini-o'zi baholash shaxsning hal qiluvchi xususiyati, uning o'zagidir. O'zini-o'zi baholash jamoadagi faoliyati, mavqeini, uning boshqa a'zolariga o'zining munosabatini baholashni o'z ichiga oladi.

Sh. Mamajonova va Z. Hoshimovalarning «O'smirning o'z-o'ziga baho berishi addiktiv xulq shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida[4]» ushbu maqolada o'smirning o'zini o'zi baholashi dastavval individ faoliyati natijalari ta'sirida shakllanishi, atrofdagilarning baholashi,o'ziga bo'lgan ishonch boshqalarning unga bildirgan fikri tufayli shakllanishi va mustahkamlanishi bu esa addiktiv xulq shakllanishini oldini olish uchun samarali psixoprofilaktik vosita ekanligi haqida fikr bildirilgan.

Tadqiqotchi R.G'. Daminovaning «Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsining rivojlanishida «MEN» - obrazi va o'z-o'ziga baho[5]» ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsini rivojlantirishda bolaning «Men» - obrazi va o'z-o'ziga baho berishi xususidagi fikrlar keltirilgan.

Sh.Z. Taylanova va L.Sh. Abdusaidovalarning «Talabalarda o'z--o'zini rivojlantirish psixologik muammo sifatida[6]» maqolada talaba-yoshlardagi psixik holatlarni idora qilish va shakllantirish uchun tashkiliy maqsadli psixologik-pedagogik faoliyatga ehtiyoj, turli vaziyatlarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyati shaxsiy yetuklikning muhim ko'rsatkichi bo'lib, u asosan hayot jarayonidagi muvaffaqiyatni belgilashi yoritilgan.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Bunda ikkita metodika tanlab olindi. Ya'ni Toshkent viloyati, Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 1-kurs talabalarining 120 nafari orasida yangicha usullar qo'llanildi.

Dembo-Rubinshteynning «O'z-o'zini baholash» metodikasi[7]. Ushbu metodika talabalarining bir qator shaxsiy sifatlarini, ya'ni sog'liq, xarakter, aql va hokazo kabi xususiyatlarini bevosita baholash (shkalalarda ifodalash)ga asoslangan. Tekshiriluvchilarga ushbu sifatlar ularda qay darajada rivojlanganligini (o'z-o'zini baholash ko'rsatkichi) va ushbu sifatlarni qanchalik rivojlangan bo'lishini istashlari, ularni qoniqtirishi (da'vogarlik darajasi)ni vertikal chiziqlarda ma'lum bir belgilar bilan ko'rsatishlari so'raladi. Har bir sinaluvchiga metodika bo'yicha ko'rsatma va vazifa yozilgan blanka beriladi.

---

[1] ВЦИОМ представил Индекс подростковой самооценки// https://tass.ru/obschestvo/10891031

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/5696

[3] Eshmurodova G.X. Shaxsning o'zini o'zi baholashning salbiy ijobiy jihatlari//Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar: masofiy onlayn Konf. – Toshkent. 2023. – 31-34 b.

[4] Mamajonova Sh., Hoshimova Z. O'smirning o'z-o'ziga baho berishi addiktiv xulq shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida. – Farg'ona. Res. Konf. 24.02.2024. – 201 b.

[5] Daminova R.G'. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsining rivojlanishida «MEN» - obrazi va o'z-o'ziga baho// Journal of New Century Innovations. *13*(1). – Navoi. 2022. – 51–55 b. Retrieved from https://newjournal.org/new/article/view/227 , 15.09. 2022. – 192 b.

[6] Taylanova Sh.Z., Abdusaidova L.Sh. Talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish psixologik muammo sifatida// zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya. 2(7). – Toshkent. 2023. 5-10 b.


[7] Branden N. The Psychology of Self-Esteem. – Amerika: Bantam Books, 1969. – 123 b.

«OTMda ta'lim olish motivatsiyasi « metodikasi[8]. T.I.Iliyna tomonidan taklif etilgan bo'lib, metodikani yaratishda u bir qator mashhur metodikalardan foydalangan. Bu metodikada 3 shkala mavjud: «bilim olish» (bilim olishga bo'lgan intilish, qiziquvchanlik); «kasb egallash» (kasbiy bilimlarni olish istagi va kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish); «diplom olish» (bilimlarni yuzaki o'zlashtirish bilan diplom olish istagi, imtihon va testlarni topshirishda vaqtinchalik yechimlarni topish istagi). Bu metodika yordamida talabalarni uchta shkala bo'yicha qiziqishlarini miqdoriy tahlili o'tkaziladi. Hozirgi kunda talabalarni ko'pchiligi ota-ona ma'qul ko'rgani uchun yoki diplom kerak bo'lgani uchun oliy o'quv yurtlariga ta'lim olish uchun o'qishga kirishadi. Bu metodika yordamida respondentlarni 3 ta shkala bo'yicha qiziqishlarini aniqlashimiz mumkin. Shuningdek, shaxsiy psixologik xususiyatlarni baholash uchun amaldagi eng keng tarqalgan usullardan biri- bu anketa usulidir. Anketa nisbatan mustaqil uchta shaxsiy omilni aniqlashga qaratilgan. Bu metodikani 120 nafar talabada o'tkazildi, metodika savollari 50 tadan iborat. Respondentlar savollarni o'qib , keltirilgan fikr ularga ma'qul kelsa «to'g'ri» agar aksincha bo'lsa «noto'g'ri» degan fikrlarni belgilab berishadi. Belgilangan savollarni ballar bilan hisoblab umumiy ball chiqariladi.

NATIJALAR

Dembo-Rubinshteynning «O'z-o'zini baholash» metodikasi shaxsning o'zini qanday baholashini, ya'ni uning o'ziga bo'lgan munosabatini, o'zini qabul qilishini va o'ziga nisbatan hissiyotlarini aniqlashga mo'ljallangan. Ushbu metodika shaxsning o'zini qanday qabul qilishini, o'zini hurmat qilish darajasini, o'ziga ishonchni va o'zini baholashga oid boshqa jihatlarni o'rganadi. Bu metodika ko'pincha psixologik yordam va individual rivojlanish jarayonlarida qo'llaniladi. Metodika turli savollarni o'z ichiga oladi, bu savollar orqali shaxs o'zini qanday his qilishi, o'z salohiyatini qanday baholashi, o'zida mavjud bo'lgan ijobiy va salbiy xususiyatlarni qanday ko'rishi haqida ma'lumotlar yig'iladi. Bu, shuningdek, psixologik yordam ko'rsatuvchi mutaxassislar uchun muhim vosita bo'lib, shaxsning ichki holatini tushunishga yordam beradi.

Dembo-Rubinshteynning «O'z-o'zini baholash» metodikasi bo'yicha umumiy olingan natijalar (n=120). Ikkita metodikadan foydalanildi va ular olingan so'rovnomalar tahlili quyidagi rasmda ifodalangan. Dembo-Rubinshteynning «O'z-o'zini baholash» metodikasi insonning o'ziga bo'lgan munosabatini va o'zini qay darajada qadrlashini aniqlaydi. U o'z-o'zini baholash darajasi, barqarorligi va talablar darajasini o'lchashga yordam beradi. Respondent turli sifatlar bo'yicha o'zini va ideal o'zini baholaydi, bu esa uning psixologik holati haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.



1-rasm. Dembo-Rubinshteynning «O'z-o'zini baholash» metodikasi bo'yicha olingan natijalar (n=120)


[8] Abulkhanova K.A. Psixologiya va ta'lim. – Slavskaya: 1980. – 35 b.

Dembo-Rubinshteynning «O'z-o'zini baholash» metodikasi bo'yicha olingan umumiy natijalarga ko'ra, o'z-o'ziga baho berish shkalasida talabalarning faqatgina 10 % gina qismi o'zini juda yuqori baholanganini qayd etildi. Shuningdek, da'vogarlik shkalasida ham talabalar xuddi shunday natijani qayd etdi.

Talabalar universitet hayotini endigina boshlagani, mustaqil qarorlar qabul qilish bosqichida ekanligi, yangi tengdoshlar bilan o'zini taqqoslashi va butunlay yangi bo'lgan bilimlar bilan tanishuvi ulardagi o'ziga bo'lgan bahoning birmuncha tushishiga olib kelgan. Bu holatni boshqalarga sezdirmaslik uchun o'zlariga juda yuqori baho berib yuborishadi aslida ularni o'ziga bo'lgan ishonchi pastligida dalolat beradi. Bu talabalar boshqalarga o'zlarini qo'lidan hamma ish keladigandek ko'rsatishadi. Talabalarning o'z imkoniyatlariga noreal, notanqidiy yondashishni bildiradi.

Aksincha o'z-o'ziga baho berish shkalasida talabalarni 30 %i o'ziga past baho bergani aniqlandi. Talabalar o'zlariga past baho berishlarining turli psixologik, ijtimoiy va tashqi omillari bor. Ularning o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, muvaffaqiyatsizliklar, ijtimoiy ta'sirlar va realistik bo'lmagan kutishlar ularning o'z-o'ziga baho berishiga ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zini past baholash shaxsning ichki motivatsiyasini pasaytirishi va ta'lim jarayonida samaradorlikni kamaytirishi mumkin.

Shuning uchun talabalar uchun ijobiy muhit yaratish, qo'llab-quvvatlash va o'z-o'zini qadrlashni rivojlantirish kabi omillar o'ziga bo'lgan bahoni tushiga sabab bo'ladi. Shuningdek, da'vogarlik shkalasida ham 20 % talaba da'vogarlik darajasi past natijani ko'rsatdi. Talabalarda da'vogarlik darajasining past bo'lishi ko'plab psixologik va tashqi omillarga bog'liqdir. O'z-o'ziga ishonchsizlik, ijtimoiy bosim, muvaffaqiyatsizliklar va shaxsiy xususiyatlar (introversiya, qo'rquv) talabalarni o'z fikrlarini ifodalashdan chetlatishi mumkin. Bu holat, o'z navbatida, talabalar o'qish jarayonida passiv bo'lishlariga va o'z ehtiyojlarini bildirishda qiyinchiliklarga olib keladi. O'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashi va motivatsiya yaratish usullari talabalarni da'vogarlik darajasini oshirishga yordam beradi. O'z-o'ziga baho berish shkalasida talabalarni 60 %i o'zlariga o'rta baho berishi natijada ko'rindi. Shu bilan birga, da'vogarlik shkalasi bo'yicha talabalarning 40 %i o'rtacha natijani ko'rsatdi. Bu natijalar normalligini va realligini bildiradi.



2-rasm. Dembo-Rubinshteynning «O'z-o'zini baholash» metodikasi jins tafovvutlarga ko'ra (o'g'il bolarada) tahlil natijalarini (n=120)

Dembo-Rubinshteynning «O'z-o'zini baholash» metodikasi natijalarini jins tafovutlarga ko'ra tahlil qilganimizda o'g'il bolalarning aksariyat qismi 60 %ida da'vogarlik shkalasida o'rta darajada ekanligi ko'rindi. O'rtacha da'vogarlik darajasi talabalar uchun sog'lom va muvozanatli yondashuvni anglatadi. Bu talabalar o'z fikrlarini va ehtiyojlarini o'rtacha darajada ifodalashadi, ba'zan passiv, ba'zan esa faol bo'lishadi. Bu holat psixologik va ijtimoiy omillarning kombinatsiyasi natijasida yuzaga keladi.


O‘rtacha da’vogarlik talabalarni o‘z ehtiyojlarini ifodalashda o‘rtacha ishonch bilan va boshqalar bilan yaxshi munosabatlarda bo‘lishda muvozanatni saqlashga yordam beradi. O‘ziga baho berish shkalasida talabalarning 50 %i o‘zlariga o‘rta baho berishgani natijalarda aniqlandi.

O‘rtacha o‘z-o‘ziga baho berish talabalar o‘zini aniq va realistik baholagan, yutuqlari va kamchiliklarini tushungan shaxslar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu talabalar o‘zlariga nisbatan ishonchli bo‘lishadi, ammo ularda o‘zlarini haddan tashqari yuqori yoki past baholash yo‘q.

O‘rtacha o‘z-o‘ziga baho berish, shaxsning o‘ziga nisbatan muvozanatli va sog‘lom yondashuvini ko‘rsatadi. O‘ziga baho berish shkalasida 30 % o‘g‘il bolalarda o‘ziga bo‘lgan bahosi pastligi aniqlandi. O‘g‘il bolalarning o‘z-o‘ziga past baho berishining sabablari ko‘plab psixologik, ijtimoiy va madaniy omillarga bog‘liq.

Jamiyatdagi erkaklarga qo‘yilgan yuqori talablar, emotsional ifodalanishdagi cheklovlar, oilaviy kutishlar, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv va o‘ziga ishonchsizlik kabi faktorlar o‘z-o‘ziga past baho berishga olib keladi. O‘g‘il bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va ularga ko‘proq qo‘llab-quvvatlash berish, bu holatni kamaytirishga yordam beradi. Da’vogarlik shkalasida 20 % o‘g‘il bolalarda da’vogarlik darajasi past natijani ko‘rsatdi.

O‘g‘il bolalarning da’vogarlik darajasining pastligi jamiyatdagi erkaklarga qo‘yilgan stereotiplar, ota-ona kutishlari, o‘z-o‘ziga ishonchning pastligi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv, ijtimoiy taqqoslash, stress va boshqalarga moslashish kabi omillar o‘g‘il bolalarda o‘z ehtiyojlarini ifodalashda va da’vogarlikda pasayishga olib keladi. Bu holatni yaxshilash uchun o‘g‘il bolalarga ko‘proq qo‘llab-quvvatlash, ishonch va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kerak bo‘ladi.




3-rasm. Dembo-Rubinshteynning «O‘z-o‘zini baholash» metodikasi jins tafovvutlarga ko‘ra (qiz bolarada) tahlil natijalarini (n=120)

Dembo-Rubinshteynning «O‘z-o‘zini baholash» metodikasi natijalarini jins tafovutlarga ko‘ra tahlil qilganimizda qiz bolalarning aksariyat qismi 10 %ida o‘ziga baho berish shkalasida juda yuqori baho berilgani natijada ko‘rindi. Shuningdek, da’vogarlik shkalasida ham talabalar xuddi shunday natijani qayd etdi.

Talaba qizlarda da’vogarlik darajasining juda yuqori bo‘lishi va o‘z imkoniyatlariga nereal baho berish, ko‘pincha yuqori motivatsiya, o‘zini isbotlash istagi, ijtimoiy taqqoslash, o‘z-o‘zini qadrlash, jamiyatdagi kutishlar va ba’zi psixologik omillar bilan bog‘liq. O‘z imkoniyatlarini yuqori baholash ba’zan ijobiy va ilhomlantiruvchi bo‘lishi mumkin, lekin bu holat ham reallikdan uzoqlashishga va muvaffaqiyatsizlikka duch kelishga olib kelishi mumkin. Bu holatni yengish uchun, qizlarga o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va realistik maqsadlar qo‘yish muhimdir.

Qiz bolalarda o‘ziga baho berish shkalasida 30 % talaba past bahoni qayd etdi. Shu bilan birga da’vogarlik shkalasi bo‘yicha esa 25 % talaba past baho bergani aniqlandi. Talaba qizlarning o‘ziga past baho berishining sabablaridan biri bu o‘ziga ishonchsizlik, ijtimoiy stereotiplar, salbiy tajribalar, mukammallikka bo‘lgan intilish, o‘zidan qoniqmaslik yoki oilada muntazam ravishda kamsitishlar natijasida o‘ziga bo‘lgan bahoni topishiga olib kelishi mumkin. Da’vogarlik darajasini pastligiga sabab, ularing o‘z fikrini bildirishda yoki faollik ko‘rsatishda qiyinchiliklarga duch kelishi, Shuningdek, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pastligi va o‘zini ifoda etishdagi ehtiyojlar ham bu holatga ta’sir qiladi.




4-rasm. T.Iliyna tomonidan taklif etilgan «OTMda ta’lim olish motivatsiyasi« metodikasi bo‘yicha umumiy olingan natijalar (n=120)

T.I. Iliyna tomonidan taklif etilgan «OTMda ta’lim olish motivatsiyasi« metodikasi bo‘yicha olingan umumiy natijalarga ko‘ra, talabalar bilim olish shkalasida 50 % qismi bilim olishga qiziqishi yuqoriligi natijada ko‘rindi. Talabalarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishga kelajakdagi muvaffaqiyat, shaxsiy intilishlar, ijtimoiy talablar, aqliy rivojlanish va o‘qituvchilarning motivatsiyasi kabi omillar alohida o‘rin tutadi.

Har bir talaba o‘z maqsadlari va ehtiyojlariga qarab bilim olishga intiladi, bu esa ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Metodikaning kasb egallash shkalasida talabalarning 18 % qismi kasb egallashga qiziqishlari aniqlandi. Bu ko‘rsatkich pastligiga sabab ko‘p talabalar oliy o‘quv yurtlariga ota-onalar tanlovi asosida kirishgan va natijada o‘z ta’lim olayotgan yo‘nalishlariga bo‘lgan qiziqish pastligi natijada aniqlandi.

Shuningdek, kasb egallashga qiziqish, ko‘pincha bilim olishdan ko‘ra amaliy va tashqi motivatsiyalarga asoslanadi. Talabalar kasb egallashni moliyaviy barqarorlik, ijtimoiy hurmat, shaxsiy maqsadlarga erishish va o‘zini professional ravishda ifodalash vositasi sifatida ko‘rishadi. Bunday qiziqish ijtimoiy bosim, oila kutgan talablar va kasbiy muvaffaqiyatga erishish istagi bilan bog‘liq.

Keyingi diplom olish shkalasi bo‘yicha talabalarning 35 % qismi ayni vaqtda oliy ta’limga kirishdan maqsad faqatgina diplom olish ekanligi so‘rovnoma davomida aniqlandi. Diplom olishga qiziqish bilim olishga qiziqishdan ko‘ra ko‘proq tashqi omillar bilan bog‘liq. Talabalar diplomni ijtimoiy prestij, kasbiy imkoniyatlar, moliyaviy barqarorlik, oila va jamiyat kutgan talablarini qondirish, rasmiy huquqlarni ta’minlash va xavfsizlik hissi uchun olishga intilishadi. Bunday holatda, ba’zan ilm olishdan ko‘ra diplomning rasmiy ahamiyati va jamiyatdagi mavqei ko‘proq ahamiyat kasb etadi.



5-rasm. T.I. Iliyna tomonidan taklif etilgan «OTMda ta’lim olish motivatsiyasi« metodikasining hudud bo‘yicha olingan natijalar (n=120)

I.T. Iliyna tomonidan taklif etilgan «**OTM**da ta’lim olish motivatsiyasi« metodikasi bo‘yicha olingan hududiy natijalarga ko‘ra, Toshkent shahrida yashovchi talabalarda bilim olish shkalasi bo‘yicha 15 % qismini tashkil qildi. Toshkent shahrida istiqomat qiladigan talabalarning ayrimlari ta’lim olishga qiziqishmaydi. Ular yoshligidan pul ishlab topishga, biznes qilishga qiziqadilar. Shaharda yashovchi talabalar ko‘pincha o‘zlarini moddiy tarafdan ta’minlashga ko‘proq e’tibor berishadi, chunki shaharda yashash qiyin bo‘lishi mumkin. Bu esa, ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kamaytirishi yoki o‘rgatish jarayoniga diqqatini bo‘lishi mumkin.

Yoshlar ko‘pincha oilaviy majburiyatlar, o‘z kelajagini ta’minlash yoki yaxshi ish o‘rinlari yaratish kabi masalalarga ko‘proq e’tibor qaratishadi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar va onlayn ish imkoniyatlari ularga tez pul topishning osonroq yo‘llarini taqdim etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’limni ikkinchi darajali vazifa sifatida ko‘rishlariga olib kelishi mumkin.

Aynan shu hududda yashovchilar metodikaning diplom olish shkalsining 60 %i natijani qayd etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, shaharlik talabalar ko‘pincha diplom olishga ko‘proq qiziqishadi, chunki ular yangi ish joylariga kirish uchun formal ta’limni tamomlash zarurligini yaxshi bilishadi. Shaharda ish bozorida raqobat juda kuchli, va ko‘plab ish beruvchilar nomzodlardan ma’lum bir darajada ta’lim yoki malakaga ega bo‘lishni talab qilishadi.

Diplom esa, ko‘pincha, professional sohada muvaffaqiyat qozonish uchun muhim bir qadam sifatida qaraladi.Yuqoridagi gistagrammaga e’tibor beradigan bo‘lsa, Samarqand viloyatidan kelib tahsil oladigan talabalarni bilim olish shkalasi 40 % qismi qayd etildi. Samarqandlik talabalar ko‘rsatkichi Toshkent shahrida yashovchi talabalarga nisbatan yuqori natijani ko‘rsatdi. Namangan va Farg‘ona viloyatlik talabalarni bilim olish shkalasi 60 %i va 55 %i qismini tashkil qildi.

Viloyatda yashovchi talabalar shaharliklarga nisbatan bilim olishga ko‘proq qiziqishadi, chunki ular ko‘pincha ta’limni o‘z kelajagini yaratishning eng muhim vositasi sifatida ko‘rishadi. Viloyatdagi talabalar uchun ta’lim, ko‘pincha, o‘z aholisining ijtimoiy va iqtisodiy holatini yaxshilashning asosiy yo‘li bo‘lishi mumkin. Shaharda yashovchi talabalar uchun ish imkoniyatlari ko‘proq bo‘lsa-da, viloyatlarda ish o‘rinlari va rivojlanish imkoniyatlari nisbatan cheklangan bo‘lishi mumkin, shuning uchun ilm olish va yuqori malakaga ega bo‘lish ular uchun yanada muhimroq bo‘ladi.

Shuningdek, talabalarning kasb egallash shkalasi bo‘yicha Qashqadaryo, Namangan, Farg‘ona viloyatlik talabalar 60 %, 75 %, 80 % qismi yuqori natijani ko‘rsatdi. Metodikaning diplom olish shkalasi bo‘yicha 85 % Farg‘onalik talabalar yuqori natijani qayd etdi.

XULOSA

O‘z-o‘zini baholash jarayoni bolalik davri bilan uzviy bog‘liq. Xohlaymizmi, yoqmi, shaxsning o‘zini o‘zi qadrlashning asosiy bosqichlari oila davrasida shakllanadi. Shuning uchun oila va undagi mavjud munosabatlar hali ham o‘zini o‘zi qadrlashda asosiy rol o‘ynaydi. Bundan ko‘rish mumkinki, oila a’zolari, yaqinlari o‘zaro tushunib va qo‘llab-quvvatlagan shaxslar odatda muvaffaqiyatli, adekvat, mustaqil, muvaffaqiyatli va maqsadli bo‘ladi.

O‘z-o‘ziga baho berish talabalarning akademik yutuqlariga va shaxsiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu usulni o‘quv jarayoniga kiritish talabaning o‘qishga bo‘lgan munosabatini. ijobiy tomonga o‘zgartiradi va ularni mustaqil va ongli shaxslar sifatida shakllanishiga hissa qo‘shadi. Shuningdek, o‘zini to‘g‘ri baholay olish va o‘ziga nisbatan ishonchni oshirish har doim dolzarbdir. Bu esa albatta har bir insonning o‘ziga va kuchli irodasiga bog‘liq. Olingan tajriba natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalar berildi:

1. Talabalar o‘z-o‘zini baholashda ba’zan reallikdan chetlanishlari yoki haddan tashqari past baho berishlari kuzatiladi. Bu holatni tuzatish uchun o‘z-o‘ziga baholashning sog‘lom va muvozanatli bo‘lishiga urg‘u berish kerak. Talabalarga o‘z imkoniyatlarini aniq baholashni o‘rgatish, o‘z kamchiliklarini va kuchli tomonlarini tushunishga yordam berish uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash tashkil qilish zarur. Bu orqali talabalar o‘z-o‘zini realist baholashga o‘rganishadi.

2. Talabalar orasida o‘ziga ishonchsizlik va past baholashning sabablari ko‘plab psixologik, ijtimoiy va madaniy omillarga bog‘liq. Ayniqsa, o‘g‘il va qizlar o‘rtasida o‘ziga bo‘lgan baholash farqi mavjud. O‘g‘il bolalar uchun o‘z-o‘ziga ishonchni oshirishga qaratilgan maxsus treninglar va konsultatsiyalar, shuningdek, qizlar uchun o‘zlarini qadrlashni rivojlantiruvchi psixologik dasturlar tashkil etilishi kerak. Talabalarni o‘z-o‘ziga baholashda noxush ta’sir qiluvchi stereotiplar, oilaviy kutishlar, ijtimoiy bosimlarni yengish uchun psixologik maslahatlar muhim.

3. Talabalarda bilim olishga bo‘lgan motivatsiya, ayniqsa, shahar va viloyat talabalarida farq qiladi. Shaharda yashovchi talabalar ko‘proq tashqi omillar (pul ishlash, biznes qilish) sababli ta’limga kamroq e’tibor berishlari mumkin. Bu holatni tuzatish uchun o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari tomonidan ilg‘or motivatsion tizimlar joriy etilishi zarur. Talabalarga ta’limning uzun muddatli foydalari, muvaffaqiyatga erishish yo‘lidagi eng muhim vosita sifatida ilm olish haqida tushuncha berish kerak. Viloyatdagi talabalar uchun esa ta’limning o‘z kelajagini yaratish uchun eng yaxshi vosita ekanligini anglatish maqsadga muvofiqdir.

4. Kasb egallashga bo‘lgan qiziqish pastligini inobatga olgan holda, talabalarni o‘z kasb yo‘nalishlariga qiziqtirish va kasbiy motivatsiyani oshirish zarur. Bu uchun o‘quv yurtlari kasbga yo‘naltirilgan seminarlar, amaliyotlar, ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini ko‘paytirishi kerak. Shuningdek, kasbiy sohada muvaffaqiyatga erishish uchun o‘quv jarayonini amaliy bilimlar bilan mustahkamlash ta’kidlab o‘tildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jabborov N. O‘spirinlik yoshidagi bolalarda o‘z-o‘ziga baho berish// 03.08.2023. Development of pedogogical Technologies in Modern Sciences // – Farg‘ona/ masofiy onlayn Konf. 2023. – 34 b

2. Ismoilova N. Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – Toshkent. 2013 – 192 b.

3. Tillema H. Self-Assessment // in International Encyclopedia of Education (Third Edition). 2010. – 205 b.

https://www.sciencedirect.com/topics/psychology/self-assessment

4. Saribeyli F.R. Theoretical and practical aspects of student self-assessment // Institute of Education of the Republic of Azerbaijan. Baku. – Azerbaijan. Образование и наука. Том 20. -№ 6. 2018. – 165 b.

5. Panadero E., Brown G. T. L., Strijbos J. W. The future of student self-assessment: A review of known unknowns and potential directions // Reflection on the field. – England. 26.12.2016. – 803-830 b.

6. Ross J.A. The Reliability, Validity, and Utility of Self-Assessment // Assessment, Research and Evaluation. 11(1). – England. 2006. – 162 b.

https://doi.org/10.7275/9wph-vv65

7. Dave Cornell., Chris Drew. 15 Self-Assessment Ex5amples For Students // 03.01.2024. – 221 b.

https://helpfulprofessor.com/self-assessment-examples/

8. Eshmurodova G.X. Shaxsning o‘zini o‘zi baholashning salbiy ijobiy jihatlari// Zamonaviy psixologiya. pedagogikada fan. ta’lim va amaliyot integratsiyasi. muammo va yechimlar: konf. – Farg‘ona. 2023. – 42-48 b.

9. Mamajonova Sh., Hoshimova Z. O‘smirning o‘z o‘ziga baho berishi addiktiv xulq shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida// Masofaviy onlayn Konf. – Farg‘ona. 24.02.2024. – 25-30 b.

10. Shoimova Sh. Shaxs psixologiyasi. Lesson press, – Toshkent. 2017.

11. Daminova R.G‘. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bola shaxsining rivojlanishida «MEN» obrazi va o‘z-o‘ziga baho// Journal of New Century Innovations: 13(1). – Navoi. 15.09.2022. 51–55 b. Retrieved from https://newjournal.org/new/article/view/227

12. Taylanova Sh.Z., Abdusaidova.L.Sh. Talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish psixologik muammo sifatida// Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya. 2(7). – Toshkent, 2023. – 5-10 b.

13. ВЦИОМ представил Индекс подростковой самооценки// https://tass.ru/obschestvo/10891031

14. Баландина Т.Н. Категория самооценки и ее соотнесенность с катигорией рефлексивности На материале английского языка: Avtoreferat. Pedagogika fanlari nomzodi. – Sank-Piterburg, 2003. – 192 b.

15. Балаховская Ю.И. Формирование самооценки курсантов в вузе: Avtoreferat. Pedagogika fanlari nomzodi. – Moskva, 1999. – 169 b.

16. Ивченко Е.И. Формирование самооценки как фатора успешности социально-психологической адаптации студентов в образовательном пространстве вузе: Avtoreferat. Psixologiya fanlari nomzodi. – Krasnadar, 2007 – 199 b.

17. Симончик Е.И. Особенности самооценки у подростков-девочек с противоправным поведением и ее коррекция: Avtoreferat. Psixologiya fanlari doktori. – Irkutsk, 2006. –186 b.

18. Ширапова Д.Д. Психологические факторы развития профессиональной самооценки студентов: Avtoreferat. Psixologiya fanlari doktori. – Sank-Peterburg, 2005. – 165 b.

19. Позина М.Б. Когнитивная самооценка и объективные показатели интеллектуальной деятельности: Avtoreferat. Psixologiya fanlari nomzodi –Moskva, 2009. – 214 b.

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/0009-0003-3169-0681

O‘SMIRLIK DAVRIDA PSIXOEMOTSIONAL HOLATLARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu maqolada o‘smirlarning psixoemotsional holatini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, emotsiyalarni tushuntirish kognitiv, fiziologik va xulq-atvor yondashuvlari asosida amalga oshiriladi. Psixoemotsional jarayonlarning shakllanishida biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta’sir muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik, psixoemotsional holat, korreksiyalash, ommaviy madaniyat, fiziologik, psixologik, moslashuv.

KIRISH

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, butun dunyo bo‘yicha har yetti o‘smirdan biri ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolarga duch kelishadi. UNICEFning 2021-yildagi hisobotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 15-24 yoshdagi yoshlarning 26%i so‘nggi vaqtlarda stress va ruhiy bosimlarni his qilishadi. Shu sababli, o‘smirlik davridagi psixoemotsional holatlarni o‘rganish va ularni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda olib borilayotgan qator yoshlar ta’lim-tarbiyasiga oid islohotlar tufayli, yurtimiz kelajagi uchun yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual, ma’naviy-axloqiy salohiyatga ega, sog‘lom e’tiqod va tafakkur qilishga qodir bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash ishlariga oid huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi.

2022–2026-yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko‘zda tutilgan «Jamiyat va davlatni yangicha isloh etish, ilm-fan sohalarini ilg‘or texnologiyalar bilan yangicha boyitish, jamiyat hayotida ijtimoiy faol yoshlarning rolini yanada oshirish, zamonga yangicha nazar bilan qarashni shaklantirish» vazifalari belgilangan bo‘lib, o‘quvchilardagi emotsional holatlarning psixologik xususiyatlarini ilmiy o‘rganishga zarur asos bo‘la oladi.

Bugungi kunda dunyoda ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilib, ta’lim oluvchilarning aqliy, hissiy, motivatsion sohalari imkoniyatlarini hisobga olish, yangi o‘quv sharoitlariga moslashuvini, psixologik qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, bu borada ilg‘or chora-tadbirlarini ishlab chiqish masalalari dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O‘smirlik davri inson hayotining eng murakkab va o‘zgaruvchan bosqichlaridan biri sifatida psixologik, xususan, emotsional o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Aynan ushbu davrda o‘smirlarning shaxsiy identifikatsiyasi, o‘z-o‘zini anglashi, boshqalar bilan munosabatlari hamda ijtimoiy qadriyatlari shakllanib boradi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

O‘smirlik davrida psixoemotsional holatlarning o‘ziga xos jihatlari tadqiqot metodologiyasi quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

1. Nazariya tahlil usullari: bunda o‘smirlik davrida kuzatiladigan emotsional holatlarning psixologik, pedagogik, sotsiologik, fiziologik aspektlari muhokama qilinadi. Shuningdek, o‘smirlik davri psixoemotsional holatlariga doir mavjud ilmiy manbalar, ilmiy qarashlar o‘rganiladi. Shu bilan bir qatorda bu boradagi sharq va g‘arb yondashuvlarining o‘xshash va farqli jihatlari solishtiriladi.

2. Eksperimental tadqiqot usullari: bunda asosan psixodiagnostik testlar, anketalar, so‘rovnomalar o‘rin egallaydi. Hissiyotni o‘rganish va psixologik baholashga doir ko‘plab metodikalar ishlab chiqilgan va amaliyotda keng foydalaniladi. Xususan. Spelberga Xaninning shaxs havotirlanish darajasini o‘rganish testi, Lyusherning rang testi va boshqalar. Shu asosda tadqiqot uchun K.Rojersning sotsial adaptatsiya metodikasi; shaxsning stressga chidamliligini baholash testi (N.V. Kirsheva, N.V. Ryabchikova) tanlab olindi. Natijalar miqdor va sifat tahlili chastotali tahlil statistik mezoni hamda Pirsonning korrelatsiya koeffsentidan foydalanildi.


Shuningdek, O.V. Ovchinnikova va N.I. Naenko emotsional bosimni aniqlash uchun qo‘l barmoqlari terisining temperaturasidan foydalangan. Emotsional qo‘zg‘alishning ko‘rsatkichi sifatida tremor, kinematometriya (harakatlar amplitudasini qayd etish), refleksometriya (oddiy va murakkab sensomotor reaksiyalar vaqtini o‘lchash), harakatlanuvchi obyektga reaksiya (RDO) va boshqa ko‘rsatkichlar olimlar tomonidan tavsiya etilgan.

Yuz ifodalari bo‘yicha emotsiyalarni diagnostika qilishning elektromiografik usuli ishlab chiqilgan. P. Ekman va U. Frizen FACS (Facial Action Coding System) – «yuz mushaklari faolligini kodlash tizimi» metodini ishlab chiqqan. Metodika yuz mushaklaridagi faollikka qarab emotsiyalarni aniqlashga asoslandi. Emotsiyalarni diagnostika qilishda nutq analizidan foydalaniladi. Bunday usulda nutqning turli parametrlari katta amaliy ahamiyatga ega.

V.I. Galunova, V.X. Manerova laboratoriyada shu kabi usullarni yaratgan bo‘lib, shunday xususiyatlari ajratiladi: belgilangan vaqtda nutq asosiy ohangi tezligi va o‘rtacha tezligi, asosiy ohang tezligi o‘zgarishining intervali kabi ko‘rsatkichlar. Bu ko‘rsatkichlar nutq so‘zlovchining emotsional qo‘zg‘alishi darajasini aniqlash imkonini beradi.

NATIJALAR

K. Rojersning sotsial adaptatsiya metodikasi bo‘yicha sinaluvchilarning ko‘rsatkichlari tahlili.




1-rasm. Sinaluvchilarning adaptatsiya shkalasi bo‘yicha qiyosiy natijalari tahlili

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, qiz bolalarning 8% adaptatsiya darajasi past bo‘lsa, 74% o‘rta va 18% yuqori adaptatsiya ko‘rsatkichiga ega ekanligi aniqlandi. O‘g‘il bolalarda esa ushbu ko‘rsatkichlar 10% past, 45% o‘rta va 45% yuqori darajada qayd etildi.

Past adaptatsiya darajasi – qiz bolalarda past adaptatsiya ko‘rsatkichlari 8% ni tashkil etgan bo‘lsa, o‘g‘il bolalarda bu ko‘rsatkich 10% ga teng. Bu esa o‘g‘il bolalar orasida moslashish qiyin kechayotganlari biroz yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu guruhdagi bolalar yangi muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishlari, atrof-muhit talablariga moslashish jarayoni sekinroq kechishi mumkin.

O‘rta adaptatsiya darajasi – qiz bolalarning aksariyati (74%) o‘rta darajadagi moslashuv ko‘rsatkichiga ega bo‘lib, ular yangi muhitga qisman moslashgan, biroq ba’zi hollarda qo‘shimcha rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezishlari mumkin. O‘g‘il bolalarda esa bu ko‘rsatkich 45% ni tashkil qilmoqda, ya’ni ularning deyarli yarmi ham o‘rtacha darajadagi moslashuvga ega.


Yuqori adaptatsiya darajasi – o‘g‘il bolalar orasida yuqori moslashuv ko‘rsatkichiga ega bo‘lganlar 45% ni tashkil etgan bo‘lsa, qiz bolalarda bu ko‘rsatkich 18% ni tashkil qiladi. Bu esa o‘g‘il bolalar o‘rtasida yangi muhitga tez va samarali moslashish ko‘rsatkichlari ancha yuqori ekanligini bildiradi. Ular atrof-muhit talablariga tez moslashib, o‘zlarini erkin his qilishlari va faol ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishlari ehtimoli yuqori.



2-rasm. Sinaluvchilarning o‘zini yoqtirish shkalasi bo‘yicha qiyosiy natijalari tahlili

Natijalarga ko‘ra, o‘zini yoqtirish shkalasi bo‘yicha qiz bolalarning 19% o‘rta, 81% yuqori natijalar qayd etilgan. O‘g‘il bolalarda esa 26% o‘rta, 74% yuqori natijalarga ega bo‘lishgan. Ushbu natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘rta darajadagi o‘zini yoqtirish qiz bolalarning 19% va o‘g‘il bolalarning 26% o‘rta darajadagi o‘zini yoqtirish ko‘rsatkichiga ega. Bu shuni anglatadiki, ushbu guruhdagi bolalar o‘ziga nisbatan barqaror munosabatga ega, ammo ba’zan o‘z qadr-qimmatini past baholashlari, atrofdagilarning fikridan ta’sirlanishlari mumkin.

Ular o‘zlarining tashqi ko‘rinishi, shaxsiy fazilatlari yoki ijtimoiy maqomi borasida ba’zan ikkilanishlari mumkin. Yuqori darajadagi o‘zini yoqtirish qiz bolalarning 81% va o‘g‘il bolalarning 74% yuqori o‘zini yoqtirish darajasiga ega ekanligi aniqlandi. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat bolalar o‘z shaxsiyatlarini ijobiy qabul qilishadi, o‘zlarini qadrli va muhim shaxs deb bilishadi. Ular o‘zlariga ishonch bilan qarashadi, tashqi ko‘rinishlari, shaxsiy fazilatlari va ijtimoiy mavqelaridan mamnun bo‘lishadi. Bunday bolalar ijtimoiy faol bo‘lib, o‘z fikrlarini ochiq ifoda qilishdan tortinmaydilar.




3-rasm. Sinaluvchilarning boshqalarni qabul qilish shkalasi bo‘yicha qiyosiy natijalari tahlili

Natijalarga ko‘ra, boshqalarni qabul qilish shkalasi bo‘yicha qiz bolalarning 48% o‘rta, 52% yuqori natijalar qayd etilgan. O‘g‘il bolalarda esa 5% past, 53% o‘rta, 42% yuqori natijalarga ega bo‘lishgan. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qiz bolalar boshqalarni qabul qilish bo‘yicha nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Ularning 52% yuqori natija ko‘rsatgan bo‘lsa, 48% o‘rtacha darajani qayd etgan. Bu esa qiz bolalarda ijtimoiy moslashuv va empatiya qobiliyatining yaxshiroq shakllanganligini, ular boshqalar bilan o‘zaro munosabatda iliqlik va tushunishni namoyon etishlarini ko‘rsatadi.

O‘g‘il bolalarda esa 5% past, 53% o‘rta va 42% yuqori natijalar kuzatilgan. Bu shuni anglatadiki, ularning boshqalarni qabul qilish darajasi nisbatan o‘zgaruvchan bo‘lib, qiz bolalarga qaraganda pastroq. Past natija ko‘rsatgan 5% bolalar esa ijtimoiy muhitga moslashishda yoki atrofdagilarni qabul qilishda muammolarga duch kelishlari mumkin. Umuman olganda, qiz bolalarning ijtimoiy qabul qilish darajasi o‘g‘il bolalarga qaraganda yuqoriroq bo‘lib, bu ularning emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligining nisbatan yaxshi ekanligini ko‘rsatadi.

O‘g‘il bolalarda esa ushbu ko‘nikmalar nisbatan pastroq bo‘lib, bu ularda boshqalar bilan samarali munosabatlarni shakllantirish uchun qo‘shimcha psixologik yondashuvlarni talab qilishi mumkin.




4-rasm. Sinaluvchilarning boshqalarni qabul qilish shkalasi bo‘yicha qiyosiy natijalari tahlili

Hissiy qulaylik shkalasi bo‘yicha olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, qiz bolalar va o‘g‘il bolalar o‘rtasida hissiy barqarorlik va o‘zlarini qulay his qilish darajasida sezilarli farqlar mavjud. Qiz bolalarda 19% past, 41% o‘rta va 40% yuqori natijalar qayd etilgan. Bu shuni anglatadiki, qizlarning aksariyati (81%) o‘zlarini o‘rtacha yoki yuqori darajada hissiy qulay his qilishadi, bu esa ularning ruhiy barqarorligini va ijtimoiy muhitga nisbatan moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Past natija qayd etgan 19% qiz bolalar esa hissiy jihatdan noqulaylik sezishi, ya’ni stress holatlariga moyillik yoki o‘zlarini erkin his qila olmaslik muammolariga duch kelishlari mumkin. O‘g‘il bolalarda esa 24% past, 29% o‘rta va 47% yuqori natijalar kuzatilgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘il bolalar orasida hissiy qulaylik darajasi bo‘yicha tafovutlar bor.

Yuqori natija ko‘rsatgan 47% bola o‘zini barqaror va hissiy jihatdan qulay his qiladi. Biroq, past natija qayd etgan 24% o‘g‘il bola stress yoki ruhiy noqulaylik his qilishi, bu esa ularning o‘qish jarayoni va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Umumiy tahlilga ko‘ra, qiz bolalar va o‘g‘il bolalarning hissiy qulaylik darajasi nisbatan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, o‘g‘il bolalarda past natijalar (24%) qiz bolalarga (19%) nisbatan biroz yuqoriroq.

Bu shuni anglatadiki, o‘g‘il bolalar orasida stress va noqulaylikni boshdan kechiradiganlar soni ko‘proq. Shu sababli, ayniqsa past natija qayd etgan bolalar bilan individual ishlash, ularga psixologik yordam ko‘rsatish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.



5-rasm. Sinaluvchilarning internallik shkalasi bo‘yicha qiyosiy natijalari tahlili

Internallik insonning hayotiy voqealar va ularning natijalari ustidan nazorat qilish darajasini ifodalaydi. Yuqori internallikka ega bo‘lgan shaxslar muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini o‘z harakatlari bilan bog‘laydi, o‘rta va past darajadagi internallar esa tashqi omillarning ta’sirini kuchliroq his qiladi.


Qiz bolalarning aksariyati (88%) internallikning yuqori darajasiga ega bo‘lib, bu ularning o‘z hayoti va faoliyati ustidan nazorat qilish hissi kuchli ekanligini anglatadi. Ular muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar sababini o‘zlarida izlashadi, tashabbuskor va o‘z harakatlari uchun mas’uliyatni his qilishadi. 12% o‘rta darajadagi qiz bola esa ba’zi holatlarda tashqi omillarni hal qiluvchi deb hisoblashi mumkin, lekin umumiy hisobda o‘z qarorlari va harakatlarining muhimligini anglaydi.

O‘g‘il bolalar orasida ham internallikning yuqori darajasi ustunlik qiladi (84%), bu ularning o‘z hayotlarini boshqarish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanganligini bildiradi. Ular muvaffaqiyatlarini o‘z mehnatlari va intilishlari natijasi deb bilishadi. 16% o‘rta darajadagi natija esa ba’zi o‘g‘il bolalarning tashqi omillar ta’sirini his qilishlari va o‘z harakatlariga to‘liq ishonch bildirmasliklarini ko‘rsatadi.

Qiz va o‘g‘il bolalarning internallik darajalari o‘xshash bo‘lib, yuqori internallikka ega bo‘lganlarning ulushi juda katta (qizlarda 88%, o‘g‘il bolalarda 84%). Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, har ikkala guruhdagi yoshlar ham o‘z harakatlarining natijalarga ta’sirini tushunishadi va hayotlarida tashqi omillarga kamroq bog‘liq bo‘lishadi.

O‘g‘il bolalar orasida o‘rta darajadagi internallar biroz ko‘proq (16%), bu esa ularning ayrimlari tashqi ta’sirlarni sezilarli darajada qabul qilishlarini va o‘z hayotlarini to‘liq boshqarishlariga hali ham ishonchlari yetarli emasligini anglatadi. Internallik darajasining yuqori bo‘lishi bolalarning mustaqil, mas’uliyatli va yetuk shaxs sifatida shakllanayotganini bildiradi. Bu ijtimoiy moslashuv, yetakchilik qobiliyatlari va o‘z oldiga maqsad qo‘yish hamda unga erishish borasida ijobiy natijalar berishi mumkin.

Shu sababli, internallikni yanada mustahkamlash uchun qiz va o‘g‘il bolalar orasida o‘zini anglash, qaror qabul qilish va o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga yo‘naltirilgan treninglar, interfaol mashg‘ulotlar tashkil qilish tavsiya etiladi.



6-rasm. Sinaluvchilarning boshqalarni qabul qilish shkalasi bo‘yicha qiyosiy natijalari tahlili


Hukmronlikka intilish shkalasi insonning yetakchilik, boshqalar ustidan ta’sir o‘tkazish va rahbarlik qilishga moyilligini baholaydi. Yuqori natija – shaxsning dominantlik xususiyatlarini kuchli ekanligini, past natija esa ko‘proq moslashuvchan va hamkorlikka moyilligini bildiradi. Qiz bolalarning aksariyati (74%) hukmronlikka intilish bo‘yicha past natijaga ega bo‘lib, bu ularning yetakchilikka bo‘lgan ehtiyoji unchalik kuchli emasligini ko‘rsatadi. Ular ko‘proq jamoaviy ishlarni afzal ko‘rishlari, boshqalarga yo‘l berishlari va rahbarlik qilishga unchalik intilmasliklari mumkin. 26% o‘rta natijaga ega bo‘lgan qiz bolalar esa ba’zi vaziyatlarda yetakchilik rolini o‘z zimmalariga olishga tayyor ekanliklarini bildiradi, lekin ular bu holatni barqaror doimiy xatti-harakat sifatida namoyon etmaydilar.

O‘g‘il bolalar orasida ham 70% past natijaga ega bo‘lib, bu ularning ko‘pchiligi yetakchilik rolini faol egallashga ehtiyoj sezmasliklarini yoki o‘zini boshqalarga nisbatan ustun qo‘yish istagi unchalik kuchli emasligini bildiradi. 30% o‘rta natijaga ega bo‘lgan o‘g‘il bolalar esa qiz bolalarga nisbatan biroz ko‘proq rahbarlik qilishga intilishadi, lekin bu faqat ayrim vaziyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Natijalardan ko‘rinadiki, har ikkala guruhda ham hukmronlikka intilish darajasi past bo‘lib, ko‘pchilik o‘quvchilar yetakchilik qilishni maqsad qilib qo‘ymaydi yoki rahbarlik qilishga ortiqcha ehtiyoj sezmaydi.

Qiz bolalar va o‘g‘il bolalar natijalari deyarli bir xil, lekin o‘g‘il bolalar orasida hukmronlikka intilish biroz kuchliroq (30% o‘rta natija). Ushbu natijalar shuni bildiradiki, guruh ichida do‘stona va teng huquqli muloqot ustunlik qiladi, ko‘pchilik o‘z manfaatlarini boshqalarga zo‘rlik bilan o‘tkazishga harakat qilmaydi. Quyidagi jadvalda sinaluvchilarning stressga chidamliligini tekshirib ko‘ramiz.

1-jadval. Sinaluvchilarning stressga bardoshlilik natijalari tahlili

Oraliq ko‘rsatkich	Darajasi	O‘g`il	Qiz
		Foizi	
51-54	1 - juda past	0	0
53-50	2 - past	0	0
49-46	3 - o‘rtachadan past	0	0
45-42	4 - o‘rtachadan biroz pastroq	0	0
41-38	5 - o‘rtacha	7	0
37-34	6 - o‘rtachadan biroz yuqori	7	23
33-30	7 - o‘rtachadan yuqori	30	43
29-26	8 - baland	38	24
25-18	9 - juda yuqori	18	10



7-rasm. Sinaluvchilarning stressga bardoshlilik darajasining qiyosiy ko‘rsatkichlari

Stressga chidamlilik, insonning stressli vaziyatlarga qarshi kurashish va ulardan chiqish qobiliyatini aks ettiradi. Yuqori stressga chidamlilik darajasi shaxsning psixologik barqarorlikka ega ekanligini, past daraja esa stressga sezgirlik va ko‘proq taslim bo‘lishni ko‘rsatadi.

Qiz bolalarning natijalari shuni ko‘rsatadiki, 10% juda yuqori va 18% baland stressga chidamlilik darajasiga ega bo‘lib, bu guruhdagi

ba'zi o'quvchilar stressli vaziyatlarda juda yaxshi moslashish va ularga qarshi samarali kurashish qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi. 43% o'rtachadan yuqori va 23% o'rtachadan biroz yuqori natijalari ko'rsatilgan qiz bolalar esa stressga nisbatan o'rtacha chidamliligi bor, lekin ular ko'proq yordam yoki qo'llab-quvvatlashni talab qilishlari mumkin. Ularning stressga qarshi chidamliligi, umumiy ravishda o'rtacha yoki biroz yuqori darajada bo'lib, ular stressli vaziyatlarda biroz qiynalishlari mumkin, lekin buni yengish qobiliyatlari bor.

O'g'il bolalar orasida 18% juda yuqori va 38% baland natijalar ko'rsatilgan, bu o'quvchilar stressga yuqori darajada chidamlilikka ega ekanligini bildiradi. Ular stressli vaziyatlarga nisbatan yanada sabrli va moslashuvchan bo'lib, samarali ravishda muammolarni hal qilishi mumkin. 30% o'rtachadan yuqori va 7% o'rtachadan biroz yuqori natijalar stressga chidamlilik darajasining o'rtacha yoki biroz yuqori bo'lishini ko'rsatadi.

Bu guruhdagi o'g'il bolalar stressli vaziyatlarda ba'zan qiynalishlari mumkin, lekin ular tezda normal holatga qaytishlari mumkin. 7% o'rtacha natijalar esa stressli vaziyatlarga nisbatan chidamliligi o'rtacha darajada bo'lgan o'g'il bolalar borligini ko'rsatadi. Ular stressga nisbatan sezgirlikni namoyon qilishlari mumkin va vaqtincha muammolarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Qiz bolalar orasida ko'plab o'quvchilar stressga yuqori chidamlilikka ega bo'lishiga qaramay, ularning aksariyatida chidamlilik darajasi o'rtacha yoki biroz yuqori (43% va 23%) bo'lib, bu ularning stressli vaziyatlarda qo'llab-quvvatlashga yoki yordamga muhtojligini ko'rsatadi.

O'g'il bolalar orasida esa yuqori stressga chidamlilik (18% juda yuqori, 38% baland) ko'rsatilgan. Bu o'g'il bolalar stressli vaziyatlarda yaxshiroq moslashish va ularga qarshi samarali kurashish qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi. Umumiy ravishda, o'g'il bolalar stressga chidamliligi jihatidan biroz yaxshiroq natijalar ko'rsatgan bo'lsa ham, qiz bolalar ham stressli vaziyatlarda o'zlarini yaxshi tutishadi, ammo ba'zilarida yordamga ehtiyoj borligini ko'rsatmoqda. Ushbu natijalar stressga chidamlilikni yanada rivojlantirish uchun maxsus dasturlar, treninglar yoki psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlarini yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu tahlil natijalari asosida bizni yana bir masala e'tiborimizni tortdi. Shu maqsadda sinaluvchilarning sotsial adaptatsiya jarayoni ularning stressga chidamlilik darajasiga qay darajada ta'sir ko'rsatishini tekshirib ko'ramiz.

2-jadval. Sinaluvchilarning stressga bardoshlilik natijalari tahlili

Shkalalar	Stressga chiqamlilik darajasi
Adaptatsiya	-0,141
O'zini yoqtirish	-0,281*
Boshqalarni qabul qilish	0,077
Hissiy qulaylik	-0,144
Internallik	0,312*
Hukmronlikka intilish	0,241*

Natijalarga ko'ra, stressga chidamlilik shkalasi o'zini yoqtirish (r=-0,281; p<0,05;), internallik (r=0,312; p<0,01;), hukmronlikka intilish (r=0,241; p<0,05;) shkalasi bilan bilan o'zaro aloqadorlikka egaligini ko'rish mumkin. Ushbu natijalar stressga chidamlilik va turli psixologik omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi. Har bir korrelyatsiya koeffitsienti (r) va p-qiymati, o'zgaruvchilar orasidagi aloqaning kuchini va ahamiyatliligini belgilaydi. Keling, har bir bog'liqlikni batafsil tahlil qilaylik:

O'zini yoqtirish bilan stressga chidamlilik (r = -0,281; p < 0,05): Bu korrelyatsiya manfiy (r = -0,281), ya'ni o'zini yoqtirish darajasi yuqori bo'lgan kishilarda stressga chidamlilik pastroq bo'lishi mumkin. O'zini yoqtirish darajasi yuqori bo'lsa, odamlar o'zlarini yaxshi his qilishlari va stressni boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. P-qiymati 0,05 dan kichik bo'lib, bu bog'liqlikning statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Internallik bilan stressga chidamlilik (r = 0,312; p < 0,01): Bu korrelyatsiya ijobiy (r = 0,312) bo'lib, internallik darajasi yuqori bo'lgan kishilar stressga chidamlilikka ega ekanligini ko'rsatadi. Internallik - bu kishilarning o'z hayotlarini nazorat qilish qobiliyatiga bo'lgan ishonchi. P-qiymati 0,01 dan kichik bo'lib, bu bog'liqlikning ahamiyati yuqori va tasodifiy emasligini bildiradi.

Hukmronlikka intilish bilan stressga chidamlilik (r = 0,241; p < 0,05): Bu korrelyatsiya ijobiy (r = 0,241), ya'ni hukmronlikka intilish darajasi yuqori bo'lgan kishilarda stressga chidamlilik ham yuqori bo'lishi mumkin. Hukmronlikka intilish shkalasi, odamlarning boshqarish va o'zgarishlarni amalga oshirish istagini o'lchaydi. Biroq, bu bog'liqlik nisbatan zaif (r = 0,241), lekin p-qiymati 0,05 dan kichik bo'lib, statistika jihatdan ahamiyatli ekanligini bildiradi.

O'zini yoqtirish bilan stressga chidamlilik orasidagi manfiy bog'liqlik, o'zini yoqtirish yuqori bo'lgan kishilarda stressga chidamlilik pastroq ekanligini ko'rsatadi. Internallik bilan stressga chidamlilik orasidagi ijobiy bog'liqlik, o'z hayotini nazorat qilishga ishonadigan kishilarda stressga chidamlilik yuqori ekanligini ko'rsatadi. Hukmronlikka intilish bilan stressga chidamlilik orasidagi ijobiy bog'liqlik, boshqarish va o'zgarishlarga intilayotgan kishilarda stressga chidamlilikning yuqori bo'lishini bildiradi. Bu natijalar, stressga chidamlilikning psixologik omillar bilan qanday bog'liq ekanligini va har bir omilning o'ziga xos ahamiyatini ko'rsatadi.

XULOSA

O'smirlarning psixoemotsional holatlarining o'ziga xosliklarini o'rganish va tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. O'smirlarning psixoemotsioanl holati ko'p qirrali bo'lib, kognitiv, fiziologik, xulq-atvor yondashuvlari asosida tushuntiriladi. Emotsiyalar biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi. Emotsional holatlarni o'rganishda g'arbning ilmiy metodlari (eksperimentlar, neyrofiziologik tadqiqotlar) va sharqning falsafiy-axloqiy qarashlari (Yusuf Xos Hojib, Kaykovus) o'rtasida uyg'unlik mavjud. G'arbda emotsiyalar eksperimental usullar orqali analiz qilinadi. Sharqda emotsiyalar insonning ma'naviy kamoloti, jamiyatdagi munosabatlari va axloqiy qadriyatlar kontekstida talqin etiladi.

2. Tadqiqotning metodologiyasi va usullari o'smirlarning psixoemotsional holatlarini chuqur tahlil qilishni ta'minlaydi. Tadqiqotda o'smirlik davridagi psixoemotsional o'zgarishlar, shuningdek, yoshlarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga qaratilgan zamonaviy nazariy manbalar asosida ilmiy materiallar to'plandi. Tadqiqotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun materiallarning to'g'ri tanlanishi va tayyorlanishi, o'smirlarning psixoemotsional holatini yaxshilash va ularning o'qish faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yo'naltirilgan materiallarni ishlab chiqish muhimdir.

3. Qiz va o'g'il bolalar orasida adaptatsiya, o'zini yoqtirish va boshqalarni qabul qilish jihatlarida sezilarli farqlar mavjud. O'g'il bolalar yangi muhitga tezroq moslashsa, qizlar o'zini qadrlash va boshqalarni qabul qilishda ustunlik qiladi. Stressga chidamlilik internallik va hukmronlikka intilish bilan ijobiy bog'liq bo'lib, o'zini yoqtirish bilan manfiy

bog‘lanish ko‘rsatadi. Internallik stressni boshqarishda muhim omil bo‘lsa, o‘g‘il bolalarda hukmronlikka intilish stressli vaziyatlarga faol yechim topishga yordam beradi.

4. O‘g‘il bolalar stressga nisbatan yuqori chidamlilik ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ularda hissiy noqulaylik darajasi qizlarga nisbatan ko‘proq kuzatiladi. Yetakchilikka intilish darajasi past bo‘lib, ham qizlar, ham o‘g‘il bolalar asosan hamkorlikni afzal ko‘rishadi. Ushbu tafovutlarni inobatga olib, o‘g‘il bolalar uchun liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va jamoaviy loyihalar orqali qiz va o‘g‘il bolalarning o‘zaro munosabatlarini mustahkamlash muhim pedagogik choralar sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.F. Skinner (1953) – «Science and Human Behavior» – 472 p.

2. Bandura A. Social learning theory //Englewood Cliffs. – 1977. – P. 16-21.

3. Barrett L. F. How emotions are made: The secret life of the brain //Pan Macmillan. – 2017. – 196 p.

4. Beck A. T. Cognitive therapy and the emotional disorders. – Penguin, 1999. – 312 p.

5. Cannon W. B. The James-Lange theory of emotions: a critical examination and an alternative theory //The American journal of psychology. – 1997. – Т. 100. – №. 3/4. – С. 567-586.

6. Damasio A. R. Descartes error revisited //Journal of the History of the Neurosciences. – 2001. – Т. 10. – №. 2. – С. 192-194.

7. Dostanova K. Emotsiyalarning shaxs sifati va hayot faoliyatiga ta’siri-sharq va g’arb mutafakkirlari qarashlari timsolida //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 9. – С. 38-40.

8. Dweck C. S. Mindset: The new psychology of success. – Random house, 2006.

9. Ellis A. Reason and emotion in psychotherapy. – 1994. – 244 p.

10. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.

11. Kahneman D. Thinking, fast and slow //Farrar, Straus and Giroux. – 2011. – P. 244-259.

12. Lazarus R. S. Stress, appraisal, and coping. – Springer, 1984. – 464 p.

13. LeDoux J. E. The emotional brain: The mysterious underpinnings of emotional life. – Simon and Schuster, 1998. 394 p.

14. O‘Sullivan M., Ekman P., Geher G. Facial expression recognition and emotional intelligence //Face recognition: New research. – 2008. – С. 25-40.

15. Papez J. W. A proposed mechanism of emotion //Archives of Neurology & Psychiatry. – 2017. – Т. 38. – №. 4. – С. 725-743.

16. Sapolsky R. M. Why zebras don’t get ulcers: The acclaimed guide to stress, stress-related diseases, and coping. – Holt paperbacks, 2004. – P. 74-86.

17. Sternberg R. J. Beyond IQ: A triarchic theory of human intelligence //CUP Archive. – 2005. – P. 12-24.

18. Вохидов М. «Болалар психологияси» Т.: 1982. - 211 б.

19. Петровский А.В. «Умумий психология» Т.: 1992. - 313 б.

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/0009-0001-4247-6731

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MUSTAQIL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etishdagi mavjud muammolar hamda ularning yechimlarini tashkil etish metodikasi yoritilgan. O‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil qilishda axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari haqida hamda mustaqil ta’limni tashkil etish, o‘quvchini mustaqil ishlashiga undovchi motivlarni aniqlash, ularning mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqil bilim, mustaqil o‘qish, ta’lim, didaktik jarayon, o‘zlashtirish, didaktik vositalar, mustaqil fikrlash, sifat, samaradorlik, Blum taksonomiyasi.

KIRISH

Mustaqil ta'lim shaxsning o'zi tomonidan boshqarilishini e'tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin holda va istagan vaqtida manbalardan o'zi tanlab, maqsad, vosita, mazmun nuqtayi nazaridan foydalanishi mumkin.

Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu-o'qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi ta'sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir [1].

Mustaqil ta'lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liqligi sababli unga berilgan ta'rifni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq, «mustaqil fikrlash – insonning o'z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir»[2].

Yoshlarda mustaqil ish bajarish ko'nikmalarini shakllantirishni turli o'quv predmetlarini o'qitishda amalga oshirish mumkin. Masalan matematik olimlar S.I. Demidova va L.O. Denishevalar mustaqil ta'limga quyidagicha ta'rif berganlar, ya'ni, «o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan mustaqil ish mazmuni, mustaqil ishlashni faol tashkil etishga, ularni oldiga quyilgan didaktik maqsadlarni bajarishga yo'naltirilgan va shunga maxsus ajratilgan vaqt tushuniladi. Bilimlarni qidirish, ularni anglab etish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish bilimlarini umumlashtirish, tizimlashtirish jarayoni tushuniladi»[3].

Bu ta'rifda faoliyat xususiyatlari: faollik, tizimlilik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik haqida so'z yuritilgan. Biroq mustaqil ta'limning bir jihati sifatida mustaqillik tilga olingan. Mustaqil tafakkur ta'limning bir qismi bo'lishi mumkin.

Mustaqil ishlarni bajarish va mustaqil ta'limning ijobiy xususiyatlari olimlardan: V.I.Andriyanovaning o'zbek maktablarining 5-6 sinflarida rus tili darsida mustaqil ish bajarishni o'rgatish[4], O.B. Berdiyeva geometriya ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodikasi[5], E.I. Zakinovning 6-8 sinflarda mustaqil ishlarni tashkil qilishning pedagogik asoslari[6], O'.N. Sultonova fizikadan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasi[7], Sh. Yunusovaning o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish[8], Z. Nishonova[9], J. Tolipova[10] va N. Xalilovlarning[11] mustaqil ta'lim shakllari haqidagi tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Mustaqil bilim olishni ta'minlashga imkon beradigan topshiriqlar tushuncha, sabab va qadriyatli yo'nalishlarni o'zlashtirish darajasi past bo'lgan o'quvchilar uchun qulay sharoitni yaratishni ko'zda tutadi. Birgina muvaffaqiyatini his etish ham o'quvchini mustaqil bilim olishga undovchi psixologik holatni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda mustaqil ta'lim olish turlari quyidagilardan iborat.

1. O'qituvchini darsini tinglash.
2. Amaliy ishlarni bajarish.
3. Mashqlar bajarish.

Mustaqil ta'lim jarayonida o'qituvchi darsini tinglash va topshiriqlarni bajarib borish asosiy ko'rinishlardan biri hisoblanadi.

O'quvchilar dars davomida to'liq va batafsil yozishlari yaxshi natijalar beradi. O'z navbatida ko'pchilik o'qituvchilar o'quv kitoblarida berilgandan farq qiluvchi asosiy holatlarni, xulosa, kriteriyalar, aksioma, qoida, postulat, paradoks, paradigma, konsepsiya, holat va hokazolarni yozdirib borishadi.

Mustaqil ishlash davomida qo'shimcha adabiyotlardan, lug'atlardan foydalanish mumkin. Mustaqil o'rganishda asosiy o'rinni darsni umumlashtiruvchi turli xildagi vazifalarni bajarish egallaydi. Masalan: mavzuga doir reja yoki tezis tuzish, savollarga javob berish, testlar ishlab chiqish, referat yozish mumkin.

Mustaqil ta'lim jarayonida amaliy ishlarni bajarish ham asosiy ko'rinishlardan biri hisoblanadi.


Amaliy mashg'ulotlarining asosiy tavsifi shundaki, unda o'quvchilar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki tajriba o'tkazadilar.

Ilmiy texnik taraqqiyot sharoitida amaliy ishlar o'quvchiga nazariy bilimlarni qo'llash mexanizmini chuqur va ko'rgazmali o'rganish imkonini beradi. Amaliy mashg'ulotlar o'quvchida tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi. Fan va texnikaga ijodiy yondashishni ta'minlaydi, eksperimentning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi. Amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilar asosan, qisman izlanish usulini qo'llaydilar.

Mustaqil ishlarning asosiy ko'rinishlaridan biri mashqlar bajarishdir. Mashqlar dastur asosida tuzilishi, juda oson yoki haddan tashqari qiyin bo'lmasligi lozim.

Mashqlar – ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida muayyan xatti-harakatlarni ko'p marta takrorlashdir. Ishlab chiqarish ta'limidagi mashqlarga asosan quyidagi talablar qo'yiladi: mashqlarni o'quvchilar ongli va maqsadga muvofiq yo'sinda bajarishlari; ishlab chiqarish metodikasiga asoslanishi, tizimli, izchil, uzluksiz bo'lishi va takrorlanishi; o'quvchilarning mustaqil ishlashi muntazam rivojlanib borishi kerak.

Mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi bevosita B. Blumning bilim olish sohasidagi o'quv maqsadlari taksonomiyasi asosida quyidagi olti toifadagi asosiy o'quv maqsadlaridan iborat holda qarab chiqildi:



1-sxema. Blum taksonomiyasi

O'quv maqsadlarning ushbu olti asosiy kategoriyalarini obyektlarni qo'llashda, mustaqil ta'lim jarayonidagi ko'rinishlarini ochib berishga harakat qildik.

[1] Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004. –128 b

[2] Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2006. – 46 b.

[3] Демидова С. И., Денищева Л.О. Самостоятельная деятельность стучащихсяприобучениематематике. - М.: Просвещение, 1985. - 189 с.

[4] Андрианов П.Н. Развитие технического творчества в трудовом обучения учащихся общеобразовательной школы: Дисс.канд.пед.наук.-М: 1985. – 234 с.

[5] Berdiyeva O.B. Geometriya ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodikasi: Avtoref. dis.ped.fan.nom. – T.: TDPU, 2007. – 22 b.

[6] Закинов Э.И. Педагогические основы организации и самостоятельной работы учащихся 6 – 8 классов: Дисс.канд.пед.наук.- Т.: 2001. – 155 с

[7] Sultonova O'.N. Fizikadan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasi: Avtoref. dis. ... ped. fan. nom. – T.: 2007.– 22b.


[8] Yunusova Sh. O'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish // Xalq ta'limi. – Toshkent, 1997. – №5. – B. 53 – 55

[9] Nishonova Z. Mustaqil fikrlashni o'rgatish bo'yicha trening // Xalqta'limi. – Toshkent, 2000. – №1.- B. 38

[10] Tolipova J. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish // Xalqta'limi. – Toshkent, 2002. – № 4. – B. 102 – 103


[11] Xalilov N. Mustaqil ta'lim shakllari // Xalqta'limi. – Toshkent, 2002.- № 5.- B. 88 – 89.

1. Obyektlar haqidagi bilimlarni mustaqil bilish – ushbu kategoriya o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish jarayonida egallangan ma’lumotlarni xotirada saqlab qolish, mustaqil fikrlash natijasida qayta esga tushirish, ijodiy erkin fikrlash, mustaqillik xususiyatlarini namoyon etish kabi o‘quv maqsadlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi (1-rasm).




1-rasm. Obyektlar haqidagi bilimlarni mustaqil bilish

2. Obyektlarning amaliyotga joriy etilishini tushunish – mustaqil ta’lim olish turlarining bir turdan ikkinchisiga o‘zgarishi, o‘quvchilarining mustaqil ishlarni tushuntirishi, natijalariga ta’sir qiluvchi takliflar kiritish, vaziyatlarning o‘zgarishini nazarda tutadi (2-rasm).




2-rasm. Obyektlarning amaliyotda joriy etilishini tushunish

3. Obyektlarni amaliyotda qo‘llash – mustaqil ta’lim jarayonida amaliy faoliyat bilan shug‘ullanish, obyektlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish. Ushbu faoliyat obyektlarni qo‘llash qoidalari, usullari, shakllari nazariyalari sinab ko‘riladi (3-rasm).




3-rasm. Obyektlarni amaliyotda qo‘llash

4. Obyektlarning tahlili – dars jarayon hamda obyektlar unsurlarini tahlil etib, ular orasidagi munosabatni o‘rganish. Mustaqil ta’limni tashkil etish asoslarini bilish. Mustaqil ta’lim natijalari, tushunish va qo‘llashga qaraganda, yuqori intellektual darajali tavsiflanganligi sababli mustaqil bilim olish mazmunini hamda uning tarkibiy tuzilmasini bilishni talab qiladi (4-rasm).




4-rasm. Obyektlarning tahlili

5. Dars jarayoni va obyektlarning sintezi – mustaqil ta’lim natijalari o‘quvchi o‘quv faoliyatida mustaqillikka erishishni, ijodiy xususiyatga ega bo‘lishini, mustaqil ta’lim olishning adekvat usullarini, shakllarini ko‘rinishlarini va tizimlarini vujudga keltirishni nazarda tutadi (5-rasm).



5-rasm. Obyektlarning sintezi

6. Obyektlarni mustaqil ta’lim jarayonida baholash - o‘quvchilar tomonidan mustaqil ta’lim olish jarayonida egallangan bilimlar, metodlarni qabul qilingan maqsadni hisobga olgan holda baholash (6-rasm).



6-rasm. Obyektlarni mustaqil ta’lim jarayonida baholash

Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etishda B.Blum taksonomiyasi asosda yondashuv ularning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omillardan ekanligi asoslandi. Blum

taksonomiyasi asosida o‘quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oluvchi quyidagi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy qadriyatli), psixomotor (harakat)li omillar mustaqil ta’lim olish jarayoni samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR

Quyidagi jadvalda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilar bilim darajasi dinamikasining o‘zgarishi (son va % hisobida) keltirilgan.

Har bir bosqich uchun ikkita o‘quv fani, «Ona tili» fanlari bo‘yicha sonli ma’lumotlar olingan.

1-jadval. O‘quvchilarning «Ona tili» fani bo‘yicha mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik ko‘rsatkichlari

Tajriba bosqichi va o‘quv yili	Maktab	O‘zlashtirish darajasi	Tajriba guruhlarida		Nazorat guruhlarida	
			Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
2023-24 o‘quv yili	277	Eng yuqori (a’lo)	3(13%)	6(27%)	2 (8%)	3 (13%)
		Yuqori (yaxshi)	4(18%)	9(41%)	3 (14%)	4 (17%)
		O‘rta (qoniqarli)	15(69%)	7(32%)	18 (81%)	16 (70%)

Bu ma’lumotlar asosida quyidagi belgilanishlarni kiritamiz:

x_i – tajriba guruhiga mos keladigan baholar.

y_i – nazorat guruhiga mos keluvchi baholar.

$\bar{x}$ va $\bar{y}$ – tajriba va nazorat guruhlari uchun mos keladigan o‘rtacha arifmetik qiymatlar.

$$\bar{x} = \frac{\sum x_i n_i}{n}; \quad \bar{y} = \frac{\sum y_i m_i}{m}. \ (1)$$

Bu yerda:

x_i, y_i – 3, 4, 5 qiymatli baholarni mos ravishda qabul qiladi.

m, n – tajriba va nazorat guruhidagi o‘quvchilar soni.

m_i, n_i – mos baholarga nisbatan o‘quvchilar soni.

O‘quv jarayoni samaradorligini baholovchi o‘rtacha qiymat tajriba va nazorat guruhlari baholarining o‘rtacha arifmetik qiymatlari nisbatidir, ya’ni samaradorlik koeffitsiyenti quyidagicha olindi:

$$\eta = \frac{\bar{x}}{\bar{y}} \quad (2)$$

O‘rtacha kvadratik og‘ish kattaliklari:

$$S_x^2 = \frac{1}{n}\sum_i n_i \cdot (x_i - \bar{x})^2;$$

$$S_y^2 = \frac{1}{m}\sum_i m_i \cdot (x_i - \bar{x})^2 . (3)$$

Standart og‘ish kattaliklari:

$$S_x = \sqrt{S_x^2} \quad ; \quad S_y = \sqrt{S_y^2} \quad (4)$$

O‘rtacha qiymatlarni aniqlash ko‘rsatkichi:

$$C_x = \frac{S}{\sqrt{n}\cdot\bar{x}} \cdot 100\,\% \ ; \ C_y = \frac{S}{\sqrt{m}\cdot\bar{x}} \cdot 100\,\% . (5)$$

Bosh to‘plamning noma’lum o‘rta qiymatlari uchun ishonch oraliqlari:

$$a_x \in \left[\bar{x} - \frac{t}{\sqrt{n}}\cdot S_x;\ \bar{x} + \frac{t}{\sqrt{n}}\cdot S_x\right]$$
$$a_y \in \left[\bar{y} - \frac{t}{\sqrt{m}}\cdot S_y;\ \bar{y} + \frac{t}{\sqrt{m}}\cdot S_y\right] \quad (6)$$

Bu yerda *t* – me’yorlashgan chetlanish ishonch ehtimoli R asosida aniqlanadi. Masalan, R=0,95 da *t*=1,96 ga teng.

Biz o‘rtacha qiymatlar tengligi haqidagi $H0: a_x = a_y$ farazni ilgari surib, unga qarama-qarshi $H1: a_x \neq a_y$ ekanligini yuqoridagi ma’lumotlar asosida Student mezoni orqali tekshiramiz.

$$T_{m_1 n} = \frac{\left|\bar{y} - \bar{x}\right|}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} \quad (7)$$

Agar T>Tr=*t* bo‘lsa, N0 faraz rad etilib, N1 faraz olinadi.

Quyida ushbu ma’lumotlarga asoslanib, har bir bosqich uchun hisob ishlari va ularning qiyosiy tahlili jadval orqali keltiriladi.

O‘quvchilarning tajriba-sinov ishlari natijalarining boshlang‘ich holati va tajriba oxirida esa fanning jami mavzulari bo‘yicha yozma va og‘zaki baholash orqali hamda o‘quvchilarning mustaqil ishlash bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik darajalari aniqlandi.

«Ona tili» fani bo‘yicha tajriba natijalarining qiyosiy tahlili:

m= 22, *n*=23 – tajriba va nazorat guruhidagi o‘quvchilar soni.

b – tajriba boshida.

o – tajriba oxirida.

$$\bar{x}_{\text{á}} = \frac{1}{22}\cdot(3\cdot5+4\cdot4+15\cdot3) = \frac{1}{22}\cdot(15+16+45) = \frac{76}{22} = 3{,}45$$

$$\bar{y}_{\text{á}} = \frac{1}{23}\cdot(2\cdot5+3\cdot4+18\cdot3) = \frac{1}{23}\cdot(10+12+54) = \frac{76}{23} = 3{,}30$$

Samaradorlik koeffitsiyenti $\eta_{\text{á}} = \frac{\bar{x}_{\text{á}}}{\bar{y}_{\text{á}}} = \frac{3{,}45}{3{,}30} = 1{,}04$

$$S_x^2 = \frac{1}{22}\cdot(3(5-3{,}45)^2 + 4(4-3{,}45)^2 + 15(3-3{,}45)^2) = \frac{1}{22}\cdot(3\cdot1{,}55^2 + 4\cdot0{,}55^2 + 15\cdot0{,}45^2) =$$
$$= \frac{1}{22}\cdot(3\cdot2{,}4 + 4\cdot0{,}3 + 15\cdot0{,}2) = \frac{1}{22}\cdot(7{,}2+1{,}2+3) = \frac{11{,}4}{22} = 0{,}51$$

$$S_x = \sqrt{S_x^2} = \sqrt{0{,}51} = 0{,}71$$

$$S_y^2 = \frac{1}{23}\cdot(2(5-3{,}3)^2 + 3(4-3{,}3)^2 + 18(3-3{,}3)^2) = \frac{1}{23}\cdot(2\cdot1{,}7^2 + 3\cdot0{,}7^2 + 18\cdot0{,}3^2) =$$
$$= \frac{1}{23}\cdot(2\cdot2{,}89 + 3\cdot0{,}49 + 18\cdot0{,}09) = \frac{1}{23}\cdot(5{,}78+1{,}47+1{,}62) = \frac{8{,}87}{23} = 0{,}38$$

$$S_y = \sqrt{S_y^2} = \sqrt{0{,}38} = 0{,}62$$

O‘rtacha qiymatlar aniqlanish ko‘rsatkichlari:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{22}\cdot 3{,}45}\cdot 100\% = \frac{0{,}71}{4{,}7\cdot 3{,}45}\cdot 100\% = \frac{71}{16{,}2} = 4{,}38\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{23}\cdot 3{,}30}\cdot 100\% = \frac{0{,}62}{4{,}8\cdot 3{,}30}\cdot 100\% = \frac{62}{15{,}84} = 3{,}91\%$$

$$a_x \in \left[3{,}45 - \frac{1{,}96}{4{,}7}\cdot 0{,}71;\ 3{,}45 + \frac{1{,}96}{4{,}7}\cdot 0{,}71\right] = [3{,}16;\ 3{,}74]$$

$$a_y \in \left[3{,}30 - \frac{1{,}96}{3{,}8}\cdot 0{,}62;\ 3{,}30 + \frac{1{,}96}{3{,}8}\cdot 0{,}62\right] = [2{;}99\ 3{,}61]$$

Ushbu hisoblarni tajriba oxirida qanday natijalarga ega ekanligini hisoblab chiqamiz:

$$\overline{x_o} = \frac{1}{22}\cdot(6\cdot 5 + 9\cdot 4 + 7\cdot 3) = \frac{1}{22}\cdot(30 + 36 + 21) = \frac{87}{22} = 3{,}95$$

$$\overline{y_o} = \frac{1}{23}\cdot(3\cdot 5 + 4\cdot 4 + 16\cdot 3) = \frac{1}{23}\cdot(15 + 16 + 48) = \frac{79}{23} = 3{,}43$$

$$\eta_i = \frac{\overline{x_o}}{y_o} = \frac{3{,}95}{3{,}43} = 1{,}15$$ nisbiy o‘sish.

Demak, tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan tajriba oxirida 1,15 barobar (15%) yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldilar.

Agar tajriba boshiga nisbatan taqqoslaydigan bo‘lsak u holda:

tajriba guruhida $\eta_m = \frac{\overline{x_o}}{x_б} = \frac{3{,}95}{3{,}45} = 1{,}14,$

nazorat guruhida $\eta_н = \frac{\overline{y_o}}{y_б} = \frac{3{,}43}{3{,}30} = 1{,}03$ samaradorlikka erishilgan.

$$S_x^2 = \frac{1}{22}\cdot(6(5-3{,}95)^2 + 9(4-3{,}95)^2 + 7(3-3{,}95)^2) = \frac{1}{22}\cdot(6\cdot 1{,}05^2 + 9\cdot 0{,}05^2 + 7\cdot 0{,}95^2) =$$

$$= \frac{1}{22}\cdot(6\cdot 1{,}10 + 9\cdot 0{,}0025 + 7\cdot 0{,}90) = \frac{1}{22}\cdot(6{,}6 + 0{,}02 + 6{,}31) = \frac{12{.}93}{22} = 0{,}58$$

$$S_x = \sqrt{S_x^2} = \sqrt{0{,}58} = 0{,}76$$

$$S_y^2 = \frac{1}{23}\cdot(3(5-3{,}43)^2 + 4(4-3{,}43)^2 + 16(3-3{,}43)^2) = \frac{1}{23}\cdot(3\cdot 1{,}57^2 + 4\cdot 0{,}57^2 + 16\cdot 0{,}43^2) =$$

$$= \frac{1}{23}\cdot(3\cdot 2{,}46 + 4\cdot 0{,}32 + 16\cdot 0{,}18) = \frac{1}{23}\cdot(7{,}38 + 1{,}28 + 2{,}88) = \frac{11{,}54}{23} = 0{,}50$$

$$S_y = \sqrt{S_y^2} = \sqrt{0{,}50} = 0{,}70$$

O‘rtacha qiymatlar aniqlanish ko‘rsatkichlari:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{22}\cdot 3{,}95}\cdot 100\% = \frac{0{,}76}{4{,}7\cdot 3{,}95}\cdot 100\% = \frac{76}{18{,}56} = 4{,}09\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{23}\cdot 3{,}43}\cdot 100\% = \frac{0{,}70}{4{,}8\cdot 3{,}43}\cdot 100\% = \frac{70}{16{,}46} = 4{,}25\%$$

$$a_x \in \left[3{,}95 - \frac{1{,}96}{4{,}7}\cdot 0{,}76;\ 3{,}95 + \frac{1{,}96}{4{,}7}\cdot 0{,}76\right] = [3{,}64;\ 4{,}26]$$

$$a_y \in \left[3{,}3 - \frac{1{,}96}{4{,}8}\cdot 0{,}70;\ 3{,}3 + \frac{1{,}96}{4{,}8}\cdot 0{,}70\right] = [3{,}02;\ 3{,}58]$$

Har bir bosqich bo‘yicha olingan natijalar matematik-statistik tahlil qilindi va ushbu natijalarga ko‘ra Styudent mezoni orqali tekshirilib, xulosalar chiqarildi.

$$T = \frac{\left|\overline{x_б} - \overline{x_o}\right|}{\sqrt{\frac{S^2_{x_б}}{n} + \frac{S^2_{x_o}}{n}}}$$

Tajriba guruhi:

$$\overline{x_б} = 3{,}45 \quad \text{va} \quad \overline{x_o} = 3{,}95$$

$\eta_m = 1{,}14$ samaradorlik koeffitsenti.

$$T_m = \frac{|3{,}45 - 3{,}95|}{\sqrt{\frac{0{,}51 + 0{,}58}{22}}} = \frac{0{,}5}{\sqrt{0{,}019}} = \frac{0{,}5}{0{,}13} = 3{,}84$$

$T_m = 3{,}84 > T_{0{,}96}(t) = 1{,}96$ Demak, N_1 faraz qabul qilinadi.

Nazorat guruhi:

$$\overline{y_б} = 3{,}3 \quad \text{va} \quad \overline{y_o} = 3{,}43$$

$\eta_н = 1{,}03$ samaradorlik koeffitsiyenti.

$$T_н = \frac{|3{,}3 - 3{,}43|}{\sqrt{\frac{0{,}38 + 0{,}50}{23}}} = \frac{0{,}13}{\sqrt{0{,}038}} = \frac{0{,}13}{0{,}19} = 0{,}68$$

$T_n = 0{,}68 < 1{,}96$ bo‘lib, N0 faraz qabul qilinadi.

O‘quvchilar bilimlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari

2-jadval. O‘quvchilarning «Ona tili» fani bo‘yicha mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik darajasi

№	Ko‘rsatkichlar	Maktab	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
			Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
1	O‘rtacha arifmetik qiymat $(\bar{x}, \bar{y})$	277	3,45	3,95	3,30	3,43
2.	Samaradorlik ko‘rsatkichi (h	277	1,14		1,03	
3.	O‘rtacha qiymat ishonch oralig‘i $(a_x \in, \ a_y \in)$	277	[3,16; 3,74]	[3,64; 4,26]	[2.99; 3,61]	[3,02; 3,58]
4.	O‘rtacha qiymat standart xatoligi (S_x, S_y)	277	0,71	0,76	0,62	0,70
5.	Aniqlanish ko‘rsatkichi (S_x, S_y)	277	4,38%	4,09%	3,91%	6,25%
6.	Styudent (T) mezoni	277	3,84		0,68	
7.	Ko‘rsatkichlar natijasi	277	N_1 faraz qabul qilinadi.		N_0 faraz qabul qilinadi.	

Demak, 2-jadvallarga asosan tajriba guruhida qo‘llanilgan metodika nazorat guruhiga nisbatan samarali ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalar tahliliga asosan o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarining shakllanganligini to‘rt darajaga ajratdik.

I darajada o‘quvchilar mustaqil ta’lim olishning ma’naviy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarini hisobga olish bilangina cheklandilar. Mustaqil ta’lim darajalarini baholashda qiyinchiliklarga duch keldilar.


II darajada o‘quvchilar mustaqil ish bajarish uchun lozim bo‘ladigan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan foydalanishga harakat qilishadi. Formulalarni keltirib chiqaradi, berilgan namunalarga asoslanib mantiqiy yechimlar topadi, rekonstruktiv – variativ mustaqil ishlarni bajara olishadi.

III darajada o‘quvchilar mukammal bilimga ega bo‘lish uchun mustaqil ta’lim bilan shug‘ullanish lozimligini anglab yetdilar. Texnik-metodik muammolarni yechishda ijodkorlik darajalari yetarli.

IV darajada o‘quvchilar mustaqil ta’lim olish metodlari, vositalari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladilar, olingan ma’lumotlarni tahlil qila oldilar.

O‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari «Ona tili» fani bo‘yicha o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish va mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda tajriba guruhlarida 1,14 barobar va nazorat guruhlarida 1,03 barobar samaradorlikka, erishilganligini ko‘rsatdi.

Natijalar asosida o‘quvchilarning «Ona tili» fani bo‘yicha mustaqil ishlash va bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatgichlarining qiyosiy tahlili quyidagi gistogrammada berildi (7-rasm).



7-rasm. Tajriba va sinov guruhlarining natijalari gistogrammasi

Gistogrammadan ko‘rinib turibdiki, mustaqil ta’lim olish shakllari, metodlari va vositalaridan unumli foydalangan holda yuqori baho olgan tajriba guruhi o‘quvchilarida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik ko‘rsatgichlari natijalariga ko‘ra 31 % dan 68% foizga, nazorat guruhlarida 22% dan 30% foizga oshgan.

XULOSALAR

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish. Bu tavsiyalar turli yosh guruhlari va o‘quv fanlariga moslashtirilgan mustaqil ishni tashkil etishning aniq metodlari, usullari va shakllarini o‘z ichiga olishi kerak.

2. O‘quvchilarning mustaqil ishini nazorat qilish va baholash tizimini yaratish. O‘quv vazifalarini bajarishda o‘quvchilarning mustaqillik, faollik va mas’uliyat darajasini xolisona baholash imkonini beruvchi baholash mezonlarini ishlab chiqish lozim.

3. O‘quv jarayoniga o‘quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini rag‘batlantiruvchi interfaol ta’lim metodlarini joriy etish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, loyiha faoliyati, muammoli ta’lim va boshqa faol metodlar o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi.

4. O‘qituvchilar bilan o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish sohasida ularning malakasini oshirish bo‘yicha tizimli ish olib borish. O‘qituvchilar o‘quvchilar mustaqilligini rivojlantirishning zamonaviy metodikalari va texnologiyalari bilan tanishishlari mumkin bo‘lgan seminarlar, treninglar va mahorat darslarini tashkil etish kerak.

5. O‘quvchilarning turli bilim sohalarida mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan fakultativ mashg‘ulotlar va to‘garaklar dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish. Bu o‘quvchilarga bilimlarini chuqurlashtirish, qobiliyatlari va qiziqishlarini rivojlantirish, shuningdek, mustaqil ravishda bilim olish va amalda qo‘llashni o‘rganish imkonini beradi.

6. Bolalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish masalalari bo‘yicha ota-onalar bilan tushuntirish ishlarini olib borish. Ota-onalar bolaning muvaffaqiyatli o‘qishi va rivojlanishi uchun mustaqillikning ahamiyatini tushunishlari, shuningdek, mustaqil ishni tashkil etishda unga zarur ko‘mak va yordam ko‘rsata olishlari muhimdir.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003, 277,- 174 bet.

2. Bloom B.S. A taxonomy of Educational Objectives: Handbook I: The Cognitive Domain. Harvow, 1956.

3. Воробьев А.Л., Лиманский С.А, Каримов И.Г.. Трудовое обучение: Учебник для 5 класса общеобразовательной школы. – Т.: O‘qituvchi, 1991. – 120 с.

4. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: IRPO, 1995. – 336 с.

5. Громсева А.К. Самообразование учащихся средних профтехучилищ. – Москва: Высшая школа, 1987 г.

6. Демидова С.И., Денищева Л.О. Самостоятельная деятельность учащихся при обучении математике. – М.: Просвещение, 1985.- 189 с.

7. Климов Е.А. Психолого-педагогические проблемы профессиональной консультации. – М.: Знание, 1983. – 96 с.

8. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004. - 128 b.

9. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU, 2006. - 46 b.

10. Musurmonov R., Qahhorova F. Tajriba-sinovishlarini tashkil etishning ilmiy-amaliyasoslari. – T.: Fan, 2007.

11. Нишоналиев У.Н. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перстпективы. – T.: FAN, 1995. – 85 с.

12. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogic texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003 – 172 b.

13. Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi yo‘nalishi bakalavr o‘qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta’limning ilmiy – metodik asoslari», 2008.

ORCID HTTPS:// 0009-0003-1823-9087

UZLUKSIZ TA’LIM JARAYONIDA INKLYUZIV TA’LIM UZVIYLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI



Dildora Rasuleva

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Ushbu maqolada yurtimizda joriy qilinayotgan inklyuziv ta’lim tizimining takomillashuvi hamda rivojlantirish maqsadida hukumat tomonidan me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi hamda qator vazifalar yuklatilganligi haqidagi tahlillar va inklyuziv ta’lim jarayonlari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim sinflari faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi hamda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi joriy qilinganligi haqida so‘z boradi.

Shuningdek, ko‘ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog va xodimlarining o‘zaro hamkorlik ishlarining holati hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va xodimlarining alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchiga dars berish uchun yetarli bilim, ko‘nikma, malakalarining qay darajada ekanligini aniqlash jarayonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, integratsiya, alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar, individual qobiliyatlar, kompetensiya, o‘zaro hamkorlik modeli, texnologiya, empatiya.

KIRISH

Jahon miqyosida juda ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish bo‘yicha tadqiqotchilar tomonidan amaliy tajribalar olib borilmoqda. Tadqiqotchi N.S. Groznayaning, aksariyat mamlakatlarda ta’limni isloh qilish ko‘plab olimlar, sotsiologlar va siyosatchilar tomonidan jamiyatning ijtimoiy integratsiyasi va birlashishiga erishish asosiy vositasi sifatida qaraladi. Bu bilan bog‘liq muammolarga yechim izlash nafaqat Shimoliy Amerika, G‘arbiy Yevropa va Avstraliyaga, balki Sharqiy Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlariga ham xosdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda maktablar va umuman ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy tamoyili sifatida inklyuziv ta’lim g‘oyasi ko‘p jihatdan BMT, xususan, YUNESKOning Barcha uchun ta’lim 2000-yilda ishga tushirilgan loyihasi ko‘magi tufayli juda faol rivojlanmoqda, deb fikr bildirgan[1].

Irlandiya tadqiqotchilari Y.O. Kornen va Sh. Drudi mamlakatdagi o‘rta ta’lim maktablarida inklyuziya amaliyotining rivojlanishini o‘rganishga bag‘ishlangan izlanishlarida alohida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun mas’ul bo‘lgan o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini tadqiq etgan. Irlandiyada bunday toifadagi o‘qituvchilar alohida ta’limga ehtiyoji bor bolalarni qo‘llab-quvvatlovchi resurs o‘qituvchilari deb ataladi. Olimlar inklyuziv ta’limni boshqarish va muvofiqlashtirish borasidagi irlandiyalik o‘qituvchining ish vazifalari aniq belgilanmaganligi va uning faoliyati ta’lim kontekstiga qarab farq qilishini ko‘rsatadilar.

O‘qituvchilarning inklyuziya sharoitida ishlashi uchun zarur bo‘lgan kasbiy tayyorlash an’anaviy ta’lim tizimida ikkinchi darajali bo‘lgani, tibbiy yordam sohasi bilan bog‘langanligi, shuningdek, o‘qituvchilar inklyuziv ta’limda faoliyat ko‘rsatish uchun emas, ko‘proq maxsus pedagogika uchun tayyorlanishi aniqlangan. Inklyuziya ta’limi sharoitida ishlaydigan o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash tizimini qayta ko‘rib chiqish va uni moslanuvchan qilish zarurligi asoslab berilgan[2].

Y.B. Ketrish o‘qituvchilarning inklyuziv muhitda ishlashi uchun zarur psixologik va pedagogik tayyorgarligi, individual o‘quv ehtiyojlarini hisobga oluvchi metodika va yondashuvlarga ega bo‘lishlari haqida ma’lumot bergan. Shuningdek, unda inklyuziv ta’limning o‘ziga xos jihatlari, o‘quvchilarning turli ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda dars o‘tish usullaridan unumli foydalanish kerakligini bildirgan [3].

Hozirgi kunda ko‘plab davlatlar qatori O‘zbekistonda ham alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ta’lim va tarbiya olishlari, ularning haq-huquqlari qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yildi hamda bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta’limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta’minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda, deb ta’kidlaganlar [4].

U. Fayziyevaning fikricha, inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchining inklyuziv ta’lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish va unga amal qilish, pedagog xodimlarining malaka oshirish kurslari uchun ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim o‘quv modulini joriy etish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun moslashtirilgan o‘quv dasturlar, dars ishlanmalari namunalarini yaratish, bolalarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish o‘qituvchining inkyuziv ta’lim sohasidagi metodik kompetentligini rivojlanishiga xizmat qiladi, deb ta’kidlagan[5].

D.S. Qaxarovaning fikricha, inklyuziv ta’lim texnologiyasi – uzluksiz ta’lim tizimida maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun mehribonlik bilan tizimli yondashadigan, individuallashgan, sharoitga qarab o‘zgaruvchan, maxsus o‘quv dasturlari, materiallari, vositalari va metodlari yordamida ta’lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik jihatlarini zamonaviy talablarga mos olib boriladigan jarayondir [6].

Tadqiqotchilardan D.Elmuratova, N.Misirovalarning adabiyotlarida ta’sir ko‘rsata olishi qobiliyati – o‘qituvchining eng asosiy qobiliyatidir. U ta’sir ko‘rsatishi uchun o‘quvchisini va o‘sha paytdagi o‘quvchining holatini, qalbini yaxshi bilmog‘i darkor. O‘qituvchi o‘quvchiga ta’limiy-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsata olmasa, uning barcha harakatlari zoye ketadi[7].

METODOLOGIYA VA METODLAR

Inklyuziv ta’limda to‘siqlarsiz muhitni tashkil qilish ta’lim tashkilotlarida panduslar borligi, maktabning bir qavatli dizayni, umumiy foydalanish joylarini qayta jihozlash, shtatlar jadvaliga mutaxassis defektologlarni kiritishgina emas, balki keng tarqalgan stereotiplar va noto‘g‘ri tushunishlar, shu jumladan, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalarning integratsiyaga tayyorligi yoki rad etishidan iborat ijtimoiy xususiyatli qiyinchiliklar ham mavjud.

Shu munosabat bilan inklyuziv ta’lim g‘oyalarini amaliyotga joriy qilish, avvalambor, maktab jamoasi tomonidan inklyuziya qadriyatlarini tan olish, har bir bolani uning boshlanishdagi imkoniyatlaridan qat’i nazar, rivojlanishga ehtiyojini amalga oshirish, individuallikni qo‘llab-quvvatlash zarurligini tushunish bilan bog‘liq ta’lim muassasasining inklyuziv madaniyatini yaratish metodini nazarda tutadi[8].

Tadqiqotchilar «Ta’lim va tarbiyani tashkil etishga qo‘yiladigan talablardan biri mutaxassislarning alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchini rivojlanish yo‘nalishini shakllantirish ishtiroki sodir bo‘lganlarning ish jarayoni tuzatish ishlarini tashkil etishda, o‘quvchilarning ehtiyojla-

---

[1] Н. С. Грозная. Инклюзивное образование за рубежом. От мечты к реальности// Журнал «Синдром Дауна. XXI век», № 1 (6). Стр 34. https://psyjournals.ru/journals/sdXXI/archive/2011_n1/sdXXI_2011_n1_47744.

[2] Корнен Э., Друди Ш.О. Потребностях профессионального развития учителей, работающих в области специального образования (инклюзии) в обшеобразовательных школах Ирландии // Исследования особых образовательных потребностей. – 2010. – Вип. 10. - № 1. – С – 157. http://proquest.umi.com/pqdwebdid/ (Дата доступа 18.12.2021)

[3] Кетриш Е.Б. Готовность педагога к работе в условиях инклюзивного образования. – Екатеринбург: РГППУ, 2018. – Стр – 105

[4] Qodirova F.U., Pulatova D.A. Inklyuziv ta’lim: Nazariya va metodika. – Chirchiq: 2022. – 4 b. https://devedu.uz/wp-content/uploads/2024/05/4-Inklyuziv-talim-nazariya-va-metodika.

[5] Usmonova D.T. Bo‘lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirish // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2022. № 6.2. Maxsus son. – 270 b. http://interscience.uz

[6] Qaxarova D.S. Umumta’lim maktablarida inkluziv ta’imning pedagogik-psixolog jihatlarini takomillashtirish. – Samarqand: Fan va texnologiya, 2019. https://kitobxon.com/oz/kitob/inklyuziv-talim-texnologiyasi

[7] Elmuratova D., Misirova N. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Guliston., 2021. – 161 b.

[8] Qodirova F.U., Pulatova D.A. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. – Chirchiq, 2022. 25 b. https://devedu.uz/wp-content/uploads/2024/05/4-Inklyuziv-talim-nazariya-va-metodika.

riga moslashtirilgan dastur va uslubiy hujjatlarni ishlab chiqishni taqozo etadi», deb qayd etganlar[9].

Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari va xodimlarining umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va xodimlari o‘rtasida hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yilishida:

1. Ko‘ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov guruhi ota-onalarning farzandlarini boshlang‘ich sinfga o‘tish davridagi his-tuyg‘ulari aniqlashtirish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi.

2. Inklyuziv ta’lim jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va xodimlarining va ko‘ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog va xodimlarining alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga va inklyuziv ta’lim jarayoniga munosabati, inklyuziv ta’lim tushunchasi, vazifalari, tamoyillari, o‘zaro hamkorlik ishlarining yo‘lga qo‘yilganligini aniqlash maqsadida inklyuziv ta’limga bo‘lgan munosabat bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi.

3. O‘zaro hamkorlik modeli yaratildi.

4. Pedagog xodimlarning empatik qobiliyatlarini o‘rganish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi.


5. Ota-ona, alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchi, o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabat bo‘yicha psixodrama o‘tkazildi.

6. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik dasturini tayyorlash amalga oshirildi.

NATIJALAR

Ko‘ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov guruhi ota-onalarning farzandlarini boshlang‘ich sinfga o‘tish davridagi his-tuyg‘ulari aniqlashtirish bo‘yicha so‘rovnoma javoblari tahlili eng yuqori 70 foizni «Qiziq, bu o‘qituvchi yaxshimikan?» degan savolga ota-onalar tomonidan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga nisbatan yaxshi munosabat qayd etilgan.

Farzandim umumiy maktabda o‘qishga qodirmikan hamda o‘qituvchi farzandimni o‘ziga xos xususiyatlarini tushunarmikan (?) savollarga eng kam 10 foizi farzandlariga ishonchsizlik, o‘qituvchilar bilan hamsuhbat bo‘lmaganliklari ma’lum bo‘ldi.



1-rasm. Boshlang‘ich ta’limga o‘tish davrida ota-onalarning his-tuyg‘ularini aniqlashtiruvchi so‘rovnoma natijalari

Ushbu javoblar tahlili natijasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va pedagog xodimlari hamda ko‘ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog va xodimlarining inklyuziv ta’lim jarayoni haqidagi tushunchalarini va unga munosabatini aniqlovchi 12 ta savoldan iborat 3 ta asosiy mezon asosida tuzilgan anketa-so‘rovnoma ishlab chiqildi.

Ta’lim olish imkoniyati, sizningcha … ochiq savoliga ko‘ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagog va xodimlari tomonidan 15 nafari (58 %i) bolalarning barcha toifalari uchun ta’lim tashkilotlarining arxitekturaviy qulayligi javobi belgilangan. Respondentlarning 8 nafari (31 %i) alohida ta’limga ehtiyojli bolaning individual o‘rganish javobini belgilagan. 3 nafar (11 %i) tomonidan esa ta’lim tashkilotlarining mavjudligi javobi ko‘rsatilgan.

Berilgan javoblar tahlil qilinganda inklyuziv ta’limda shart-sharoit muhimligi aniqlandi.

Ta’lim barcha bolalar uchun bir xil bo‘lishini ta’minlash uchun…… ochiq savolga pedagog va xodimlarning 14 nafari (54 %i) yangi ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqilishi alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi javobi berilgan. 10 nafari (38 %i) pedagoglarning insonparvarlik tamoyillari asosida qayta tayyorlash javobi belgilangan. 2 nafar (8 %i) ta’lim tashkilotlari binolarini panduslar, liftlar, Brayl yozuvidagi belgilar bilan jihozlash kerak javobi ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu javoblarda alohida ta’limga ega bolaga individual yondashish kerakligi aks etgan.

Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchiga dars berish uchun sertifikatga egamisiz? savoliga pedagog va xodimlarning 15 nafari (61 %i) ha javobini belgilagan, 3 nafari (11 % i) malaka oshirmaganman javobini qayd etgan. 8 nafari (28 %i) yo‘q javobi ko‘rsatilgan.

Asosan pedagoglar sertifikatga ega ekanliklari namoyon bo‘ldi.

Ko‘ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tahkilotlarida alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar bilan olib borilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonlari bilan tanishmisiz (?) savolga 24 nafari (92 %i) tanishman javobini belgilagan. 2 nafari esa (8 %i) ehtiyoj sezmaganliklari bildirilgan.

Pedagoglarning aksariyati ushbu jarayon ishtirokchilari ekanliklari, yangi ish boshlagan xodimlar bu jarayon bilan tanish emasliklari ma’lum bo‘ldi.

Agar sizda yangi inklyuziya o‘quv dasturini ishlab chiqish imkoni bo‘lsa, u nimani o‘z ichiga olgan bo‘lardi (?) savolga 20 nafari tomonidan (77 %i) bolalarga individual yondashish kerakligini alohida ta’kidlangan. 6 nafari (23 %i) esa xorijiy davlatlar ish tajribalarini tatbiq etilishi kerakligi belgilangan.

Alohida ta’limga ega bolalar bilan ishlashda individual yondashish asosiy o‘rinni egallashi aniqlandi.

Sizningcha, inklyuziya o‘qituvchilari alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarni maktab jamoasiga qo‘shilishlariga yordam berish uchun nima qilishi mumkin (?) savolga respondentlarning 19 nafar (76 %i) pedagog va xodimlar tyutor bilan hamkorlikda ishlash kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan. 7 nafari (24 %i) tomonidan alohida yondashuv asosida qo‘llab-quvvatlash kerakligi qayd etilgan.

Ushbu javoblarda inklyuziv ta’lim jarayonida maxsus pedagog yordami muhimligi ma’lum bo‘ldi.

Kasbiy o‘sish masalalariga qanday qaraysiz (?) savolga 10 nafari (38 %i) kasbiy o‘sish va o‘z-o‘zini tarbiyalash mening tabiiy ehtiyojim va men bunga ko‘p vaqt va kuch ajrataman javobini belgilagan. 13 nafari esa (50 %i) zamon talabi va men yangi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishim uchun moddiy investitsiyalarga tayyorliklari namoyon etilgan. Respondentlarning 3 nafari tomonidan (12 %i) esa mening bilimim yuqori degan javob berilgan.

[9] Ахметова Д.З., Тимирясова А.В., Челнокова Т.А. Инклюзивная педагогика. – Казань: Познание, 2019. Стр –162. https://ieml.ru/podrazdeleniya-universiteta/nii-pedagogical-innovation/poleznye-materialy/inklyuzivnaya-pedagogika-2019-uchebnoe-posobie.

Ushbu javoblar tahlilida pedagog va xodimlarning o‘z kasblariga mas’uliyat bilan yondashishlarini ko‘rsatdi.

Alohida ta’limga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlash yoki ular bilan muloqot qilishda shaxsiy tajribangiz bormi (?) savolga 23 nafari (88 %i) pedagog va xodimlar ijobiy javobni belgilagan. 3 nafari tomonidan (12 %i) esa tajribasi yo‘qligi qayd etilgan.

Pedagog va xodimlarning ko‘p yillik tajribaga ega ekanliklari aniqlandi.

Kasbiy tanlovingiz sizni qoniqtiradimi? savolga respondetlarning 14 nafari tomonidan (54 %i) to‘liq qoniqtiradi javobi belgilangan. 12 nafari tomonidan (46 %i) esa qoniqarli deb berilgan.

Ushbu savolga asosan pedagoglar tomonidan ijobiy munosabat bildirilgan.

Qanday professional natijalaringiz bilan faxrlanasiz (?) savolga 18 nafar respondentlar (69 %i) ijobiy javob belgilangan 3 nafari (11 %i) esa magistratura bosqichida ta’lim olishini, 5 nafari (20 %i) tomonidan tarbiyalanuvchilarni umumiy maktabga yo‘naltira olishidan faxrlanishi qayd etilgan.

O‘z kasblariga sodiqlik, kasbiy o‘sish hamda yutuqlaridan g‘ururlana olishlari aniqlandi.


Siz uchun qiziqarli ish bu …. ochiq savolga 10 nafari (38 %i) ijodiy javobni belgilashgan. 8 nafari (30 %i) odamlar bilan muloqot qilish bilan bog‘liq javobi berilgan. 8 nafari (32 %i) esa xohlagan mashg‘ulot bilan shug‘ullanish javobi ko‘rsatilgan.

Javoblar tahlilida pedagog va xodimlarning ijodkorlik, muloqotchanlik, rivojlanishda bardavomlik aks etgan.

Hozirda faoliyatingizda qanday qiyinchiliklarga duch kelyapsiz? savoliga 18 nafar (69 %i) pedagog va xodimlar tomonidan ota-onalar bilan ishlashdagi tushunmovchiliklar haqidagi fikrlar bildirilgan. 8 nafari (31 %i) esa komissiya orqali noto‘g‘ri tashxis qo‘yib jo‘natilgan bolalar bilan ishlashdagi qiyinchiliklar qayd etilgan.

Ota-onalarning emotsional holatlari, komissiyada bolalarni qisqa vaqt mobaynida to‘liq o‘rganilmaslik oqibatida bolaga tashxis noto‘g‘ri qo‘yilishi sabali muammolar yuzaga kelishi aniqlandi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra 272-sonli ko‘ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat yurituvchi pedagog va xodimlarning inklyuziv ta’lim tushunchasi, ta’lim jarayonlarini tashkil etilishi, alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar bilan ishlash malakalari hamda kasbiy o‘sish bo‘yicha shaxsiy fikrlari ijobiyligi namoyon bo‘ldi.



2-rasm. 272-sonli ko‘ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog va xodimlarining inklyuziv ta’limga bo‘lgan munosabat bo‘yicha so‘rovnoma natijalarining ko‘rsatkichlari

So‘rovnomaning 2 va 4 savollarga berilgan javoblar yuqori 92 foizni ko‘rsatdi. Ushbu savollarga ta’lim barcha bolalar uchun bir xil bo‘lishini ta’minlash kerakligi haqida ijobiy fikrlar qayd etilgan. 9-savolga berilgan javoblar esa 55 foizni ko‘rsatdi. Tanlagan kasblaridan qisman qoniqishlarini bildirganliklari aks etgan.

XULOSA

Uzluksiz ta’lim jarayonida inklyuziv ta’lim uzviyligini ta’minlashda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va xodimlari alohida ta’limga ega bolalarga ta’lim berishda, o‘quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini rejalashtirish, korreksion-rivojlantiruvchi muhitni yaratish va bu ishlarni olib borishda qiyinchiliklarga duch kelish ehtimoli borligi, inklyuziv muhitni tashkil etish va inklyuziv sinfni yaratish har doim ham oson emasligi ma’lumdir.

Olib boriilgan tadqiqot natijalaridan quyidagilarni xulosa qilamiz.

1. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malaka oshirish kurslarida alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash bo‘yicha fanlarni o‘quv dasturiga qo‘yish;

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi va ko‘ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha seminarlar tashkil etish;

3. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda individual rivojlanish xaritasi hamda dasturini tuzish.

4. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va xodimlar inklyuziv ta’lim jarayonida pedagogik faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini o‘stirish, o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish, erishilgan yutuqlar va kamchiliklarni tahlil qilishda samarali usullardan foydalanish;

5. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarning pedagogik, psixologik hamda tibbiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilishda maktab psixologi, logopedi, hamshirasi, jismoniy tarbiya, musiqa fani o‘qituvchilari bilan hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yish;

6. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga inklyuziv ta’lim jarayonida nafaqat o‘z pedagogik faoliyatining afzalliklari va kamchiliklarini baholashga, balki o‘quvchilarning kuchli tomonlariga qarab ta’lim jarayonini rejalashtirishni amalga oshirish;

7. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchida o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, ko‘nikma va qobiliyatini rivojlantirishda ota-onalar bilan alohida ishlar olib borish inklyuziv ta’lim jarayonini sifatli tashkil etilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA IQTIBOSLAR

1. Н.С. Грозная. Инклюзивное образование за рубежом. От мечты к реальности// Журнал «Синдром Дауна. XXI век», № 1 (6). Стр 34.

2. Корнен Э., Друди Ш.О. Потребностях профессионального развития учителей, работаюших в области специального образования (инклюзии) в обшеобразовательных школах Ирландии // Исследования особых образовательных потребностей. – 2010. – Вип. 10. - № 1. – С – 157. http://proquest.umi.com/pqdweb-did/ (Дата доступа 18.12.2021)

3. Кетриш Е.Б. Готовность педагога к работе в условиях инклюзивного образования. – Екатеринбург: РГППУ, 2018. – Стр – 105.

4. Usmonova D.T. Bo‘lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirish -//Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2022. №6.2. Maxsus son. – 270 b. http://interscience.uz

5. Qaxarova D.S. Umumta’lim maktablarida inkluziv ta’limning pedagogik-psixolog jihatlarini takomillashtirish. – Samarqand: Fan va texnologiya, 2019. https://kitobxon.com/oz/kitob/inklyuziv-talim-texnologiyasi

6. Elmuratova D., Misirova N. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Guliston, 2021. – 161 b.

7. Rasuleva D.Y. Inklyuziv ta’lim jarayonida maktabgacha va boshlang’ich ta’lim pedagoglarining hamkorlik ishlarini takomillashtirish // J.Modern science and research. 2024. № 3(2), –611 b.

8. Qodirova F.U., Pulatova D.A. Inklyuziv ta’lim:Nazariya va metodika.– Chirchiq: 2022. – 4 b. https://devedu.uz/wp-content/uploads/2024/05/4-Inklyuziv-talim-nazariya-va-metodika.

9. Qodirova F.U., Pulatova D.A. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. –Chirchiq, 2022. – 25 b https://devedu.uz/wp-content/uploads/2024/05/4-Inklyuziv-talim-nazariya-va-metodika.

10. Ахметова, Д. З., Тимирясова А. В., Челнокова Т. А. Инклюзивная педагогика. Казань: Познание, 2019. Стр – 162.

https://ieml.ru/podrazdeleniya-universiteta/nii-pedagogical-innovation/poleznye-materialy/inklyuzivnaya-pedagogika-2019-uchebnoe-posobie.

12. https://uz.vogueindustry.com/17189861-how-to-develop-empathy-exercises-and-types-of-empathy

ORCID:0009-0005-926-9315

O‘YIN TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA AUTIZM SINDROMI BOLALARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu maqolada autizm sindromi, uning turlari, autizm sindromli bolalarda mavjud ijokorlik qobiliyatlarini aniqlash usullari va ijodkorlik qobiliyatlarini o‘yin texnologiyalari asosida rivojlantirish texnologiyalari haqida so‘z yuritilgan.

Jamiyatimizda so‘nggi yillarda autizm sindromli bolalar sonining tobora ortib borish muammolari, iqtidorli autizm sindromli bolalarning jamiyatga sotsialashuv muammolari, ushbu muammolarni yechish usullari, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini erta aniqlash, maxsus tashkil etilgan korreksion mashg‘ulotlar davomida rivojlantirish bosqichlari, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalarining ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: dars, autizm, sindrom, Asperger sindromi, qobiliyat, ijodkorlik, o‘yin, texnologiya, korreksion mashg‘ulotlar, sotsiallashuv muammolari.

KIRISH

Jahonda hozirgi kunda alohida yordamga muhtoj bolalarni o‘rganish, ulardagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, ularni oldini olish, maxsus yordamga muhtoj bolalarga ta’lim-tarbiya berish, ulardagi nuqsonlarni korreksiyalash bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Ayni paytda autizm spektrining buzilishi nafaqat tibbiy, ijtimoiy, balki psixologik-pedagogik muammo sifatida ham ko‘rib chiqiladi.

Agar 2000-yilda Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra autizmning tarqalishi har 10 ming bolada 5 tadan 26 tagacha bo‘lgan bo‘lsa, 2005-yilda 250–300 nafar yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga bitta autizm holati to‘g‘ri kelgan, 2008-yilda har bir chaqaloqqa bitta autizm holati to‘g‘ri kelgan. O‘g‘il bolalar orasida kasallikning tarqalishi qiz bolalarga qaraganda yuqori bo‘lib, har 42 kishiga 1 tani tashkil qiladi.

Bu esa mavjud amaliy tajribani o‘rganish hamda korreksion ishlarning yangi usullarini ishlab chiqishni dolzarb qilib qo‘yadi. Oxirgi 10 yil ichida autizm sindromiga chalingan bolalar soni 10 barobar oshgan. Bu sindrom avvaliga 100000 kishidan 3–4 tasida namoyon etilgan bo‘lsa, 2000-yilga kelib, 10000 kishidan 5–20 tasida uchragan. 2008-yilga kelib har 150 boladan biriga autizm sindromi tashxisi qo‘yilgan. Bugungi kunda esa har 54 boladan birida autizm muammosi mavjud.

Autizmning tarqalishi ham vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, butun dunyo bo‘ylab so‘nggi bir necha o‘n yilliklarda sezilarli darajada oshdi. Misol uchun, Qo‘shma Shtatlarda autizmning tarqalishi 2000-yilda 150 boladan 1 tadan 2018-yilda 44 boladan 1 tagacha oshdi. Autizm darajasining bunday o‘sishining sabablari to‘liq aniq emas, ammo tashxisning yaxshilanishi, xabardorlikni oshirish va diagnostika mezonlarining o‘zgarishi yordam beruvchi omillar deb hisoblanadi.

Autizm darajasining oshishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan genetik, ekologik va boshqa omillarning mumkin bo‘lgan roli bo‘yicha tadqiqotlar davom etmoqda. Bolalar rivojlanishidagi nuqson sabablari va hayotning birinchi yilidagi bolalar o‘limi Rossiya Federatsiyasida va bir qator dunyo mamlakatlari (Angliya, Germamaniya, Shvetsiya, Yaponiya) davlatlarida bu ko‘rsatkichlar 1– 3 o‘rinlarni egallaydi[1].

O‘zbekiston aholisi so‘nggi yillarda barqaror o‘sib, 34,6 million kishiga yetdi. Nogironlarning rasmiy soni, ya’ni aholining 2,1 foizi, butun dunyo bo‘ylab odamlarning taxminan 15 foizida rivojlanishda nuqson mavjud. O‘zbekistonda 2023-yilda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, aholining qariyb 13,5 foizi 3 yoshgacha bolalar orasida va 3,5 foizida esa og‘ir rivojlanishda nuqsoni bor bolalar tashkil etadi[2]. Bu yo‘nalishda O‘zbekistonda autizm sindromi har 100 ming boladan 384 tasida uchraydi. O‘zbekiston dunyo mamlakatlari ichida 78 pog‘onada qayd etilgan.

Autizm – aqliy rivojlanishning buzilishi bo‘lib, u ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning yetishmasligi, boshqa odamlar bilan muloqot qilishda o‘zaro aloqada qiyinchilik, takroriy harakatlar va cheklangan qiziqishlar bilan birga keladi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Autizm sindromli bolalarda mavjud qobiliyatlarni aniqlash maqsadida biz pedagogik ishimizni Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanida joylashgan 25– maxsus imkoniyati cheklangan o‘quvchilar ta’limi uchun mo‘ljallangan maxsus maktabning quyi 4-sinflarida tashkil etdik. Pedagogik ishimiz uchun ixtisoslashtirilgan maktab quyi 4-sinflarning 10 nafar autizm sindromli o‘quvchilari saralab olindi.

Autizm sindromli bolalarning ota-onalari bilan «anketa-so‘rovnoma» usuli hamda qobiliyatni aniqlash testidan foydalanildi. Ota-onalarning bergan javoblari asnosida autism sindromli bolalarda mavjud qobiliyatlarni aniqlash maqsadida «Ijodiy tasvir» hamda «Ijodiy kuy» metodikalaridan foydalanildi.

Tajriba sinov ishlari 2-bosqichda amalga oshirildi. Dastlabki ta’kidlovchi tadqiqot 2023-yilning oktabr oyining 9-sanasidan 13-sanasiga qadar Toshkent shahar Yakkasaroy tumanida joylashgan 25-alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktabda tashkil etildi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘dirmaslik uchun barcha kerakli ko‘rsatmalar va yordamlar berildi. Tadqiqotning har bir bosqichida o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘nalishda boshqarish va yo‘riqnomalarga amal qilish uchun o‘qituvchi, to‘garak rahbarlari va ota-onalarning ko‘magi muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari tahlil qilinayotganda o‘quvchilarning shaxsiy psixologik xususiyatlari va qiziqishlari inobatga olindi. Olingan natijalar asosida autizm sindromli bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini o‘yin texnologiyalari asosida rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot yakunida autizm sindromli bolalarning ijodkorlik qobiliyatlari didaktik o‘yinlar asosida rivojlantirildi va bu o‘yinlar yordamida ularning estetik didi shakllandi. Tasavvur, diqqat, xotira hamda mantiqiy tafakkur kabi bilish jarayonlari ham rivojlandi. Bu esa tadqiqotning muvaffaqiyatli o‘tkazilishiga zamin yaratdi.

NATIJALAR

Tadqiqotning dastlabki bosqichida o‘quvchilarning shaxsiy hujjatlari bilan tanishib chiqildi

Izoh 1. O‘quvchilarning shaxsiy hujjatlarini o‘rganish asnosida autizm sindromli bolalardagi sensor buzilishlar, autostimulyatsion takroriy harakatlar, aksariyat bolalarda muloqot ko‘nikmalarining shakllanmaganligi, tabiatan kamgapligi, ularning qiziqishlari aniqlandi.

Tajriba sinov ishlarining keyingi bosqichida saralab olingan autizm sindromli bolalarning ota-onalari bilan individual tarzda suhbatlar tashkil etildi. Tashkil etilgan suhbatlar davomida anketa – so‘rovnoma o‘tkazildi (1-jadval).

1-jadval

«Anketa – so‘rovnoma»
bo‘yicha olingan natijalar

№	Savollar	«Ha»	«Yo‘q»
1.	Farzandingiz rasm chizishga qiziqadimi?	6 (60%)	4 (40%)
2.	Farzandingiz rangli qalamlarni, bo‘yoqlarni ko‘rganda sensor ta’sirlanadi–mi?	5 (50%)	5 (50%)
3.	Farzandingiz rangli kitoblarni ko‘rganda sensor ta’sirlanadimi?	6 (60%)	4 (40%)
4.	Farzandingiz qalamni mustaqil ushlab, rasm chiza oladimi?	2 (20%)	8 (80%)
5.	Musiqa ovozini eshitganda quloqlarini yopadimi?	3 (30%)	7 (70%)
6.	Musiqa ovozini eshitganda musiqa to‘lqiniga mos harakatlar qiladimi?	2 (20%)	8 (80%)
7.	Musiqa asboblarini birinchi ko‘rganda reaksiya bildiradimi(ushlab ko‘rishga qiziqadimi)?	6 (60%)	4 (40%)
8.	Musiqa asboblarni chalishni biladimi?	2 (20%)	8 (80%)

[1] Маматкулов Б.М., Авезова Г.С. «Врожденные аномалии как причина детской инвалидности (по материалам Ташкента Узбекистан). Наука молодых. - 2015г.

[2] Всемирная организация здравоохранения и Всемирный банк. 2011 г. Всемирный доклад об инвалидности. https://www.who.int/teams/noncommunicable-diseases/sensory-functions-disability-and-rehabilitation/world-report-ondisability.

Dastlabki anketa – so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ***«Farzandingiz rasm chizishga qiziqadimi? «*** savoliga 10 nafar ota-onadan 6 nafari (60%) «ha», qolgan 4 nafari (40%) «yo‘q» deb javob berdi.

«Farzandingiz rangli qalamlarni, bo‘yoqlarni ko‘rganda sensor ta’-sirlanadimi?» savoliga 10 nafar ota-onadan 5 nafari (50%) «ha», qolgan 5 nafari (50%) «yo‘q» deb javob berdi.

«Farzandingiz rangli kitoblarni ko‘rganda sensor ta’sirlanadimi?» savoliga 10 nafar ota-onadan 6 nafari (60%) «ha», qolgan 4 nafari (40%) «yo‘q» deb javob berdi.

«Farzandingiz qalamni mustaqil ushlab, rasm chiza oladimi?» savoliga 10

nafar ota-onadan 2 nafari (20%) «ha», qolgan 8 nafari (80%) «yo‘q» deb javob berdi.

«Musiqa ovozini eshitganda quloqlarini yopadimi?» savoliga 10 nafar ota-onadan 3 nafari (30%) «ha», qolgan 7 nafari (70%) «yo‘q» deb javob berdi.

«Musiqa ovozini eshitganda musiqa to‘lqiniga mos harakatlar qiladimi?» savoliga 10 nafar ota-onadan 2 nafari (20%) «ha», qolgan 8 nafari (80%) «yo‘q» deb javob berdi.

«Musiqa asboblarini birinchi ko‘rganda reaksiya bildiradimi (ushlab ko‘rishga qiziqadimi)?» savoliga 10 nafar ota-onadan 6 nafari (60%) «ha», qolgan 4 nafari (40%) «yo‘q» deb javob berdi.

«Musiqa asboblarini chalishni biladimi?» savoliga 10 nafar ota-onadan 2 nafari (20%) «ha», qolgan 8 nafari (80%) «yo‘q» deb javob berdi.

Izoh 2. Aksariyat «yo‘q javob variantini ota-onalar bilan suhbat qurilganda ularning farzandlariga kamroq vaqt ajratishlari hamda asosiy vaqtlari ishda o‘tishi ma’lum bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida ularning farzandlari haqida kamroq ma’lumotga ega ekanliklarini tasdiqlaydi.

«Ha» javob variantlarini tanlagan bolalarning ota-onalari farzandlariga ko‘proq vaqt ajratishlari, ularning rivojlanishiga qayg‘urishlari ma’lum bo‘ldi. Aksariyat ota-onalar farzandlariga ko‘proq kitoblar sotib olishlari, ularning bo‘sh vaqtlarida birga rasm chizishlari, musiqa tinglashlari ma’lum bo‘ldi.

«Anketa-so‘rovnoma» natijalarining tahlili asosida guruhdagi autizm sindromli bolalarning 60 % musiqa chalishni, kuy ovozlarini yaxshi ko‘rishi, qolgan 40 foiz bolalarda aksincha musiqa ovozidan qo‘rqishlari, kuyga nisbatan reaksiyaning yo‘qligi aniqlandi. Bundan tashqari aksariyat o‘quvchilarning musiqaga ham bo‘lgan qiziqishlari ochiqlandi.

«Qobiliyatni aniqlash testi»ning 1-yo‘nalishi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra**,** *«Ritm, kuyga tez va yaxshi javob beradi, doimo musiqaga diqqat bilan quloq soladi»* punkti bo‘yicha 10 nafar ota-onadan yuqori ball to‘plagan ota-onalar kuzatilmadi, 4 nafari (40%) o‘rta ball, 4 nafari (40%) past ball, 2 nafari (20%) juda past ball to‘pladi.

«Yaxshi kuylaydi» punkti bo‘yicha 10 nafar ota-onadan 1 nafari (10%) yuqori ball to‘pladi, 5 nafari (50%) o‘rta ball, 4 nafari (40%) past ball to‘plagan. Juda past ball to‘plagan ota-onalar kuzatilmadi.

«Cholg‘u asboblarini chalishga, qo‘shiq kuylashga, raqs tushishga ko‘p vaqt

sarflaydi» punkti bo‘yicha 10 nafar ota-onadan yuqor ball to‘plagan ota-onalar kuzatilmadi, 4 nafari (40%) o‘rta ball, 4 nafari (40%) past ball, 2 nafari (20%) juda past ball to‘pladi.

«Imkon qadar ko‘p musiqa eshitishni xohlaydi» punkti bo‘yicha 10 nafar ota-onadan yuqor ball to‘plagan ota-onalar kuzatilmadi, 4 nafari (40%) o‘rta ball, 4 nafari (40%) past ball to‘plagan. Juda past ball ham kuzatilmadi.

«Original o‘z kuy va qo‘shiqlarini yaratadi» punkti bo‘yicha 10 nafar ota-onadan yuqor ball to‘plagan ota-onalar kuzatilmadi, 4 nafari (40%) o‘rta ball, 4 nafari (40%) past ball, 2 nafari (20%) juda past ball to‘pladi.

«Bironta musiqiy asbobni yaxshi chaladi» punkti bo‘yicha 10 nafar ota-onadan yuqor ball to‘plagan ota-onalar kuzatilmadi, 2 nafari (20%) o‘rta ball, 6 nafari (60%) past ball, 2 nafari (20%) juda past ball to‘pladi (2-jadval).

2-jadval. Autizm sindromli bolalarning musiqiy qobiliyatlarini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar (1-yo‘nalish)

№	Musiqiy qobiliyatni aniqlash testi bo‘yicha	Yuqori	O‘rta	Past	Juda past
1.	Ritm, kuyga tez va yaxshi javob beradi, doimo musiqaga diqqat bilan quloq soladi.	0	4 (40%)	4 (40%)	2 (20%)
2.	Yaxshi kuylaydi.	1 (10%)	5 (50%)	4 (40%)	0
3.	Cholg‘u asboblarini chalishga, qo‘shiq kuylashga, raqs tushishga ko‘p vaqt sarflaydi.	0	4 (40%)	4 (40%)	2 (20%)
4.	Imkon qadar ko‘p musiqa eshitishni xohlaydi.	0	6 (60%)	4 (40%)	0
5.	Original o‘z kuy va qo‘shiqlarini yaratadi.	0	4 (40%)	4 (40%)	2 (20%)
6.	Bironta musiqiy asbobni yaxshi chaladi.	0	2 (20%)	6(60%)	(20%)

Izoh 3. Qobiliyatni aniqlash testining 1-yo‘nalishi bo‘yicha olingan natijalar asosida sinfdagi 60% bola musiqa eshitishni xohlashi, yaxshi kuylay olishi, musi– qiy asbobni esa 20% o‘quvchi o‘rta darajada chala olishi aniqlandi.

«Qobiliyatni aniqlash testi»ning 2-yo‘nalishi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, *«San’at asarlariga munosabat jiddiy. Chiroyli rasm, hikoya, bezatilgan narsalarni ko‘rganda mulohaza yuritadi»* punkti bo‘yicha 10 nafar ota-onadan yuqori ball to‘plagan ota-onalar kuzatilmadi, 2 nafari (20%) o‘rta ball, 5 nafari (50%) past ball, 3 nafari (30%) juda past ball to‘pladi (3-jadval).

3-jadval. Autizm sindromli bolalarning rasm chizish qobiliyatlarini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar (2-yo‘nalish)

№	Rasm chizish qobiliyatni aniqlash testi bo‘yicha	Yuqori	O‘rta	Past	Juda past
1.	San’at asarlariga munosabat jiddiy. Chiroyli rasm, hikoya, bezatilgan narsalarni ko‘rganda mulohaza yuritadi.	0	2 (20%)	5 (50%)	3 (30%)
2.	Syujet tanlashda o‘ziga xos, gullardan, toshlardan va boshqa narsalardan g‘aroyib kompozitsiyalar yaratadi.	1 (10%)	5 (50%)	4 (40%)	0
3.	Bo‘sh vaqti bo‘lganda mamnuniyat bilan rasm chizadi.	0	4 (40%)	4 (40%)	2 (20%)
4.	Rasm chizish bilan o‘z tuyg‘ularini ifodalaydi.	0	6 (60%)	4 (40%)	0
5.	San’at asarlariga qiziqadi. O‘ziga yoqqanlarini qayta yaratishga urinadi.	0	5 (50%)	4 (40%)	1 (10%)
6.	Rangli qalamlarni, rangli bo‘yoqlarni yaxshi ko‘radi.	0	4 (40%)	4 (40%)	2 (20%)

Ta’limiy tadqiqotning dastlabki bosqichida ota-onalar bilan hamkorlikda ishlandi va ta’kidlovchi tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlar tahlil qilindi. Ota-onalar bilan suhbatlar davomida farzandlarining individual – shaxsiy xususiyatlari atroflicha o‘rganildi, bolalarning yoqtirgan mashg‘ulotlari, sevimli o‘yinlari, o‘yinchoqlari aniqlandi.

O‘quvchilarning texnologiya, musiqa darslarida darslarga bo‘lgan qiziqishlari, darsga bo‘lgan munosabatlari, o‘qituvchining yangi mavzu bayoniga yondashish texnologiyalari tahlil qilindi.

Ta’kidlovchi tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlar asosida dastur ishlab chiqildi. Dasturning asosiy maqsadlari:

– mavjud muammolarni bartaraf etish;

– autizm sindromli o‘quvchilarda mavjud qobiliyatlarni rivojlantirish;

– ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantiruvchi o‘yin texnogiyalarni bolalarning indivi– dual xususiyatlarini inobatga olgan holda saralash;

– autizm sindromli bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni tashkil qilishda texnologiya hamda musiqa ustozlar bilan birgalikda o‘yin texnologiyalarini amaliyotga joriy etish;

– autizm sindromli bolalarning hissiy – irodaviy sohalarini rivojlantirish;

– autizm sindromli bolalarning estetik didini shakllantirish, tasavvurini boyitish;

– musiqiy ritmik darslar orqali ularning fonematik idrokini rivojlantirish;

– logoritmika darslari orqali umumiy va mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish;

– o‘yin texnologiyalari yordamida autizm sindromli o‘quvchilarning rasm chizishga bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirish.

XULOSA

Psixologik va pedagogik adabiyotlarni o‘rganib chiqib, autizm sindromiga ega maktab yoshdagi bolalarda ruhiy va aqliy jarayonlarning rivojlanishi o‘ziga xos degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bunday bolalar sekin, atipik va ko‘pincha sezilarli og‘ishlarga ega bo‘lsa ham rivojlanish qobiliyatiga ega.

O‘tkazilgan eksperimental tadqiqot nazariy ma’lumotlarni tasdiqladi:

1. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktablarda ta’lim oluvchilar orasida autizm sindromli o‘quvchilar o‘ziga xos individual xususiyatlari bilan boshqa o‘quvchilardan farq qiladi.

2. Autizm – yopiq ichki hayotning ustunligi, tashqi dunyodan faol chekinish va his-tuyg‘ularning zaifligi tavsiflangan holat bo‘lib, har bir individning ma’lum sohaga xos qiziqishlari, ijodiy qobiliyatlari bo‘lgani kabi, autizm bolalar ham ma’lum ijodkorlik qobiliyatlari bilan boshqa bolalardan farq qiladi.

3. Nazariy to‘plangan ma’lumotlarga ko‘ra, autizm bolalar ko‘proq matematika, rasm chizish, musiqa kuylashga, konstruktiv qobiliyatlarga ega bo‘lishadi. Mutaxassis sifatida biz bolalarni darslar davomida kuzatib, ularning qiziqishlari to‘g‘risida tahlillarni to‘g‘ri yig‘a olishimiz lozim bo‘lib, vaqtida aniqlangan qobiliyat kelajakda autizm sindromli bolaning muvaffaqiyatga erishish kaliti bo‘lishi mumkin.

4. Ijodkorlikning barcha turlari autizmli bolaga va uning ota-onasiga bolaning kuchli tomonlarini aniqlashga yordam beradi va har qanday sohada iste’dodning ajoyib qirralarini kashf qiladi. Shuni esda tutish kerakki, bolalarning ko‘p qirrali qobiliyatlarini va iste’dodlari erta yoshda sezilishi mumkin, shuning uchun bolaga, ehtimol, daho qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish uchun autistik bolalarning manfaatlarini ko‘zlash kerak.

5. Ota-onalar bilan o‘tkazilgan anamnestik so‘rov hamda qobiliyatni aniqlash testlari orqali autizm sindromli bolalar atrofdagilar bilan muloqot qilishni yoqtirmasliklari, tabiatan kamgap, ba’zilari musiqiy kuylarni yaxshi ko‘rishlari, ba’zilari esa kuy ovozidan qo‘rqishlari ulardagi sensor buzilishlarini keltirib chiqishi aniqlandi. Autizm sindromli bolalar bilan o‘tkazilgan metodikalar natijalariga ko‘ra aksariyat bolalarda biror faoliyat turiga nisbatan qobiliyat borligi hamda ularni o‘yin faoliyati davomida rivojlantirish mumkin degan xulosaga kelindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–4947-son Farmoni. 2017-yil 7-fevral // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda; 20-son, 354-modda; 23-son, 448-modda.

3. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Pre

zidentining PF–5270-son Farmoni. 2017-yil 1-dekabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» №4860 sonli qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 13-sentyabrdagi «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari

to‘g‘risidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi 256-sonli qarori.

7. Артемова Л.В. Окружающий мир в дидактических играх дошкольников / Л.В. Артемова. – М., 2014. – 150.

9. Бондаренко А.К. Дидактические игрьг в детском саду: кн. Для воспитателя дет. сада / А. К. Бондаренко. – М.: Просвешение, 2019. – 160

10. Монтессори М. Научная педагогика. Том 1. Дом ребѐнка. — М.: Народная книга, 2014

11. Играем, развиваемся, растѐм: дидактические игрь для детей дошкольного возраста / сост. Н. В. Нишева. – СПб: ООО Издвательство «Детство– ПРЕСС», 2010. – 370

12. Катаева А. А. Дидактические игрь и упражнения в обучении умственно отстальх дошкольников / А. А. Катаева, Е. А. Стребелева. – М., 2013.

13. Леонтьев А. Н. Психологические основы детской игры: избранные психологические произведения /А. Н. Леонтьев. – М.: Педагогика, 2009.

14. Лубовский В. И. Развитие словесной регуляции детей /В. И. Лубовский. – М., 2014.

15. Макаренко А. С. Педагогические сочинения: соч. в 7– ми т. А. С. Макаренко. – 2010, – 272 с.

16. Морозова Н. Г. Формирование познавательньх интересов у аномальньх детей / Н. Г. Морозова, – М., 2013.

17. Обухова Л. Ф. Детская психология: теория, факть, проблемь / Л. Ф. Обухова. – М., 2012.

18. Водинская М.В., Шапиро М.С. Развитие творческих способностей ребенка на занятиях изобразительной деятельностью// Лечебная педагогика: методические разработки // Изд: Теревинф, 2006 г

19. Чуркин А.А. Практическое руководство по применению МКБ–10 в психиатрии и наркологии / А. А. Чуркин, Н. А. Мартюшов. М.: Изд– во ГНЦ СиСП им. В. П. Сербского, 2004. – 140 с.

20. Симашкова Наталья Валентиновна. Атипичный аутизм в детском возрасте. Автореферат. Доктора медицинских наук. – Москва: 2006. – 6–17стр

21. С.В. Башаев. Развитие психофизических качеств у детей с аутизмом 8– 10 лет средствами игровой деятельности: Автореферат. маг.дисс. – Тольятти: ИФКИС, 2017. – 21 стр.

22. Завитаев Петр Юрьевич.Клиническая семантика аутизм. Avtoreferat. Кандидат медицинских наук. – Санкт– Петербург: 2008. – 15стр – 30 стр.

23. http//www.ziyonet.uz.

24. http://www. pedagog. uz

25. http://www. wikipedia. uz

26. http://www. edu. uz

27. http://tdpu– INTRANET. Ped

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/0009-0006-3313-3418

ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMI RAHBARLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Umida Sobirova



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Mazkur maqolada zamonaviy rahbar xodimlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirish, ijtimoiy, emotsional va kognitiv komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlash, empatiya hissi, refleksiya darajasi, ijtimoiy va psixologik jihatlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy izlanishlarga e’tibor kuchaytirishga qaratilgan.

Bu borada pedagogik jamoada rahbar va xodim munosabatlari tizimining psixologik imkoniyatlarini rivojlantirish, rahbarlikning turli bo‘g‘inlarida va sohalarida ijtimoiy-psixologik kompetentlikni takomillashtirish, kompetentlikning mohiyati, uning ijtimoiy-psixologik jihatlari, faoliyati, sohani rivojlanishidagi ahamiyati va psixologik ta’sir darajalari masalalarini ilmiy tadqiq etish zarurati kuzatilmoqda.

Kalit so‘zlar: Maktab, o‘quvchi, rahbar, amaliyot dafatari, stajirovka, kompetentlik, ilmiy rahbar, ijtimoiy-psixologik.

KIRISH

Jahonda rahbar shaxsi, uning kasbiy va shaxsiy sifatlari, boshqaruv uslubi, kattalar ta'limi asosida rahbarlar va ularning o'rinbosarlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimidagi oddiy zaruratga aylanishi muhim va jahonda dolzarb ahamiyatli muammolardan bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimini rivojlanishi har qanday sohani ravnaq topishiga olib keladigan muhim bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi.

Chunki azal-azaldan davlat va jamiyatning barcha tarmoqlari, sohalari hamda yo'nalishlarni rivojlanishning asosi bo'lgan ta'lim tizimiga e'tibor qaratib kelinganligi sababli mamlakatimizdan buyuk olimlar, yozuvchilar, allomalar, mutafakkirlar, sarkardalar yetishib chiqib asrlar osha milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz va urf-odatlarimizni dunyo hamjamiyati oldida yorqin namuna sifatida ko'rsata olganlar.

Jahon ta'limi va ilmiy markazlarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda ta'lim muassasasi rahbarlari, rahbar o'rinbosarlarining boshqaruv tizimini yangi bosqichga chiqarishga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish uchun umumta'lim muassasalari bo'lgan maktab ta'limida liderlikni zamonaviy tushuncha sifatida taqdim etib, unga ko'ra liderlik – boshqaruv vakolatlari faqat bir kishi tomonidan amalga oshirilmay, balki maktabdagi boshqa xodimlarga ham yuklatilishi mumkinligini va zamon talablariga mos ravishda yondashuvni amalga oshirishga e'tibor qaratish zaruratini yuzaga keltiradi.

Respublikamizda so'nggi yillarda rahbarlik, boshqaruv, rahbar xodimlar faoliyatini takomillashtirish, boshqaruv kadrlarining qayta tayyorlash va malakasini oshirish sifatini tubdan isloh qilish bilan bog'liq huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi.

Rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan xalq ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi, xalq ta'limini boshqaruv tizimining psixologik xususiyatlarini ilmiy o'rganishga zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»[1], 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»,[2] 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risid»[3]gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-sentabrdagi VM 745-son «Boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir normativ-huquq hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»[4]gi qarori hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda muhim manba sanaladi.

Yu.A.Konarjevskiy, M.Meskon, N.Trenevlarning fikricha, boshqaruv alohida soha bo'lib, unga ta'lim va tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin emas. Lekin ta'lim, tarbiya jarayonining samaradorligi bevosita rahbar shaxsining ijobiy psixologik kompetentligiga va boshqaruv mahoratiga bog'liqdir. Ular rahbarlarning emotsional intellektini rivojlantirish zarurligini ta'kidlashadi. «Boshqaruv rahbarlarning o'z hissiyotlarini va boshqalarni tushunish, boshqarish va ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishdagi rolini aniqlaydi. Goleman psixologik kompetentlikning rahbarlik samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan»[5].

N.P.Fetinskiy, V.V.Kozlov, G.M.Msnuylovlarning fikricha, ijtimoiy-psixologik kontekst shaxsni o'rganishda atrof-muhit va ijtimoiy omillarni hisobga olishni anglatadi, shaxsning rivojlanishi va xulq-atvori ko'plab ijtimoiy omillarga bog'liq. Shaxsning oilaviy munosabatlari va ota-onaning o'zaro aloqalari, bolaning hayotdagi dastlabki o'rganish tajribasini shakllantiradi va har bir ijtimoiy guruhda shaxs turli rollarni bajaradi. Masalan, o'qituvchi, do'st, ota yoki xodim kabi rollar shaxsni ijtimoiy tizimda shakllantiradi, xulq-atvori jamiyat tomonidan belgilangan qoidalar va qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxsni o'rganishning ijtimoiy-psixologik konteksti va kichik guruhlar ta'siri shaxsning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhit, guruhdagi aloqalar va madaniyat shaxsning psixologik holatiga va uning jamiyatdagi o'rnini aniqlashda muhim omillar hisoblanadi.

«Zamonaviy psixologiyada, bir tomondan, ba'zi psixologlarning shaxsni u yashaydigan va shakllanayotgan jamoadan alohida o'rganish tendentsiyasi mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamoani o'rganuvchi mutaxassislarning unutish tendentsiyasi mavjud va u o'ziga xos individual xususiyatlarga ega bo'lgan aniq shaxslardan iborat[6]», deb tavsiya bergan.

Ch.L.Barnard, F.U.Teylor, A. Fatolyu, R.A. Yaytlarning «Management of the educational system»[7] kitobida ta'lim tizimini boshqarish hamda rahbar shaxsiga qo'yiladigan talablar tadqiq etilgan. Boshqaruv tizimida odillik, bilimga chanqoqlik, hech qanday manfaatga uchmaslik, boshqaruvning eng odil hakam bo'lishiga olib keladi. Tadqiqotda rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini shakllanishiga oid nazariy-metodologik yondashuvlarni mazmun-mohiyati tahliliy yoritib berilgan bo'lib, bunda asosan boshqaruv jarayonlarini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan masalalarni ilmiy asoslab berish nazarda tutilganligi haqida yoritib bergan.

G.S.Suxobskaya esa «Rahbar xodimning ijtimoiy-psixologik kompetentligi jamoa bilan hamkorlikdagi faoliyatini yo'lga qo'ya olishi bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarida kuzatiladi»[8], degan fikrni bildirgan.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Maqolamiz maqsadidan kelib chiqqan holda Zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirishda rahbarlarning o'z-o'zini tahlil qilish, faoliyatini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish ularning shaxsiy, professional ijtimoiy-psixologik kompetentlikning oshishiga olib kelishiga bo'lgan qiziqishi psixologik omillari sifatida tanlab olindi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni http://lex.uz/docs/3107036

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «Xalq ta'limi tizimini ivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son farmoni

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-son farmoni

[4] O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 2017-yil 8-avgust // https://lex.uz/docs/-3358139

[5] Шепель В.М. Управленческая психология. – Москва: Экономика, 1994.– 129 с.

[6] Шепель В.М. Управленческая психология. – Москва: Экономика, 1994.– 110 с.

[7] Барнард Ч.Л., Тейлор Ф. У., Яйт Р.А. Management of the educational system. Дарслик. – М.: Мир, 2013. – 133 б.

[8] Сухобская Г.С. Директор школы как андрагог и психолог управление: Диссертатsiя. к.пед.н. – Москва: МГУ, 2001. – 133 с.

Aynan shu omillar asosida Rensis Likertning mualliflik huquqi asosida tayyorlangan «Boshqaruv uslubini o‘z-o‘zini baholash metodikasi[9]» nomli so‘rovnomasi, Lev Vygotskiyning «O‘qituvchi faoliyati uslubini o‘rganish[10]» nomli mualliflik so‘rovnomalari ilmiy ishning mavzusini o‘rganishda asosiy metodikalar sifatida foydalanildi.

Tajriba sinovlarni samarali olib borish uchun Olmazor tumani 278-maktab tanlab olindi. Maktab ichki tartib-qoidalari bilan tanishildi. Maktab psixologi va o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlar tashkil etildi. Mazkur ishda maktab Rahbari va fan o‘qituvchilari, jami 100 nafar pedagog tanlab olindi.

Bunda o‘quvchilarga ma’lumotlar taqdim etildi. Shundan so‘ng tanlab olingan 2 ta metodikaning yo‘riqnomalari bilan tanishtirildi. Berilgan vaqt oralig‘ida har bir o‘qituvchi so‘rovnoma varaqasini yo‘riqnoma asosida to‘ldirib berdi. So‘rovnoma davomida o‘quvchilarda yuzaga kelgan barcha savollarga oydinlik kiritildi.

O‘quvchilarga qiyinchilik tug‘dirmaslik uchun barcha kerakli ko‘rsatmalar va yordamlar berildi. Jarayonda pedagoglarni rag‘batlantirish maqsadida, ularning faol ishtirokini ta’minlash uchun bir qancha qo‘shimcha usullar qo‘llanildi. Tadqiqotning har bir bosqichida o‘qituvchilarni to‘g‘ri yo‘nalishda boshqarish va yo‘riqnomalarga amal qilish uchun va psixologlarning ko‘magi juda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, natijalar tahlil qilinayotganda Rahbarlar emotsiyalarini boshqarish va boshqa odamlarning emotsiyalarini tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish, hissiyotlarini tahlil qilish, stressni boshqarish, va emotsional holatlarni tartibga solish bo‘yicha psixologik mashqlarni o‘tkazish tavsiya etildi.


Olingan natijalar asosida rahbar va o‘qituvchilarning psixologik va ta’lim jarayonida qanday qo‘llab-quvvatlanishi kerakligi haqida tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot yakunida pedagoglar va maktab psixologi o‘rtasida samarali hamkorlik aloqalari rivojlandi, iliq taassurotlar bilan yakunlandi. Tadqiqotni olib borishdan oldin o‘quvchilarga tadqiqot to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etildi. Shundan so‘ng tanlab olingan 2 ta metodikaning yo‘riqnomalari bilan tanishtirildi. Berilgan vaqt oralig‘ida har bir o‘quvchi so‘rovnoma varaqasini yo‘riqnoma asosida to‘ldirib berdi. O‘quvchilarda yuzaga kelgan barcha savollarga oydinlik kiritildi.

Pedagoglarga qiyinchilik tug‘dirmaslik uchun barcha kerakli ko‘rsatmalar va yordamlar berildi. O‘quvchilarni rag‘batlantirish maqsadida, ularning faol ishtirokini ta’minlash uchun bir qancha qo‘shimcha usullar qo‘llanildi. Har bir bosqichda o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘nalishda boshqarish va yo‘riqnomalarga amal qilish uchun o‘qituvchilar va psixologlarning ko‘magi muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari tahlil qilinayotganda o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va ularning o‘qishdagi muvaffaqiyatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar inobatga olindi. Olingan natijalar asosida o‘qituvchilarning psixologik va ta’lim jihatdan qanday qo‘llab-quvvatlanishi kerakligi haqida tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot yakunida rahbar, o‘qituvchilar va maktab psixologi o‘rtasida samarali hamkorlik aloqalari rivojlandi, bu esa tadqiqotning muvaffaqiyatli o‘tkazilishiga zamin yaratdi.

NATIJALAR

O‘qituvchi faoliyati uslubini o‘rganish metodikasi, o‘qituvchining pedagogik jarayondagi samaradorligini tahlil qilish va uning professional rivojlanishiga yordam beruvchi muhim vositadir. Ushbu metodika orqali o‘qituvchining ta’lim jarayonini boshqarish, talabalarga individual yondashish va o‘z salohiyatini rivojlantirishdagi faoliyati o‘rganiladi.



1 -rasm. O‘qituvchi faoliyati uslubini o‘rganish metodikasi bo‘yicha umumiy olingan natijalar

O‘qituvchi faoliyati uslubini o‘rganish metodikasi bo‘yicha umumiy olingan natijalarga ko‘ra, hissiy-tayyorgarliksiz uslub shkalasi bo‘yicha o‘qituvchilarning 30%i natijani qayd etdi. Demak, bu o‘qituvchining o‘quvchilarga ta’lim jarayonida hissiy qo‘llab-quvvatlashni yetarlicha taqdim eta olmasligi. O‘qituvchi o‘z his-tuyg‘ularini va talabalar bilan hissiy aloqani o‘rnatishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining psixologik holatini va ehtiyojlarini hisobga olmay, ularga quruq va emotsional jihatdan bo‘sh dars o‘tadi. Bu holat o‘qituvchining **empatiya, motivatsiya berish** va **hissiy qo‘llab-quvvatlash** kabi psixologik jihatlardagi kamchiliklarni ko‘rsatadi.


Keyingi hissiy-rejali uslub shkalasi bo‘yicha 85% ni ko‘rsatdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi nafaqat o‘quv jarayonini tashkil etish, balki talabalar bilan **hissiy aloqalarni** o‘rnatishga ham katta e’tibor qaratadi. O‘qituvchi talabalarning ruhiy holatini tushunadi, ularni qo‘llab-quvvatlaydi va o‘quvchilar bilan ijobiy muloqotga kirishadi. Bu uslubda o‘qituvchining **empatiya** ko‘rsatish qobiliyati kuchli bo‘lib, u talabalar bilan o‘zaro hissiy aloqani rivojlantirishga harakat qiladi.

Navbatdagi fikriy-tayyorgarliksiz uslub shkalasi bo‘yicha respondentlar 25% ni tashkil qildi. O‘qituvchining darsni puxta rejalashtirmasligi va o‘quv jarayonining maqsadlari va vazifalarini aniqlamasligidan dalolat beradi. Bunda o‘qituvchi darsda fikriy o‘zgarishlar kiritish, talabalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishda kamchiliklar ko‘rsatadi. Bu uslubda o‘qituvchining kognitiv yondashuvi yetarli darajada rivojlanmagan va o‘qituvchi talabalar fikrini rivojlantirishga yetarli darajada e’tibor bermaydi. Psixologik nuqtayi nazardan, fikriy tayorgarliksizlik talabalar o‘rtasida noaniqlik va motivatsiya yo‘qligini keltirib chiqarishi mumkin.

Oxirgi fikriy-rejali uslub shkalasi bo‘yicha respondentlar 90% natijani qayd etdi. Demak, o‘qituvchi ta’lim jarayonini puxta rejalashtiradi, har bir darsning maqsadini va vazifasini aniq belgilaydi. O‘qituvchi talabalarning fikrini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi va darsni samarali tashkil etadi. Bunda o‘qituvchining kognitiv ko‘nikmalari va pedagogik mahorati yuqori darajada bo‘lib, u o‘quvchilarga kerakli bilim va ko‘nikmalarni aniq yetkazib beradi. Psixologik jihatdan, bu uslub talabalarda iqtisodiy va intellektual motivatsiyani oshiradi. Talabalar o‘zlariga aniq yo‘nalishlar va maqsadlar belgilanishi tufayli o‘z salohiyatlarini yaxshilashga intilishadi.

Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan natijalarning tahlili quyidagi rasmda ifodalangan.

[9] Likert Rensis B. Руководство персоналом организации : Автореферат. кандидат педагогических наук. Москва – 2012. – 30 с.
[10] Vgotskiy L.S. Педагогическая психология: Учебное пособие. – Москва: Роботник просвещения, 2002. – 65 с.



2-rasm. Boshqaruv uslubida o‘z-o‘zini baholash metodikasi bo‘yicha olingan natijalar

Boshqaruv uslubida o‘z-o‘zini baholash metodikasining so‘rovnomalari o‘qituvchilaridan olingan umumiy natijalarga ko‘ra, avtoritar shkalasi bo‘yicha o‘qituvchilarning past darajani 20%ni qayd etdi. Bunga ko‘ra, respondentlar lider bo‘lish istagi past darajada ifodalanadi, boshqarishning beqaror malakasiga egalik, o‘ziga ishonuvchanlik, qaysarlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazishga intilish, qoloq va layoqatsiz o‘quvchilarni tanqid qilishga moyillik bilan baholanadi.

Aynan shu shkalaning o‘rta darajasini 65% ni tashkil qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, respondentlar yaxshi lider xususiyatlarini ifodalab, o‘quvchilar harakatlarini boshqara olishlik, talabchanlik, majbur qilish va buyruq berish kuchi bilan o‘quvchilarga ta’sir qilishga intilish, maqsadga intiluvchanlik va xudbinlik, o‘quvchilar savollariga yuqoridan munosabatda bo‘lishadi.

Shunindek, o‘qituvchilar o‘rta darajani, ya’ni 50% ni qayd etdi. Bunda respondentlar liderlik xususiyatlarini yorqin nomoyon bo‘lishi va yakkahokimlikka intilish, talabchanlikda qattiqqo‘llik va qat’iylilik, o‘quvchilar tashabbusini hisobga olishni va mustaqil ishlashga imkon berishni bilmaslik, tanqid qilish va jazolashda keskinlik, jamoat fikrini mensimaslik bilan ifodalanadi.

Keyingi liberal shkalasi bo‘yicha past daraja 5% ni tashkil qildi. Demak, respondentlar o‘quvchilar bilan ishlashistagini beqarorligi, o‘quvchilar oldiga topshiriqlarni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik va ular bilan hamkorlikda ishlay olmaslik, o‘ziga ishonmaslik, talabchanlik va javobgarlikni his qilishning sustligi, o‘quvchilar kamchiligini tanqid qilishdagi impul’sivlikka moyil bo‘lishadi.

O‘rta darajani 10%i qayd etdi. Bundan ko‘rinadiki, respondentlar o‘quvchilarni boshqarishdagi passivlik, talab qilmaslik, ishonuvchanlik, qaror qabul qilish zaruriyati oldida hadiksirash, tartib buzarlarga o‘ta yumshoqlik bilan qarash, ko‘ndirishga moyillik bo‘ladi.

Yuqori darajada ham 10% ni tashkil etdi. Bunda respondentlar o‘quvchilar qiziqishlariga befarklik, qaror qabul qilish va javobgarlikni o‘z bo‘yniga olish istagining yo‘qligi, talab qilmaslik va boshqarishdan o‘zini olib qochish, irodaning bo‘shligi o‘z nuqtai nazarini ilgari sura olmaslik, faoliyat maqsadi va rejasining mavjud emasligi,beparvolik, oshna-og‘aynilikka moyillik bilan tavsiflanadi.

Navbatdagi demokratik shkalasi bo‘yicha respondentlarning 25%i qayd etdi. Bu respondentlar o‘quvchilarga yaqin bo‘lishga intilishning, hamkorlik qilishning va maslahatlashishning sustligi, ba’zi boshqaruvdagi yo‘llanmalarida ishonchsizlikka ham moyil bo‘lishadi. O‘rta darajani 85%i tashkil qildi. Respondentlar o‘quvchilar qiziqishlari bilan yashashga turg‘un intilishadi, hamkorlik va maslahatlashib faoliyat olib borishadi, o‘quvchilarga qayg‘urishadi, ularga ishonishadi, tashabbuslarini rag‘batlantirishadi va o‘quvchilar fikrini inobatga olishadi.

Yuqori darajada respondentlar 70% ni tashkil etdi. Demak, ular o‘quvchilar faoliyatini yo‘naltira olish, qobiliyatli o‘quvchilarga mustaqillik berish, tashabbus va yangi ish usullarini rivojlantirish, ma’naviy madad berish va ishontirish, munozarada adolatli va hushmuomalali bo‘lish, shaxs ibdividual xususiyatlarini va jamoa ijtimoiy-psixologik jarayonlarini o‘rganish, tanqid va oshkoralikni rivojlantirish, nizolarni bartaraf etish va yaxshi atmosferani yaratish bilan ifodalanadi.

Xulosalar

Zamonaviy ta’lim tizimi rahbari va o‘qituvchilari orasida olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan quyidagi xulosalarga ega bo‘lindi.

1. Ta’lim tizimi rahbarlari uchun ijtimoiy-psixologik bilimlarning rivojlanishi o‘qituvchilar va o‘quvchilarning psixologik holatini to‘g‘ri baholashiga, muammolarni hal etishiga yordam berishi hamda ular psixologik yordam ko‘rsatish, motivatsiya berish, konfliktlarni boshqarish kabi ko‘nikmalarni egallashlari lozim ekanligi asoslandi.

2. Empatiya va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish rahbarlarda o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan samarali muloqot qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘quvchilarning psixologik holatini tushunishga va ularning ehtiyojlariga javob berishga imkon yaratishi dalillandi.

3. Rahbarlarning o‘z-o‘zini tahlil qilish va faoliyatini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning shaxsiy, professional o‘sishiga, rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentlikning oshishiga olib kelishi isbotlandi.

4. Rahbarlar o‘zlari va o‘qituvchilarining stress darajasini boshqarish, ish motivatsiyasini oshirish va psixologik muvozanatni saqlashga yordam berishi muhim sanalishi ko‘rindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son farmoni http://ex.uz/docs/3107036

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «Xalq ta’limi tizimini ivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi «Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5538-son farmoni

4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2017-yil 8-avgust // https://lex.uz/docs/-3358139.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 16.08.1999. 399-son. https://lex.uz/docs/-6576269

6. Барнард Ч.Л., Тейлор Ф. У., Яйт Р.А. Management of the educational system. Дарслик. – М.: Мир, 2013. – 133 б.

7. Коновалова Т.Ю., Дерганее В.Ф. Социально-психологическая компетентност руководителя органов внутренных дел: Лекция. – Домодедова: ВИПК МВД Россия, 2002. – 32 с.

8. Осипова А.А. Общая психокоррекция. Учебное пособие. – Москва: Питер. 2001. – 274 с.

9. Пасленов А. Социално психологические механизмы формирования интеллектуално-корпоративной компетентности // Высшее образование в Росиии – 2007. -№6. – Б. 95-102.

10. Shoumarov G‘.B. Rahbar shaxsiga qo‘yilgan talablar. // Fan va texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2003. – 54 b.

11. G‘oziyev E.G‘. Sotsial psixologiya: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zMU, 2012. – 328 b.

12. Евсеев А.В. Формирование социально-психологической компетентности молодых руководителей: Диссертatsiя. к.психол.н. – Москва: РГБ ОД, 1998. – 244 с.

13. Сухобская Г.С. Директор школы как андрагог и психолог управление: Диссертация. к.пед.н. – Москва: МГУ, 2001. – 133 с.

14. Shonazarov A.M. Umumiy o‘rta talim maktablari direktorlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirish: Dissertatsiya. Psixalogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) – Toshkent.: TDPU, 2020. – 9 b.

15. Овчарова Е.В. Социально-психологическая компетентност будущих социалных психологов и технологии ее формирования в вузе: Автореферат. дис., к.психол.н. – Ярославл: ЯГУ, 2008. – 24 с.

16. Hayitov O.E. Oliy ta’lim muassasasi o‘rta bo‘g‘in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish: Avtoreferat. Psixologiya fanlari doktori. – Toshkent: TDPU, 2020. – 78 b.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0002-3701-7300

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA PEDAGOGIK O‘LCHOVLARNING DIDAKTIK VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Mazkur maqola O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimi sharoitida pedagogik o‘lchovlarning didaktik vazifalarini amalga oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirishga bag‘ishlangan.

Maqolada kredit-modul tizimining nazariy asoslari, uning O‘zbekistondagi ahamiyati va bu tizimning xalqaro tajribaga asoslangan holda rivojlantirilishi o‘rganilgan. Asosiy maqsad, kredit-modul tizimi doirasida ta’lim jarayonini samarali boshqarish va o‘quv jarayonidagi didaktik vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik o‘lchovlarning texnologiyalarini ishlab chiqishdir.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim tizimi, kredit-modul, o‘quv yuklama, masofaviy ta’lim, individual ta’lim, pedagogik shart-sharoitlar, Moodle ECTS, Kredit ta’limning o‘lchov birligi.

KIRISH

Jahonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligini ta'minlash, kasbiy-pedagogik faoliyatda innovatsion shakllantirish; ta'limda ilg'or texnologiya, didaktik vositalar va uskunalardan keng foydalanish, o'qitishning zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilib, Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlarda o'quv jarayonini European Credit Transfer and Accumulation System (ECTS) asosida ta'limning kredit-modul tizimini joriy etish, virtual loyihalash (Simulations), masofaviy ta'lim (Moodle, Ilias, Dokeos) shakllarini keng tatbiq etish, axborot-ta'lim muhiti (e-learning) sharoitida ta'limning amaliy yo'nalganligini ta'minlash, talabalarning akademik mobilligini takomillashtirish, innovatsion mutaxassis kadrlarning kasbiy-pedagogik mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kredit-modul tizimi ilk bor XIX asrning ikkinchi yarmida AQShda joriy etilgan. O'sha paytda mamlakat oliy ta'lim muassasalari qat'iy belgilab qo'yilgan o'quv dasturlari asosida faoliyat yuritgan. O'quv dasturlari, asosan, o'sha davr diniy falsafasi bilan bog'liq fanlardan tashkil topgan. Deyarli barcha universitetlarda lotin tili alohida fan sifatida o'qitilgan. Aslida bu paytga kelib lotin tili allaqachon o'lik tilga aylanib bo'lgan edi. Ya'ni, amaliyotda bu tilda deyarli ehtiyoj bo'lmagan. Universitet o'quv dasturlarida bu kabi amaliyotda ahamiyatini yo'qotgan fanlar ko'lami anchani tashkil qilgan. Natijada universitetlar mutaxassislar tayyorlaydigan dargoh emas, balki o'sha davrda aholining o'ziga to'q qatlami shunchaki obro' va to'kinlik belgisi sifatida ta'lim oladigan muassasaga aylanib qolgan. Buning oqibatida oddiy fuqarolar orasida universitetlarga qiziqish kamaya boshlagan.

Bugungi kunda kredit o'lchovi tizimini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha to'rtta model keng tarqalgan. Bular Amerika qo'shma Shtatlarining kredit tizimi (USCS); Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (ECTS); Osiyo - Tinch okeani mamlakatlarining kredit tizimi (UCTS); Buyuk Britaniyaning kredit tizimi (CATS). Ushbu modellarning ichida eng ko'p tarqalgani AQSH va Yevropa modellaridir.

N.N. Azizxo'jayevaning «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat» nomli o'quv qo'llanmalarini, F.M. Zakirovaning «Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi» nomli metodik qo'llanmani, A.M. Anisimovning «MOODLE masofaviy o'qitish tizimida ishlash» nomli o'quv qo'llanmalarini, L.V. Golish va D.M. Fayzullayevalarning «Pedagogik texnologiyalami loyihalashtirish va rejalashtirish» nomli o'quv uslubiy qo'llanmalarini, F. Zakirova, U. Muxamedxanov, Sh. Sharipov, R. Isyanov, F. Esanboboyev, S. Dottoyevlarning «Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi» nomli metodik qo'llanmalarini internet orqali muhim ma'lumotlar bilan tanishdik va tahlil qilib chiqdik.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Ushbu maqolada o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga oid ma'lumotlar, jumladan, ta'lim dasturi, fanlar katalogi, akademik mobillikni ta'minlash, kreditlarni tan olish va ko'chirib o'tkazishga taalluqli hujjatlar hamda diplomga ilovaning shakllari, shuningdek, akademik mobillik davrida talabaning bilim darajasini aniqlash bo'yicha ko'rsatkichlar va boshqa zarur hujjatlar namunalari o'rganiladi.

GPA (Grade Point Average) — ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$GPA = \frac{K_1*U_1+K_2*U_2+K_3*U_3\ldots+K_n*U_n}{K_1+K_2+K_3\ldots+K_n},$$ bunda:

K — har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U — har bir fan/modul bo'yicha talaba to'plagan baho;

Talaba bakalavriatda o'qish muddati kamida 3 yil bo'lganda 180 kredit, o'qish muddati kamida 4 yil bo'lganda 240 kredit to'plashi zarur. Magistraturada o'qish muddati kamida 1 yil bo'lganda 60 kredit, o'qish muddati kamida 2 yil bo'lganda 120 kredit to'plashi talab etiladi.

Fan dasturida (sillabusda) belgilangan baholash tartibi hamda ijobiy baholar doirasida baholangan talabalarga kreditlar beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi.

Talabalarning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi asosida ro'yxatga olish xizmati akademik guruhlarni shakllantiradi va biron-bir fanga yozilish yetarli bo'lmagan taqdirda, shaxsiy ta'lim trayektoriyasini o'zgartirish zarurligi to'g'risida talabalarga xabar beradi. Talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi shakllantirib bo'lingandan so'ng ro'yxatga olish xizmati dars jadvalini tuzish uchun oliy ta'lim muassasasi o'quv-metodik bo'limi (boshqarmasi)ga akademik guruhlar to'g'risida ma'lumot beradi.

Ro'yxatga olish xizmati har bir talabani ro'yxatdan o'tkazish sanasi va vaqtini belgilaydi (odatda, talaba tomonidan yetarli GPA ko'rsatkichlarini to'plaganligi va kontrakt to'lovlari amalga oshirilganligiga qarab). Birinchi kurs talabalarini ro'yxatdan o'tkazish ular bilan akademik va kasbga yo'naltirish tadbirlari amalga oshirilganidan keyin boshlanadi.

Talabalar tanlagan fanlarini har semestrning dastlabki birinchi haftasi ichida o'zgartirishi mumkin.

Birinchi kurs talabalarini ro'yxatga olish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

– guruh murabbiyi ro'yxatga olish xizmatidan biriktirilgan guruh talabalarining login va parollarini oladi, talabaga ta'lim jarayonini tushuntiradi, ta'lim dasturi bilan tanishtiradi, login va parol beradi hamda talaba portalidan foydalanishni o'rgatadi;

– talaba professor-o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladigan fanlar bo'yicha tanishtiruv taqdimotlariga qatnashadi, majburiy va tanlov fanlari bilan tanishadi va fanlarga ta'limni boshqarish tizimidagi talaba portali orqali ro'yxatdan o'tadi;

– talaba ta'limni boshqarish tizimidagi portali orqali dars jadvalini aniqlaydi va darslarga qatnashadi.

– talabalarni o'qishdan chetlashtirish, qayta tiklash, kursdan kursga o'tkazish mexanizmlari.

Bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi. Yakuniy nazorat turiga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqarsiz baho olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalar ta'til vaqtida yoki keyingi semestrlar mobaynida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta o'qish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim oluvchini kursdan kursga o'tkazish uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. OTM talabalarni kursdan

kursga o‘tkazishda GPA ko‘rsatkichini mustaqil belgilash huquqiga ega. Bunda GPA ko‘rsatkichi 2,4 - 3,0 oralig‘ida bo‘lishi talab etiladi. GPA o‘tish ballini to‘play olmagan talaba qayta o‘qish uchun tegishli kursda qoldiriladi. Semestr va o‘quv yili yakuni natijalari bo‘yicha akademik qarzdorligi bor ta’lim oluvchilar o‘qishdan chetlashtirilmaydi. Kursdan kursga qolgan talabalar faqat qarzdor bo‘lgan fanlarni o‘zlashtirib ularga mos ravishda shartnoma mablag‘larini to‘laydi. Shartnoma asosida bir kursda qayta o‘qish soni chegaralanmaydi. Jami ta’lim olish muddati bakalavriat uchun 1 kursga o‘qishga qabul qilinganidan so‘ng 8 yilgacha, magistratura uchun 1 kursga o‘qishga qabul qilinganidan so‘ng 4 yilgacha deb belgilanadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ECTS kredit-modul tizimida talaba har bir o‘quv yili uchun to‘plab borishi kerak bo‘lgan kreditlar miqdori oldindan belgilab qo‘yilgan. Bu 60 kreditni tashkil qiladi. Har bir semestr uchun belgilangan kreditlar miqdori esa 30 kreditni tashkil qiladi. Bundan tashqari talaba har bir kreditni qo‘lga kiritish uchun belgilangan o‘qish yuklamasi miqdori ham aniq va bu 25-30 soat oralig‘ida. Shunday ekan talabalarning har o‘quv yilidagi o‘qish yuklamasi o‘rtacha 1500-1800 soat (60*25 = 1500; 60*30= 1800), har semestrdagi o‘qish yuklamasi esa o‘rtacha 750-900 soatni tashkil etadi (30*25 = 750; 30*30= 900). Talabaning bir yillik va bir semestrdagi o‘qish yuklamasi bu miqdordan ko‘p ham, kam ham bo‘lishi mumkin emas.

NATIJALAR

Maqolada pedagogik o‘lchovlarning didaktik vazifalari va ularning nazariy asoslari kredit-modul tizimida samarali qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni kengaytiradi. Talabalar bilimini obyektiv baholash va shaffof monitoring tizimini joriy etish orqali ta’lim jarayonining sifatini oshirish mumkinligi aniqlandi. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalardan foydalanish pedagogik baholashda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Kredit-modul tizimiga o‘tishda bir qator muammoli jihatlarga e’tiborimizni qaratishimiz va bu tizimning afzallik jihatlariga urg‘u berish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, talabaning umumiy yuklamasi auditoriya va mustaqil ta’lim yuklamalaridan iborat. Amaldagi ta’lim tizimida auditoriya yuklamalariga katta e’tibor qaratilib kelinmoqda, lekin mustaqil ish turlari hali ommalashmagan. Kredit tizimida eng avvalo talabaning mustaqil ishiga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Kredit bu baho emas, balki ish hajmi hisoblanadi. Masalan, talaba 6 kreditlik fanni o‘zlashtirgan bo‘lsa, u 6 kredit hajmidagi ishni bajargan hisoblanadi, ya’ni u ushbu fanning ma’ruzalarida, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida qatnashgan, mustaqil ish topshiriqlarini bajargan hisoblanadi. Demak, bu fanni o‘zlashtirgan talaba uni qanday bahoga o‘zlashtirganidan qat’i nazar u 6 kreditni qo‘lga kiritadi.

Kredit-modul tizimining mazmun-mohiyatini ochib berishda uni faqat «kredit» va «modul» atamalari orqali izohlash yetarli bo‘lmaydi. Bu atamalar uni ixcham nomlash uchun qo‘llanilgan. Kredit-modul tizimining mohiyatini boshqacha quyidagi usulda ochib berish maqsadga muvofiqdir. Ya’ni, asosiy tamoyillar, kredit-modul tizimining amaldagi ta’lim tizimidan farq qiluvchi jihatlari quyidagicha.

Avval ta’kidlab o‘tilganidek, kredit-modul tizimining asosiy tamoyillari va elementlari qisman O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimiga tatbiq qilingan. Bu yerda kredit-modul tizimining faqat biz uchun yangi bo‘lgan va amaldagi ta’lim tizimida mavjud bo‘lmagan quyidagi muammoli jihati va afzalliklarini va uni amalga oshirish bo‘yicha takliflarni keltirib o‘tamiz:

Oliy ta’limning samaradorligi. Amaldagi ta’lim tizimida talabalar 1-kursdan boshlab yo‘nalishlar va ular ichida tarmoqlar bo‘yicha ajratilib ixtisoslik fanlarini o‘qishni boshlashadi. Ya’ni, biz talabani hali abituriyentlik paytidayoq tanlovdan mahrum qilib ixtisoslikka biriktirib qo‘yamiz. Kredit-modul tizimida esa eng avvalo talabaga tanlov imkoni beriladi. Tanlov fanlari semestrdan semestrga oshib boradi.

«Talaba-o‘qituvchi» nisbati. Hozirgi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida maxsus fanlarni past kurslardan boshlab rejalashtirish, o‘quv rejalardagi takrorlanadigan fanlarni har xil mutaxassisliklar bo‘yicha alohida o‘qitish, auditoriya soatlari hajmini oshirish kabi holatlar mavjud. Bunday jarayonlar o‘quv yuklamalarining keskin oshishiga sabab bo‘ladi.

Talabaning mustaqil ish turlari. Amaldagi ta’lim tizimida asosan auditoriyadagi darslarga ko‘proq e’tibor beriladi, talabaning mustaqil ishiga esa jiddiy e’tibor qaratilmaydi, chunki bu faoliyat turi chuqur o‘rganilmagan.

O‘quv rejalarining mosligi. Hozirgi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida bir xil yo‘nalishdagi o‘quv rejalarning turdosh OTMlarda o‘zaro farq qilishini kuzatish mumkin. Kredit-modul tizimi joriy qilinishi bilan esa o‘quv rejalar Bolonya jarayoni ishtirokchi davlatlaridagi o‘quv rejalarga to‘liq mos bo‘ladi va diplomlarning o‘zaro tan olinishiga sharoit yaratiladi. Buning uchun birinchi navbatda o‘quv rejalarimizning xorijiy o‘quv rejalarga mosligini tahlil qilishimiz zarur.

Ta’lim natijalari. Kredit-modul tizimida ta’lim mazmuni «ta’lim natijalari» asosida rejalashtiriladi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, talabalarga o‘qitiladigan fanlar va ularning mazmuni kelgusidagi kasbiy faoliyat turi uchun qanchalik zarurligidan kelib chiqib shakllantiriladi. Ochig‘i, hozirgi kunda biz bu borada maqtana olmaymiz, chunki o‘quv rejalariga obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra har xil fanlar kirib qolgan. Bu muammoni hozirgi kunda ikki xil usulda yechish mumkin.

Birinchidan, bakalavriat va magistratura ta’lim dasturlari bo‘yicha kompetensiyalar jadvalini shakllantirish, professiogrammalarni tuzish zarur. Bu juda aniq, lekin katta hajmdagi ish hisoblanadi.

Ikkinchidan, o‘quv rejalarini xorijiy tahlil qilish zarur.

Modulli o‘qitish. Kredit-modul tizimining amaldagi ta’lim tizimidan farq qiluvchi jihatlaridan yana biri shundaki, bunda fanlar modulli asosda tashkil qilinadi va o‘qitiladi. Ya’ni har bir modul (fan va uning bo‘limi) kirish nazorati, nazariy materiallar, amaliy va laboratoriya ishlari materiallari, mustaqil ish topshiriqlari, keyslar, nazorat materiallari, testlar, tarqatma materiallar, glossary, adabiyotlar, chiqish nazoratlari va h.k. qismlardan tashkil topgan bo‘ladi.

Talabaning shaxsiy traektoriyasi. Kredit-modul tizimida talabalarni hayotda mustaqil bo‘lishga ko‘niktirish amaliyoti qo‘llaniladi. Ya’ni, talabaga o‘z shaxsiy traektoriyasini tuzish va har semestrda boshqa akademik guruhda o‘qish imkoni beriladi.

Yozgi semestr va ekstern imtihonlar. Sust o‘qiydigan talabalarning fanlarni qayta-qayta topshirishlariga chek qo‘yiladi. Fanni birinchi qayta topshirishdan o‘ta olmagan talabaga yozgi semestrda fanni qayta o‘qishga imkon beriladi.

Baholash tizimining shaffofligi. Amaldagi ta’lim tizimida haligacha «o‘qituvchining o‘zi o‘qitib - o‘zi baholash» amaliyotini kuzatish mumkin.

Kredit-modul tizimida esa o‘qituvchi asosan o‘qitish bilan shug‘ullanadi. Baholashni esa komissiya amalga oshiradi. Ya’ni, pedagoglar «lektor» va «tyutor» larga ajratiladi. Lektor - nazariy bilim beradi, tyutor - nazariy bilimlar asosida talabalarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantiradi, oddiy qilib aytganda talabalarni imtihonga tayyorlaydi. Imtihonni esa komissiya qabul qiladi.

MUHOKAMA

Mazkur maqolada kredit-modul tizimining O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga joriy qilinishi va uning pedagogik o‘lchovlar orqali ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganildi. Ushbu tizimning asosiy jihatlari, didaktik imkoniyatlari va baholash texnologiyalari aniqlandi. Kredit-modul tizimi xalqaro miqyosda ta’lim sifatini oshirish va baholashda shaffoflikni ta’minlash maqsadida joriy etilgan bo‘lib, uning O‘zbekistonda amaliyotga tatbiq etilishi natijasida oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini zamonaviylashtirishga, talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxslar sifatida rivojlantirishga yordam beradi.

Kredit-modul tizimi sharoitida pedagogik o‘lchovlarning didaktik vazifalarini amalga oshirish texnologiyalari samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish natijasida ushbu tizimning bir qancha afzalliklari aniqlandi. Kredit-modul tizimi talabaga o‘quv yuklamasini mustaqil rejalashtirish, kerakli fanlarni tanlash imkoniyatini beradi, shuningdek, bu tizim ta’limda interfaol metodlar, diagnostik va formatli baholash vositalaridan keng foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Talabalarning bilim darajasini baholashda yangi usullar – o‘zaro baholash, o‘z-o‘zini baholash va loyiha asosida baholash kabi texnologiyalar joriy etilishi orqali talabalar o‘rtasida tanqidiy va tahliliy fikrlash rivojlantiriladi. Bu nafaqat baholash tizimining shaffofligini ta’minlaydi, balki ta’lim jarayonining o‘zini ham sifatli tashkil etishga yordam beradi.

Maqolada kredit-modul tizimi pedagogik o‘lchovlar va didaktik vazifalar asosida o‘quv jarayonini boshqarishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu tizimni to‘g‘ri tashkil qilish orqali o‘quv jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish mumkin. Jumladan, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, o‘qitishning sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Pedagogik o‘lchov texnologiyalari talabalarning bilim va ko‘nikmalarini obyektiv baholash uchun samarali usul sifatida xizmat qiladi, bu esa natijada ta’lim sifatini nazorat qilishda asosiy omil hisoblanadi.

XULOSA

1. Ushbu maqolada kredit-modul tizimining afzalliklaridan biri sifatida, bu tizim talabaning kasbiy malaka va bilim darajasini doimiy ravishda rivojlantirishga yo‘naltirilgani ta’kidlandi. Tadqiqot davomida ushbu tizimda talabaning bilim darajasini baholashda ilg‘or texnologiyalar va yangi metodlardan foydalanish imkoniyatlari ochib berildi.

2. Pedagogik o‘lchovlar talabaning bilim olish jarayonidagi har bir bosqichni samarali tahlil qilish va bu jarayonda talabaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchi tomonidan talaba bilan individual ishlashda aniq strategiya va metodlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

3. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimiga o‘tish ta’lim sifatini oshirishga, o‘quv jarayonini demokratlashtirishga va xalqaro talablarga moslashtirishga yordam berishini ko‘rsatdi. Kredit-modul tizimi nafaqat baholashni obyektiv va shaffof qilish, balki ta’limda mustaqil o‘qish va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatimizda zamonaviy, raqobatbardosh va bilimli kadrlarni tayyorlashda muhim omil bo‘ladi.

4. Umuman olganda, ushbu maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimini xalqaro tajriba va zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish, shuningdek, kredit-modul tizimini to‘g‘ri qo‘llash orqali talabalar bilimini obyektiv baholash imkoniyatini yaratishga hissa qo‘shadi. Bu tizim oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim va o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda, shuningdek, o‘qitish jarayonining shaffofligi va samaradorligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni.

2. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. - 120 bet.

3. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». 2018-yil 24-iyuldagi 569-son qarori.

5. https://lex.uz/acts/-3715562

6. https://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/8525/7800

7. https://interonconf.org/index.php/ger/article/download/4418/3955

8. https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/782

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0006-7719-9101

PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMIDA O‘QUVCHILAR KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu maqolada professional ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda xalqaro baholashning PISA (International Student Assessment Programme), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) kabi dasturlar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi va kompetensiyalarini baholash orqali ta’lim sifatini oshirishga bo‘lgan ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlari orqali olingan natijalarni professional ta’limda qo‘llash imkoniyatlari hamda kompetensiyalarni rivojlantirishda ulardan qanday samarali foydalanish ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: professional ta’lim, kompetensiya, xalqaro baholash dasturlari, PISA, TIMSS, ta’lim sifatini oshirish, kompetensiyalarni rivojlantirish, ta’lim tizimi, ta’lim sifati, texnologiya.

KIRISH

Globalizatsiya jarayonlari davomida jahon ta'lim tizimlarining samaradorligini oshirish va o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish talablariga javob berish, barcha davlatlar uchun ustuvor vazifaga aylangan. Bugungi kunda ta'limning sifatini o'lchash va baholashning samarali mexanizmlari yaratilgan bo'lib, bunga xalqaro baholash dasturlari misol bo'la oladi. Xalqaro baholash tizimlari, masalan, *PISA* (International Student Assessment Programme) va *TIMSS* (Trends in International Mathematics and Science Study), butun dunyo bo'ylab o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini o'lchash uchun keng qo'llanilmoqda. Ushbu dasturlar ta'lim tizimlarining qanchalik samarali ekanligini aniqlash, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini solishtirish, ta'lim siyosatida yangi yo'nalishlar ishlab chiqishga yordam beradi.

Xalqaro baholash dasturlari nafaqat o'quvchilarning bilimini baholash, balki kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi pedagogik metodlarni yaratishga yordam beradi. Bu dasturlar orqali, davlatlar o'z ta'lim tizimlarining zaif tomonlarini aniqlash, xalqaro tajriba va muvaffaqiyatli amaliyotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. PISA dasturi har uch yilda o'tkazilib, o'quvchilarning matematikadan, o'qish va fanlardan ko'nikmalarini o'lchaydi, ular qanday muammolarni hal qilishda qobiliyatli ekanligini ko'rsatadi. Shu tarzda, PISA dasturi davlatlarga o'quvchilarning dunyoqarashini rivojlantirish uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirishda yordam beradi.

Jahon miqyosida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish, ta'lim tizimlarini yanada yaxshilash, o'quvchilarning global darajadagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu dasturlar o'quvchilarni ta'limning faqat bilim olish bilan bog'liq emas, balki ko'nikmalar va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga undaydi, bu esa ularni kelajakda global ish bozoriga tayyorlaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimi so'nggi yillarda jahon andozalariga moslashtirilgan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan keng miqyosli islohotlar yo'lini bosib o'tmoqda. O'zbekiston respublikasi ta'lim tizimini isloh qilishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishni o'zining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Xususan, PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari O'zbekistonda ham amalda qo'llanilmoqda. Bu dasturlar orqali o'quvchilarning matematik, ilmiy va o'qish kompetensiyalarini o'lchash, shuningdek, ta'lim sifatini global miqyosda baholash imkoniyati yaratilgan.

Kompetensiya – shaxsning muayyan sohadagi bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarini birlashtirgan holda, real hayotdagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Professional ta'lim tizimida kompetensiya o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ular o'rganganlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini shakllantirishni taqozo etadi.

• Zamonaviy ta'lim jarayonida kompetensiyaga asoslangan yondashuv amaliyotga e'tibor qaratadi, ya'ni o'quvchilar bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llashga o'rganishlari lozim.

• Kompetensiyalar turlari (asosiy, kasbiy, kommunikativ, texnologik) professional ta'lim mazmunida muhim ahamiyatga ega.

Kompetensiya – shaxsning o'z faoliyatida muayyan maqsadlarga erishish uchun zarur bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning birligi. Pedagogik kontekstda, kompetensiya o'quvchining nazariy va amaliy jihatdan aniq vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini bildiradi.

Kompetensiya – kasbiy faoliyat yoki ijtimoiy vaziyatda muvaffaqiyatli harakat qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning yaxlit majmuasidir. Kompetensiya insonning muayyan vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, mavjud muammolarni hal qilish va maqsadlarga erishish qobiliyatini aks ettiradi.

Kompetensiya tushunchasi ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilib, olimlar tomonidan turlicha ta'riflanadi. Bu tushuncha shaxsning kasbiy va ijtimoiy hayotida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy xususiyatlarni qamrab oladi.

Mazkur mavzu bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan M.Sh. Kholmuhamedovning tadqiqotlarida kasbiy faoliyatda kompetensiya bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. U quyidagicha ta'rif bergan «Mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning birlashgan tizimi».

M.Sh. Tadjiyeva esa ilmiy izlanishlarida kompetensiya-pedagogik faoliyatda o'quv jarayonini samarali rejalashtirish va tashkil etish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar majmuasi deb ta'rif beradi.

M.R. Rahmatullaeva kasbiy kompetensiyaga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarida kasbiy faoliyatda samarali natijalarga erishish uchun shaxsning individual fazilatlari, bilim va ko'nikmalarining integratsiyasini o'rganadi.

Pedagogik lug'atda pedagogik kompetensiya ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali boshqarish va o'quvchilarga zarur bilim hamda ko'nikmalarni berish qobiliyatidir deb ta'riflanadi. U pedagogning kasbiy bilimlari, metodik yondashuvi va innovatsion texnologiyalardan foydalana olish ko'nikmalarini qamrab oladi.

Pedagogik kompetensiya haqida turli olimlar tomonidan taqdim etilgan fikrlar turlicha talqin qilinadi. Quyida ushbu tushunchaga oid asosiy fikrlar, ularni ilgari surgan olimlar va foydalanilgan adabiyotlar keltirilgan.

V.A. Xonning fikricha[1], pedagogik kompetensiya – pedagogning ta'lim jarayonida maqsadga yo'naltirilgan tarzda o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarning birlashmasidir. Xon ushbu kompetensiyani pedagogning kasbiy faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida ko'radi .

E.F. Zeer[2] pedagogik kompetensiyani kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida ko'rib, uni pedagogning innovatsion faoliyat olib borish qobiliyatlari bilan bog'laydi. Uning fikricha, zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyalarni shakllantirish uchun pedagoglar ko'p funksiyali va moslashuvchan bo'lishlari zarur deb hisoblaydi.

A.K. Markova esa pedagogik kompetensiyani o'qituvchining professional yetuklik ko'rsatkichi deb ta'riflaydi. U pedagogik kompetensiyani uchta asosiy komponentga ajratadi: shaxsiy, kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalar[3].

A.A. Leontev pedagogik kompetensiyani insonning faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan kasbiy mahorati sifatida talqin qiladi[4]. Unga ko'ra, kompetensiya nafaqat bilimlar majmuasi, balki ularni amaliyotga qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS kabi) o'quvchilarning bilimlarini baholash va xalqaro ta'lim tizimlarini solishtirish uchun ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlarning asosiy vazifasi o'quvchilarning turli fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish

[1] Xon, V.A. (2002). Pedagogik kompetensiya: Pedagogning ta'lim jarayonida maqsadga yo'naltirilgan tarzda o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarning birlashmasi. Tashkent: 45-49.

[2] Zir, EF (2007). Pedagogicheskaya professionalnaya kompetentnost i yee razvitiye, s. 112.

[3] Markova, A. (1996). Kompetentnost i professionalnaya deyatelnost: Rol v obrazovatelnom protsesse, s. 58.

[4] Leontyev A.A. (2001). Psixologo-pedagogicheskiye osnovы. Moskva: Nauka.

qobiliyatlarini aniqlashdir. Dasturlar ko‘proq o‘quvchining funksional savodxonligi, ya’ni hayotiy vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash qobiliyatiga urg‘u beradi.

PISA dasturi. PISA (Programme for International Student Assessment) dasturi 1997-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan tashkil etilgan. PISA dasturi ilk bor 2000-yilda o‘tkazildi. Bu dasturning maqsadi 15 yoshli o‘quvchilarning bilimlarini real hayotdagi vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini baholashdan iborat.

PISA dasturi uch yilda bir marta o‘tkaziladi va uch asosiy sohada baholashni amalga oshiradi:

– Matematika savodxonligi;

– Tabiiy fanlar savodxonligi;

– O‘qish savodxonligi.

Dastlabki PISA baholash tadqiqotida 32 davlat ishtirok etgan bo‘lsa, keyinchalik ushbu dasturga 80 dan ortiq davlat qo‘shildi. PISA tadqiqotlari ta’lim tizimlarining samaradorligini baholash va o‘quvchilarning XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

PIRLS dasturi. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) dasturi 2001-yilda ilk marta o‘tkazilgan. Uni xalqaro ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar tashkiloti – IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil qilingan. Ushbu dastur boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholashga qaratilgan.

PIRLS dasturi har besh yilda bir marta o‘tkaziladi va o‘quvchilarning:

– Matnni tushunish darajasi;

– Matnni qayta ishlab chiqish qobiliyati;

– O‘qishga nisbatan motivatsiyasi.

kabi ko‘nikmalarini baholaydi. Dastur boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darajasini xalqaro miqyosda solishtirish va ta’lim strategiyalarini yaxshilash uchun muhim manba hisoblanadi.

TIMSS dasturi. TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) dasturi ilk bor 1995-yilda IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Bu dastur 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarini baholash uchun mo‘ljallangan.

Tadqiqotimizni 3 ta metod orqali amalga oshirdik.

1. Kontent-tahlil metodida biz tomonimizdan xalqaro baholash dasturlarining metodologiyasini va O‘zbekiston ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar o‘rganildi. PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash tizimlarining asosiy prinsiplarini qilish va ularni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilishning metodik jihatlari tahlil qilindi.

2. Ijtimoiy so‘rovlar va intervyu metodi orqali o‘qituvchilar, ta’lim sohasidagi mutaxassislar va ta’lim boshqaruv organlari vakillari bilan intervyu va so‘rovnomalar o‘tkazildi. Ularning fikrlarini va tajribalarini o‘rganish orqali, xalqaro baholash tizimlaridan qanday foydalanilishi haqida batafsil ma’lumot olindi.

3. Empirik tahlil metodida o‘quvchilarning xalqaro baholash dasturlaridagi natijalarini tahlil qilindi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning kompetensiyalarini baholashda baholash metodikalarining qanday ishlashi va uning ta’limda samarali qo‘llanilishi o‘rganildi.

Baholash – o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlari, shakllangan ko‘nikma va kompetensiyalar darajasini o‘lchash, tahlil qilish va unga ko‘ra ta’lim jarayonini takomillashtirish jarayonidir. Xalqaro dasturlar bu borada zamonaviy metodologiya va indikatorlarni taqdim etadi.

Mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyati o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilim darajasini, balki ularning real hayotdagi vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar va ta’lim dasturlari asosini tashkil etadi.

NATIJALAR

Tajriba sinov ishlari. Professional ta’lim tizimida o‘quvchilar kompetensiyalarini shakllantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish bo‘yicha ta’lim samaradorligini o‘rganishda matematik-statistik tahlil natijalarining batafsil tavsifi.

Professional ta’lim tizimida o‘quvchilar kompetensiyalarini shakllantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish mavzusiga tegishli tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish metodikasi

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi:

1. Xalqaro baholash dasturlari asosida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini tahlil qilish.

2. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini aniqlash orqali ta’lim samaradorligini oshirish uchun mos metod va yondashuvlarni aniqlash.

3. Eksperimental va nazorat guruhlarida innovatsion metodlarning ta’sirini taqqoslash.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilishning bosqichlari:

1. Dastlabki tayyorgarlik bosqichi.

Bu bosqichda quyidagi vazifalar bajariladi:

Maqsad va vazifalarni belgilash. Ta’lim samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilarning muayyan kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodlarni tanlash.

Tajriba guruhlarini shakllantirish: Sinflar ikkita guruhga ajratiladi:

Nazorat guruhi: An’anaviy usullar asosida ta’lim oladi.

***Tajriba-sinov guruhi*:** Xalqaro baholash dasturlari asosida tuzilgan topshiriq va metodlardan foydalanadi.

Boshlang‘ich baholash: Ikkala guruh o‘quvchilarining boshlang‘ich darajasini aniqlash uchun test topshiriqlari o‘tkaziladi. Masalan, PISA kabi dasturlardagi topshiriqlardan foydalaniladi.

2. Amaliy bosqich.

Bu bosqichda eksperimental metodlarni tatbiq etish amalga oshiriladi:

Darslarni tashkil qilish.

Tajriba-sinov guruh uchun darslar xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) materiallari asosida tuzilgan topshiriqlardan foydalanib o‘tkaziladi. Bu jarayonda ko‘proq tanqidiy fikrlash, kreativlik va muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan yondashuvlar qo‘llaniladi.

Nazorat guruhi esa an’anaviy o‘quv materiallari bilan ishlaydi.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lish orqali kollegial muhokama va jamoaviy ishlashni rag‘batlantirish.

Blended learning (aralash o‘qitish) yondashuvini qo‘llash orqali o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganishni ta’minlash.

Interfaol ta’lim metodlari (case-study, brainstorming) orqali o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish.

3. Nazorat va baholash bosqichi.

Bu bosqichda o‘quvchilarning yakuniy bilim va ko‘nikmalari baholanadi:

Yakuniy baholash: Ikkala guruh o‘quvchilari yakuniy test sinovlaridan o‘tadilar.

Ko‘rsatkichlarni taqqoslash.

Ikkala guruhning boshlang‘ich va yakuniy natijalari matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilinadi. Samaradorlik darajasini aniqlash uchun o‘sish foizi hisoblanadi.

Tahlil va xulosa. Tajriba davomida qo‘llanilgan metodlarning qaysi biri samarador ekanligini aniqlash. Olingan natijalar asosida ta’lim jarayonini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tajriba-sinov ishlari metodikasida foydalaniladigan usullar:

1. Xalqaro baholash dasturlari asosidagi topshiriqlarni qo‘llash. PISA, TIMSS kabi dasturlarning amaliy topshiriqlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatlari rivojlantiriladi.

2. Interfaol yondashuvlar. Guruh bo‘lib ishlash. Jamoaviy ishlash orqali o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadilar va birgalikda yechim topadilar.

Munozara va muhokamalar: Har bir o‘quvchi o‘z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. Statistika va tahlil. Eksperimental va nazorat guruhlari natijalari matematik va statistik tahlillar yordamida baholanadi. Diagrammalar, jadval va grafiklardan foydalanish natijalarni ko‘rgazmali tarzda taqdim etadi.

Natijalarni kuzatish va tahlil qilish. Tajriba-sinov ishlari natijalari:

Tajriba-sinov guruhida o‘quvchilar samaradorligi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshadi. O‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari kuchayadi. Natijalar ta’lim samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan yangi metodik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Professional ta’lim tizimida o‘quvchilar kompetensiyalarini shakllantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish bo‘yicha ta’lim samaradorligini o‘rganishda matematik-statistik tahlil natijalarining batafsil tavsifi.

Tajriba va natijalar haqida umumiy ma’lumot.

Tahlil professional ta’lim muassasasida 15-18 yoshdagi uchta sinf guruhida o‘tkazildi. Guruhlar quyidagicha tashkil qilindi:

Nazorat guruhi: An’anaviy ta’lim metodlari asosida ta’lim oluvchi o‘quvchilar.

Tajriba-sinov guruh: Xalqaro baholash dasturlaridan olingan topshiriqlar va ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim oluvchi o‘quvchilar.

Boshlang‘ich va yakuniy sinovlar natijalari asosida samaradorlik darajasi hisoblab chiqildi.

1-jadval. Boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlar (foizlarda)

Guruh		Boshlang‘ich ko‘rsatkich (%)	Yakuniy ko‘rsatkich (%)	Samaradorlik o‘sishi (%)
Nazorat guruhi		67.5	67.8	0.44
Eksperimental guruh		68.0	77.8	9.8

Natijalarni matematik tahlil qilish.

1. Boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlar tahlili:

Nazorat guruhida yakuniy ko‘rsatkichlarda sezilarli o‘zgarish kuzatilmagan: samaradorlik atigi 0.44% ga oshgan.

Eksperimental guruhda esa samaradorlik 9.8% ga oshdi.

2. Samaradorlik o‘sishini hisoblash formulasi:

Har bir guruh uchun o‘sish quyidagi formula yordamida hisoblandi: O‘sish % = ((Yakuniy Ko‘rsatkich – Boshlang‘ich Ko‘rsatkich) / Boshlang‘ich Ko‘rsatkich) x 100

Nazorat guruhi uchun:

O‘sish % = ((67.8 – 67.5) / 67.5) x 100 = 0.44%

Eksperimental guruhi uchun:


O‘sish % = ((77.8 – 68.0) / 68.0) x 100 = 9.8%

3. O‘rtacha samaradorlik o‘sishi:

Umuman olganda, ikki guruhning o‘rtacha samaradorlik o‘sishi:


O‘rtacha o‘sish = (0.44% + 9.8%)/2 = 5.12%Diagrammalar va vizual natijalar

Boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlar diagrammasi. Ushbu diagrammada nazorat va eksperimental guruhlarning dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlari ko‘rsatilgan. Eksperimental guruhda sezilarli o‘sish mavjud.



1-rasm. Boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlar

Samaradorlik o‘sishi diagrammasi:



2-rasm. Samaradorlik o‘sishi

Ikkinchi diagrammada har bir guruhning samaradorlik o‘sishi alohida ko‘rsatilgan. Eksperimental guruhda **9.8%**, nazorat guruhida esa **0.44%** o‘sish qayd etilgan.

XULOSALAR

«Professional ta’lim tizimida o‘quvchilar kompetensiyalarini shakllantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish» mavzusida yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, quyida umumiy xulosalar berdik:

1. Xalqaro baholash dasturlari milliy ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu dasturlar ta’lim sifatini obyektiv baholash, kuchli va kuchsiz tomonlarni aniqlash imkonini beradi hamda ta’lim siyosatini takomillashtirishga yordam berdi.

2. Xalqaro baholash dasturlari o‘quvchilar kompetensiyalarini aniqlash va baholash uchun ishonchli mezonlarni taqdim etadi. Ularning natijalari o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini obyektiv baholashga imkon yaratadi.

3. Xalqaro baholash dasturlari o‘quv dasturlarini takomillashtirish va yangi o‘quv materiallarini yaratishda yordam beradi. Dasturlarning natijalari o‘quv dasturlarining kamchiliklarini va o‘quv jarayonining mu-

ammolarini aniqlashga yordam beradi hamda yangi o‘quv materiallarini yaratishda yo‘nalish beradi.

4. Xalqaro baholash dasturlaridan olingan ma’lumotlar o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularning kasbiy rivojlanishiga yordam beradi. Baholash natijalari o‘qituvchilar uchun o‘z uslublarini takomillashtirish va yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganish uchun asos bo‘ladi.

5. Xalqaro baholash dasturlarining samaradorligi baholash mezonlarining aniqligi, ishonchliligi va obyektivligiga bog‘liq. Baholash mezonlari aniq va tushunarli bo‘lishi, natijalar esa ishonchli va obyektiv tarzda olinishi kerak.

6. Xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish milliy ta’lim tizimining xalqaro standartlarga mos kelishini ta’minlashga yordam beradi. Ushbu dasturlar yordamida milliy ta’lim tizimining kuchli va kuchsiz tomonlari aniqlanadi hamda xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

7. Xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish natijalarini tahlil qilish va ular asosida tegishli xulosalar chiqarish uchun malakali mutaxassislar jamoasi kerak. Olingan ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilish va ular asosida samarali qarorlar qabul qilish uchun mutaxassislarning tajribasi va bilimlari muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonun (2020-yil). – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son farmoni.

3. Bazarbayev K.. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish usullari. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2019.

4. Dewey J. Experience and Education. Reprint. London: Macmillan. 2016.

5. Ravshanov R. A. Kredit-modul tizimida o‘qituvchilar tayyorlash: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent: Innovatsion Ta’lim Noshirligi. 2021.

6. European Educational Research Journal. Competence-Based Education in European Higher Education: Trends and Challenges. 2021.

7. Yuldasheva A. S. (2015). Pedagogik loyihalash va uning metodikasi, p. 71.

8. Raven J. (1984). Competence in Teaching: The Role of Knowledge and Skills, p. 35.

9. Boyatzis D. (1982). The Competent Manager: A Model for Effective Performance, p. 42.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0006-7719-9101

ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMI RAHBARLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KASBIY KOMPETENTLIGINI O‘RGANISH MUAMMOLARI



Umida Yormatova

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Ushbu maqolada Jahonda oliy kasbiy ta’lim muassasalari Yevropa assotsatsiyasi EURASHE va ENICNARIC axborot-tizim markazi hamda «XXI asr ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘yicha Xalqaro komissiya» tomonidan insoniyat, jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti iqtisodiyotning o‘sishi hamda bevosita shaxs kamolotiga uzviy bog‘liqligi ta’kidlanmoqda.

Pedagogik jamoada rahbar-xodim munosabatlari tizimining psixologik imkoniyatlarini rivojlantirish, rahbarlikning turli jabhalarida va sohalarida ijtimoiy-psixologik kompetentlikni takomillashtirish, kompetentlikning mohiyati, uning ijtimoiy-psixologik jihatlari, faoliyati va rahbarlikni rivojlantirishidagi ahamiyati va psixologik ta’sir darajalari masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: rahbar, ta’lim, bilim, innovatsiya, kompetensiya, ijtimoiy-psixologik, kasbiy kompetentlik, muloqot, empatiya.

KIRISH

Jahon ta'lim va ilmiy muassasalarida rahbar shaxsiga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni shakllanishi, zamonaviy rahbarning boshqaruv jarayonidagi boshqaruv uslubi, rahbarlik faoliyati motivatsiyasi, boshqaruv jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlovchi rahbarlik sifatlari masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Respublikamizda so'nggi yillarda boshqaruv faoliyatini olib boruvchi shaxs, rahbar kadrlarni tayyorlash, hozirgi yoshlarni mehnat bozorida talabi yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish hamda rahbarlik va liderlik qobiliyatini shakllanishga oid huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi.

Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishda rahbar xodimlarda liderlik qobiliyatini rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari muammosini ilmiy tadqiq etish muhim.

Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu Bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerakligi ustuvor vazifa sifatida ta'kidlab o'tildi. Aynan shu nuqtayi nazardan oladigan bo'lsak, ta'lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishning psixologik ta'sir mexanizmlari va texnologiyalari yo'nalishlarini rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlar e'tiborga molik bo'lib, ilmiy tadqiq etish zarurati kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2018-yil 5-sentyabrdagi PQ-3931-son «Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori hamda shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur muammoning dolzarbligini belgilab beradi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustdagi xalq ta'limi tizimi xodimlari bilan bo'lgan telemuloqotda quyidagicha fikrlarni bildirganlar: «Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri – kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodi va o'z kasbini sevishidir. Bu fazilatlar pedagoglarni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi». Talaba-yoshlarda kreativlikni shakllantirish uchun pedagog namunaviy intellektga ega bo'lishi, zamonaviy ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini mukammal bilishi va shu asosda o'z kasbi bilan bog'liq ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Menejment qoidalariga rioya qilib ishlayotgan maktab rahbarlari bugungi ta'lim sohasidagi islohotlarni his etib, boshqarishni zamonaviy kompetentlik qoidalari asosida ishni tashkil etib, kuchli instruktiv yetakchilik, aniq belgilangan maqsad, o'qituvchilardan kutilayotgan ijodiy natijalar, o'qib-o'rganish, o'rgatish uchun zaruriy muhit, o'quvchilar va sinfni doimiy kuzatish, oila, maktab, mahalla hamkorlik aloqalarini mustahkamlaydilar. Yangi ilmiy izlanishlar obod mahalla, obod uy va namunaviy oila tashabbusi asosida rahbarlik ishlarini tashkil etishni talab qiladi.

Yuqorida ta'kidlangan mulohazalardan kelib chiqib, bugungi maktabgacha va maktab ta'limida sohasida faoliyat olib borayotgan rahbarning kompetentligi yo'nalishidagi ba'zi kamchiliklari haqida quyidagi holatlar tahlil qilindi:

– maktablarda boshqaruv ishlarini talab darajada emasligi; -fidoyilik, ijodkorlik, tashkilotchilik, kreativlikning yetishmasligi;

– huquqiy madaniyat va savodxonlikning pastligi;

– adolatlilik, halollik va insoflilikning yetishmasligi;

– ish jarayonida mahalliylik va urug'-aymoqchilikning ustuvorligi;

– metodik birlashmalarga e'tibor bermaslik, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning yo'qligi;

– maktablarda jamoa ishlarini noto'g'ri taqsimlash va nazoratning pastligi;

– kasbiy va ilmiy tajribaga ega emaslik.

Yuqoridagi mulohazalarni o'qib o'rganib, bugungi ta'lim-tarbiya sohasidagi qabul qilayotgan qarorlar asosida bugungi ta'lim jarayoniga menejerlik qilaman degan har bir iqtidorli shaxs o'zining kasbiy kompetentligiga tayanib, rahbarlik ishlarini tashkil qilishi lozim. Umuman olganda, ta'lim muassasalaridagi muvaffaqiyatlar rahbarning ijrochilar mehnatiga bo'lgan munosabatlaridan qanchalik manfaatdorliklarni anglata bilish lozim.

G.Kunts va S.O.Dannelning aniqlashicha, «agar bo'ysunuvchilar rahbarlar tomonidan o'rnatilgan tartib qoidalar va ehtiyojlarga ko'ra boshqarilsa, ular o'z imkoniyatlarining taxminan 60 yoki 65% darajasida ishlashi mumkin, ya'ni o'z ishida saqlanib qolish maqsadida, shunchaki o'z majburiyatlarini qoniqarli darajada bajaradi, bo'ysunuvchilarning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun, rahbarlar liderlikni amalga oshirish bilan ularda tegishli mulohaza shakllantirishi zarur»

Kommunikativ kompetensiya metodi o'qituvchidan to'laqonli muloqotchanlikni talab etadi. Har qanday vaziyatda ta'lim oluvchi va jamoa a'zolari bilan ijobiy munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Informatsion kompetensiya metodi esa o'qituvchi o'z fani va unga bog'liq holda bo'lgan barcha yangiliklardan boxabar bo'lishini taqozo qiladi. Shuning uchun ham pedagog axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

«O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi hamda pedagogik takt va pedagogik etika» mavzusini yoritishda o'qituvchi faoliyatida muomala madaniyatining o'ziga xos turlari, muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari, pedagogik etikaning mohiyati va xususiyatlari hamda o'qituvchi etikasida dilkashlik va pedagogik takt bo'yicha bilimlar beradi.

Shu munosabat bilan bugungi kunda pedagogik boshqaruvda qatnashuvchilarga ya'ni o'qituvchi shaxsiga quyidagi talablar qo'yiladi:

– o'z fanini chuqur bilishi va uning metodikasini yetarli darajada o'zlashtirish;

– keng ilmiy dunyoqarashli va teran e'tiqod sohibi bo'lishi;

– ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;

– ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;

– ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishi;

– o'z kasbi va bolalarni sevishi;

– ruhiy pedagogik ziyrak bo'lishi va yangilikka intilishi;

– o'z xalqi tarixi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur o'rganishi va ularni targ'ibot qilishi;

– pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat'iylik, vazminlik, haqqoniylik, o'zini tuta bilish kabi xislatlar sohibi bo'lishi;

– o'z kasbiga to'la layoqatli va pedagogik takt (odob) egasi bo'lmog'i lozim.

Zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini o'rganish muammolarni aniqlash maqsadida pedagogik metodimizni Toshkent shahar, Yangihayot tumanidagi umumiy o'rta


ta'lim maktab rahbarlari va Xalqaro Nordik universitetidagi rahbar talabalardan aniqlab olindi.

NATIJALAR

Dastlabki anketa-so'rovnoma natijalariga ko'ra, Xalqaro Nordik universiteti magistrlaridan 56 nafarining 27 nafari (47.6%) Kollegial uslub vakillari, 16 nafari (28.6%) liberal uslub va 13 nafari (23.8%) avtoritar uslubi deya javob berishdi.

Toshkent shahar Yangihayot tumani maktab rahbarlari esa 65 nafar rahbardan 31 nafari (65.8%) avtoritar rahbar uslubiga, 17 nafari (36.7%) kollegial rahbarlik uslubiga va 17 nafari (29.1%) liberal rahbarlik uslubi deb javob berdi.

Boshqaruv uslubingiz	Tasdiq-javoblar raqami	Javoblar jami
Avtaritarsiz	1,6,7,12,13,18,19,24,25,30,31,36,37, 42,43,48,49,54,55,60	
Liberalsiz	2,5,8,11,14,17,20,23,26,29,32,35,38, 41,44,47,50,53,56,59	
Kollegialsiz	3,4,9,10,15,16,21,22,27,28,33,34,39, 40,45,46,51,52,57,58	



Pedagogik tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari tahlili

Zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini o'rganish maqsadida o'tkazilgan pedagogik tajribani tashkil etish va uni o'tkazish metodikasi haqida fikr yuritildi. Endi esa tajriba natijalarining tahlili bilan tanishamiz. Tajriba natijalarini tahlil qilishda matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Quyidagi jadvalda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish jarayonida rahbarlar bilim darajasi dinamikasining o'zgarishi (son va % hisobida) keltirilgan. (3.1-jadval) Rahbarlarning zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ko'nikma va malakalarining shakllanganlik ko'rsatkichlari.

Tajriba bosqichi va o'quv yili	XNU va Yangihayot tumani maktab rahbarlari	O'zlashtirish darajasi	Tajriba guruhlarida		Nazorat guruhlarida	
			Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
2024-2025 o'quv yili		Yuqori daraja (a'lo) 5	17	30	27	29
		O'rta daraja (yaxshi) 4	17	20	16	18
		Eng Past daraja (qoniqarli) 3	31	15	13	9

Bu ma'lumotlar asosida quyidagi belgilanishlarni kiritamiz:

x_i – tajriba guruhiga mos keladigan baholar.

y_i – nazorat guruhiga mos keluvchi baholar.

$\bar{x}$ va $\bar{y}$ – tajriba va nazorat guruhlari uchun mos keladigan o'rtacha arifmetik qiymatlar.

$$\bar{x} = \frac{\sum x_i n_i}{n} \; ; \; \bar{y} = \frac{\sum y_i m_i}{m} \; . (1)$$

Bu yerda:

x_i, y_i – 3, 4, 5 qiymatli baholarni mos ravishda qabul qiladi.

m, n – tajriba va nazorat guruhidagi o'quvchilar soni.

m_i, n_i – mos baholarga nisbatan o'quvchilar soni

O'quv jarayoni samaradorligini baholovchi o'rtacha qiymat tajriba va nazorat guruhlari baholarining o'rtacha arifmetik qiymatlari nisbatidir, ya'ni samaradorlik koeffitsiyenti quyidagicha olindi:

$$\eta = \frac{\bar{x}}{\bar{y}} \; . (2)$$

O'rtacha kvadratik og'ish kattaliklari:

$$S_x^2 = \frac{1}{n}\sum_i n_i \cdot (x_i - \bar{x})^2 \; ;$$

$$S_y^2 = \frac{1}{m}\sum_i m_i \cdot (x_i - \bar{x})^2 \; . \quad (3)$$

Standart og'ish kattaliklari:

$$S_x = \sqrt{S_x^2} \quad ; \quad S_y = \sqrt{S_y^2} \; . (4)$$

O'rtacha qiymatlarni aniqlash ko'rsatkichi:

$$C_x = \frac{S}{\sqrt{n} \cdot \bar{x}} \cdot 100\,\% \; ; \; C_y = \frac{S}{\sqrt{m} \cdot \bar{x}} \cdot 100\,\% \; . (5)$$

Bosh to'plamning noma'lum o'rta qiymatlari uchun ishonch oraliqlari:

$$a_x \in \left[\bar{x} - \frac{t}{\sqrt{n}} \cdot S_x ; \; \bar{x} + \frac{t}{\sqrt{n}} \cdot S_x \right]$$

$$a_y \in \left[\bar{y} - \frac{t}{\sqrt{m}} \cdot S_y ; \; \bar{y} + \frac{t}{\sqrt{m}} \cdot S_y \right] \; . (6)$$

Bu yerda *t* – me'yorlashgan chetlanish ishonch ehtimoli R asosida aniqlanadi. Masalan, R=0,95 da *t*=1,96 ga teng.

Biz o'rtacha qiymatlar tengligi haqidagi $H_0: a_x \neq a_y$ farazni ilgari surib, unga qarama-qarshi H1:$a_x \neq a_y$ ekanligini yuqoridagi ma'lumotlar asosida Styudent mezoni orqali tekshiramiz.

$$T_{m_1 n} = \frac{\left|\overline{y} - \overline{x}\right|}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} \quad . (7)$$

Agar $T>T_t=t$ bo'lsa, N_0 faraz rad etilib, N_1 faraz olinadi.

Quyida ushbu ma'lumotlarga asoslanib, har bir bosqich uchun hisob ishlari va ularning qiyosiy tahlili jadval orqali keltiriladi.

Ushbu tadqiqot davomida talabalarning tajriba-sinov ishlari natijalarining boshlang'ich holati va tajriba oxirida esa fanning jami mavzulari bo'yicha yozma va og'zaki baholash orqali hamda o'quvchilarning mustaqil ta'lim jarayonida ijodiy qobilyatini shakllanganlik darajalari aniqlandi.

Zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini o'rganish bo'yicha tajriba natijalarining qiyosiy tahlili:

m= 65, n=56 – tajriba va nazorat guruhidagi o'quvchilar soni.

b – tajriba boshida.

o – tajriba oxirida.

$$\overline{x_б} = \frac{1}{65}\cdot(17\cdot5+17\cdot4+31\cdot3) = \frac{1}{65}\cdot(85+68+93) = \frac{246}{65} = 3,7$$

$$\overline{y_б} = \frac{1}{56}\cdot(27\cdot5+16\cdot4+13\cdot3) = \frac{1}{56}\cdot(135+64+39) = \frac{238}{56} = 4,2$$

Samaradorlik koeffitsiyenti $\eta_б = \frac{\overline{x_б}}{y_б} = \frac{3,7}{4,2} = 0,8$

$$S_x^2 = \frac{1}{65}\cdot(17(5-3,7)^2+17(4-3,7)^2+31(3-3,7)^2) = \frac{1}{65}\cdot(17\cdot1,69+17\cdot0,09+31\cdot0,49) =$$

$$= \frac{1}{65}\cdot(28,73+1,53+15,19) = \frac{1}{65}\cdot45,45 = \frac{45,45}{65} = 0,69$$

$$S_x = \sqrt{S_x^2} = \sqrt{0,69} = 0,83$$

$$S_y^2 = \frac{1}{56}\cdot(29(5-4,2)^2+16(4-4,2)^2+13(3-4,2)^2) = \frac{37,92}{56} = 0,67$$

$$S_y = \sqrt{S_y^2} = \sqrt{0,67} = 0,81$$

O'rtacha qiymatlar aniqlanish ko'rsatkichlari:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{65}\cdot3,7}\cdot100\% = \frac{0,83}{29,8}\cdot100\% = \frac{83}{29,8} = 2,78\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{56}\cdot4,2}\cdot100\% = \frac{0,81}{7,4\cdot4,2}\cdot100\% = \frac{81}{31,08} = 2,60\%$$

O'rtacha qiymatlar aniqlanish ko'rsatkichlari:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{65}\cdot3,7}\cdot100\% = \frac{0,83}{29,8}\cdot100\% = \frac{83}{29,8} = 2,78\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{56}\cdot4,2}\cdot100\% = \frac{0,81}{7,4\cdot4,2}\cdot100\% = \frac{81}{31,08} = 2,60\%$$

$$a_x \in \left[3,7-\frac{1,96}{8,06}\cdot0,83;\ 3,7+\frac{1,96}{8,06}\cdot0,83\right] = [3,5;\ 3,9]$$

$$a_y \in \left[4,2-\frac{1,96}{7,4}\cdot0,81;\ 4,2+\frac{1,96}{7,4}\cdot0,81\right] = [4;\ 4,4]$$

Ushbu hisoblarni tajriba oxirida qanday natijalarga ega ekanligini hisoblab chiqamiz:

$$\overline{x_o} = \frac{1}{65}\cdot(30\cdot5+20\cdot4+15\cdot3) = \frac{1}{65}\cdot275 = \frac{275}{65} = 4,2$$

$$\overline{y_o} = \frac{1}{56}\cdot(29\cdot5+18\cdot4+9\cdot3) = \frac{1}{56}\cdot(145+72+27) = \frac{244}{56} = 4,3$$

$$\eta_o = \frac{\overline{x_o}}{y_o} = \frac{4,2}{4,3} = 0,9$$ nisbiy o'sish.

Demak, tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan tajriba oxirida 0,9 barobar (7%) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldilar.

Agar tajriba boshiga nisbatan taqqoslaydigan bo'lsak u holda:

tajriba guruhida $\eta_m = \frac{\overline{x_o}}{x_б} = \frac{4,2}{3,7} = 1,13$,

nazorat guruhida $\eta_n = \frac{\overline{y_o}}{y_б} = \frac{4,3}{4,2} = 1,02$ samaradorlikka erishilgan.

$$S_x^2 = \frac{1}{65}\cdot(30(5-4,2)^2+20(4-4,2)^2+15(3-4,2)^2) = \frac{1}{65}\cdot(30\cdot0,8^2+20\cdot0,2^2+15\cdot1,02^2) =$$

$$= \frac{1}{65}\cdot(30\cdot0,64+20\cdot0,04+15\cdot1,04) = \frac{1}{65}\cdot(19,2+0,8+21,6) = \frac{41,6}{29} = 0,64$$

$$S_x = \sqrt{S_x^2} = \sqrt{0,64} = 0,8$$

$$S_y^2 = \frac{1}{56}\cdot(29(5-4,3)^2+18(4-4,3)^2+9(3-4,3)^2) = \frac{1}{56}\cdot(29\cdot0,7^2+18\cdot0,3^2+9\cdot1,3^2) =$$

$$= \frac{1}{56}\cdot(29\cdot0,49+18\cdot0,09+9\cdot1,69) = \frac{1}{56}\cdot(14,21+1,62+15,21) = \frac{31,04}{56} = 0,55$$

$$S_y = \sqrt{S_y^2} = \sqrt{0,55} = 0,74$$

O'rtacha qiymatlar aniqlanish ko'rsatkichlari:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{65}\cdot4,2}\cdot100\% = \frac{0,8}{33,8}\cdot100\% = \frac{80}{33,8} = 2,36\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{56}\cdot4,3}\cdot100\% = \frac{0,74}{31,82}\cdot100\% = \frac{74}{31,82} = 2,32\%$$

$$a_x \in \left[4,2-\frac{1,96}{8,06}\cdot0,8;\ 4,2+\frac{1,96}{8.06}\cdot0,8\right] = [4,1;\ 4,30]$$

$$a_y \in \left[4,3-\frac{1,96}{7,4}\cdot0,74;\ 4,3+\frac{1,96}{7,4}\cdot0,74\right] = [4,2;\ 4,4]$$

Har bir bosqich bo‘yicha olingan natijalar matematik-statistik tahlil qilindi va ushbu natijalarga ko‘ra Styudent mezoni orqali tekshirilib, xulosalar chiqarildi.

$$T = \frac{\left|\overline{x_б} - \overline{x_o}\right|}{\sqrt{\frac{S^2_{x_б}}{n} + \frac{S^2_{x_o}}{n}}}$$

Tajriba guruhi:

$$\overline{x_б} = 3{,}2 \text{ va } \overline{x_o} = 4{,}2$$

$\eta_m = 1{,}12$ samaradorlik koeffitsenti.

$$T_m = \frac{|3{,}7 - 4{,}2|}{\sqrt{\frac{0{,}83 + 0{,}8}{65}}} = \frac{0.5}{\sqrt{0{,}02}} = \frac{0.5}{0{,}14} = 3{,}5$$

T_m=3,5 > $T_{0,96}$(t)=1,96 Demak, N_1 faraz qabul qilinadi.
Nazorat guruhi:

$$\overline{y_б} = 4{,}2 \text{ va } \overline{y_o} = 4{,}3$$

$\eta_н = 1{,}02$ samaradorlik koeffitsiyenti.

$$T_н = \frac{|4{,}07 - 4{,}3|}{\sqrt{\frac{0{,}84 + 0{,}74}{56}}} = \frac{0{,}23}{\sqrt{0{,}02}} = 1{,}64$$

$T_{n=}1{,}64 < 1{,}96$ bo‘lib, N_0 faraz qabul qilinadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan treninglar va muammoli vaziyatli topshiriqlar vositasida shakllanganlik darajasi Zamonaviy ta’lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan treninglar va muammoli vaziyatli topshiriqlar vositasida shakllanganlik darajasi quyidagi jadvalda ifodalanadi.

№	Ko‘rsatkichlar	OTM	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
			Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
1	O‘rtacha arifmetik qiymat $(\overline{x}, \overline{y})$	Xalqaro Nordik universiteti va Yangihayot tumani maktab rahbarlari	3,7	4,2	4,2	4,3
2.	Samaradorlik ko‘rsatkichi (h		1.13		1,02	
3.	O‘rtacha qiymat ishonch oralig‘i $(a_x \in, a_y \in)$		[	[	[	[
4.	O‘rtacha qiymat standart xatoligi (S_x, S_y)		0,83	0,8	0,81	0.74
5.	Aniqlanish ko‘rsatkichi (S_x, S_y)		2,78 %	2,36 %	2,60 %	2,32 %
6.	Styudent (T) mezoni		3,5		1,64	
7.	Ko‘rsatkichlar natijasi		N_1 faraz qabul qilinadi.		N_0 faraz qabul qilinadi.	

Tajriba boshida respondentlarning ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligining o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi $\overline{x_o}$–3,7 ni tashkil qildi. Tajriba oxirida esa $\overline{x_o}$–4,2 ko‘rsatkichi qayd etildi.

Nazorat guruhida tajriba boshida $\overline{y_б}$–4,2, oxirida esa $\overline{y_o}$–4,3 ni tashkil qildi. Bu ko‘rsatkichlar orqali o‘zaro tajriba boshi va tajriba oxiridagi samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlandi. Respondentlarning tajriba boshi va tajriba oxiridagi samaradorlik ko‘rsatkichi $\eta_н$–1,13 ni ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich $\eta_н$–1,02 etib qayd qilindi. O‘rtacha qiymat ishonch oralig‘i $(a_x \in a_y \in)$ tajriba guruhining tajriba boshida qayd etilgan ko‘rsatkichi quyidagicha qayd etildi [3,5;3,9]. Tajriba oxirida esa [4,1;4,3] ko‘rsatkichi olindi.

Nazorat guruhida tajriba boshida [3,6; 4,17], tajriba oxirida [4,2;4,4] son ko‘rsatkichlari begilanib borildi. Yuqoridagi ko‘rsatkich orqali o‘rtacha qiymat ishonch oralig‘ini oshganlik darajasini ko‘rishimiz mumkin. Tajriba olib borilgan guruhning tajriba boshida o‘rtacha qiymat standart xatoligi (S_x, S_y) 0,83 ni va tajriba oxirida esa 0,8 ni tashkil etildi. Nazorat guruhida 0,81 va 0,74 ko‘rsatkichlari qayd etildi.

Aniqlanish ko‘rsatkichi esa tajriba boshida 2,78% ni oxirida esa 2,36 % ni tashkil etdi. Student mezoni orqali natijalarni tahlil qilish natijasida har bir bosqich bo‘yicha olingan natijalar matematik-statistik tahlil qilindi. Bu ko‘rsatkich 3,5 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 1,64 ni tashkil etdi. Tariba guruhiga nisbatan N_1 faraz qabul qilindi. Ya’ni, N_1 farazga ko‘ra tajriba guruhida olingan natija T_m=3,5 > $T_{0,96}$(t)=1,96.

Rahbarlarda olib borilgan treninglar turli texnologiyalarni qo‘llash, xususan, muommoli o‘qitish foydalangan holda seminar-treninglarni olib borishi natijasida hamda ular bilan birgalikda olib borilgan seminar-treninglar orqali yuqori ko‘rsatkichlarga erishildi.

Demak, 1-2-jadvallarga asosan tajriba guruhida qo‘llanilgan metodika nazorat guruhiga nisbatan samarali ekanligi aniqlandi.

XULOSA

Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida talabalarning pedagogik kompetentligini oshirish bir qator pedagogik- psixologik fanlarni, jumladan: Kasbiy pedagogika, Kasbiy psixologiya, ta’lim texnologiyalari, kasb ta’limi metodikasi, pedagogik mahoratni o‘rganish davomida amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu muammoni hal etilishida pedagogik amaliyotning o‘rni o‘ziga xosdir. Tadqiqotdan quyidagilar xulosa qilindi.

1. Zamonaviy ta’lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini o‘rganishning empirik usullari ta’lim muassasasining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu usullarni qo‘llash, rahbarlarning o‘z kasbiy kompetentliklarini yuqori darajaga ko‘tarish, jamoa bilan samarali ishlash va ta’lim jarayonini boshqarishda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

2. Zamonaviy ta’lim tizimi rahbarlarining kasbiy kompetentligi rivojlantiruvchi psixokorreksiya ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bunday yondashuvlar nafaqat rahbarning o‘ziga, balki ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga ham yordam beradi. Rahbarlarning psixologik ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning qaror qabul qilish jarayonlariga va ta’lim jarayoniga samarali ta’sir qiladi.

3. Rahbar shaxsiga xos rahbarlik shakillanishi uning boshqaruvdagi uslubi, faoliyat motivatsiyasi, boshqaruv muvaffaqiyatini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik muammolari to‘g‘risida ilmiy-nazariy konsepsiyalarning mavjudligi va ko‘rinishlari isbotlandi. Rahbar shaxsida liderlik qobiliyati

shakillanishi, bu shaxsga xos psixologik xususiyatlar, emotsional intellektning rivojlanganlik darajasi, o‘z-o‘ziga motivatsiya berish xususiyatlari bilan samaradorligini ta’minlovchi mezon ekanligi isbotlandi.

4. Ta’limda rahbar sifatida emotsional bilimdonlik, o‘z emotsiyalarini boshqarish omillarining yuzaga kelishiga asoslanib mukammallikka intilishning namoyon bo‘lishida shaxs ichki nizolarini susayishiga olib keluvchi omillarni inobatga olish kerak. Rahbarlarda shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirish uchun, maqsadga intilish, tanqidiylikni rivojlantirish muhimligiga ko‘ra «Rahbarlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish xususiyatlari» modelini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023.

2. SH.Mirziyoyev 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022., 06/22/60/0082-son.

3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda; 20-son, 354-modda; 23-son, 448-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 23-avgustagi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyundagi PQ-3151-son Qarori hamda O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 9-avgust kuni o‘tkazilan majlis bayoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida»gi 600-son buyrug‘i.

6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

7. Sh.M. Mirziyoyev. «Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalari»ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan.

8. A.M. Shonazarov «Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktiorlarining ijtimoiy-psihologik kompetentligini takomillashtirish» PhD olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.

9. Abdullayeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakillantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: Psixologiya fanlar doktori (Dsc). diss.: 19.00.05. – T.: O‘zMU, 2019.

10. N.M. Fedorova, O.Yu. Minchenkova «Upravleniye personalom»: uchebnik. – M.: KNOKURS, 2016. – 224s.

11. V.M. Karimova «Ijtimoiy psixologiya» darslik. – Toshkent, 2012.

12. A.M. Maxmudov Yosh rahbarlarda boshlang‘ich boshqaruv ko‘nikmalari shakillanib borishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Phd. 19.00.03. – T.: O‘zMU, 2020.

INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion ta’lim muhiti sharoitida talabalar loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati va metodlari yoritiladi. Loyihalash kompetensiyasi zamonaviy kasbiy faoliyatda muhim ko‘nikmalardan biri bo‘lib, talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlik bilan yondashishga va amaliy muammolarni hal qilishga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Innovatsion ta’lim muhitida talabalar uchun interaktiv usullar, masofaviy ta’lim texnologiyalari, jamoaviy loyihalar va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion, intreaktiv, ta’lim, metod, o’zlashtirish, loyihalash, mustaqil fikrlash, sifat, samardorlik, ijodkorlik.

KIRISH

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida ta’limni insonparvarlashtirish, raqobatdosh Innovatsion ta’lim muhitida talabalarni tayyorlash, xorijiy tajribalar asosida ta’lim mazmunini takomillashtirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «OTMda ta’lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash» ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Natijada Innovatsion ta’lim muhitida talabalarning loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik imkoniyatlar yaratildi.

Innovatsion ta’lim muhitida talabalarning loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish Respublikamizdagi pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarining «Pedagogika va psixologiya» bakalavriat talabalarining raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishida loyihalash kompetensiyalarini innovatsion ta’lim muhitini yaratish asnosida loyihalash, uning shakllanish jarayoni, xususiyatlari, diagnostik fikrlash, uning o‘ziga xos jihatlari, loyihaviy faoliyat, uning Innovatsion ta’lim muhitida talabalarning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati, ishlab chiqilgan diagnostik modelning funksional tuzilishi va uning mavjud holatdan natijagacha ketma-ketlikdagi integratsiyasining ustuvorligi bilan xarakterlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim olishning yangi shakllari, jumladan zamonaviy o‘qitish texnologiyalariga asoslangan tarmoqli, axborotli, masofaviy va innovatsion ta’lim texnologiyalari vujudga keldi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan yangi ta’lim turlarining paydo bo‘lishiga asosiy sabab, jamiyatning turli tabaqalariga mansub kishilarga bilim berish, ularning malakasini muntazam oshirib borish va qayta tayyorlash vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda, sobiq ta’lim tizimining yillar davomida shakllangan an’anaviy usul va vositalarining imkoniyatlari chegaralanganligidadir.

Bunday vaziyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayoni samaradorligini oshirish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»[1], 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5748-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»[2], 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonni yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmonlari[3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»[4], 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son «Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son «Ta’lim-tarbiya tizmini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Qarorlari[5] hamda mazkur faoliyat doirasidagi huquqiy-me’yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni ijrosini ta’minlashda amaliy jarayonga tatbiq etish yuzasidan ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada vazifa bajaradi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Loyiha faoliyatida kompetensiyani rivojlantirish murakkab va ko‘p vaqt talab qiladigan jarayondir, shuning uchun o‘rganilayotgan muammo *«kompetensiya»* tushunchasini batafsil ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, kompetensiyaviy yondashuvning asosini tashkil etgan atamalar mohiyatini tushunish borasida haligacha yagona qarash mavjud emas.

«Kompetentlik», «kompetentli», «kompetentlilik», «kompetensiya» tushunchalari kompetensiyaviy yondashuvning yetakchi kategoriyalari sifatida namoyon bo‘ladi.

Biz «kompetentlik» tushunchasini ta’riflashda ko‘p qirrali va xilma-xil qarashlar mavjudligiga ham ishonch hosil qildik. Ushbu xulosa, nafaqat mazkur atamaning etimologiyasiga, balki normativ-huquqiy hujjatlar va psixologik-pedagogik tadqiqotlarda taqdim etilgan materiallarga ham to‘liq tegishlidir. Kompetensiyaga bag‘ishlangan atamalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, «kompetensiya» so‘zi ot bo‘lib, «kompetentlik» uning hosilasi, ya’ni sifatidir. «Kompetensiya» shaxsning vakolatlari doirasini, «kompetentlik» esa uning xususiyatini xarakterlaydi.

Mutaxassislik fanlar tegishli fanning mantig‘ini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq aks ettiradi va shu bilan texnik bilimlar loyiha faoliyati uchun asos bo‘ladi.

Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik prinsipi fan metodlari (usullari): kuzatish, eksperiment, modellashtirish, tahlil va sintez, induksiya, deduksiya, umumlashtirish va cheklash, abstraksiya, idealizatsiya va boshqalar bilan oqilona birlashtirilganda o‘qitish usullarida aks etadi.

Talabalar nafaqat ushbu usullar bilan tanishishlari, balki yangi vaziyatda ulardan oqilona foydalanishlari kerak. Texnik mutaxassisliklar talabalari o‘rtasida loyiha faoliyatida kompetensiyani rivojlantirishning didaktik modelining mazmunini tavsiflaymiz. Didaktik model-bu yagona, yaxlit tuzilmani tashkil etuvchi va o‘quv maqsadlariga erishishga xizmat qiladigan elementlar to‘plami. Bu borada N.V.Kuzmina pedagogik jarayon besh elementning modeli sifatida quyidagicha asoslagan[6]:

– o‘qitishning maqsadi (M) (nimani o‘rgatish uchun);

– ta’lim axborot mazmuni (A) (o‘rgatish nima);

– o‘qitish usullari, texnikasi, pedagogik aloqa vositalari (V) (qanday o‘qitish kerak);

– o‘qituvchi (P);

– talaba (T).

Har qanday katta model singari, u ulanishlarning kesishishi bilan tavsiflanadi (gorizontal, vertikal va ilgarlanma-qaytma xarakatlar boshqalar):

[1] 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»


[2] 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5748 son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»

[3] 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108- son «O‘zbekistonni yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmonlari

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»

[5] 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-son «Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son «Ta’lim-tarbiya tizmini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Qarorlari


[6] Kuz’mina, N. V., Spetsialisty — sub’ekty izucheniya produktivnosti svoey deyatel’nosti (v svete akmeologicheskoy teorii fundamental’nogo obrazovaniya) [Experts as subjects for investigating their activities, in view of acmeological theory of fundamental education], Akmeologiya 2005. Metodologicheskie i metodicheskie problemy. SPb: Izd-vo TsSI, 2005



1-rasm. Pedagogik jarayonni didaktik modeli

Shu o‘rinda E.L. Belkinning pedagogik jarayonni didaktik modeli oltita elementdan iborat bo‘lib, ijtimoiy tizimning bir qismidir (barcha elementlar o‘zaro bog‘liq)[7]: 1) ta’lim va tarbiya maqsadlari; 2) ta’lim va tarbiya mazmuni; 3) ta’lim va tarbiya texnologiyasi (usullari, texnikasi, shakllari); 4) tashkiliy shakllari; 5) o‘qituvchi; 6) talaba.

Binobarin, har qanday pedagogik model, har qanday o‘qituvchi tomonidan yaratilganidan qat’i nazar, har doim bir xil tuzilishga ega bo‘ladi:



2-rasm. Pedagogik jarayonni elementlari

V.I. Zagvyazinskiy, «bugungi kunda pedagogik texnologiya predmeti aniq maqsadlarni belgilash, tizimlashtirish, o‘qitish usullarini algoritmlashtirish asosida tashkil etilgan har qanday faoliyat turlarida o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi amaliy o‘zaro munosabatlar sohasini qamrab oladigan bilim sohasi sifatida eng umumiy shaklda belgilanadi»[8].

Pedagogik mutaxassisliklar talabalari uchun loyiha faoliyatida kompetensiyani rivojlantirish uchun biz o‘quv texnologiyalaridan foydalanamiz. Pedagogikani o‘rganish orqali biz «belgilangan maqsadlarga eng samarali erishishni ta’minlaydigan ta’lim shakllari, usullari va vositalari tizimini ifodalovchi o‘quv dasturlari tomonidan taqdim etilgan o‘quv mazmunini amalga oshirish usulini» tushunamiz.

NATIJALAR

Ko‘p bosqichli ta’lim tizimi va masofaviy ta’lim jarayoniga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan holda ta’limni modernizasiya qilish jarayonida umumkasbiy va ixtisoslik fanlari, ayniqsa, amaliy va laboratoriya ishlari uchun auditoriya soatlari sezilarli qisqartirilganligi, shuningdek, bakalavrlar uchun o‘qish muddati to‘rt yil bo‘lganligi sababli oliy ta’lim qiyin davrni boshdan kechirmoqda. Ushbu holat kelajakdagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o‘qituvchilarining axborot texnologiyalaridan savodxonligi va kasbiy mahorat darajasini oshirishga, shuningdek uning pedagogik bilimdonligini rivojlantirishga qaratilgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitishning eng samarali didaktik tamoyillarini izlashni talab qiladi.

Amaliyot tadqiq qilinayotgan haqqoniyligini belgilovchi mezon bo‘lib, ta’lim jarayonida fanlarni o‘qitishda innovatsion ta’lim muhitida takomillashtirilgan pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha «Pedagogik o‘lchovlarning nazariy asoslari fanining metodologik asoslari» fani misolida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etdik.

Tajriba-sinov ishlarini «Pedagogik o‘lchovlarning nazariy asoslari fanining metodologik asoslari» fani o‘qitishda talabalarning bilim va ko‘nikmalari natijalari testlar, savollarga berilgan javoblar, topshiriqlarni bajarishlari orqali ularning ijobiy yechimini topishlariga qarab aniqlandi. Biz taklif etgan takomillashgan o‘quv reja va fan dasturlari asosida o‘qitishda ta’lim samaradorligi oshishini kuzatdik. Buning uchun qator yillar davomida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitiladigan fanlar yuzasidan nazorat va tajriba sinov guruhlarida tadqiqot-kuzatuv ishlari olib borildi.

Olib borilgan tadqiqot kuzatuv ishlarida tanlab olingan ta’lim muassasalarida tajriba boshidagi va tajriba yakunidagi natijalar olindi

1-jadval. Tanlab olingan ta’lim muassasalarida tajriba boshidagi natijalar

Mezonlar	Guruhlar	Baholash darajalari			
		Soni	Radikal (yuqori)	Kombinativ (o‘rta)	Adaptiv (quyi)
TDPU					
Motivatsion- qadriyatiy	TG	53	4	11	38
	NG	57	5	10	42
Kognitiv (bilish, gnostik, intelektual)	TG	53	5	11	37
	NG	57	4	14	39
Amaliy-faoliyatli	TG	53	4	12	37
	NG	57	4	13	40
Refleksiv-baholash (ijodiy, kreativ faoliyat)	TG	53	5	12	36
	NG	57	4	15	38

Tajriba boshida innovatsion ta’lim muhitida talabalarning loyihalash kompetensiyasining quyidagi tarkibiy komponentlarini shakllanganligini aniqlash maqsadida olingan natijalariga ko‘ra tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan OTMlarining umumiy ko‘rsatkichlari qiyoslandi. Ushbu qiyosiy tahlil natijalari ko‘ra tajriba boshidagi umumiy natijalariga ko‘ra tajriba va nazorat guruhlarining Motivatsion- qadriyatiy mezoni bo‘yicha Radikal (yuqori) darajadagi o‘zlashtirishlari 6,9%va 8,3%ni, Kombinativ (o‘rta) darajadagi o‘zlashtirishlari 21,4%va 18,5%ni va Adaptiv (quyi) darajadagi o‘zlashtirishlari 71,7%va 73,2%ni tashkil etib, Adaptiv (quyi) darajadagi o‘zlashtiruvchilar ko‘pchilikni tashkil etishi aniqlandi. Bu esa Motivatsion qadriyatiy mezoni bo‘yicha innovatsion

[7] А. Э. Белкин, «Определение законов неоднородности покрытия цилиндра, находящегося в плоском волноводе, для обеспечения минимального отражения звука», *Чебышевский сб.*, **21**:4 (2020), 354–368


[8] *Загвязинский, В. И.* Методология педагогического исследования : учебник для вузов / В. И. Загвязинский. — 2-е изд., испр. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2025. — 105 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-07865-7. — Текст : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: https://urait.ru/bcode/562722 (дата обращения: 20.02.2025).

ta'lim muhitida talabalarning loyihalash kompetensiyasining tarkibiy komponentlari yuqori darajada rivojlanmaganligini bildiradi

Kognitiv (bilish, gnostik, intelektual) mezoni bo'yicha Radikal (yuqori) darajadagi o'zlashtirishlari 8,8% va 7,7% ni, Kombinativ (o'rta) darajadagi o'zlashtirishlari 22,6% va 24,4% ni va Adaptiv (quyi) darajadagi o'zlashtirishlari 68,6% va 67,9%ni tashkil etib, Adaptiv (quyi) darajadagi o'zlashtiruvchilar ko'pchilikni tashkil etishi aniqlandi. Bu esa Kognitiv (bilish, gnostik, intelektual) mezoni bo'yicha innovatsion ta'lim muhitida talabalarning loyihalash kompetensiyasining tarkibiy komponentlari yuqori darajada rivojlanmaganligini bildiradi.

Amaliy-faoliyatli mezoni bo'yicha Radikal (yuqori) darajadagi o'zlashtirishlari 8,2% va 8,3% ni, Kombinativ (o'rta) darajadagi o'zlashtirishlari 23,3% va 22,6% ni Adaptiv (quyi) darajadagi o'zlashtirishlari 68,6% va 69,0% ni tashkil etib, Adaptiv (quyi) darajadagi o'zlashtiruvchilar ko'pchilikni tashkil etishi aniqlandi. Bu esa Amaliy-faoliyatli mezoni bo'yicha innovatsion ta'lim muhitida talabalarning loyihalash kompetensiyasining tarkibiy komponentlari yuqori darajada rivojlanmaganligini bildiradi.

Refleksiv – baholash (ijodiy, kreativ faoliyat) mezoni bo'yicha Radikal (yuqori) darajadagi o'zlashtirishlari 8,2% va 8,3% ni, Kombinativ (o'rta) darajadagi o'zlashtirishlari 24,5% va 23,8%ni va Adaptiv (quyi) darajadagi o'zlashtirishlari 67,3% va 67,9% ni tashkil etib, Adaptiv (quyi) darajadagi o'zlashtiruvchilar ko'pchilikni tashkil etishi aniqlandi. Bu esa Refleksiv-baholash (ijodiy, kreativ faoliyat) mezoni bo'yicha innovatsion ta'lim muhitida talabalarning loyihalash kompetensiyasining tarkibiy komponentlari yuqori darajada rivojlanmaganligini bildiradi (4.3.1-rasm)



3-rasm. Tajriba boshidagi tajriab va nazorat guruhlarining mezonlar bo'yicha o'zlashtirish darajalari

Ta'lim-tarbiya jarayonining protsessual xarakteri, uning o'ziga xos obyekti hamda subyekti hisoblangan tahsil oluvchilarning faolligi, mustaqilligini ta'minlovchi faol o'qitish metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilib, amalga joriy etildi. Tajriba boshidagi natijalardan kelib chiqqan xolda tadqiqot ishida ilgari surilgan kompetensiyalarni rivojlantirishdagi uchraydigan muammolar va ularni hal qilish usullarini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish vazifalari beligilanib, tajriba sinov ishlarining keyingi bosqichlarida ilgari surilgan dastur asosida tadqiqot ishi davom ettirildi va tajriba sinov ishlari oxirida «Pedagogik o'lchovlarning nazariy asoslari fanining metodologik asoslari» fani o'qitishda talabalarning bilim va ko'nikmalari natijalari testlar, savollarga berilgan javoblar, topshiriqlarni bajarishlari orqali aniqlandi va quyidagi natijalar olindi.

2-jadval. tanlab olingan ta'lim muassasalarida tajriba oxiridagi natijalar


Mezonlar	Guruhlar	Baholash darajalari			
		Soni	Radikal (yuqori)	Kombinativ (o'rta)	Adaptiv (quyi)
TDPU					
Motivatsion qadriyatiy	TG	53	13	28	12
	NG	57	6	13	38
Kognitiv (bilish, gnostik, intelektual)	TG	53	12	29	12
	NG	57	5	15	37
Amaliy-faoliyatli	TG	53	10	33	10
	NG	57	5	14	38
Refleksiv –baholash (ijodiy, kreativ faoliyat)	TG	53	11	31	11
	NG	57	5	16	36

Ushbu qiyosiy tahlil natijalari ko'ra tajriba yakunidagi umumiy natijalariga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarining Motivatsion qadriyat mezoni bo'yicha Radikal (yuqori) darajadagi o'zlashtirishlari 22,0% va 10,1%n i, Kombinativ (o'rta) darajadagi o'zlashtirishlari 53,3% va 22,0% ni, Adaptiv (quyi) darajadagi o'zlashtirishlari 22,6%v a 67,9% ni tashkil etib, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan **Radikal (yuqori)** darajadagi o'sish 11,9% ni, **Kombinativ (o'rta)** darajadagi o'sish 33,3% ni tashkil etgan bo'lsa, **Adaptiv (quyi)** daraja o'zlashtiruvchilar 45,2% ga kamayganligi aniqlandi.

Kognitiv (bilish, gnostik, intelektual) mezoni bo'yicha Radikal (yuqori) darajadagi o'zlashtirishlari 22,6% va 9,5%ni, Kombinativ (o'rta) darajadagi o'zlashtirishlari 56,0% va 26,2%ni, Adaptiv (quyi) darajadagi o'zlashtirishlari 21,4%va 64,3%ni tashkil etib, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan **Radikal (yuqori)** darajadagi o'sish 13,1%ni, **Kombinativ (o'rta)** darajadagi o'sish 29,8%ni tashkil etgan bo'lsa, **Adaptiv (quyi)** daraja o'zlashtiruvchilar 42,9%ga kamayganligi aniqlandi

Amaliy-faoliyatli mezoni bo'yicha Radikal (yuqori) darajadagi o'zlashtirishlari 22,0% va 10,1% ni, Kombinativ (o'rta) darajadagi o'zlashtirishlari 57,9% va 24,4% ni, Adaptiv (quyi) darajadagi o'zlashtirishlari 20,1%va 65,5%ni tashkil etib, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan **Radikal (yuqori)** darajadagi o'sish 11,9% ni, **Kombinativ (o'rta)** darajadagi o'sish 33,5% ni tashkil etgan bo'lsa, **Adaptiv (quyi)** daraja o'zlashtiruvchilar 45,4% ga kamayganligi aniqlandi .

Refleksiv baholash (ijodiy, kreativ faoliyat) mezoni bo'yicha Radikal (yuqori) darajadagi o'zlashtirishlari 20,8% va 10,1% ni, Kombinativ (o'rta) darajadagi o'zlashtirishlari 59,1% va 25,6% ni, Adaptiv (quyi) darajadagi o'zlashtirishlari 20,1% va 64,3% ni tashkil etib, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan **Radikal (yuqori)** darajadagi o'sish 10,6%ni, **Kombinativ (o'rta)** darajadagi o'sish 33,5%ni tashkil etgan bo'lsa, **Adaptiv (quyi)** daraja o'zlashtiruvchilar 44,2%ga kamayganligi aniqlandi (4.3.2-rasm)



4-rasm. Tajriba oxiridagi tajriba va nazorat guruhlarining mezonlar bo'yicha o'zlashtirish darajalari

Tajribalarda olingan natijalarni ishlab chiqishda bir qatorning chastotalari bilan boshqa qatorning chastotasini taqqoslash, nazariy chastotalar bilan tajribaviy qatordagi farqni tasodifiy yoki tasodifiy emasligini aniqlash lozim bo'ladi. Buning uchun mashhur ingliz statisti K.Pirson tomonidan taklif etilgan «χ^2 kvadrat» (χ^2) mezoni yoki muvofiqlik mezonidan foydalanildi.

XULOSA

1. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish tadqiqotchilarning ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim muhitida talabalarning loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda talabalar tomonidan interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalarining imkoniyatlaridan to'laligicha foydalanish va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilmaganligini ko'rsatdi va mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablar va kasbiy malaka tushunchasini ta'rifi (mohiyati) ni aniqlashtirish talab etdi.

2. Innovatsion ta'lim muhitida talabalarning loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalari va metodlari deganda biz uning subyektlarining axborotlarni olish, saqlash, aks ettirish va etkazish yangi axborot vositalari va metodlari asosida pedagogik jarayonni rejalashtirishni, boshqarish, maqsadlarini amalga oshirish, tahlil qilish va bashoratlashtirishni tushunamiz.

3. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va metodlarining samarali imkoniyatlari aniqlandi. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika va psixologiya yo'nalishi o'qituvchilarini tayyorlashda uni muvaffaqiyatli sinovlardan o'tkazilishi bizga o'z tushunchamizni ifoda etishga imkon berdi.

4. Talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagilar: mutaxassisni tayyorlashga ijtimoiy buyurtma; muassasaning moddiy-texnik va metodik resurslari; o'quv jarayoni tashkil etildi.

5. Ta'lim jarayonida fanlarni o'qitish asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning axborot-didaktik ta'minoti ilmiy va metodologik yondashuvlar hamda tamoyillarni innovatsion loyihalashtirish asosida mazmunan rivojlantirildi, innovatsion o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan takliflardan ilmiy ishlanmalar, o'quv-metodik tavsiyalar va ko'rsatmalar ishlab chiqishda foydalanildi, malakali muhandis kadrlar tayyorlashda o'quv jarayonini tashkil etish metodikasi takomillashtirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-sonli Qonuni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi №PF-60 sonli 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi PQ-4939-sonli «Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-noyabrdagi №PF-6108 sonli O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. https://lex.uz/docs/4749364

9. Abdullayeva Sh.A. O'spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashning pedagogik asoslari// Ped. fan. dok. diss. – Toshkent, 2005. – 325 b.

10. Abdullaeva B.S. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari. Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022. – 70 b.

11. Djuraev R.X. Проблемы подготовки мобильных и конкурентоспособных кадров// «Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» Xalqaro ilmiy-metodik jurnal – Buxoro, 2021. – 5 son.

12. Qo'ysinov O.A., Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monog. – T.: «Fan», 2009.

KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH (INGLIZ TILI MIQYOSIDA)

Kamola Madjitova



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarining kasbiy komptentligini oshirish uchun ta’lim samaradorligiga erishishda ta’lim klasteri usullarini qo‘llash, ushbu soha xodimlari faoliyatini yuksaltirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish bugungi kun ta’lim tizimini yuksak salohiyatli, malakali pedagog kadrlarni yetkazib berish masalasi ta’lim klasterini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish kerakligini taqozo etishi kerakligi haqida ushbu maqolada keltirib o‘tilgan. Shunga bog‘liq ravishda ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarining aynan qanday kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozimligi bo‘yicha to‘plagan ma’lumotlarimiz bilan o‘rtoqlashib o‘tishni oldiga vazifa qilib qo‘yildi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, pedagog, klaster, kompetentlik, intellektual-ijodiy, kasbiy, klaster usullar, individual.

KIRISH

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini o'qitish mazmuni va o'quv metodik ta'minoti, ta'lim texnologiyalari, shuningdek bo'lajak o'qituvchilarning klasterli komptentsiyasini shakllantirish innavatsion texnologiyalar ilg'or metodlarni rivojlantirish, ta'lim natijalarini baxolashni obyektivligini ta'minlovchi vositalarni ishlab chiqish kabi yo'nalishlarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga ingliz tilini o'qitish sifatini takomilashtirish davlat ta'lim siyosatini ustivor yo'nalishlari qatorida ilmiy izlanishlar mustaqil yo'nalishi, hamda pedagogika fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanalib, innovasion texnologiyalar asosida talabalarga ingliz tilini o'qitish bo'yicha samarali tizimni yo'lga qo'yish zaruratini belgilaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarining kasbiy komptentligini oshirish uchun ta'lim samaradorligiga erishishda ta'lim klasteri usullarini qo'llash ushbu soha xodimlari faoliyatini yuksaltirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish bugungi kun ta'lim tizimini yuksak salohiyatli, malakali pedagog kadrlarni yetkazib berish masalasi ta'lim klasterini to'g'ri yo'lga qo'yish kerakligini taqozo etmoqda.

Jahonda xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish orqali shaxsning muvofiqiyatli ijtimoiylashuvini amalga oshirish, hamda davlat va jamiyatning umumjahon integratsiyalashuvi tezlashtirish muhim tendensiyalardan biri hisoblanadi. Jahon oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda bilimlarni o'zlashtirish va kasbiy faoliyat modelini loyihalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati kun tartibiga qo'yilgan. Hozirgi kunda ta'lim tizimini shiddatli rivojlanishi pedagog xodimlar va talabalar oldiga qator vazifalar qo'yadi. Ayniqsa oliy talimni rivojlantirishda innavatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Rossiya va boshqa ko'plab davlatlarda zamonaviy ta'lim klasterini tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakat va mintaqalararo diplamatik aloqalarning kengayishiga munosib hissa qo'sha oladigan, turli murakkab professional masalalarni hal qilishga qodir yuqori malakali kadrlar tayorlashga bo'lgan talab ham kuchaymoqda[1].

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan jiddiy islohotlar mazkur tizimni tubdan takkomillashtirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayorlashning maqsadli yo'nalishlarini aniqlash, ayniqsa pedagog kadrlarning kasbiy malakalarini va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirishni taqazo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezdentining 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustivor vazifalari to'g'risidagi oliy majlisga murojatnomasida ham dolzarb vazifalar va masalar qatorida ilm, fan, ta'lim va ijtimoiy-iqtisodiy hayot munosabatlariga alohida urg'u berilganligi bejiz emas[2].

Bunda M. Porterning «Практическая психология», D.A. Xardning «Инновационные кластеры: основные идеи», A.P. Agarkov va R.S. Golovlarning «Проектирование и формирование инновационных промышленных кластеров» asaarlari o'rganildi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Kasbiy faoliyatga bo'lajak pedagoglarni zamonaviy talablar asosida tayyorlash, o'quv faoliyat jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini yaratish zarur. So'nggi yillarda ta'limning klasterlanishi asosiy masalaga aylandi.

Klaster bu – ma'lum bir sohada faoliyat yuritadigan va umumiy faoliyat bilan tavsiflanadigan va bir-birini to'ldiruvchi tashkilotlar guruhi hisoblanadi. Ta'lim klasteri tashkilotlar bilan hamkorlikda birlashtirilgan ta'lim muassasalarining yig'indisi. Shu bilan birga, ta'lim klasteri – bu fan-texnikaning innovatsion zanjiridagi gorizontal bo'g'inlarga asoslab o'qitish, o'zaro o'rganish va o'z-o'zini o'qitish vositalari tizimidir.

Ta'lim klasteridagi muassasalar orasida oliy ta'lim yetakchilik qiladi. Chunki bugungi kunda pedagogika sohasining o'rni mintaqada gumanitar salohiyatni rivojlantirishda muhim sub'yekt sifatida tobora kuchayib bormoqda. Natijada uzluksiz ta'lim turlari bilan hamkorikda oila va mahallani birlashtirish tizimi vujudga kelmoqda.

Klaster yondashuvning ilmiy nazariyasi va amaliyotiga bog'liq xususiyatlari xorijiy olimlar M. Portep klaster yo'nalishida talabarni xorijiy tillarni o'zlashtirishi haqida ilg'or tortdi[3].

D.Xard klaster tamoyillarinim ta'lim turlarini rivojlanishi muhimligi haqida ta'kidi o'rganilgan[4].

T.V.Sikan fikricha,«klaster-ma'lum bir ilmiy muassasa (ilmiy-tadqiqot institutlari) bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tegishli tarmoqlar doirasidagi iqtisodiy faoliyatning mintaqaviy cheklangan shakllaridir»[5].

Maqolada ta'lim klasteri tarkibi OTM, ilmiy tadqiqot institutlari, umumiy o'rta ta'lim maktabi, maktabgacha ta'lim boshqarmasi, kasb-hunar maktablari, professonal ta'lim, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, mahalladan iborat bo'lishini ko'zda tutganmiz. Bu esa talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish imkonini yanada kengaytiradi.

Rus olimlari M. Tereshin va V.M. Volodin tomonidan «Klaster» tushunchasiga tarmoq yondashuvi nuqtai nazaridan qaraladi. Klaster – bu tarmoq guruhi asosan mustaqil, geografik jihatdan qo'shni, asosan rasmiy bo'lmagan o'zaro bog'liq munosabatlar tizimi» – deb ta'riflanadi[6].

Keltirilgan mulohazalari asosida «klaster» tushunchasi umumiy xususiyatga ega bo'lib, geografik jihatdan birlashgan, hamda o'zaro yaqin joylashgan tashkilot va ijtimoiy institutlar yaqinligidir deyish mumkin. Yagona maqsadga erishishda kuchli yetakchiga ega bo'lgan keng doiradagi ishtirokchilar jamoasi deyish mumkin.

F.P.Karaeva klaster yondashuvini tizimli va maxsus tamoyillarga ajratgan. Olima tizimli tamoyillarni klasterlashga qo'yiladigan umumiy talablardan kelib chiqib, ishlab chiqqan. Ya'ni izchillik, majmuaviylik, ilmiylik, sinergetik, natijaviylik, dinamik muvozanat, moslashuvchanlik, motivatsion. Maxsus bunda ixtiyoriylik, sheriklik, klasterlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi va klasterning korporativ stpategiyasini birlashtirish, ishtirokchilarning strategik maqsadlarini shakllantirilayotgan mintaqaviy klaster maqsadlariga muvofiqligi, shaxsiy imtiyozlar, resurslar xavfsizligi va maksimal darajada mavjud salohiyatdan foydalanishni nazarda tutgan[7].

---

[1] Zikirjona M.F: Xorij davlatlarini ta'lim tizimi (Aqsh,Yaponiya,Germaniya misolida) // . – Toshkent, 2022. №.6 – B. 261-265. www.scientificprogress.uz

[2] Mirziyoyev Sh.M., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga iqtisodiy tadqiqotlar sifati va rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2022-yil 18-mart // http://www.lex.uz

[3] Портер М. Практическая психология. Пособия для выших заведения. – Москва.: 1998, Стр. – 76

[4] Хард Д.А. Инновационные кластеры: основные идеи. – Москва: Наука, 1996, Стр. –120 // http://www innosys.spb.ru

[5] Агарков А.П., Голов Р.С. Проектирование и формирование инновационных промышленных кластеров. – Москва: 2019. Стр. – 177.

[6] Цихан Т.В. Кластерная теория экономического развития. Теория и практика управления. 2003. Стр. – 15.

[7] Дуброва В., Ковалевич А. Основы психологии. Хрестоматия: учеб. пособие. Москва/Беларусью.: 2003. Стр. – 495.

Natijalar

Tajriba-sinov davrida talabalarning intellektual va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish bo‘yicha metodik ishlar qay darajada yo‘lga qo‘yilganligi tahlil qilindi. Bunda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni talabalarning qiziqish va ehtiyojiga ko‘ra tashkil etildi. Shuningdek, tajriba uchun dastur, usul va vositalar tanlab olindi. Tajriba obyektlari sifatida Chirchiq davlat pedagogika universiteti turizm yo‘nalishining 1, 2-kurs talabalari tanlab olindi. Tajriba-sinov ishlari 2-bosqichda amalga oshirildi.

1-bosqichda talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga inegratsion yondashuv sifatida qaralayotganini tahlil qilish.

2-bosqichda oliy pedagogik ta’lim muassasalari pedagoglari bilan anketa-so‘rovnoma o‘tkazish.

1-bosqichda oliy pedagogik ta’lim muassasalari pedagoglari bilan anketa- so‘rovnoma o‘tkazish.

So‘rovnomalar quyidagi mazmunda olib borildi:

Professor-o‘qituvchilar intellekt va ijodiy qobiliyat komponentlari (individual xususiyat, o‘quv-tarbiyaviy, mustaqil va tadqiqiy faoliyat) haqida qay darajada tushunchaga ega.

1. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini erta rivojlantirishda yuqoridagi aspektlarning zarurligini anglaydi;

2. Oliy ta’lim muassasalaari professor-o‘qituvchilari o‘quv dars mashg‘ulotlari va darsdan bo‘sh vaqtlarda talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga qay darajada e’tibor qaratayotganliklari;

3. Ustozlarning maktabgacha pedagogika fan modulini o‘qitish jarayonida talabalarda intellektual va ijodiy salohiyatni rivojlantirishni prognozlash va tahlil qila olishlari;

4. Talabalarda aqliy va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar asosida dars mashg‘ulotlari tashkil etish, o‘quv topshiriqlaridan foydalanish holati;

5. Bo‘lajak pedagoglarning intellektual jihatdan yetukligi va ijodkorligi, pedagogik faoliyatga samarali tayyor bo‘lishi, kasbiy bilimlarini aniqlashga qaratilgan savol va topshiriqlardan foydalanishlari keng tahlil qilindi.

2-bosqichda talabalarning intellektual va ijodiy rivojlanishiga qaratilgan anketa-so‘rovnomalar foydalandik.

So‘rovnoma mazmunida:

– intellekt haqida tushuncha va talabalarda ijodiy tasavvurlarning qay daraja shakllanganligi;

– talabaning turli faoliyat yo‘nalishlariga individual yondashivi yangi g‘oyalar, kashfiyotlar yaratish va turli muammoga yechim izlab topish, ijodkorlik, tavsiya qilish, ko‘nikmasiga ekanligi;

– berilgan o‘quv topshiriqlarini bajarish orqali talabalarda intellektual qobiliyatni namoyon etish imkoniyatlari;

– talabaning jamoa bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini shakllanganligi;

– innovatsion va media muhit imkoniyatlaridan foydalana olish, o‘rganish va tahlil qilishga yo‘naltirishi kabi muammolar aks etgan.

Tajriba sinov ishlarida talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlanganlik darajalari mezonlari aniqlandi va ular qo‘yidagi jadvalda aks ettirildi: Ushbu mezonlar bo‘yicha dastlabki bosqichda talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlanganlik darajalarini aniqlash so‘rovnomasi o‘tkazildi va ushbu so‘rovnomada qo‘yidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lindi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida tajriba va nazorat guruhlari talabalarida intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlanganlik darajalari tahlili amalga oshirildi.


1-jadval

Tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili

Guruhlar	Tajriba davri	Talabalar soni (60nafar)	Rivojlanish darajasi		
			Yuqori	O‘rta	Past
Nazorat	Tajriba yakunida	60	12	26	22
	Tajriba boshida	60	12	26	22
Tajriba	Tajriba yakunida	60	28	18	14
	Tajriba boshida	60	10	25	25

Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili

Tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash maqsadida respondentlar teng asosda tajriba va nazorat guruhlariga biriktirildilar. Tajriba guruhida dissertant tomonidan tavsiya etilayotgan, hamda o‘quvchilarining amaliy ko‘nikmalarini shakllanishini taminlashga yordam beruvchi metodika asosida amaliy faoliyat yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, nazorat guruhlarida esa an’anaviy tartibda o‘quv-tarbiya ishlari olib borildi.



1-rasm Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalarining intellektual-ijodiy rivojlanganlik daraja ko‘rsatkichlari.


2-jadval

O‘quvchilarning tajriba boshida amaliy ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi

Tajriba bosqichi va o‘quv yili	Oliy va o‘rta ta’lim vazirligiga tegishli	Talabalar soni		Daraja (o‘zlashtirish)	Tajriba guruhida	Nazorat guruhida
		Tajriba Guruhi	Nazorat guruhi			
2024-2025 o‘quv yili	Chirchiq ped universiteti	60	60	yuqori (a’lo)	28 (46%)	12 (20%)
				o’rta (yaxshi)	18(31%)	26 (43%)
				past (qoniqarli)	14(23%)	22 (36%)

Ingliz tili fani bo‘yicha o‘quv yilining tajriba va nazorat guruhlarida tajriba boshida o‘tkazilgan yakuniy nazorat, hamda mustaqil ta’lim olish jarayonida mustaqil ish topshiriqlari natijalari jadvalda berilgan. Ingliz tili fanidan dars turlarini quyidagicha tashkil qilish maqsadga muvofiq: yangi mavzuni tushuntirishda ko‘rgazmali metoddan foydalanish, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, munozara uyushtirish, o‘quvchirning fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashish, ijodiy faolliklarini o‘stirish, mustaqil fikrlashlarini shakllantirish, amaliy ko‘nikmani rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotlardan olingan natijalar asosida talabalarning ingliz tili bo‘yicha kasbiy kompetentlikning qiyosiy tahlili quyidagi gistogrammada.



2-rasm. Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalarining intellektual-ijodiy rivojlanganlik daraja ko‘rsatkichlari.

Tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish samaradorligini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirishlarini studentning klaster metodi yordamida tahlil etdik. Tajriba-sinovda jami 60 nafar talabalar qatnashdi. Shundan, tajriba guruhida 60 nafar talaba ishtirok etgan bo‘lsa, nazorat guruhida 60 nafar talaba ishtirok etdi. Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: 2 ta bosqichdan iborat bo‘ldi. Birinchi bosqichda tajriba va nazorat guruhidagi talabalar bilimining o‘rtacha ballari olindi, ikkinchi bosqichda esa tajriba va nazorat guruhidagi bilimining o‘rtacha ballari olindi va taqqoslandi va natijada 10 %i bilan farq qildi. Baholar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi.

Bundan ma’lumki, tajriba guruhidagi o‘zlashtirish nazorat guruhidagi o‘zlashtirishdan yuqori ekan. Demak, talabalarning intellektual-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish samaradorligini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligi statistik tahlildan ma’lum bo‘ldi.

Shunday qilib, tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlanganlik darajasining sifat va miqdoriy darajasi oshganligini ko‘rsatuvchi xulosaning haqqoniyligi isbotlandi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi xulosalarni asoslash imkonini yaratdi: Zamonaviy yondashuv asosida talabalarning intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, dars mashg‘ulotlarni tashkil etish va takomillashtirish natijasida samaradorlikka erishildi.

Talabalarning intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishni belgilovchi mezonlar va ularni qo‘llash orqali oliy ta’lim amaliyotida erishilgan natijalardan professor-o‘qituvchilar eng maqbul bo‘lgan yo‘llarni tanlashda foydalanishlari uchun muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi. Talabalarning intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan klasterli yondashuv modeli o‘qituvchilarning mazkur yo‘nalishdagi faoliyatini maqsadli tashkil etish imkonini beradi.

Xulosa

Klaster yondashuvi o‘quv va ilmiy-innovatsion jarayon majmuasidir. Majmuaning asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasalari va ish beruvchilar uchun mutaxassislarni ko‘p bosqichli tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishdan iborat.

Shuningdek, ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda muammoni topish, ta’lim ishtirokchilarini faollashtirish turli mavzularda seminarlar tashkil etish va rag‘batlantirish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, mutaxasislarni tayyorlashni moslashuvchan tizimini yaratish lozim. Mazkur faoliyatni talabalarda intellektual va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan holda amalga oshirishda klasterli yondashuv dolzarb hisoblanadi.

Uning mohiyati shundaki, talabaning nazariy bilimlari turli sub’yektlar munosabati asosida amaliyotga tatbiq etiladi. Klaster yondashuvi ishtirokchilari har tomonlama rivojlangan bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashning ko‘p siklli tizimini tashkil etadi, moslashtiradi, muvofiqlashtiradi va tartibga soladi. Ushbu jarayonda intellektual darajasi yuqori, ijodkor, zamonaviy bilim va kompetensiyaga ega bo‘lgan pedagog kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim yetakchilik qilsa, buyurtmachilar, maktabgacha ta’lim tashkiloti, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, professional ta’lim, kasb-hunar maktablari o‘z manfaatidan kelib chiqib, jarayonda faol ishtirok etadi.

Klaster yondashuvi oliy ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi, mutaxasislari malakasini oshirish va qayta tayyorlash sohasidagi ishlarni, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishni nazarda tutuvchi ikki tomonlama sheriklik shartnomalariga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar natijasida ilmiy-tadqiqot institutlari nazariy bilimlarni, amaliyot bilan uyg‘unlashtirib, o‘z ehtiyojlari va rivojlanish istiqbollariga muvofiq, ilmiy va o‘quv bazasida mutaxassisni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Klaster yondashuvi talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda jamiyatning o‘zgaruvchan talablariga mos holda oliy ta’lim mazmuni va shakllarini optimallashtirish, innovatsion faoliyatni tashkil etish, ta’lim sifatini oshirish, samarali texnologiyalarni aniqlash, ta’lim subyektlari integratsiyasini ta’minlash imkonini berish bilan tavsiflanadi.

Shuningdek, bevosita umumiy maqsadlarga erishish, ta’limiy jarayonda yuz beradigan muammolarni bartaraf etish, innovatsion yechimlarni topish va amalga oshirish bilan bog‘liqdir.

Ta’lim klasteri sharoitida talabalarning intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi xulosalar berildi:

– holda, pedagogik amaliyotni ishlab chiqarish uzviyligi bilan bog‘lash;

– talabalardan erta kasbiy kompetensiya va ijodiy qobiliyatni rivojlantirgan ta’lim klasteri sharoitida manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda ixtisoslik fanlarini chuqur o‘qitish;

– talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatqichlari va qiziqishlarini hisobga olgan, holda jamoaviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

– maktabgacha pedagogika fani o‘quv reja va dasturlarini ilm, fan, hamda texnologik yangilanishlar asosida takomillashtirib borish;

– oliy ta’lim sifati va bitiruvchilarni baholashda iste’molchilar ishtirokini kengaytirish, ta’lim sifatini ta’minlashda ularni jalb qilish;

– mehnat bozorida mutaxassislarga bo‘lgan talab va takliflarni inobatga olgan holda oliy va professional ta’lim bilan bir qatorda kasb-hunar maktablarida ham dual ta’limni tashkil etish.

Yuqorida keltirilgan mulohazalar asosida oliy ta'lim muassasasida ta'lim- tarbiya jarayonlarini iste'molchi talablariga muvofiq tashkil etish zarur degan xulosaga kelindi. Klasterli yondashuvi orqali talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish, shakl, usul va texnologiyalarni korporativlik tamoyili asosida tanlash, moddiy-texnik bazani takomillashtirish ta'lim sifatining eng muhim sharti sanaladi. Mamlakat, hudud va ta'lim muassasasi darajasida ta'lim sifatiga e'tibor qanchalik qaratilsa, uni takomillashtirishga sarflangan xarajatlar samaradorligi ortib borsa, bo'lajak pedagoglarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga erishish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotimizda talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda mintaqaviy ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida ta'limga klaster yondashuvini tatbiq qilish tavsiya qilinadi. Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, klaster yondashuvidan samarali foydalanish ya'ni fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash, oliy ta'lim sifatini oshirish tadqiqotning asosiy konsepsiyasini tashkil qiladi. Unda kollobarativ yondashuvni amalga oshirish orqali ta'lim sub'yektlari va jarayonlarining o'zaro hamkorlikdagi muammolarni bartaraf etish mumkin. Mazkur yondashuv ta'lim sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan barcha sub'yektlarning maqsadga erishishida yuqori samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga iqtisodiy tadqiqotlar sifati va rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2022-yil 18-mart // http://www.lex.uz

2. Mirziyoyev Sh.M., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida. 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni.

// http://www.lex.uz

3. Mirziyoyev Sh.M., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida. 05.06.2018-yildagi 5-iyundagi PQ-3775-son qarori // http://www.lex.uz

4. Mirziyoyev Sh.M., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlar to'g'risida. 20.04.2017-yildagi 20-apreldagi qarori PQ-2909-son // http://www.lex.uz.

5. Портер М. Практическая психология. Пособия для вышших заведения. – Москва.: 1998, Стр. – 76

6. Хард Д.А. Инновационные кластеры: основные идеи. – Москва: Наука, 1996, Стр. –120 // http://www innosys.spb.ru

7. Агарков А.П., Голов Р.С. Проектирование и формирование инновационных промышленных кластеров. – Москва: 2019. Стр. – 177.

8. Цихан Т.В. Кластерная теория экономического развития. Теория и практика управления. 2003. Стр. – 15.

9. Дуброва В., Ковалевич А. Основы психологии. Хрестоматия: учеб. пособие. Москва/Беларусью.: 2003. Стр. – 495.

10.Zikirjona M.F: Xorij davlatlarini ta'lim tizimi (Aqsh,Yaponiya,-Germaniya misolida) // . – Toshkent, 2022. №.6 – B. 261-265. www.scientificprogress.uz

ORCID:0009-0001-8968-2743

AYOLLARDA BAXT HAQIDA TASAVVURLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu ilmiy maqolada ayollarda baxt haqida tasavvurlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil qilinib, baxt tushunchasining shakllanishiga ijtimoiy omillar, psixologik xususiyatlar va madaniy qadriyatlarning ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayollar baxtini shakllantiruvchi asosiy omillar oilaviy munosabatlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va o'z-o'zini anglash darajasi bilan bog'liq ekanligi aniqlanib, baxt tushunchasining ijtimoiy normalar va stereotiplar bilan qanday bog'liq ekanligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: baxt, ayollar psixologiyasi, ijtimoiy farovonlik, psixologik omillar, madaniy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar,shaxsiy o'sish, stereotiplar.

KIRISH

Jahon miqyosida ayollarning oila va oilaviy baxt haqidagi noto‘g‘ri shakllangan stereotiplari tufayli oilaviy munosabatlarda jiddiy muammolar kelib chiqmoqda. Bunday stereotiplar oqibatida ayollar oila qurgandan so‘ng baxtni his qilmaslik, o‘zidan va yaqinlaridan qoniqmaslik holatlarini boshdan kechirishmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, oilalarda ajrimlar sonining ortishiga, bolalarning salbiy psixologik oilaviy muhitda voyaga yetishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada, oilaviy baxt va farovonlik hissining avloddan-avlodga uzatilishi o‘rniga, baxtsizlik hissi «meros» bo‘lib qolmoqda[1].

So‘nggi yillarda baxt tushunchasi bilan bog‘liq tadqiqotlarning ko‘paygani bejiz emas. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, baxtli insonlar hayotdan qoniqadi, kasalliklarga kamroq moyil bo‘ladi, mehnat qobiliyati yuqori bo‘lib, ijtimoiylashuv jarayonida muvaffaqiyatga erishishadi. Shuningdek, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi baxtlilik darajasida sezilarli farq borligi aniqlangan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, ayollar va qizlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ko‘plab islohotlar amalga oshirilganiga qaramay, bu borada hali ko‘p ishlar qilinishi kerak[2].

«Plan International»[3] **kabi xalqaro tashkilotlarning faoliyati shuni k**o‘rsatadiki, qizlarga nisbatan kamsitish va zo‘ravonlikka qarshi kurashish orqali gender tengligini ta’minlash, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, ayollar baxtining individual kombinatsiyalari yoshga, madaniy qadriyatlarga va ijtimoiy sharoitlarga qarab o‘zgarishi kuzatilmoqda.

Baxt bu – har bir insonning orzu qilgan maqsadi. Har bir inson baxt haqida o‘z tarifini berishi mumkin. Psixologiya doirasida ta’riflanishicha baxt bu, bir lahzali hissiyot, va doimiy tuyg‘u va eng katta ichki narsaga mos keladigan doimiy holat sifatida yashash sharoitlaridan qoniqish, o‘z-o‘zini anglash hissi bilan birlashtirilgan uning to‘liqligi va mazmunliligi hissi.

R.Layard baxtni insonni o‘zini yaxshi his qilishi, hayotdan baxra olishi va uning ajoyib ekanligini his qilish bilan bog‘liqligini, baxtsizlik esa insonni o‘zini yomon his qilishi va ko‘p narsani orzu qilishidir, degan xulosaga kelgan[4].

Oila, oilaviy baxt, inson xulq-atvori, odob axloqi eng qadimdan barcha manbaalarda asosiy o‘rinni egallab kelgan. Xususan, mamlakatimiz olimlaridan F.A.Akramova[5], R.N.Alimardanova, M.X.Fayziyeva[6], I.A.Jabborov, Sh.A.Fayziyeva, V.M.Karimova[7], Z.B.Rasulova, G‘.B.Shoumarov[8], Z.S. Saidrahmatova[9] **va boshqalar ota-ona va farzand, oilaning psixologik komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar kabi masalalarni ilmiy tadqiq etishgan.**

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan E. E. Bocharova[10], L.S.Vigotskiy[11], A.N.Leontyev[12], V.N.Myasishchev[13], I.M. Sechenov[14], D.B. Elkonin[15], B.G.Ananev[16], V.Levi[17], V.Ovcharenko[18], I.Pavlov[19], V.Bexterev[20], H. Nazaretyan[21], T.D. Shevelenkov[22], P.P. Fesenko[23], A.V. Voronina[24], L.V. Kulikov[25], E.B. Bahor, O.S. Shiryaeva[26] **va boshqalar tomonida oilaviy munosabatlar, ota-ona va farzand qadriyatlari, ayollardagi psixologik xususiyatlar ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan.**

Xorij mutaxassislaridan W.McDougall[27], N.Miller[28], C.Rogers[29],

[1] https://www.ohchr.org/en/stories/2022/09/despite-being-forefront-activism-women-still-face-barriers
[2] https://www.humanrightscareers.com/25
[3] https://plan-international.org/
[4] R. Layard «Human Satisfaction and Public Policy. In Easterlin, Richard A. (Ed.), Happiness in Economics. Great Britain: MPG Books.2002.
[5] https://kitobxon.com/ru/yozuvchi/f.a._akramovavhgmjn
[6] https://scholar.google.co.in/citations?user=fdoedQEAAAAJ&hl=ru
[7] https://scholar.google.com/citations?user=svcaLA8AAAAJ&hl=ru
[8] https://uz.wikipedia.org/wiki/G%CA%BBayrat_Shoumarov
[9] https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=h7rwp2sAAAAJ&authuser=1
[10] https://mnogoknig.ee/ru/author/%D0%91%D0%9E%D0%A7%D0%90%D0%A0%D0%9E%D0%92%D0%90%20%D0%95.
[11] https://uz.wikipedia.org/wiki/Vigotskiy,_Lev_Semyonovich
[12] https://www.marxists.org/archive/leontev/index.htm
[13] https://psy.su/persons/in_memoriam/psy/129310/
[14] https://tass.ru/encyclopedia/person/sechenov-ivan-mihaylovich
[15] https://psy.su/persons/in_memoriam/psy/128498/
[16] https://psy.spbu.ru/department/history/1929-ananyev-bg
[17] https://www.levi.ru/
[18] https://new.ras.ru/anniversary/akademik-ovcharenko-viktor-ivanovich/
[19] https://uz.wikipedia.org/wiki/Ivan_Pavlov
[20] https://uz.wikipedia.org/wiki/Vladimir_Bexterev
[21] https://scholar.google.com/citations?user=V-yoSCgAAAAJ&hl=en
[22] https://rsuh.ru/who_is_who/shevelenkova-tatyana-dmitrievna/
[23] https://cyberleninka.ru/article/n/imeet-li-ponyatie-psihologicheskogo-blagopoluchiya-sotsialno-kulturnuyu-spetsifiku
[24] https://institute.gazprom.ru/about/teachers/voronina_av/
[25] https://scholar.google.ru/citations?user=Q_OgrZ4AAAAJ&hl=ru
[26] https://istina.msu.ru/workers/53580215/publications/
[27] https://www.britannica.com/biography/William-McDougall-American-psychologist
[28] https://en.wikipedia.org/wiki/James_N._Miller
[29] https://en.wikipedia.org/wiki/Carl_Rogers

J.Rotter[30], J.P.Sartre[31], R.Sears, S.Siegel, A.Adler[32], G.Allport[33], J.Dollard[34], V.Frankl[35], S.Freud[36] **va boshqalar o‘z hayotini boshqarishni his qilish, boshqalar bilan muomala qilish qobiliyati, shaxsning sub›ektiv va ob›ektiv muvaffaqiyatini t**a’minlaydigan shaxsiy resurslar ko‘lamini, baxt hissi va hayotdan umumiy qoniqish kabi masalalari ilmiy asoslab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, jumladan, 2023-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni («Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»)[37], 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son Qarori («Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish»)[38] **kabi me’yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu tadqiqot dolzarbligini yanada oshiradi. Bu tadqiqot ayollarning baxtlilik darajasiga t**a’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, oilaviy muhitni yaxshilash va jamiyatda sog‘lom oilaviy qadriyatlarni shakllantirish yo‘lida muhim hissa qo‘shadi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Bizning tadqiqotimizda ma’lumotlar to‘plash eng avvalo ta’lim adabiyotlari va vositalaridan iborat bo‘ldi. Jumladan: 1) Adabiyotlar tahlili: Ilmiy maqolalar va kitoblar: Ayollarning baxt haqidagi tasavvurlari, psixologik farovonlik va gender masalalari bo‘yicha ilmiy manbalar o‘rganildi. Google Scholar, Research Gate yoki JSTOR kabi platformalarda tegishli tadqiqotlar va maqolalar qidirildi; 2)Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar: Mahalliy olimlar, masalan, F.A.Akramova, Z.B.Rasulova kabi mutaxassislarning ishlari hamda xorijiy olimlar (M. Seligman, M. Argyle va boshqalar) tadqiqotlarini o‘rganildi; 3) Me’yoriy-huquqiy hujjatlar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining gender tenglik, ayollarni qo‘llab-quvvatlash va oilaviy munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan farmon va qarorlari o‘rganildi (masalan, PF-60 yoki PQ-401) va Ayollar huquqlariga oid xalqaro tashkilotlar (BMT, UN Women) hisobotlar ko‘rib chiqildi; 4) Sotsiologik va psixologik metodlar: So‘rovnomalar: «Oksford baxt shkalasi» yoki K. Riffning «Psixologik farovonlik» metodikasidan foydalanib, respondentlardan baxt darajasini baholash uchun tanlab olindi; Intervyular: Tadqiqotda ishtirok etuvchi ayollar bilan chuqur suhbatlar o‘tkazish. Ulardan baxt haqidagi fikrlari, shaxsiy tajribalari va jamiyatdagi stereotiplarga munosabatini aniqlashda qo‘llanildi; Kuzatuv: Ayollarning kundalik hayoti, ijtimoiy muhitdagi o‘rni va munosabatlarini kuzatib, real voqealardan dalillar to‘plashda foydalanildi; 5) Statistik ma’lumotlar yig‘ildi: Toshkent shahri yoki respublikadagi ayollar hayoti bilan bog‘liq statistik ma’lumotlarni yig‘ish uchun to‘plandi. Davlat statistika qo‘mitasi yoki boshqa rasmiy tashkilotlar ma’lumotlaridan foydalanildi. Respondentlar o‘rtasida tadqiqot o‘tkazib, natijalarni statistik dasturlar (masalan, SPSS[39]) yordamida tahlil qilindi. 6) Tajriba va trening dasturlari: Tadqiqot mavzusiga oid trening dasturlarini ishlab chiqib, ayollar bilan amalga oshirish. Bu orqali baxtni shakllantiruvchi omillarni amaliyotda sinovdan o‘tkazish belgilandi. Trening samaradorligini baholash uchun ilg‘or va nazorat guruhlaridagi ayollarni qiyosiy tahlil qilindi. 7) Internet resurslari: ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar va forumlardan ayollarning o‘z fikr va tajribalarini o‘rganishda, gender tenglikka oid zamonaviy ma’lumotlarni topish uchun xalqaro tashkilotlarning veb-saytlaridan foydalanildi (masalan, UN Women[40], OECD[41]).

Tadqiqotning obyekti sifatida ayollarda baxt haqida tasavvurlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o‘rganish jarayoni tanlangan bo‘lib, bunda tadqiqotimiz uchun respondentlar tanlob olindi. Tadqiqot uchun Toshkent shahridan 85 nafar ayol (turli yosh, ta’lim va ijtimoiy holatdagi) respondent sifatida tanlangan:

Xalqaro Nordik Universiteti[42] – 25 nafar.

Toshkent Xalqaro Universiteti[43] – 25 nafar.

Toshkent shahar, Olmazor tumani, «Bo‘ston-obod» mahallasi ayol-qizlaridan – 30 nafar ayol va qizlar respondent sifatida olindi.

Tadqiqotda kuzatish, suhbat, metodlari «Oxford baxt shkalasi», K.Riffning «Psixologik farovonlik ko‘lamini aniqlash» so‘rovnomalari, P.J.Meyerning «Hayot g‘ildiragi» metodikasi, M.Rokichning «Qadriyatlar yo‘nalganligi», Shcherbatyxning «Salbiy emotsional holatlarni aniqlash» metodikalari hamda matematik statistika usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlarni tahlil qilish uchun SPSS 26-versiyasidagi dasturdan foydalandik. O‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash uchun korrelyatsion analizi o‘tkazildi, shuningdek, bir faktorli dispersiya analizi amalga oshirildi.

Natija va tahlillar

K.Riffning psixologik farovonlik ko‘lami so‘rovnomasi sinaluvchiuning o‘zi va hayotiga bo‘lgan munosabatlari haqida. Ular taklif qilingan har bir bayonot bilan tanishib mos yoki mos emasligini tasdiqlaydilar. Har bir bayonot bilan sinaluvchilarning kelishuv yoki kelishmovchilik darajasi eng yaxshi ko‘rsatadigan raqamni aylanaga oladilari. T**adqiqot ishimizda ilgari surilgan asosiy muammo ayollarda baxt haqida tasavvurlarining ijtimoiy-psixologik jihatlarini emperik o‘rganishni o‘z oldimizda maqsad qildik.** Shu g‘**oyalarni umumlashtirgan holatda tadqiqot ishimizda ilgari surilgan asosiy muammo ayollarda baxt haqida tasavvurlarining ijtimoiy-psixologik jihatlarini emperik** o‘rganishni o‘z oldimizda maqsad qildik. Bundan ko‘zlangan maqsad asosida ikki xil yosh davrlaridagi ayollarda baxt to‘g‘risidagi tasavvurlar namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad asosida ikki xil yosh davrlaridagi ayollarda baxt to‘g‘risidagi tasavvurlar namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganiladi. Buning uchun biz, yetuklik va o‘spirinlik davridagi ayollarda baxt tasavvurlarining yuzaga

[30] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A0%D0%BE%D1%82%D1%82%D0%B5%D1%80,_%D0%94%D0%B6%D1%83%D0%BB%D0%B8%D0%B0%D0%BD

[31] https://uz.wikipedia.org/wiki/Jean-Paul_Sartre

[32] https://uz.wikipedia.org/wiki/Alfred_Adler

[33] https://en.wikipedia.org/wiki/Gordon_Allport

[34] https://en.wikipedia.org/wiki/John_Dollard

[35] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A4%D1%80%D0%B0%D0%BD%D0%BA%D0%BB,_%D0%92%D0%B8%D0%BA%D1%82%D0%BE%D1%80

[36] https://www.britannica.com/biography/Sigmund-Freud

[37] https://lex.uz/ru/docs/-5841063

[38] https://lex.uz/ru/docs/-6704819

[39] https://www.ibm.com/products/spss-statistics

[40] UN Women://www.unwomen.org/en

[41] OECD https://www.oecd.org/en.html

[42] https://nordicuniversity.org/uz

[43] https://www.tiu.uz/

kelishini ilmiy tadqiq etish maqsadida «Oxford baxt shkalasi» metodikasi tanlab olindi. Ushbu metodika tanlab olingan sinaluvchilar guruhida o‘tkazildi, umumiy natijalar esa miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinib, 1 -jadval hamda 1-rasmda aks ettirilgan. Malumotlarni tahlil qilish uchun SPSS 26-versiyasidagi dasturdan foydalandik. O‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash uchun korrelyatsion analizi o‘tkazildi, shuningdek, bir faktorli dispersiya analizi amalga oshirildi va tahlildan so’ng natijalar chiqarildi.

Ushbu metodika tanlab olingan sinaluvchilar guruhida o‘tkazildi, umumiy natijalar esa miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinib, 1 -jadval hamda 1-rasmda aks ettirilgan.

1-jadval

Ikki xil yosh davrlardagi ayollarda oilaviy baxt haqidagi tasavvurlarning ifodalanishi (N=340)

Komponentlar	Yosh davrlari	Ranglar o‘rtachasi	U Mann-Uitni qiymati	P ishonchlilik darajasi)
Baxt haqidagi tasavvurlar	O‘spirinlik davrdagi ayollar	154,75	7305,5**	p≤0,01
	Yetuklik davrdagi ayollar	124,31		

1-jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra, ayollarda turli yosh davrida **oilaviy** baxt haqidagi tasavvurlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari o‘rtasidagi farqlar o‘rganilganda, mazkur holat bo‘yicha **ahamiyatli** tafovutlar qayd etildi (U=7305,5; p≤0,01). Bundan ma’lum bo‘ladiki, o‘spirin yoshidagi **ayollarda** yetuklik davridagi **ayollarga** nisbatan o‘zini baxtli his qilish hamda bu boradagi tasavvurlar kengroq rivojlangan bo‘lib, hayotdan qoniqish, kelajakni umidlar va istiqbollar bilan to‘lgan deb idrok etish, yanada ko‘p maqsadlarga erishishga ishonish, o‘zi shug‘ullanayotgan faoliyatdan zavq **olish**, shaxslararo munosabatlarda ijobiy hissiyotlarni namoyon qilish holatlari ko‘proq uchraydi.

Natijalarning bunday ko‘rinishda ifodalanishi o‘spirinlik davridagi hali ko‘pchilik qizlar **oila** qurmaganliklari va uni turlicha tasavvur qilishi, shuningdek, **amalga oshirilishi** rejalashtirilgan maqsadlarning ko‘pligi va ularga to‘liq erisha **olmaganlik**, hayotiy qiyin vaziyatlarga yetuklik davridagi **ayollarga** nisbatan kamroq duch kelish kabi **omillar** bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ikki davrida ham **oilaviy** baxt haqidagi tasavvurlar turli **omillar** negizida shakllanib, **oilaviy** munosabatlarning barqarorligiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Baxt haqidagi tasavvurlarning namoyon bo‘lishi bo‘yicha yosh davrlari kesimida turlicha tavofutlar mavjud bo‘lib, ushbu holatni o‘tkazilgan tadqiqot natijalari **orqali** bevosita qayd etish mumkin.

Tadqiqot ishimizda ilgari surilgan muammoni ko‘p tomonlama o‘rganish maqsadida o‘spirinlik va yetuklik davrida namoyon bo‘ladigan baxt haqidagi tasavvurlarning psixologik farovonlik darajalari bilan **aloqadorligini aniqlashga** harakat qildik. Shu boisdan ham sinaluvchi guruhlarda «**Oxford** baxt shkalasi» hamda K.Riffning «Psixologik farovonlik ko‘lamini **aniqlash**» metodikalarini o‘tkazdik. Hayotiy farovonlikka **oid** so‘rovnoma 84 ta banddan iborat bo‘lib, u shaxsning o‘z imkoniyatlari va **atrofdagilarga** munosabati bo‘yicha bildiradigan qarashlarini **aniqlash** imkoniyatini beradi. Mazkur metodikalar yordamida sinaluvchilar guruhida psixologik farovonlikning quyidagi tarkibiy jihatlari, ya’ni boshqalarga ijobiy munosabat, **avtonomiya**, **atrof-muhitni** boshqarish, shaxsiy o‘sish, hayotdagi maqsadlar, o‘zini o‘zi qabul qilishning baxt haqidagi tasavvurlar namoyon bo‘lishiga ta’sirini o‘rganish mumkin. Ushbu so‘rovnomalar **orqali** sinaluvchilardan **olingan** umumiy ma’lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi. Dastlab o‘spirinlik va yetuklik davridagi **ayollarning** umumiy natijalariga e’tibor qaratilib, ularning ko‘rsatkichlari keltirildi.

2-jadval

Baxt haqidagi tasavvurlar va psixologik farovonlik komponentlari orasidagi aloqadorlik **(N=340) (Spirman korrelyatsiyasi mezoni bo‘yicha)**

Psixologik farovonlik komponentlari	t haqidagi tasavvurlar
Boshqalarga ijobiy munosabat	0,13*
Avtonomiya	0,12
Atrof-muhitni boshqarish	-0,01
Shaxsiy o‘sish	0,08
Kelajakdagi maqsadlar	0,46**
o‘zini- o‘zi qabul qilish	0,11*

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01

O‘tkazilgan metodika natijalariga binoan (2-jadval), o‘spirinlik va yetuklik davridagi ayollarda baxt haqidagi tasavvurlar boshqalarga ijobiy munosabat (r=0,13; p≤0,05) bilan ahamiyatli musbat korrelyatsion bog‘liqlikka ega ekanligi kuzatildi.

Tadqiqot ishtirokchilarida baxt haqidagi tasavvurlar hayotdagi maqsadlar (r=0,46; p≤0,01) bilan o‘zaro ijobiy aloqadorlikni tashkil etishi aniqlandi. O‘spirinlik va yetuklik davrida baxt haqidagi tasavvurlarning namoyon bo‘lishi o‘zini o‘zi qabul qilish komponenti (r=0,11; p≤0,05) bilan ahamiyatli musbat aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi.

Shuni ta’kidlash joizki, ikkita davrning umumiy natijalari ko‘rib chiqilganda, baxt haqidagi tasavvurlar va psixologik farovonlik komponentlari o‘rtasida korrelyatsion aloqadorliklar aniqlandi. Jumladan, ushbu metodika bo‘yicha har bir davrdagi ayollarning ko‘rsatkichlari 3-jadvalda ifodalangan.

3-jadval

Baxt haqidagi tasavvurlar va psixologik farovonlik komponentlari orasidagi aloqadorlikning **davrlar kesimida namoyon bo‘lishi (N=340) (Spirman korrelyatsiyasi mezoni bo‘yicha)**

Psixologik farovonlik komponentlari	Yosh davrlari	Baxt haqidagi tasavvurlar
Boshqalarga ijobiy munosabat	o‘spirinlik davridagi ayollar	0,02
	Yetuklik	0,24*
Avtonomiya	o‘spirinlik davridagi ayollar	-0,08
	Yetuklik davridagi ayollar	0,18
Atrof-muhitni boshqarish	o‘spirinlik davridagi ayollar	0,02
	Yetuklik davridagi ayollar	-0,01
Shaxsiy o‘sish	o‘spirinlik davridagi ayollar	0,22*
	Yetuklik davridagi ayollar	0,09
hayotdagi maqsadlar	o‘spirinlik davridagi ayollar	0,16**
	Yetuklik davridagi ayollar	0,26*
o‘zini- o‘zi qabul qilish	o‘spirinlik davridagi ayollar	-0,03
	Yetuklik	0,17*

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01

Jadvalda berilgan natijalarga ko‘ra (3-jadval), o‘spirinlarda baxt haqidagi tasavvurlarning namoyon bo‘lishi shaxsiy o‘sish (r=0,22; p≤0,05) bilan o‘zaro to‘g‘ri korrelyatsion bog‘liqlikni tashkil etishi **aniqlandi**. Bundan **ayon** bo‘ladiki, o‘spirinlik davridagi **ayollarda** yuzaga keladigan baxtlilik hissi ularda uzluksiz rivojlanish tuyg‘usiga egalik, o‘zini o‘sayotgan va o‘zidan o‘zi qoniqish hosil qilish, yangi tajribalarga **ochiqlik**, o‘z imkoniyatlarini **anglab** yetish, shaxsiy jihatdan takomillashishlarni kuzatish, bilimlari va yutuqlariga mos ravishda o‘zgarish kabi holatlar ta’sirida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, o‘zining rivojlanishidagi yetishmovchiliklarni bilish, o‘zidagi ijobiy o‘zgarishlarni payqamaslik, o‘zini **anglash** tuyg‘usining sustligi, yangi munosabatlar o‘rnatish yoki xulqatvorni o‘zgartira **olmaslikni** his qilish singari holatlar o‘spirinlarda o‘zidan qoniqmaslik, hayotga qiziqishning yo‘qolishi, baxtiyorlik kechinmalarining pasayishini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, o‘spirinlik davridagi **ayollarda** baxt haqidagi tasavvurlar hayotdagi maqsadlar (r=0,16; p≤0,01) bilan musbat **aloqadorlikka** ega ekanligi qayd etildi. Mazkur natijalardan ko‘rish mumkinki, sinaluvchilarda yashash zavqiga egalik, baxtlilikni tuyish darajasi yuqori bo‘lishiga hayot mazmunining **anglanganligi**, muayyan maqsadlar yoki niyatlarning mavjudligi, **orzularga** yetishish uchun yo‘nalish hissining yuqoriligi, o‘tgan umr yo‘lidan qoniqish kabi jihatlar bevosita ta’sir qiladi. Yetuklik davridagi insonlarning ko‘rsatkichlariga qaraganda, baxt haqidagi tasavvurlar boshqalarga ijobiy munosabat (r=0,24; p≤0,05) bilan **ahamiyatli** to‘g‘ri korrelyatsion bog‘liqlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Yetuklik davrida baxt haqidagi tasavvurlar va hayotdagi maqsadlar (r=0,26; p≤0,05) komponenti o‘rtasida **ahamiyatli** ijobiy bog‘liqlik kuzatildi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, mazkur davrdagi **ayollarda** hayotning ma’nosini belgilaydigan istiqbollar yoki e’tiqodlarning kuchliligi, **oliy** maqsadlarga erishish uchun harakat qilish xususiyatlarining tarkib topishi natijasida xursandchilik va mamnunlik hislarining **ortishi** kuzatiladi. Shuningdek, rejalashtirilgan ishlarni uddalash, **orzu** qilingan narsalarga erishish, niyatlarning ijobat bo‘lishi **oqibatida** yetuk **ayollarda** hayotga ishonch hissining ifodalanishi, o‘zini baxtli his qilish holatlari sezilarli ravishda ko‘payadi.

Bundan tashqari, yetuklik davridagi **ayollarda** baxt xususidagi tasavvurlar o‘zini o‘zi qabul qilish (r=0,17; p≤0,05) bilan musbat **aloqadorlikni** tashkil etishi qayd etildi. Ushbu natijalardan ko‘rish mumkinki, tadqiqot ishtirokchilarda o‘z turmush tarzidan norozi bo‘lmaslik, baxtli hayot kechirish hissining yuqori darajada namoyon bo‘lishida o‘ziga ijobiy munosabatda bo‘lish, o‘zining turli qirralarini, shu jumladan, kuchli va zaif sifatlarini **anglash**, barcha xususiyatlarini birdek qabul qila **olish**, o‘tmishni ijobiy baholash kabi jihatlar muhim rol o‘ynaydi.

Muhokama

Tadqiqot ishimiz davomida ikki davridagi **ayollarda** baxt haqidagi tasavvurlarning namoyon bo‘lishi **aynan** ulardagi hayotiy muhim jihatlarga bog‘liqligini tekshirish harakat qilindi. Shu boisdan ham sinaluvchilar guruhlarida **«Oxford** baxt shkalasi» hamda Pol J.Meyerning «Hayot g‘ildiragi» metodikalari o‘tkazildi. Ushbu metodika yordamida sinaluvchilar guruhida hayotiy muhim jihatlarning sakkizta **asosiy** turi, ya’ni do‘stlar-tanishlar, sevgi-muhabbat, karyera-biznes, moliya, ruhiyat-ijod, shaxsiy rivojlanish, hayot quvonchlari, sog‘lik-sport kabi **omillar** shakllanganlik darajasining baxt haqidagi tasavvurlar namoyon bo‘lishiga ta’sirini **aniqlash** mumkin. Sinaluvchilardan mazkur metodika **orqali olingan** umumiy ma’lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi.

Dastavval o‘spirinlik va yetuklik davridagi insonlarning umumiy natijalariga e’tibor qaratilib, ularning ko‘rsatkichlari 4-jadvalda **aks** ettirilgan.

4-jadval

Baxt haqidagi tasavvurlar va hayotiy muhim jihatlar o**rasidagi** aloqadorlik **(N=340) (Spirmen korrelyatsiyasi mezoni bo‘yicha)**

Haymuhim jihatlar	Baxt haqidagi tasavvurlar
Do‘stlar va tanishlar	0,06
Sevgi va muhabbat	0,23*
Karyera va biznes	0,31*
Moliya	-0,06
Ruhiyat va ijod	0,09
Shaxsiy rivojlanish	-0,03
Hayot quvonchlari	0,21**
Sog‘lik va sport	0,14*

zoh: * p≤0,05; ** p≤0,01

Tadqiqot natijalariga ko‘ra (4-jadval), o‘spirinlik va yetuklik davridagi **ayollarda** baxt haqidagi tasavvurlar sevgi va muhabbat (r=0,23; p≤0,05) bilan **ahamiyatli** musbat korrelyatsion bog‘liqlikka ega ekanligi **aniqlandi**.

Bundan shuni **anglash** mumkinki, nikoh quruvchilar yoki er-xotinlar hayotida bir-birini sevish, o‘zaro hurmat ko‘rsatish, e’zozlash, samimiy muhabbatning ustunlik qilishi, **oiladagi** iliq romantik munosabatlarning yetakchiligi singari holatlar inson o‘zini baxtli his qilishi, hayotga nisbatan qoniqish hissining rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Bundan tashqari, sinaluvchilarda baxt haqidagi tasavvurlar va karyera-biznes komponentlari (r=0,31; p≤0,05) o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqliklar o‘rganilganda, ular **orasida** o‘zaro ijobiy **aloqadorlik** mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Natijalardan shuni ta’kidlash joizki, o‘spirinlik va yetuklik davrida o‘zi uchun sevimli bo‘lgan mashg‘ulot bilan shug‘ullanish, turmush tarzida o‘z ishi bilan band bo‘lish, **asosiy** e’tiborni kasbiy faoliyatga qaratish, shaxsning daromad topishga moyilligi holatlari shaxsda o‘zini baxtiyor his etish, hayotga va jamiyatga ijobiy munosabatda bo‘lish kabi jihatlarning sezilarli ravishda **ortishiga** xizmat qiladi.

O‘spirinlik va yetuklik davridagi **ayollarda** baxt to‘g‘risidagi tasavvurlar hayot quvonchlari **(r=0,21; p≤0,01)** bilan **ahamiyatli** ijobiy korrelyatsion bog‘liqlikka ega ekanligi kuzatildi. Mazkur ko‘rsatkichlar shuni **anglatadiki**, tadqiqot ishtirokchilari hayotida ijobiy voqea-hodisalarning ko‘p kuzatilishi, quvonarli vaziyatlarga muntazam duch kelish, turmush tarzining farovonligi kabi **omillar** shaxsda baxtli yashash istagining kuchayishi, barqaror stenik hislarning rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Shu bilan birga, baxt shkalasi sog‘lik va sport (r=0,14; p≤0,05) bilan **ahamiyatli** musbat k**orrelyatsion aloqadorlikka** ega ekanligi **aniqlandi**. Ushbu ko‘rsatkichlardan **anglash** mumkinki, o‘spirinlik va yetuklik davridagi shaxslar sog‘lom hayot kechirish, salomatlikda muammolar kuzatilmasligi, sport bilan shug‘ullanish, tanani chiniqtirishga nisbatan layoqatning mavjudligi holatlarining **ortishi** ularning o‘zidan va faoliyatidan qoniqishiga, shuningdek, baxt haqidagi tasavvurlar ko‘lamining kengayishiga **olib** keladi.

Ayollardagi baxt tasavvurlarining ijtimoiy-psixologik jihatlari jamiyat ko’rsatkichiga, uning o’zgaruvchanligiga qarab farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, shaxsiy his-tuyg‘ular, oilaviy munosabat, undagi mas’uliyat hamda diniy va madaniy qadriyatlar baxt haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga muhim omil bo’ladi[44].

Xulosa. Yuqorida tahlil qilingan nazariy yondashuvlar shaxsda ijobiy psixologik xususiyatlar rivojlanishi va salbiy xususiyatlarning namoyon bo‘lishining o‘ziga xos psixologik belgilarini tushunish imkonini beradi.

1. Ayoldagi baxt haqidagi tasavvurlar yoshga oid psixologik xususiyatlar bilan bog‘liqligini tadqiq etishga qaratilgan psixodiagnostik metodikalar uning determinantlarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

2. Ayoldagi baxtlilik hissi namoyon bo‘lishida psixologik farovonlik komponentlaridan boshqalarga ijobiy munosabat, shaxsiy o‘sish, hayotdagi maqsadlar, o‘zini o‘zi qabul qilish kabilar yetakchi o‘rinda tursa, hayotiy muhim jihatlardan esa do‘stlar va tanishlar, sevgi-muhabbat, hayot quvonchlari, karyera-biznes, moliya, shaxsiy rivojlanish singari omillar asosiy o‘ringa egadir

3. Ayollardagi oilaviy baxt haqidagi tasavvurlar turli omillar negizida shakllanib, oilaviy munosabatlarning barqarorligiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Baxt haqidagi tasavvurlarning namoyon bo‘lishi bo‘yicha yosh davrlari kesimida turlicha tavofutlar mavjud bo‘lib, bu omillar bo‘yicha yetarli bilimlarning mavjudligi ham baxtlilik darajasiga ijobiy ta’sir qiladi.

4. Ayollarda o‘zini boricha qabul qilish, qobiliyat va layoqatlarini anglab, ulardan unumli foydalanish, shaxsiy fazilatlaridan zavqlanish holatlarining ortib borishi ayollarda ikki xil yosh davrlarida, baxtlilik hissining ham rivojlanishiga ta’sir etib, yashash ishtiyoqining ortishi, hayotga muhabbat hissining tarkib topishi, ijobiy emotsional holatlarning ko‘proq kuzatilishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ushbu holat o‘spirinlik va yetuklik davrida o‘zidan hamda hayotdan qoniqmaslik hislarining kamayishiga turtki bo‘ladi.

5. O‘spirinlik davrida faravonlik to‘g‘risidagi qarashlar shaxsiy o‘sish, hayotdagi maqsadlar bilan yetarlicha aloqadorlikni tashkil etsa, yetuklik davrida esa boshqalarga ijobiy munosabat, maqsad qo‘yish, o‘zini o‘zi qabul qilish bilan musbat bog‘liqlik mavjud.

5.Qadriyatlar sohasining shakllanmaganligi shaxsda baxt haqidagi tasavvurlarning hayotiy muhim jihatlar bilan o‘zaro bog‘liqlik jarayonlariga muayyan darajada salbiy ta’sir qiladi.

6.O‘spirinlik va yetuklik davrida salbiy hissiyotlarning baxt haqidagi tasavvurlar namoyon bo‘lishiga ta’sir jarayoni tahlil qilinganda, shu narsa ayon bo‘ldiki, har ikkala hodisa o‘rtasida salbiy bog‘liqlik qayd etildi. Xususan, g‘azab, hasad, umidsizlik hislari va baxt to‘g‘risidagi tasavvurlar olami orasida manfiy bog‘liqlik aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkichlar o‘spirinlik va yetuklik davrida baxt haqidagi tasavvurlar yuzaga kelishiga ayoldagi salbiy emotsional holatlarning ifodalanishi bevosita ta’sir qilishi mumkinligini dalillaydi.

Tavsiyalar

Keltirilgan xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq:

1. Baxt haqidagi tasavvurlarning namoyon bo‘lishi bo‘yicha yosh davrlari kesimida turlicha tavofutlar mavjud bo‘lib, bu omillar bo‘yicha yetarli bilimlarning mavjudligi ham baxtlilik darajasiga ijobiy ta’sir qilishini inobatga olib, baxt haqidagi tasavvurlarning namoyon bo‘lishiga xizmat qiluvchi uslubiy qo‘llanma va psixologik yo‘riqnomalar ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini kengaytirish lozim;

2. G‘**azab, hasad, umidsizlik hislari va baxt t**o‘g‘risidagi tasavvurlar olami orasida manfiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib har bir inson ijobiy xulqatvor shakllarini tarkib toptirish negizida baxtlilik ko‘lamini kengaytirish kerak;

3. Oilaviy munosabatlarda sog‘lom psixologik muhitni ta’minlashga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni yo‘lga qo‘yish orqali salbiy emotsianal holatlarni bartaraf etish orqali, kelajak avlodga oilaviy baxtni meros qilib qoldirish jarayonini kuchaytirish mumkin; Umumta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari bilan oilaviy baxt haqida tasavvurlarni shakllantirish, oilaviy hayotga tayyorlash, qadriyatlarni ulug‘lash maqsadida psixolog va boshqa soha mutaxassislar ishtirokida profilaktik tadbirlarni o‘tkazish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Frey B. S., Stutzer A. Happiness and Economics: How the Economy and Institutions.

2. R. Layard «Human Satisfaction and Public Policy. In Easterlin, Richard A. (Ed.), Happiness in Economics. Great Britain: MPG Books.2002.

[44] https://inlibrary.uz/index.php/ajsshr/article/view/38274 Saidrahmatova Z. S. Socio-psychological aspects of the imagination of happiness in women, 2024

3. Роджерс К. Эмпатия / К.Роджерс // Психология эмоций. Тексты / под ред. В.К.Вилюнаса, Ю.Б.Гиппенрейтер. – М.: Изд-во МГУ. 1984. – С. 235-237

4. Шевеленкова Т. Д., Фесенко П. П. Психологическое благополучие личности.

5. Ященко Е. Ф. Самоактуализация и субъективное благополучие.

6. Миниюрова С. А., Заусенко И. В. Личностные детерминанты психологического благополучия педагога.

7. Психология фанидан изоҳли луғат / М.Г.Давлетшин таҳрири остида -Т.: ТДПУ.1992. - 6 б.

8.R. Layard «Human Satisfaction and Public Policy. In Easterlin, Richard A. (Ed.), Happiness in Economics. Great Britain: MPG Books.2002.

9. Гаусс Э. В., Васильева О. С. Взаимосвязь ценностно-смысловых ориентатsій и представлений о счастье в разных возрастных группах

10. Сидоренко Е.В. Методы математической обработки в психологии / Е.В.

11. Джидарьян И. А. Психология счастья и оптимизма / И. А. Джидарьян. – М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2013. – 268 с.

12. Sheniz Yujel. Baxt Allohga ishonmoqdir (2002)

13.Чиксентмихайи. М. Поток. Психология оптимального переживания / М. Чиксентмихайи. - М.: Альпина нон-фикшн, 2017. - 464 с

14.Saidrahmatova Z. S. «Socio-psychological aspects of the imagination of happiness in women», American journal of social sciences and humanity research, 2024

Ilovalar

https://www.ohchr.org/en/stories/2022/09/despite-being-forefront-activism-women-still-face-barriers
https://www.humanrightscareers.com/25
https://plan-international.org/
https://lex.uz/ru/docs/-5841063
https://lex.uz/ru/docs/-6704819
https://nordicuniversity.org/uz
https://www.tiu.uz/
https://monocler.ru/schaste-issledovanie-dlinoyu-v-zhizn/
Sheniz Yujel: Baxt - Allohga ishonmoqdir (2022)
https://inlibrary.uz/index.php/ajsshr/article/view/38274
https://www.ohchr.org/en/stories/2022/09/despite-being-forefront-activism-women-still-face-barriers
https://www.humanrightscareers.com/25
https://plan-international.org/
https://lex.uz/ru/docs/-5841063
https://lex.uz/ru/docs/-6704819
https://nordicuniversity.org/uz
https://www.tiu.uz/
https://monocler.ru/schaste-issledovanie-dlinoyu-v-zhizn/
https://inlibrary.uz/index.php/ajsshr/article/view/38274
https://kitobxon.com/ru/yozuvchi/f.a._akramovavhgmjn
https://scholar.google.co.in/citations?user=fdoedQEAAAAJ&hl=ru
https://scholar.google.com/citations?user=svcaLA8AAAAJ&hl=ru
https://uz.wikipedia.org/wiki/G%CA%BBayrat_Shoumarov
https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=h7rwp2sAAAAJ-&authuser=1

https://uz.wikipedia.org/wiki/Vigotskiy,_Lev_Semyonovich
https://www.marxists.org/archive/leontev/index.htm
https://psy.su/persons/in_memoriam/psy/129310/
https://tass.ru/encyclopedia/person/sechenov-ivan-mihaylovich
https://psy.su/persons/in_memoriam/psy/128498/
https://psy.spbu.ru/department/history/1929-ananyev-bg
https://www.levi.ru/
https://new.ras.ru/anniversary/akademik-ovcharenko-viktor-ivanovich/
https://uz.wikipedia.org/wiki/Ivan_Pavlov
https://uz.wikipedia.org/wiki/Vladimir_Bexterev
https://scholar.google.com/citations?user=V-yoSCgAAAAJ&hl=en
https://rsuh.ru/who_is_who/shevelenkova-tatyana-dmitrievna/
https://institute.gazprom.ru/about/teachers/voronina_av/
https://scholar.google.ru/citations?user=Q_OgrZ4AAAAJ&hl=ru
https://istina.msu.ru/workers/53580215/publications/
https://www.britannica.com/biography/William-McDougall-American-psychologist
https://en.wikipedia.org/wiki/James_N._Miller
https://en.wikipedia.org/wiki/Carl_Rogers
https://uz.wikipedia.org/wiki/Jean-Paul_Sartre
https://uz.wikipedia.org/wiki/Alfred_Adler
https://en.wikipedia.org/wiki/Gordon_Allport
https://en.wikipedia.org/wiki/John_Dollard
https://www.britannica.com/biography/Sigmund-Freud
https://lex.uz/ru/docs/-5841063
https://lex.uz/ru/docs/-6704819
https://www.ibm.com/products/spss-statistics
UN Women://www.unwomen.org/en
OECD https://www.oecd.org/en.html
https://nordicuniversity.org/uz
https://www.tiu.uz/
https://inlibrary.uz/index.php/ajsshr/article/view/38274

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/0009-0005-2109-6261

Maktabgacha ta‘lim pedagoglarining KREATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Barno Saipova



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: maqolada maktabgacha ta’lim pedagoglar bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual salohiyatlarini namoyon etish va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish kabi ma'lumotlar berilgan. Kreativ kompetentlikni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari o‘rganilib, innovatsion yondashuvlar tavsiya etilgan. Shuningdek, pedagoglar faoliyatida kreativ yondashuvlarni amalga oshirish mexanizmlari va samaradorligini oshirish usullari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kreativ kompetentlik, maktabgacha ta‘lim, ijodiy salohiyat, innovatsion yondashuvlar, ta‘lim texnologiyalari, tarbiyalanuvchi, tarbiyachi, zamonaviy ta‘lim, yondashuv.

KIRISH

Jahonda xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta‘lim tizimlarini o‘rganish, ularning ilg‘or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirib, zamonaviylashtirishga imkon yaratadi[1].

Maktabgacha ta‘lim davri bolaning ijodiy va intellektual rivojlanishi uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda ta‘lim beruvchi pedagoglarning ijodiy yondashuvi va professional kompetentligining yuqori darajada bo‘lishi bolalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta‘lim jarayonida kreativ kompetentlikni shakllantirish nafaqat pedagoglarni, balki butun jamiyatni innovatsion rivojlanishga yo‘naltiruvchi vosita sifatida qaralmoqda. Bu, o‘z navbatida, pedagoglardan nafaqat tarbiyalanuvchilar bilan ishlashda, balki ta‘lim muhitini boyitishda ijodkorlik va yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Kreativ kompetentlikni takomillashtirishning nazariy asoslari maktabgacha ta‘lim pedagoglari shaxsining ijodiy rivojlanishi, psixologik moslashuvchanligi va o‘quv jarayonini muqobil yondashuvlar orqali tashkil etish qobiliyatlariga tayanadi. Bu esa bolaning ijodiy salohiyatini ochib berish va kelgusidagi uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga ham yordam beradi.

Bugungi kunda global ta‘lim tizimlarida kreativ kompetentlikka bo‘lgan talab ortib bormoqda. Yevropa davlatlarida, xususan, Finlandiya, Shvetsiya va Germaniyada, maktabgacha ta‘lim tizimida kreativlikni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Masalan, «STEAM» (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) metodikasi ijodkorlik va analitik fikrlashni birlashtirish orqali ta‘lim jarayonini interaktiv va qiziqarli shaklda tashkil qilishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvlar orqali pedagoglar bolalar bilan ishlashda muqobil va individual yondashuvlarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga muvaffaq bo‘lmoqda.

Shuningdek, AQSh va Kanadada pedagoglarning kreativ kompetentligini oshirish uchun maxsus dasturlar, masalan, ijodiy treninglar, masofaviy o‘qitish platformalari va o‘quv resurslari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tajribalar boshqa davlatlar uchun ham samarali model bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizdagi ta‘lim tizimida maktabgacha ta‘lim sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017-yildan boshlab maktabgacha ta‘limni rivojlantirishga doir davlat dasturlari[2] ishlab chiqilgan va bu sohada sifatni oshirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Ilk qadam» dasturi doirasida pedagoglarni yangi innovatsion texnologiyalar bilan tanishtirish va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadbirlar tashkil qilinmoqda.

O‘zbekistonda ijodiy kompetentlikni rivojlantirish nafaqat davlat dasturlari, balki xalqaro tajribalarga asoslangan ta‘lim metodikalarini joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, interaktiv darsliklar, o‘yin va teatr elementlari yordamida bolalarning tasavvurlarini kengaytirishga qaratilgan dasturlar keng ommalashmoqda.

Shuningdek, maktabgacha ta‘lim tizimida pedagoglarning doimiy malakasini oshirishga qaratilgan maxsus treninglar va kurslar tashkil etilmoqda. Bu jarayon pedagoglarning ta‘limga yangicha yondashuvlarni joriy qilish, bolalar bilan individual va ijodiy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishiga imkon bermoqda.

Maktabgacha ta‘lim pedagoglarining kreativ kompetentligini takomillashtirish bugungi kunda nafaqat dolzarb, balki ta‘lim tizimini global tendensiyalarga mos ravishda rivojlantirishning zaruriy shartidir. Jahonda va O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu yo‘nalishda sezilarli natijalarga erishishga xizmat qilmoqda. Ushbu tadqiqot mazkur sohada innovatsion yondashuvlar va yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga hissa qo‘shadi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim pedagoglarning kreativ kompetentligini takomillashtirish bilan bog‘liq bir qancha muhim qarorlar va strategiyalar mavjudligi, davlat o‘quv dasturlarining joriy etilishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonining tasdiqlanishi[3], maktabgacha ta‘lim muassasalarida «STEAM» metodikasini joriy qilinishi, maktabgacha ta‘lim sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishi[4] kabi qarorlar ilmiy tadqiqot ishining metodik asosi hisoblanadi.

Tajriba guruhidagi pedagoglarning ijodiy qobiliyatlari 9,5%ga oshdi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich atigi o‘zgarishsiz qoldi;

Interfaol metodlar qo‘llanilgan trening-seminarlarda ishtiroqchilar faolligi va qiziqishi an‘anaviy metodlar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

Tadqiqot jarayonida kreativ pedagogika, innovatsion ta‘lim va interfaol metodlar bo‘yicha ilmiy manbalar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan ta‘lim sohasidagi normativ hujjatlar hamda ilg‘or pedagogik tajribalardan foydalanildi. Xususan, quyidagi manbalar asos qilib olindi:

- Xalqaro tajribalarga oid maqolalar va ilmiy tadqiqotlar;
- O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim sohasidagi qonun va qarorlar;
- Innovatsion ta‘lim texnologiyalari bo‘yicha ilmiy manbalar;
- Interfaol va kreativ pedagogika bo‘yicha xalqaro va mahalliy tajribalar.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Maktabgacha ta‘lim pedagoglarining kreativ kompetentligini takomillashtirish tadqiqoti doirasida ko‘plab muhim tushunchalar mavjud. Ularning har biri ta‘lim jarayonida pedagoglarning professional faoliyatini, shuningdek, kreativlikni rivojlantirishga oid metodologik yondashuvlarni chuqur tahlil qiladi. Quyida asosiy tushunchalarning mazmun va mohiyati keltirilgan:

Kreativ kompetentlik – bu pedagogning yangi, noan‘anaviy yondashuvlar asosida ta‘lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirish qobiliyatidir. Kreativ kompetentlik maktabgacha ta‘lim pedagoglarining shaxsiy va kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlaydi, ularning ijodiy yondashuvlari orqali bolalar bilan samarali va innovatsion ta‘lim jarayonlarini tashkil etish imkonini beradi[5].

---

[1] Abidov B.K. Maktabgacha ta’lim // Замонавий таълим. – Toshkent, 2017. №11. – 34-46 b.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 09-sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-3261-son qarori // https://lex.uz/docs/-3334234

[3] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha talim tashkilotlari uchun «Ilk Qadam» Davlat dasturi (yangi tahriri). 2022-yil // https://www.unicef.org/uzbekistan/media/5686/file/Ilk%20Qadam%20Uzbek.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-sonli qarori //https://lex.uz/docs/-4327235?ONDATE=10.05.2019

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi «Maktabgacha va maktab ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4963-sonli qarori // https://lex.uz/docs/-5239538

[5] Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press:1978. – 30-45 p.

Pedagogik kompetentlik – pedagogning ta‘lim jarayonida samarali faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni anglatadi. Bu kompetentlik o‘z ichiga ta‘lim metodologiyasini, ahloqiy-me‘yoriy qadriyatlarni, kommunikativ qobiliyatlarni hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni oladi[6].

Kreativlik – bu faqat yangi g‘oyalarni yaratish emas, balki mavjud resurslar va imkoniyatlardan maksimal darajada samarali foydalanish, muammolarni innovatsion usulda hal qilish qobiliyatidir. Maktabgacha ta‘limda kreativlik bolalar rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, pedagoglarning o‘zi uchun motivatsiya va o‘sish manbaidir[7].

Innovatsion ta‘lim texnologiyalar – bu pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish va yangi yondashuvlarni joriy etishda ishlatiladigan zamonaviy texnologik vositalar, metodlar va platformalardir. Ular ta‘limda kreativlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi va pedagoglarning faoliyatini innovatsion tarzda olib borishga imkon yaratadi[8].

Ta‘lim sifatini oshirish – ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, pedagoglarning malakasini doimiy ravishda takomillashtirish va bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishiga hissa qo‘shish jarayonidir. Bu nafaqat pedagogning o‘zini, balki butun ta‘lim tizimining sifatini yaxshilashga qaratilgan[9].

Pedagogik innovatsiyalar – bu pedagoglarning yangi g‘oyalar, metodlar, yondashuvlar va texnologiyalarni sinab ko‘rishi va ularni ta‘lim jarayoniga joriy etishi orqali ta‘lim sifatini takomillashtirish jarayonidir. Maktabgacha ta‘limda innovatsiyalar pedagogning kreativ kompetentligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Bu tushunchalar ta‘limning zamonaviy talablari, pedagoglarning ijodiy yondashuvlari va kreativlikni rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodologiyalarni tushunishga yordam beradi. Ushbu asosiy tushunchalar tadqiqot jarayonida pedagogik kompetentlik va kreativlikni takomillashtirishga hizmat qiladi.

Maktabgacha ta‘lim pedagoglarining kreativ kompetentligini takomillashtirish mavzusi bo‘yicha tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda, ilmiy yondashuvlar, tadqiqot usullari va metodikalar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning samaradorligini ta‘minlash uchun quyidagi asosiy metodologik yondashuvlar va usullarni qo‘llash lozim:

Tadqiqotning nazariy asoslari va kontseptsual «framework»[10] (Framework konstruktsiyani foydali narsaga kengaytiradigan narsalarni qurish uchun qo‘llab-quvvatlash yoki ko‘rsatma bo‘lib xizmat qilish uchun mo‘ljallangan haqiqiy yoki kontseptual tuzilish) [11].

Tadqiqotning nazariy asoslarini ishlab chiqish, pedagoglarning kreativ kompetentligini shakllantirishning psixologik, pedagogik va ijtimoiy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Bu jarayon, avvalo, kreativlikning ta‘limdagi o‘rni, pedagoglarning kasbiy malakasini rivojlantirishda kreativ yondashuvlarning o‘rni kabi masalalarga asoslanadi. Nazariy asoslarni yaratishda zamonaviy pedagogik teoriyalar va metodologiyalarni tahlil qilish zarur.

Metodologik yondashuvlar va usullar, maktabgacha ta‘lim pedagoglarining kreativ kompetentligini oshirish jarayonini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Tadqiqot metodikasi, ayniqsa, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish, pedagoglar malakasini doimiy ravishda oshirish va maktabgacha ta‘lim tizimida kreativ pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda asosiy rol o‘ynaydi.

Maktabgacha ta‘lim pedagoglarining kreativ kompetentligini oshirishda didaktik materiallar to‘plashning ilmiy tahlili quyidagicha ifodalanadi, yani, didaktik materiallar, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda asosiy vosita bo‘lib, pedagogik maqsadlarga erishish, bolalarni yaratish, rivojlantirish va ularga ta’lim berishning samarali usullarini qo‘llash uchun zarurdir. Maktabgacha ta‘lim tizimida didaktik materiallar to‘plashning asosiy maqsadi, pedagoglar uchun kreativ metodlar va materiallarni yaratish, shuningdek, bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishdir. Bu jarayonda, bolalarning individual xususiyatlariga mos ravishda materiallarni tanlash, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish muhimdir.

Didaktik materiallar to‘plashda asosiy vazifa – pedagogik jarayonni ko‘proq interaktiv va ijodiy qilish, bolalarni faollashtirish va ular bilan muloqotni kuchaytirishdan iborat. Maktabgacha ta‘limda bolalar bilan ishlashda, ularning yosh va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, turli xil materiallar va vositalar qo‘llanilishi lozim. Bu materiallar faqat kitoblar va qo‘llanmalar bilan cheklanib qolmasdan, bolalarni vizual, audio va tasavvur orqali ham o‘rgatish imkoniyatlarini yaratadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, didaktik materiallar to‘plami pedagogik yondashuvlarning samaradorligini oshiradi va bolalarda ijodiy fikrlash va mustaqil ishga qiziqish uyg‘otadi. Didaktik materiallarni ishlab chiqishda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va innovatsion metodik yondashuvlarni takomillashtirish talab etiladi. Shu bilan birga, didaktik materiallar pedagogik jarayonning turli bosqichlariga mos ravishda yaratilishi kerak, bu orqali bolalarning bilim olish jarayoni jonli va qiziqarli bo‘ladi.

Didaktik materiallar to‘plash jarayonida pedagoglarning kreativ kompetentligini oshirishning muvaffaqiyati, bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda, ta‘limdagi innovatsion yondashuvlarni qo‘llashda namoyon bo‘ladi. Bunday materiallar pedagogga bolalarni qiziqarli va samarali tarzda o‘rgatish imkoniyatini beradi va bolalarning bilim olish jarayonini yuqori darajaga olib chiqadi.

Shu nuqtai nazardan, didaktik materiallar to‘plami nafaqat maktabgacha ta’lim muassasalarida ishlatilishi kerak, balki pedagoglarning doimiy malaka oshirish va kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar orqali amalga oshirilishi zarur. Bu jarayon pedagoglarning o‘z ishlariga yangicha yondashuvni qo‘llab-quvvatlashda, pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda katta rol o‘ynaydi.

Bu metodologik yondashuvlarning samaradorligini ta‘minlash uchun, ilmiy izlanishlar va pedagogik amaliyotda yangi didaktik materiallar ishlab chiqilishi hamda bolalarni ta‘lim jarayonida faol ishtirok etishga undovchi vositalar yaratish zarurdir.

Maktabgacha ta‘lim pedagoglarning kreativ kompetentligini takomillashtirishda tadqiqot muammosida eng asosiysi, bu maktabgacha ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativ kompetentligini oshirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ta’lim tizimidagi tezkor o‘zgarishlar, innovatsion yondashuvlar va jamiyat ehtiyojlari maktabgacha ta‘lim pedagoglaridan faqat nazariy bilimga emas, balki ijodiy fikrlash, innovatsion yondashuv va zamonaviy metodikalarni qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishni talab qilmoqda. Ushbu muammo pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonida samarali yondashuvlarni ishlab chiqishni va ularning amaliy faoliyatga joriy etilishini taqozo qiladi.

Maktabgacha ta‘lim pedagoglarining kreativ kompetentligini rivoj-

[6] Dewey J. Experience and Education. – Macmillan, 1938. –25 p.
[7] Piaget J. The Psychology of the Child. – Basic Books,1976. –30 p.
[8] Thompson R. A.Pedagogical Innovations in Early Childhood Education: Cultivating Creativity. – San Francisco: Jossey-Bass, 2018. –22-40 p.
[9] Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – Continuum, 2000. –125. -140 p.
[10] Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978. – 30-45p.
[11] //https://uzbekdevs.uz/wiki/framework

lantirishda ilmiy-metodik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv samarali bo‘lishi uchun bir qator innovatsion va amaliy metodlarni qo‘llash talab qilinadi. Quyida ilmiy-metodik yondashuvni kengroq yoritib, uni amaliyotga joriy etishning samarali usullari va misollari bayon etiladi:

1. O‘quv-metodik qo‘llanmalar ishlab o’rganish va takomillashtirish[12].

Ilmiy yondashuvning boshlang‘ich bosqichi sifatida pedagoglar uchun maxsus o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish zarur. Bunday qo‘llanmalarda quyidagi jihatlar yoritilishi lozim:

Ijodiy fikrlash mashqlari[13]: Masalan, bolalar bilan birgalikda «Bir voqeani bir nechta usulda yakunlash» orqali kreativ yondashuvni rivojlantirishga yordam beradigan mashqlar.

O‘yin texnologiyalari: Bolalar o‘rtasida rolli o‘yinlar orqali ijodkorlik va hamkorlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar kiritilishi. Masalan, «Kelajakdagi dunyo» mavzusida guruh bo‘lib hikoya yaratish.

Muammo asosida o‘qitish: Pedagoglar uchun bolalarda fikrlash jarayonini qo‘zg‘atuvchi va rivojlantiruvchi muammolarni qo‘yish va yechish metodikasi bo‘yicha tavsiyalar.

2. Seminar-treninglar tashkil etish[14].

Pedagoglar uchun kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan seminar-treninglar pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo‘lishi lozim. Ushbu seminarlarning mazmunini quyidagicha tashkil etish mumkin:

«Boshqacha fikrla» mashqlari: Pedagoglardan odatiy vaziyatlarga nostandart yondashuvlar ishlab chiqishni talab qiluvchi topshiriqlar. Masalan, «Erta tonggi sport mashg‘ulotlarini qanday qilib bolalar uchun ko‘ngilochar va foydali qilish mumkin?» kabi savollarga yechim topish.

Ijodiy loyiha faoliyatlari: Har bir pedagog o‘z guruhidagi bolalar bilan ijodiy loyiha ustida ishlashi uchun qo‘llanma oladi. Masalan, bolalar bilan birgalikda turli mavzularda badiiy asar yoki sahnalashtirilgan ko‘rgazma yaratish. Masalan: «Navro‘z bayrami»ga Zahiriddin Muhammad Bobur yoki Alisher Navoiy obrazlarini yaratish.

Pedagoglar o‘rtasida fikr almashish sessiyalari: Har bir pedagog o‘z tajribasi va innovatsion yondashuvlarini boshqalar bilan bo‘lishadi.

3. Innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etish[15].

Ilmiy-metodik yondashuvning muvaffaqiyatli bo‘lishi innovatsion metodlardan foydalanishga bog‘liq. Quyida ayrim innovatsion metodlar va ularning misollari keltiriladi:

Brainstorming (aqliy hujum): Bolalarga muayyan bir mavzu bo‘yicha g‘oyalar taklif qilish topshiriladi. Masalan, «Bizning bog‘chamizning kelajagi qanday bo‘lishi mumkin?» kabi mavzularni muhokama qilish.

STEAM yondashuvi: (Science, Technology, Engineering, Art, Math) fanlarini birlashtirib bolalar bilan ijodiy loyihalar amalga oshiriladi. Masalan, «Tabiatni saqlash uchun robot yaratamiz» mavzusida loyiha yaratish. (Karton qo’g’ozdan robotlar yasaladi)

Rivojlantiruvchi didaktik o‘yinlar: «Kashfiyotchilar klubi» o‘yini orqali bolalar atrof-muhitdagi yangi narsalarni kashf qilishni o‘rganadi.

4. Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish[16].

Pedagoglarning kreativlik faoliyatida ishtirokini rag‘batlantirish ularning kreativ kompetentligini oshirishning yana bir muhim jihatidir. Bu jarayonda:

Pedagogik tadqiqotlar olib borish: Masalan, «Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ertaklarning roli» mavzusida tadqiqot olib borish.

Tajriba-sinov maydonchalari tashkil etish: Pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan metodikalarni real sharoitlarda sinab ko‘rish uchun maxsus guruhlar tashkil etiladi.

5. Raqamli vositalardan foydalanish[17].

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali metodik jarayonni samarali amalga oshirish mumkin:

Virtual treninglar: Masalan, pedagoglar uchun kreativlikni rivojlantirish bo‘yicha masofaviy treninglarni tashkil etish.

Onlayn platformalar: Pedagoglar o‘zaro tajriba almashishlari uchun maxsus forum va platformalardan foydalanish. Masalan, «Kreativ pedagoglar» nomli onlayn guruh tashkil qilish.

Mobil ilovalar: Bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilovalardan foydalanish.

6. Modellashtirish texnologiyasi[18]

Muayyan pedagogik vaziyatlarni modellashtirish orqali pedagoglar o‘z amaliy faoliyatini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Misol uchun:

Pedagogga murakkab bolalar guruhi bilan ishlash vaziyati beriladi va u ushbu vaziyatda qanday yondashuvni qo‘llashini asoslab beradi.

Metodik yondashuvni shakllantirishda tizimli va kompleks yondashuv zarur. Yuqoridagi usullar pedagoglar faoliyatiga joriy etilganda, ularning kreativ kompetentligini oshirish imkoniyatlari kengayadi. Bu nafaqat ta‘lim sifatini yaxshilaydi, balki bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvlar tizimli va izchil amalga oshirilganda, maktabgacha ta‘lim pedagoglarining kreativ kompetentligi oshib, ta‘lim sifati va samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar va didaktik tizimlar

Maktabgacha ta‘lim jarayoni bolalarda dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu jarayonda pedagoglarning kreativ kompetentligini oshirish zamonaviy ta‘limning asosiy vazifalaridan biridir. Kreativ kompetentlik - bu pedagogning ijodiy yondashuvga asoslangan pedagogik faoliyatni tashkil etish va bolalar bilan muloqotda yangicha yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatidir. Mazkur tadqiqot maktabgacha ta‘lim pedagoglarining kreativ kompetentligini takomillashtirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar va didaktik tizimlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Maktabgacha ta‘lim pedagoglarining kreativ kompetentligini rivojlantirish jamiyat va ta‘lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu jarayonda motivatsion muhit yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va didaktik tizimlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotning natijalari maktabgacha ta‘lim jarayonining sifatini oshirishga va pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bois, maktabgacha ta‘limda kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan izlanishlar davom ettirilishi lozim.

Ushbu baholash mezonlari maktabgacha ta‘lim pedagoglarining ijodiy qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Baholash natijalari asosida pedagoglarga mos dasturlar va amaliyotlar tavsiya etilishi mumkin. Bu jara-

[12] Merrill M. D. First Principles of Instruction. – Educational Technology Research and Development, 2002. – 75-92 p.
[13] Creative Education Foundation (CEF) – ijodkorlikni rivojlantirish bo‘yicha onlayn resurslar: //http:// www.creativeeducationfoundation.org
[14] Brown H. Douglas. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy, 2001– 67-95 p.
[15] Richards J. C. & Rodgers T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014. – 30-52 p.
[16] National Association for Gifted Children (NAGC): Talantli bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid metodik ko‘rsatmalar //hppt:// w.nagc.org
[17] Семенов А. В. Информационные технологии в образовании. – Москва: Просвещение, 2005 – Стр. 25-47
[18] UNESCO . ICT Competency Framework for Teachers. – 2011. – №9(1) – 18-33 p.

yon pedagoglarning ta‘lim sifatini oshirish va ularning kasbiy mahoratini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta‘lim pedagoglarining kreativ kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi tajriba-sinov ishlarini puxta rejalashtirish va tashkil etishga bog‘liq. Ushbu jarayon pedagoglarning ijodiy ko‘nikmalarini aniqlash, ularni rivojlantirish va baholashga yo‘naltirilgan amaliy faoliyatni qamrab oladi. Tajriba-sinov ishlari tadqiqot maqsad va vazifalariga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Metodikaning asosiy yo‘nalishlari.Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilishda quyidagi bosqichlar inobatga olinadi:

Tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish

Tajribaning maqsadi va vazifalarini aniqlash: kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatni samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalar aniq belgilab olinadi.

Maqsad: Pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun innovatsion metodlarni sinovdan o‘tkazish.

Vazifalar: Pedagoglarning ijodiy faoliyatini tahlil qilish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va natijalarni baholash.

Ish rejasini tuzish: Har bir bosqich uchun batafsil rejalar tuziladi. Rejada quyidagilar o‘z aksini topadi:

Ishda ishtirok etuvchi pedagoglar soni va ularga qo‘yiladigan talablar.

Mashg‘ulot mavzulari, metodlari va texnologiyalari.

Baholash mezonlari va monitoring tizimi.

2. Dastlabki diagnostika bosqichi

Tajriba-sinov ishlarining samaradorligini ta‘minlash uchun pedagoglarning dastlabki tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Suhbat va so‘rovnomalar: Pedagoglarning ijodiy qobiliyatlari, innovatsion yondashuvga tayyorligi va kasbiy ehtiyojlari o‘rganiladi.

Nazariy bilimlar testi: Kreativ kompetentlikning nazariy asoslari bo‘yicha bilimlar darajasi baholanadi. Amaliy faoliyat tahlili: Pedagoglar tomonidan amalga oshirilgan dars ishlanmalari, loyihalar va boshqa amaliy ishlar o‘rganiladi.

Natija: Ushbu bosqichda olingan ma‘lumotlar asosida pedagoglarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi.

3. Amaliy sinov bosqichi

Bu bosqichda tajriba ishtirokchilari uchun maxsus mashg‘ulotlar va amaliyotlar tashkil etiladi:

Innovatsion metodlarni qo‘llash

Interaktiv texnologiyalarni joriy qilish: rolli o‘yinlar, ijodiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar. Kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus mashg‘ulotlar: brainstorming (fikrlar yomg‘iri), assotsiativ fikrlash(shaxsning fikrlash jarayonini, ong darajasi) mashqlari.

Individial va guruhli ishlar tashkil etish:

Pedagoglar kichik guruhlarda muammolarni hal qilish usullarini ishlab chiqadilar. Individial yondashuv orqali har bir pedagogning ijodiy yutuqlari mustahkamlanadi. Amaliy jarayonni kuzatish va tahlil qilish: Mashg‘ulotlar davomida pedagoglarning faoliyatini kuzatish uchun kuzatuv varaqalari va video tahlil usullari qo‘llaniladi.

Monitoring va baholash bosqichi

Tajriba natijalarini baholash uchun oldindan belgilangan mezonlarga asoslaniladi:

Pedagoglarning kreativ kompetentlik darajasidagi o‘zgarishlar: Dastlabki diagnostika va amaliy sinov bosqichidan keyingi ko‘rsatkichlar solishtiriladi. O‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar: Pedagoglarning o‘quv jarayonida yangi metodlarni qo‘llash qobiliyatlari baholanadi.

Tajriba materiallarining natijaligi: Pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan dars ishlanmalari va ijodiy loyihalar sifati o‘rganiladi.

Yakuniy bosqich: Natijalarni umumlashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish

Tajriba natijalarini tahlil qilish: Olingan ma‘lumotlar asosida tajriba samaradorligi aniqlanadi. Pedagoglarning kreativ kompetentligidagi ijobiy o‘zgarishlar statistik ma‘lumotlar bilan tasdiqlanadi.

Tavsiyalar ishlab chiqish: Tajriba natijalariga ko‘ra pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqiladi:

Innovatsion texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga tizimli joriy etish. Pedagoglar uchun kreativlikni rivojlantiruvchi maxsus treninglar tashkil qilish.

O‘quv jarayonida interaktiv va ijodiy yondashuvlarni kengaytirish. Mazkur metodika asosida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari pedagoglarning ijodiy kompetentligini oshirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv nafaqat pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga, balki maktabgacha ta‘lim sifatining oshishiga ham sezilarli hissa qo‘shadi. Tajriba natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar sohada keng qo‘llanilishi mumkin.

Natijalar

Tajriba sinov ishlari natijalari tahlili. Tajriba va nazorat guruhlaridagi pedagoglarning kreativ kompetentligini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari quyidagicha keltirilgan:

Asosiy ko‘rsatkichlar: Nazorat guruhi:

Ushbu guruhda 50 nafar pedagog ishtirok etdi. Ularning boshlang‘ich kompetentlik darajasi o‘rtacha 65% ni tashkil etdi. Tajriba davomida nazorat guruhi hech qanday maxsus treninglar yoki qo‘shimcha mashg‘ulotlar olmaganligi sababli, ularning yakuniy kompetentlik darajasi 65% ni ko’rsatib, o’zgarmay qoldi.

Tajriba guruhi: Ushbu guruhda 50 nafar pedagog ishtirok etdi. Ularning boshlang‘ich kompetentlik darajasi o‘rtacha 66% ni tashkil etdi. Tajriba davomida ular maxsus treninglar, ijodiy mashg‘ulotlar va interaktiv yondashuvlar asosida ish olib bordilar. Ushbu yondashuvlar tufayli tajriba guruhidagi pedagoglarning yakuniy kompetentlik darajasi 75.5% gacha oshdi, bu esa 9.5% ganini o‘sganini 1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Tajriba sinov ishlari natijalari

guruh	ishtirokchilar soni	boshlang‘ich kompetentlik (%)	yakuniy kompetentlik (%)	o‘sish (%)
nazorat	50	65	65	0
tajriba	50	66	75,5	9,5

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida quyidagi xulosalar chiqarilishi mumkin:


Nazorat guruhi: Nazorat guruhi pedagoglarining kompetentlik darajasi barqaror qoldi, ya‘ni hech qanday ijobiy o‘zgarish kuzatilmadi. Bu natija ularning hech qanday maxsus treninglarda ishtirok etmaganligi va innovatsion metodlar qo‘llanmaganligi bilan izohlanadi.

Tajriba guruhi: Tajriba guruhida o‘tkazilgan maxsus treninglar va innovatsion pedagogik texnologiyalar kreativ kompetentlik darajasini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Bu guruhdagi pedagoglarning o‘z kasbiy faoliyatida kreativlik darajasini oshirishga bo‘lgan motivatsiyasi kuchaygan.

O‘sish foizi: Tajriba guruhi pedagoglarining kreativ kompetentlik ko‘rsatkichlari 9,5% ga oshgan. Bu ta‘lim jarayonida interaktiv va ijodiy yondashuvlarni qo‘llashning samaradorligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki:

Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, kreativlikni rivojlantiruvchi treninglar tashkil etish va interaktiv yondashuvlardan foydalanish pedagoglarning kreativ kompetentligini sezilarli darajada oshiradi. Nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, tajriba guruhi pedagoglarida kreativ yondashuvlarning rivojlanishi natijadorligi aniq isbotlangan.



1-rasm. Kreativ kompetentligini oshirish natijalari

1-rasmdagi diagramma natijalari quyidagilarni ko‘rsatadi:

Innovatsion yondashuvlarning samaradorligi: Tajriba guruhi pedagoglari bilan olib borilgan maxsus mashg‘ulotlar va treninglar ularning kreativ kompetentlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirgan. Bu diagrammada yakuniy kompetentlik ustunining sezilarli balandligi bilan aks etgan.

Nazorat guruhi tahlili: Nazorat guruhida kreativ kompetentlik darajasida hech qanday o‘zgarish kuzatilmadi. Diagramma bu guruh uchun barqaror, bir xil balandlikdagi ustunlar bilan ifodalanadi.

Qiyosiy ta‘sir: Diagramma tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqni vizual tarzda yaqqol ko‘rsatib beradi. Bu innovatsion texnologiyalarni ta‘lim jarayonida qo‘llashning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa

1. Nazorat nazorat guruhi pedagoglarining kreativ kompetentlik darajasi tajriba davomida barqaror bo‘lib qoldi (boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkich 65%). Bu pedagoglarga hech qanday qo‘shimcha trening yoki innovatsion yondashuvlar joriy etilmaganligi sababli, ularning faoliyat samaradorligi 0% o‘sish bilan cheklanganligini ko‘rsatadi.

2. Tajriba guruhining o‘sish ko‘rsatkichi, tajriba guruhi pedagoglarining kreativ kompetentlik darajasi tajriba davomida 66% dan 75.5% ga oshgan. Bu 9.5% lik o‘sishni tashkil etadi va maxsus treninglar, ijodiy mashg‘ulotlar hamda interaktiv yondashuvlarning samaradorligini yaqqol namoyon qiladi.

3. Innovatsion texnologiyalarning ta‘siri, innovatsion texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga joriy etish pedagoglarning kreativ fikrlash darajasini oshiradi. Tajriba guruhidagi pedagoglar bilan ishlashda foydalanilgan metodlar ularning kasbiy kompetentligini nazorat guruhi bilan taqqoslaganda 9.5% ga yuqori natija ko‘rsatdi.

4. Treninglarning ahamiyatini kreativlikni rivojlantiruvchi maxsus treninglar va mashg‘ulotlar pedagoglarning faoliyat sifatini sezilarli darajada oshganida 1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkin. Ushbu metodlar orqali ta‘lim jarayonida samaradorlik ko‘rsatkichlarini nazorat guruhi bilan taqqoslaganda ancha yuqori foizlarda oshirish mumkin.

5. Nazorat va tajriba guruhlarining farqida quyidagilar kuzatilgan bo‘lib, nazorat guruhida hech qanday o‘zgarish kuzatilmaganligi sababli, ularning samaradorligi 0% bo‘lib qoldi. Tajriba guruhi esa yangi pedagogik texnologiyalar va ijodiy yondashuvlardan foydalangan holda, 9,5% lik o‘sishga erishdi. Bu tajriba guruhi pedagoglarining kreativ kompetentlik ko‘nikmalarini oshirishda muhim natijadir.

6. Ta‘lim samaradorligini oshirish usullarini biz tadqiqotimizda qo‘llaganimiz sababli ta‘lim jarayonida interaktiv va ijodiy metodlarni qo‘llash samaradorlikni sezilarli oshirdi. Ushbu yondashuvlar orqali pedagoglarning faolligi va bilim darajasi oshadi, bu esa umumiy ta‘lim sifatini 7–10% ga yaxshilash imkonini beradi.

7. Nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasidagi farq shuni ko‘rsatadiki, maxsus pedagogik texnologiyalar va treninglar asosida ish olib borilgan pedagoglarning ta‘lim samaradorligi yuqori foizlarda oshadi. Ushbu natijalar innovatsion yondashuvlarni tizimli joriy qilish ta‘lim jarayonida o‘z samarasini berishini tasdiqlaydi.

8. Innovatsion texnologiyalarni tizimli joriy etish, pedagoglar uchun maxsus kreativ treninglar tashkil qilish va ta‘lim jarayonida interaktiv yondashuvlarni kengaytirish maktabgacha ta‘lim sifatini oshirishda eng samarali usullardan hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ta‘lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasi qonun va qonun osti hujjatlari:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 09-sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-3261-son qarori // https://lex.uz/docs/-3334234

[2].O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha talim tashkilotlari uchun «Ilk Qadam» Davlat dasturi (yangi tahriri). 2022-yil //https: // www.unicef.org / uzbekistan / media/ 5686/ file/Ilk%20Qadam%20Uzbek.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-sonli qarori //https://lex.uz/docs/-4327235?ONDATE=10.05.2019

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi «Maktabgacha va maktab ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4963-sonli qarori // https://lex.uz/docs/-5239538

5.Davlat ta‘lim standarti 2019-yil //https://lex.uz/docs/-5179335

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi «Maktabgacha va maktab ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-4963-son qarori // https://lex.uz/docs/-5239538

7.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi «Xalq ta‘limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 25-sonli qarori // https://lex.uz/docs/-5828765-?ONDATE=18.01.2022%2000

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-sonli Farmoni //https://lex.uz/docs/-5085999

9. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi «Ta‘lim to‘g‘risida» O‘RQ-637-sonli Qonuni //https://lex.uz/ru/docs/5013007?ONDATE=01.02.2024%2000

Kitob va turkum nashrlari

1.1. Bir tomlik kitoblar, monofrafiyalar, darsliklar to‘plami:

1) Abdullayeva R. Ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalar.– Toshkent:Ta‘lim nashriyoti, 2021. – 92 b.

2) Белова Т.С. Педагогические технологии и креативность в обучение дошкольников. Казань: Педагогический университет, 2018. –Стр - 61-80.

3) Brown H. Douglas. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy, 2001– 67-95 p.

4) Davis D.L. Creative Approaches to Early Childhood Education.– Oxford: Oxford University Press,2019.–98-115p.

5) Dewey J. Experience and Education. – Macmillan, 1938. – 25 p.

6) Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – Continuum, 2000. –125. -140 p.

7) Field A. Discovering Statistics Using SPSS. – Sage, 2013. –210-230 p.

8)Harris S.J. Fostering Creativity in Early Childhood Education.– Approaches and Practices: New York: Routledge, 2018. –112-128 p.

9) Johnson R.S. Inspiring Creative Competence in Early Childhood Education: Theory and Practice. – Melbourne: ACER Press, 2019. – 43-60 p.

10) Иванова Т.В. Креативность педагогов и её роль в формировании ученического потенциала в дошкольном образовании. – Москва: Педагогика, 2020. – Стр - 143-160.

11) Иванов В.П. Развитие креативной компетентности у педагогов дошкольного образования. – Саратов: Педагогика и психология, 2022. – Стр. 41-55.

12) Keller M.L.Enhancing Creativity in Preschool Education: Pedagogical Techniques and Practices. – Paris: Cambridge University Press, 2021. – 63-80 p.

13) Кузмина Н.В. Инновационние подходы к подготовке педагогов в области креативного обучения. – Москва: Высшая школа, 2021. – Стр - 30-46.

14) Martinez P.D. Early Childhood Education and Creative Pedagogy: A Global Perspective. – Toronto: University of Toronto Press, 2020. – 150-175 p.

15) Merrill M.D. First Principles of Instruction. – Educational Technology Research and Development, 2002.–75-92 p.

16) Орлова Э.В. Креативность педагогов в дошкольном образовании: особенности и результаты. – Воронеж: Наука, 2022. –Стр - 75-92.

17) Петрова Л.И. Формирование креативной компетентности педагогов в системе дошкольного образования. – Санкт-Петербург: Образование и наука, 2019. – Стр 54-71.

18) Piaget J. The Psychology of the Child. – Basic Books,1976. – 30 p.

19) Roberts K.L. Creativity and Teaching in Early Childhood Education.– London: Sage Publications, 2017.–75-90 p.

20) Семенова М.А. Креативное технологии в обучении дошкольников. – Екатеринбург: Урал университет, 2018. – Стр - 118-134.

21) Соколова Л.Э. Основы креативного обучения: теории и практики. – Новосибирск: Сибирский университет, 2020. – Стр - 88-104.

22) Семенов А.В. Информационные технологии в образовании. – Москва: Просвещение, 2005 – Стр. 25-47

23) Saidov K. Zamonaviy o‘quv vositalari. . – Termez:Tasvir nashriyot uyi, 2020. – 67 b.

24) Thompson R. A.Pedagogical Innovations in Early Childhood Education: Cultivating Creativity. – San Francisco: Jossey-Bass, 2018. – 22-40 p.

25) Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press:1978. – 30-45 p.

26) Williams A.B. Developing Creative Competence in Early Childhood Educators.– Berlin:Springer, 2020. –55-72 p.

27) Qodirov A. & To‘xtasinova M. – Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2018. . – 15-32 b.

28) Ritchie J. & Lewis J. Qualitative Research Practice: A Guide for Social Science Students and Researchers. – Sage,2003. – 17-190 p.

29) Richards J.C. & Rodgers T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014. – 30-52 p.

Jurnallardagi maqolalarga havolalar:

1. Abidov B.K. Maktabgacha ta’lim // Замонавий таълим. – Toshkent, 2017. №11. – 34-46 b.

2. Bogdanova I.A. Experimental Methods of Educational Research. Moscow: Russian Academy of Education Press, 2017. –100-120 p

3. Isroilova L. Kreativ pedagogik yondashuvlar: maktabgacha ta‘limdagi o‘zgarishlar. – Toshkent: Ma‘naviyat va o‘qituvchi nashriyoti, 2018. – 43-59 b.

4. Jalilova R. Maktabgacha ta‘limda ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish. – Toshkent: O‘zbekiston ta‘limi nashriyoti, 2022. – 51-75 b.

5. Khamraeva N. Maktabgacha ta‘limda o‘quvchilarni kreativlikka o‘rgatishning samarali usullari. – Toshkent: Folk pedagogika nashriyoti, 2020. –14-27 b.

6. Karimova N. Ta‘limda motivatsion yondashuv // International journal Science and Technology. –2020. – №9 (5). – 45 b.

7. Mahmudova S. Pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish: maktabgacha ta‘limga oid yondashuvlar. – Tashkent: Xalq ta‘limi, 2019. – 22-38 b.

8. Murodova F. Maktabgacha ta‘limdagi kreativ yondashuvlar va ularning o‘quvchilarning rivojlanishiga ta‘siri. . – Toshkent: Ta‘lim va rivojlanish, 2022. – 10-25 b.

9. Qodirova Z. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida kreativ kompetentlikni shakllantirish. – Toshkent: Ma‘naviyat nashriyoti, 2021. – 33-50 b.

10. Saidova D. Maktabgacha ta‘lim pedagoglarining kreativ kompetentligini shakllantirishda texnologiyalarni qo‘llash. –Toshkent: O‘zbekiston pedagogika akademiyasi, 2019. – 28-42 b.

11. Tursunova M. Maktabgacha ta‘limda kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy etish. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika akademiyasi, 2020. – 45-67 b.

12. Tursunov U. Maktabgacha ta‘limda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari. –Toshkent: Ta‘lim nazariyasi nashriyoti, 2021. – 63-80 b.

13. UNESCO . ICT Competency Framework for Teachers. – 2011. – №9(1) – 18-33 p.

14. Shodmonova D. Kreativ pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish. – Toshkent: Pedagogik ta‘lim nashriyoti, 2021. – 31-45 b.

15. Shiyanov S.V. Pedagogical Experiment and Its Use in Teaching Creativity. – Russian Journal of Educational Psychology, 2012. – 105-112 p.

Internet saytlariga havolalar:

1. //https://uzbekdevs.uz/wiki/framework

2. Creative Education Foundation (CEF): Ijodkorlikni rivojlantirish bo‘yicha onlayn resurslar //http:// www.creativeeducationfoundation.org

3. National Association for Gifted Children (NAGC): Talantli bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid metodik ko‘rsatmalar // hppt:// w.nagc.org

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0001-5423-2304

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI LOYIHALASH KOMPENTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Go‘zal Tojiyeva



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga nazariy va amaliy jihatdan yondashish masalasi atroflicha tahlil qilingan. Ta’lim jarayonining doimiy takomillashtirilishi, pedagogik yondashuvlarning zamonaviy talab va ehtiyojlarga moslashtirilishi ushbu tadqiqotning dolzarb ahamiyatini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchilar, kasbiy tayyorgarlik, ta’lim, loyihalashtirish, kompetensiya, rivojlantirish, didaktik vositalar, mustaqil fikrlash, metodika.

KIRISH

Jamiyatning taraqqiyoti va iqtisodiy rivojlanishi uchun ta'lim sifatining o'rni beqiyos ekanini bugungi kunda butun dunyo tan olmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchilarning malaka va mahoratiga bog'liq. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda zarur kompetensiyalarni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Bu faqat global miqyosda emas, balki O'zbekiston sharoitida ham dolzarb masala hisoblanadi.

Dunyo bugungi kunda jadal texnologik o'zgarishlar, ijtimoiy transformatsiyalar va ta'lim haqida yangi tasavvurlar shakllanishi jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Bunday sharoitda ta'lim amaliyoti doimiy yangilanish va innovatsiyalarni talab qiladi. Bo'lajak o'qituvchilar nafaqat o'z fanlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari kerak, balki zamonaviy pedagogik ko'nikmalar, o'quv dasturlarini loyihalash, baholash metodikalarini chuqur tushunish va o'z kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini mustaqil shakllantirish qobiliyatiga ham ega bo'lishlari zarur.

Ta'lim jarayonining sifati bevosita o'qituvchilarning malakasi va tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Muvaffaqiyatli o'qitish jarayoni nafaqat mazmun bo'yicha bilimlarga asoslanadi, balki pedagogik kompetensiyalarni chuqur egallash, o'quv dasturlarini samarali loyihalash, baholash usullarini to'g'ri tanlash hamda talabalarning doimiy o'zgarib turuvchi ehtiyojlariga moslashish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq bir qancha muhim qarorlar va strategiyalar mavjud bo'lib, Xalq ta'limini rivojlantirish milliy dasturi (2022–2026), Ta'lim to'g'risidagi qonun (2020),O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son Farmoni (2019-yil) lar ilmiy tadqiqot ishining metodik asosi hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi 10 yillar davomida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi bo'yicha ilmiy-nazariy yondashuvlarni har tomonlama ko'rib chiqish o'zbek tilidagi ilmiy nashrlarga kirish va ularni tahlil qilishni taqozo etadi.

A.G. Matvapayevning ilmiy qarashlarida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilagan «Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish» bo'yicha auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar dasturi ishlab chiqilganligi haqida yozilgan.

N.E. Berdikulova o'z ilmiy ishida «bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentlilik mazmuni boshlang'ich sinf talabalarining intellektual va fiziologik xususiyatlariga mos keluvchi o'quv jarayonini tashkil etish darajalarini kognitiv jarayonlarga korrelyativligini ta'minlovchi integratsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashga doir ko'nikma va malakalarni tasniflash asosida boyitilgan» ligi haqida yozgan.

M.E.Yuldashevaning ilmiy qarashlarida innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan o'quv vaziyatlari aniqlangan va tasniflangan hamda o'quv vaziyatlaridan foydalanish shart – sharoitlari belgilangan.

MDH va xorijiy olimlardan L.E. Maricheva, A.S. Kindyashova va boshqalarning ilmiy qarashlarida so'nggi o'n yillikda global ta'lim islohotlari, texnologik yutuqlar va samarali pedagogika tushunchalarining rivojlanishi tufayli bo'lajak o'qituvchilar uchun kasbiy tayyorgarlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar jadal sur'atlarda kuzatildi.

L.E.Maricheva ilmiy ishlarida «bo'lajak o'qituvchilarning dizayn kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik shartlarini aniqlashda: barqaror qiziqish va motivatsiya asosida yuzaga keladigan dizayn kompetentsiyasini rivojlantirish jarayonini motivatsion va qimmatli qo'llab-quvvatlash; dizayn faoliyati sohasidagi bilimlar asoslarini o'zlashtirishni ta'minlaydigan kontent blokini o'quv jarayoniga kiritish; ta'lim jarayonida va kasbiy faoliyatni amalga oshirishda talabalar o'rtasida samarali barqaror hamkorlikni shakllantirish; o'quv fanlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish; maktabda o'qitish amaliyoti jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini ta'minlash» haqida yozilgan. A.S.Kindyashova o'z ilmiy ishida «o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasiga bag'ishlangan tarixiy-pedagogik adabiyotlarning mavjud to'plami va bo'lajak o'qituvchilarning fan kompetentsiyalari, ularning mazmuni, tuzilishi, ro'yxati, mezonlari va shakllanish darajalari uchun nazariy asoslar yetarli emas.» ligi haqida yozadi. Schön, Altrichter va boshqalar reflektiv amaliyot va harakat tadqiqoti, reflektiv amaliyot va harakat tadqiqoti uzluksiz kasbiy o'sish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega (Schön, Altrichter va boshq., 2008). So'nggi tadqiqotlar o'qituvchilar ta'limi va kasbiy rivojlanish dasturlari doirasida aks ettiruvchi amaliyotlar va harakat tadqiqoti metodologiyalarini qanday kiritishni o'rganadi. Doimiy takomillashtirish fikrlash madaniyati va dalillarga asoslangan amaliyotni talab qiladi. Harakat tadqiqotlari o'qituvchilar uchun o'z amaliyotlarini tekshirish va yaxshilash uchun kuchli vositadir.

British Council, Uzbekistan Public Education Development Programme (2022–2026): CPD for English Teachers, 2023. Ushbu hujjat O'zbekiston ta'lim tizimida o'qituvchilar kasbiy rivojlantirish (Continuous Professional Development — CPD) bo'yicha olib borilayotgan islohotlar va tashabbuslar haqida ma'lumot beradi. U «O'zbekiston Respublikasi davlat ta'limi rivojlanishining yangi milliy dasturi» bilan uyg'unlashgan holda, o'qituvchilarning malakasini oshirishda xalqaro tajribalarni qo'llash va zamonaviy o'qitish metodologiyalarini joriy qilish zarurligini ta'kidlaydi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Kompetensiya – kasbiy faoliyat yoki ijtimoiy vaziyatda muvaffaqiyatli harakat qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning yaxlit majmuasidir. Kompetensiya insonning muayyan vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, mavjud muammolarni hal qilish va maqsadlarga erishish qobiliyatini aks ettiradi.

Kompetensiya – tushunchasi ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilib, olimlar tomonidan turlicha ta'riflanadi. Bu tushuncha shaxsning kasbiy va ijtimoiy hayotida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy xususiyatlarni qamrab oladi.

Kompetensiyaning asosiy turlari:

Kasbiy kompetensiya – kasbiy faoliyat doirasida kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar.

Ijtimoiy kompetensiya – jamoada ishlash, samarali muloqot qilish qobiliyati.

Axborot-kommunikatsion kompetensiya – zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasi.

Loyihalash kompetensiyasi – pedagog yoki mutaxassisning ma'lum bir loyihani ishlab chiqish, rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oluvchi kasbiy kompetensiyadir. Bu kompetensiya o'quv jarayonida yoki kasbiy faoliyatda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va qo'llash qobiliyatini bildiradi.Asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:O'quv yoki pedagogik loyihalarni yaratish va amalga oshirish.Maqsadlar, resurslar va natijalarni rejalashtirish. Loyihaning natijalarini tahlil qilish va baholash.Kompetentsiyalar asosida tegishli pedagogik texnologiyalarni tanlash kerak. Bunga quyidagilar kiradi: Learning Management Systems (LMS): Kurs-

larni boshqarish va talabalarni kuzatish uchun. Hamkorlikdagi onlayn platformalar: Google Workspace yoki Microsoft Teams kabi guruh faoliyati va tengdoshlarning fikr-mulohazalari uchun.Interaktiv simulyatsiyalar: stsenariylarni o‘qitishda amaliy amaliyotni ta‘minlash.Learner Engagement: Metodikalar bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim jarayonlariga qanchalik faol jalb qilish darajasi,sinf ishtirokini kuzatish, talabalarning faollik darajasi bo‘yicha fikr-mulohazalari.Ko‘nikmalarni rivojlantirish: pedagogik mahorat, fan bo‘yicha bilim va texnologik malakani oshirishda metodologiyaning samaradorligi, baholashdan oldingi va keyingi natijalar, ko‘nikmalarni egallashni ko‘rsatadigan portfel taqdimotlari. Amaliyotda qo‘llash: bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z ko‘nikmalarini real yoki simulyatsiya qilingan o’qitish muhitida qo‘llash imkoniyatlari.

Strukturaviy o‘quv rejasi: kompetentsiyani rivojlantirishga ko‘maklashishda o ‘quv rejasi dizaynining uyg‘unligi va aniqligi, o‘quv rejasi xaritalari, batafsil dars ishlanmalari, o‘quv maqsadlari o‘rtasidagi uyg‘unlik,baholash usullarini integratsiyalashuvi, malakalarni egallashni baholash uchun qo‘llaniladigan baholash strategiyalarining samaradorligi, qo‘llaniladigan baholashlarning xilma-xilligi (formativ, summativ), belgilangan vakolatlarga muvofiqligi.

Qayta aloqa davrlarini amalga oshirish: metodologiyalarni doimiy takomillashtirish uchun qayta aloqa mexanizmlarining mavjudligi va samaradorligi,fikr-mulohazalarga asoslangan tuzatishlar,reflektiv amaliyotlar: treningning bir qismi sifatida bo‘lajak o‘qituvchilar uchun aks ettirish amaliyotlarini birlashtirish,reflektsiya jurnallari, tengdoshlarning baholashlari, fikrlash asosida kiritilgan o‘zgarishlarning dalillari.

Ishtirokchilarning qoniqish darajasi: bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan ta’lim metodologiyalarining dolzarbligi va sifati bo‘yicha bildirilgan qoniqish darajasi, so‘rovlar, intervyular, fokus-guruhlarning fikr-mulohazalari, mentor va instruktorning fikr-mulohazalari, o‘quv jarayonida ishtirok etgan ustozlar va o‘qituvchilarning metodologiyalar samaradorligi bo‘yicha tushunchalari va qoniqishlari,baholash shakllari, ko‘rib chiqish uchrashuvlari davomida muhokama qilish.

Kasbga tayyorgarlik: bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbga kirishga tayyorligi va turli xil talabalarning ehtiyojlarini qondirish,mashg‘ulotdan keyingi bandlik darajasi, tayyorlik bo‘yicha ish beruvchilarning fikr-mulohazalari. Barqaror ko‘nikmalarni qo‘llash: bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z kasbiy faoliyati davomida o‘rgangan kompetentsiyalarini qanchalik samarali qo‘llashlarini baholash Bitiruvchilar bilan keyingi so‘rovlar yoki intervyular, kasbiy rivojlanish bilan shug‘ullanish. M.Sh.Kholmuhamedov «Mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning birlashgan tizimi.» Bu ta’rif kompetensiyaning kasbiy faoliyatga qaratilganligini ko‘rsatadi.M.Sh.Tadjieva «Pedagogik faoliyatda o‘quv jarayonini samarali rejalashtirish va tashkil etish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar majmuasi.» Bu ta’rif loyihalash kompetensiyasining o‘quv jarayoniga ta’sirini ko‘rsatadi.M. R. Rakhmatullaeva «Kasbiy faoliyatda samarali natijalarga erishish uchun shaxsning individual fazilatlari, bilim va ko‘nikmalarining integratsiyasi».A.S.Yuldasheva «O‘quv jarayonini loyihalash va rejalashtirishda pedagogning kasbiy bilimlari va ko‘nikmalarini o‘z ichiga olgan maxsus kompetensiya «D.Boyatzis kompetensiyani «ma’lum bir mehnat vazifasini yuqori darajada bajarish uchun shaxsning xatti-harakatlari, bilimlari va ko‘nikmalari bilan bog‘liq xususiyatlar» deb ta’riflaydi. Bu ta’rif kompetensiyaning kasbiy faoliyatda natijalarga erishishga qaratilganligini ta’kidlaydi.

A.Markova kompetensiyani «mutaxassisning bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarining integratsiyasi natijasida shakllangan murakkab shaxsiy va kasbiy sifat» deb ta’riflaydi. Unga ko‘ra, kompetensiya kasbiy vaziyatlarda to‘g‘ri va samarali qaror qabul qilish imkonini beradi.V.L. Serebryakova kompetensiyani «amaliyotda muayyan kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo‘lgan umumiy va maxsus bilimlarni birlashtiruvchi kasbiy yondashuv» deb tushuntiradi. Bu yondashuv kompetensiyani amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan tushuncha sifatida ko‘rsatadi.Loyihalash kompetensiyasi bu ta’lim va kasbiy faoliyatda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarni tahlil qilishga qaratilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning majmuasidir.E.F. Zeer loyihalash kompetensiyasini «pedagogik jarayonda loyihalarni yaratish, rejalashtirish va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan maxsus kasbiy ko‘nikmalar majmuasi» deb ta’riflaydi. U loyihalash kompetensiyasini pedagogning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega deb biladi.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlarining natijalari bo‘yicha nazorat guruhi va tajriba guruhi o‘rtasidagi farqni aniqlash, kredit-modul tizimi asosida talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini baholash uchun quyidagi tahlillarni keltiraman. Shuningdek, erishilgan natijalarni taqdim etish uchun jadvallar va diagrammalarni shakllantiraman.

Nazorat guruhi (23 ta talaba): An’anaviy metodlar asosida o‘qitilgan. Tajriba guruhi (25 ta talaba): Kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llangan.

Baholash mezonlari:

1-jadval

Ko‘rsatkichlar	Maksimal ball	Baholash mezoni
Nazariy bilimlar	25	Pedagogik va loyihalash nazariyasi bo‘yicha bilimlar
Amaliy ko‘nikmalar	30	Dars loyihasi yaratish, texnologiyalardan foydalanish
Innovatsion yondashuv	20	Yangi usullar va texnologiyalarni tatbiq etish
Reflektiv ko‘nikmalar	15	O‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish
Jamoaviy ish qobiliyati	10	Hamkorlikda ishlash, muloqot qilish qobiliyati
Jami	**100**	

Tajriba-sinov ishlarining natijalari bo‘yicha o‘rtacha ballar:

2-jadval

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (23 talaba)	Tajriba guruhi (25 talaba)	Farq (%)
Nazariy bilimlar	18,2	22,5	+23,6%
Amaliy ko‘nikmalar	20,5	27,3	+33,2%
Innovatsion yondashuv	14,1	17,8	+26,2%
Reflektiv ko‘nikmalar	10,8	13,1	+21,3%
Jamoaviy ish qobiliyati	7,5	9,5	+26,7%
O‘rtacha umumiy natija	**71,1**	**89,9**	**+11%**

Tajriba-sinov ishlari davomida nazorat guruhi (23 talaba) va tajriba guruhi (25 talaba) ishtirok etdi. Ushbu jarayon natijalariga asoslanib, quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘rtacha ballar tahlil qilindi va ikki guruh orasidagi farqlar foiz ko‘rinishida aks ettirildi.

Nazariy bilimlar: Nazorat guruhi: 18,2 %. Tajriba guruhi: 22,5%. Farq: +23,6% Tajriba guruhi nazariy bilimlarni egallashda nazorat guruhiga nisbatan 23,6% yuqori natijaga erishdi. Bu farq tajriba guruhida nazariy bilimlarni o‘zlashtirish uchun innovatsion metodlar va interaktiv ta’lim yondashuvlari qo‘llangani bilan izohlanadi. Amaliy ko‘nikmalar: Nazorat guruhi: 20,5%. Tajriba guruhi: 27,3%. Farq: +33,2%. Amaliy ko‘nikmalar bo‘yicha tajriba guruhi 33,2% yuqori natija ko‘rsatdi. Bu guruhda amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanilganligi, talabalar dars loyihalarini ishlab chiqish va texnologiyalarni tatbiq etishda faol ishtirok etganligi bilan bog‘liq. Innovatsion yondashuv: Nazorat guruhi: 14,1%. Tajriba guruhi: 17,8%.Farq: +26,2%. Tajriba guruhi innovatsion yondashuv bo‘yicha 26,2% yuqori natija ko‘rsatdi. Ushbu natija yangi pedagogik texnologiyalar va ilg‘or o‘qitish usullarini qo‘llash orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish natijasida erishilgan. Reflektiv ko‘nikmalar: Nazorat guruhi: 10,8%. Tajriba guruhi: 13,1%. Farq: +21,3%. Reflektiv ko‘nikmalar bo‘yicha tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 21,3% yuqori natijaga erishdi. Talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilish va xatolarini tahlil qilib, takomillashtirish ko‘nikmalari yaxshilangan. Bu reflektiv yondashuv va masofaviy ta’lim vositalarini samarali qo‘llash bilan bog‘liq. Jamoaviy ish qobiliyati: Nazorat guruhi: 7,5%. Tajriba guruhi: 9,5%Farq: +26,7%. Jamoaviy ish qobiliyati bo‘yicha tajriba guruhi 26,7% yuqori natija ko‘rsatdi. Bu guruhdagi talabalar orasida hamkorlik muhitini yaratish va guruhli faoliyatni qo‘llash orqali o‘zaro munosabatlar va jamoaviy ishlash qobiliyati rivojlangan. O‘rtacha umumiy natija: Nazorat guruhi: 71,1%. Tajriba guruhi: 89,9%. Farq: +11%.Tajriba guruhi umumiy natijalar bo‘yicha 11% yuqori ball to‘pladi. Bu guruhda nazariy bilimlardan tortib, amaliy va innovatsion ko‘nikmalargacha bo‘lgan barcha sohalarda yaxshilanish kuzatildi. Ushbu farq tajriba guruhida ta’lim jarayonining zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or yondashuvlar bilan boyitilganligi bilan izohlanadi.Tajriba guruhining natijalari barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Ushbu farqlar tajriba jarayonida qo‘llangan metod va vositalarning samaradorligini isbotlaydi. Shu bois, ilg‘or texnologiyalar va interaktiv ta’lim yondashuvlarini kengroq tatbiq etish tavsiya etiladi.

Nazorat va tajriba guruhlarining baholanish natijalari

Bu jadvalni umumlashtirgan holda ta’lim samaradorligini kategoriyalar hisobi jadvalini keltiramiz:

3-jadval

Kategoriya	O‘sish foizi (%)
Nazariy bilimlar	23,6
Amaliy ko‘nikmalar	33,2
Innovatsion yondashuv	26,2
Reflektiv ko‘nikmalar	21,3
Jamoaviy ish	26,7
Umumiy samaradorlik	11

Nazariy bilimlar: tajriba guruhidagi nazariy bilimlar darajasini o‘rganish natijasida, mazkur guruhda bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 23,6% ga yaxshilandi. Bu natija o‘quv dasturlarining to‘g‘ri tashkil etilgani va ilg‘or pedagogik yondashuvlar joriy etilganini ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida nazariy tushunchalarni chuqur o‘zlashtirish uchun innovatsion metodlardan foydalanish, talabalarning mavzuni puxta o‘rganishlariga zamin yaratgan. Shuningdek, darslarda interaktiv va muammoli ta’lim usullari qo‘llanilib, nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog‘lanishi kuchaytirildi.

Amaliy ko‘nikmalar: tajriba guruhi talabalari amaliy ko‘nikmalarda 33,2% yuqori natijaga erishgani kuzatildi. Ushbu yutuq amaliy mashg‘ulotlarda talabalarning faol ishtirok etishlari va mustaqil ishlarning samaradorligi natijasidir. Amaliy topshiriqlarni aniq va amaliyotga yaqin bo‘lgan sharoitlarda bajarish, talabalarni ko‘nikmalarni rivojlantirishga undadi. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish talabalar uchun aniq natijalar olish imkoniyatini berdi.

Innovatsion yondashuv: tajriba guruhi bilan ishlashda yangi pedagogik texnologiyalar qo‘llanilishi samaradorlikning 26,2% ga oshishiga olib keldi. Bu natija o‘qituvchilarning ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishga qaratilgan innovatsion metodlarni joriy etganliklarini ko‘rsatadi. Talabalar faoliyatini rag‘batlantirish uchun yangi yondashuvlar, jumladan, raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalar ishga solindi. Ushbu texnologiyalar o‘qituvchining nazorat qilish imkoniyatini oshirish bilan birga, talabalarni mustaqil va ijodiy ishlashga yo‘naltirdi.

Reflektiv ko‘nikmalar: talabalarning reflektiv ko‘nikmalari 21,3% ga yaxshilangani ma’lum bo‘ldi. O‘quvchilar o‘z faoliyatlarini chuqur tahlil qilish va mustaqil ravishda xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu borada reflektiv yondashuvni rivojlantiruvchi topshiriqlar, masalan, o‘z faoliyatini yozma tarzda baholash yoki munozaralar o‘tkazish, muhim rol o‘ynadi. Bunday yondashuv talabalarni o‘z kamchiliklarini anglash va ulardan saboq olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlariga yordam berdi.

Jamoaviy ish:tajriba guruhi jamoaviy ishlarda 26,7% yuqori natijaga erishdi. Guruhdagi talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va bir-biriga yordam berish madaniyati shakllantirildi. Ta’lim jarayonida turli loyihalar va guruhli topshiriqlar bajarilishi orqali jamoaviy ish ko‘nikmalari mustahkamlandi.

Umumiy samaradorlik: tajriba guruhidagi umumiy samaradorlik 11% ga oshgani kuzatildi. Bu natija o‘qitishning barcha bosqichlarida tizimli yondashuv qo‘llanilganining dalilidir. Teoriyadan amaliyotga, refleksiyadan jamoaviy faoliyatgacha bo‘lgan barcha yo‘nalishlarda ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Innovatsion metodlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar qo‘llanilgan tajriba guruhi talabalari kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishga erishdi. Bu usullar kasbiy tayyorgarlikni loyihalash kompetensiyasini oshirishda 11% ga ta’lim samaradorligi oshganini va tadqiqotchi tomonidan o’tkazilgan tadqiqotlar samarali ekanligini isbotladi.

Xulosa

Tajriba guruhi talabalari nazariy bilimlarni o‘zlashtirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Nazorat guruhi bilan solishtirganda, tajriba guruhining bilim darajasi 23,6% ga oshdi. Bu talabalar tomonidan pedagogik nazariyalar va metodik yondashuvlar bo‘yicha chuqurroq tushunchalarga ega bo‘lishi, zamonaviy pedagogik prinsiplarga asoslangan holda o‘qituvchilik faoliyatini shakllantirishni o‘zlashtirish bilan izohlanadi. Ushbu yondashuv pedagogik va kasbiy tayyorgarlikning mustahkam poydevorini yaratishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Amaliy ko‘nikmalarning rivoji tajriba guruhi talabalarda amaliy ko‘nikmalar bo‘yicha 33,2% i yuqori natijaga erishdi. Ular darslarni loyihalash, ta’lim texnologiyalarini qo‘llash va o‘qitish jarayonini samarali boshqa-

rish bo‘yicha yuqori malakaga ega bo‘ldilar. Loyihalar, dars rejalari va amaliy mashg‘ulotlar orqali muhim tajriba orttirib, kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirdilar.Innovatsion pedagogik metodlarni o‘zlashtirishda tajriba guruhi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda 26,2% i yuqori natijaga erishdi. Talabalar o‘quv jarayonlarida raqamli va interaktiv texnologiyalardan foydalanishni muvaffaqiyatli o‘zlashtirdilar. Bu nafaqat dars samaradorligini oshirdi, balki talabalar uchun innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini amalda ko‘rsatdi. Reflektiv ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonlarida tajriba guruhi talabalarining reflektiv ko‘nikmalari nazorat guruhiga nisbatan 21,3% ga yaxshilandi. Ular o‘z pedagogik faoliyatlarini chuqur tahlil qilishni va samaradorligini baholashni o‘zlashtirdilar. Bu ko‘nikmalar talabalarga o‘z faoliyatlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish va yondashuvlarini takomillashtirish imkonini berdi. Reflektiv faoliyat, shuningdek, talabalar mustaqilligini oshirishda muhim vosita bo‘ldi. Jamoaviy ishlash ko‘nikmalarining rivojida tajriba guruhi talabalarining jamoaviy ish qobiliyati 26,7% ga oshdi. Ular guruhda ishlash, muammolarni yechish va umumiy maqsadga erishish bo‘yicha sezilarli muvaffaqiyatga erishdilar. Ushbu yondashuv pedagogik faoliyatda samarali ishlashga va talabalarning o‘zaro muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qildi. Mustaqil ta’lim va kredit-modul tizimining samarasi kredit-modul tizimi orqali talabalar mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Bu ta’lim shakli talabalarni o‘z ta’lim jarayonini boshqarishga, bilimlarni mustahkamlashga va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirdi. Tajriba guruhidagi talabalar ushbu tizimdan foydalanib, o‘zlarining kasbiy rivojlanishlarini yanada mustahkamlashga muvaffaq bo‘ldilar.Umumiy kasbiy tayyorgarlikning yaxshilanish jarayonlarida tajriba guruhi umumiy natijalarda nazorat guruhiga nisbatan 11%i yuqori natijaga erishdi. Talabalar zamonaviy pedagogik texnologiyalar va usullardan foydalanishni o‘rganib, o‘qituvchilik faoliyatini aniq va tizimli tashkil qilishni muvaffaqiyatli o‘zlashtirdilar. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasi qonun va qonun osti hujjatlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son farmoni. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun dasturi. 2019-yil 27-may.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Oliy va professional ta’lim to‘g‘risida (yangi tahrir) 2024-yil 27-may.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni .Oliy va professional ta’lim to‘g‘risida (yangi tahrir) 2024-yil 27-may.

4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.Ta’lim to‘g‘risida (yangi tahriri). 2024-yil 1-fevral.

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.Ta’lim to‘g‘risida (yangi tahriri). 2020-yil 23-sentyabr.

5. Āboliņa A.Skolotāju profesionālās pilnveides iespējas kompetenču izglītības ietvaros.Pedagoģijas inovāciju un pētījumu žurnāls, 2023.11(2), 67–75.

6. Āboliņa A.Skolotāju profesionālās pilnveides iespējas kompetenču izglītības ietvaros.Pedagoģijas inovāciju un pētījumu žurnāls, 2023.11(2), 67–75.

7. Bernande M. Kompetenču pieejas ieviešana skolotāju izglītībā: teorija un prakse. Mūsdienu izglītības teorijas un prakses žurnāls, 2023.12 (3), 101–109.

8. Abdullaev Yu. Xorijiy oliy ta’limning ijtimoiy- pedagogik xususiyatlari, tajriba va taraqqiyot tamoyillari: -Toshkent: Ilmiy axborotnoma. 2017, 6-son. -106 b.

9. Alibekova R. Milliy istiqlol g ‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Ilmiy axborotnoma. –Toshkent: 2017-yil, 2-son. –114 b.

10. Altrichter H., Posch, P., & Somekh, B.Teachers investigate their work. Routledge. 2008.

11. Bologna Process.The Bologna Declaration: 19 June 1999 year. Retrieved from. - 55 p.

12. Bekchonova Sh. Raqamli ta’lim asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish. Konf. -Toshkent: TDPU.2003.-16 b.

Internetdan olingan havolalar:

//http://www.lex.uz

//https:www.dissercat.com.

//https:erasmus-plus.ec.europa.eu.

//https:www.uzdaily.uz/en/national-qualifications-framework-approved).

//https:www.dissercat.com/content/formirovanie-proektirovochnoi-kompetentnosti-budushchikh-uchitelei

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0003-7448-1839

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TAFAKKURINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkur darajasini aniqlash, ularning aqliy rivojlanishini diagnostika qilish va tafakkur jarayonini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Bolalarning tafakkurini shakllantirish va kengaytirishda didaktik o‘yinlar hamda turli rolli o‘yinlardan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, bolalar tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kreativ yondashuvlarning ahamiyati, fikrlash jarayonini mustahkamlash maqsadida olib borilgan tajribalar va ularning natijalari qayd qilingan bo‘lib, bolalarning mantiqiy, tahliliy hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan turli metodikalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: bola tafakkuri, kreativ yondashuv, ijodkorlik, fikrlash metodi, bolalar psixologiyasi, didaktik o‘yinlar, intellektual rivojlanish, diagnostika usullari.

Kirish

Bugungi kunda jahonda jamiyat taraqqiyotining turli sohalarida kreativ yondashuv asosida ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, ayniqsa, ta'limni axborotlashtirish sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish metodikasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlar, fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini amaliyotga joriy etish, shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning kreativ salohiyatini rivojlantirish zamon talabi sifatida namoyon bo'lyapti.

Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish metodikasining axborot-ta'lim muhiti bilan integratsiyasini ta'minlash, tarbiyachilarda o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga intilish, bu boradagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun didaktik shart-sharoitlarni takomillashtirish zarurati tobora ortmoqda. Holbuki, ilgari jamiyatda ijodiy tafakkurga bo'lgan ehtiyoj kam edi.

G'arb olimlaridan biri F. Frebel fikricha: «San'atni o'rganish o'z-o'zini namoyon qilish uchun emas, balki dunyodagi yuksak tartibni anglash uchun zarurdir. Ushbu uch sohaning yaxlitligini tushunishgina farzandlarni munosib tarbiyalashga asos bo'la oladi». U maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan maxsus materiallar («sovg'alar») va bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi tadbirlarni ishlab chiqqan (asosan qalam, qog'oz, yelim bilan ishlash). Avval mavjud bo'lgan, ammo bolalarni o'rgatishda qo'llanilmagan bu materiallar Frebel tomonidan ilk bor o'quv jarayoniga kiritildi. Uningcha, bolalar bog'chasidagi asosiy faoliyat shakli bu – o'yin bo'lib, «bu davrdagi o'yin – bolalarcha emas, balki bolaning eng yuksak rivojlanish bosqichidir». Shuningdek, «o'rganish – bilimni talab qiladi», deb ta'kidlaydi olim.

Zamonaviy maktabgacha ta'limda kreativ yondashuv asosida bolalar tafakkurini rivojlantirish jarayoni ta'limiy va ijtimoiy faoliyatning ajralmas qismi sanaladi. Kreativlik esa tarbiyachilarning umumkasbiy layoqatini shakllantirishda ochiq, o'zgaruvchan va demokratik maydon bo'lib xizmat qiladi. Amaliy kuzatuvlarga tayangan holda aytish mumkinki, o'quv-tarbiya jarayoni guruhning kundalik ish rejasiga asoslanadi, bunda tarbiyachi tomonidan rejalashtirilgan harakatlar, o'yinlar, bo'sh vaqt va mashg'ulotlar tizimli amalga oshiriladi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida hayot tobora murakkablashib borayotgan bir paytda, insondan yangi sharoitlarga moslasha olish, muammolarni mustaqil hal etish va ijodiy yondashuv talab qilinmoqda. Shu sababli barcha sohalarda, ayniqsa, tarbiyachi faoliyatida fikrlashni rivojlantirish, bolalarda ijodiy tafakkurni shakllantirish muhim vazifa sanaladi. Maktabgacha yoshda tafakkur va qobiliyatlarni erta rivojlantirish ayni muddaodir. Shu bois, bu bosqichda nafaqat reproduktiv fikrlash, balki kreativ fikrlashni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Hozirgi davrda bolaning intellektual, kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida pedagogik-psixologik ta'sir ko'rsatish zarur. Bu jarayonda psixologlar, tarbiyachilar va ota-onalarning mas'uliyati beqiyosdir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Maktabgacha ta'lim sohasi – uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini bo'lib, u har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash hamda maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.»

Mazkur tamoyillar asosida kreativ yondashuv orqali bolalar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali shakl va metodlarni ishlab chiqish, ta'lim jarayonini yangi model va texnologiyalar asosida tashkil etish dolzarbdir. Respublika maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda.

«Ilk qadam» davlat o'quv dasturida «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» kompetensiyalariga ko'ra, bolalar «Men» konsepsiyasi, shaxslararo farqlar, ijtimoiy munosabat va muloqot madaniyatini egallashlari zarurligi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida esa bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishlari uchun shart-sharoit yaratish, innovatsiyalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga joriy etish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan.

Shu asosda, kreativ yondashuv orqali maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi, maktabgacha ta'limga oid qator farmon va qarorlar, xususan, PQ-3651-son (2018-yil), PQ-4312-son (2019-yil) hamda Vazirlar Mahkamasining 391-sonli qarori (2019-yil)da belgilangan vazifalar ijrosi tarbiyachilar kreativligini oshirish va raqamli texnologiyalarni ta'limga joriy etish orqali kutilgan natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ilmiy-nazariy asoslar maqoladagi tadqiqotning metodologik zaminini tashkil etadi.

Metodologiya va metodlar

Mazkur maqolaning maqsadi – kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

Maqola doirasida:

— kreativ yondashuvga asoslangan metodik va didaktik shart-sharoitlar aniqlandi;

— tegishli metodikalar ishlab chiqildi;

— o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishning afzalliklari tajriba asosida o'rganildi.

Maqolaning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalari maktabgacha ta'limda kreativ yondashuv asosida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, vositalari, shakl va metodlarini takomillashtirishda ilmiy-metodik asos yaratadi.

Prezident Sh.Mirziyoyev «Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi», – degan fikrlari tizim mutaxassislariga katta mas'uliyat yuklaydi. Tarbiya va o'qitish jarayonida bolalar tafakkurini rivojlantirishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish, mashg'ulotlarni tashkil etishning yangicha modellar va texnologiyalarini yaratish zaruratini yuzaga keltiradi.

Respublikamiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga innovatsion va ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda. «Ilk qadam» davlat o'quv dasturida, bolalar «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalarida o'z «Men»i va o'zgalar shaxsi o'ziga xosliklari, ijtimoiy munosabatlar va muloqot o'rnatish kompetensiyalarini o'zlashtirishlari kerakligi belgilab berilgan. «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar

yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa, maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida metodik xususiyatlarini aniqlashtirish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son, 2018-yil 5-apreldagi «Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3651-son va 2019-yil 8-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» PQ-4312-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi «Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 391-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda muhim vazifalar belgilangan. Bu borada tarbiyachilarning kreativligini oshirib borish uchun qulay sharoitlar yaratish hamda maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etishni ta’minlash orqali kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Maqola uchun yuqoridagi ma’lumotlar ilmiy tahlil etilgan holda tadqiqot tashkil etildi. Uning maqsadi kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

Mazkur tipologiya (bilish metodi) asosida kreativ yondashuvga ahamiyat qaratilib, maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish modeli bo‘yicha tajriba-sinov ishlari bosqichida ilmiy-nazariy gipoteza tarzida amaliyotga tatbiq etildi va sinovdan o‘tkazildi. «Maktabgacha ta’lim tashkilotlari – umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari – oila» hamkorlik strategiyasi mazmuni asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishda uzviylikni ta’minlash mexanizmlari takomillashtirildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini tahlil qilib chiqdik. Bu murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, uni amalga oshirishda didaktika, tarbiya nazariyasi, ta’lim menejmentida olg‘a surilgan ilg‘or innovatsion g‘oyalarga tayangan holda ish ko‘rish talab etiladi. Ushbu jarayonda oila, ta’lim tashkilotlari ham faol ishtirok etishdi. Bu, albatta, birinchi navbatda, ta’lim jarayonidagi ob’yektlarning individualligini hisobga olgan holda, tarbiyaviy ish mazmuni, shakl va metodlari, vositalari tanlab olinishini taqozo etadi. Shu bois, «Ilk qadam» o‘quv dasturida qayd etib o‘tilgan «Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish» hamda «Badiiy adabiyot bilan tanishtirish» bo‘limlari mazmunan dissertatsiyada ilgari surilgan muammoga bevosita bog‘liq bo‘lganligi uchun navbatdagi paragraflarda tahlil qilib chiqdik.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish o‘quv-metodik resurslar mazmunini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish, modulli texnologiyalardan foydalanib, maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘quv dasturlarini takomillashtirib borish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachilarning kreativligini oshirib borishda qulay sharoitlar yaratish, hamda maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etishni ta’minlash orqali kutilgan natijalarga erishiladi.

Shunday qilib, o‘yin jarayonida bolalar o‘zlarini o‘rab turgan narsalarga, kundalik hayotning hodisalariga, tabiatga, o‘yinlarga to‘g‘ri munosabatni shakllantiradi va bolaning bilimini chuqurlashtiradi, bu, albatta, aqliy tarbiyadir. Bolalar didaktik o‘yinlari hissiyotlarni rivojlantirishi, chunki atrofimizdagi dunyoni to‘liq anglash uchun bola uni his qilishi va idrok qilishi kerak. Didaktik o‘yinlar bolalar nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘yin bolaning so‘z boyligini boyitadi, ham faol, ham passiv, tovushlarni va butun so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni, jumlalar tuzishni, o‘z fikrlarini aniq ifoda etishni o‘rganadi. To‘g‘ri didaktik o‘yin yosh avlodning axloqiy tarbiyasida muhimdir. Bolalar kattalar mehnati natijasida o‘yinchoqlarga, atrofdagi narsalarga g‘amxo‘rlik qilishni o‘rganadilar, ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari, tengdoshlar va kattalar bilan bo‘lgan munosabatlar, turli xil shaxsiy xususiyatlar haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun didaktik o‘yinlar mehnat ta’limi funksiyasini bajaradi. Darhaqiqat, bolalar o‘yin uchun materiallarni mustaqil ravishda tayyorlash orqali boshlang‘ich mehnat ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Besh yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan bolalar rasmlarni, o‘yinlar uchun tabiiy materiallarni olishadi, kartalar, chiplar, o‘yinlar uchun qadoqlar tayyorlashadi. Agar bola o‘yin uchun atributlarni o‘zi tayyorlasa, ulardan foydalanishda yanada ehtiyotkor bo‘ladi. Didaktik material gigiyenik bo‘lishi kerak va iloji bo‘lsa estetik tarzda ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak.

Darhaqiqat, yorqin, oqlangan o‘yinchoqlar har doim bolalarning e’tiborini jalb qiladi, ular bilan o‘ynash istagini uyg‘otadi, bu ular estetik tarbiya funksiyasini bajarishini anglatadi.

Didaktik o‘yinda jismoniy va aqliy tarbiya xususiyatlari mavjud. O‘yin deyarli har doim farovonlikni, ijobiy hissiyotlarni keltirib chiqaradi. Eng muhimi, didaktik o‘yinchoqlar yordamidagi o‘yinlar davomida qo‘llarning nozik motorli mahoratlari mustahkamlanib, rivojlanadi. Bu bolalarning aqliy rivojlanishiga eng qulay ta’sir ko‘rsatadi, qo‘llarni yozishga tayyorlashga yordam beradi. Ko‘pgina didaktik o‘yinlar madaniy va gigiyena ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘yinda bolalar turli xil his-tuyg‘ularni ifoda etadilar, hamma narsani birgalikda bajarishga intilishadi. Bolalarda tafakkur jarayonini rivojlantirishda didaktik va rolli o‘yinlar kreativ yondashuv sifatida tanlab olindi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining ishchi o‘quv dasturi tashkilot tarbiyachilari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuzilgan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlangan. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning tafakkurini rivojlantirishga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma’naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o‘rab turgan atrof-muhitni o‘rganish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yo‘nalishlar bir-biri bilan uyg‘unlashtirilib – integrallashgan rejalashtirish asosida tashkil etiladi hamda o‘yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O‘yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, bu jarayonda o‘rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan o‘zlashtiradi. Bu esa bolalar tafakkurini rivojlantirishda xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlari Buxoro viloyati Kogon tuman 8-son DMTTning tayyorlov guruhlarida uch bosqichda 2023-2024-yillarda o‘tkazildi. Ilmiy izlanishlarimizning maqsadi maktabgacha yoshdagi 5-6 yoshli bolalarda tafakkurni rivojlantirish jarayonida o‘yin texnologiyalari, ertak terapiyasidan foydalanish imkoniyatlarini amaliy jihatdan dalillashdir. Maqola uchun tadqiqot davomida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini kreativ yondashuv asosida rivojlantirishning asosiy komponentlarni aniqlash, ko‘rsatkichlari, baholash mezonlari, darajalarini ishlab chiqish, diagnostika usullarini tanlash.

2. Tajriba-sinov ishlarining ta’kidlovchi va asoslovchi bosqichlarida maktabgacha yoshdagi 5-6 yoshli bolalarda kreativ yondashuv asosida tafakkurni rivojlantirish darajasini aniqlash, olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish.

3. Maktabgacha yoshdagi 5-6 yoshli bolalarda kreativ yondashuv asosida tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘yin texnologiyalari va dinamik ertaklar bilan boyitilgan maxsus metodikani tajriba-sinovdan o‘tkazish.

4. Amalga oshirilgan ishlarning samaradorligini aniqlash. «Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida tafakkurni rivojlantirish mohiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan nazariy tadqiqotlar tahlili maktabgacha yoshdagi 5-6 yoshli bolalarning kognitiv, hissiy va xulq-atvor komponentlari ko‘rsatkichlarini va baholash mezonlari va gender tolerantligi shakllanganlik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Tajriba-sinov ishi individual tarzda o‘tkazildi. Natijalarga ishlov berish: o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasida umumiy va o‘zaro tanlovlar soni hisoblab chiqildi, guruhdagi bolalar holati aniqlandi (liderlar-6 va undan ortiq tanlov, afzal ko‘rilganlar-3-5 tanlov, qabul qilingan-1-2 tanlov, izolyatsiya qilinganlar – tanlov yo‘q). Tanlash – bu ortiqcha, o‘zaro tanlovdir. O‘z va qarshi jins vakillarining ijobiy va salbiy saylovlari mezonlari tahlil qilinadi va taqqoslanadi.

Ertak terapiyasi. Maqsad – bolalarning hamdardlik darajasini aniqlash. Material: «Qizil Qalpoqcha» va «Zumrad va Qimmat» ertaklari (bir jinsdagi qahramon, boshqa jinsdagi qahramon) (2-ilovaga qarang). Maktabgacha yoshdagi bolaning reaksiyalari qayd etiladi (og‘zaki, mimik, pantomimik). Savol beriladi: ertakning asosiy qahramoni o‘rnida qanday harakat qilardingiz? Qabul qilingan javob va ertakni o‘qib berish paytida bola ko‘rsatgan reaksiyalar taqqoslanadi.

Amalga oshirish. Birinchi qism: bolalarga rollar yozilgan kartochkalar tanlash beriladi. Bolalar tanlagan rollar bo‘yicha 2-bobda berilgan o‘yinni ssenariy asosida o‘ynaydilar. Tarbiyachidan bu vaziyatda muhitni maksimal darajada reallikka yaqinlashtirish talab qilinadi.

Ikkinchi qism: bolalardan o‘yinchoqlarini yig‘ishtirish talab qilinadi. Qiz bolalar uchun ko‘proq, o‘g‘il bolalarga kamroq o‘yinchoq beriladi. Har ikki respondent bolaga bitta o‘yinchoq taxlash uchun shkaf beriladi. Ular birgalikda yoki alohida, o‘zaro yordam berib yoki sheriklariga halal berib, raqobat qilib yoki murosa bilan o‘z ishlarini tugatgandan so‘ng, yangi qiziqarli o‘yin o‘ynash taklif etiladi.

Uchinchi qism: bolalardan uchta karavotni tartibga solish, ya’ni o‘rinni yig‘ish talab qilinadi, ularga uchta yotoqxona to‘plami beriladi. Ular o‘z ishlarini tugatgandan so‘ng, yangi qiziqarli o‘yin o‘ynash taklif etiladi. Bolalar joylarni qanday tuzatishni o‘zlari hal qilishlari tavsiya etiladi. Natijalarni qayta ishlash. Bolalarning xatti-harakatlarini kuzatish natijasida olingan ma’lumotlar jadvalga kiritiladi:

1-jadval

Xulq-atvor komponenti bo‘yicha baholash mezonlari

Birinchi qism	Ikkinchi qism	Uchinchi qism	Mezon
Tashabbus ko‘rsatish	O‘rtacha faollikda	Faol	Yuqori, o‘rta, quyi
Mustaqillik	Nisbatan mustaqil	O‘ta mustaqil	Yuqori, o‘rta, quyi
O‘zaro munosabatda juftlik xarakteri (ziddiyatli, hissiy ijobiy, befarq)	Ijobiy	O‘ta ijobiy	Yuqori, o‘rta, quyi
Fikr bildiradi, baholaydi, rahbarlik qiladi	Nisbatan	O‘ta	Yuqori, o‘rta, quyi
Yordam beradi, yordam so‘raydi, halal beradi	Nisbatan	O‘ta	Yuqori, o‘rta, quyi
Yordam so‘roviga, boshqasining ishi yurishmayotganiga munosabat (e’tiborsizlik, salbiy munosabat, hamdardlik, yordam berish)	Nisbatan	Faol	Yuqori, o‘rta, quyi
Vaziyatga, tengdoshiga, yoki o‘zining vaziyatiga qarab harakat qiladi	Nisbatan	Faol	Yuqori, o‘rta, quyi
Juftlikda ishlashda mas’uliyat qanday taqsimlanganligi	Nisbatan	Faol	Yuqori, o‘rta, quyi
O‘zaro munosabatlar jarayonida bolalarning nutqiy reaksiyalari	Nisbatan	Faol	Yuqori, o‘rta, quyi
Bolalarning hissiy reaksiyalari	Nisbatan	Faol	Yuqori, o‘rta, quyi

Yuqoridagi diagnostika texnikasi yordamida olingan tajriba-sinov ma’lumotlarning tahlili maktabgacha ta’lim muassalarining katta guruhlarida tarbiyalanayotgan maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida tafakkurni rivojlantirishning uchta darajasini ajratishga imkon beradi.

Natijalar

Tadqiqotning obyekti Buxoro viloyati Kogon tuman 8-son DMTTning 56 nafar tarbiyalanuvchilari bo‘lib, 30 nafarini o‘g‘il bolalar, 26 nafarini qiz bolalar tashkil etadi.

2-jadval

Bolalar tafakkuri darajasini o‘rganish natijalari (%)

Yuqori daraja	9,13%	8,51%	9,23%	9,65%
O‘rta daraja	26,95%	22,32%	23,71%	34,8%
Past daraja	53,89%	51,83%	52,68%	57,18%
Quyi daraja	10,02%	9,33%	9,78%	10,95%

Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishda metodik yordam ko‘rsatish muammolariga oid shart-sharoitlarni takomillashtirish muammosi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan bolalarda nisbatan rivojlangan.

3-jadval

Bolalarning dastlabki javoblari natijalari

№	Tajriba-sinov obyektlari	Javoblarning holati va ko‘rsatkichlari							
		Tajriba guruhi bolalar soni –28 nafar				Nazorat guruhi bolalar soni – 26 nafar			
		A’lo	yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz	A’lo	yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz
1.	**Kogon tuman 8-DMTT**	7	13	7	1	6	13	6	1
	Jami	7	13	7	1	6	13	6	1

Demak, diagrammadan ko‘rinadiki, tajribaning dastlabki o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari orasida deyarli farq sezilarli emas. Bu, o‘z navbatida ilmiy-tadqiqot ishlarida qo‘yilgan muammolarning dolzarbligini aks ettiradi.

Biz olib borgan tadqiqot ishlarimiz asosida kreativ yondashuvga asoslanib, maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish samaradorligi hamda ularning ko‘nikmalari rivojlanganligini sifat va miqdoriy o‘zgarishlari haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirdik (4-jadval).

4-jadval

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan bolalarda metodik yordam ko‘rsatish jarayonida o‘tkazilgan tajriba-sinov ko‘rsatkichlarining yakuniy taqsimoti

№	Tajriba- sinov obyektlari	Javoblarning holati va ko‘rsatkichlari							
		Tajriba guruhi bolalar soni –28 nafar				Nazorat guruhi bolalar soni – 26 nafar			
		A'lo	yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz	A'lo	yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz
1.	**Kogon tuman 8-DMTT**	10	13	5		6	13	6	1
	Jami	10	13	5		6	13	6	1

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini taqqoslash maqsadida quyidagi jadvalni hosil qilamiz (5-jadval).

5-jadval

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok bolalarda metodik yordam ko‘rsatish jarayonida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining statistik qiymatlarini taqqoslama jadvali

Tajriba bosqichlari	Tajriba guruhi bolalar soni –28 nafar				Nazorat guruhi bolalar soni – 26 nafar			
	«5»	«4»	«3»	«2»	«5»	«4»	«3»	«2»
Tajriba yakunida	10	13	5	-	6	13	6	1
Foizlarda:	34%	46%	18%	-	23%	50%	23%	4%

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi bolalarlar nazorat guruhi bolalarlariga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshirildi, aniqlashtirgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri, samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Ta’kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Talaba va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metodlar asosida ikki guruhda qayd etilgan ko‘rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega bo‘lamiz. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko‘ra dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko‘rsatkichlar tanlanmalar sifatida belgilanib, «5» (a’lo), «4» (yaxshi), «3» (qoniqarli) va 2 (qoniqarsiz) darajalar bo‘yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo‘ldi.

Xulosa

Biz maktabgacha ta’lim o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiya elementlarini qo‘llash muammosini nazariy va metodik jihatdan tahlil etib, tajriba-sinov ishlari natijasi asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar o‘z mazmun va mohiyatiga ko‘ra qanday qilib, qaysi usullar bilan kafolatlangan natijaga erishishi mumkin degan savolga javob beradi.

2. Har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi o‘quv-tarbiya bo‘yicha zamon talablaridan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalarning mazmun va mohiyati, uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan holda o‘z pedagogik mahoratini oshirishi lozim.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish pedagogik texnologiyalarning ma’lum bir tizimi sifatida o‘z asosiy tarkibiy qismlariga ega bo‘lib, ular o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud: bola va tarbiyachi, bolaning motivatsiyasi, o‘qitishning zamonaviy qoidalari, vosita va usullari mazmuni to‘laqonli darajada bo‘ladi.

4. Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalarga ko‘ra DMTT tarbiyachisi har bir mashg‘ulot uchun o‘z pedagogik maqsadlarini aniq belgilab olishi, bolalarning identiv o‘quv vazifalarini to‘g‘ri qo‘yishi, dars jarayoni diolog shaklida tashkil etilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil, 5-apreldagi «Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3651-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 8-maydagi «Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4312-sonli Qarori.

4. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil, 13-may «Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davlat ta’lim dasturini joriy etish tartibi to‘g‘risida» 391-sonli qarori.

5. M.Abdullayeva «Maktabgacha ta’lim pedagogikasi». – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

6. G.Yo‘ldosheva «Bolalar tafakkurini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish». – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.

7. D.Nurmatova «Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishning psixologik asoslari» // «Psixologiya» jurnali. – 2021. – №3. – B. 45–52.

8. L.S.Vygotsky «Imagination and Creativity in Childhood». – Cambridge, MA: MIT Press, 2004.

9. E.P.Torrance «Creativity: Prospects for the 21st Century». – New York: Greenwood Publishing, 1993.

10. M.A.Runco, S.Acar «Divergent Thinking as an Indicator of Creative Potential» // Creativity Research Journal, 2012, 24(1), 66–75.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0002-8546-0681

ALOHIDA EHTIYOJGA EGA BO‘LGAN BOLALAR BILAN ISHLASH VA ULARNING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu maqolada alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlash va ularning faoliyatini samarali tashkil etish masalalari yoritiladi. Xususan, ular maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom tengdoshlari qatorida ta’limiy jarayonlarda teng ishtirok etishi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashi uchun imkoniyatlar yaratish haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, bolalarning jadal ijtimoiylashuvini qo‘llab-quvvatlash, keyingi bosqichlarda ijtimoiy moslashuvini osonlashtirish, ta’lim jarayoniga kompleks yondashuvni joriy etish va takomillashtirish, mavjud bo‘shliqlarni bartaraf etish hamda rivojlantiruvchi muhitni shakllantirish orqali inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarbiya, inklyuziv, imkoniyat, bo‘shliq, rivojlanish, intellektual salohiyat, ijodiy tafakkur, dunyoqarash, kompleks yondashuv, ijodiy yondashuv.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy sohalarda tub o‘zgarishlar va yangilanishlar amalga oshirildi. Kelajak avlod ta’lim-tarbiyasi, ularning ma’naviy va jismoniy barkamolligi jamiyatimiz taraqqiyotining bosh mezonlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, har bir farzandni raqobatbardosh bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil fikrlovchi, yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Shu nuqtayi nazardan, alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasini tashkil etish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, jamiyatning har bir a’zosi, jumladan nogironligi bo‘lgan bolalar ham sog‘lom tengdoshlari qatorida sifatli ta’lim olish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish huquqiga egadir. Bu esa ularni maktabgacha yoshdan boshlab inklyuziv ta’lim jarayonlariga keng jalb qilish, shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlashni taqozo etadi.

Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi xalqaro hamjamiyat tomonidan insonparvar yondashuv sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, inglizcha «inclusion» atamasi «jalb qilish», «uyg‘unlashtirish» ma’nolarini anglatadi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, inklyuziv ta’lim nafaqat alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratadi, balki butun ta’lim jarayonining sifatini oshirish, tolerantlik va bag‘rikenglik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’lim masalasi davlat siyosati darajasida muhim o‘rin egallab, 2019-yilda qabul qilingan «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi Qonun, shuningdek, Prezident qaror va farmonlari ushbu sohada huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mahalliy olimlar – S.R.Ibragimova (2020), M. A. Qodirova (2021), N. A. Jo‘rayev (2022)larning tadqiqotlarida inklyuziv ta’limni samarali joriy qilishda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, o‘quv dasturlarining moslashtirilishi, rivojlantiruvchi muhit yaratishning ahamiyati alohida ta’kidlangan.

Xalqaro va mahalliy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlash jarayonida kompleks yondashuv – ya’ni ta’limiy, psixologik, ijtimoiy va tibbiy ko‘mak uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, ushbu maqola alohida ehtiyojga ega bolalar faoliyatini takomillashtirishning nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlarini ochib berishga qaratilgan.

«Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Biz har bir bolani bag‘ri keng bo‘lishga o‘rgatish bilan birga inson qadriyatlari uning imkoniyatiga bog‘liq emasligi haqidagi fikrni singdirmoqchimiz», - deydi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri Hilola Umarova.

Inklyuziv ta’lim texnologiyasi alohida ehtiyojli bolalarga maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yoki ta’lim muassasalariga qatnash, sog‘lom tengdoshlari qatori ta’lim jarayonada teng ishtirok etish, muloqot qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish imkoniyatini yaratib berib, ularning hayotidagi keyingi ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi.

Maqolaning maqsadi - maktabgacha ta’lim tizimida sog‘ligida imkoniyati cheklangan bolalarga o‘z tengdoshlari qatorida ta’lim berish va shu bilan bir vaqtda ularning ehtiyoji hamda qobiliyatlariga qarab individual yondashish. Maqola uchun tadqiqot jarayonida alohida ehtiyojga ega bolalarning o‘zini o‘zi ijodiy namoyon qilishi uchun asos hisoblanadigan kundalik faoliyatni tashkil etishga ko‘maklashish, ta’lim-tarbiya barobarida korreksion-rivojlantiruvchi reabilitatsiyaga xizmat qiladigan tibbiy, pedagogik, psixologik chora-tadbirlar tizimini yo‘lga qo‘yish, alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlashda va ularning faoliyatini takomillashtirishda, inklyuziv ta’limni amalga oshirishda rivojlantiruvchi muhit va moslashish ko‘nikmalarini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog-bola hamkorligini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish kabi ishlar amalga oshirildi. Inklyuziv ta’limning maqsadi alohida ehtiyojli bolalar uchun ta’lim tashkilotlarida maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratishdir. Bu bolalarning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta’lim berishni ta’minlash, ta’limga jalb qilinmagan alohida ehtiyojli bolalarni ta’lim tashkilotlariga to‘laqonli maxsus yoki inklyuziv ta’lim tizimiga integratsiya qilish, korreksion ta’lim tashkiloti bolalarning turar joyidan uzoqligi sababli o‘zi yashab turgan hududlardagi ta’lim tashkilotlariga kiritib o‘qitishdan iborat bo‘lib, bu inklyuziv ta’limning nechog‘lik dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Metodologiya va metodlar

Inklyuziya - bu alohida ehtiyojli bolalarni jamiyat hayotida ishtirok etishi va bu jarayondagi shart-sharoitni yaxshilashi, shu bilan birga natijaga erishishidir. Alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarning ta’lim jarayonida va jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarning to‘siqlarga duch kelmasliklari uchun choralar qabul qilishni anglatadi. Inklyuziv ta’limda bola yoki yoshlarning asosiy ta’lim ehtiyojlari quyidagilarni anglatadi:

- ijtimoiy yoki hissiy muammolar, sog‘likdagi ruhiy buzilish;
- sezish yoki jismoniy ehtiyojlar;
- muloqot va nutqdagi muammolar;
- erta va boshlang‘ich ta’limning yetishmasligi;
- madaniyat va tildagi tafovutlar

Ma’lumki, bolalik davri juda muhim davr sanalib, u psixologik-pedagogik jihatdan kuchli ta’sirlanuvchan bo‘ladi. O‘sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bu kabi harakatlardan maqsad alohida ehtiyojli bolalarning mustaqil, hech kimga qaram bo‘lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir. Bu esa inklyuziv ta’limning asosini tashkil etadi.

Alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlash va ularning faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha muammolarni kengroq yoritish uchun bu mavzuda ko‘plab aspektlarni ko‘rib chiqish mumkin. Bolalar turli sabablarga ko‘ra o‘zgacha ehtiyojlarga ega bo‘lishi: jismoniy, aqliy, eshitish, ko‘rish va nutq nuqsonlari. Shuning uchun ular bilan ishlashda o‘ziga xos qiyinchiliklar va ehtiyojlar yuzaga keladi. Quyida ba’zi asosiy muammolarni keltiramiz.

1. Pedagogik yondashuvlar va metodikalardagi muammolar.

Individual yondashuvning yetishmasligi: alohida ehtiyojga ega bolalar uchun ta’limda individual yondashuv zarur, ammo ba’zi ta’lim tashkilotlarida bu yetarli darajada ta’minlanmaydi. O‘qituvchilar ko‘pincha umumiy metodlardan foydalanadilar, bu esa alohida ehtiyojga ega bolalar uchun foydasiz yoki zararli bo‘lishi mumkin.

Pedagogik metodlarning cheklanganligi: ular uchun maxsus metodikalar va o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi zarur, ammo bunday metodikalar har doim ham mavjud emas yoki cheklangan. Ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun yangi, innovatsion metodlarni joriy etish ehtiyoji bor.

2. Ta’lim resurslarining yetishmasligi.

Maxsus resurslar va o‘quv materiallari yetishmasligi: alohida ehtiyojga ega bolalar uchun maxsus o‘quv materiallari, texnologiyalar, o‘yinlar yoki yordamchi resurslar kerak. Ammo ko‘p joylarda bunday resurslar yetarli emas, bu esa ta’lim jarayonini sekinlashtiradi va samaradorligini kamaytiradi.

Ta’lim tashkilotlaridagi moddiy ta’minotning pastligi: Ko‘p o‘quv muassasalarida alohida ehtiyojga ega bolalar uchun maxsus jihozlar, masalan, audio va vizual yordamchi texnikalar, kompyuterlar yoki xususan o‘qish uchun mo‘ljallangan materiallar mavjud emas.

3. Pedagoglarni tayyorlashdagi muammolar.

Pedagoglarni maxsus tayyorlashning yetishmasligi: alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlash uchun o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash talab etiladi. O‘qituvchilar bu bolalar bilan ishlashda qanday metodlar qo‘llashni bilmasliklari mumkin. Bundan tashqari, ba’zi o‘qituvchilar bu mavzuda psixologik yoki pedagogik yordamga muhtoj bo‘lishi mumkin.

Kasbiy rivojlanishning yo‘qligi: alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlashda o‘qituvchilarni doimiy ravishda yangilangan metodikalar bilan tanishtirish va kasbiy malakalarini oshirish zarur. Ammo bunday imkoniyatlar ko‘pincha cheklangan bo‘ladi.

4. Psixologik va ijtimoiy yordamning yetishmasligi.

Psixologik yordamning yetishmasligi: alohida ehtiyojga ega bolalar ko‘pincha jamiyatdan chetlashtirilgan yoki kamolotida qiyinchiliklarga duchor bo‘lishadi. Ularning psixologik va emotsional holatini yaxshilash uchun maxsus mutaxassislar (psixologlar, psixoterapevtlar) ko‘proq jalb qilinishi kerak, ammo bunday xizmatlar ko‘pincha cheklangan.

Ijtimoiy izolyatsiya: alohida ehtiyojga ega bolalar ko‘pincha tengdoshlaridan ajralib qolishadi, bu esa ijtimoiy izolyatsiyani keltirib chiqaradi. Jamiyatda ularning qabul qilinishini va qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash uchun ko‘proq tashabbuslar kerak.

5. Oila va jamiyatning roli.

Oilalar bilan hamkorlikning sustligi: alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlashda oila bilan yaqin hamkorlik juda muhim. Biroq, ko‘pincha oila va o‘qituvchilar o‘rtasida samarali aloqa yetishmaydi, bu esa bolalar uchun ta’lim va tarbiya jarayonini murakkablashtiradi.

Oilaviy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi: ba’zi oilalar o‘z farzandlarining ehtiyojlarini tushunmasligi yoki ularni qanday qo‘llab-quvvatlashni bilmasligi mumkin. Shuning uchun oilalar uchun maxsus konsultatsiyalar va qo‘llanmalar zarur.

6. Jamiyatda qabul qilish muammolari.

Alohida ehtiyojga ega bolalarning jamiyatda qabul qilinishi: ko‘p hollarda, jamiyatda alohida ehtiyojga ega bolalar to‘g‘risida noto‘g‘ri tushunchalar mavjud. Bu bolalarga nisbatan diskriminatsiya va og‘ir ta’sirlar yuzaga keladi. Jamiyatda ularni qabul qilishni oshirish va shu asosda ijtimoiy qabulni rivojlantirish zarur.

Ta’lim tizimida inkluziv ta’lim rivojlanishining sustligi: inkluziv ta’lim (hamma bolalar uchun ochiq va teng imkoniyatlar yaratish) tamoyilini rivojlantirishda ko‘plab muammolar mavjud, jumladan, ta’lim tizimining moslashuvchanligi va integratsiya qilish imkoniyatlari cheklangan.

7. Tibbiy ko‘mak va reabilitatsiya imkoniyatlarining yetishmasligi.

Tibbiy ko‘makning o‘z vaqtida taqdim etilmasligi: ba’zi alohida ehtiyojga ega bolalar uchun tibbiy yordam va reabilitatsiya imkoniyatlari cheklangan. Bu esa ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maxsus tibbiy mutaxassislar yetishmasligi: alohida ehtiyojga ega bolalar uchun o‘ziga xos mutaxassislar, masalan, logopedlar, nevrologlar, reabilitologlar yetishmaydi.

Shunday qilib, alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlash va ularning faoliyatini takomillashtirish uchun, nafaqat pedagoglar, balki jamiyatning barcha a’zolari, shu jumladan, davlat va oilalar ham birgalikda harakat qilishlari zarur. Ta’lim tizimi, resurslar va psixologik yordamni takomillashtirish, shuningdek, jamiyatda qabul qilishni oshirish bu muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ta’lim jarayonlarini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun didaktik materiallar to‘plash juda muhim ahamiyatga ega. Bu materiallar bolalarning turli ehtiyojlariga moslashgan holda taqdim etilishi kerak. Quyida didaktik materiallarni to‘plash va moslashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning ba’zilariga nazar solamiz:

Vizual materiallar – ta’limiy faoliyatlarni tashkil etishda alohida ehtiyojga ega bolalar ko‘pincha ko‘proq vizual yordamga muhtoj. Rangli rasmlar, tarqatma materiallar, diagrammalar, jadvallar bolalarlarga ma’lumotni yaxshiroq anglashga yordam beradi. Rangli kartochkalar boshqa bolalarga qaraganda qo‘llashda osonroq bo‘ladi. Ko‘rgazmali materiallar, mavzu bo‘yicha ko‘rgazmalar va plakatlar yaratish. Masalan, tabiat, hayvonlar yoki tarixiy voqealar haqidagi plakatlar orqali bolalarga vizual yordam taqdim etiladi.

Ovozli materiallar – eshitish qobiliyati past bolalarga eshitish orqali o‘rganish uchun maxsus audiokitoblar, tovushli o‘yinchoqlar va so‘zli dasturlar kerak bo‘ladi. Bu qo‘llanmalar ko‘rish qobiliyati sust bolalar uchun ham foydali bo‘ladi.

Interaktiv materiallar – alohida ehtiyojga ega bolalar ko‘pincha amaliy ko‘nikmalarni o‘rganishni afzal ko‘radilar. Bu esa interaktiv materiallarni yaratishni talab qiladi. Masalan, kompyuter dasturlari. Maxsus ta’lim dasturlari va ilovalar bolalarning individual ehtiyojlariga qarab turli darajalarda ta’lim berishga yordam beradi. Elektron o‘yinlar, ya’ni bolalarga ko‘proq motivatsiya beradigan o‘yinlar va viktorinalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Matematika va ilm-fan uchun moslashtirilgan materiallar – alohida ehtiyojga ega bolalar ko‘pincha matematik yoki ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Buning uchun moslashtirilgan materiallar va ko‘rsatmalar kerak bo‘ladi. Masalan, matematik kartochkalar va o‘yinlar, kublar, legolar, bloklar turli xildagi raqamlar bo‘lishi lozim.

Hissiy va psixologik yordam materiallari – hissiy qiyinchiliklar bilan kurashish uchun psixologik yordam materiallarini yaratish zarur. Masalan, stressni boshqarish usullari, hissiy barqarorlikni ta’minlash uchun meditatsiya va nafas olish mashqlari bo‘yicha materiallar muhim sanaladi.

Maxsus pedagogik yordam materiallari – alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlashda maxsus pedagogik materiallar kerak bo‘ladi. Bu materiallar bolalar uchun yengil va samarali o‘qish jarayonini ta’minlaydi. Logopedik yoki psixologik yordam uchun mo‘ljallangan qo‘llanmalar, shular jumlasidan.

Texnologiyalarni integratsiya qilish – kompyuterlar, planshetlar yoki boshqa elektron qurilmalardan foydalanish alohida ehtiyojga ega bolalarga yordam berishning samarali yo‘lidir. Ta’limiy faoliyatlarda multimediadan keng foydalanish, matnni avtomatik ravishda ovozga aylantiradigan dasturlar, raqamli o‘quv materiallar orqali bolalarga moslashtirilgan o‘quv materiallari va mashqlar zarurdir.

Didaktik materiallar alohida ehtiyojga ega bolalar uchun o‘qish jarayonini osonlashtiradi va ularning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqdim etiladi. Har bir bola uchun turli ko‘rgazmalar, materiallar va metodlar ularning bo‘shliqlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan bo‘lishi lozim, chunki ularning ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tarbiyachi pedagoglar, logoped, defektolog, hamshira va ota-onalar bilan hamkor-

likda bolalarning qiziqishlarini inobatga olib materiallarni ishlab chiqish va doimiy ravishda yangilash zarur.

Didaktik materiallarga boy predmetli rivojlantiruvchi muhit – ta'lim jarayonida alohida ehtiyojli bolalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan muhitni yaratishga qaratilgan pedagogik yondashuv. Bu muhitda ta'lim resurslari, materiallar va vositalar bolalarning intellektual, emotsional, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Predmetli rivojlantiruvchi muhitda bolalarga mustaqil fikrlash, ijodkorlik, analitik yondashuv, o'ziga ishonch, turli ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar taqdim etiladi.

Alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ta'lim jarayonida predmetli rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish juda muhimdir, chunki ularning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan sharoitlarni yaratadi. Bunday muhit bolalarga o'z bilim va ko'nikmalarini erkin rivojlantirishda qo'l kelib, shu bilan birga ta'limning yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Natija va tahlillar

Maktabgacha ta'lim tizimida sog'ligida imkoniyati cheklangan bolalarga o'z tengdoshlari qatorida ta'lim berish va shu bilan bir vaqtda ularning ehtiyoji hamda qobiliyatlariga qarab individual yondashish masalalarini maqolamizda asosiy maqsad qilib oldik.

Vobkent tumanidagi 26-sonli DMTTda tajriba sinov ishlari olib borildi. Alohida ehtiyojli bolalar bilan ta'limiy faoliyatlarni tashkil etishda o'yin orqali ta'lim berish metodlari, ularning bo'shliqlarini to'ldirishga e'tibor qaratildi. Qiyinchiliklar tug'dirsada, maroqli, zavqli bu jarayonda qisqa muddatda ko'zlagan natijaga erishdik. Predmetli rivojlantiruvchi muhitni qat'iy ta'minlagan holda, ta'lim-tarbiya bilan bab-barobar korreksion rivojlantiruvchi tibbiy, pedagogik, psixologik chora-tadbirlarni qo'llab, ta'limiy faoliyat tashkil qilindi. O'yin texnologiyasiga ko'proq urg'u berildi. (Rolli, didaktik o'yinlar, harakatli, ko'ngilochar, predmetli o'yinlar) Chunki inklyuziv muhit tashkil etilsada, alohida ehtiyojga ega bolalarni qiziqarli ta'limiy, didaktik o'yinlar orqali ta'limga kengroq jalb etish mumkin.

Tajriba sinov ishlarini olib borish uchun 2 ta guruh tanlab olindi va 50 nafar bola jalb etildi. Biri tajribamizdagi guruh, ikkinchisi qiyosiy tanlangan guruh. Tajriba guruhidagi anomal bolalar bilan olib borilgan ta'limiy faoliyat, pedagogik jamoaning individual yondashuvi va kompleks ta'siri ostida o'sish sur'ati tahlil qilinib, kuzatib borildi. Quyosiy tanlangan guruhimizda esa ta'limiy faoliyatlar odatiy tarzda tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda bizga maktabgacha ta'lim tashkilotining ilg'or, mahoratli, kasbiy salohiyatli pedagoglari jalb etildi. Tajriba-sinov ishlari yakunida quyidagicha yutuqlarga erishildi.


Har ikkala guruh bolalari davlat talablarining beshta rivojlanish sohalari bo'yicha, reyting nazorati talabiga muvofiq baholandi, ya'ni:

1. 55 – 70 ball – 3 baho
2. 71 – 89 ball – 4 baho
3. 90 – 100 ball – 5 baho.[1]

1-jadval

Tajriba sinov guruhi
(Umumiy tipdagi DMTT)

№	Amalga oshirilgan tadbir nomi	Guruhdagi bolalar soni	Alohida ehtiyojli bolalar	Tajriba boshi	Tajriba yakuni
1	Korreksion rivojlantiruvchi	25 nafar	2 nafar	45 %	70 % (25 %)
2	Predmetli rivojlantiruvchi	25 nafar	2 nafar	48 %	73 % (25 %)
3	Atrofni anglash xususiyatlari	25 nafar	2 nafar	37 %	60 % (23 %)




1-rasm. Tajriba sinov guruhining tahliliy natijalari foiz kesimida

2-jadval

Nazorat guruh
(Umumiy tipdagi DMTT)

№	Amalga oshirilgan tadbir nomi	Guruhdagi bolalar son	Alohida ehtiyojli bola	Tajriba boshi	Tajriba yakuni
1	Korreksion rivojlantiruvchi	25 nafar	2 nafar	45 %	50 % (5 %)
2	Predmetli rivojlantiruvchi	25 nafar	2 nafar	48 %	58 % (10 %)
3	Atrofni anglash xususiyatlari	25 nafar	2 nafar	37 %	45 % (8 %)



2-Rasm. Nazorat guruhining tahliliy natijalari foiz kesimida

[1] Izoh: O'rtacha qiymat chiqarish uchun biz ularni shartli ravishda «yuqori», «o`rta», «quyi» darajalarga ajratdik.

Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom tengdoshlari o'rasidagi alohida ehtiyojli bolalar bilan ta'lim-tarbiya jarayonni tashkil etish juda maroqli va samarali natija berganligining guvohi bo'ldik.

Xulosa

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni atrofdagi massivdan ajratib turadigan xususiyatlarini rivojlantirish va uning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv faoliyatini qurish; ta'lim-tarbiya bilan bab-barobar korreksion-rivojlantiruvchi reabilitatsiya qilish maqsadiga xizmat qiladigan tibbiy, pedagogik, psixologik chora-tadbirlar tizimini takomillashtirish; inklyuziv ta'limni amalga oshirishda ta'lim muhitining bir qismi bo'lgan predmetli-rivojlantiruvchi muhitni qat'iy ta'minlash; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-bola hamkorligini yoritishda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va samaradorlikni oshirish kabi faoliyatlar maqoladagi tadqiqot ishining vazifalari sifatida belgilab olingan edi. Shuningdek tadqiqot ishining yangiligi sifatida keltirilgan ta'limiy ish shakllaridan ko'zlangan maqsadga erishildi.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil qilingan mashg'ulotlar bolalar nutq ko'nikmalarini, tafakkurini to'g'ri shakllantirish jarayoniga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi ayon bo'ldi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy jarayonlarda ijodiy yondashuv asosida psixologik-logopedik hamda pedagogik va metodik bilimlardan samarali foydalanishga alohida ahamiyat berish zarurligi aniqlandi.

2. Tajriba-sinov jarayonida bolalarni fikrlashga undaydigan, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradigan hamda ularning tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan mashg'ulotlarda ijodiy faoliyatidan foydalanish hamda kompleks yondashish muhim ahamiyat kasb etishi isbotlandi.

3. Pedagoglarga maslahat sifatida shuni ayta olamizki, alohida ehtiyojli bolalarga mashg'ulot jarayonida aniq ko'rsatmalar berish, vazifalarni bosqichma-bosqich tushuntirish, topshiriqlarni ketma-ket bajarishni o'rgatish, ko'rsatmalarni takrorlash, o'tilgan vazifalarni namoyish etishi lozim.

4. Xususan, pedagoglar quyidagilarga harakat qilishi lozim: Ma'lumki, barcha bolalar inklyuziv ta'lim amaliyotidan yaxshi foyda oladilar. Odatda alohida ehtiyojli bolalar rivojlanayotgan tengdosh bolalar bilan bir guruhda bo'lishsa ularga taqlid qilishga, ular bilan muloqot qilishga, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi. Rivojlanayotgan bola alohida ehtiyojli bola duch kelgan muammolarni faoliyat jarayonida ko'rib, tushunib boradilar, farqlarni yaxshiroq anglaydi. Bu jarayonlar orqali bir vaqtning o'zida ikki xil ehtiyojli bolaning rivojlanishi shakllanib boradi.

5. Alohida ehtiyojga ega bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularga birinchi navbatda inklyuziv ta'limni joriy etish orqali ta'lim tashkilotlarida sifatli ta'lim olishlari uchun zurur shart-sharoitlarni yaratishdir. Alohida ehtiyojli bolalar uchun yuqori sifatli ta'lim olish, tengdoshlari qatori ta'lim resurslaridan erkin foydalanish hamda o'zaro aloqa qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. https://lex.uz/docs/3107036

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5270-sonli Farmoni.

https://www.lex.uz/acts/3436192

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son Qarori.

https://lex.uz/docs/5044711

4. O'zbekiston Respublikasi «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari» – 2018-yil 3-iyul. Registr № 3032.

75 Evstaf'yeva.L, Nabixanova.Sh, Pak.S.I va boshqalar «Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya faoliyatini mavzuli rejalashtirish» Tayyorlov guruhi. «Ilk qadam » dasturiga ilova Toshkent. 2018-yil.

6. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi T: 2022. 1-81-b.

7. Bolalar huquqlari to'g'risida Konvensiya, 29-bet Maslahatchi Plyus. http://education.simcat.ru/school61/files/1453581184_konvenciya_o_pravah_rebenkapd

8. 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lim Inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi. O'z.Res.Prezidenti. 13.10.2020y PQ 4860-son.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0002-5007-7973

6-7 YOSHDAGI BOLALARNING OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O‘QUV LUG‘ATLARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 6-7 yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda o‘quv lug‘atlaridan foydalanish samaradorligiga bag‘ishlangan. Unda tarbiyalanuvchilarning so‘z boyligi, so‘zlarning turli kontekstlarda ishlatilishi, tushunish darajasi, nutqiy ravonligi, ijodiy fikrlashi, muloqot qobiliyati, so‘zlarni o‘rganish darajasi va ularni to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyatlari, mashg‘ulot jarayonida bolalarning faol ishtirok etishi va o‘z fikrlarini bildirishga tayyorligini aniqlash maqsadida tadqiqot olib borildi va natijalar taqdim etilmoqda.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nutq, o‘quv lug‘ati, interaktiv o‘yinlar, lingvistik lug‘at, hikoya, vosita, interaktiv faoliyat, visual

Kirish

Yurtimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasini xalqaro standartlar asosida tashkil etish, bolalarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarbligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. «O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limni oilada, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oladi[1]. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya tarbiyachi-pedagoglar tomonidan olib boriladi. Tarbiyachi-pedagog butun faoliyati davomida bolani har tomonlama kamol toptirish yo‘lida amaliy harakatlarni tizimli tashkil etish bilan birga ularning asosan nutq boyligiga alohida e’tibor qaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi[2]. PF-60-son Farmonida 2025-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqish, amalda joriy etish, maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi[3] farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish usullari atroflicha belgilab berildi.

Ushbu maqola mavzusiga doir olib borilgan ishlar juda kam. Shunday bo‘lsada bu ishlarni shartli ravishda ikki guruhda ajratamiz: birinchi guruhga lug‘at ishiga doir bajarilgan ishlar va ikkinchi guruhga maktabgacha ta’lim metodikasi doirasida qilingan tadqiqot ishlari o‘z aksini topadi. S.E.Normamatov[4] o‘zbek lug‘atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma’rifatparvarlarining o‘rnini tadqiq etgan bo‘lsa, D.I.Xodjayeva tilshunoslik terminlarining leksikografik tahlilini o‘rgangan, U.Y.Qo‘ziyev o‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarda o‘zlashma so‘zlarni tadqiq qilgan. N.Mahkamov, I. Ermatovlar tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati[5], M.Rustamiy, S.Hasanlarning savodxonlik lug‘ati, B.M.Bahriddinova O‘zbekistonda o‘quv lug‘atchiligining lingvistik asoslari kabi mavzularda ilmiy izlanishlar olib borgan.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar F.Qodirova, Sh.Shodmonova, D.Babayeva, A.Shin, N.Djamilova, R.Mavlonova, A.Muxsiyeva, Sh.Sodiqova, N.Abdullayeva, G.Berdaliyeva, S.Raximova, G.Nazirova, O.Musurmonova, N.Ergasheva kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritib berilgan.

MDH olimlaridan O.Zvereva, V.Lyutova, N.Golubev, O.Solodyankina, V.Arnautova, A.Asmolov, T.Afanaseva, A.Batalov, K.Belaya, L.Denyakina, V.Dubrova, N.Nemova, N.Lapin, V.Lazerevlar maktabgacha ta’lim yo‘nalishida bola nutqini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Xorijiy olimlardan D.S.Adams, W.S.Barnett, R.Boice, B.T. Bowman, P.Boyle, C.P.Brown, D.Carless, J.Chen, A.Flyet, G.D.Fryeman, R.G. Fukkink, S.Gray, Dj.Dyuilarning ishlarida maktabgacha ta’limni tashkil etishning pedagogik va psixologik jihatlari tatqiq etilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasi mamlakatimizda XX asrning 50-yillarida boshlandi. MTMda 1-fan nomzodi A.V.Nikolskaya hisoblanadi. U mahalliy millat vakillariga rus tilini o‘qitish kerakligi masalasini ko‘tarib chiqdi. 1958–1960-yillarda Nikolskaya tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda maktabgacha katta yoshdagi o‘zbek bolalariga ruscha nutqni o‘rgatish metodikasi asosiy mazmuni va masalalari belgilandi. XX asrning 70-yillarida E.M.Razbayeva tomonidan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda o‘qigan asarlari asosida kattalarning mehnatlariga hurmat ko‘rsatishni o‘rgatish bo‘yicha tadqiqot o‘tkazildi.

1979-yildan bugungi kunga qadar maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni o‘zbek va rus tilida o‘qitish muammosi O‘zbekiston metodistlari, psixologlari va olimlarining tadqiqot obyekti hisoblanadi (F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.R.Babayeva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova va boshqalar). Hamma tadqiqotchilar bolaning nutqini va rivojlanishini alohida ajratib emas, balki kattalarning bolaga pedagogik ta’sir qilishi bilan bog‘liq ko‘rib chiqadilar. Bunday yondashuvlar o‘rinlidir, fandagi zamonaviy tadqiqotlar ijtimoiy hamkorlik va nutqni o‘zlashtirish – o‘zaro bog‘liq jarayon, nutqni rivojlantirish esa – ijodiy jarayon, ammo u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi.

Nutqni egallashning eng muhim davri maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun, bugungi kunda nutqni rivojlantirishda ba’zi bosqichlarni o‘rganishga e’tibor qaratilmoqda. MTMlarda bolalarning ravon nutqini o‘rganuvchi tadqiqotchilar Y.I.Tixeyeva, Y.A.Flerina, A.M.Leushina, L.A.Penyevskaya va boshqalar og‘zaki nutq va hikoya qilishni o‘zlashtirish, monologik, dialogik nutqning bog‘liqligi ravon nutqni o‘stirishga qaratilgan o‘qitish tizimiga asos solishdi. Tadqiqotchilar tomonidan bolalar hikoyalari tasniflab chiqilib, uning asosini fikr bildirish manbasi, ya’ni predmetlarni tasvirlash, hikoyalarni aytib berish, rasmga qarab hikoya qilish, misol keltirish, ijodiy hikoya qilish tashkil etadi. G.Tambovseva, A.Soxin, I.Popova, I.Yadeshko, V.Zaxarova va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bolalar nutqining grammatikasi, ularda nutqning morfologik va sintaktik shakllarini rivojlantirish, ona tilida so‘z hosil qilish xususiyatini aniqlash, shuningdek, bolalar nutqining grammatik qurilishini takomillashtirishga oid ishlarida nafaqat odatdagi grammatik xatoliklarni o‘rganish va tuzatish, balki grammatik umumlashmalarni shakllantirish zarurligini isbotlash imkonini berdi.

Y.I.Tixeyeva nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlariga qo‘yadigan asosiy talablari qatorida bolalar qiziqishlari va tajribalari, ularni jonli o‘tkazish, harakatlanish va sinab ko‘rish imkoniyatlari bilan aloqasini olg‘a suradi. O‘z davrining ilmiy yutuqlari doirasida Y.I.Tixeyeva quyidagilarni ishlab chiqqan:

– bolalarni maktabda ta’lim olishga tayyorlovchi uyushtirilgan dasturiy mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasi;

---

[1] O‘zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi Qonuni, 16.12.2019 yildagi O‘RQ-595-son

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. https://www.lex.uz/ru/docs/-4545884

[4] Normamatov S.E. O‘zbek lug‘atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma’rifatparvarlarining o‘rni. 10.00.01 – O‘zbek tili, Dissertatsiya, Shifr: Dis-2021/31-39, 2019 yil

[5] Xodjayeva D.I. Tilshunoslik terminlarining leksikografik tahlili (ingliz, rus va o‘zbek tillari izohli lug‘atlari materiallari misolida). filologiya fan. falsafa d-ri dis. :, 2018 yil

[6] Qo‘ziyev U.Ya O‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarda o‘zlashma so‘zlar. 2018

[5] N.Mahkamov, I. Ermatovlar tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati Fan nashryoti. Toshkent-2013

– maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini, fikrlashini rivojlantirish;

– original didaktik material tizimi va undan maktabgacha ta'lim muassasasida foydalanish metodikasi.

Y.A.Flerina maktabgacha tarbiya sohasidagi birinchi pedagogika fanlari doktori bo'lib, u nutqni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan. Y.A.Flerina umumiy estetik tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida badiiy o'qish muammolari bilan shug'ullangan. Bolalar bilan ishlash va o'qituvchilik borasidagi o'z tajribalarini Ye.A.Flerina «Maktabgacha tarbiya muassasalarida jonli so'z» nomli maktabgacha tarbiya yo'nalishidagi bilim yurtlari va institutlar uchun birinchi o'quv qo'llanmasida aks ettirgan. Ushbu qo'llanmaning asosiy bo'limlari og'zaki nutq, suhbat, badiiy o'qish va bolalarga hikoya qilib berish hamda bolalarning o'zlari hikoya qilib berishlariga bag'ishlangan.

Bugungi davr olimlari uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha aktiv va passiv so'zlar lug'atini tuzish kun tartibidagi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, 6-7 yoshdagi bolalar uchun lug'at tuzish juda muhimdir. Shuningdek, nafaqat so'zlarning miqdoriy tarkibini aniqlash balki, ularni mavzular va hayotiy ahamiyati bo'yicha ham hisobga olish muhimdir.

Metodologiya va metodlar

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari o‘zining zamonaviy pedagogik texnologiyalarini yo‘lga qo‘ygan. Ayni paytda dunyo mamlakatlarida ta’lim sohasini integratsiyalash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ta’lim-tarbiya jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borish va kelgusi avlodga yetkazib berishning samarali usuli ekanligi tan olingan bo‘lib, xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha mo‘ljallangan ta’lim konsepsiyasida «Bolalarning rivojlanishi, ta’lim olishini individual va tizimli ravishda olib borish juda muhim faoliyat» sifatida e’tirof etilib[1] sifatli ta’lim berish mexanizmlari ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘rtasidagi uzluksizlikni ta’minlash, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini kengaytirishning me’yoriy asoslari yaratildi. Xususan, bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi sanaladigan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev «Yosh avlodga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatli ta’lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz, ular jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz»[2] deb ta’kidlab o‘tdilar.

Bu esa ta’lim tizimi, xususan, maktabgacha ta’lim tizimini faoliyatini kengaytirish, bolalar qamrovini oshirish, farzandlarimizga sifatli hamda jahon andozalari darajasida mos tarzda zamonaviy ta’lim berish, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim va tarbiya berilishi jarayonida zamonaviy ta’lim dasturlari texnologiyalarini tatbiq qilish, innovatsion loyihalarni olib kirish, kompetensiyaviy yonadashuvga asoslangan ta’lim-tarbiya jarayonini olib borish, ta’limda sifat va samaradorlikni nazorat qilish, respublika milliy ta’lim va tarbiya tizimini davlat ssati darajasiga olib chiqish hamda bolalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha «Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosda takomillashtirish»[3] ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarga sifatli ta’lim berish va ta’limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o‘tishni ta’minlashga keng sharoitlar yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismonan sog‘lom, psixik jihatdan va axloqiy tomondan rivojlanishi, ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishi hamda ta’lim va tarbiyaning o‘zaro uzviy holda tashkil etish, maktabgacha ta’limda o‘quv-tarbiya jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish borasida I.V. Grosheva, Sh.Sh. Mirziyoyeva, L.G. Yevstafyeva, D.T. Maxmudova, Sh.B. Nabixonova, S.V. Pak, V.A. Nazarova, M.R. Isxakova, N.F. Abdunazarovalar, G.E. Djanpeisova, Ulviya Tofik qizi Mikailova, M.A. Ismailova, D.A. Kenjabayeva, N.B. Gulyamova, N.A. Miftayevalar, F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo‘latova, N.M. Qayumova, M.N. A’zamovalar, X.J. Jabborova, D.R. Babayevalar izlanishlar olib borganlar.[4]

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodik masalalari bo‘yicha B.G. Ananyev, L.S. Vigotskiy, M.I. Lisina, A.P. Usova, K.D. Ushinskiy, V.K. Babanskiy, V.I.Turchenko[5] va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Dunyodan xorijiy mamlakatlari olimlaridan N.Chomsky, J.Jarmul, F.Carton, M.Grammort, P.Leon, Montessori[6], Masaru Ibuka, kompetensiyaviy yondashuv yuzasidan dastlabki qarashlar va bugungi kunda ta’lim sohasidagi ahamiyati yuzasidan F. Delamare va J. Winterton tomonidan tadqiqotlar olib borilgan hamda boshqalar tadqiqot ishlarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning me’todik ta’minotini yaratish masalalariga oid tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Kompetentlik – tushunchasi dastlab ta’lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo‘lib, zamonaviy atama sifatida qo‘llanilib kelinadi. «Competentia» lotincha so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilidagi tarjima qilinganda uning lug‘aviy ma’nosi «yaxshi biladigan inson», «tajribaga ega bo‘lgan kishi» kabi ma’nolarni anglatadi. Shu sababli kompetentlik ta’lim jarayonida sodir bo‘ladigan turli xil vaziyatlar, kutilmagan holatlarni tushuna olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, raqobatbardosh tomonlar bilan o‘zaro munosabatda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarda mavjud muammolar ziddiyatlarga to‘la maqsadlar asosida qo‘llay olish, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga ega ekanlikni anglatadi[7].

Boshlang‘ich asosiy kompetensiyalar faoliyat va xulq-atvor subyekti sifatida bolaning yaxlit rivojlanishini talab qiladi. «Ilk qadam» dasturida 6-7 yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy asosiy kompetensiyalarini o‘zgartirmasdan beramiz va ular quyidagilardan iborat[8]:

Kommunikativ kompetensiya – bolalar o‘zaro muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda samarali foydalana olish ko‘nikmasi. Bunda ma’lum vaziyatlarda bola o‘zining mustaqilligini namoyon etgan holda ijtimoiy muloqotga kirisha olishidir. Atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi, muloqot qilish va yuzaga kelgan o‘yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyatidir. Bu kompetensiyaga nutqni rivojlanishi ham kiradi. Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir. Mazmunga boy va rag‘batlantiruvchi ta’lim muhitida bolalar og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o‘zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg‘ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo‘lib bajarishga yordam beradi.

---

[1] Incheon Declaration/ Education 2030. Towards inclusive and equitable quality education and lifelong lerning for all.-p.36//http:unesdoc. Unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf.

[2] Mirziyoyev.Sh.M. «Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!».-Toshkent: «O‘zbekiston», 2021.-B.11

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev.Sh.M 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» farmoni.-Toshkent: «O‘zbekiston», 2022.-yil.

[4] Asqarova Dilorom Qurbonovna «Bolalalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi» O‘quv qo‘llanma- T: 2020 y.- 139 b

[5] В.И.Турченко. Дошкольная пендагогика. – 2013

[6] Montessori. Uy sharoitida bolalar bilan 150 mashg‘ulot

[7] Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. »Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi (Takomillashtirilgan) T: 2022 y.- 102 b

[8] I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova »Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi T: 2022. 1-102-b.

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishdir. O‘yin ta’lim-tarbiyaviy jarayonning asosi sanaladi. o‘yin orqali bolaning barcha qobiliyatlari namoyon bo‘ladi va uni faollikka yo‘naltiradi. Bolalar boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o‘rganadilar. Guruhlarda samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Muammoli vaziyatlarda ular yoshi va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ularni hal qilish harakatlarini amalga oshiradilar. Ular tobora ko‘proq o‘zlarini guruhning bir qismi sifatida ko‘radilar va o‘z huquq hamda majburiyatlari borligini tushunadilar. Ular individual farqlarga ochiq. Bolalar boshqalar bilan uyg‘unlikda yashashlari mumkin. Ular turli insonlar bilan muloqot qilishadi va atrofdagilarning madaniy jihatdan xilma-xilligini tan oladilar, ularga yordam beradilar va qo‘llab-quvvatlay oladilar.

Ijtimoiy kompetensiya – katta va tengdoshlar bilan hayotiy vaziyatlarni odob qoidalarga amal qilgan holda o‘zini tuta olish qobiliyati sanaladi. Bu kompetensiya bolaning o‘z-o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog‘lom turmush tarzini amalda qo‘llash mahoratini o‘z ichiga oladi. Bolalar hayotdagi o‘z o‘rnini biladilar, o‘zlarining, shuningdek, boshqalarning farovonligi haqida g‘amxo‘rlik qilishga o‘rganadilar. Bola mustaqil va u o‘ziga ishonadi. O‘zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi.

U o‘zining boshqalardan farqli tomonlarini tushunadi. O‘z g‘oyalarini ilgari suradi va targ‘ib qila oladi; o‘zi uchun qaror qabul qilishni o‘rganadi. U qanday tanlashni biladi, o‘z oldiga maqsadlar qo‘yadi. O‘z harakatlari uchun tashabbus va mas’uliyatni namoyon qiladi. O‘zining yaxshi ko‘rgan narsasi, qiziqishlari, his-tuyg‘ulari bilan o‘rtoqlashadi. O‘sib borayotgan jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi. O‘z ehtiyojlarini bildiradi va ularni qondirishni biladi, o‘zini boshqara oladi; sog‘lom turmush tarzi qoidalariga, madaniy-gigiyenik tartib qoidalarga rioya qiladi, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadi, o‘z salomatligi uchun mas’uliyatni namoyon qiladi.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv hamda amaliy vaziyatlarni bajarish uchun foydalanishdir. Ular atrof-olamdagi yangi obyektlarni o‘rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o‘yin va o‘zaro muloqot jarayonida ular kuzatadilar va tajriba o‘tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o‘zlarining kashfiyotlari bilan o‘rtoqlashadilar va astasekin mustaqil, o‘z-o‘zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar. Bolalar muammoni hal qilishga e’tibor qaratishlari, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari va atrofdagi dunyoni tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo‘yishda kognitiv qobiliyatlarini ishga solishlari mumkin. Bolalar o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini davom ettirishlari, o‘rganishdan zavqlanishlari va o‘rganganlarini baham ko‘rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo‘lishishlari mumkin.

Maktabgacha ta’lim faoliyati tez o‘zgaruchan dunyoning bugungi kun sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldiga Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari hamda «Ilk qadam» Davlat o‘quv dasturi hamda «Ilm yo‘li»[9] variativ dasturlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zaro integrativ ta’sir ko‘rsatish va o‘quv jarayonini kompetentlik asosida mazmunli va sifatli, zamon talablariga mos darajada, barcha faoliyat yo‘nalishlarini birlashtirgan holatda mashg‘ulotlarni tashkil etish va uning xususiyatlarini ochib berish vazifalari qo‘yilmoqda. Erta ta’lim-tarbiya insonning butun umri davomida farovon va barkamol hayot kechirish uchun mustahkam asos bo‘la oladi va kompetentlik ta’siri natijasida bolaning keng imkoniyat darajasi ro‘yobga chiqadi.

Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘quv-tarbiya jarayonida bilim olish faoliyatining yaxlit, kompetentlik yondashuvini qo‘llagan holda va bir butun tarzda rivojlantirib borish tizimini yaratish hamda atrofimizdagi borliqni tubdan to‘laqonli idrok etish imkonini bera oladigan tizimli integratsiya jarayonini ta’minlash maktabgacha ta’lim tizimidagi har bir xodim, eng avvalo, pedagogning zimmasidagi yuksak vazifa sanaladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalash bolalarning ijtimoiy-hissiy, umumiy asosiy kompetensiyalari, kognitiv va jismoniy imkoniyatlarni hisobga olgan holda uning ehtiyojlani kompleks rivojlantirishga qaratilgan jarayonlardan biridir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi, shuning uchun ularga ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘z xizmatlarini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayoni va bu faoliyatni olib boruvchi pedagog xodimlarning egallagan bilimi, ko‘nikmasi va kompetensiyalarini amaliyotga qo‘llay olish qobiliyati muhim sanaladi.

Maktabgacha ta’limda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirishda zarur pedagogik shart-sharoitlar va didaktik tizimlar – jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik, metodik va tashkiliy jihatlarni inobatga olish zarur. Kompetensiyaviy yondashuv nafaqat bolalarning bilimlarini, balki ularning ko‘nikmalari, malakalari, ijtimoiy va hissiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Quyida maktabgacha ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar va didaktik tizimlar keltirilgan.

Kompetensiyaviy yondashuvni maktabgacha ta’limda muvaffaqiyatli joriy qilish uchun zarur bo‘lgan asosiy pedagogik shart-sharoitlar nazarda tutiladi:

Ta’lim tashkilotining infratuzilmasi.

Rivojlantiruvchi o‘quv muhitining tashkil etilishi**:** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni zamonaviy sharoitda ta’lim berish uchun materiallar va resurslar yetarli bo‘lishi kerak. Bunga o‘quv dasturi, o‘quv materiallari**,** texnik vositalar va didaktik resurslar kiradi.

Didaktik tizimlar

Kompetensiyaviy yondashuv asosida maktabgacha ta’limda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda didaktik tizimlar ham muhim o‘rin tutadi. Bu tizimlar ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydi va bolalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Quyidagi didaktik tizimlar bu maqsadga xizmat qiladi:

O‘quv dasturi va o‘quv rejalari

«Ilk qadam» o‘quv dasturi**:** O‘quv dasturida bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarning rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari va faoliyat turlari kiritilgan. Dastur ijrosini amaliyotda to‘g‘ri tashkil etish lozim. Tarbiyachi har bir bola uchun moslashtirilgan o‘quv rejalarini ishlab chiqish. Rejalar bolalarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga mos ravishda yangilanib turishi kerak.

[9] I.V. Grosheva,Ye.F. Say, S.S. Mirjalolova, N.I. Medvedeva «Ilm yo‘li» vareativ dastur. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirligi.T.:2019 y.- 428 b.

Didaktik materiallar

Vizual va interaktiv materiallar: Bolalarning kompetensiyalarini rivojlantirish uchun didaktik materiallar, masalan, tasvirli kartochkalar, video va audio materiallar, kompyuter dasturlari kabi vositalar ishlatilishi kerak. Bolalarning mantiqiy, ijodiy va sensomotor ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlar ham didaktik materiallarga kiradi.

Baholash tizimi

Bolalar faoliyat davomida muntazam rag‘batlantirib boriladi. Shu bilan birga ularni o‘z faoliyatini baholashga o‘rgatish, bu jarayon bolalarning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi.

NATIJA VA TAHLILLAR

Maktabgacha ta’limda o‘quv-tarbiya jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish va dasturni o‘zlashtirishda bolalar faolligini oshirish uchun maktabgacha yoshidagi bolalarda quyidagi mutanosiblikda markazlarda kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirishni tashkil qilish maqsadga muvofiq deb topildi.

Tajriba-sinov guruhida faollik markazlari belgilangan tartibda tashkil etildi:

– «Qurish-konstruktsiyalash va matematika» markazi;
– «Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish» markazi;
– «Til va nutq» markazi;
– «Fan va tabiat» markazi;
– «San’at» markazi[10].

Mazkur tadqiqod ishida maktabgacha ta’limda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirishning nazariy asoslari, amaliyotdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari, shuningdek, ta’lim jarayonida kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar tahlil qilingan.

Tajriba-sinov ishlari Buxoro viloyati Vobkent tumanining 26-davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida olib borildi. 50 nafar 6-7 yoshli bolalar unga jalb etildi. Ularni ikki guruh misolida tajribadagi va nazorat guruhlari misolida olindi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan tajriba-sinov ishlari olib borilayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotida mashg‘ulotlar tashkil qilindi hamda kuzatildi.

Kompetensiyaviy yonshashuvga asoslangan ta’lim-tarbiya jarayoni imkoniyatlari o‘rganilib, tahlil qilindi. Tajriba guruhida belgilangan tartibda rivojlantiruvchu ta’limiy muhit yaratildi, yuqorida aytib o‘tilganidek tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar va didaktik tizimlar joriy etildi, mashg‘ulotlar didaktik materiallar bilan boyitildi. Nazorat guruhida esa ta’limiy jarayonlar odatdagidek tashkil etildi. Ushbu jarayonining natijasi sifatida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishlari ortganligi aniqlandi. Ushbu faoliyat mobaynida bolalarning dunyoqarashi hamda fikrlay olish qobiliyati mashg‘ulotlardan ongli ravishda foydalanish namoyon bo‘lganligiga guvoh bo‘ldik.

Bolalarni mashg‘ulotlarga ishtiroki va qiziqishi qiyosiy tahlil qilib borildi. Tajriba-sinov ishlari olib borilayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotida mashg‘ulotlar tashkil etildi, kuzatildi, tegishli ilmiy adabiyotlar o‘rganildi, qiziqarli tashkil qilingan mashg‘ulotlar tahlil qilinib, bu mashg‘ulotlarga bo‘lgan bolalarning qiziqishlari aniqlab borildi.

Tajriba guruhlarda o‘tkazilgan mashg‘ulotlar davomida ilmiy izlanishlarimiz asosida ishlab chiqilgan, kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirilgan turli muammoli ta’lim elementlaridan, metodlardan foydalanildi. Bolalar bilan ta’lim va tarbiya jarayonida erkin muloqot, teng munosabat, ijodiy hamkorlik o‘rnatildi. Bolalarning o‘z fikrlarini tortinmay aytishlariga, muammolarni mustaqil hal etishlariga imkon berildi.


Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tajriba-sinov ishlariga maktabgacha ta’lim tashkilotidan, hammasi bo‘lib 50 nafar bola jalb qilinib, ularning o‘zlashtirish darajasi hamda ko‘nikmalari sinovdan o‘tkazildi. Tajriba uchun 2 ta guruh tanlab olindi: shundan 25 nafar bola tajriba guruhida va 25 nafar bola nazorat guruhida. Tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan chuqurroq va atroflicha bilimlar berildi. Olib borilgan ishlar asosan suhbat, savol-javob, topshiriqlar, didaktik o‘yinlar va anketa-so‘rov tarzida o‘tkazildi. Sinov ishlari puxta ishlab chiqilgan dastur, va mashg‘ulotda turli usullar asosida olib borilishi, avvalo, sanab o‘tilgan muammoni ijobiy yechimga ega bo‘lishini, bu boradagi nazariy qarashlarni ilmiy jihatdan asoslanishini, shuningdek, ularni haqqoniy bo‘lishini ta’minlaydi. Bu tajriba sinovda bolalarning o‘zlarini erkin his qilishlari va faoliyat jarayonlarini mustaqil bajarishlariga imkon yaratildi. Olib borilgan sinov ishlari natijalari quyidagicha bo‘ldi. Har ikkala guruh bolalari davlat talablarining 5 ta rivojlanish sohalari bo‘yicha, reyting nazorati talabiga muvofiq baholandi:

1. 55–70 ball – 3 baho
2. 71–89 ball – 4 baho
3. 90–100 ball – 5 baho

1-jadval

Tajriba-sinov ishi bo‘yicha tarbiyalanuvchilar bilimining ***o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari (tajriba guruhi)***

Tajriba-sinov o‘tkazilgan sohalar	Bolalar soni (nafar)	Tajribadan oldingi kuzatuv natijalari	Tajribadan keyingi natijalar
Bilish jarayonlari	25	40 %	75 %
Ijodiy izlanish va mustaqil fikrlash	25	50 %	80 %
O‘zlashtirish	25	40 %	80 %




4.3.1-Rasm. Tajriba sinov guruhining tahliliy natijalari foiz kesimida

[10] Qodirova F.R. va boshq. «Maktabgacha pedagogika» Maktabgacha ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik / Toshkent: «Tafakkur» nashriyoti, 2019. – 688 b.

2-jadval

Tajriba-sinov ishi bo‘yicha tarbiyalanuvchilar bilimining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari (nazorat guruhi)

Tajriba-sinov o‘tkazilgan sohalar	Bolalar soni (nafar)	Tajribadan oldingi kuzatuv Natijalari	Tajribadan keyingi natijalar
Bilish jarayonlari	25	40 %	55%
Ijodiy izlanish va mustaqil fikrlash	25	50 %	60 %
O‘zlashtirish	25	40 %	60 %



2-Rasm. Nazorat guruhining tahliliy natijalari foiz kesimida

Tajriba-sinov natijalari shundan dalolat beradiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda o‘zlashtirish darajasi hamda ularning kompetensiyalari shakllanib borish darajasi zamonaviy talablar asosida shakllantirish zarurligi aniqlandi.

XULOSA

Maktabgacha ta’limda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari chuqur o‘rganildi. Ushbu yondashuvni tatbiq etish bolalarning nafaqat bilimlarini, balki ijtimoiy, hissiy va amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Kompetensiyaviy yondashuv bolalarning o‘z bilimlarini hayotda qo‘llash, ijtimoiy muhitda faol ishtirok etish va mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Maktabgacha ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy qilishda duch kelinadigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari keltirildi. Bularning orasida tarbiyachilarni yangi metodik yondashuvlarga tayyorlash, ta’lim materiallari va metodik resurslarning yetishmasligi, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish zaruriyati va ta’lim dasturlarining moslashuvchanligini ta’minlash muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish – bolalar ta’limining sifatini oshirish, ularni nafaqat bilimlar bilan, balki amaliy ko‘nikmalar, qobiliyatlar va shaxsiy kompetensiyalar bilan ta’minlashga quyidagicha xizmat qiladi.

1. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda tayanch kompetensiyalar ta’lim-tarbiya jarayonida mashg‘ulotlarga oid umumiy tayanch kompetensiyalar bilan o‘zaro bog‘liqlikda, uzviy aloqadorlikda o‘yinlarning mazmuni, maqsadidan kelib chiqqan holda, hayotiy ehtiyoj sifatida shakllantirilishi, rivojlantirilishi lozim hisoblanadi.

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar bolalarda muhim tayanch kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishda ilmiylik, onglilik, uzviylik hamda uzluksizlik, oddiydan murakkabga qarab borish kabi tamoyillarga asoslanish samaradorlikni ta’minlaydi.

3. Kommunikativ kompetentlilik maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning nutqiy jarayonda og‘zaki va yozma mulohazalarini erkin bayon qilish, ixtiyoriy matnni tushunish va tahlil qila olish ko‘nikmalarining shakllanganligi, turli mavzularda muloqotga tayyorgarlik darajasi, kirishuvchanligi, nutqning har ikki ko‘rinishida savodxonlik sifati bilan namoyon bo‘lishini belgilovchi ko‘rsatkichdir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning kommunikativ kompetentliligi ularda tayanch kompetensiyaning shakllanganligi va rivojlanganligiga bevosita bog‘liq.

4. Badiiy matnlar ertak, hikoya she’rlarning mazmunan bog‘liq, aloqadorlik mohiyatini, nutq tovushlariga xos modallikni anglash hamda uni nutqiy faoliyatda qo‘llash bilan bog‘liq poetik fonetikaga doir tayanch kompetensiyalari rivojlantiriladi.

5. Badiiy matndagi obrazlar tahlili asosida bolalarda grammatik shakl va grammatik ma’no uyg‘unligini anglash, nutqiy vaziyatlar (ijtimoiy marker, sotsiumning kommunikativ kompetentligi) ni his qilish layoqati rivojlantiriladi va takomillashtiriladi.

6. Maktabgacha ta’lim yoshidagi boalar nutqiy ko‘nikmalarining shakllanganligi yuzasidan kattalar va tengdoshlar bialn o‘zaro nutqiy ko‘nikmalarni vaziyatga mutanosib qo‘llanishini anglash, tushunish hamda ijodiy baholashga doir tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

7. Bolalarning mashg‘ulotlarida birgalikda og‘zaki, o‘yinlar yaratishlari hamda undagi xatoliklarni birga tanqidiy tahrir, tahlil qilinishi, muvaffaqiyatlarni e’tirof etilishini yoyish kabi didaktik jarayonlarni tizimli yo‘lga qo‘yilishi bolalarda, ijodiy va tayanch kompetensiyalarni mustahkamlaydi.

8. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda tayanch kompetensiyani rivojlantirish texnologiyasini loyihalashtirishda:

a) nazariy ma’lumotlarni darslikdagi mashq va topshiriqlar vositasida mustahkamlash;

b) mashqlarni bajartirishda yangi mavzu bilan cheklanmay, uzoq va yaqin o‘tilgan mavzularga bog‘lash hamda tahlil turlarini yo‘lga qo‘yish, bunga bolalarni odatlantirish muhim ilmiy-metodik mohiyatga ega.

9. Bolalarda tayanch kompetensiyani rivojlantirishda ta’lim-tarbiya jarayonida kompetensiyaviy yonadashuvga asoslangan holda shakllantirish muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mashg‘ulotlar tahlili nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga bolalarning dunyoqarashini o‘stirish, amaliy malaka va ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda bilim salohiyatining kengayishiga imkon ochishi bilan tayanch layoqat takomilida ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g‘risida»gi Qonuni //O’RQ-637-son 23.09.2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot

sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3151-sonli qarori. www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3907-sonli Qarori. www.lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi «Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4467-son Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovasion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5047-sonli Qarori. www.lex.uz.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi O‘RQ-595-sonli qonuni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-sonli qarori.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0003-1507-0917

BOLALARDA XALQ MAROSIMLARI VOSITASIDA TABIATGA MUHABBAT HISSINI SHAKLLANTIRISH



Manzura Boymurodova

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Ushbu maqolada bolalarda xalq marosimlari vositasida tabiatga muhabbat hissini shakllantirishning ahamiyatini o‘rganish masalalari hamda, O‘zbekistonning turli hududlarida o‘tkaziladigan xalq marosimlari va festivallarining ekologik ta’siri va bolalar ongiga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganligi tahlil qilinadi. Maqolada, an’anaviy marosimlar orqali tabiat bilan uyg‘unlikni o‘rganish, tabiiy resurslarni asrab-avaylash, va ekologik ma’rifatni bolalar ongida shakllantirishning usullari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotdan kutilayotgan yechimlar, bolalarga ekologik bilimlarni yetkazish va tabiiy muhitga bo‘lgan hurmatni kuchaytirish uchun xalq marosimlarini samarali vosita sifatida foydalanishdir.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq marosimlari, tabiiy muhit, ekologik ong, an’analar, festivallar, ekologik ta’lim, atrof-muhit, madaniy qadriyatlar, ekologiya.

KIRISH

Hozirgi kunda tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolar global miqyosda jiddiy tashvishlarga aylangan. O‘zbekiston kabi tabiiy resurslarga boy davlatda, tabiatni asrab-avaylash, ekologik ongni shakllantirish va uni yosh avlodga yetkazish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bolalar ta’limida tabiatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, ekologik ma’rifatni oshirish uchun xalq marosimlarining roli juda katta. Ushbu tadqiqotning yangiligi, bolalarda ekologik ongni shakllantirishning an’anaviy vositalaridan biri bo‘lgan xalq marosimlarini o‘rganishga qaratilganligidadir. Marosimlar orqali tabiatga bo‘lgan hurmatni tarbiyalashning samaradorligini o‘rganish va uni jamiyatda keng qo‘llash zarurati bugungi kunda nihoyatda muhimdir.

O‘zbekistonning turli hududlarida turlicha xalq marosimlari va festivallari o‘tkaziladi. Ushbu maqolada marosimlar orqali tabiatga bo‘lgan muhabbatni bolalar ongida shakllantirish jarayoni o‘rganiladi. Tadqiqotda, an’anaviy marosimlar va ularning ekologik ta’sirini bolalar va yosh avlod orasida qanday amalga oshirilayotganligi ko‘rib chiqiladi.

Bolalarda tabiatga muhabbat hissini shakllantirishda xalq marosimlarining muhim vosita hisoblanadi. Marosimlar orqali tabiatga bo‘lgan hurmatni bolalar ongida shakllantirishning ekologik ma’rifatni oshirishda samarali natijalarga olib keladi. O‘zbekiston etnografiyasiga oid tadqiqotlar, xalq marosimlari va ularning tabiatga bo‘lgan ta’siri haqida yozilgan ilmiy maqolalar, kitoblar va ijtimoiy tadqiqotlar bu boradagi asosiy manbalardan hisoblanadi.

Shuningdek, ekologik ta’limning bolalar ta’limidagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qilgan ilmiy ishlar ham mavjud. Maqola yozish asnosida biz ularni bir qanchasini o‘ranib, tahlil qilishga muvaffaq bo‘ldik. Professor olim S. Kadirov «O‘zbek xalq marosimlari va an’analari» nomli kitoblarida o‘zbek xalqining qadimiy marosimlari, ularning ekologik maqsadlari va tabiat bilan bo‘lgan aloqasi ko‘rib chiqilgan. Muallif marosimlarning odamlar va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni qanday saqlab kelganini tahlil etadi. Bu asar tabiatga bo‘lgan hurmatni shakllantirishda marosimlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari bir qancha olimlar jumladan, N. Rashidov «Xalq ta’limida ekologik ta’lim», X.Xudoyberganov «O‘zbek madaniyati va ekologiya», F.Muminov «Etnografiya va ekologiya: O‘zbekistonning madaniy merosi», Z.Xodjayev «Ekologik ta’limda xalq an’analarining roli» va I.Nizamov «Marosimlar va atrof-muhitga ta’siri» kabi asarlari orqali bolalarda tabiatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirishda xalq marosimlarining roli va ekologik ta’limning ahamiyati haqida fikr yuritganlar. Ushbu asarlar bolalarda tabiatga mmuhabbatni shakllantirish va ekologik ta’limni o‘rganishda foydali manbalar bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar va ilmiy ishlar xalq marosimlarining ekologik ta’sirini va ularning yosh avlodga tabiatni sevishni o‘rgatishda qanday samarali vosita sifatida ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

.

Metodologiya va metodlar

Tabiatni asrab-avaylash, uning resurslarini oqilona foydalanish va ekologik ongni shakllantirish jamiyat uchun har qachongidan ham muhimroq masalalarga aylanmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning ekologik ta’limi va tabiatga bo‘lgan hurmatini shakllantirish, jamiyatning kelajakdagi ekologik muammolarni hal qilishdagi salohiyatini oshirish uchun zarurdir. O‘zbek xalqining qadimiy an’analari va marosimlari ekologik ongni shakllantirishda katta rol o‘ynaydi.

Ushbu maqolada, bolalarda xalq marosimlari orqali tabiatga muhabbat hissini shakllantirish jarayoni o‘rganiladi. Tadqiqotda, an’anaviy marosimlar va festivallar orqali ekologik ta’limni rivojlantirishning ahamiyati va metodologiyasi yoritiladi. Ushbu maqolada tadqiqot sifatida etnografik usul, kuzatuv, va so‘rovnoma metodlari qo‘llanilgan. Tadqiqotda O‘zbekistonning turli hududlarida amalga oshirilgan xalq marosimlari va festivallari o‘rganilgan. Marosimlarda ishtirok etgan bolalar bilan intervyu olingan va ularning tabiatga bo‘lgan munosabati tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan amaliyotlar va metodlar tahlil qilindi. Ma’lumotlar olingan hududlarda ekologik marosimlar va festivallarni kuzatish orqali bolalarning tabiatga bo‘lgan muhabbati va ekologik ongining shakllanishi o‘rganildi..

Natijalar

Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatuvlar, so‘rovlar va tahlillar asosida quyidagi natijalarga erishildi:

• Xalq marosimlarining ekologik ta’siri. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalq marosimlari bolalarda tabiatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Marosimlar orqali bolalar tabiat bilan bog‘lanish, o‘simliklarni ekish, hayvonlarga hurmat ko‘rsatish kabi amaliy faoliyatlar orqali ekologik ta’lim olishadi. Masalan, «Navro‘z» bayramida ekilgan daraxtlar va o‘simliklar bolalarga nafaqat tabiatni sevishni, balki uni asrab-avaylashni ham o‘rgatadi. «Qurbon Hayiti» marosimida hayvonlarga nisbatan ko‘rsatiladigan ehtirom ham bolalarda ekologik ongni rivojlantirishga yordam beradi.

• Bolalarda ekologik ongning shakllanishi. Bolalar orasida ekologik ongning shakllanishi hamda tabiatga bo‘lgan muhabbat hissining sezilarli darajada rivojlanishi kuzatildi. Marosimlar orqali bolalar tabiatni nafaqat estetik jihatdan, balki axloqiy va amaliy jihatdan ham qadrli deb bilishni o‘rganadilar. Bu bolalarda tabiatni himoya qilish va unga bo‘lgan mas’uliyatni oshirishda samarali vosita sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Marosimlar bilan bog‘liq ekologik ta’lim jarayonlari nafaqat o‘qituvchilar, balki ota-onalar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanmoqda, bu esa bolalarning ekologik ongini mustahkamlaydi.

• Xalq marosimlarining ta’lim dasturlariga integratsiyasi. Tadqiqotda shuningdek, xalq marosimlarining maktabgacha ta’lim dasturlariga integratsiyasi ham samarali ekani aniqlangan. O‘zbekistonning turli hududlarida, maktablarda ekologik ta’lim dasturlarida marosimlar orqali tabiatni asrab-avaylashga oid mavzularni kiritish, bolalarda qiziqish va anglashni oshirishga yordam beradi. Marosimlarning ta’lim tizimiga integratsiyasi o‘quvchilarning ekologik bilimlarini kengaytirish va tabiatga bo‘lgan muhabbatlarini yanada rivojlantirish imkonini yaratadi.

• Ijtimoiy va madaniy yondashuvlar. Xalq marosimlari nafaqat ekologik ongni shakllantirishga, balki ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ham targ‘ib qilishga xizmat qiladi. Tadqiqotda marosimlar va festivallar orqali bolalar ijtimoiy mas’uliyatni, qadriyatlar va an’analarni o‘rganishdi. Bular ekologik ong bilan bog‘liq bo‘lib, tabiatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirishda ijtimoiy va madaniy yondashuvlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi.

•. Marosimlarning samaradorligi va kengaytirilgan foydalanish. Tadqiqot natijalari, xalq marosimlarining ekologik ta’limda samarali vosita sifatida kengaytirilgan foydalanilishi kerakligini ko‘rsatdi. Marosimlar nafaqat ma’naviy qadriyatlarni, balki tabiatni asrab-avaylashni

ham o‘rgatishning samarali shaklidir. Shunday qilib, tadqiqot, xalq marosimlarining ekologik ta’limda foydaliligini tasdiqlaydi va bu metodni ta’lim tizimida yanada kengroq qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalq marosimlari vositasida tabiatga muhabbat hissini shakllantirish, bolalarda ekologik ongni rivojlantirishda juda muhim rol o‘ynaydi. Marosimlar orqali bolalar tabiatni sevishni, uni asrab-avaylashni o‘rganadilar. Shu bilan birga, xalq marosimlarining ta’lim dasturlariga integratsiyasi ekologik ta’limni samarali va amaliy jihatdan mustahkamlash imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalari, bu yondashuvni ta’lim tizimida kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi va tabiatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Muhokama

Hozirgi kunda global ekologik inqiroz va tabiiy resurslarning kamayishi masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, tabiiy muhitni asrab-avaylashni kuchaytirish, yosh avlodda ekologik ongni shakllantirish, an’anaviy xalq marosimlarining ahamiyatini oshirish juda muhimdir. Xalq marosimlari, an’analari va festivallari orqali tabiatni himoya qilish va unga bo‘lgan muhabbatni yoshlar va keng jamoatchilikda shakllantirishni o‘rganish zarur.Xalq marosimlari va an’analarining tabiiy muhitga bo‘lgan ta’siri katta ahamiyatga ega. Bu marosimlar, inson va tabiat o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash, ekologik ongni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Xalq marosimlari orqali tabiatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish nafaqat ekologik ta’limning samaradorligini oshiradi, balki jamiyatda tabiiy resurslarni asrab-avaylashga bo‘lgan mas’uliyatni ham kuchaytiradi.

- Xalq marosimlarining ekologik ta’siri. Xalq marosimlari va an’analari, nafaqat madaniyatni, balki tabiat bilan uyg‘un yashashni targ‘ib etadi. Misol uchun, O‘zbekistonning qishloq hududlarida «Navro‘z» bayrami va «Qurban Hayiti» kabi marosimlar, tabiatning yangilanishi va o‘simliklar bilan birga hayot davomiyligini ifodalaydi. Marosimlar orqali bolalar nafaqat diniy yoki ijtimoiy qadriyatlarni, balki tabiatga bo‘lgan hurmatni ham o‘rganadilar. Xalq marosimlarida tabiatni muhofaza qilish, o‘simliklar va hayvonlarga bo‘lgan muhabbatning ifodalanishi orqali bolalarda ekologik ongni shakllantirish mumkin.

- Marosimlar orqali ekologik ta’lim. Xalq marosimlari va festivallari, ekologik ta’limning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Masalan, «Navro‘z» bayramida o‘simliklarni ekish va ularni parvarishlash, «Qurbon Hayiti»da esa hayvonlarga hurmat va ularni asrab-avaylash masalalari muhim mavzulardan biridir. Bunday marosimlar orqali bolalar tabiatni sevishni va unga bo‘lgan muhabbatni ichki his-tuyg‘ulari orqali o‘rganadilar. Ekologik ta’limning bu shakli yosh avlodni tabiatni asrab-avaylashga undaydi va ularga tabiatga zarar yetkazmaslik haqida ogohlantiradi.

- Yosh avlodda ekologik ongni shakllantirishda xalq marosimlarining o‘rni. Bolalarda ekologik ongni shakllantirishda xalq marosimlarining roli katta. Marosimlar davomida bolalar tabiatning tsiklini, hayvonlar va o‘simliklarning bir-biriga bo‘lgan aloqalarini va ularning hayotdagi o‘rnini tushunadilar. Bunda muhim o‘rin tutadigan boshqa bir omil – xalq marosimlarining davriyligi va ular orqali bolalarga beriladigan axloqiy qadriyatlar. Misol uchun, «Bodomguldon» marosimi o‘simliklarni parvarishlash va ular bilan aloqada bo‘lishni o‘rgatadi. «Sho‘rchilik» kabi marosimlar esa bolalarga tabiatning muhofazasi uchun zarur bo‘lgan mehnat va jismoniy faoliyatni namoyish etadi.

- Marosimlar va ta’limdagi integratsiya. Bolalarda ekologik ongni shakllantirishda, marosimlar nafaqat amaliy faoliyatlarni o‘z ichiga oladi, balki ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi lozim. Shu bois, maktablarda va o‘quv dasturlarida xalq marosimlarining ekologik maqsadlarini o‘rganish, ularga ekologik faoliyatlarni kiritish juda muhimdir. Xalq marosimlari orqali tabiatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, bolalarni nafaqat bilimli, balki tabiatni asrab-avaylashni o‘rgangan shaxslar sifatida tarbiyalash imkonini yaratadi.

Xulosalar

Tadqiqot natijalaridan quyidagilar xulosa qilindi.

1. Xalq marosimlarining tabiiy muhitga ta’siri juda kengdir. Ular faqatgina diniy yoki madaniy qadriyatlarni emas, balki ekologik ongni ham shakllantiradi. Marosimlarda tabiatga bo‘lgan hurmatning shakllanishi, o‘z navbatida, ekologik muammolarni hal etishga yordam beradi. Shu bilan birga, ekologik ta’lim va marosimlar orqali tabiatga bo‘lgan muhabbatni yanada kengaytirish mumkin.

2. Xalq marosimlarining tabiiy muhitga bo‘lgan ta’siri nafaqat qadimiy an’analar bilan bog‘liq, balki hozirgi zamon ekologik ongini shakllantirishga ham yordam beradi. Tabiatga muhabbatni shakllantirishda marosimlarning o‘rni kattadir. Bugungi kunda jamiyat ekologik ta’limni kengaytirish va tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha faoliyat olib bormoqda. Kelajakda xalq marosimlarida tabiatni himoya qilish va ekologik ongni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Bolalarga va yoshlar uchun ekologik ta’lim dasturlarini rivojlantirish, marosimlarni tabiatni asrab-avaylashni targ‘ib qiluvchi shaklda olib borish kerak.

3. Bolalarda ekologik ongni shakllantirishda xalq marosimlarining roli beqiyosdir. Marosimlar orqali bolalar tabiatga bo‘lgan muhabbatni o‘zlariga xos tarzda o‘rganadilar va bu ularning ekologik ongini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari, xalq marosimlari orqali tabiatni asrab-avaylashni targ‘ib qilish va ekologik ta’limni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

4. Shuningdek, marosimlar orqali ekologik ta’limni kengaytirish va tabiatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish uchun maktablarda, o‘quv dasturlarida an’anaviy marosimlarni qo‘llash zarur. Ekologik ongni shakllantirish uchun marosimlar va an’analar yosh avlodga ta’sir qilishda samarali vosita bo‘lib, ularning tabiatga bo‘lgan muhabbatini rivojlantirishga yordam beradi. Kelajakda, bu tadqiqotlar xalq marosimlari orqali ekologik ta’limni yanada rivojlantirish va tabiatni himoya qilishda yangi yondoshuvlar yaratishda foydali bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Ta’lim to‘g‘risidagi qonun T.: 23 sentabr 2020-yil

2. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti,2013.

3. Ziyomuhammadov B., Abdullayeva Sh. Ilg‘orpedagogik - texnologiyalar. -Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2001.

4. B. Ziyamuxamedov, Sh. Abdullayeva. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. T., 2001.

5. O‘.K. Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T., 2006.

6. N.M.Qayumova «Maktabgacha pedagogika». «TDPU» nashriyoti T:. 2013

7. N.T.Tosheva «Maktabgacha ta’lim tarbiyani tashkil etish». Darslik. -Buxoro: «Kamolot» , 2022.

8. Н.Ш. Сыртланова. Дошкольная педагогика. Практическое

пособие. Уфа 2016. ;

9..Pedagogicheskiy slovar spravosnik. T.: 2011y. Tiraj-100.

10. Pedagogika fanning barkamol avlodni shakllantirishdagi o‘rni. (4-qism) T.: Sangzor. 2003.

11. Yo‘ldoshev J.G‘.. S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo‘llanma. T.: O‘qituvchi. 2004.

12. Sh.A.Sodiqova. «Maktabgacha pedagogika». «Tafakkur sarchashmalari» T:. 2013.

13. S.Kadirov. «O‘zbek xalq marosimlari va an’analari». «O‘zbekiston» T:. 2015.

14. S.Iskandarov. «Xalq marosimlarining ekologik ta’siri». «Ilm nuri» T:. 2019.

15. X.Xudoyberganov. «O‘zbek madaniyati va ekologiya». «O‘qituvchi» T:.2018.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0001-4013-448X

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK SHAROITLARI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu dissertatsiya ishida maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi tushunchalarini shakllanishining pedagogik sharoitlari, bolalarni salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya bo‘yicha ishlarni tashkil etish, sog‘lom turmush tarzi haqidagi tushunchalarning xususiyatlari hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi tushunchalarni shakllantirish usullari, vositalari bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Ushbu jarayon tadqiqotning vazifalarini amalga oshirish bilan uzviy boglandi.

Kalit so‘zlar: sog‘lom avlod, sog‘lom turmush tarzi, salomatlik, bilim va ko‘nikmalar, jismoniy tarbiya, ma’naviyat, salomatlik psixologiyasi.

Kirish

Mamlakatdagi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy vaziyat ushbu tendensiyani kuchaytiradi va 70% aholi uzoq muddatli psixo-emotsional va ijtimoiy-madaniy stress holatida bo‘ladi, bu esa organizmning salomatlikni qo‘llab-quvvatlovchi moslashuv mexanizmlarini charchatadi. Olimlar tomonidan o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, insonning sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirish muammosi tibbiyot fanidan va amaliyotidan chiqib, ta’lim sohasiga o‘tmoqda.

Zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotda salomatlik va sog‘lom turmush tarzi masalasi ustuvor o‘rinlardan birini egallaydi. O‘tgan o‘n yil ichida Mamlakatimizda erkaklar uchun o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 66 yoshdan 63 yoshgacha, ayollar uchun esa 75 yoshdan 73 yoshgacha kamayishi kuzatilmoqda. Aholining gipertenziya bilan kasallanishi 3 barobar, stenokardiya 2,4 barobar, miokard infarkti esa 1,3 barobar oshdi. 2018 yil holatiga ko‘ra, bir yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan 1000 nafar bolani tekshirish natijasida: psixika va xulq-atvor buzilishlari 17,6%, nerv tizimi kasalliklari 32,9%, suyak-muskul tizimi kasalliklari esa 24,9% bolalarda aniqlangan. Bolalar travmatizmi dinamikasi oshmoqda. Bundan tashqari, bolalarda doimiy ravishda ko‘rish va eshitish qobiliyati pasaymoqda, postura buzilmoqda.

Sog‘liqni saqlash millatning bugungi kunda davlatning sivilizatsiya darajasini ko‘rsatadi, bu esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini aks ettiradi. Har qanday xalq tarixini o‘rganayotganda, sog‘liqni mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirishga qaratilgan insonlarning faoliyatini e’tiborsiz qoldirish deyarli mumkin emas va bu faoliyat muhim funksiyalarni bajaradi hamda milliy madaniyatning ajralmas qismidir. Har bir xalqning o‘ziga xos an’analarga, mentalitetga, turmush tarziga asoslangan jismoniy rivojlanish tizimi mavjud bo‘lib, bu tizim uning rivojlanish darajasi va o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining umumiy madaniyatining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida farmonida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish haqida belgilab qo‘yilgan.

1. Har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishga shart-sharoitlar yaratish;

2. Ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o‘rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o‘tkazish;

3. Aholi turli guruhlarining sog‘lom ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishni ta’minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini iste’mol qilishni qisqartirish, zararli odatlardan, xususan, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishdan voz kechish yo‘li bilan kasallikka chalinish, ortiqcha vazn holatlari (semizlik) va bevaqt vafot etishni kamaytirish;

4. Aholi o‘rtasida sog‘lom ovqatlanish madaniyatini keng targ‘ib qilish, shu jumladan, tartibsiz va kechki uyqu oldidan ovqatlanish odatlaridan voz kechish;

5. Sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishini oilalar, mahallalar, maktabgacha ta’lim va umumta’lim muassasalari darajasida sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida targ‘ib qilish;

6. Maktabgacha ta’lim, umumta’lim, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida, korxona, tashkilot va boshqa turdagi barcha muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish.

Ta’lim muhitidagi konseptual o‘zgarishlarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda bolalik davrida sog‘liqning ahamiyatini anglash, sog‘liqning optimal holatini ta’minlash, har bir bolaning noyobligini tan olish va uning individual rivojlanishini ta’minlash masalalari muhimdir. Bolaning sog‘ligi uning tarbiyasi, o‘qitilishi va rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun qadriyatlar tizimi shaxsiyatning asosini tashkil etadi.

Pedagog-innovator, yozuvchi-faylasuf V.A.Suxomlinskiy o‘z asarlarida jismoniy tarbiya va kelajak avlodning salomatligi masalalariga bir necha bor murojaat qilgan. U hayotga bo‘lgan ijobiy qarash, optimizm va qiyinchiliklarni engishga tayyorlik uchun yaxshi va mustahkam sog‘liq zarurligini ta’kidlagan.

Zamonaviy olimlar va amaliyotchilar (L.G.Kasyanova, T.A.Shorygina, V.G. Alyamovskaya, I.V.Kuznetsova va boshqalar) inson salomatligi holati nafaqat tashqi omillardan, balki unga bo‘lgan o‘z munosabatidan ham bog‘liq deb hisoblaydilar. A.L.Kononko esa, 5-6 yoshli bolalar o‘z sog‘lig‘i haqida bilish bilan birga, unga nisbatan emosional va qiymatli munosabatda bo‘lishi, ijobiy muhitni salbiy va buzuvchi ta’sirlardan afzal ko‘rishi kerakligini ta’kidlaydi.

Bizning ilmiy izlanishlarimizning asosiy vazifasi ham sog‘liq masalasiga (sog‘lom turmush tarzi, dunyoqarashni sog‘lomlashtirish xulq-atvori) nazariy yondashuvlarni tahlil qilish va 5-6 yoshli bolalarda sog‘lom turmush tarzi haqidagi tushunchalarni shakllantirish va qiymatli sog‘lomlashtiruvchi xulq-atvorni rivojlantirish uchun pedagogik asoslarni asoslashdir.

Bolalik davrida shaxsning turli shaxsiy yangilanishlari paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Shaxsiy yangilanishlar orasida bolalarning shaxsiy qiymat yo‘nalishlari va dunyoqarash qiymatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Bolalikda bolalarda sog‘liq va uzoq umr to‘g‘risidagi dastlabki tushunchalar paydo bo‘ladi, harakat ko‘nikmalari va malakalari shakllanadi, bolalarning ruhiy, jismoniy va psixik salomatligi uchun asos yaratiladi.

O‘qituvchilar tomonidan mustahkam sog‘liq bolalar uchun ularning har tomonlama rivojlanishi va shaxsiy imkoniyatlarini ochib berish uchun asosiy poydevor sifatida qaraladi. Ammo olimlar ta’kidlaganidek, 5-6 yoshli bolalarning sog‘lig‘i holati a’lo darajada emas. Bolalarga ekologik jihatdan noqulay sharoitlar, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy voqealar, turmush sharoitlari, siyosiy va psixologik sharoitlar, ko‘p oilalardagi moddiy qiyinchiliklar, oilada muvozanatsiz yoki zararli ovqatlanish kabi omillar salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, bolalarning jismoniy faoliyatining etarli emasligi, zamonaviy «kam harakatli» turmush tarziga bog‘liq holda bolalarning jismoniy shakllanishining sekinlashuvi ham sog‘lik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, bolalar ta’lim-tarbiya va bilim olish faoliyatida ortiqcha yuklanganlikni his qilishmoqda. Bunday sharoitlarda bolalarning sog‘ligini mustahkamlash va yaxshilash masalasi juda muhim va dolzarb bo‘lib qolmoqda, shuningdek ta’lim jarayoniga sog‘liqni saqlovchi pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zarurati mavjud.

Yuqorida ko‘rsatilganlarni hisobga olib, bolalar bog‘chasi pedagogik xodimlari jamoasi oldida bir qator muhim vazifalar, jumladan, talablariga muvofiq sog‘lom turmush tarziga oid boshlang‘ich tushunchalarni shakllantirish vazifalari turadi.

Bolalar ta’limining asosiy vazifalari bolalarning jismoniy, ruhiy va ma’naviy salomatligini saqlash va mustahkamlashdir. Hozirgi kunda bolalar bog‘chalari tarmog‘i aholining ta’lim ehtiyojlarini to‘liq qondirmaydi. Faqat 56% mos yoshdagi bolalar bolalar bog‘chalarini tashrif buyuradi. Bundan tashqari, guruhlar bolalar bilan ortiqcha yuklangan. Cheklangan moliyalashtirish yangi zamonaviy bolalar bog‘chalarini qurishni va material-pedagogik bazani modernizatsiya qilishni istisno qiladi. Hozirda bolalar bog‘chalarining faoliyatini saqlash va kengay-

tirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, bolalar ta'limining mazmunini ijtimoiy ehtiyojlar va innovatsion va barqaror rivojlanish talablariga muvofiq yangilash; zamonaviy o'qitish va tarbiyalash vositalarini joriy etish zarur.

Yosh bolalarda sog'liq va sog'lom turmush tarziga oid tasavvurlarni shakllantirish uchun asos sifatida N.M.Yatiyeva tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi ko'rsatkichlar mavjud: individning organizmi, uning sog'ligi, sog'lom turmush tarzining xususiyatlari, profilaktik chora-tadbirlar haqida ilmiy tushunchalar va bilimlar; mehnat va dam olishning ahamiyati, kun tartibining ratsional bo'lishi zarurligi; harakat faoliyatining xususiyatlari; muvozanatli ovqatlanish, zararli odatlardan qutulish zarurligi haqida bilimlar.

Sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlar, agar bolalar o'z salomatligiga ongli munosabatga ega bo'lsa, shakllanadi. Ya'ni, bolalar quyidagi tushunchalarning ahamiyatini aniq tushunishi va tasavvur qilishi kerak: «Men-psixik jihatdan sog'lom», «Men-ijtimoiy jihatdan sog'lom», «Men-fizik jihatdan sog'lom», «Men-ruhiy jihatdan sog'lom»[1].

A.Sh. Inoyatov, P. Xodjayev, V.G. Barabashning nazariy fikrlariga ko'ra, yuqorida ko'rsatilgan ta'riflarni shakllantirishga yordam beradigan ko'rsatkichlar quyidagilar bo'lishi mumkin: masalan, «Men-fizik jihatdan sog'lom inson obraz» – bu mening qo'llarim, tanam, boshim, barcha fizik tizimlar va organlar birgalikda va muvozanatli ishlaydi va o'zini yaxshi his qiladi deganidir. «Men-psixik jihatdan sog'lom inson obraz' – bu mening intellektual va emosional ehtiyojlarim atrofimdagi odamlar bilan muloqotda, o'yin, mehnat, o'qish kabi asosiy faoliyat turlarida qondiriladi. «Men-ruhiy jihatdan sog'lom inson obraz» – bu men jamiyat va tabiat bilan o'zaro bog'lanishimni anglayman, bu esa o'z tabiiy qobiliyatlarimni rivojlantirishga yordam beradi va dunyoni ijobiy qabul qilishni shakllantiradi. «Men-ijtimoiy jihatdan sog'lom inson obraz» – bu men ota-onalarim, tengdoshlarim, tarbiyachilarim va boshqa odamlar bilan muvozanatli muloqot qilaman. Shuningdek, bolalar uchun dunyoqarash va sog'lom hayot tarzini shakllantirish turli faoliyat shakllarida: harakat, tanqidiy fikrlash, muloqotda amalga oshirilishi mumkin; turli faoliyat turlarida: o'yinda, amaliy faoliyatda, muloqotda va o'qitishda belgilangan hayot faoliyatining sohalarida: jismoniy rivojlanish, san'at va estetik rivojlanish, nutq rivojlanishi, tanqidiy rivojlanish, ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishda anglanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib, so'nggi yillarda bir qator muhim qarorlarni imzoladi. 2024-yil 21-iyunda qabul qilingan PQ-231-sonli qaror maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu qaror doirasida Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda hududiy pedagogik mahorat markazlari tashkil etilib, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni zamonaviy metodikalarga o'rgatish maqsad qilingan. Ushbu qaror va farmonlar maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish hamda ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.[2]

Shuningdek «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida» 802-qarorini ham keltirish o'rinli. Shu bilan birga, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi[3] qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13- maydagi 391-son «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-dekabrdagi O'RQ-595-son «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni[4], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti»to'g'risidagi 802-sonli qarori[5], 2021- yil 30 - iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 407-son qarori[6], hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq har tomonlama sog'lom va yetuk qilib tarbiyalash vazifasini amalga oshirish kerakligini anglatadi. Shu kunga qadar mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish esa eng muhim vazifalardan biriga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan e'tibor esa kundan ko'n ko'payib bormoqda. Sog'lom turmush tarzini joriy etarkanmiz, har tomonlama mukammallikka ehtiyoj sezamiz.

Kelajak avlod bilimli, sog'lom, oqil bo'lib yetishishi uchun yurt boshimiz hamma chora tadbirlarni ko'rib chiqqanlariga amin bo'lamiz Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Zero, bugungi davrda bolajonlarimizni sog'likli ulg'ayishi uchun barcha chora tadbirlar ko'rib qo'yilgan.

Respublikamizda hozirda tadqiqot mavzusi yuzasidan quyidagicha muammolar mavjud:

- maktabgacha yoshdagi bolalardagi sog'lom turmush tarzida harakatlar va ko'nikmalar yetarlicha shakllanmaganligi;

- maktabgacha ta'lim tashkilotida maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzi haqida tushunchlar shakllanmaganligi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf qilish uchun javob topishimiz lozim bo'lgan quyidagi tadqiqot savollarini shakllantirib oldik:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom turmush tarziga bog'liq da muammoli vaziyatlarnini kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?

- maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyachi-pedagoglar va maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lom turmush tarziga xos bilim va ko'nikmalarini qanday oshirish mumkin?

-. MTT da sog'lom turmush tarzini rivojlantiruvchi hozirda qanday chora tadbirlar mavjud?

---

[1] L.R.Mo'minov, O.A.Maxmudova, Sh.A.Karimova. «Nutqni tekshirish va rivojlantirish bo`yicha logopedik albom» T., 2016

[2] Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy veb-sayti.

[3] O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»1gi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori, https://lex.uz/docs/-4327235

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-lekabrdagi O'RQ-595- son «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-4646908

[5] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti» to'g'risidagi 802-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-5179335

[6] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 - yil 30 – iyuldagi «Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»1gi 407-son qarori. https://lex.uz/docs/-5482776

. Biz olib borgan tadqiqotimizning maqsadi ham maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi tushunchalarni shakllantirishning pedagogik shartlarini nazariy va tajriba jarayoni orqali o‘rganishdan iborat bo‘lib bu borada quyidagi va vazifalarni amalga oshirish maqsadli deb bildik, ya’ni: 1) maktabgacha yoshdagi bolalardagi sog‘lom turmush tarzi haqidagi tushunchalarning umumiy tavsifini berish; 2) maktabgacha ta’lim tashkilotida maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi haqida g‘oyalarni shakllantirish xususiyatlarini tahlil qilish; 3) maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi haqida tushunchalarni shakllantirishning pedagogik shartlarini aniqlash; 4) maktabgacha yosh bolalarda sog‘lom turmush tarzi haqida tushunchalarni shakllantirishni tajriba-sinov ishlari orqali tashkil etish va tahlil qilishdir.

Metodologiya va metodlar

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi tushunchalarini shakllanishini o‘rganishda va pedagogik shartlarini aniqlashda tashxisdan o‘tkazishni majburiylikka asoslanmagan, ishonchli suhbat, o‘yin tartibida olib borildi. Bir martalik tashxis o‘tkazish vaqti 20-25 minutdan oshmasligi lozim. Tarbiyalanuvchi bola rivojlanishidagi ayrim jihatlarni hal etishga imkon beruvchi asosiy tashxislash usullariga quyidagilar kirdi:

1. Sog‘ligi va jismoniy rivojlanganligi holati tashxisi.
2. Shaxsiy – psixologik va aqliy rivojlanganlik tashxisi:
- tashxislovchi kirish suhbati;
- Kern-Irasek sistemasi buyicha tashxislar;
- Venger metodi buyicha tashxislash (grafik diktant).

3.Ta’lim olish faoliyatining ko‘nikma va ilk zaminini aniqlash tashxisi:
- bolalarning maktab haqidagi tasavvurlarini aniqlovchi savolnoma (motivatsion tayyorgarlik);
- bolalarning matematik tushunchalarini aniqlovchi savolnoma;
- bolalarning og‘zaki savodxonligi va nutqi rivojlanganligini aniqlovchi savolnoma.

4. Tekshirishning qo‘shimcha shakllari:
- ko‘rish xotirasi;
- eshitish xotirasi;
- mazmun xotirasi;
- tasavvuri va ijodiy fikrlashining rivoji;
- og‘zaki – mantiqiy fikrlash rivoji;
- ma’lum joyda, hududda mo‘ljal olish rivoji;
- matematik tushunchalari rivoji;
- tasvirlash faoliyati bo‘yicha ko‘nikma va uddalashi rivoji;
- o‘zi va o‘zining tasvirlash faoliyatiga munosabatini ifodalash. Shuningdek, bu borada ilmiy - uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish; pedagogik kuzatuvlar; pedagogik tajriba hamda matematik statistika uslublari ham qo‘llanildi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur shart-sharoitlar yasli va maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalar guruhlariga qabul qilingan bolalar soni: • 1 yoshdan 2 yoshgacha – 10 ta. • 2 yoshdan 3 yoshgacha – 15 ta. • 3 yoshdan 6-7 yoshgacha – 20 ta. • turli yoshdagi guruhlarda 15 ta bo‘lishligi bilan bog‘landi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalari hududlarining demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etildi. Maktab ta’lim tashkilotidagi tarbiyalanuvchi bolalarni bu borada «Maktabga yetukligi»ni aniqlash maksadlarida gigienistlar Kern Irasekning (CHSSR) testlari, tadqiqotchilar (M.M.Antropova, M.M.Kolsova, T.S.Sorokina va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan metodikadan ham foydalanashga harakat qilindi. Bunda bolalarni maktabga jismoniy tayyorliklarini tekshirish natijasi ko‘pchilik bolalarda uning asosiy ko‘rsatkichlari me’yor atrofida ekanligini va xatto undan ilgarilashini ko‘rsatdi. Kun tartibi, chiniqtiruvchi muolajalar, muntazam jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, xilma-xil harakatli o‘yinlar va jismoniy mashqlar faol harakat rejimi bolalarni jismoniy rivojlanishini ta’minlashning zaruriy shartlari ekanligini yana bor etirof etish mumkin. Masalan, jismoniy rivojlanganlik darajasi:

- mustakil tarzda jismoniy mashqlarni bajara olish;
- buyrukka (start, stop) asoslanib yugura olish;
- narvan yordamida tepalikka chiqa olish va pastga tusha olish;
- narvan ustida utirib oldinga siljiy olish;
- 5 sekund davomida arqonda osilib turish;
- arg‘imchok ucha olish;
- cheklangan saf va chizik bo‘ylab yura olish;
- qiya qo‘yilgan taxta ustidan yurib o‘ta olish;
- bir oyoqda qaldirgoch bo‘lib tura olish;
- joyidan turib 15-20 marta sakray olish, 70-8- sm uzunlikka sakray olish, 30 sm balandlikdagi to‘siqdan sakrab o‘tish;
- to‘xtamasdan 2-3 minut davomida yugura olish; 100 metr masofani to‘xtamasdan yugurib o‘tish;
- 10 metr masofani emaklab o‘tish;
- safda to‘g‘ri turish va safni uzunasiga yurish; saflanish va kayta saflanishni bilish;
- musiqa ohangiga mos holda harakat qila bilish;
- koptokni irg‘itish va ilib olish; illon izi shaklida yurish va hokazolar.

Aytish joizki tarbiyalanuvchi bola hayotining rejimi ham sog‘lom turmush tarzini rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Odatda, sog‘lom bola kasalmand va zaif bolaga nisbatan kun davomida va mashg‘ulotlarda o‘zida jo‘sh urib turgan g‘ayratlarini tiyib jim o‘tirishga tezroq ko‘nikadi. Har bir bola aniq kun tartibiga ongli ravishda rioya qilishi bilan uni hayot rejimiga tayyorlashga, sog‘ligini mustahkamlashga erishish mumkin. Har bir oila mehnat faoliyatining xarakteri, maishiy sharoiti, bolalarning soni va shu kabilarga mos tarzda o‘z yashash tartibini o‘rnatadi. Biroq tarbiyachi pedagoglarimiz bir narsani, ya’ni maktabgacha yoshdagi bolaning nonushtasi va tushligi o‘rtasidagi oraliq 4 soatdan oshmasligini, tushlik va kechki ovqat o‘rtasidagi oraliq – bir oz kattarok (6-7 soat), buning orasida yengil ovqatlanish kechki choy bo‘lishi kerakligini unutmasligi kerak. Tarbiyalanuvchi bolaning bir sutkadagi uyqusi taxminan 11 soatni tashkil qilishi kerak. Bola tushlikdan so‘ng 1-1,5 soat dam olishga odatlansin. Kechqurun u doimo bir vaqtda, ya’ni 9 dan kechikmay uxlagani yotsin. Bolaning normal rivojlanishi uchun u toza havoda ko‘p harakat qilishi kerak. Shu bilan birga rejimning zarurligi va uning foydasini doimo tushuntirib borish lozim.

Rejimning qimmati bola faoliyatining xar xil turlarining almashinib turishini ta’minlashdir, bu esa yosh, o‘suvchi organizmni charchashdan saqlaydi, bolaning har tomonlama kamol topishiga imkon beradi. Quyida biz olti yoshli bolaning kundalik rejimini keltirib o‘tmoqdamiz (1-jadval)

1-jadval

Olti yoshli bolaning kundalik rejimi

№	Kundalik rejim	Vaqti
1	O‘rindan turish, badan tarbiya mashqlarini qilish, yuvinish, o‘rinni yig‘ishtirish	8.00-8.45
2	Nonushta	8.45-9.15
3	Sayr	9.15-10.00

4	Mashg‘ulot	10.00-11.00
5	Ochiq havoda o‘ynash, sayr qilish, ko‘ngil ochish	11.00-12.45
6	Tushlik ovqat	12.45-13.15
7	Kunduzgi uyqu	13.15-15.00
8	O‘zi yoqtirgan ish bilan shug‘ullanish uchun bo‘sh vaqt	15.00-16.00
9	Kechki choy	16.00-16.15
10	Ochiq havoda sayr qilish va o‘ynash	16.15-18.00
11	Kechki ovqat	18.00-18.30
12	Tinch o‘yinlar, kattalar topshirig‘iga ko‘ra qo‘lidan keladigan ishlarni bajarish	18.30-20.15
13	Uyquga tayyorlanish, gigienik tadbirlar (tishni tozalash, yuvinish)	20.15-20.30
14	Tungu uyqu	20.30

Maktabgacha ta’lim muassasasida tarbiyachilar tomonidan o‘tkaziladigan sog‘lomlashtiruvchi, jismoniy mashg‘ulotlar jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash ko‘nikma va malakalari hosil qilinadi, tarbiyachining so‘zini tinglash, har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga xarakat qilish, tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga o‘rgatib boriladi. Har bir yosh guruhlarda qancha mashg‘ulot o‘tkazish maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim-tarbiya dasturida belgilab qo‘yilgan va bu borada metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot mavzusini yoritishda sog‘lomlashtiruvchi tarbiya texnologiyalari Mashg‘ulot turlari bilan ifodalanadi va u quyidagichadir: bolalarni bilimlarini sinovchi mashg‘ulotlar – ushbu mashg‘ulotlarni o‘tkazishdan maqsad, tarbiyachi dasturda belgilangan bilim va malakalarini egallash darajasini bilib oladi va keyingi ishlari davomida ishlarni inobatga oladi; kompleks mashg‘ulotlar – bu mashg‘ulot bolalar MTM-si tajribasida keng tarqalgan bo‘lib, bunday mashg‘ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi. Mashg‘ulotni tuzilishi esa: • bolalarni uyushtirish • asosiy qism • yakuniy qismdan iborat. Mashg‘ulotga tayyorlanish mazmuni ham mavjud bo‘lib, ushbu mazmunga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Mashg‘ulotni rejalashtirish.
2. Kerakli jihozlarni oldindan tayyorlash.
3. Bolalarni mashg‘ulotga tayyorlash.

Maktabgacha ta’lim muassasaning birinchi kichik guruhida haftasiga 10 ta mashg‘ulot o‘tkaziladi. Ular quyidagicha taqsimlanadi:

- Atrofdagi voqealar bilan tanishtirish va nutqini rivojlantirish,
- Rasm chizish va loy yoki plastilindan narsa yasash,
- Qurilish materiallari bilan mashqlar,
- Musiqa mashg‘ulotlari,
- Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari. Mashg‘ulotlar 10-15 daqiqa davom etadi va ular shanba kunidan tashqari har kuni ertalab va kechqurun o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlar bilan bir katorda sayr vaqtida atrofdagi narsalarni kuzatish, harakatli va didaktik uyinlar rejalashtiriladi.

Natija va tahlillar

Tadqiqot ishining tajriba-qidiruv ishlari uch bosqichda o‘tkazildi: Birinchi bosqich – analitik – maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tasavvurlarni shakllantirish muammosining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish (dissertatsiya ishlari, monografiyalar, ilmiy maqolalar, metodik ishlab chiqishlar, ta’lim rejalari, tipik ta’lim dasturlari); tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadlari, vazifalari va tadqiqot dasturini aniqlash; tadqiqot mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarni sistematizatsiya qilish; o‘rganilayotgan fenomen darajasini aniqlash uchun diagnostik asbob-uskunalar ishlab chiqildi.

Ikkinchi bosqich – komponentlar, mezonlar, ko‘rsatkichlar va maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tasavvurlarni shakllantirish darajalari aniqlanib, sog‘lom turmush tarziga oid tasavvurlarni shakllantirish darajasini aniqlash maqsadida konstatatsion kesma o‘tkazildi; maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tasavvurlarni shakllantirish nazariy asoslari asoslantirildi, pedagogik shartlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi, tadqiqotning nazorat bosqichi o‘tkazildi.

Uchinchi bosqich – umumlashtiruvchi – natijalar tahlil qilindi va umumlashtirildi, ishning yakunlari chiqarildi, nazariy va amaliy xulosalar tayyorlandi.

Tadqiqot bazasi – Buxoro shahridagi 11-sonli Maktabgacha ta’lim tashkiloti. Tadqiqotda 4 dan 6 yoshgacha bo‘lgan 14 nafar maktabgacha yoshdagi bola ishtirok etdi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tasavvurlarni shakllantirish darajasini aniqlash maqsadida biz konstatatsion diagnostika o‘tkazdik, jarayonida quyidagi vazifalarni hal qilish kutilgan edi:

1) maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tasavvurlarni shakllantirish mezonlari va ko‘rsatkichlarini ajratish;

2) kompleks diagnostik vazifalarni bajarish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tasavvurlarni shakllantirish darajalarini aniqlash.

2-jadval

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tasavvurlarni shakllantirish mezonlari va ko‘rsatkichlari

Kriteriyalar	Ko‘rsatkichlar	Metodika	Ballar
Kognitiv	Sog‘liq va sog‘lom turmush tarzining mohiyati va komponentlarini to‘liq tushunish, ijtimoiy va biologik omillarning bolalarning sog‘lig‘i va hayot faoliyatiga ta’sirini anglash; jismoniy tarbiya darslariga qatnashishga mas’uliyatli munosabat	«Tamomlanmagan takliflar» metodikasi	Yuqori 3 O‘rta 2 Past 1
Motivatsion qiymatli	Sog‘liqning ahamiyatini va sog‘lom turmush tarzini saqlash zarurligini anglash; sog‘liqning insoniyat va shaxsiy qadriyatlar ierarxiyasidagi o‘rni haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish; sog‘liq va sog‘lom turmush tarzini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj, istak va qiziqish mavjudligi.	«Sog‘liq va kasallik» rasmlari testi	Yuqori 3 O‘rta 2 Past 1
Faoliyatli	Sog‘lom turmush tarzini o‘zlashtirishda faoliyat; kun tartibida sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini mustaqil ravishda bajarish; turli hayotiy vaziyatlarda sog‘liqni saqlash va mustahkamlash bo‘yicha optimal qarorlar qabul qilish qobiliyati.	«Sening sog‘lig‘ingga qanday g‘amxo‘rlik qilasan?» so‘rovi	Yuqori 3 O‘rta 2 Past 1

Yuqorida keltirilgan mezonlar va ko‘rsatkichlarga asoslanib, biz maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tasavvurlarni shakllantirish darajalarini uchta guruhga ajratdik: yuqori, o‘rta

va past. Har bir guruh uchun pedagogik kuzatish va diagnostika o‘tkazish uchun mos keluvchi xarakteristikalar belgilangan.

Yuqori daraja guruhiga sog‘lom turmush tarziga faol munosabatda bo‘lgan va yaxshi sog‘liq holatiga ega bo‘lgan bolalar kiritilgan. Ushbu bolalar sog‘liqni yaxshilashga bo‘lgan yuqori motivatsiyaga ega; sog‘lom turmush tarzining mohiyatini va uning shaxs hayotidagi ahamiyatini tushunishadi; insoniyat va shaxsiy qadriyatlar ierarxiyasida sog‘liqni ustuvor deb hisoblaydilar; shaxsiy va jamoa gigienasi qoidalariga rioya qiladilar; kun tartibini, optimal jismoniy faollikni va ovqatlanish madaniyatini saqlaydilar; muntazam ravishda jismoniy tarbiya darslariga qatnashadilar va sog‘lomlashtirish hamda sport tadbirlarida ishtirok etadilar; tamaki chekish, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar iste’molining sog‘liqka zararli ta’sirini anglaydilar.

O‘rta daraja guruhiga sog‘liqni mustahkamlash va sog‘lom turmush tarziga rioya qilishda past motivatsiyaga ega bo‘lgan, lekin qoniqarli sog‘liq holatiga ega bolalar kiritilgan. Ushbu bolalar sog‘liq va sog‘lom turmush tarzining mohiyatini to‘liq tushunmaydilar, sog‘lom turmush tarzining komponentlari va atrof-muhit omillari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlay olmaydilar; sog‘liq madaniyati masalalarini o‘rganishga doimiy qiziqishlari yo‘q; qadriyatlar ierarxiyasida sog‘liq ustuvor o‘rin egallamaydi; sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalari va malakalaridan tizimli ravishda foydalanadilar; umumiy gigiena me’yorlariga rioya qiladilar va sog‘lomlashtirish tadbirlarida ishtirok etadilar.

Past daraja guruhiga sog‘lom turmush tarziga motivatsiyasi yo‘q va sog‘liq holatida og‘ishlar mavjud bolalar kiritilgan. Ushbu bolalar sog‘liqni saqlash va mustahkamlash haqida faqat fragmentar ma’lumotlarga ega, «sog‘lom turmush tarzi» tushunchasining mazmuni haqida yuzaki ma’lumotga ega; sog‘liq va sog‘lom turmush tarzining variantlarini o‘rganishga qiziqish bildirmaydilar; sog‘liqni shaxs uchun eng muhim qadriyat deb hisoblamaydilar; sog‘lom turmush tarzini tashkil etishda faqatgina boshlang‘ich ko‘nikmalarga ega bo‘lib, ulardan epizodik ravishda foydalanadilar; mustaqil ravishda sog‘lomlashtirish faoliyati bilan shug‘ullanmaydilar.

Sog‘lom turmush tarziga oid tasavvurlarni shakllantirish darajasini aniqlash usullari sifatida kuzatish, suhbatlar, anketalash, vaziyatlarni modellashtirish va bolalarni testdan o‘tkazish metodlari qo‘llanilgan.

3-jadval

O‘tkazilgan metodikalar bo‘yicha bolalarning individual ko‘rsatkichlari

№	Bolaning ism familiyasi	Kognitiv	Motivatsion	Faoliyatli	Ballari
1	S.F	1	2	2	5
2	A.R	2	1	1	4
3	D.G	2	2	2	6
4	V.V	1	2	2	5
5	Q.V	2	3	1	6
6	X.F	2	2	2	6
7	S.A	2	1	2	5
8	R.F	1	2	2	5
9	Z.K	2	2	1	5
10	O.O	1	3	2	6
11	A.D	2	2	2	6
12	P.I	2	1	1	4
13	I.I	2	2	2	6
14	L.D	2	2	2	6

Barchaga ma’lumki, maktabgacha yoshdagi davrda bolalarda o‘yin va o‘qish faoliyati birga olib boriladi. Bu jadval barcha ishtirokchilarning guruh faoliyatidagi birligi va tuzilganligi, o‘zaro aloqalari va ishtirokchilar harakatlarining muvofiqligi, guruh faoliyatida rollar va vazifalarni birgalikda taqsimlash; hissiy farovonlik va guruhda shaxslararo munosabatlar va muloqotdan qoniqish; turli xil guruh faoliyatining tashkil etilishi va rejalashtirilishiga asoslangan. Shunday qilib, birinchi bosqichda birinchi pedagogik shart – bolalarning sog‘liq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan rivojlantiruvchi sog‘liqni saqlovchi muhitning mavjudligi amalga oshirildi. Bolalar bog‘chasi yoshidagi bolalarning umumiy sog‘lomlashtiruvchi faoliyatga bo‘lgan o‘zaro ta’sirini rag‘batlantirish ularning sog‘liq madaniyatini tarbiyalashga, sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirishga yordam berdi.

Muhokama

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalar qiymat mezoni bo‘yicha diagnostika natijalari shundaki ushbu ma’lumotlar o‘tkazilgan dastur samaradorligini va bog‘cha yoshidagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirish uchun sharoitlar yaratishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bunda 2-guruhda dinamikaning sezilarli darajada kamligi kuzatiladi: yuqori daraja 27,3% bolalarda aniqlangan (ishning boshida - 18,2%); etarli daraja 63,6% da (ishning boshida - 68,2%); past daraja esa 9,1% respondentlarda aniqlangan (ishning boshida - 13,6%).

Ma’lumotlarni qayta ishlash natijasida 1-guruhdagi respondentlarning sog‘lom turmush tarzining asoslarini shakllantirish darajalari bo‘yicha tarqatilishi quyidagicha amalga oshirildi: yuqori daraja 50,0% respondentlarda ko‘rsatildi (ishning boshida - 25,0%); etarli daraja 45,0% bolalarda namoyon bo‘ldi (ishning boshida - 60,0%); past daraja esa 5,0% respondentlarda aniqlangan (ishning boshida - 15,0%).

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalar bo‘yicha faoliyat mezoni bo‘yicha diagnostika natijalari 2-gruppada ushbu sifatning shakllanish darajalarida o‘zgarishlar kamroq ahamiyatli bo‘ldi. Xususan, yuqori daraja 31,8% bolalarda aniqlangan (ishning boshida - 22,7%); etarli daraja 59,1% da (ishning boshida - 68,2%). Ishning boshida va oxirida ushbu guruhda past darajada 9,1% tarbiyalanuvchilar mavjudligi aniqlangan. Olingan ma’lumotlarga tayanib, biz maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzining asoslarini shakllantirish dinamikasini shunday xulosa qilamiz.

Nazorat bosqichining natijalari sog‘lom turmush tarzining asoslarini shakllantirish darajalarida ijobiy dinamikani ko‘rsatdi, bu esa biz tomonidan belgilangan shartlarning tatbiqi natijasidir:

• Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan rivojlantiruvchi sog‘lomlashtiruvchi muhit mavjudligi;

• Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasini ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda sog‘lomlashtiruvchi mazmun bilan to‘ldirish;

• Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy sog‘lomlashtiruvchi faoliyatga o‘zaro ta’sirini rag‘batlantirish.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzining asoslarini shakllantirish uchun belgilangan pedagogik shartlar samarali va ta’sirchan hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri sog‘lom turmush tarziga motivatsiya va qoidalarni shakllantirish, uning maqsadga muvofiqligini va zarurligini tushunish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan nazariy tahlil natijasida «salomatlik», «sog‘lom turmush tarsi» tushunchalari aniqlanib, ularning komponentlari belgilandi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzining asoslarini shakllantirish darajasi quyidagi mezonlar yordamida baholandi: kognitiv, motivatsion-axloqiy, faoliyat. Ushbu mezonlar va ularning ko‘rsatkichlari asosida sog‘lom turmush tarzining shakllanish darajasining uchta darajasi ajratildi: yuqori, o‘rta va past.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzining asoslari shakllanishining etarli darajada emasligini ko‘rsatdi. Bu, bolalarning aksariyatida shaxsiy salomatlik, sog‘lom turmush tarzining mohiyati haqida zarur bilimlarning yo‘qligi, tegishli valeologik ko‘nikmalar va malakalar shakllanmaganligi, salomatlikka motivatsiyaning etishmasligi bilan izohlanadi.

Quyidagi pedagogik shartlar aniqlanib, asoslangan va joriy etilgan:

• Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan rivojlantiruvchi salomatlikni saqlovchi muhitning mavjudligi;

• Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasini ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda sog‘lomlashtiruvchi mazmun bilan to‘ldirish;

• Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy salomatlikni saqlovchi faoliyatga o‘zaro ta’sirini rag‘batlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini tarbiyalash usuli ishlab chiqildi, bu esa quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi: kognitiv, reproduktiv-faoliyat, emotsional-kreativ. Har bir bosqich uchun ta’lim maqsadlari, mazmuni, usullari va ularni amalga oshirish shakllari (suhbatlar, hikoyalar tuzish, mavzuli mashg‘ulotlar, o‘yin vaziyatlari, didaktik va syujet-rol o‘yinlari, didaktik mashqlar, o‘yin vaziyatlari, loyihalar, skratch loyihalari, ertalabki gimnastika, tushdan keyin gimnastika, jismoniy daqiqalar, harakatli va musiqali-harakatli o‘yinlar, ritmik gimnastika, fitbol-gimnastika, nafas olish, ovoz kuchi rivojlantirish mashqlari, ta’lim-o‘yin vaziyatlari, madaniy-sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalishdagi o‘yin mashqlari, mavzuli sport va sog‘lomlashtiruvchi bayramlar va boshqalar) belgilandi. Bu esa taklif qilingan pedagogik shartlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta’minladi.

Taklif qilingan pedagogik shartlarni amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z organizmiga nisbatan qiymatli munosabatni shakllantirishga, sog‘lom turmush tarzining mohiyatini tushunishga va salomatlikning barcha tarkibiy qismlarini yaxshilashga yordam beradi. Dasturda ishtirok etgan bolalar guruhida tajriba-qidiruv ishining oxirida sog‘lom turmush tarzining yuqori darajasiga ega bo‘lgan bolalar 55% ni tashkil etdi, o‘rta daraja 40%, past daraja esa 5% ni tashkil etdi. Dasturda ishtirok etmagan bolalar guruhida esa ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 27,3%, 63,6% va 9,1% ni tashkil etdi. O‘tkazilgan tadqiqot belgilangan muammoni hal qilishning barcha jihatlarini qamrab olmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda salomatlikni saqlash va mustahkamlash bo‘yicha mas’uliyatli xulq-atvorni tarbiyalash masalalari yanada chuqurroq o‘rganishni talab etadi.

Xulosalar

Ushbu ish maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirish muammosini ko‘rib chiqishga ma’lum bir hissa qo‘shadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari va bolalar oilasida bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirish uchun pedagogik va psixologik shartlarni qayta ko‘rib chiqish muhimligi aniqlangan. Sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalar, agar bolalar o‘z salomatligiga nisbatan ongli munosabatga ega bo‘lsa, shakllanadi. Adabiyotlarni nazariy tahlil qilish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirish usullari va vositalari aniqlangan. Bunday usullarga didaktik va syujet-rol o‘yinlari, badiiy adabiyot, mahsuldor va predmet-amaliy faoliyat kiradi. Ish shakllariga mashg‘ulotlar, bolalar bilan trening o‘yinlari, ota-onalar uchun maslahatlar tashkil etish, ota-onalar konferentsiyalarini o‘tkazish kiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirishda an’anaviy usullarga suhbat, kuzatish, tushuntirish, ishontirish, ijobiy va salbiy misollar, odatlarni shakllantirish usullari, mashq qilish, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish usullari kiradi.

Ishning amaliy qismida biz maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalarning shakllanish darajasini o‘rganishga va uni yanada oshirishga murojaat qildik. Ishning dastlabki bosqichidagi natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzining shakllanish darajasining etarli emasligini ko‘rsatdi. Bu esa ko‘pchilik bolalarda individual salomatlik, sog‘lom turmush tarzining mohiyati haqida zarur bilimlarning yo‘qligi, tegishli valeologik ko‘nikmalar va malakalar shakllanmaganligi, salomatlikka motivatsiyaning etishmasligi bilan izohlanadi.

Aniqlangan, asoslangan va joriy etilgan pedagogik shartlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan rivojlantiruvchi sog‘lomlashtiruvchi muhitning mavjudligi; bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy tarbiyani sog‘lomlashtiruvchi mazmun bilan to‘ldirish; maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy sog‘lomlashtiruvchi faoliyatga bo‘lgan o‘zaro aloqalarini rag‘batlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘liq madaniyatini tarbiyalash metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: kognitiv, reproduktiv-faoliyat, emotsional-kreativ. Har bir bosqich uchun ta’lim maqsadlari, mazmuni, usullari va amalga oshirish shakllari belgilangan (suhbatlar, hikoyalar tuzish, mavzuli mashg‘ulotlar, o‘yin vaziyatlari, didaktik, syujet-rol o‘yinlari, didaktik mashqlar, o‘yin-vaziyatlar, loyihalar, skratch loyiha, ertalabki gimnastika, kunduzgi uxlashdan keyin gimnastika, jismoniy daqiqalar, harakatli, musiqali-harakatli o‘yinlar, ritmik gimnastika, fitbol-gimnastika, nafas olishni rivojlantirishga oid mashqlar, ovoz kuchini rivojlantirish, o‘quv-o‘yin vaziyatlari, madaniy-sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalishdagi o‘yin mashqlari, mavzuli sport va sog‘lomlashtiruvchi bayramlar va boshqalar), bular orqali taklif etilgan pedagogik shartlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi ta’minlangan. Taklif etilgan pedagogik shartlarni amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z organizmiga nisbatan qiymatli munosabatni shakl-

lantirishga, sog‘lom turmush tarzining mohiyatini tushunishlariga va salomatlikning barcha tarkibiy qismlarini yaxshilashga yordam beradi.

Taqdim etilgan materiallar maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirishda pedagoglarning ishida foydalanilishi mumkin. Tadqiqotning kelajakdagi istiqbollari – ishlab chiqilgan dasturani yanada sinovdan o‘tkazish va uni kattaroq yoshdagi bolalarga moslashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida» gi Qonuni (yangi tahrirda) 2015.

2.. Dubrovskiy V.I. Psixologiya lichnosti. - M: Izdatelskiy sentr «Vlados»,

3.. 2002 - 512 s.

4.. Ilin Ye.P. Motiv i motivatsiya. - M., 2000. - 512 s.

5.. Jalolova G.Q. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash» (metodik tavsiya). Toshkent, 2004.

6.. Kakovkin A.V. Sudeystvo sorevnovaniy po futbolu: Metodicheskie . dlya studentov otdeleniya FFK VGPU - Vologda, izd-vo «Rus» 2003.-48 s.

7.. Qurbonov Sh., Qurbonov A. Jismoniy mashqlarning fiziologik asoslari. T., «OAJBNT» markazi. 2003.

8.. Kovalev A.G. Psixologiya lichnosti: 3-e izd., pererabot. i dop.- M., 1997. - 391 s.

9.. Kovalev A.G., Myasishev V.N. Psixologicheskiye osobennosti cheloveka, T. 1. L.,1996-1997.-264s.

10.. Usmonxo‘jayev T.S., Islomova S.T. «Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya» T.: «Ilm Ziyo» nash. 2006.

11.. Kuramshin Yu.F. TMF: Uchebnik/pod red. prof. Yu.F. Kuramshina-2-e izd. ispr-M.: Sovetskiy sport,2004-464s.

12.. Lalakov G.E. Struktura i soderjanie trenirovochnix nagruzok futbolistov raznix vozrastov i kvalifikatsiy Omsk,2000. - 198s.

13.. Leytes N.S. Vozrastniye osobennosti razvitiya sklonnostey: Problemi общеу, vozrastnoy i pedagogicheskoy psixologii. - M., 2000. - 201 s.

14.. Usmonxo‘jayev S., Aliyev M.B., Sagdiyev H.H., Turdiyev F.K., Akramov J.A. Bolalar va o‘smirlar sporti mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyati. T., «ILM ZIYO». 2006.

15.. Sharipova D.J., Semenova L.M. Kichkintoylarni gigiyenik tarbiyalash. T., «O‘qituvchi», 1997.

16.. Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya. T., O‘zbekiston. 1998.

17.. Matveev L.P. Teoriya i metodika fizicheskoy kulturi: Ucheb. Dlya in-tov fiz. kult. -M.,1991. s. 136

20.Q. Sodiqov. O‘quvchilar fiziologiyasi va gigiyenasi.

21 . M. Mahkamov: «sog‘lom oila quraylik» Toshkent 2003

22.. Osnovi teorii i metodiki fizicheskoy kulturы: Ucheb. Dlya texnikumov fiz. kult./ Pod red. A.A. Gujalovskogo. - M.,1999 g. str. 136

23.Pedagogicheskoe fizkulturno-sportivnoe sovershenstvovanie. Pod redaktsiey Jeleznyaka Yu.D. - M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2000 - 384 s.

24.. Xripkova A.G., Antronova M.V., Forber D.A. «Vozrastnaya fiziologiya i shkolnaya gigiena».

25.. Xolodov J.K., Kuznetsov V.S. Teoriya i metodika fizicheskogo vospitaniya i sporta Uchebnoe posobie dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy.- m: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2000

26. Pedagogicheskoye fizkulturno-sportivnoye sovershenstvovaniye. Pod redaktsiey Jeleznyaka Yu.D. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2000- 384 s.

27. Djumanova D., Prusakovalar Y. K. «Quvnoq logoritmika». T.: 2009

28. Shomahmudova R.Sh., Mo’minova L.R. Bog‘cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish. – T., 1981.

29. L.R.Mo’minov, O.A.Maxmudova, Sh.A.Karimova. «Nutqni tekshirish va rivojlantirish bo’yicha logopedik albom» T., 2016. Husanboyeva Q. va boshq. Maktabgacha ta’limda badiiy matn bilan ishlash metodikasi. Darslik. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 358 b.

30. Mengliyev B., Boymatova O., Xudoyberdieva M. O’zbek tili iboralari o’quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 52 b.

31. Miaziz A’zam. Qirq bolaga qirq savol. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 64 b.

32. Miraziz A’zam. Ming bir so’zni bilaman. Bolalar uchun rasmli izohli lug‘at. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016. – 200 b.

33. Qodirova F.R. va boshqalar. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi metodikasi. T.: – Istiqlol, 2006. – 128 b.

34. Fayzullaeva M. va boshq. Nutq o’stirish, savodga tayyorgarlik. T., 2014.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0001-1816-2417

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR NUTQ MADANIYATI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUV



Jumayeva Gulsum

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutq madaniyati va tafakkurini rivojlantirishda kreativ yondashuv sohalarda olib borilgan tajriba-sinovlar va mashg‘ulotlar mobaynida o‘tkazilgan metodlarning bolalar shaxsiy sifatlarini rivojlanishiga, mustaqil fikrlashga ta’siri va ijodiy faoliyatga jalb etish imkoniyatlarini kengaytirishi haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ yondashuv, nutq madaniyati, tafakkur tajriba, intellektual salohiyat, innovatsiya, multimediya, kasbiy faoliyat, perseptiv qobiliyat, muvaffaqiyat.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizning ta'lim sohasi shiddat bilan rivojlanmoqda. Zamonaviy jamiyatda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, komil shaxs sifatida tarbiyalash, samarali ta'lim va ta'lim-tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim sohasini isloh qilish bugungi kunning diqqat e'tiborida turgan dolzarb masalalardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini oshirish, ta'lim sohasidagi innovatsiyalardan, ta'lim texnologiyalaridan kreativ yondashuv asosida samarali foydalanish, zamonaviy jadallashuv sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda, yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan yangiliklar, islohotlar, zamonaviy fan va texnikaning ilg'or tajribalarini amaliyotda joriy etish ularni faoliyatda jadallik bilan samarali qo'llanilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-xodimlari oldiga yuksak vazifa qo'ydi. Bugungi ta'limning zamonaviy talalablari kreativ yondashuvlar asosida tarbiyalanuvchilarning nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonini ta'limiy muhiti bilan integratsiyasini ta'minlashdir. Bu o'z navbatida pedagogda shaxsiy, kasbiy va maxsus kompetensiyalarining mustahkam qaror topishi, ko'nikma va malakalarini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

«Maktabgacha ta'lim» - uzluksiz ta'lim tizimining ilk bo'g'ini sanalib, u har tomonlama sog'lom, salohiyatli, mustahkam irodali, teran fikrli, barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'limiy va tarbiyaviy o'qitish jarayonida bolalarning nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishning samarali shakllari va ko'rinishlarini, metodlarini ishlab chiqish, faoliyatlarni tashkil etishning noan'anaviy shakllari, texnologiyalarini yaratish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi «Maktabgacha ta'lim tarbiyaning davlat standarti» 802-son qarori qabul qilindi. Davlat standartining asosiy maqsadi - maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil dekabr oyida qabul qilingan PQ-2707-son «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida«gi 5198-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»,[1] 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 28 avgustdagi «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash[2] to'g'risida» gi 99-son buyrug'lari maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, takomillashtirish, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bola shaxsini har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim sifatini raqobatbardoshligini ta'minlash, bolalarni sog'lom fikrli, aniq maqsadli qilib voyaga etkazish, kasbiy salohiyatli, mustahkam bilimli pedagog kadrlar safini kengaytirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya berishdagi innovatsion o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish, zamonaviy metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, loyihalar ishlab chiqish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalarini qamrab olgan.

Ta'lim sohasidagi bu kabi islohotlat, qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar bola shaxsi kamoli, jismoniy, axloqiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy yetuk mustaqil fikrlovchi barkamol avlod qilib voyaga yetkazish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, tanqidiy fikrlovchi, bilimli va salohiyatli, immuniteti mustahkam, zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan qurollangan, innovatsion-kompetentli, maxsus qobiliyatli, irodali yoshlarni tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishning asosiy vazifasi nafaqat bola shaxsi tarbiyasi, balki, ta'lim tashkilotada faoliyat olib borayotgan pedagoglarni maktabgacha ta'limda bolaning tafakkuri, nutq o'stirishning ilmiy pedagogik asoslangan, eng samarali natija beradigan omillari, vositalari va usullarini ishlab chiqish, tarbiyachi, pedagog, ota-onalarni nutq o'stirish usullari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, faoliyat jarayonida bola uchun aniq, eng qulay usullardan foydalanish, nutq o'stirish mashg'ulotlarini tashkil etish samaradorligini oshirishga doir bilimlar bilan qurollantirishdan iboratdir.

Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish bu o'z navbatida shakllanib, ulg'ayib kelayotgan bolalarning kommunikativ kompetensiyasini ya'ni mustaqil fikrlash, tafakkur qilish, kattalar, tengdoshlari bilan nutqiy muloqot, muomala qila olishga o'rgatishdir. Shuningdek, nutqning ifodaliligi, nutq tovushlarini to'g'ri, aniq talaffuz etish, tilning grammatik shakllaridan nutqda to'g'ri foydalanish, badiiy asarni tinglash, tushunish, mazmunni eslab qolish va so'zlab berish, asar qahramonlari nutqi xususiyatlarini ajrata bilish, obrazli bayon etish kabi amaliy intellektga ega bo'lishni rivojlantiradi, maktabga nutqiy jihatdan tayyorlaydi. Bu kabi ta'limiy faoliyatlarni tashkil etish, kreativ yondashuv maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilaridan yuqori bilim, ko'nikma va malaka talab etadi.

---

[1] 1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni //O'RQ-637-son 23.09.2020.

[2] O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi»gi 595-sonli Qonuni.2019 yil 17-dekabr.

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli qarori.

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmoni https://lex.uz/pdfs/5841063

Tadqiqotning ob'ekti**:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish faoliyatdagi ishlarini olib borish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonining mazmuni va mohiyati va texnologiyasi.

Tadqiqotning maqsadi**:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

- «kreativ», «yondashuv», «nutq o'stirish», «tafakkur», tushunchalarining mazmuni va mohiyati o'rganish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish ishlarini rejalashtirishning mazmuni va metodikasini ishlab chiqish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik-psixologik sharoitlarni aniqlashtirish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayoni afzalliklarini tajribada asoslash;

Tadqiqotning ilmiy-nazariy yangiligi quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayoni bola ijtimoiylashuvida dolzarbligi asoslandi;

- kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish faoliyati ijtimoiy-pedagogik jihatdan o'rganildi va muvaffaqiyatga erishish yo'li takomillashtirildi;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishning zamonaviy, interfaol, samarali usullari aniqlandi;

- kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonida ilmiy-metodik tavsiyalarning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishning samaradorligi quyidagi holatlarda yuqori bo'lishi mumkin:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy yohdashuvlar, didaktik imkoniyatlar, rivojlantiruvchi ko'nikmalarini shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlari ishlab chiqilsa va amaliyotga tadbiq etilsa;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishning maqsad va vazifalari ko'rsatib berilsa;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonining manbalari chuqur o'rganilsa va tahlil qilinsa;

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining innovatsion kasbiy faoliyati, rivojlanayotgan shaxsni pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashning zarurligi, oilada maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalari G.Alimova, A.V.Mudrik, X.Kasimova, M.Abdullaeva, M.Kadirova, Z.Azizova, D.Abdurahimova, A.Xoliqov, E.A.Migranova, Sh.X.Pozilova, F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M..Kayumova, M.N.A'zamova. E.G'oziev, A.Davletshin, R.Safarova, B.Adizov, I.P. Ivanov, Sh.A. Amonashvili, N.Begmatova, G.Berdalieva, F.Valixo'jaeva, L.Mirjalolova va boshqalar tahliliga mazkur masalalarga keng o'rin berilgan.

II. Metodologiya va metodlar. Kreativ kompetentlik (ing. «sreative» yaratuvchanlik, ijodkorlik). Kompetentlikning bu turi pedagogning yangilik yaratish, ijodkorlik va tashkil etish singari ko'nikmalarga ega bo'lishi bilan bog'liq. Kreativlik faqatgina yangi g'oyalarni yaratish uchungina emas, balki shaxsning turmush tarzi va ma'naviyatini yuksaltirish uchun ham katta ahamiyatga ega.

«Kreativlik», «Kreativ yondashuv», «pedagogik kreativlik», «kreativ qobiliyatlar», «kreativ kompetentlik» mavzusida tadqiqodchilar tomonidan **b**ir qator ilmiy izlanishlar, tadqiqot ishlari olib borilgan va bu tushunchalarga atroflicha izoh berilgan. Adabiyotlar tahliliga ko'ra «Kreativ yondashuv» tushunchasining ilmiy, falsafiy, yoki oddiygina ifodalangan ko'plab ta'riflarini uchratish mumkin.

Dastlab kreativlik tishunchasi 60-yillarda Angliya-Amerika psixologiyasida paydo bo'lib, unga ko'ra kreativlik har bir shaxsning individual o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq hamda intellekt bilan bog'liqligi masalalari va kreativlikning psixologik jihatlari o'rganilgan.

Bilamizki, kreativlik insonda o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmay balki, u ta'limning texnologik vositalarini faol ravishda ta'lim jarayonida qo'llash, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas tarzda pedagoglarning o'z ustida ishlashini, o'zini kreativ boyitib borishi, ilm-fanning yutuqlaridan boxabar bo'lib, ularni o'z faoliyatiga singdirib borishi oqibatida paydo bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tushunchalarni rivojlantirish, axloqiy ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari, badiiy asarlarning qahramonlari ham bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari suradi M.Kadirova o'zining tadqiqot ishida.

T.T. Shoymardonov, Sh.S, Sharipov, R.G., Isyanovlar esa ta'limda kreativ yondashuvni ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning muhim omili sifatida talqin etishadi.

Ushbu tadqiqot ishlaridan kelib chiqib ikkilanmay aytish mumkinki, kreativ potensialni ko'tarish ideal kreativ kompetentlikka erishishning ilk qadami hisoblanadi. Shunga asoslanib, kreativlik potensial o'zgarib turadigan jarayondir.

Bugungi jadallashuv davri, Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan davrda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, ta'limiy faoliyatni samarali tashkil etish, zamonning shiddatli taraqqiyoti bilan hamnafas tarzda yurmog'i, tarbiyachilardan o'z ustida muntazam ishlashi va izlanishini, o'zini kreativ boyitib borishini, ilm-fanning yutuqlaridan boxabar bo'lib, pedagogik texnologiyalar bilan kuchli qurollanmog'i va ularni o'z faoliyatiga samarali qo'llashni talab etadi.

Akademiklik darajasini olish uchun tayyorlangan ushbu tadqiqot ishimiz mohiyatiga ko'ra aytishiimiz mumkinki, kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini yanada rivojlantirish hamda tafakkurini rivojlantirish tarbiyachidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etishi shubhasiz.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi kasbiy salohiyatli, raqobatbardosh, didaktik qobiliyatga ega, nutqiy madaniyati o'ta yuqori bo'lishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, faoliyatda duch keladigan muammolar yechimini hal eta olishi, eng muhimi, o'z sohasi bo'yicha zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Har bir pedagog kasbiy faoliyatida quyidagilarga ega bo'lishi lozim:

• didaktik qobiliyatga ega bo‘lishi;
• faoliyatda intellektual-ijodiy tashabbuslar ko‘rsatishi;
• pedagogda kasbiy bilimlarining yetarliligi;
• intellektual qobiliyatlarga ega bo‘lishi;
• nutq madaniyatining yuqori bo‘lishi;
• turli ziddiyatlarga tayyor turishi;
• yangi g‘oyalar, tashabbuslar, loyihalar ishlab chiquvchi;
• tanqidiy fikrga ega;
• yangiliklarga intilish;
• o‘zini tahlil qilib biladigan, natijalarni oldindan ko‘ra oluvchi;
• o‘zidagi kreativ jihatlarni anglay olishi;
• ta’limda muvaffaqiyatga erishish loyihasi mavjud.
• avtoritar qobiliyatli;
• ta’limiy faoliyatda kreativ kompetensiyalarga asoslangan yondashuvni amalga oshira oladigan bo‘lishi lozim.

Bugungi kundagi zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirish hamda tafakkurini rivojlantirish jarayoni – ta’lim tashkilotining ta’limiy va ijtimoiy faoliyatining ajralmas qismidir, va bu jarayonlar faollik markazlari negizida tashkil etilib borilayapti. Kreativlik esa tarbiyachilarning umumkasbiy layoqatini shakllantirishning ochiq, o‘zgaruvchan, demokratik sohasidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy faoliyatlar tavlat talabining beshta sohasi bo‘yicha, beshta rivojlantiruvchi markazlarida, «Ilk qadam» davlat dasturi asosida tashkil etiladi va unda belgilangan kun tartibiga tayanadi hamda pedagog tomonidan rejalashtirilgan kundalik ta’limiy faoliyatlar, bolalar o‘yinlari, erkin faoliyat davri va sayr, mehnat faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini yanada rivojlantirish, hamda ularning tafakkurini rivojlantirishning muhim jihatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• ta’lim jarayonlarini rejalashtirishda integratsiyani ta’minlash, xilma-xillik va moslashuvchanlik mexanizmlari mazmunini motivatsion, zamonaviy universal ta’lim, integratsion yondashuv, xalqaro hamkorlik tamoyillari asosida optimallashtirishning ilmiy - amaliy asoslarini aniqlash;

• pedagog tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yillik mavzuviy reja va haftalik rejasi mazmunini «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturiga binoan xalqaro me’yorlar va davlat talablari asosida integratsiyalashtirilgan zamonaviy axborot ta’lim bazasini ishlab chiqish;

• ta’limiy jarayonlarda zamonaviy ta’lim dasturlari va innovatsion pedagogic texnologiyalarni tatbiq etish orqali o‘quv-metodik resurslarning samaradorligini aniqlash;

• bola imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta’limiy faa oliyati natijalariga ko‘ra tarbiyalanuvchilarining bilim, malaka va ko‘nikmalarining sifat va samaradorligini innovatsion baholash tizimini aniqlash.

Barchamizga ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning asosiy faoliyat turi o‘yindir. Kun tartibini tuzishda kunduzgi uyqu, dam olish vaqti va sayrga chiqish vaqti hisobga olinadi. Aynan ta’lim tashkilotida to‘g‘ri tashkil etilgan kun tartibi bolalarning nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ yondashuv asosida bolalarlarning nutqini o‘stirish hamda tafakkurini rivojlantirishning tizimli tahlili shuni ko‘rsatdiki, ta’lim tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etishda mavjud muammolar qatoriga quyidagilar kiradi: Bolaning potentsial qobiliyatlarini rivojlantirishning boshlang‘ich bosqichi sifatida maktabgacha ta’lim tizimiga ta’sir qiladi. Maktabgacha ta’limni qayta tashkil etish, yangi sifat bosqichiga o‘tishni innovatsion texnologiyalarni rivojlantirmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qanday innovatsion texnologiyalar qo‘llaniladi? Bugungi kunga qadar bepoyon Vatanimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuzdan ortiq ta’lim texnologiyalari qo‘llanilmoqda. Ular orasida quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

• sog‘liqni saqlash texnologiyalari;
• loyiha faoliyati bilan bog‘liq texnologiyalar;
• loyiha faoliyatida foydalaniladigan texnologiyalar;
• axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
• har bir shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar (shaxsga yo‘naltirilgan);
• o‘yin texnologiyalari deb ataladi.

Ta’lim va tarbiyaning mazmuni, vositalari, metodlari bolalarning rivojlanish jarayoni, ularning yoshi bilan izohlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarlarning nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishda kundalik turmushimiz ajralmas qismiga aylanib borayotgan media, internet, televideniya, multfilm, kino, video, telefon kabi axborot texnologiyalari o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Axborot texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarining ijobiy jihatlariga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, mazkur texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarni bugungi axborotlarni qabul qilish, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatlarini shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Salbiy jihatlarini inobatga oladigan bo‘lsak ota - onalarning «bolalar tinch o‘tirishini maqsad qilib» kommunikatsiya vositalari, telefon, planshet, kompyuter texnologiyalari bilan doimiy band qilishlari, bolalarda tabiiy holatda «axborot texnologiyalari vositalariga qaramlik» holatini yuzaga keltirib, ortiqcha xar-xashalarga sabab bo‘lmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutq madaniyati va tafakkurini rivojlantirishda, tahlil etish, baholash va uzatish qobiliyatini shakllantirishda turli axborot texnologiyalaridan foydalanishimiz mumkin.

Konstruktiv faoliyat uning funktsional maqsadiga mos keladigan aniq, oldindan o‘ylab topilgan real mahsulotni olishga qaratilgan amaliy faoliyat. Ushbu turdagi faoliyat bolalar uchun qiyinchilik tug‘durishi mumkin. Bu holatda yoshi kattalarning badiiy va konstruktiv-texnik faoliyati bilan bog‘liqlikni aniqlashimiz lozim. Bu tuzilmalarning, inshootlarning amaliy maqsadi bilan tavsiflanadi. Qurilishni olib borayotganda, kattalar tomonidan o‘ylanadi, reja tuziladi, maqsadni, ish usulini, tashqi ko‘rinishni inobatga olib material tanlanadi, bajariladigan faoliyatlar ketma-ketligini belgilanadi. Bu elementlarning hammasi bolalar dizayni ko‘rinishida tasvirlangan. Bunda yechilishi lozim bo‘lgan konstruktiv muammolar ham mavjudki, bolalar qurilish materiallari asosan o‘yinda amaliy foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Konstruktiv faoliyatning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o‘yindek bolaning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondiradi. Yosh bolalar guruhida konstruktiv faoliyatni rivojlantirish muammosining dolzarbligi shunda ko‘rinadiki, jamiyat rivojlanishining ushbu bosqichida dizaynga yetarli vaqt va e’tibor berilmaydi, uslubiy yordam ham yetarli darajada emas.

Yosh xususiyatidan kelib chiqib bolalarda qurilish, qurilish materiallariga qiziqishni shakllantirish muammosi maktabgacha pedagogikada asosiy o‘ringa ega, chunki turli xil konstruktiv kreativlik bolalarga nafaqat atrofdagi dunyoni o‘rganishga, balki ularning qobiliyatlarini ham har tomonlama rivojlantirishga imkon yaratib beradi. Ammo, shu narsaga ahamiyat berishimiz lozimki, konstruktiv faoliyatning boshqa ta’lim yo‘nalishlari bilan bog‘liqlik jihatlari mavjud: aqliy rivojlanish,

nutqni rivojlantirish (bolalar konstruktiv qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalari aniqlanadi), masalan, aqliy rivojlanish sohasida bolalar ranglarni taniydilar, narsa va predmetlarning hajmi, shakli (koptok, stol, nok).

Har bir bola bir xil boshlang‘ich imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim. Bolaga yakka holda yondashuvni to‘g‘ri olib borish shartlaridan biri unga qo‘yiladigan talablarning birligidir. Yosh bolalarning konstruktiv faoliyatining xususiyatlari ta’limiy tamoyillarni inobatga olgan holda faoliyat jarayonini qurishdir: ko‘rinish, tasviriylik, foydalanish mumkinligi, qo‘llay olish mumkinligi, amaliyligi. Ushbu tamoyillarni amalda qo‘llash yorqin va o‘ziga jalb qiluvchi materiallar, ta’limiy o‘yinlar, o‘yinchoqlar, metodik jihatdan yaxshi qurilgan konstruktiv faoliyat, bolalar bilan ishlashning turli metodlarini birlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Kundalik turmushda konstruktiv faoliyatni tashkil etish ikkita asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi: tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikda ishlashi va mustaqil faoliyat sifatida. Kundalik rejimdagi faoliyat yukining hajmi tarbiyachining ish dasturi bilan belgilanadi, tashkilotning dasturidan kelib chiqib, yilining birinchi yarmida uzluksiz tarzda olib boriladigan uzluksiz mashg‘ulot faoliyati shaklida olib boriladi. Bunda uzluksiz mashg‘ulot faoliyatining davomiyligi 12-15 minutni tashkil etadi.

Qurilish buyumlaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda motorikalarini rivojlantirishga, shuningdek, ularning sensomotor ko‘nikmalarni yaxshilashga ko‘maklashadi. Dizayn maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining turli jihatlari uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Loyihalashda bolaning bilish jarayonlaridan idrok, obrazli tafakkuri, tasavvuri va fantaziyasi rivojlanadi. Bola makonni, narsa-buyumlarning rangi, shakli, hajmi kabi belgilarini idrok qilish, aqliy va ijodiy vazifalarni hal qilish, vizual modellarni qurish, o‘z his-tuyg‘ularini badiiy ramzlar orqali ifodalashni o‘rganadi.

III. Natija va tahlillar. Tadqiqot ishi yuzasidan amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining maqsadi kreativ yondashgan holda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish yuzasidan ilmiy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, amaliyotda qo‘llashdan iborat.

1) Tajriba-sinov ishlarida qatnashadiganlar misolida kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish holatini dastlabki baholashini olib borish;

2) Kreativ yondagan holda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini yorituvchi ishchi reja va maxsus dastur ustida ishlash hamda ularni tajriba maydonlarini shakllantirish orqali pedagogik amaliyotga tatbiq etish;

3) maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik-psixologik sharoitlarni aniqlashtirish;

4) Sinov ishlariga jalb etilgan metodist-tarbiyachilar tomonidan maxsus metodikaning amaliyotga mosligi va amaliy qiymatini baholovchi tahlilni tashkil etish, kerakli o‘rinlarda maxsus metodikani g‘oyaviy jihatdan yangilash;

5) Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlar, kreativ yondashuv asosida tarbiyalanuvchilar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaliklarini tajriba–sinov ishlari va undan keyingi davr bo‘yicha baholash.

6) maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayoni afzalliklarini tajribada asoslash.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda yuqorida belgilangan vazifalarni samarali hal qilishning mexanizmini ishlab chiqish diqqat markazda turadi.


«Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutq madaniyati va tafakkurini rivojlantirishda kreativ yondashuv» mavzusidagi ushbu ilmiy tadqiqot ishini olib borishda hamda tadqiqot yechimini topishda asosiy e’tiborni muammoning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratdik.

Ilmiy tadqiqot ishining mavzusi doirasida Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutq madaniyati va tafakkurini rivojlantirishda kreativ yondashuv bola faoliyati uchun dolzarbligi asoslandi, bolalar nutq madaniyati va tafakkurini rivojlantirishda oid pedagogik adabiyotlarni o‘rganildi, tahlil qilindi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy ishlarni rejalashtirishning mazmuni o‘rganilib, rivojlantiruvchi muhit negizidagi ta’limiy jarayonlardagi zamonaviy yondashuvlar, ta’limning interfaol, samarali usullari aniqlandi, bolalarning yosh xususiyatlari, imkoniyatlari va rivojlantirishga oid nazariy bilimlari ijtimoiy-pedagogik jihatdan o‘rganildi hamda faoliyatdagi rivojlantiruvchi bilimlarini shakllantirishning metodlari tajribada asoslandi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kreativ yondashuv asosida bolalar nutq madaniyati va tafakkurini rivojlantirishda ta’limiy, tarbiyaviy ishlarni shakllantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalarning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari yakunida shunga amin bo‘ldikki, ilmiy tadqiqot ishining mavzusi doirasida belgilangan maqsadning amaliyotdagi isboti, ta’limiy faoliyatlarda qo‘llanilgan metodlar va texnologiyalarning to‘g‘ri tanlanganligi, ilmiy tadqiqot vazifalarining aniqligi va faoliyatining puxta rejalashtirilganligi, tajriba-sinov ishlarining mazmunli, tizimli, izchil tashkil etilganligi bilan asoslanadi.

Tajriba - sinov ishlari dasturi mavzu doirasida olib boriladigan tadqiqot ishining umumiy mohiyatini ochib beradi. Tajriba sinov ishlaridavi vazifalarni belgilab oldik endi tajriba-sinov ishlarini tashkil etish yuzasidan belgilangan vazifalarni ijobiy hal etishda samarali yo‘llarini keltiramiz.

Ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishda tajriba-sinov ishlariga Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi 26-son Davlat Maktabgacha ta’lim tashkiloti tanlab olinib, faoliyatga jami 60 nafar bola jalb etildi. Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish holatini dastlabki baholadik. Buning uchun ikkita guruh tanlab olindi va bu guruh bolajonlari bilan suhbat, kuzatish, tashxislash ishlarini olib bordik.



1-rasm. Bolajonlarda kreativ yondashuv natijalari

Bolalarning dastlabki holatini aniqlash uchun, davlat talablarining beshta rivojlanish sohalari bo‘yicha yosh doirasida sinovlar o‘tkazildi. Sinov bolalarning mashg‘ulot jarayonlarida, erkin faoliyat davrlarida,

sayr faoliyatlarida, umuman olganda bir oy davomidagi barcha faoliyat turlari davomida kuzatilib, belgilab olindi. Bolalar tasodifiy tanlash usuli bilan bizga kerak bo‘lgan tajriba va nazorat guruhlariga biriktirilib, ajratib olindilar.

Biz belgilab olgan tajriba guruhlarida mashg‘ulotlar yuqorida keltirilgan kabi loyihali ta’lim asosida ya’ni yangi pedagogik texnologiyalar, didaktik o‘yin texnologiyasi, turli xildagi yuqorida aytib o‘tilgan maxsus ishlab chiqilgan metodlar, multimedialar, multistudialar va eng muhimi yuqori talab darajasida jihozlangan rivojlanish markazlarida olib borildi. Bola shaxsida qaratilgan kreativ yondashuvli va faol integratsiyalashgan faoliyat asosida tashkil etildi va olib borildi. Tajriba guruhlarida beshta faollik markazlaridan tashqari turli xil yo‘nalishdagi burchaklar hamda bolalarning tajribalar o‘tkazishi uchun maxsus STEAM laboratoriya xonasi tashkil etildi.

Tajriba avvalidagi davlat talablarining beshta rivojlanish sohalari bo‘yicha bolalar bilimini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan sinov

Guruhlar	Bolalar soni	Dastlabki bilim darajasi				
		Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishi	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari	Bilish jarayoni ning Rivojla nishi	Ijodiy rivojlanish
Tajriba guruhi	30	60	55	55	60	55
Nazorat guruhi	30	60	50	50	50	55

3.1.2-jadval.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichi davlat talablarining beshta rivojlanish sohalari bo‘yicha bolalar bilimining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

Guruhlar	Bolalar soni	Yakuniy xulosa				
		Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllan-ishi	Ijti-moiy-his-siy rivojlan-ish	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malaka-lari	Bilish jarayoni ning Rivojla nishi	Ijodiy rivojlan-ish
Tajriba guruhi	30	75 **(15%)**	80 **(25%)**	85 **(30%)**	80 **(20%)**	80 **(25%)**
Nazorat guruhi	30	60	55	60	65	60

Xulosa.

1. Bilamizki, insoniyatning taraqqiy etishi ko‘p asrlik tarixga ega. Har bir xalq, millat hayotidagi yuksalish hamda ma’naviy uyg‘onish jarayonlari milliy o‘zlikni anglashga olib keladi va mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichlarga olib chiqadi. Biz bu hodisani ikkilanmay uyg‘onish, qayta tiklanish, yuksalish, aniqroq qilib aytganda, ijtimoiy noyob hodisa Renessans - deb ataymiz.

2. Bugungi kunda yurtimizda yana bir muhim uyg‘onish «Yangi O‘zbekiston»ni barpo etish jarayoni kechmoqda. «Yangi O‘zbekiston» va «Uchinci Renessans» tushunchalari mamlakatimiz uzra o‘zaro uyg‘un baralla yangramoqda. Bu esa xalqimizni, kelajagimiz poydevori yoshlarimizni ulig‘ maqsadlar sari etaklamoqda.

3. «Yangi O‘zbekiston» - bu, avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha g‘oyalar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir. Yangi O‘zbekistonni barpo etish tariximizni, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni chuqur anglash, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy ma’rifiy rivojlanish jarayonida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom barkamol avlodni tarbiyalash jamiyatning milliy vazifasiga aylandi.

Respublikamizning jahondagi taraqqiy etgan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi uchun, bugungi zamonaviy ta’lim jamiyat oldiga yoshlarni teran va mustaqil fikrli, yuksak salohiyatli, raqobatbardosh, mustahkam irodali, kuchli tafakkurli jahon andazalariga, zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan, innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan kuchli qurollangan maqsadli yoshlarni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘ydi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish, barcha sohalarni chuqur islohotlar maydoniga aylantirdi. Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, o‘zgarishlar, yangilanishalar jamiyatimiz oldiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lgan ta’lim tizimini yanada takomillashtirish hamda kelajak avlodni zamon talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh, mustahkam bilimli, kuchli irodali, yuksak salohiyatli barkamol shaxs etib tarbiyalash, ular ongiga mustaqillik, g‘urur kabi g‘oyalarini singdirish, mustahkam immunitetli insonni shakllantirishdek oliy, murakkab shu bilan birga dolzarb vazifalarni, maqsadlarni qo‘ymoqda.

Yosh avlodini yangicha fikrlashga, kreativlikka, yangi g‘oyalar, tashabbuslar bilan o‘rtaga chiqadigan, mustaqil fikrli, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal eta oladigan, bilimli, innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san’at va sport sohasidagi iste’dodli va salohiyatini yuzaga chiqarishi, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Ushbu masalalarni muvaffaqiyatli hal etishda uzluksiz ta’limning ilk bo‘g‘ini bo‘limish maktabgacha ta’limga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilorlarida bolalarni har tomonlama kamol topishi uchun xizmat qiluvchi kelajagimiz poydevori bo‘lmish yosh avlodni yetuk shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur bo‘lgan barcha manbaalarni o‘z ichiga oluvchi, bola shaxsini to‘laqonli rivojlantirishni ta’minlovchi yaxlit bir tizim sanaladi. Unda bola o‘sadi, ulg‘ayadi, o‘rganadi, his etadi, o‘rgangan bilimlarini amaliyotda qo‘llab ko‘radi, olam, atrof-muhit haqida bilimga ega bo‘ladi, hamkorlik, ixtirolar, ijobiy munosabat kabi fazilatlar takomillashib boradi. Shuningdek, bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida munosib o‘rniga ega, zamon talablari darajasida jismoniy, estetik, aqliy va ijtimoiy tarzda to‘liq rivojlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni nutqni o‘stirish va tafakkurni rivojlantirish, zarur predmetlaridan biri sifatida tan olingan. Nutq o‘stirish va tafakkurni rivojlantirish -inson ijodiy faoliyatini butun maqsadli amalga oshiradigan pedagogik jarayonidir. Uning maqsadi - bolalarni sog‘lom va teran fikrlashga o‘rgatish, tafakkurini rivojlantirish, ularni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlash, hayotdagi o‘z o‘rinini topa olishlariga yordam berishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni //O‘RQ-637-son 23.09.2020.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi»gi 595-sonli Qonuni.2019 yil 17-dekabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–60-son Farmoni https://lex.uz/pdfs/5841063.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son «2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-6108-son Farmoni https://lex.uz/docs/5085999.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmoni// lex.uz/docs/4312785.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 sentabrdagi «Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4467-sonli Qarori// O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy web sayti.

9. O‘zbekiston Respublikasi «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari»-2018 yil 3 iyul. Registr № 3032.

10. Evstaf’yeva L, Nabixanova Sh, Pak S.I va boshqalar «Maktabgacha ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya faoliyatini mavzuli rejalashtirish» Tayyorlov guruhi. «Ilk qadam » dasturiga ilova Toshkent. 2018 yil.

11. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova »Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi T: 2022. 1-81-b.

12. Bolalar xuquqlari to‘g‘risida Konvensiya, 29 bet Maslahatchi Plyus.

http://education.simcat.ru/school61/files/1453581184_konvenciya-_o_pravah_rebenkapdf.

13. Mirziyoyev Sh.M. «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz:. - T.: «O‘zbekiston», 2017 y., - 592 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. «Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz» T.: O‘zbekiston, 2017. 242b.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0005-2570-1588

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: (qayta yozish kerak) Mazkur maqolada maktabgacha ta’limda o‘quv-tarbiya jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlanish sohalarda olib borilgan tajriba-sinovlar va mashg‘ulotlar mobaynida o’tkazilgan metodlarning bolalar shaxsiy sifatlarini rivojlanishiga, mustaqil fikrlashga ta’siri va ijodiy faoliyatga jalb etish imkoniyatlarini kengaytirishi haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tajriba, intellektual salohiyat, integratsiya, innovatsiya, multimediya, kasbiy faoliyat, perseptiv qobiliyat, faollik, muvaffaqiyat.

Kirish

Bugungi kunda respublikamizning jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi uchun, shiddat bilan rivojlanib borayotgan ta’lim jamiyat oldiga kelajak poydevori bo‘lgan yoshlarni axloqiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy yetuk mustaqil fikrlovchi barkamol avlod qilib voyaga yetkazish, ularning dunyoqarashini o‘zgartirish, tanqidiy fikrlovchi, bilimli va salohiyatli, immuniteti mustahkam, zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan qurollangan, innovatsion-kompetentli, maxsus qobiliyatli, irodali yoshlarni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘ydi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish bugungi kunning diqqat e’tiborida turgan dolzarb masalalardan biridir. So‘ngi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada yaxshilash va rivojlantirish maqsadida qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta’limga bosqichma-bosqich to‘liq qamrab olishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida«gi farmoni Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimining yangi mazmuni yaratildi. 2016 yil dekabr oyida qabul qilingan PQ-2707-son «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori ham maktabgacha ta’lim tizimiga qo‘yilgan ilk qadam bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, umumiy aytganda, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun pedagog va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va salohiyatini oshirish borasida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Maktabgacha talimda sifatli ta’limni joriy etish maqsadida davlat talablari va unga asoslangan holda «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi ishlab chiqildi. Jahon tajribalari asosida hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metodlar asosida ta’limni joriy etish, ma’nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashni maqsad qilib qo‘ydi.

Sifatli maktabgacha ta’limni tashkil etishning asoslaridan biri – intellektli pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning innovatsion kasbiy tayyorgarligi muhim omil bo‘ldi. Mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli ishlar olib borildi. Masalan, oliy ta’lim muassasalariga «Maktabgacha ta’lim» bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha qabul kvotalari oshirildi, mazkur yo‘nalishda o‘qish muddati uch yilga qisqartirildi.

Respublikamizda o‘tgan davr mobaynida o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya metodlari va usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish, qulay shart-sharoitlarning yaratilishi, ya’ni ta’limiy rivojlantiruvchi muhit yaratilishiga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash, malakali, kasbiy salohiyatli pedagog kadrlar bilan ta’minlash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta’lim dasturlari tatbiq etish, bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash, bolalarni har tomonlama bilimli, immuniteti mustahkam, intellektual salohiyatli, o‘zini anglagan, tanqidiy fiklash qobiliyatiga ega, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun etarlicha shart-sharoitlar, ta’limiy muhit yaratishga muhim masala sifatida diqqat qaratilmoqda.

Mamlakatimizda rivojlangan davlatlar ya’ni xorijiy tajribalariga tayangan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yangi shakllari tashkil etilayotganligini guvohi bo‘lyapmiz. Respublikamizning chekka hududlari, aholi siyrak joylashgan hududlarida bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish, sifatli ta’lim berish maqsadida rivojlantiruvchi ta’limiy muhit yaratilgan, har tomonlama talablar darajasida jihozlangan mobil bog‘chalar tashkil etilmoqda.

Barkamol shaxsni kamolga yetkazish yo‘llari, qonun-qoidalari bilan ota-bobolarimiz azal-azaldan alohida e’tibor qaratib, muttasil izlanganlar. Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Imom al-Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Iso at-Termiziy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Alisher Navoiy singari ulug‘ olimu adiblar, fozilu-fuzalolar ta’lim-tarbiya jarayonlarini targ‘ib etib, ko‘p asarlar bitganlar. Bu kabi boy meroslar bugungi kunda pedagoglar uchun bitmas zahira sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. Sharq pedagogikasining asoschilari Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Kaykovusning «Qobusnoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘ubilig» kabi asarlar bunga dalildir.

Dunyo tan olgan olim, bobomiz Ibn Sino insonlarni kamolotga eltuvchi bosh mezon - bu bilim egallash ekanligini ta’kidlaydi. Ilmsiz insonlar johil bo‘lishadi, ular haqiqatni bila olmaydigan, yetuk bo‘lmagan kishilar deydi. Ibn Sino bolalarga ta’lim berishda oddiydan-murakkabga borish orqali bilim berish, olib boriladigan barcha faoliyatlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi, bilim berishda bolalarning qiziqishi, imkoniyatlari va qobiliyatlarini inobatga olish, o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan, harakatlar bilan olib borish samarali bo‘lishini aytib o‘tadi.

Rus pedagogi K.D.Ushinskiyning «Inson tarbiya predmeti sifatida», «Ona tili», «Bolalar dunyosi» kitoblarida olimning pedogogik nazariy qarashlari, ta’limning ko‘rgazmaliligi va uning ta’limiy faoliyatdagi samarasi, ongli va uzviy olib borish masalalari ishlab chiqilgan. Bugungi kunda bu ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitning tashkil etilishida mahorat maktabi vazifasini o‘taydi.

Yan Amos Komenskiy (1592-1670) Pedagogika sohasiga katta hissa qo‘shgan chex pedagogi, olimi - «Buyuk didaktika» pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar muallifi. Bundan tashqari «Onalar maktabi» nomli Maktabgacha ta’lim qo‘llanmasi, shunga o‘xshash bir qtor kitoblari diqqatga sazovordir.

Komenskiy o‘zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lishi to‘g‘risidagi tushunchani ilgari suradi. Bog‘bon daraxt parvarishida ularning biologik o‘sish xususiyatlarini inobatga olgani kabi, pedagog bolani tarbiyalaganda undagi tabiiy bilish xususiyatlarini, bolaning bor imkoniyatlarini, bolaning qobiliyatini inobatga olishi shart, deydi. Komenskiy o‘qishga hammaning jalb qilinishini, hamma umumta’lim olishi kerakligini uqtiradi. [1]

L.S.Vigodskiy (1896-1934) psixologi olim, maktabgacha ta’limning dasturiyligi masalasi ilgari suradi. U 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan

[1] Maktabgacha pedagogika. [Matn] darslik / F.R.Qodirova - Xalqaro pedagogika Akademiyasining akademigi, professor, p.f.d., Sh.Q-Toshpulatova - dotsent, N.M.Kayumova - dotsent, M.NA’zamova - Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019.- 688 b

bolalarga mo‘ljallangan ta’limning muntazamlilik prinsipini asoslab beradi hamda, 3-7 yoshli, ya’ni maktabgacha yosh davrining o‘qish dasturi maktab ta’limi dasturlaridan farqini izohlab yoritib berdi.

O‘qitish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda shu yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan va katta yoshli kishilar faoliyatiga kirgan - bilish hissi, obrazli tafakkur kabi qobiliyatlarini rivojlantirish g‘oyalarini A.V. Zaporojes va N.N.Podyakovlar ilmiy jihatdan tadqiq qildilar. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’limiy jarayonni, rivojlantiruvchi muhitni rivojlantiruvchi hisoblanadi.

Bola qiziqishlari va imkoniyatlari himoyalashning nazariy-amaliy xususiyatlarini ochish, rivojlanayotgan shaxsni pedagogik-psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashning zarurligi, ta’limiy faoliyatning tashkil etilishi, rivojlantiruvchi muhit haqidagi fikrlar aksariyat pedagog va psixologlarning ishlarida aks ettirilgan. Jumladan, A.Xoliqov, E.A.Migranova, Sh.X.Pozilova, F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M..Kayumova, M.N.A’zamova. E.G‘oziev, A.Davletshin, R.Safarova, B.Adizov, I.P. Ivanov, Sh.A. Amonashvili, A.V. Mudrik va boshqalar. Ayniqsa, O.S.Gazman, D.Yo‘ldoshevalar maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyat doirasida mazkur muammoga alohida e’tibor qaratganlar.

Metodologiya va metodlar

Bugungi kunga kelib, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, undagi muammolar, ta’limiy faoliyatlar, pedagoglarning didaktik imkoniyatlar, rivojlantiruvchi muhitning bola kamolotidagi ta’siri, tarbiyalanuvchilar uchun yaratilayotgan inklyuziv imkoniyatlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, metodlar, pedagogik ta’limiy vositalar tadqiqotchilar diqqat markazidagi global mavzularga aylandi. Va bu o‘z navbatida o‘sish, yuksalish, ta’limdagi tub burilish, tarbiyalanuvchilarning intellektli, tanqidiy fikrlovchi, e’tiqotli, erkin fikr va tashabbusga ega keng dunyoqarashli bo‘lib ulg‘ayishida shaksiz xizmat qilyapti.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mujassam rivojlantirish bugunning ustuvor maqsadiga aylangan bo‘lib, ularda tasavvurlar, tushunchalar, so‘z boyliklarini kengaytirish, atrof-muhit haqida ma’lumotlar berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Rivojlantiruvchi muhitning yaratilishi, innovatsion jarayonlarning keng amalga oshirilishi bolalarni har tomonlama pedagogik qo‘llab-quvvatlash va intellektual rivojalanishi uchun zamin yaratmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachi-pedagoglari maktabgacha ta’lim jarayonini, ya’ni rivojlantiruvchi muhitning yaratuvchisi, bolalarni qo‘llab-quvvatlash va intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan modelini izlab topib faoliyatda uni o‘rinli qo‘llay oladigan ideal shaxs sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mahoratli, kasbiy salohiyatli pedagog ta’lim-tarbiyada qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullar, metodlarni chuqur anglamog‘i, maqsadli, qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lmog‘i lozim. Tarbiyach-pedagog har bir bolaning ruhiy rivojlanishini tashxislashning turli xildagi metodikalarini mukammal bilishi va baholay olishni bilishi muhim ahamiyatli sanaladi. Ular zamonaviy insonparvarlik konsepsiyalarni bilishi va shaxsiy kamolot tarbiyasi usullarini egallagan bo‘lishlari zarur.

Yuqorida sanab o‘tilgan murakkab va rang-barang ushbu pedagogik jarayonlar bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ta’lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatlarining xilma-xil turlari: mashg‘ulotlarda, markazlardagi ta’limiy jarayonlarda, bolalarning ijodiy faoliyatlarida, o‘yinlarda, bolalarning mustaqil faoliyatlarida, kattalar mehnati bilan tanishtirish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, sayr faoliyatlari, turli xildagi tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Ta’lim tizimining sifati, tenglikni ta’minlashdagi adolatlilik va samaradorlikni oshirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inson kapitalini shakllantirish asoslarini kuchaytirishga, ayniqsa, ta’lim-tarbiya berishni keng qamrovli va yaxlit tarzda tarmoqlararo takomillashtirishga imkon beradigan sifatni ta’minlash tizimini yaratish juda muhimdir.[2]

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim jadal rivojlanayotgan ta’lim sohasi bo‘lib, nafaqat mamlakatimizda balki butun dunyo ta’lim sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Shu bois respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimining yanada takomillashuvi uchun, raqobatbardoshlikni, sifatni maksimal darajaga ko‘tarish maqsadida Davlat o‘quv dasturiga (2018-yil) o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish hamda ikkinchi nashrini yaratish zarurati tug‘ildi. «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashr[3] yaratildi.

Ushbu davlat o‘quv dasturini amalga oshiruvchi ta’lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilar bola shaxsiga hurmat ko‘rsatishi hamda ta’lim-tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil etishi ahamiyatlidir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilari bolalarga ta’lim va tarbiya berishda o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalariga tayanadi. Trabiyachi ta’lim va tarbiya jarayonini «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturiga muvofiq rejalashtiradi hamda tarbiyalanuvchilarning har tomonlama rivojlanishiga va ularning imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda, salohiyatini yanada yaxshilashda hissa qo‘shadigan rivojlantiruvchi muhitni yarata olishi lozim.

«Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida quyidagi rivojlantiruvchi markazlari tashkil etildi va o‘zining ijobiy samarasini berib kelayapti:

- qurish va konstruksiyalash, matematika markazi;
- syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi;
- til va nutq markazi;
- fan va tabiat markazi;
- san‘at markazi.

Bunda tarbiyachi-pedagog tarbiyalanuvchilarning o‘ziga xoslik jihatlari va imkoniyatlarini, ularning rivojlanish xususiyatlarini, his-tuyg‘ularini, ehtiyojlari va qiziqishlarini anglagan holda, har bir bolaga individual yondashishi ahamiyatlidir.

Rivojlanish markazlari tarbiyalanuvchilarga shaxsiy kompetensiyalari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda dinyoviy bilimlarni, ta‘limni individual o‘zlashtirish imkonini beruvchi mahorat maydonchasi sanaladi.

Tarbiyachi guruhda shunday inklyuziv muhit yaratishi kerakki, unda har bir bola o‘zini ardoqli, qobiliyatli va ta’limiy jarayoniga, ta’limiy muhitga to‘liq jalb qilingandek his qilishi lozim. Masalan, quyidagi mashqlarni qo‘llash bilan bolalar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish mumkin.

«Mehmonlarni kutib olamiz» mashqi. Ertaklar olamining mashhur qahramonlari moviy rang havo sharida guruhga mehmonga kelishadi. Ular orasida Buratino, Egrivoy va To‘g‘rivoy, Zumrad va Qimmat, Kenja botir, Qizil qalpoqcha singari qahramonlar bor. Ularning yoshi va ko‘rinishi turlicha bo‘lganligi sabab, o‘ziga mos tarzda kutib olish lozim.

[2] Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha uslibiy qo‘llanma. Toshkent-2020. Dipa Shankar, PhD. YNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi Ta’lim sho‘basi boshlig‘i.

[3] «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashr. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan.

Mehmonlarni kutib olish jarayonida mimika, qo‘l harakatlaridan foydalanishga quyidagi qoidalarga amal qilish so‘raladi. Bu metod aynan o‘zbekonaligimizga mos, bolalarda milliy madaniyatni targ‘ib etadi, ularni qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

- salomlashish odobi;
- mehmonnig yuziga ochiq chehra bilan qarash;
- mehmonga ikrom ko‘rsatish;
- boshini biroz eggan holda holda tabassum qilish;
- mehmon kutib olish va kuzatishda qo‘llaniladigan so‘zlardan foydalanishga o‘rgatish.

Faoliyat davomida kelgan mehmonlar turli davlatlardan bo‘lishi ham mumkin. Bunda bolalarga qahramon mansub bo‘lgan xalq tilida salomlashish o‘rgatiladi.

Avzalligi: Bolalarni mehmon kutishning o‘ziga xos qoidalari bilan tanishtirish, bunda faol kundalik muloqot vositalaridan foydalanish, bolada mehmondo‘stlik xislatini shakllantirish. Bolalarni ijtimoiy hayotga har tomonlama tayyorlashdan iboratdir.

Qiyinchiliklari: Ayrim bolalarda kommunikativ qobiliyat yaxshi shakllanmagan, shu sababali ertak qaxramonlari bilan munosabatga kirishishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bolalarda mehmonlarni kutib olish jarayonidagi mimika, qo‘l harakatlaridan foydalanish biroz qiyinroq kechishi mumkin.

«Aks ertak» mashqi. Tarbiyachi bolajonlardan sevimli ertagi qaysiligi haqida so‘raydi. So‘ngra ertakni ikki so‘z bilan uning sujetini eslab qolish lozimligini aytadi. Ertangi kundagi mashg‘ulotda yoki kunning ikkinchi yarmidagi ta’limiy faoliyatlarda ertakni eslab qolinganlik holatini bilish maqsadida u, eslab qolgan ikki so‘z orqali hikoyani boladan so‘zlab berishini so‘raydi.

Avzalligi: Bu metod bolaning tafakkurini rivojlantiradi, aqliy faoliyatini, xotirasi va dunyoqarashini kengaytiradi. Idroki, eslab qolish qobiliyatini, fikrlar teranligi kabi xislatlarini yanada mustahkamlaydi.

Qiyinchiliklari: Bola tabiatida shoshqaloqlik, diqqatsizlik borligi sababli u ertak uchun eslab qolgan ikki syujet nomini unutishi yoki boshqa ertak bilan almashtirib qo‘yishi mumkin.

Bu kabi innovatsion metodlar, o‘yinlar, turli xildagi usullar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitdagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning eng muhim hegizi sanaladi.

Respublikamizning ta’lim sohasiga e’tibor yanada kuchaytirilgan bir vaqtda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bugungi kun ta’limiga zamonaviy yondashuv STEAM texnologiyasidir. STEAM texnologiyasidan nafaqat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida balki, barcha ta’lim muassasalarida ta’limning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida keng foydalanib kelinmoqda.

STEAM texnologiyasi ta’limi murakkab ko‘rinishi mumkin ammo, uni alohida ko‘radigan bo‘lsak juda sodda, tushunarli va aniq ekanini ko‘rishimiz mumkin:

S - science - tabiiy fanlar
T - technology - texnologiya
E - engineering – muhandislik
A - art - san’at
M - math - matematika.

Qaysi sohalarni olmaylik muvaffaqiyat qozonishda yuqori bilim talab etiladi. Aynan bu texnologiya muvaffaqiyat erishishda yordam beruvchi kalit hisoblanadi. STEAM texnologiyasida nazariya va amaliyotni birga olib borish imkoni beriladi shu bilan birga bolaning egallagan bilimlariga asoslanib, undan maqsadli, o‘rinli foydalanish, mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishish, o‘z natijalari va imkoniyatlaridan zavqlanishga yo‘l ochib beradi. STEAM texnologiya bilimlarni amaliyotda qo‘llash, loyihalarni, tajribalarni faoliyatda amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir.

Bu dastur eng qulay dastur sanalib, maktabgacha ta’lim va maktab yoshdagi bolalar faoliyatida samarali qo‘llanilib kelinmoqda. STEAM texnologiyasi asosida ta’lim-tarbiya ishlarining tashkil etilishi, matabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni aynan bu texnologiya asosida joriy etilishi, kelajakda bolalarning ijodiy kamolotiga va ularning innovatsion tadqiqotlarni mustaqil ravishda amalga oshira olishiga turtki bo‘ladi.

STEAM texnologiyasini rivojlantirish markazlaridagi ta’limiy faoliyatlarda qo‘llanilishdan maqsad - bolalar faoliyatida zamonaviy texnologiyalaridan o‘rinli foydalangan holda, bolalarning dunyoqarashini shakllantirish, ilmiy salohiyatini oshirish va texnik ijodkorlikka keng jalb qilish, shaxsiy imkoniyatini ochib berish hamda intellektual qobiliyatini, ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgandir.

Texnologiyada ma’lum bir cheklovlar, chegara, tartib, qoidalar belgilab qo‘yilmagan. Bunda bola mustaqil, erkin ravishda bilimlariga tayangan holda tajribalar, ixtirolarni o‘zi bajarib ko‘rib natijaga erishishi, ko‘rishi, his etib, fikrlab, idrok etib bajarish kerak bo‘ladigan tamoyillarga tayanadi.

«To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim - bolani rivojlanish sari yetaklaydi»- deydi L.S.Vygotskiy. Bolaning faolligi muhim sanalgan bu texnologiyada qandaydir bir g‘oya yoki tushuncha yoki fikrlar bola aqlining rivojlanishi uchun asos bo‘la olmaydi. STEAM texnologiyasida faoliyat ishtirokchilari barchasini amaliyotda o‘zilari qo‘llab, ishonch hosil qilib, natijaga o‘zlari guvoh bo‘lishlari, bajarib, his etib, ko‘rishlari lozim. Chunki ta’limiy faoliyatda manipulyatsiyalash va integratsiyalashgan haqiqiy zamonaviy rivojlantiruvchi muhit va bolalar bilan birga olib borilga ixtirolar, tajribalar bolani ta’limga jalb etadi va ilmga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi. Bu esa o‘z navbatida so‘zsiz ta’limda sifat va samaradorlikni yaxshilaydi.

Bu texnologiyada ta’lim ishtirokchilari bilan faoliyat olib borilar ekan ularning yosh jihatlari, imkoniyatlari inobatga olinishi, bola uchun har bir jarayonlar aniq va tushunarli, oddiydan murakkabga qarab tizimlashtirilgan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Tarbiyachi bu tamoyillarga asoslanib ishni tashkil etadigan bo‘lsagina, ko‘zlangan natijaga erishiladi va jarayonlar bola uchin qiyunchilik tug‘dirmaydi, oson, qulay, qiziqarli, mazmunli, eng asosiysi bolaga mustaqil ravishda o‘z tajribalarini amalga oshirish imkonini beradi.

STEAM texnologiyasi tajriba maydonchasi sanalib, 3 yoshdan 11-yoshgacha bo‘lgan bolalarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularda ijodiy qobiliyat, intellektual salohiyatini oshirish, tadqiqotchilik qobiliyatni amaliyotlar bilan hamohang rivojlantirish uchun xizmat qiladi va ilmiy-texnologik ijodkorlikka jalb qiladi.

Bolalar ulg‘aygan sari uning qiziqishlari orta boshlaydi, atrofni anglaydi va savollar bera boshlaydi, kattalar va tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlari faollashadi. Ta’limda mohirona qo‘llanilgan bu texnologiyada bola har tomonlama intellektli, erkin fikrli bo‘lib namoyon bo‘la boshlaydi. Bola o‘z imkoniyatlariga va o‘z bilim, ko‘nikmalariga tayangan holda, o‘z qarorlarini qabul qilishga, o‘yin, ta’limiy faoliyat, muloqot va tadqiqot faoliyatlarida tashabbuskor bo‘lib, o‘z mustaqilligini namoyon qila boshlaydilar.

STEAM texnologiyasining ta’limdagi samaradorligini yanada oshirish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ta’limga, yangiliklarga, tajribalarga, ixtirolarga bevosita keng jalb etish maqsadida maxsus laboratoriya xonalari, turli yo‘nalishlardagi to‘garaklar, ijodiy musobaqalar, maxsus o‘yinlar hamda bu faoliyatlarni zamonaviy axborot kommunikativ texnologiyalar asosida tashkil etish muhim ahamiyatli sanaladi.

STEAM texnologiyasini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'rinli qo'llash maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning quyidagi muhim xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi:

- muammoli vaziyatlarni aglash va echim topa olish
- ijodiy fikrlash va kreativlik
- muhandislik yondashuv
- tanqidiy va erkin fikrlash
- tashabbuskorlik
- ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash
- dizayn asoslarini tushunish.

Bolalardagi bu kabi ko'nikmalarni mustahkam shakllanishi keyingi ijtimoiy muhitlarning muvaffaqiyatli kechishida, kelajakda bolalarga turli masalalarda to'siqlarga duch kelganda hamda hayotiy barcha muammolarni hal etishda yordam beradi. STEAM texnologiyasi bolalarni ixtirolar, tajribalar qilishga, bilimlariga asoslanib mustaqil ravishda loyihalar yaratishga, tashabbus bildirish, g'oyalarini ilgari surishga, ijodkorlikka undaydi. Ushbu texnologiya bolalarga nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish hamda amaliyot bilan samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yana bir keng tarqalgan metorlardan biri bu - maktbgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning intellektual salohiyatini oshiruvchi, ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi TRIZ texnologiyasidir.

Bolalarda kreativlikni, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning eng samarali pedagogik texnologiyalaridan biri bu TRIZ dir. TRIZ - ta'limda ixtirochilik muammosini hal qilishga qaratilgan bo'lib, taniqli rus ixtirochi olimi Genrix Saulovich Altshuller tomonidan asos solingan. TRIZ - bola va pedagog o'rtasidagi kuchli hamkorlik, ularni faol, samarali ijodiy fikrlashga undovchi betakror usuldir. TRIZ ning maqsadi bolalarda tashabbuskorlik, loyihalar, asl g'oyalarni izlab topish, yangilikka intilish, faollik, ularning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, ijodkorlikka o'rgatish kerakligini isbotlovchi vositadir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalanishga mo'ljallangan innovatsion texnologiyalaridan biri ta'limiy multimedia texnologiyasi hisoblanadi. Multimedia texnologiyasi zamonaviy axborot texnologiyasining tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, quyidagi tashkil etuvchilaridan iborat: matn, jadval, grafika, musiqa, bezak, animatsiya, audio, video. Ta'limda multimedia texnologiyasi va vositalaridan foydalanish uslubi «multimediaviy hujum» uslubi deb nomlandi.

Ta'limiy multimedia texnologiyasida ta'lim jarayoni «multimediaviy ujum» metodi asosida amalga oshiriladi, ya'ni bu jarayonda maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilarining miyasiga bir vaqtning o'zida multimedianing kamida uchta tashkil etuvchisi - audio, video va animatsiya orqali ta'sir etilishidan iborat. Shunga ko'ra, ta'limiy multimedia texnologiyasini maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga mo'ljallangan innovatsion texnologiya deb qarashimiz mumkin[4].

Natija va tahlillar

Ilmiy tadqiqot ishining mavzusi doirasida belgilangan maqsadning amaliyotdagi isboti, ta'limiy faoliyatlarda qo'llanilgan metodlar va texnologiyalarning to'g'ri tanlanganligi, ilmiy tadqiqot vazifalarining aniqligi va faoliyatining puxta rejalashtirilganligi, tajriba-sinov ishlarining mazmunli, tizimli, izchil tashkil etilganligi bilan asoslanadi.

Tajriba - sinov ishlari dasturi mavzu doirasida olib boriladigan tadqiqot ishining umumiy mohiyatini ochib beradi.

Ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishda tajriba-sinov ishlariga Vobkent tumanidagi 17-son DMTT tanlab olinib, faoliyatga jami 50 nafar bola jalb etildi. Bolalarning dastlabki holatini aniqlash uchun, davlat talablarining beshta rivojlanish sohalari bo'yicha yosh doirasida sinov o'tkazildi. Sinov bolalarning mashg'ulot jarayonlarida, erkin faoliyat davrlarida, sayr faoliyatlarida, umuman olganda bir oy davomidagi barcha faoliyat turlari davomida kuzatilib, belgilab olindi. Bolalar tasodifiy tanlash usuli bilan bizga kerak bo'lgan tajriba va nazorat guruhlariga biriktirilib, ajratib olindilar.

Tajriba guruhlarida mashg'ulotlar loyihali ta'lim asosida ya'ni yangi pedagogik texnologiyalar, turli xildagi yuqorida aytib o'tilgan maxsus ishlab chiqilgan metodlar, multimediyalar va eng muhimi yuqori talab darajasida jihozlangan rivojlanish markazlarida olib borildi. Bola shaxsida qaratilgan yondashuvli va faol integratsiyalashgan faoliyat olib borildi. Tajriba guruhlarida beshta faollik markazlaridan tashqari turli xil yo'nalishdagi burchaklar hamda bolalarning tajribalar o'tkazishi uchun maxsus laboratoriya xonasi o'rin egallagan.

Nazorat guruhlarida ham faollik markazlari mavjud, jihozlangan, mashg'ulotlar tajriba guruhiga nisbatan farqli, atroflicha metodlar bilan mustahkamlangan, bolalar tajriba va ixtirolar o'tkazishlari uchun maxsus laboratoriya xonalari mavjud emas. Guruhga odatdagi burchaklar mavjud.

Bolalarga mahoratli pedagoglar tomonidan ta'lim-tarbiya ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari yakunida quyidagicha yutuqlarga erishildi.

Har ikkala guruh bolalari davlat talablarining beshta rivojlanish sohalari bo'yicha, reyting nazorati talabiga muvofiq baholandi, ya'ni:

1. 55 - 70 ball - 3 baho.
2. 71 -89 ball - 4 baho.
3. 90 - 100 ball - 5 baho.[5]


1-jadval

Tajriba avvalidagi davlat talablarining beshta rivojlanish sohalari bo'yicha bolalar bilimini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan sinov

Guruhlar	Bolalar soni	Rivojlanish sohalari *(foiz kesimida)*				
		Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari	Bilish jarayonining rivojlanishi	Ijodiy rivojlanish
Tajriba guruhi	**25**	60	55	55	60	55
Nazorat guruhi	**25**	60	50	50	50	55

[4] Бегматова Н.Х. Мактабгача таълимда инновацион ёндашув. // Замонавий таълим/Современное образование, 2019, 2(75)

[5] Izoh: O'rtacha qiymat chiqarish uchun biz ularni shartli ravishda «yuqori», «o`rta», «quyi» darajalarga ajratdik.




1-rasm. Tajriba va nazorat guruhining dastlabki sinov tahliliy natijalari foiz kesimida

2-jadval

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichi davlat talablarining beshta rivojlanish sohalari bo'yicha bolalar bilimining o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Guruhlar	Bolalar soni	Rivojlanish sohalari *(foizr kesimida)*				
		Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllanishi	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari	Bilish jarayoni ning rivojlanishi	Ijodiy rivojlanish
Tajriba guruhi	25	80	75	80	80	85
Nazorat guruhi	25	65	55	60	65	60



2-rasm. Tajriba va nazorat guruhining tajriba-sinov ishlarining yakuniy natijalari foiz kesimida

Tajriba-sinov natijalari shundan dalolat beradiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit bolalarning samarali faoliyati uchun dolzarbligi asoslandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy ishlarni yuqori saviyada rejalashtirish, rivojlantiruvchi muhit negizidagi rivojlantiruvchi markazlardagi ta'limiy jarayonlarda zamonaviy yondashuvlar, ta'limning interfaol, samarali usullari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan, yangicha metodlardan, bolalarning yosh xususiyatlari, imkoniyatlari va rivojlantirishga oid jihatlarni anglagan holda, bola shaxsiga individual yondashish, uning har tomonlama rivojlanishida xizmat qilishini isbotladi.

Tajriba guruhidagi bolalar jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllanishi bo'yicha 20%, ijtimoiy-hissiy rivojlanish bo'yicha 20%, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari bo'yicha 25%, bilish jarayoni ning rivojlanishi bo'yicha 20%, ijodiy rivojlanish bo'yicha 30% ijobiy natijaga erishganligini guvohi bo'ldik.

Bolalar uchun yaratilgan maxsus laboratoriya xonalari ular uchun tajriba maydonchasi sanalib, bolalarning ijodiy faolligi, yaratuvchanlik, kreativlik, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlikdagi faol faoliyat, o'zini-o'zi boshqarish, nazorat qilish, natijaga erishish, anglash, bilish, his etish, tahlil qilish, taqqoslash kabi jihatlarning mukammal qaror topishida xizmat qilishi tajribada asoslandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy, tarbiyaviy ishlarni shakllantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalarning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Barchaga ma'lumki, bolalar jismoniy faollik orqali bilimlarni yanada samaraliroq o'rganadilar va uzoq muddat yodda saqlaydilar. Ularga kun davomida yuqori darajadagi jismoniy faollik juda yaxshi samara beradi. Bolalar tabiatan serharakat bo'lganliklari sababli ularga barcha faoliyat turlarida erkinlik, harakatli muhit yaratib berish tavsiya etiladi. Ularning bor imkoniyatlarini yuzaga chiqari uchun qulay, xavfsiz, o'quv qurollar, metodlarga boy muhit yaratish maqsadga muvofiq. Buning samarasini olib borilgan tadqiqot ishimizning tajriba-sinob jarayonlarida guvohi bo'ldik.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar xavfsizligi pedagogning asosiy ma'suliyatli vazifasi bo'lib, u gurug xonasi va o'quv muhiti xavfsiz bo'lishini ta'minlashi shart. Guruh xonasidagi har bir narsa buyumlar, mebellar, jihozlar, rivojlanish markazlarining holati, qanday tartibda joylashtirilganligi bolalar xavfsizligi va salomatligini ta'minlash yo'lida xizmat qiladi. Pedagog guruhdagi ta'limiy rivojlantiruvchi muhitni «Ilk qadam» davlat o'quv dasturini hamda SanPiNda mustahkamlangan xavfsizlik qoidalariga muvofiq amalga oshirishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish bolalarda ijodiy rivojlanishni maqsadli yo'naltirilganligi bilan belgilanib, bolalar shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishiga zamin yaratadi. Bolalar irodaviy sifatlarni shakllantirib boradi, shaxsiy jihatlari barqarorlashadi, unda erkin fikr, tashabbuskorlik, ijobiy munosabat tuyg'ulari paydo bo'la boshlaydi. Bolalarning bu muhitdagi erkin faoliyati ijtimoiy munosabatlarga kirishishida, atrofni kuzatish, dunyoviy bilimlarni oshib borishi, dunyoqarashni shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Rivojlantiruvchi muhitdagi ta'limy faoliyatlarda boladagi barcha shaxsiy sifatlarining shakllanishi namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi barcha pedagog-tarbiyachilar maktabgacha yosh davri bolalar shaxsining rivojlanishida eng muhim davr ekanligini yodda saqlamog'i lozim. Ta'lim va tarbiya ishlarini keng dasturini amalga oshirishda diqqatli, ma'suliyatli bo'lib, ularning faoliyatini mazmunli va maroqli, hamda, ularning keying ijtimoiy muhitlarini muvaffaqiyatli kechishi uchun sifatli va maqsadli bilim berishlari lozim. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ularning individual hususiyatlari aqliy, ruhiy va jismoniy tomondan nechog'li rivojlanganliklarini inobatga olib tizimli harakatlanishlari lozim.

Xulosalar

Maktabgacha ta'lim tashkilorlarida bolalarni har tomonlama kamol topishi uchun xizmat qiluvchi rivojlantiruvchi pedagogik muhiti kelajagimiz poydevori bo'lmish yosh avlodni yetuk shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur bo'lgan barcha manbaalarni o'z ichiga oluvchi, bola shaxsini to'laqonli rivojlantirishni ta'minlovchi yaxlit bir tizim sanaladi. Unda bola o'sadi, ulg'ayadi, o'rganadi, his etadi, o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llab ko'radi, olam, atrof-muhit haqida bilimga ega bo'ladi, hamkorlik, ixtirolar, ijobiy munosabat kabi fazilatlar takomillashib boradi.

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda rolli o‘yin turlari, STEAM texnologiyasi, TRIZ texnologiyasi zamonaviy yondashuv sifatida izohlash mumkin.

2. Tatqiqot ishida keltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar–rolli o‘yinlar turlari, STEAM texnologiyasi, TRIZ texnologiyasi o‘qitishda, ta’limiy jarayonida qo‘llaniladigan eng samarali, maqsadli usullari, o‘qitishning eng oqilona, yetakchi usullaridan sanalib, tizimliligi, aniqligi, samaraliligi, natijadorligi, barqarorligi bilan metodlardan, usullardan ajralib turadi. Ta’kidlash joizki, texnologiyalar usullardan tarkib topadi yoki aksincha, o‘qitish usullari tarkibiga ma’lum texnologiyalar mavjud bo‘ladi.

3. Bo‘lajak pedagoglarga tavsiya sifatida shuni aytish joizki, bolalar uchun rivojlantiruvchi muhit shunday tashkil etilishi kerakki, u bolaga o‘zidagi bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash uchun tajriba maydonchasi, bitmas-tuganmas axborot manbai bo‘lib xizmat qilsin. Rivojlantiruvchi muhit negizidagi faollik markazlari, rivojlantiruvchi burchakalar, tajribalar uchun maxsus laboratoriya xonalari bolalarning ehtiyojini qondiruvchi, tashabbus bildira olishga undovchi, yangiliklar, ixtirolar qilishga chorlovchi, boladagi bilimlarni yanada mustahkamlovchi manbaaga aylanishi zarur. Bu faoliyatlarning nechog‘li samarali ekanligini tadqiqot ishimiz jarayonida guvohi bo‘ldik.

Bu borada eng avvalo, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi-pedagoglarning rivojlantiruvchi muhit negizidagi rivojlanish markazlarini tashkil etish to’grisidagi bilimlarini aniqlash, ularga doimiy ravishda amaliy yordam ko‘rsatib borish, metodik tavsiyalar, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish, rivojlanish markazlarida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar sifati va xilma-xilligi, mazmundorligi, metodlarga boyligini ta’minlash hamda doimiy ravishda bolalarni kuzatib borish, ulardagi o‘sish su’ati, xatolar, kamchiliklar, bo‘shliqlar ustida ishlash, bolalarning xar bir mustaqil faoliyatini baholash, topshiriqlar berishda bolalarning yosh xususiyatlari va fiziologik imkoniyatlarini inobatga olish masalalariga alohida ahamiyat berilishi maqsadga muvofiqligi tadqiqot ishida asoslandi.

Шунингдек, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi rivojlantiruvchi muhit bolalar hayotida muhim qadam ekanligi o‘z isbotini topdi. Rivojlantiruvchi muhitda tashkil etilayotgan barcha turdagi faoliyatlar nafaqat bolalarning taraqqiyotiga balki, ularni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashda, keying ijtimoiy muhitlarini muvaffaqiyatli kechishida xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi rivojlantiruvchi muhit - bola faoliyati, uning shaxsini to‘laqonli rivojlanishini ta’minlovchi sharoitlar tizimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni //O‘RQ-637-son 23.09.2020.

2. O’zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g‘risidagi»gi 595-sonli Qonuni.2019 yil 17-dekabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–60-son Farmoni https://lex.uz/pdfs/5841063.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son «2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-6108-son Farmoni https://lex.uz/docs/5085999.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmoni//lex.uz/docs/4312785.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 sentabrdagi «Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4467-sonli Qarori// O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy web sayti.

9. O’zbekiston Respublikasi «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari»-2018 yil 3 iyul. Registr № 3032.

10. Evstaf’yeva L, Nabixanova Sh, Pak S.I va boshqalar «Maktabgacha ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya faoliyatini mavzuli rejalashtirish» Tayyorlov guruhi. «Ilk qadam » dasturiga ilova Toshkent. 2018 yil.

11. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova »Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi T: 2022. 1-81-b.

12. Bolalar xuquqlari to’g‘risida Konvensiya, 29 bet Maslahatchi Plyus.

http://education.simcat.ru/school61/files/1453581184_konvenciya-_o_pravah_rebenkapdf.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0008-7711-3798

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA TARBIYA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Musayeva Lobar



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanini o‘qitishda interfaol texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi yoritilgan. Interfaol metodlarning o‘quvchilar axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sirini aniqlash, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, ularni to‘g‘ri tanlash, shu orqali ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning mustaqil fikrlash va o‘zaro hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantirish usullari muhokama qilinadi.

Shuningdek, o‘quvchilarning shaffof va haqqoniy o‘zlashtirish darajalarini belgilovchi baholash mezonlari ham ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol texnologiyalar, tarbiya fani, metodologiya, interfaol metodlar, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, ijtimoiy hayot, kutilmagan vaziyat.

KIRISH

Hozirgi kunda har bir mamlakatda ta'lim-tarbiya sohasida samarali islohotlarni amalga oshirish zaruriyati mavjud. Ta'limdagi muammolar har qanday rivojlangan davlatlarda ham alohida e'tibor talab qilmoqda. Masalan, Finlandiya, Yaponiya, Singapur, Fransiya, Germaniya ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, Universitetlar va pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar.

Shu boisdan davlatimiz ta'lim tizimida bir qator islohotlar amalga oshirilyapti. Ulardan oqilona foydalanish shu yurtda yashaydigan jamiyat a'zolariga bog'liqdir. Prezident Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi" asarida ta'kidlaganidek: Xalqimizda "Ta'lim va tarbiya – beshikdan boshlanadi", degan hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi… [4]

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni (2020-yil, yangi tahrir) ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shu jumladan, o'yinli ta'lim va interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish zaruratini belgilaydi [1]. Shu maqsadda yurtimizda ham ta'lim islohotlari olib borilmoqda. Interfaol texnologiyalar va ularning tarbiyadagi roliga alohida e'tibor qaratilyapti.

Maqola doirasidagi tadqiqot obyekti – boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiya fanini o'qitish jarayoni. Ta'lim jarayonida interfaol texnologiyalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularda mustaqil va ijodiy fikrlashni shakllantirish, o'zaro hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish, kutilmagan vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilishga o'rgatishga qaratilganligi uchun tadqiqotning asosiy obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotning yangiligi – boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning tarbiya fanining o'qitilishidagi muammolari aniqlandi. Tarbiya fanidan interfaol texnologiyalar orqali metodlar takomillashtirilib, yangi yondashuvlar amaliyotga tatbiq qilindi, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining tarbiya faniga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar va baholash mezoni ishlab chiqildi.

Tadqiqotda ilgari surilgan gipoteza shundan iboratki, interfaol texnologiyalar yordamida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, o'zaro hamkorlik qilish, shaxsiy maqsadlarini aniqlash, iqtidorlarini namoyon etish, qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy hayotga tayyorlash, kutilmagan vaziyatlarda tezkor qaror qilishga o'rgatish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu gipoteza boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiya fanidan metodlar takomillashtirilishi va amaliyotga tatbiq etilishi natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiya faniga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishi kutilmoqda.

"Tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon" [2]-deb ta'rif berilgan. Hamda ushbu qonunning 4-moddasida ta'lim-tarbiyada insonparvarlikka, demokratik xususiyatlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish kerakligiga ham alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422- sonli qarori bilan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun konsepsiya ishlab chiqildi. Konsepsiya umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarga o'qitilayotgan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlar "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Ma'naviyat asoslari", "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan yagona Tarbiya fanining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi[3].

Prezident Sh.Mirziyoyev maktabga ta'rif berar ekan: "…Maktab – faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma'naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylanishi zarur" [5] degan ibratli, keng ma'nodagi so'zlari maktab tizimidagi tarbiya fanlari ustozlariga ham ulkan mas'uliyat yuklaydi. Sababi hozirgi zamon yoshlarining ma'naviyatini yuksaltirish, ularni ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishga o'rgatish, bevosita tarbiya fanlari bilan bog'liqdir.

B.Xodjayev, M.Artikova [15], R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev [6] N.A.Muslimov [9] M.Ochilov [11] O.Jabborova, Z.Umarova [7] Sh.Sh. Olimov [10] V.Topildiyev [13] M.X.Xaydarova [14] kabi olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Interfaol texnologiyalarga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Masalan, B.Xodjayev va M.Artikova tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lsa, R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardaev ta'limda innovatsion texnologiyalar mavzusidagi tadqiqotida ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqqanlar. N.A.Muslimov innovatsion ta'lim texnologiyalari o'quv-metodik qo'llanmalarini yaratishgan. Sh.Sh.Olimov, M.Ochilov yangi pedagogik texnologiyalar, O.Jabborova, Z. Umarova boshlang'ich ta'limda "tarbiya" fanini o'qitish metodikasi bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar. V.Topildiyev ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirgan bo'lsa, M.X.Xaydarova bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha metodikalar ishlab chiqqanlar. J.Jalolov, X. Maxkamova "Pedagogik texnologiyalar asoslari" kitobida pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarning nazariy va amaliy jihatlarini batafsil ko'rib chiqqangan. Kitobda o'qitishning zamonaviy metodlaridan biri bo'lgan rolli o'yinlar, Klaster usuli va "Baliq skeleti" texnologiyasi kabi innovatsion texnologiyalar haqida so'z boradi. [8]

Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalarning, ya'ni interfaol va o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi, dunyo miqyosida ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tashkilotlar, masalan, YuNESCO tomonidan chop etilgan hisobotlar, bu jarayonni qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosatlar va ularning ta'lim tizimlariga ta'sirini o'rganishga katta e'tibor qaratmoqda. 2021-yilda YuNESCO tomonidan chop etilgan Education for Sustainable Development Goals (Barqaror Taraqqiyot Maqsadlari uchun Ta'lim) hisobotida interfaol texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishning ta'lim olish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani qayd etilgan. Hisobotda ma'lum bo'lishicha, interfaol texnologiyalarni qo'llash maktablarda bilim olish darajasini 30% ga oshirgan [16]. Bu ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol platformalar va raqamli resurslarning o'quvchilarning o'rganish jarayoniga ta'sirini ko'rsatadi. Interfaol texnologiyalar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini faollashtirgan holda, yanada samarali o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Tadqiqot metodologiyasi va usullari tadqiqotning maqsadlariga to'liq mos kelishi zarur. Ushbu tadqiqotda boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiya fanini o'qitishda foydalaniladigan turli metodologik yondashuvlar va tahlil metodlari qo'llaniladi. Tadqiqotning metodologiyasi o'quv-

chilarning tarbiya faniga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yanada oshirishga zamin yaratadi. Tadqiqot davomida suhbat, kuzatish, anketa, so‘rovnoma, testlash, induksiya va deduksiya, arxiv, matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Professor O.A.Qo‘ysinov innovatsion yondashuv asosidagi o‘qtish tizimi har bir o‘quvchining individual qobiliyatini e’tiborga olishi va uni rivojlantirishi kerakligini aytadi. Zamon talablariga javob berdigan mutaxassislarni tayyorlash uchun o‘qitishni rivojlantirish kerakligi va bor imkoniyatlardan foydalanish lozimligini bildiradi. Buning uchun esa o‘quv materiallarini tizimlash, turkumlash usullarida raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurligini bildiradi. [12]

Hozirgi taraqqiyot asrida, o‘quv materiallarini ham qaytadan takomillashtirib borish, zamonaviy texnologiyalarni ta’lim amaliyotida keng qo‘llash, pedagoglar faoliyatini takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotdagi izlanishlarda pedagogik-texnologik yondashuvlar, interfaol metodlarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini “Tarbiya“ fanini o‘qitishga bo‘lgan tayyorgarligini rivojlantiradi. Bu esa o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatida bu metodlarni muvaffaqiyatli qo‘llash orqali o‘quvchilarning rivojlanishini yanada samarali ta’minlashda:

1. Interfaol metodlarni o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirish.
2. Kreativ va o‘yin orqali o‘rganishni rag‘batlantirish.
3. O‘quvchilarga o‘z fikrini erkin ifodalash imkoniyatini yaratish.
4. O‘quvchilarni jamoada ishlashga o‘rgatish.
5. Tarbiya fanida interfaol texnologiyalarni samarali baholash tizimi yaratish.
6. O‘qituvchilarni interfaol metodlardan foydalanishga tayyorlash kabi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya fanida o‘qituvchi pedagoglarning interfaol texnologiyalarni samarali qo‘llashga tayyorligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilarga interfaol metodlar haqida ma’lumot berish, ularga amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish va darslarni interfaol tarzda tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnomalar berish kerak.

Interfaol metodlar:

Rolli o‘yinlar: O‘quvchilarni turli ijtimoiy rollarda ishtirok etishga undash orqali axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy vazifalarni o‘rganishadi. Bu metod o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifodalash, boshqalar bilan muloqot qilish, guruhda ishlash va mas’uliyatni his qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Klaster usuli: Klaster usuli orqali o‘quvchilar ma’lum bir mavzuni yoki tushunchani chuqur o‘rganib, bu tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga yordam beradi. Bu metod o‘quvchilarga fikrlarni guruhlash va tizimli tarzda tahlil qilish imkonini beradi, bu esa ularning mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Baliq skeleti texnologiyasi: Bu metod o‘quvchilarga masalani yechish jarayonida turli fikrlarni tizimli ravishda tuzishga imkon beradi. O‘quvchilar baliq skeleti diagrammasi yordamida masalani tahlil qilishadi, bu esa ularning tizimli fikrlash va mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tarbiya fanida bu metod o‘quvchilarga axloqiy masalalarni hal qilishda yordam beradi.

Crossword: Bu metod o‘quvchilarga o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash va yangi tushunchalarni o‘rganishda yordam beradi. Krassword yordamida o‘quvchilar axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy tushunchalarni takrorlash, mustahkamlash va yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Muzyorar: Bu metod o‘quvchilarga masalalarni yechish jarayonida turli fikrlarni tizimli ravishda joylashtirish imkoniyatini yaratadi. Muzyorar orqali o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini to‘liq va tushunarli tarzda bayon qilishadi, bu esa ularning fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Sinkveyn: Bu metod o‘quvchilarga biror mavzu haqida qisqa va lo‘nda tarzda fikr bildirish imkonini yaratadi. Sinkveyn yordamida o‘quvchilar o‘rganilayotgan mavzu yoki tushuncha haqida qisqa va aniq fikrlar bildirib, mavzuni yanada chuqurroq o‘zlashtiradilar.


“Insert“ metodi: “Insert“ metodi o‘quvchilarga materialni o‘qish jarayonida faollik ko‘rsatishga imkon beradi va bilimlarni tahlil qilishda muhim vosita hisoblanadi. Bu metod o‘quvchilarga o‘qigan materiallari bilan ishlashda o‘z fikrlarini qo‘shishga, qiziqtirgan nuqtalarni ajratib olishga qaratilgan.

Ven diagrammasining metodi: Ven diagrammasi – bu ikki yoki undan ortiq turli tushunchalarni o‘zaro solishtirish va ularning o‘zaro aloqalarini vizual tarzda ko‘rsatish uchun ishlatiladigan diagramma turidir. Bilimlarni yanada chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi.

Zig-zag metodi: Zig-zag metodi o‘quvchilarga boshlang‘ich bilimlarni o‘zlashtirib, keyinchalik ularni kengaytirish va mustahkamlashga yordam beradi. Bu metod o‘quvchilarga bilimlarni tahlil qilish, solishtirish va yangi tushunchalar qo‘shish imkoniyatini yaratadi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanidan olib borilgan tadqiqot ishida, ya’ni tarbiya fani jarayonida yuqorida keltirib o‘tilgan metodlar orqali o‘qituvchi oldida o‘quvchilarda o‘zaro hamkorlik qilish, mustaqil fikrlash, dunyoqarashini kengaytirish, iqtidorini yuzaga chiqarish, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishga o‘rgatish va kutilmagan vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish kabi vazifalar o‘rin olishi quyidagi chizmada keltirib o‘tiladi.

Tarbiya fanida qo‘llanilgan metodlar vazifalari




Ta’limiy maqsad va vazifalarni aniqlash, ajdodlar me’rosini o‘rganish, zamonaviy axborot kommunikatsiya-texnologiyalarini o‘rganish. Amaliy jihatdan esa: interfaol metodlarni tanlash, o‘quvchilarni baholash va rag‘batlantirish, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash kabilar integratsiya qilingan. Tajriba sinov jarayoni Ish shakllari (jamoaviy, guruhli, individual hamda Metodik shart-sharoit (metod, vosita, shakl) qismlarga ajratilib, Rolli o‘yinlar, Klaster, Baliq skleti, Crossword, Muzyorar, Sinkveyn, Zig-zag, Venn diagrammasi kabi metodlar orqali kutilayotgan natija: boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanidan metodlarni

takomillashtirish va o‘quvchilarning tarbiya faniga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishga erishish nazarda tutilganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu vazifalarni bajarish asnosida quyida berilgan modul katta ahamiyatga ega. Tadqiqotning maqsadi: Boshlang‘ich ta’lim jarayonida tarbiya fanini o‘qitishda interfaol texnologiyalar orqali metodlarni takomillashtirishdan iborat ekanligi aks etgan. Taqdqiqotda olib borilgan nazariy va amaliy jihatlar yoritilgan.

Tadqiqot mavzusini yoritishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasi



Tadqiqot davomida qo‘llanilgan metodlarning samarasini aniqlash maqsadida, “Tarbiya” fani dasturida berilgan o‘quvchilarda shakllanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni tizimlashtirgan holda boshlangich sinf o‘quvchilarining tarbiya fanidan bilimlarini shakllantirishga qaratilgan ushbu kompetensiyalar asosida 1-4-sinf o‘quvchilari uchun baholash mezoni ishlab chiqildi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya fanidan bilimlarini shakllantirishga qaratilgan kompetensiyalar asosida baholash mezoni

Sinflar	O‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilimlar	Baho
1-sinf	Ko‘rgan narsalar asosida o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, tarbiya darslari jarayonida o‘zlashtirilgan yangi bilimlarni amalda qo‘llay oladi, rasmlarga qarab hikoya tuzadi, bir mavzu doirasidagi savollarga javob bera oladi.	5 (a’lo)
	Ko‘rgan narsalar asosida o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, tarbiya darslari jarayonida o‘zlashtirilgan yangi bilimlarni amalda qo‘llay oladi, rasmlarga qarab hikoya tuzishga qiynaladi.	4 (yaxshi)
	Ko‘rgan narsalar asosida o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, tarbiya darslari jarayonida o‘zlashtirilgan yangi bilimlarni amalda qo‘llashga qiynaladi, rasmlarga qarab hikoya tuzishga qiynaladi va bir mavzu doirasidagi savollarga javob bera olmaydi.	3 (qoniqarli)
	Ko‘rgan narsalar asosida o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, tarbiya darslari jarayonida o‘zlashtirilgan yangi bilimlarni amalda qo‘llay olmaydi, rasmlarga qarab hikoya tuza olmaydi.	2 (qoniqarsiz)
2-sinf	Rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, dars jarayonida o‘zlashtirilgan yangi bilimlarni amalda qo‘llay oladi, bir mavzu yuzasidan savollarga javob bera oladi, o‘qigan va eshitganlarini yaxshi yoki yomon hislat ekanligini tushunadi va mavzuga oid hayotida bo‘lgan biror voqeani so‘zlab beradi.	5 (a’lo)
	Rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirishadi, dars jarayonida o‘zlashtirilgan yangi bilimlarni amalda qo‘llay oladi, bir mavzu yuzasidan savollarga javob bera oladi, o‘qiganining yaxshi yoki yomon hislat ekanligini tushunadi va mavzuga oid voqeani so‘zlab berolmaydi.	4 (yaxshi)
	Rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, dars jarayonida o‘zlashtirilgan yangi bilimlarni amalda qo‘llay oladi, bir mavzu yuzasidan savollarga javob bera oladi, mavzuga oid voqeani so‘zlab berolmaydi.	3 (qoniqarli)
	Rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, dars jarayonida o‘zlashtirilgan yangi bilimlarni amalda qo‘llay olmaydi, bir mavzu yuzasidan savollarga javob bera olmaydi va mavzuga oid hayotida bo‘lgan biror voqeani so‘zlab berolmaydi.	2 (qoniqarsiz)
3-sinf	Rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, mantiqiy va ijodiy topshiriqlarini mustaqil bajara oladi, o‘qigan va eshitgan hikoyalariga munosabat bildiradi, o‘z nutqida maqollar, hikmatli so‘zlar va iboralardan foydalanadi, ertak, hikoya, rivoyat, she’rlar mazmunini tushunadi.	5 (a’lo)
	Rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, mantiqiy va ijodiy topshiriqlarini mustaqil bajara oladi, o‘qigan va eshitgan hikoyalariga munosabat bildiradi, o‘z nutqida maqollar, hikmatli so‘zlar va iboralardan foydalanmaydi, ertak, hikoya, rivoyat, she’rlar mazmunini tushunmaydi.	4 (yaxshi)
	Rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, mantiqiy va ijodiy topshiriqlarini mustaqil bajara oladi, o‘qigan va eshitgan hikoyalariga munosabat bildirishga qiynaladi, o‘z nutqida maqollar, hikmatli so‘zlar va iboralardan foydalanmaydi, ertak, hikoya, rivoyat, she’rlar mazmunini tushunmaydi.	3(qoniqarli)
	Rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, mantiqiy va ijodiy topshiriqlarini mustaqil bajara oladi, o‘qigan va eshitgan hikoyalariga munosabat bildirmaydi, o‘z nutqida maqollar, hikmatli so‘zlar va iboralardan foydalanmaydi, ertak, she’rlar mazmunini tushunmaydi.	2(qoniqarsiz)
4-sinf	Buyuk allomalarimiz o‘gitlari, pandu-nasihatlariga amal qiladi, kelajakdagi orzu va rejalarini tuzadi, muvaffaqiyatga erishish va baxtli yashash qoidalari va sirlarini o‘rganadi, tejamkorlik, huquqiy savodxonlik, xavfli vaziyatlarda harakatlanish qoidalarini o‘rganadi, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishga intiladi, kutilmagan vaziyatlarda tezkor to‘g‘ri qaror qabul qila oladi.	5 (a’lo)
	Buyuk allomalarimiz o‘gitlari, pandu-nasihatlariga amal qiladi, kelajakdagi orzu va rejalarini tuzadi, muvaffaqiyatga erishish sirlarini o‘rganadi, tejamkorlik, huquqiy savodxonlik, xavfli vaziyatlarda harakatlanish qoidalarini o‘rganadi, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishga intiladi, kutilmagan vaziyatlarda tezkor to‘g‘ri qaror qabul qila olmaydi.	4 (yaxshi)
	Buyuk allomalarimiz o‘gitlari, pandu-nasihatlariga amal qiladi, kelajakdagi orzu va rejalarini tuzadi, muvaffaqiyatga erishish, tejamkorlik, huquqiy savodxonlik, xavfli vaziyatlarda harakatlanish qoidalarini o‘rganadi, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishga qiynaladi, kutilmagan vaziyatlarda tezkor to‘g‘ri qaror qabul qila olmaydi.	3 (qoniqarli)
	Buyuk allomalarimiz o‘gitlari, pandu-nasihatlariga amal qiladi, kelajakdagi orzu va rejalarini tuzadi, muvaffaqiyatga erishish va baxtli yashash qoidalari va sirlarini tushunolmaydi, tejamkorlik, huquqiy savodxonlik, xavfli vaziyatlarda harakatlanish qoidalarini o‘zlashtirolmaydi, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishga qiynaladi, kutilmagan vaziyatlarda tezkor qaror qabul qila olmaydi.	2 (qoniqarsiz)

Ushbu baholash mezonida o‘quvchilar o‘zlashtirishi, iqtidoriga qarab o‘zlari egallagan kompetensiyalar asosida baholanadilar. Bu baholash mezoni, o‘qituvchilar uchun tarbiya fanida o‘quvchilarni odilona baholashlari uchun yordam beradi, qulaylik yaratadi va o‘z navbatida shaffoflikni ta’minlaydi.

Natijalar

Pedagogik tajriba-sinov ishlarida Toshkent viloyati Piskent tumani 4-umumta'lim maktabi 3-"A" va 3-"B" sinflarida o'tkazildi. Tajriba-sinov jarayonining boshida, o'rtasida va oxirida 3-"A" va 3-"B" sinf o'quvchilarining tarbiya fanidan egallagan bilim va ko'nikmalari shakllanishi hamda o'sib borishini o'gzaki savol-javob, test va yozma ishlar tarzida aniqlash usullari orqali tekshirib, nazoratdan o'tkazib borildi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiya fanini o'qitishda interfaol texnologiyalardan foydalanishning samarasi ishlab chiqilgan metod asosida maktabda pedagogik shartlar kompleksini amalga oshirishda o'quvchilar faolligini oshirish, ta'lim natijalarining yaxshilanishi, kengaytirilgan ijodkorlik va hamkorlik kabilarga e'tibor qaratildi.


Tajriba natijalari foizda (shakllantiruvchi bosqich)

№	Ko'rsatkichlar	Maktab	Tajriba guruhi 3-A		Nazorat guruhi 3-B	
			Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
1	O'rtacha arifmetik qiymat $(\overline{x}, \overline{y})$		4,44	4,76	4,59	4,62
2.	Samaradorlik ko'rsatkichi (η)		0,97		1,03	
3.	O'rtacha qiymat ishonch oralig'i ($a_x \in$, $a_y \in$)		[4,15; 4,73]	[4,56;4,96]	[4,34 ; 4,84]	[4,39; 4,85]
4.	O'rtacha qiymat standart xatoligi (S_x, S_y)		0,75	0,51	0,67	0,61
5.	Aniqlanish ko'rsatkichi (S_x, S_y)		3,38 %	8,15 %	8,75 %	2,49 %
6.	Styudent (T) mezoni		1,98		0,18	
7.	Ko'rsatkichlar natijasi		H_1 faraz qabul qilindi.		H_0 faraz qabul qilinmadi.	

Yakuniy test natijalarini taqqoslash, tarbiya fanini o'qitishda interfaol texnologiya vositalaridan foydalangan holda turli xil ijodiy vazifalarni bajarish muvaffaqiyatlari, tezligi va sifati, interfaol vositalari bilan ishlashda muvaffaqiyat va faoliyatga qiziqish ta'siri quyidagi shaxsiy omillarini aniqlashga imkon berdi.

Tajriba sinovining gistogrammasi

Demak, ushbu jadvalga asosan tajriba guruhida qo'llanilgan metodika nazorat guruhiga nisbatan samarali ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar tahliliga asosan tarbiya fani o'quvchilarining egallagan bilimlari turli topshiriqlar va metodlar vositasida oshganligi ko'rindi. Ushbu gipoteza o'zining ilmiy asosiga ko'ra, tarbiya fanidan metodlarning takomillashuvi va o'quvchilarning tarbiya faniga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga xizmat qiladi.



Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuvlar samaradorligi bo'yicha ilgari ma'lum bo'lgan gipotezalardan farqi shundaki, ushbu metodlar o'quvchilarning yoshi va qiziqishlariga juda mos keladi. O'quvchilarning tarbiya faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, balki ularda mustaqil fikrlash, iqtidorini namoyon etish, ijodkorlik, tashabbuskorlikni tarbiyalash, ijtimoiy hayotga tayyorlash va kutilmagan vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilishga o'rgatish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

XULOSALAR

Ushbu maqola doirasidagi tadqiqotda boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiya fanida interfaol texnologiyalarni takomillashtirish yuzasidan yangi metodik yondashuvlarning samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Tadqiqotning maqsadi o'quvchilarning tarbiya faniga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish. Kirish bo'limida belgilangan gipoteza, o'z tasdig'ini topdi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan metodlar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga, fan yuzasidan bilimlarni oson o'zlashtirishlariga va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodik yondashuvlar interfaol metodlarning takomillashuviga qaratilgan b 'lib, o'quvchilarda tarbiya faniga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga erishildi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tarbiya fanlari o'qituvchilarining maqsadi nafaqat bilimlarni taqdim etish, balki o'quvchilarni ijtimoiy va axloqiy jihatdan kamol toptirishdir. Bu jarayonda interfaol metodlar, masalan, Rolli o'yinlar, Klaster usuli, Baliq skeleti texnologiyasi, Crossword, "Muzyorar", Sinkveyn, Zig-zag va boshqa interfaol metodlar, o'quvchilarga o'zlari bilmagan yoki qiyin tushunchalarni o'zlashtirishda qulay sharoitlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son Qarori.

4. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022.-211 bet

5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008. - 180 b.

6. Jabborova O., Umarova Z. “Boshlang‘ich ta’limda “tarbiya”

7. Jalolov J., Maxkamova X. “Pedagogik texnologiyalar asoslari“ (2017 fanini o‘qitish metodikasi. “Zebo print”, Toshkent - 2022

8. Muslimov N.A va boshqalar. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari” O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

9. Olimov Sh.Sh. “Pedagogik texnologiyalar”. - T.: “Universitet”, 2020. – 172-177 b.

10. Ochilov M. “Yangi pedagogik texnologiyalar”. Qarshi: “Nasaf”,

11. Qo‘ysinov O.A. “Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari” o‘quv-uslubiy majmua.

12. Topildiyev V. “Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari”. - Toshkent: “Universitet”. 2015. – 245b.

13. Xaydarova M.X. “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining Tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish”.

14. Xodjayev B., Artikova M. “Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi”. - Toshkent, 2020-y

15. Sh.S. Shoyimova, M.K. Xoshimova, Sh.R. Mirzayeva, M.M.Qo‘-ziboyeva “Ta’lim texnologiyalari” Toshkent-2020.

16. “Oriental Art and Culture” Scientific Methodical Journal / http://oac.dsmi-qf.uz Volume 4 Issue 3 / June 2023

17. T.Jurayev “Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi fan va ta’lim” Buxoro-2022

Internet saytlari

1. https://www.Lex.uz
2. https://www.ziyonet.uz
3. https://www.edu.uz
4. https://www.hufocw.org/Download/file/10586

TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Sirojiddin Ablazov



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish mexanizmini takomillashtirish masalalari yoritiladi. Unda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar (onlayn kasbiy yo‘naltirish platformalari, sun’iy intellekt asosidagi maslahat tizimlari), psixologik diagnostika usullari hamda integratsiyalashgan o‘quv dasturlaridan samarali foydalanish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kasbga yo‘naltirish, innovatsion yondashuv, pedagogik shart-sharoit, kasbiy kompetensiya, mehnat bozori talablari, ilmiylik, muntazamlik, ongli tanlov, ijtimoiy moslashuv, individual yondashuv, nazariy va amaliy integratsiya, psixologik diagnostika, zamonaviy texnologiyalar, ta’lim va mehnat munosabatlari, kasbga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish.

Kirish

Jahon ta'lim muassasalarida zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori talablarining diversifikatsiyalashuvi, o'qitishning yangi strategiyalariga moslashtirilishi, kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning innovatsion modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini zamonaviy tashkil etish zamirida intellektual jihatdan taraqqiy ettirish, jismonan sog'lom shaxslarni voyaga yetkazish, ta'lim modellarini (functional education, competence-based approach, competence model) texnologik taraqqiyot g'oyalari bilan uyg'unlashtirish bo'yicha yirik ilmiy loyihalar bajarilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida o'quvchilar faoliyatini yangi mazmunda tashkil qilish metodikasini faollashtirish, o'quvchilarning nazariy hamda amaliy, bilim va ko'nikma, intellektual hamda jismoniy kamolotini rivojlantirish, ta'limni insonparvarlashtirish, rivojlantiruvchi, ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga o'quvchilar innovatsion ta'lim faoliyatini takomillashtirishda ularning kreativligi, ijodkorligini oshirish, shaxsning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, metodik faoliyatni takomillashtirish, maktab ta'limi tizimini modernizatsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan ta'lim dasturlarini joriy etish, ilg'or innovatsion texnologiyalarni yaratish, o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim mazmunini takomillashtirish, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini o'qish, matematika, tabiiy-ilmiy va kompyuter savodxonligini baholashning PISA (Programme for International Student Assessment) dasturlaridan foydalanishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Ta'lim sohasidagi navbatdagi muhim yo'nalish, bu – yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat"[1], bu esa ustuvor vazifa deb belgilangan. Natijada innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarning kasblarga bo'lgan qiziqishlari va kasb tanlashga yo'naltirishning pedagogik imkoniyatlari yanada ortadi.

O'zbekistonda ham mehnat bozori talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash, kasbiy yo'naltirish jarayonlarini tizimli ravishda takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalarni ilmiy-nazariy asoslashda o'quv jarayonini innovatsion va pedagogik texnologiyalar yordamida optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarning individual qobiliyatlari va kasbiy moyilliklarini aniqlash, mehnat bozoridagi talab va taklif muvozanatini saqlash hamda kasbga yo'naltirish tizimini zamonaviylashtirish imkonini beradi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalasi ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan bo'lib, turli yondashuvlar va metodlar taklif etilgan. Jumladan, kasbga yo'naltirish nazariyalari pedagogika, psixologiya va iqtisodiyot fanlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Psixolog G. S. Kostyuk (2021)[2] ta'kidlaganidek, o'quvchilarning kasb tanlashi individual qobiliyatlar, ijtimoiy omillar va mehnat bozorining talablariga bog'liq. U kasb tanlash jarayonida motivatsiya va qiziqishlarning shakllanishi muhim ekanligini ta'kidlagan. Shuningdek, amerikalik olim J. Holland (1997) kasbiy yo'nalish nazariyasini ishlab chiqib, o'quvchilarning temperament va qiziqishlariga qarab mos kasb tanlash modeli taklif etgan. Uning tadqiqotlari bugungi kunda ham kasbga yo'naltirish dasturlarida keng qo'llanilmoqda.

Mahalliy tadqiqotlarda kasbga yo'naltirish tizimining milliy xususiyatlari o'rganilgan. O'zbekistonlik olim Sh. G'ulomov (2021)[3] ta'kidlaganidek, mamlakatimizda ta'lim tizimini mehnat bozoriga moslashtirish, kasbga yo'naltirishni maktab bosqichidan boshlab yo'lga qo'yish dolzarb masala sanaladi. Uning tadqiqotlarida o'quvchilarning kasb tanlashi jarayoniga ta'sir etuvchi omillar: oilaviy muhit, ta'lim sifati, iqtisodiy sharoit va texnologik rivojlanish tahlil qilingan. Xalqaro manbalarga murojaat qilsak, UNESCO (2023) va OECD (2022) hisobotlarida kasbga yo'naltirishning zamonaviy tendensiyalari yoritilgan. Ayniqsa, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning kasb tanlashga ta'siri bo'yicha muhim ilmiy dalillar keltirilgan. Bu tadqiqotlarda kasbiy yo'nalish berish tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Fanlarni integratsiyalash – o'zaro bog'liq bo'lgan sohalarning o'zaro ta'siri va hamkorligi orqali umumiy bilimlarni tashkil etishga qaratilgan metodologik yondashuvdir. Integratsiyalashning asosiy maqsadi bilimlarni birlashtirish, yangi bilimlar yaratish va resurslarni samarali taqsimlash orqali o'quvchilarga keng qamrovli ko'nikmalarni taqdim etishdir. Fanlarni integratsiyalash o'quv jarayonida nafaqat ma'lumotlarni birlashtirishni, balki turli metod va texnologiyalarni qo'llash orqali bilimlar o'rtasida samarali bog'lanish o'rnatishni ham o'z ichiga oladi.

Integratsiya jarayonida, ayniqsa, kasbiy va umumiy fanlar o'rtasida izchil o'zaro aloqalarni o'rnatish muhim ahamiyatga ega. Bu metodologiya o'quvchilarga nafaqat alohida fanlar bo'yicha bilimlarni, balki ularni birgalikda ishlatish va muammolarni kompleks ravishda hal qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Integratsiya o'quv jarayonini samarali tashkil etish, vaqtni tejash va resurslarni optimal ravishda taqsimlash imkonini beradi.

Integratsiya konsepsiya va metodlarining amalga oshirilishi o'quv jarayonida tizimli yondashuvni talab qiladi, bunda fanlar va metodlarning o'zaro bog'lanishi ta'limning sifatini oshiradi. Ushbu jarayon o'quvchilarga har tomonlama rivojlanish va amaliy tajribalarni oshirish imkoniyatini yaratadi. Integratsiya tahlili, nazariy bilimlarni o'qitish metodlari va amaliyotni birlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, integratsiya nafaqat bilimlarni, balki o'qitish jarayonlarining metodlarini ham sintez qiladi.

Dialektikada – "integratsiya" tushunchasi borliqni yaxlitlikda tadqiq qilishning markaziy falsafiy va uslubiy asosi sifatida qaraladi, tabiat, jamiyat va ong rivojlanishining umumiy qonunlari sifatida namoyon bo'ladi.

Psixologiyada integratsiya murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari, yosh bilan bog'liq o'zgarishlarni o'rganish, bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, faoliyatning yetakchi turlari o'zgarishi doirasida ko'rib chiqiladi.

Integratsiya ta'lim mazmunining muayyan ketma-ketlikda, uzviy va tizimli joylashtirilishini, yangi mavzuni o'zlashtirishda mavjud bilimlarga tayanishni, o'quv materialining ma'lum darajada navbatdagi bosqichlarda qo'llanilishini, o'quv-tarbiyaviy jarayonning davomiyligi va yaxlitligini ifodalaydi.

Hozirgi vaqtda integratsiya muammosiga ta'limni tashkil etish jarayonidagi o'rniga yanada katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy maktabda integratsiya deganda tinglovchilarga samarali va oqilona ta'sir

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 22.12.2022 yil uchun Murojaatnomasidagi nutqi.

[2] Kostyuk, V. P. (2021). Professional Orientation in Secondary Education: Modern Approaches and Challenges. Kyiv: National Academy of Pedagogical Sciences of Ukraine.

[3] G'ulomov, S. (2021). O'zbekistonda ta'lim tizimi va kasbga yo'naltirish masalalari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

ko‘rsatish maqsadida undagi ishlarni yaxshilashga, o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan yangi pedagogik yechimlarni faol izlashingiz yo‘naltirilgan yondashuvlar tushuniladi.

Fanlararo aloqadorlik asosida: didaktik idrok etish jarayonlari asosida o‘qituvchi o‘rganilayotgan o‘quv predmetining maqsad va vazifalari, tuzilishi, boshqa o‘quv predmetlari bilan aloqadorligi, ular o‘rtasidagi bog‘lanish vositalari, munosabatlar, kommunikatsion didaktik vositalar samaradorligi bilan tanishadi. Fanlararo aloqalar muammosini hal etish o‘quv jarayoni mazmuni, metodlari va tashkil etishni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Fanlararo aloqalarni bilishga dialektik yondashuv asosida tatbiq qilishdir.

Dars faqat ta’limiy bo‘lib qolmasdan, tinglovchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi zarur. Mavzu mazmunidan kelib chiqib, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi bilimlar respublikamiz kelajagiga ishonch va e’tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu esa o‘quvchi dunyoqarashini kengaytiradi. Umuman olganda, integratsiya darsi bir-biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo‘lishi kerak.

Dars jarayoni har bir o‘qituvchidan katta aql-zakovat, sabr-matonat, tinglovchilarga va o‘z kasbiga yuqori mehr-muhabbatli bo‘lishni talab etadi. O‘qituvchining doimo izlanuvchi, bilim va tajribasini orttirib boruvchi bo‘lishi, tinglovchilarni chuqur tushunish, ularga yordam bera olish qobiliyati ta’lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillardir.

Integrativ yondashuv ta’lim tizimida fanlararo bog‘lanish, tinglovchilarning turli bilimlarni birlashtirish va tizimli fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvdir. Bu yondashuvni dunyoning bir qancha mamlakatlarida muvaffaqiyatli qo‘llanib, o‘zining samarali natijalarini ko‘rsatmoqda. Xorijiy tajribalarga tayangan holda, integrativ ta’lim tizimining asosiy tamoyillari va uning samaradorligini ko‘rish, bu metodning ilg‘or amaliyotlarini o‘z ta’lim tizimimizga tatbiq etishda yordam beradi.

1. Integrativ ta’limning xorijiy modellaridan foydalanish.

a. Finlandiya: Yangi o‘qitish metodlari va fanlararo yondashuv.

Finlandiya ta’lim tizimi dunyo bo‘yicha ilg‘or hisoblanadi. Bu tizimda fanlararo bog‘lanish katta ahamiyatga ega. Maktablarda o‘quv predmetlari ko‘pincha integratsiyalashgan bo‘lib, masalan, tabiatshunoslik, iqtisodiyot va san’atni matematikalar bilan bog‘lash orqali umumiy tizimli dunyoqarash shakllantiriladi. Bu metodlar orqali o‘quvchilar amaliy masalalarni hal qilishni o‘rganadilar.

b. Shvetsiya: Kengaytirilgan o‘quv dasturlari va didaktik integratsiya.

Shvetsiyada multidissiplinar o‘qitish usullari keng qo‘llanadi. Masalan, geografiya va iqtisodiyotni birlashtirish orqali o‘quvchilar murakkab amaliy masalalarni hal qilishni o‘rganadilar. Shuningdek, dastlabki o‘quv yillarida fanlararo bog‘lanish o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga qaratilgan.

c. AQSh: Loyihaga asoslangan ta’lim va integratsiya.

AQShda loyihaga asoslangan ta’lim (PBL) usuli keng qo‘llaniladi. Bu metod orqali o‘quvchilar real hayotdagi masalalarni hal qilishda bir nechta fanlarni integratsiyalashadi. Masalan, tarixiy voqealarni iqtisodiy tahlil qilish yoki fizikadagi masalalarni matematik hisoblashlarda qo‘llash. Bu yondashuv o‘quvchilarga tizimli fikrlashni rivojlantiradi.

d. Yaponiya: Ta’limda fanlararo aloqalarni rivojlantirish.

Yaponiyada integratsiya metodlari keng tarqalgan. Maktablarda fizika, kimyo va matematika kabi fanlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar o‘rgatiladi. Shuningdek, fanlararo darslar orqali o‘quvchilar o‘rtasida umumiy tushunchalar yaratiladi va ularning fikrlash qobiliyatlari kengayadi.

2. Integrativ yondashuvni o‘rganishda xorijiy tajribalar asosida qo‘llaniladigan texnologiyalar

a. Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR)

Finlandiya va AQShda VR/AR texnologiyalari ta’limda integratsiv yondashuvni qo‘llashda ishlatilmoqda.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar va pedagogik axborot texnologiyalarini qo‘llash ortib bormoqda. Bunga sabab, an’anaviy ta’limda tinglovchilar faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar esa ularga bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish, mustaqil o‘rganish va tahlil qilishni o‘rgatadi. Bu metodlar, o‘z navbatida, o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga yanada faolroq aralashishlariga yordam beradi.

“ASSESMENT” metodi. Bu metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga qaratilgan. Assesment metodikasi, talabalarning bilimlarini turli yo‘nalishlarda (testlar, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar va boshqalar) baholaydi. Ushbu metodda o‘quvchilar uchun biografik anketa, o‘quv topshiriqlari, bahs-munozara, intervyu, ijodiy ishlar, testlar, taqdimotlar va rolli o‘yinlar kabi turli metodlar ishlatiladi. Bu metodning maqsadi talabalarning bilimini har tomonlama va xolis baholash, rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash va istiqbolli reja (maqsadli dastur)ni shakllantirishdir.

Amalga oshirish mexanizmi va vazifalari

«Assesment» metodini ma’ruza mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganish, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash uchun ishlatish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchilar ijodiy yondashuvni qo‘llab, qo‘shimcha topshiriqlarni kiritishlari mumkin.

Mehnat predmetlariga qarab barcha **kasblar beshta tipga** bo‘linadi.[14]

“Odam-tabiat”. Bu yerda mehnatning asosiy, yetakchi predmetijonli tabiatdir. Bu tipga quyidagi kasblar kiradi: Biolog, urug‘shunos, meva- sabzavotshunos, zootexnik, agronom.

“Odam-texnika”. Bunday kasblar tipida mehnatning asosiy yetakchi predmeti-texnika ob’ektlari hisoblanadi (mashinalar, mexanizmlar va boshqa shunga o‘xshashlar). Bu tipdagi kasblarga quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin: injener-geolog, tikuvchi-motorist, injener-texnolog, tokar, payvandlovchi, injener-mexanik.

“Odam-odam”. Bu yerda asosiy mehnat predmeti odamlardir. Bu tipga kiradigan quyidagi kasblarni ajratib ko‘rsatish mumkin: o‘qituvchi, tarbiyachi, sartarosh, vrach va boshqalar.

“Odam-belgilar tizimi”. Kasblarning bu tipida shartli belgilar, raqamlar, kodlar asosiy yetakchi mehnat predmeti hisoblanadi. Hozirgi zamon kishisi belgilar va belgi tizimi dunyosida-matnlar, chizmalar, sxemalar, xaritalar, jadvallar va formulalar, yo‘l belgilari ichida yashaydi. Bu tipdagi kasblar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tarjimon, kotiba, telegraf xodimi, texnik muharrir va boshqalar.

NATIJA VA TAHLILLAR

Ta’lim-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya, ilmiy-metodik fanlarni mustaqil o‘rganish va ularning bir-biriga bog‘liqligini tushunish o‘quvchilarga bir nechta fan bo‘yicha ma’lumotlarni bir vaqtning o‘zida olish imkonini yaratadi. Bu usul ta’lim jarayonini samarali va effektiv qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ta’limda fanlar integratsiyasini qo‘llash o‘quvchilarga kasbiy yo‘nalish bo‘yicha keng bilimlar asosida qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi va amaliyotda ilg‘or metodlarni qo‘llash imkonini yaratadi.

Tajribaviy sinovlar jarayonida, ta'lim jarayonini integratsiyalashgan texnologiyalar asosida tashkil etishning ahamiyati katta. Masalan, "Kasbga yo'naltirish" fanini integratsiyalashgan darslar va testlar asosida o'qitishda metodik ishlanmalardan foydalanildi. Nazorat va tajriba guruhlari uchun ishlab chiqilgan dars rejalari va materiallar orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlandi. Bu integratsiya orqali o'quvchilarning kasbiy bilimlarini mustahkamlash, yangi metod va texnologiyalarni qo'llashga yo'naltirilgan samarali ta'lim jarayonini tashkil etishga erishildi.

Bundan tashqari, kasbga yo'naltirishda o'quvchilarni fanlararo integratsiya asosida kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlashda bir qator omillar muhim ahamiyatga ega. O'quv markazlarida umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini birlashtirish, o'quvchilarni amaliy ko'nikmalarga yo'naltirishda salohiyatni oshiradi. Integratsiya orqali o'quvchilarni kasbiy qobiliyatlar bilan birga keng bilimlar bazasiga ega qilish, muammolarni zamonaviy usullarda hal qilishga yo'naltirish maqsadida o'quv jarayoni tashkil qilinadi.

Ta'lim tizimida kasbga yo'naltirishning samaradorligi quyidagi mezonlarga asoslanadi:

– shaxsning rivojlanishiga qaratilgan maksimal natijalarga erishish;

– o'qitish va tarbiyalash jarayonlarining minimal vaqt va resurslar bilan amalga oshirilishi;

– tinglovchilarning axborotni qabul qilish va o'zlashtirish, ko'nikmalarni rivojlantirishdagi samaradorligi;

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ilmiy yondashuv va amaliy usullarni integratsiyalashgan holda tatbiq etish, shuningdek, ta'lim tizimini isloh qilish faqat tarkibiy elementlarni almashtirish emas, balki integratsiya va o'zaro boyitish g'oyasiga asoslangan o'qitish usullarini birlashtirishga bog'liq. Chet eldagi oliy o'quv yurtlarida ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashgan yondashuvlaridan foydalanish jarayonlari o'rganildi va ulardan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda foydalanildi.

Tajribaviy sinovlar metodikasining samaradorligini baholashda tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanish orqali ilmiy-pedagogik metodlarning ta'siri o'rganildi. Bu metodika o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda va ularga kasb tanlash jarayonini aniq tushuntirishda samarali bo'ldi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi asosiy qoidalar asosida tashkil etildi:

Fanlar Integratsiyasi: Informatika va axborot texnologiyalari soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini samarali tashkil etish uchun fanlar integratsiyasi muammosini hal qilishga e'tibor qaratildi. Bu integratsiya soha va fanlar yutuqlarini fanlararo tahlil qilish va ushbu tahlil asosida psixologik, texnik ta'limni integratsiyalash nazariyasini ishlab chiqishga yordam berdi. Shu asosda metodikani takomillashtirish orqali o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi yanada samarali bo'lishi ta'minlandi.

Tadqiqotning Asoslari va Bosqichlari: Tadqiqot Toshkent viloyatida oxangaron tumanidagi 12-maktabidada o'tkazildi. Tadqiqotda 54 nafar o'quvchi qatnashdi. Shulardan 26 nafari tajriba guruhi, qolgan 28 nafari nazorat guruhi sifatida ajratildi. Tadqiqotning birinchi bosqichi 2024-yil oktyabr oyida ta'lim tizimi tahlil qilinib, o'quvchilarning imkoniyatlari o'rganildi. Bu bosqichda ta'limni boshqarish tizimining normativ hujjatlari tahlil qilindi, shuningdek, pedagogik va kasbiy ta'lim integratsiyasining asosiy konsepsiyasi shakllantirildi.

Nazorat va Tajriba Guruhlari: Tajriba guruhida fanlar integratsiyasini ta'minlashning holati o'rganilib, so'rovnomalar o'tkazildi. O'quvchilarning kasbiy rivojlanishini optimallashtirish maqsadida fanlararo tahlil va metodologik yondashuvlar qo'llanildi.

Tajribaviy sinovlarning **maqsadi va natijalari**: Ushbu tadqiqot orqali fanlar integratsiyasining samaradorligi va o'quvchilarning kasbiy o'sishi uchun ta'lim tizimining qanday takomillashtirilishi zarurligi aniqlanadi. Tajriba sinovlarining natijalari pedagogik va kasbiy ta'lim integratsiyasining samarali usullarini ishlab chiqishda yordam beradi.

Tajriba sinovida ishtirok etgan o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari

O'quv muassasasi		12-maktab 7-A sinf	12-maktab 7-B sinf
Dars nomi yoki to'garak		Tajriba guruh	Nazorat guruh
O'quvchi soni		26	28
Tajribadan oldin	"5"	2	1
	"4"	9	10
	"3"	12	13
	"2"	3	4
Tajribadan keyin	"5"	6	1
	"4"	14	10
	"3"	5	14
	"2"	1	3

Ikkinchi bosqichda o'tkazilgan tadqiqotlar:

Ikkinchi bosqichda, "Kompyuter savodxonligi" yo'nalishida o'quv me'yoriy hujjatlari tahlil qilindi, ishlab chiqarish korxonalaridan tajribali mutaxassislar va xorijlik professor-o'qituvchilarning talab va takliflari o'rganildi. Bu ma'lumotlar asosida o'quv rejasini takomillashtirish ishlari olib borildi. Ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilingan guruhlarda, integrativ o'quv reja va fan dasturi asosida, kasbiy va pedagogik ta'limni integratsiyalashga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'lim mazmunini takomillashtirish: Ta'limning falsafiy asoslari, integratsiyalash tamoyillari va o'qitishning yangi metodikasi ishlanib chiqildi. Integratsiyaga asoslangan o'qitish mazmuni ishlab chiqilib, o'quv jarayonining rivojlanishi va sifati uchun mezonlar belgilandi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va elektron o'quv vositalari yordamida ta'lim jarayoni qo'llab-quvvatlandi, bilimlar chuqurlashtirildi.

Natijalar va tizimlashtirish: Uchinchi bosqichda, 2024-yil oktyabr va dekabr oylarida tadqiqot natijalari amalga oshirildi va tajriba sinov ishlari tizimlashtirildi. Bu bosqichda ta'limni integratsiyalash asosidagi o'quv dasturlarining samaradorligi umumlashtirilib, natijalar o'rganildi.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent viloyati 12-maktabida o'quvchilari orasida o'tkazildi. Tadqiqot ishida 7- "B" sinf nazorat guruhi sifatida, 7- "A" sinf esa tajriba guruhi sifatida tashkil etildi. Jami 54 nafar o'quvchi tajriba sinovlarida ishtirok etdi, ulardan 26 nafari tajriba guruhiga, qolgan 28 nafari esa nazorat guruhiga kiritildi.

Tajriba-sinov dasturi doirasida, oktabr oyida guruhlardan test-so'rovnoma topshirig'i olindi. Natijalar ko'rsatishicha, tajriba guruhida olingan natijalar nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo'ldi. Bu pedagogik tadqiqotlar natijalari, nazorat guruhida o'tkazilgan an'anaviy metodika asosidagi natijalar bilan taqqoslab, tajriba guruhidagi maxsus metodika asosida olingan natijalar ancha samarali ekanligini tasdiqladi.

Tajriba-sinov ishlari davomida olingan umumiy ko'rsatkichlar va farqlarning haqqoniyligini tekshirish uchun matematik-statistik ishlov berish uchun ishchi jadval ishlab chiqildi. Bu tahlil orqali tajriba guruhidagi metodik yondashuvning samaradorligi tasdiqlandi. Tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarning bilim darajasi va mustaqil ishlash ko'nikmalari tahlil qilinib, integratsiyalashgan ta'lim metodikasining ijobiy ta'siri o'rganildi.

XULOSA

Dissertatsiyaning asosiy xulosalariga ko‘ra, ta’lim tizimida kasbga yo‘naltirish mexanizmini takomillashtirish orqali o‘quvchilarning kasbiy mahorati, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati kattadir. Ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirish tizimini optimallashtirishning samarali usullaridan biri bu, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘zaro bog‘lab o‘qitish orqali tinglovchilarni keng qamrovli, multidissiplinar bilimlar bilan ta’minlashdir. Integratsiyalashgan ta’lim tizimi o‘quvchilarda nafaqat individual o‘sish, balki mehnat bozorida raqobatbardosh malakalarini shakllantirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, xorijiy tajribalar, xususan, Finlandiya, Shvetsiya va AQSh kabi mamlakatlarda integrativ ta’lim yondashuvlari o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, bilimlarni amaliyotga tatbiq qilishda samarali bo‘lishini ko‘rsatdi. Bunday tajriba va texnologiyalarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish, zamonaviy metodlarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini yaxshilash mumkin. Integratsiyalashgan yondashuvni amaliyotga joriy etishda pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, innovatsion o‘qitish metodlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish mexanizmini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Mehnat bozori sharoitlari tez o‘zgarayotgan bugungi kunda yoshlarning kasb tanlash jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi. O‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash maqsadida ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirish tizimi tizimli va ilmiy asosda tashkil etilishi lozim. Tadqiqot davomida kasbga yo‘naltirish jarayonida mavjud muammolar tahlil qilindi va ularni hal etish yo‘llari taklif etildi.

Xususan, maktablarda kasb tanlash bo‘yicha mutaxassislarning yetishmovchiligi, kasbga yo‘naltirish jarayonining noaniqligi va mehnat bozori talablariga mos kelmasligi asosiy muammolar sifatida aniqlandi. Xalqaro tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon innovatsion texnologiyalar va zamonaviy psixometrik yondashuvlar asosida tashkil etilgan bo‘lib, ularning ayrim jihatlarini O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiya qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni: www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi farmoni PF-5847 08.10.2019. Manba: www.gov.uz.

4. Avazboyev A.I. O‘quv predmetlari mazmunini integrasiyalash asosida mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish. Ped.fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – T., 2001. – 124 bet.

5. Gati, I., & Asher, I. (2001). The PIC Model for Career Decision Making: Prescreening, In-Depth Exploration, and Choice. Journal of Counseling Psychology, 48(4), 490–504.

6. G‘ulomov, S. (2021). O‘zbekistonda ta’lim tizimi va kasbga yo‘naltirish masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

7. Holland, J. L. (1997). Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments (3rd ed.). Psychological Assessment Resources.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0007-1927-9047

TA’LIM MUASSASALARIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida fanlararo integratsiyani ta’minlashda zamonaviy texnologiyalarning roli va ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, interfaol ta’lim platformalari (Moodle, OpenAI Classroom), interfaol doskalar, simulyatorlar, mobil qurilmalar va ilovalar, kengaytirilgan, virtual reallik (AR/VR) texnologiyalari kabi vositalardan fanlararo integratsiyani ta’minlashda samarali foydalanish yo‘llari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (video darslar, vebinarlar, onlayn loyihalar) hamda fanlararo integratsiya usullari (integratsiyalashgan o‘quv rejalari, loyihalar, muammoga asoslangan o‘qitish)ning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. O‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirish va o‘quv jarayonini zamonaviylashtirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, integratsiya, pedagogik shart-sharoitlar, fanlararo aloqa, zamonaviy ta’lim, video darslar, vebinarlar, onlayn loyiha, fanlararo integratsiya usullari, o‘quv reja.

KIRISH

Jahon maydonidagi ijtimoiy islohotlar ilmiy-texnik taraqqiyot, ta'lim, fan va ishlab chiqarish sohalari hamda ta'lim mazmuniga innovatsion va integrativ yondashuvlarni tatbiq etish bilan ifodalanadi. Ayniqsa, ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi masalalari bo'yicha European University Institute, Max Plank Institute, Harvard Law School, European Integration (ECSA-Austria), ARENA (Oslo), Mannheim Centre for European Social Research kabi tadqiqot markazlarining ilmiy natijalari alohida o'rin tutadi. Ta'lim dasturlarining sifat jihatdan yangilanish sharoitida yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini joriy etish fanlar integratsiyasini ta'minlash orqali o'qitishning interfaol metodlaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Dunyo hamjamiyatining ilmiy-texnik taraqqiyoti, ta'lim, fan va ishlab chiqarish sohalaridagi ulkan islohotlar, ilmiy-texnik axborotlar tizimining tezkor rivojlanishi va takomillashuvi ta'lim mazmuniga innovatsion va integrativ yondashuvlarni tatbiq etish bilan ifodalanadi. Ayniqsa, ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi masalalari bo'yicha ta'lim dasturlarining sifat jihatdan yangilanish sharoitida yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini joriy etish fanlar integratsiyasini ta'minlash orqali o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanish hamda didaktik vositalarning integrativ imkoniyatlaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ham mehnat bozori va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu vazifalarni ilmiy-nazariy jihatdan hal etishda monomarkazda ta'lim yo'nalishlarining umumta'lim va ixtisoslik fanlaridan tuzilgan fan dasturlari mazmuni hozirgi zamon innovatsion va pedagogik texnologiyalari yordamida optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa monomarkaz kasbga o'rgatish ta'limda fanlararo integratsiyani ta'minlash imkoniyatlaridan unumli va maqsadli foydalanish, ta'lim jarayoni samaradorligi, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Integratsiya – nafaqat o'quv materialining maxsus kombinatsiyasi, balki o'quv faoliyatini tashkil etish usuli bo'lib, o'quv materialini turli xil pozitsiyalardan tahlil qilish, asosiy narsani ajratib olish, ma'lum bo'lganlar bilan yangi aspektda operatsiyalarni bajarish, o'quv muammolarini hal qilish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Integratsiya darsni hamkorlik yo'nalishiga yo'naltirishga imkon beradi. Bu yerda fikrlar bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi mumkin, ammo har qanday fikr hamma tomonidan hurmat qilinadi, hatto ular bunga rozi bo'lmasa ham. Bu eng qimmatli fazilatlardan birini rivojlantirishga yordam beradi: boshqasini tinglash, uning dalillarini o'rganish, birovning nuqtayi nazarini o'z nuqtayi nazari bilan solishtirish qobiliyatidir.

Jahon sivilizatsiyasidagi integratsion jarayonlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi o'rni masalasi barcha davrlarda ham olimlarni qiziqtirib kelgan. Dissertatsiyaning ilmiy-nazariy g'oyalarini ishlab chiqishda respublikamizning bir qator mutaxassis olimlari jumladan: Integratsiyalashgan ta'lim nazariyasi va amaliyoti E.O.Turdiqulov, R.X.Djurayev, Kasb-hunar kollejlarida tinglovchilarni fanlararo aloqadorlik vositasida kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimiA.A.Xasanov, Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilish masalalari F.G'affarov, Uzluksiz professional ta'lim tizimida o'qitish uzviyligini ta'minlash texnologiyasi N.N.Musayeva, Oliy ta'limda umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlash metodikasi Z.Sh.To'xtayeva, Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi R.A.Mavlonova, O'quv fanlarining funksional vazifasi va ularni integratsiyalash masalalari P.Musayevlarning tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Z.Sh.To'xtayevaning fikricha integratsiya – obyektiv hayotiy jarayon. Globallashayotgan hozirgi hayotning integratsiyalashuv jarayonida mustaqillikni saqlab qolish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Bu esa xalqaro hamkorlikda quyidagi prinsiplarga qat'iy amal qilishni taqozo etmoqda:

– integratsiyalashgan birlashmalarga faqat tomonlarning tengligi asosida qo'shilish lozim (hatto siyosiy-iqtisodiy potensial turli-tuman bo'lgan taqdirda ham);

– milliy manfaatlar deklaratsiyasiga asoslanish, ularning mintaqaviy va boshqa manfaatlar oldida ustuvorligi;

– ishtirok etishning ixtiyoriyligi va u yoki bu ittifoqni tanqid qilish imkoniyati mavjudligi.

Misol sifatida jamiyatda integratsiyalashuv, sivilizatsion integratsiyalashuv, fanda integratsiyalashuv va boshqa tushunchalar mavjud bo'lib, jamiyat yoki ayrim davlatlarning integratsiyasi majburiy o'zaro manfaat yoki maqsad, intilish, qadriyat kabilar asosida joriy etiladi. Hozirgi davrda davlatlararo integratsiyalashuvlar jarayonlari ham jadal rivojlanmoqda. Bu esa xorijiy tajribalarni o'rganish va ta'limning ma'lum jabhalarida keng qo'llash imkonini beradi.

L.V.Kolyasnikova integratsiya so'zini lotincha "integratio" – tiklash, to'ldirish, "integer" butun so'zidan kelib chiqqanligini qayd yetgan holda, uning ikki ma'noda ifodalanishini ta'kidlaydi:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

B.S.Abdullayeva ta'kidlashicha, fanlararo aloqadorlik ijtimoiy jarayon bo'lib, fanlarni bog'lovchi subyektivlarni tabiiy, ijtimoiy va shaxsiy mavjudliklar qonuniy bog'liqliklari va amaliy omillariga yanada chuqurroq kognitiv kirib borish "doimiy" jarayonidir.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning imkoniyatlarini to'g'ri idrok etishning o'ziga xosligi shundaki, biri ikkinchisini to'ldirishini, ularni bir-biridan ajratib o'rganish mumkin emasligini tushunadilar.

Integratsiyalashgan ta'lim nazariyasi va amaliyoti masalalarini xorijiy tadqiqotchilar G.V.Muxametzyanovoy, A.L.Kroeber, C.Kluckhohn, W.Untereiner, A.Meyer, G.Culturelar ta'limda fanlararo aloqadorlik, uzviylik va integratsiya masalalarini hal etishga qaratgan. Fanlararo integratsiyani ta'minlash, ta'lim samaradorligini oshirish va nazorat qilishda bilim hamda ko'nikmalarini shakllantirish masalalari ahamiyatlidir. Kelajakda pedagoglar hamda tinglovchilar fanlararo integratsiya orqali, nafaqat ta'lim sifatini yaxshilash, balki turli sohalar uchun yetuk va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga erishish mumkin.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Fanlarni integratsiyalash – mavzularning takrorlanmasligi, vaqtni tejash, ya'ni kam vaqt sarflab katta hajmdagi materialni o'zlashtirish imkonini beradi va o'zida tashkilotchilik vazifasini ham ifodalaydi.


Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari orasidagi integratsiyaning to'liq ta'minlanishi orqali, tinlovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmaklarni Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari darajasida to'liq o'zlashtirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratishdan iborat. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hozirgi paytda fan va ta'limning integratsiyasini ravojlantirish muammosi ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqotchi va olimlar fan hamda ta'limdagi yangiliklarni o'zlashtirish jarayonida quyidagi talablarga e'tibor qaratish lozimligini takidlaydilar:

– jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini – tizimlilik, ya’ni monomarkazda ta’lim turlari integratsiyasi;

– fanlar bloklari orasidagi integratsiya – aniq fanlar va tabiiy-ilmiy fanlar, kasbiy va ixtisoslik fanlarning o‘zaro integrativ aloqadorlik jarayonlari;

– fanlar modul (bo‘lim)lari orasidagi integrativlik, ya’ni ta’lim jarayonida fanlar mazmuni, o‘qitish metodi, texnologiyasi va o‘qitish vositalarining o‘zaro bog‘liqligi.

Ta’lim integratsiyasi deyilganda, nafaqat bilimlarni fanlararo bog‘lanish, balki o‘qitish texnologiyalari, usul va shakllari integratsiyasi ham tushuniladi. O‘quv jarayonida samaradorlikka erishish uchun integratsiyaning turli ko‘rinishlaridan foydalanish mumkin (1-rasmga qarang):



1-rasm. O‘quv jarayonida integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish

Dialektikada – “integratsiya” tushunchasi borliqni yaxlitlikda tadqiq qilishning markaziy falsafiy va uslubiy asosi sifatida qaraladi, tabiat, jamiyat va ong rivojlanishining umumiy qonunlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologiyada integratsiya murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari, yosh bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarni o‘rganish, bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish, faoliyatning yetakchi turlari o‘zgarishi doirasida ko‘rib chiqiladi.

Integratsiya ta’lim mazmunining muayyan ketma-ketlikda, uzviy va tizimli joylashtirilishini, yangi mavzuni o‘zlashtirishda mavjud bilimlarga tayanishni, o‘quv materialining ma’lum darajada navbatdagi bosqichlarda qo‘llanilishini, o‘quv-tarbiya jarayoni bosqichlarining davomiyligi va yaxlitligini ifodalaydi

Tadqiqotlar davomida ilmiy asoslangan statistik tahlil, qiyosiy taqqoslashlar va boshqa yondashuvlar hamda usullardan foydalanildi. FSMU, “ASSESMENT” metodlaridan test-so‘rovnoma orqali tahlil qilindi.

Tajriba sinov ishlarini tashkil qilish metodikasi: ta’lim-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya, ilmiy-metodik fanlarni mustaqil o‘rganish, ularning bir-biriga bog‘liqligini tushunish va ularni amaliy hayotda birlashtirish jarayoni. Bu integratsiya jarayoni orqali o‘quvchilarga bir necha fanga oid ma’lumotlarni bir vaqtning o‘zida berish, ularni biror masalaga doir savollarga alohida javob topish uchun o‘zlashtirishga imkon beradi. Bu usul ta’lim-tarbiya protsessini samarali va effektiv qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi[1].

Tajriba-sinov ishlari ta’lim jarayonini integratsiyalash texnologiyalari asosida tashkil etish bo‘yicha o‘tkazildi. Kompyuter savodxonligi darslari bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik ishlanmalar amalda sinab ko‘rildi. Nazorat guruhlari va tajriba guruhlarda ishlab chiqilgan integratsiyalashgan testlar bo‘yicha darslar o‘tilib, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi aniqlandi[2].

Informatika va axborot texnologiyalari soha mutaxassis tinglovchilari kasbiy tayyorgarligini fanlar integratsiyasini ta’minlash muammosini hal qilish orqali samaraliroq tashkil etish, soha va fanlar yutuqlarini fanlararo tahlil qilish, ushbu tahlil natijalariga asoslangan rivojlanish, psixologik va texnik ta’limni integratsiyalash nazariyasi va uning asosida metodikasini takomillashtirish bilan belgilandi.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahar “Ishga marhamat” monomarkazidagi Kompyuter savodxonligi guruhi o‘quvchilarida o‘tkazildi. Ushbu tadqiqot ishida 4/24-guruhi nazorat guruhini, 3/24 tajriba guruhini tashkil qildi. Tajriba-sinov ishida jami 53 nafar o‘quvchilari qamrab olindi. Shulardan 29 nafari tajriba guruhi, qolgan 24 nafari nazorat guruhi sifatida olindi.

Tajriba-sinov dasturiga muvofiq, guruhlardan oktabr oyida integratsiyalashgan test-so‘rovnoma topshirig‘i olindi.


Jadval-1

Integratsiyalashgan test-so‘rovnoma topshirig‘i jadvali.

Guruhlar	Guruh t/r	Talabalar soni	Dastlabki test so‘rovi natijalari Talabalarning o‘zlashtirishi % da	Keyingi test so‘rovi natijalari Talabalarning o‘zlashtirishi % da
Tajriba guruhi	“Kompyuter savodxonligi”	29	74%	84%
Taqqoslash guruhi	“Buxgalteriya”	24	73%	78%

Diagramma-1

Tajriba-sinov natijalarining qiyosiy diagrammasi



[1] Baydenko V.I., Seleznyova N.A. Нынешний раунд Болонского процесса: сохранение оптимизма. И немного о российском… (статья 1) // Высшее образование в России. 2017. № 11 (217). С. 122–136.

[2] Primov D.D. Ta’lim muassasalarida fanlararo integratsiyani ta’minlashning zamonaviy texnologiyalari // Guliston davlat universiteti axborotnomasi. – Guliston, 2024. № 4. 65 b.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhidagi ballarning o‘rtacha qiymati nazorat guruhiga nisbatan yuqori. Pedagogik tadqiqotlarda gipoteza sifatida nazorat guruhida olib borilgan an’anaviy metodika asosida olingan natijalar tajriba guruhida olib borilgan maxsus metodika asosida olingan natijalar bilan taqqoslanib, tajriba guruhlaridagi natijalarning samarali ekanligi ko‘rsatildi. Tajriba-sinov ishlari natijasida olingan umumiy ko‘rsatkichlar mosligi va farqlarining haqqoniyligini tekshirish va matematik-statistik ishlov berish uchun ishchi jadval ishlab chiqildi. Tajriba sinov ishlarini olib borishda olingan natijalar samaradorligini aniqlash maqsadida tinglovchilarning kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholashda Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazidan ikki bosqichda ikkita parallel tajriba va nazorat guruhlarida erishilgan natijalar bir-biri bilan taqqoslandi.

Nazorat guruhlarida o‘qitish jarayoni amaldagi fan dasturlari asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, tajriba guruhlarida biz taklif etgan takomillashgan fan dasturlaridan foydalangan holda o‘tkazildi. Nazorat va tajriba guruhlarining tajriba boshida va tajriba oxirida olingan natijalar muntazam tahlil etib borildi va ular bir-biriga qiyoslanib, xulosa qilindi.

Tajriba guruhida integratsiyalashgan fan dasturlarini qo‘llashning samaradorligi nazariy asoslanib, amaliy jihatdan isbotlab berildi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’limda zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda integrativ yondashuv sifatida qaraladi, ya’ni u ta’lim jarayonini yaxlitlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga mehnat bozorida raqabatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim muassasalarida o‘qitishning asosiy talabi tinglovchining hayotiy tajribasi, ilgari olgan bilimlari va qiziqishlari asosida yangi ta’lim berishdir.

Muassasadagi fanlarni bir-biriga bog‘lab o‘qitishda o‘qituvchi hamisha o‘z ustida ishlashi hamda bilim, ko‘nikma va malakasini takomillashtirib borishi kerak, uning pedagogik mahorati o‘sib borishi tinglovchilarning faolligida namoyon bo‘ladi. Fanlararo integratsiya turli fanlar va distiplinlarning birlashtirilishi yoki bir-biriga bog‘lanishi jarayoni hisoblanadi. Bu muhitdagi turli sohalardagi bilimlarni va ma’lumotlarni bir-biriga bog‘lash orqali yangi bilim va texnologiyalar yaratishga imkon beradi.

Fanlararo integratsiya matematika, fizika, kimyo, biologiya, injinerlik, informatika va boshqa sohalarning bir-biriga bog‘lanishini o‘rganish uchun muhimdir. Bu jarayonning natijasida tinglovchilarning tushunchalari kengayadi va ularning yaratuvchi fikrlash usullari rivojlanadi. Zamonaviy ta’limda fanlararo integratsiya istiqboli yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi.

Xorijiy tajribalar, ayniqsa, Finlandiya, Shvetsiya, AQSh, va Yaponiya kabi mamlakatlarning ta’lim tizimlaridagi integrativ yondashuv, tinglovchilarning ta’limga qiziqishini oshirish, fanlar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish va ularning amaliy ko‘nikmalarini oshirishda samarali ekanini ko‘rsatdi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham integrativ yondashuvni yanada kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish mumkin.

Integrativ yondashuvni o‘rganish va uni amaliyotga tatbiq etishda xorijiy tajribalardan foydalanish, tinglovchilarning umumiy rivojlanishiga yordam beradi va ta’lim tizimining global standartlarga moslashishini ta’minlaydi.

Tinglovchilarni tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatga tayyorlashda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tabiat hodisalari, kundalik turmushda, tabiatda kuzatilayotgan jarayonlarning mohiyatini anglashga qaratilgan muammoli vaziyatlarni yaratish va ularga javob topish tarzida tashkillash integratsion yondashuv asosida ta’limni amalga oshirish uchun xizmat qila oladi.

Integratsion yondashuv asosida amaliy mashg‘ulotlarni olib borish tinglovchilarda yaratuvchanlik, tajribalar o‘tkazish, yangilikka intilish, o‘z g‘oyalari va loyihalari ustida izlanish ko‘nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Kitob va turkum nashrlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni: www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni PF-5847 08.10.2019. Manba: www.gov.uz.
3. Abdullayeva B.C. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida // Uzluksiz ta’lim ilmiy-uslubiy jurnali. Toshkent, 2005. №1. 3-b.
4. Колясникова Л.В. Диагностическое обеспечение образовательного процесса / Л.В. Колясникова. – Екатеринбург: Изд-во Ros.gos. проф. пед. ун-та, 2003. -152 с.
5. Kadirova G.X., P rimov D.D. Integratsion yondashuv asosida ta’lim oluvchilarni tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shartlari. Buxoro davlat pedagogika instituti, 2023. – 89 b.

Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati:

1. To‘xtayeva Z.Sh. Oliy Ta’limda umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integrasiyasini ta’minlash metodikasi (yengil sanoat yo‘nalishlari misolida). Diss, … ped. fan. nomz. – Toshkent, 2022. B. 111.

Jurnallardagi maqolalarga havolalar:

1. Байденко В.И., Селезнёва Н.А. Нынешний раунд Болонского процесса: сохранение оптимизма. И немного о российском… (статя 1) // Высшее образование в России. 2017. № 11 (217). С. 122–136.
2. Primov D.D. Ta’lim muassasalarida fanlararo integratsiyani ta’minlashning zamonaviy texnologilari // Guliston davlat universiteti axborotnomasi. – Guliston, 2024- № 4. 65 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI RAHBARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Mazkur maqolada kognitiv fikrlash, uning pedagogik-psixologik xususiyatlari, kognitiv fikrlashning inson hayotidagi ahamiyati, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda turli metodlarni qo‘llash. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning metodi va usullaridan mantiqiy savollar, krossvordlar, loyiha texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan. Shu bilan birga maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishni tashkil etishning shart-sharoitlari va tajriba sinovning olib borilishi va tahliliy natijalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv kompetentlik, maktabgacha ta’lim, bilim, mustaqil o‘qish, ta’lim, tashkilot, rahbar, metod, rivojlanish, mustaqil fikrlash, sifat, samardorlik.

KIRISH

Jahon ta'lim jarayonida kognitiv kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish miqyosida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining YUNESKO tomonidan 2030-yilda belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Boshqaruv faoliyati mazmuni, talablari va yo'nalishlarini takomillashtirib borishni rahbar xodimlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kognitiv va kompetensiyaviy yondashuvlar talab etmoqda. Shunga ko'ra, raqobatbardosh va malakali rahbar xodimlarni tayyorlashda hamda malakasini oshirishda bilimlarini amaliyotda qo'llash katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyat rivojining turli sohalariga maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak rahbarlarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish axborotlashtirish sharoitida ularning masofaviy ta'limni samarali tashkil etish malakasini tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini oshirishda o'z dolzarbligini saqlab qoladi.

Hozirgi zamonda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini nazariy asoslashda mazmun mohiyatiga e'tibor qaratish tushunchalarining nisbati yo'nalishidagi muammolar eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bularning ichida ko'proq yo'nalishi maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining pedagogik faoliyatidan iborat bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda, maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bo'g'ini bo'lishi bilan birga keyingi ta'lim tizimida, rahbarlikka tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda bu ta'lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon, qaror va farmoyishlardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2707-sonli, 2017-yil 30-sentyabrdagi – maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-5198-sonli farmoni, 2017-yil 9-sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli qarori, shuningdek, maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi qo'yiladigan davlat talablari kognitiv kompetentlikda rahbar xodimlarni ta'lim muassasalarida aniq dasturlar orqali o'rganadi.

Prezidentimiz "Har bir rahbarning faoliyat mezoni – xalqning orzu-umidlarini o'zi uchun asosiy maqsad qilib, ularni izchillik bilan ro'yobga chiqarishdan iboratdir" deb rahbar shaxsiga qat'iy javobgarlik va mas'uliyat hissini yuklaganlar. Oxirgi yillarda inson omiliga e'tibor kuchaygani bois boshqaruv masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Boshqaruv vazifalaridan yana biri fan taraqqiyotiga, olimlarga g'amxo'rlik qilishdir" deb rahbarlikda insonparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutishini yozib qoldirgan.

O'z-o'zini doimiy rivojlantirish, o'zgarishlarga, yangi va kutilmagan vaziyatlarga tezkor munosabat bildirish va moslashish qobiliyatiga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariga nisbatan mobil tushunchasini qo'llashimiz mumkin. Chunki aynan shu turdagi rahbargina o'zining bosh g'oyasini to'la anglaydi, rahbarlik faoliyati bilan shug'ullanayotganligini ongli ravishda tahlil qiladi, kasbiy faollikni namoyish qiladi va amaliy harakatlarga kirishuvchan bo'ladi. Demak, kognitiv kompetensiyani faqatgina shaxsning jismoniy harakatchanlikka bo'lgan qobiliyati emas, balki uning psixologik xususiyatlari, kognitiv va hissiy jarayonlarning harakatchanligi sifatida ham anglashimiz mumkin.

Kognitiv kompetensiya tushunchasi dastlab o'tgan asrning boshlarida amerikalik sotsiolog olim Pitirim Sorokin tadqiqotlarida uchraydi. Uning fikricha, kognitiv kompetensiya "insonning yoki ijtimoiy obyektning ma'lum bir ijtimoiy vaziyatdan boshqasiga "ko'chishi"ni ifodalaydi". Tadqiqotchi individual va guruhli ijtimoiy kompetentlikni tadqiq qilish asnosida ularni vertikal va gorizontal turlarga ajratadi hamda mazkur tushunchaning ilmiy atama sifatida vujudga kelishini dunyo miqyosida inson maqomining o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarni ifodalash zaruriyati bilan izohlaydi.

Kanadalik psixolog Kristofer Grinning fikricha, "kognitivizm" atamasi birinchi bo'lib mantiqiy pozitivizm bilan bog'liq nazariyalar, etika (yoki metaetika)da paydo bo'lgan, keyin mantiqiy pozitivizm yo'naltirilgan fan falsafa orqali, u psixologiya va boshqa fanlarga o'tdi. Grin XX asrning o'rtalarida psixologlarning beixtiyor murojaatini tushuntiradi.

"Kognitiv" so'zi bilan uning asl "qat'iy" ma'nosi bir xil ketishi, pozitivizm-metaestetik tomonidan oshkor. "Qat'iy" ma'noda, kognitiv, asosan, haqiqat yoki yolg'on uchun tasdiqlanishi mumkin bo'lgan "Mental" (ruhiy) hodisalarning (odatda ma'no ifodalarining) xarakteristikasi bo'lib xizmat qiladi[1] . Boshqa xorijiy tadqiqot esa, kognitivizmni bixeovirizmga o'xshatadi.

Kognitivizm bu – xulq-avtorning kognitivi va ruhiy holatlar orqali tushuntiriladigan ta'limotdir[2]. Lekin kognitivlik bu faqat xulq-atvor emas, balki juda murakkab va yaxlit intellektual konstruktiv tizimdir. Kognitivizm ratsionalizm va kompyuterning modeli sifatida ongning ratsionalistik talqini shaklida ishlaydi[3]. Aslida kognitivlikda noratsionallik, intuitsiya ham namoyon bo'ladi. G'arb olimlaridan U. Mak-Kallox va V. Pittslar 1948-yildayoq tafakkur ustida ilmiy izlanish olib borib, tafakkurni kognitiv ma'lumotlarni qayta ishlovchi jarayon, deb ta'kidlaganlar[4] .

Pedagogning kognitiv kompetentligini ilmiy asoslash yuzasidan izlanishlar olib borgan E.A.Poddubskayaning fikricha, tushunchaning mohiyatini ta'lim oluvchilarning rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida birlashgan hamda o'zaro bog'liq bo'lgan komponentlarning murakkab tizimini ifodalovchi ta'lim jarayoni nuqtai nazarida pedagogik hodisa sifatida tahlil qilish mumkin. Tadqiqotchi kognitiv kompetentlikni pedagogik hodisa sifatida talqin qilar ekan, uni qadriyatli-mazmunli, rivojlantiruvchi-bashoratlovchi, tartiblashtiruvchi-korreksion va refleksiv-rag'batlantiruvchi funksiyalari orqali yoritish mumkinligini e'tirof etadi. Mazkur funksiyalarni belgilashda kognitiv kompetentlikning ifodalanish darajasi sifatida pedagogning kasbiy-shaxsiy tavsifi hamda ta'lim maqsadlari unumdorligiga erishilishi orasidagi ma'lum qonuniyatlarga asoslangan aloqalar inobatga olingan.

Kognitiv mavzusi mamlakatimiz olimlari tomonidan ham o'rganilgan. Olimalar F.R.Qodirova va R.M.Qodirovalar til o'rganish va uning muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarda kognitivlikni aqliy faoliyatni rejalashtirish imkonini berishini ta'kidlab, "rejalashtirish jarayonida

[1] Green Ch.D. Where Did the Word "Cognitive" Come From Anyway? //Canadian Psychology, 1996, 37. – P. 33.
[2] Woolgar, S. Reconstructingman and machine: A note on sociological critiques of cognitivism // The Social Construction of Technological Systems.Cambridge MA: MIT Press, 1987. – P. 313.
[3] Dreyfus H. The socratic and platonic basis of cognitivism. AI [Artificial Intelligence] & Society, 1988, 2. – P. 100.
[4] Эволюция. Мышление. Сознание (когнитивный подход и эпистемология). – М.: Канон, 2004. – С. 15.

tilning yana bir muhim vazifasi – insonning xulq-atvorini boshqarish vazifasi paydo bo‘ladi”, deb xulosalaganlar.

Maktab o‘qituvchilari kogniyutiv kompitensiyasi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazgan olimlar (R.Safarova, X.Tojiboyeva, F.Ibragimova, I.Kopotyuk) bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-kognitiv faolligi ijtimoiy faollikning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi, deb ta’kidlaganlar.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Kognitiv inglizcha (lotin) “cognize” so‘zidan olingan bo‘lib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki “cognition” – bilish, tushunish kabi ma’nolarni beradi[5]. O‘z o‘rnida bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog‘liq hodisadir.


Dunyoni bilish uchun inson kognitiv qobiliyatlardan foydalanadi – idrok, atrofdagi voqelik haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, diqqat, xotira va nutq. Kognitiv buzilish miyaning shikastlanishi bilan bog‘liq.


Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning 15 xil usul (metod)lari mavjud. Insonning hayot sifati va muvaffaqiyati bevosita fikrlash va idrokka bog‘liq, shuning uchun ularni rivojlantirish kerak. Kognitiv fikrlashni yaxshilashning ko‘plab usullari mavjud. Masalan:


1. Ovqatlanish tartibi va ratsioni.
2. Shakar, yog‘ kislotalari va aminokislotalar yetarli ekanligi yoki yo‘qligi.
3. Jismoniy mashqlarni muntazam ravishda bajarish.
4. Sinxron chizish.
5. Og‘irlikni yengish.
6. “O‘tish harakatlari” mashqidan foydalanish.
7. Alifbo usuli yordamida mashq qilish.
8. Raqamli treningni qo‘llash.
9. Xotira mashqlari.
10. Mantiqiy jumboqlarni yechish.
11. Har xil o‘yinlar o‘tkazish.
12. Videolarni faqat audio bilan tomosha qilish.
13. Kubik-rubik yasash.
14. Shahar bo‘ylab xaritasiz yurish.
15. O‘z-o‘zi bilan gaplashish.

Dunyoni bilish uchun inson kognitiv qobiliyatlardan foydalanadi – idrok, atrofdagi voqelik haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, diqqat, xotira va nutq. Kognitiv buzilish miyaning shikastlanishi bilan bog‘liq.

Quyida biz kognitiv tafakkurni rivojlantirish uchun mantiqiy savollar namunasini berib o‘tmoqchimiz. Mazkur tasvirdagi savollar insonni mantiqiy fikrlashga, topshiriqning mazmun-mohiyatini anglashga undaydi va shu bilan bir qatorda insonning kognitiv fikrlashini rivojlantiradi.









Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish metodikasiga yo‘naltirilgan tajriba-sinov jarayonining statistik tahlili

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rahbarlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida tajriba-sinov jarayonida o‘quv seminarlarda faol o‘qitish uslublari qo‘llanildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rahbarlarda kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish uchun pedagoglar interaktiv va faol o‘qitish usullaridan foydalandilar. Masalan, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish, krossvordlar, boshqotirmalar, rolli o‘yinlar, loyiha faoliyati kabi mashg‘ulotlar rahbarlarda ko‘nikmalarni rivojlantirdi.

2. O‘quv seminarlarda tanqidiy va ijodiy fikrlash bo‘yicha mashqlar tashkil etildi. Seminarlarda rahbarlarga tanqidiy fikrlashni o‘rgatish uchun turli vazifalar va savollar berildi. Ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida bahs-munozaralar, tahliliy mashqlar va ijodiy ishlar tashkil etildi.

3. O‘quv seminarlarda hamkorlik va jamoada ishlash bo‘yicha amaliy mashqlar bajartirildi. Jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun guruhlarda topshiriqlar bajarishni taklif qilindi. Bu orqali rahbarlarda muloqot qilish, o‘zaro hurmat qilish va birgalikda qaror qabul qilish qobiliyati shakllandi.

4. O‘quv seminar jarayonida rahbarlarning mustaqilligi e’tiborga olinib, ularni mustaqil bilim olishiga, tashabbus ko‘rsatishiga undaldi. Bunday yo‘l bilan ularning o‘zini o‘zi boshqarish va mas’uliyatni his qilish qobiliyatini rivojlantirishga ko‘mak bo‘ldi.

5. Faoliyat davomida texnologiyalardan foydalanishga undaldi. Zamonaviy texnologiyalarni boshqarish jarayonida qo‘llash rahbarlarda axborot-texnologik savodxonlikni oshirdi. Internet resurslari, virtual laboratoriyalar va elektron darsliklardan foydalanish orqali ularda bu ko‘nikmalarni rivojlantirildi.

Yuqoridagi faoliyat yo‘nalishlari asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbaridan anketa-so‘rovnoma o‘tkazdik.

NATIJALAR

Quyidagi jadvalda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rahbarlarning kognitiv kompetensiyalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari yoritilgan. Tajriba-sinov ishlarining samaradorligini baholash bevosita anketa-so‘rovnoma natijalarini o‘zaro qiyosiy tahlil etish asosida amalga oshirilishini nazarda tutgan holda 1-jadval shakllantirildi.

[5] https://izoh.uz/word/kognitiv

1-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining kognitiv kompetensiyalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari tahlil 1-bosqich so'rovnomamiz

№	Anketa savollari	Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari		Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari	
Nafar Hisobida		Tajriba guruhi (75 nafar)		Nazorat guruhi (90 nafar)	
		Foiz hisobida	Nafar Hisobida	Foiz hisobida	
1	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishdan maqsad nima?	42	31,5%	40	36,%
2	Kognitiv ko'nikmalarni o'rgatishda qanday amaliy mashqlardan foydalanish mumkin?	57	42,7%	40	36%
3	Rahbarlarda muloqot qilish, o'zaro hurmat qilish va birgalikda qaror qabul qilish qobiliyati qanday shakllantiriladi?	38	51%	33	29,7%
4	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlarda mustaqil bilim olishga, mas'uliyatni his qilish qobiliyati qanday rivojlantiriladi?	45	63%	40	42%
5	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlarda axborot-texnologik savodxonlik qanday oshiriladi?	39	52,5%	39	35,1%
6	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha seminarlarda qatnashasizmi?	37	50,5%	32	28,8%
7	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda qanday xususiyatlar hisobga olinadi?	64	71,8%	29	26,1%
8	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda qanday usullardan foydalanish mumkin?	41	31%	30	27%

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari kognitiv kompetensiya bo'yicha yetarlicha bilimga egalar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishdan maqsad nima (?) degan savolimizga 75 nafar tajriba guruhimizdagi rahbarlarning 31,5 %i to'g'ri javob berganlar. Kognitiv ko'nikmalarni o'rgatishda qanday amaliy mashqlardan foydalanish mumkin (?) deb berilgan savolimizga 57 nafar rahbar 42,7% shaxmat-shashka mashqlari, mantiqiy o'yinlar, deb javob berishgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha seminarlarda qatnashib turasizmi (?)degan savolimizga 37 nafar rahbar, ya'ni 50,5 %i "Ha" qatnashib turamiz deb javob qaytarishgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda qanday usullardan foydalanish mumkin (?) degan savolimizga 41 nafar rahbar 31 %i u yoki bu usullarni sanab o'tganlar. Yuqoridagilardan xulosa qilib quyidagilarni aytib o'tish lozim. Ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari kognitiv kompetensiya xususida, ayniqsa, yosh rahbar xodimlar 40 yoshgacha bo'lganlarida yetarlicha tushunchaga egalar. Ammo ularni o'z faoliyatlarida qo'llamaydilar va xodimlari o'rtasida ham ommalashtirmaydilar.

1-bosqich tajriba ishlarimizdan so'ng biz 2-bosqich shakllantiruvchi tadqiqot ishimizga o'tdik. Shundan so'ng olib borgan tadqiqotimiz qanchalik samara berganligini aniqlash uchun amaliyot yakunida biz zakovat intellektual o'yinini tashkil etdik. Rahbar xodimlarni doimiy ravishda kuzatib bordik, tahlil qildik, savol-javoblar uyushtirdik, loyiha ishlarini qabul qildik. Shundan so'ng biz ularning tayyorlagan ishlarini yuqorida ishlab chiqilgan mezonlarimiz bo'yicha yana tahlil qildik.

2-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarida kognitiv kampitensiyalarning shakllanganlik ko'rsatgichlarining tajribasinov ishlaridan keyingi qiyosiy tahlili

Tajriba bosqichi va o'quv yili	O'zlashtirish darajasi	Tajriba guruhlarida		Nazorat guruhlarida	
		Tajriba boshida 75	Tajriba oxirida	Tajriba boshida 90	Tajriba oxirida
2023-24 O'quv yili	Eng yuqori (a'lo)	28 37%	35 46%	42 46%	45 50%
	Yuqori (yaxshi)	22 29%	28 37%	30 33%	32 35%
	O'rta (qoniqarli)	25 34%	12 16%	18 20%	13 14%

Anketa so'rovnoma natijalari bevosita maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish ishlarini tashkil etish samaradorligini baholashga imkon berdi. Tajriba guruhi bilan o'tkazilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish ishlari bo'yicha o'quv seminarlari, individual ishlar yaxshi natija ko'rsatganini jadval natijalariga ko'ra asosladik.

Kognitiv qobiliyatining asosiy turlari bo'lmish diqqat, xotira, tafakkur, sezgi, nutq ko'nikmalari, o'qib-o'rganish ko'nikmalari maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan shu jarayonlar rahbar xodimning vaziyatga tez moslashishi, strategik rejalar tuzishi va ekstremal vazi-

yatlarda to‘g‘ri yechimlar topishi uchun muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar xodimlarini kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda esa quyidagi metodlardan foydalanish samara beradi. Bular:

– Krossvordlar va boshqotirmalar;
– Mantiqiy masalalar yechish;
– Chet tillarni o‘rganish;
– Kitob mutolaasi;
– Intellektual o‘yinlar;
– Meditatsiya;
– Jismoniy mashqlar;
– Rasm chizish.

Bunday mashqlarni doimiy kun tartibiga kiritish lozim.

XULOSALAR

Kognitiv ko‘nikmalar har kuni bizga oddiy va murakkab muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bizning hayot darajamiz, martaba va sog‘ligimiz aqliy qobiliyatlarning qanchalik rivojlanganligiga bog‘liq.

Kognitiv qobiliyat – miyaning atrofimizdagi dunyo haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish va qayta ishlash qobiliyati. Bularga xotira, e’tibor, kognitiv moslashuvchanlik, tasavvur, nutq, mantiqiy fikrlash, sezgi organlari tomonidan ma’lumotni idrok etish qobiliyati kiradi. Kognitiv qobiliyat odamni hayvondan ajratib turadi, ular omon qolish va rivojlanish uchun zarurdir. Ular bizga uydan ishgacha bo‘lgan yo‘lni eslab qolish, hujjatlarni diqqat bilan o‘qish, bir vaqtning o‘zida kechki ovqat tayyorlash va oila a’zolari bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha olib borgan tadqiqotimiz bo‘yicha biz quyidagi xulosalarga keldik.

Birinchidan, kognitivlik inson intellektual qobiliyati bo‘lib, uni muammo sifatida o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan tadqiqot obyektiga aylangan;

Ikkinchidan, kognitivlik muammosi dastlab psixologiya, neyrobiologiya, nevrologiya, lingvistika fanlarida tadqiq etilgan bo‘lsa, asta-sekin pedagogika faniga ham ham kirib bormoqda;

Uchinchidan, psixologlar kognitivlikni ruhiy jihatlarini tadqiq etsalar, pedagoglar uning genoseologik, mantiqiy, ma’lumotni o‘qib-o‘rganish va uni idrok qilish tomonlarini o‘rgana boshladilar.

To‘rtinchidan, kognitivlik muammosini epistemologik jihatdan o‘rganish inson bilish qobiliyatining kreativ va konstruktiv jihatlarini kengroq ochish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O‘RQ-595-son.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi pf-60-son Farmoni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3651-sonli Qarori.

4. Zeer E.F. Kasbiy ta’limni modernizatsiya qilish: kompetentsiyaga asoslangan yondashuv / E. F. Zeer, A. M. Pavlova, E. E. Simanyuk. Moskva: Moskva nashriyoti, 2005.

5. Дружинина В.Н., Ушакова Д.В. Когнитивная психология. – М., 2002.

6. Солсо Р.л. Когнитивная психология –М.: 2006.

7. Амирова л.А. Развитие профессиональной мобильности педагога в системе дополнительного образования: автореф. Дис. д-ра. пед. наук. – уфа, 2009.

8. Аракеловат.Л. Взаимное обучение как условие развития когнитивной мобильности у будущих учителей: автореф. Дис. … канд. пед. наук. –Екатеринбург, 2006. – 26 с.

9. Ilyina N. N. Kasbiy-pedagogik universitet talabalarini tayyorlash uchun amaliyotga yo‘naltirilgan klasterni tashkil etishni didaktik-texnologik qo‘llab-quvvatlash / N. N. Ilyina, O. N. Shultz. Matn: to‘g‘ridan-to‘g‘ri / / professional obra akmeologiyasi o‘qish: 16-xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari, 17-18-mart 2020, Yekaterinburg / ros. Davlat prof. - ped. Un-t. Yekaterinburg, 2020. 324-327-betlar.

10. Muhidova O. N. (2022). O‘qituvchining transversal vakolatlari uning diniy-shaxsiy fazilatlari namoyon bo‘ldi. Eurasion journal of academic research. Innovative academy research support center (2022) volume 2 issue 5, 69-76.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0003-3169-0681

PROFESSIONAL TA’LIMDA PEDAGOGLARNING IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Jo‘rabek Rahimov



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Ushbu maqola pedagoglarda ijodkorlik kompetentni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarning samaradorligini tahlil qilish hamda ta’lim jarayonida ularni qo‘llash yo‘nalishlarini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Shu sababli mavzu milliy kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish va kelajak mutaxassislarini shakllantirish masalalarida dolzarb va ahamiyatliligi haqida so‘z boradi. Shuningdek, professional ta’limda pedagoglarning ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish asosida zamonaviy ta’lim texnologiyalarini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirilgan tarzda ta’lim jarayonida qo‘llash va bu orqali ta’lim sifatining ijobiy dinamikasiga ta’sir ko‘rsatish masalalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, ijodkorlik, muhit, kasbiy ta’lim tizimi, takomillashtirish, kompetensiya, o‘qituvchilar, infografika, hot potatoes dasturi, innovatsion texnologiyalar, o‘quv usullari, kuzatish, baholash.

KIRISH

Jahon miqyosida ilm-fan, texnika va texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan sharoitda barcha sohada, jumladan, professional ta'lim tizimida ham liderlik kompetensiyasiga ega kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Buning uchun pedagog kadrlarning uzluksiz ta'lim olishini, kasbiy bilimlarini muntazam rivojlantirishni ta'minlash zarurdir. YUNESKOning 2030-yilgacha qabul qilingan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Hayot davomida ta'lim olishga imkoniyat yaratish" tamoyilida "ijodiy fikrlang", "jamoada ishlang", "yangiliklarga doim intiling" kabi fikrlarning kiritilishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Dunyoda professional ta'lim pedagog kadrlarning bilimlarini rivojlantirish, o'quv-metodik resurslarni shakllantirish, ta'lim sifatini oshiruvchi mexanizimlarni joriy etish, ta'lim sohasiga zamonaviy metod va texnologiyalarni tadbiq etish orqali kasbiy bilimlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, xalqaro "Teacher Professional Development Program" [2] loyihasi o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish dasturi kompetenligiga ega pedagog kadrlarga ehtiyoj mavjud ekanligini belgilamoqda.

Respublikamizda Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renesans poydevorini barpo etish borasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qaroriga muvofiq "Umumqamrovli va adolatli, sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini yaratish"[3] kabi ustuvor vazifalar belgilandi. Shu nuqtayi nazardan professional ta'lim muassasasi pedagog kadrlarining kasbiy faoliyatidagi rivojlanishini ta'minlash dolzarb hisoblanadi.

"Kompetentlik" tushunchasi shaxsning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Agar pedagogik kompetentlikni bugungi globallashuv va axborot asri talablari doirasida ifodalaydigan bo'lsak, **kompetentli pedagog** – texnologiya yutuqlari va jamiyatning iqtisodiy jarayonidagi o'zgarishlarni ta'lim jarayoniga transformatsiya qila oladigan, pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va oqilona foydalanish asosida jahon bozori talablariga mos keluvchi raqobatbardosh, malakali kadrlar tayyorlashga, kelajak avlodni ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlarga moslashuvchanligini rivojlantirishga qodir, ijodkorlik, izlanuvchanlik qobiliyatlariga ega shaxs sifatida namoyon bo'lishi maqsadga muvofiq.

Rivojlanishning innovatsion yo'lini tanlash, yuqori texnologiyalarni yaratish va amalga oshirish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bilim va ma'lumotlarning o'sib borayotgan o'rni yuqori malakali mutaxassislarga katta talab qo'ymoqda. Bu ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining yangi shakllarini talab qiladi va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qodir bo'lgan yangi avlod o'qituvchilarini shakllantirishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilaydi.

Ilmiy tadqiqotimizda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning bilim va ko'nikmalarini zamon talablari asosida shakllantirish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish va yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash orqali ta'lim oluvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini oshirishga qaratilgan muhim ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi. Jumladan:

M.A. Choshanovaning fikricha, kompetentsiya oddiy bilimlarga ega bo'lishgina emas, balki uni doimiy ravishda yangilab borish va muayyan sharoitlarda qo'llash istagi, eng maqbul va samarali yechimlarni tanlash qobiliyati, fikrlashning moslashuvchanligi, tanqidiy fikrlash qobiliyatidir. noto'g'ri fikrlarni baholash va rad etish.

N.Xomskiy "Kompetensiya" tushunchasini til nazariyasi bilan bog'lab, unga quyidagicha ta'rif beradi: "Biz kompetentlik (so'zlovchita'lim oluvchining o'z tilini bilishi) va undan foydalanish (tildan to'g'ri foydalanish qobiliyati) o'rtasidagi tub farqni ko'rishimiz mumkin. Muayyan vaziyatlarda). Faqat beg'ubor foydalanish malakani bevosita aks ettiradi". Aslida, bu to'g'ridan-to'g'ri vakolatni aks ettirmasligi mumkin. N.Xomskiyning fikricha, "aslida"dan foydalanish so'zlovchining o'zi va uning tajribasi bilan bog'liq.


A.M.Novikov "kompetent" ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishni maqsad qilgan: "Iqtidorga asoslangan ko'nikmalar texnologiyani rivojlantirish, hayot sifatini yaxshilash va ish samaradorligini oshirish uchun ishlatilishi kerak". Barkamol va texnologik jihatdan ilg'or mutaxassis sifatida siz o'zingizning ishingizdan olingan bilimlar katta ahamiyatga ega ekanligini va har doim kasbiy rivojlanish muhimligini bilishingiz kerakligini doimo yodda tutishingiz kerak. Bunda aholi xavfsizligi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, aholining o'z huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini ta'minlashi va ularga zarur moddiy yordam ko'rsatishi kerak. "Bugungi kunda odamlar bir-biridan o'rganayotganda, o'z maqsadlariga erishish uchun ularning hikoyalarini eslab qolish, ularning hikoyalarini tushunish va hikoyalaridan saboq olish muhim" .

V.A.Akunin kasbiy kompetentlikni kengroq ma'noda talqin qiladi va uni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratadi: kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi, kasbiy masalalarni mustaqil ravishda ijodkorona hal etishga intilish va qodirlik, odamlar bilan ishlashga va ularni boshqarishga ijtimoiy-psixologik jihatdan, ma'naviy axloqiy jihatdan yetuklikning asosiy sharti bo'lib xizmat qiladi.

Pedagog olim N.A.Muslimov tomonidan bo'lajak o'qituvchida kasbiy pedagogik sifatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini, mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalash kabi muammolar tadqiq etilgan.

Sh.S.Sharipov o'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlash muammolari bilan shug'ullangan hamda bo'lajak kasb o'qituvchilarining ixtirochilik va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan.

M.B.Urazovaning dissertatsiya ishida pedagogning kasbiy kompetentligi tuzilmasida loyihalashtirish faoliyatining yangi bilimni loyiha ko'rinishida individual mahsullashga yo'naltiradigan original fikrlash salohiyati rivojlanganligini ochib beradigan refleksiya va pedagogning mustaqilligini tavsiflovchi ijodiy darajalari aniqlangan hamda pedagogik fanlar ta'limida innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha muammoli-modulli va maqsadli yondashuvlar samaradorligini aniqlashga qaratilgan noan'anaviy shakl – mashg'ulot – konsept ishlab chiqilgan.



1-rasm. Olimlarning komptentsiya haqidagi fikrlari

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion iqtisodiyotning muvaffaqiyati ijodkor shaxslarga bog‘liq bo‘lib, jamiyat bunday mutaxassislarga katta ehtiyoj sezadi. Shu bois A.V.Xutorskiy ta’limda o‘qituvchining yetti kompetensiyasini tavsiflaydi:

Dunyoqarash asnosida ya’ni qadriyat va o‘zini anglash – o‘qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ko‘ra oladi va tushunadi, bunga o‘zini yo‘naltiradi, pedagog sifatida o‘z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya – o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘z-o‘zini anglash mexanizmini ta’minlaydi.

Pedagog olima T.L.Xurvaliyeva kasbiy kompetensiya tizimini besh guruhga ajratadi. Kasbiy kompetensiya: pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish; o‘z ustida ishlash; ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish; o‘quvchilar ehtiyojini anglay olishi; o‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish; ta’lim muhitiga yangilik kiritishi; o‘z fanini mukammal bilishi. Shaxsiy kompetensiya: muloqotchanlik; bag‘rikenglik; yetakchilik; faol, tashabbuskor; moslashuvchan; sog‘lom turmush tarziga amal qilish; mas’uliyat; ishchanlik.

Tadqiqotchilar quyidagi shaxsiy xislatlarni ijodkor shaxsning asosiy sifatlari deya hisoblaydi: 1) mustaqillik – shaxs standartlari guruh standartlaridan muhimroq, shaxsiy qadriyatlarga ustuvor e’tibor qaratish, begonalarning gap-so‘zi va bahosiga uchmaslik; 2) aqlning ochiqligi – yangilikka, noodatiy narsalarga o‘chlik, o‘zining va boshqalarning fantaziyalariga ishonishga tayyorlik; 3) nomuayyan va ruxsat etilmagan vaziyatlarga tolerant munosabatda bo‘lish, ushbu vaziyatlarda konstruktiv faollik ko‘rsatish; 4) kamol topgan estetik tuyg‘u.

Shunday qilib tadqiqotchilar har bir pedagoglar va o‘quvchilarda ijodkorlik komptentligini rivojlantirishga qaratilgan samarali o‘quv jarayonini yaratishda muhim ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etadilar.

Metodologiya va metodlar

Tadqiqotining asosiy maqsadi sifatida belgilangan mutaxassislarning ijodiy kompetentlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha takomillashtirilgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini amaliyotda sinab ko‘rish uchun eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi. Mazkur jarayon uch bosqichdan iborat bo‘ldi: tayyorgarlik bosqichi, pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va yakuniy baholash. Sinov jarayonlari eksperimental guruh va nazorat guruhi bilan olib borilib, maqsadli o‘rganish metodlari va statistik tahlil usullari qo‘llanildi.

Ta’lim oluvchilarga yo‘naltirilgan vazifalar ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ijodiy loyihalar, masalan, “Kelajakda ta’lim qanday ko‘rinishda bo‘ladi?” mavzusida loyiha ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarga o‘z g‘oyalarini mustaqil ravishda rivojlantirish va amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. Innovatsion mahsulotlar yaratish topshiriqlari esa ta’lim oluvchilardan yangi mahsulot yoki xizmat konsepsiyasini ishlab chiqish va taqdimot qilishni talab qiladi, bu esa ularning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Mazkur didaktik materiallar yig‘indisi tadqiqotning amaliy qismi uchun asos bo‘lib, ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalarini samarali tatbiq etishga yordam beradi. Bu materiallar ta’lim oluvchilar bilan ishlashda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni va o‘quv jarayonini samarali tashkil etishni ta’minlaydi. Shuningdek, didaktik qo‘llanmalar va metodik materiallar, masalan, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga oid mashqlar va topshiriqlar, ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlash darajasini oshirishda muhim vosita bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘quv materiallarini test va baholash usullari bilan ta’minlash ham zarur.

“Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun infografiya va sinetika metodi, hot potatoes dasturlardan keng foydalanish mumkin.

Sinektika metodi “Sinektika” metodi (yunoncha – geterojen elementlarning kombinatsiyasi) 1960-yilda AQSHda U.Gordon tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metod motivatsiyasiga asoslangan ixtirochilik ijodkorligi usuli sanaladi. Bu metod ta’lim oluvchilarga muammoning unsurlarini ifodalashga, ijodning bosh maqsad sifatida olishga, qo‘yilgan vazifalarni yechishning har xil variantlarini izlashga yordam beradi.

Sinektika motivatsiyasiga asoslangan ixtirochilik ijodkorligi usuli. Bu metod ta’lim oluvchilarga muammoning unsurlarini ifodalashga, ijodning bosh maqsad sifatida olishga, qo‘yilgan vazifalarni yechishning har xil variantlarini izlashga yordam beradi.

Metod amaliy mashg‘ulotlari uchun qulay bo‘lib, profssianal ta’lim muassasalarida mavzu bo‘yicha qo‘yilgan muammoni hal qilish yuzasidan o‘xshashliklarga asoslangan holda o‘z fikrlarini, qarashlarini olg‘a suradi. Bunda o‘xshashliklar bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bo‘lishi mumkin.

1. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifani o‘quvchiga bayon etadi.

2. Berilgan vazifani hal qilish yuzasidan o‘xshashliklarga asoslangan holda o‘z fikrlarini, qarashlarini ifoda etadi. (Kavsharlash mavzusi)

3. Bunda o‘xshashliklar zamonaviy xorijiy tajribaniki, shaxsiy yoki xayoliy bo‘lishi mumkin.

4. O‘quvchi o‘z g‘oyasini asoslashga harakat qilishga imkon beriladi.

5. O‘quvchilar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar o‘qitivchi va jamoa tomonidan tahlil qilinadi.

Mozaika (Jigsaw) metodidan foydalanganda o‘quvchilarning birbiriga ijobiy bog‘liqligi yuzaga keladi, ular jamoada mas’uliyat bilan ishlashni o‘rganadilar.

O‘quvchilar o‘rtasidagi ziddiyatni kamaytiradigan, motivatsiyani yaxshilaydigan va o‘quv tajribasining zavqini oshiradigan usul hisoblanadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni guruhlarga ajratadi, yetakchini tanlaydi, darsni guruh a’zolari soniga teng bo‘lgan bir qator segmentlarga ajratadi, har bir guruhdagi o‘quvchiga faqat bitta segmentni o‘rganishni tayinlaydi va mashg‘ulot oxirida o‘rganishni tekshiradi. Hamkorlik bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi ziddiyat kamayadi va o‘rganish motivatsiyasi yaxshilanadi.

– o‘quvchilar raqamli texnologiyaga oid yangi g‘oya bilimlarini yaratishga yordam beradi;

– o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, raqamli texnologiyalarga oid yangi g‘oyalar haqida ma’lumot beradi;

– o‘z guruhlarida o‘quvchilar raqamli texnologiyalarga oid yangi g‘oyalarni boshqa guruhdagi o‘quvchilarga o‘rgatish uchun yuqori darajada o‘zlari o‘rganadilar.

Ushbu texnikadan foydalangan holda, ishlash o‘quvchilar yaxshi mutaxassis bo‘lishiga va guruhda ijodiy fikrlashni, yangi g‘oyalar yaratishni, hamkorlikda ishlashni o‘rgatadi.

Infografika (lotincha informatio – taqdim etish, tushuntirish, ko‘rsatish va qadimgi yunoncha gráphícus – yozma, gaphō – yozish) axborot va ma’lumotlarni taqdim etishning grafik usuli bo‘lib, u har doim murakkab ma’lumotlarning aniq vizual ko‘rinishini ta’minlaydi. Grafik va kommunikatsiya dizayni shakllaridan biri.

Uning qo‘llanilishi spektriga quyidagilar kiradi: geografiya, jurnalistika, ta’lim, statistika, texnik matnlar. Infografika nafaqat katta hajmdagi ma’lumotlarni tartibga solishi, balki obyektlar va faktlarning vaqt va makon bo‘yicha o‘zaro bog‘liqligini aniq ko‘rsatishi, shuningdek, axborot taqdimotchilarining rivojlanish tendentsiyalarini ko‘rsatishi mumkin.

Infografika asosan ko‘rsatuvchi va tushuntiruvchi bo‘lishi kerak, shuning uchun uni ta’limda o‘rganish bo‘yicha foydalanish juda foydali bo‘ladi. U ma’lumotlarni vizual ravishda ifodalovchi, oddiy va yetarli qisqartirilgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan usuldir.

NATIJALAR

Muammolarni yechish uchun turli xil ilmiy yondashuvlar va metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Ular quyidagi bosqichlar asosida o‘tkazildi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Asosiy bosqich;
3. Yakuniy bosqich.

Tayyorlov bosqichida – tashkilotning tashkiliy tuzilmasi, vazifa va funksiyalari bilan tanishildi. Bajariladigan ishlar rejasi tuzildi.

Asosiy bosqichda esa tadqiqot o‘tash dasturini bajarish bo‘yicha reja- jadvalda nazarda tutilgan ishlar bajarildi.

Yakuniy bosqichda tadqiqot o‘tash davrida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijasi ko‘rib chiqildi, tahlil qilindi.

O‘rganishlar Sirdaryo viloyati Guliston Agrotexnologiyalar texnikumi ishtirokida olib borildi. Tadqiqot davomida kuzatish, so‘rovnoma va amaliy mashg‘ulotlar metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda 54 nafar 1-kurs ta’lim oluvchilari ishtirok etdi. Ularning dastlabki ijodiy fikrlash darajasi baholanib, keyinchalik o‘quv jarayonida innovatsion metodlar joriy qilindi. Tadqiqotda quyidagi ijodiy yondashuvlar sinovdan o‘tkazildi:

Sinektika va Jigsaw metodlari o‘quvchilarning ijodkorlik komptentsiyasini rivojlantirishga va ularning qobiliyatlarini ochishga yordam berdi. Rolli o‘yinlar – muammoli vaziyatlarni yechishda ijodiy yondashuvni kuchaytiradi. Tadqiqot davomida so‘rovnomalar va kuzatuvlar orqali sifat va miqdoriy ma’lumotlar yig‘ildi. Amaliy mashg‘ulot natijalari o‘quvchilar ijodiy fikrlash ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun tahlil qilindi.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishni, ularning fikrlash va ijodiy salohiyatini kengaytirishni ta’minlashga qaratilgan. Bu jarayon, ayniqsa, kelajakdagi mutaxassislar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ijodiy fikrlashning o‘sishi, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, qarorlar qabul qilishda yanada samarali bo‘lishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga yo‘naltirish uchun metodologik yondoshuvlar va texnologiyalarni takomillashtirish talab etiladi. Shu maqsadda, ushbu ilmiy ishda kelajakdagi mutaxassislarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishning samarali texnologiyalari va metodlari o‘rganiladi. Bunda turli metodikalar, pedagogik amaliyotlar va ta’limda innovatsion yondoshuvlar orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqsad, o‘quvchilarda chuqur fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Bunda texnikumning bilimlari bir-biriga yaqin bo‘lgan 2 ta guruh “Kompyuter injiringi” va ‘’Yengil sanoat” yo‘nalishlari tanlab olindi. “Kompyuter injiringi” yo‘nalishi “Tajriba guruhi” etib, “Yengil sanoat” yo‘nalishi esa “Taqqoslash (nazorat) guruhi” etib belgilandi.(1-jadval).

1-jadval

Tajriba-sinovda ishtirok etgan respondentlar

Guruhlar	Guruh t/r	Ta’lim oluvchilar soni
Tajriba guruhi	Kompyuter injiniringi” yo‘nalishi	25
Taqqoslash Guruhi	“Yengil Sanoat” yo‘nalishi	27


Ta’lim muassasalarida fanlararo integratsiyani ta’minlashning zamonaviy texnologiyalari ta’lim oluvchilarni o‘qitishda samaradorlikni oshirishga yordam beradi. O‘tkazilgan dars va so‘rovnomalar orqali ta’lim oluvchilarning qobiliyatini oshirish bo‘yicha muhim tajriba olindi.

Tajriba guruhi “Informatika” fanining har bir darsida o‘tilayotgan mavzularni takrorlash, mustahkamlash va nazorat-baholash maqsadida ta’lim oluvchilar individual, frontal va guruhlarga bo‘lingan tartibda “Sinektika”, Jigsaw metodi va BEEP texnologiyasini infografika va Hot potatoes imkoniyatlaridan foydalangan holda bajarib borishdi. Taqqoslash guruhi sifatida tanlab olingan guruhda esa odatdagi tarzda darslar tashkillashtirildi. Tajriba guruhidagi ta’lim oluvchilar shu darajada faollashib ketdiki, ular har darsda yana o‘yin o‘ynashni taklif qila boshlashdi, tajriba-sinov yakunlandi. Natijalar umumlashtirildi va matematik-statistik tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra taqqoslash guruhi ham, tajriba guruhida ham ta’lim oluvchilarning “Tarix fani”ning o‘zlashtirilishida ijobiy dinamika qayd etilgan. Ammo tajriba guruhining o‘zlashtirish darajasi ancha yuqori ekanligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

“Kompyuter” fanini o‘qitishda ijodiy o‘yin topshiriqlaridan foydalanish tajriba-sinov jadvali

Guruhlar	Guruh t/r	Ta’lim oluvchilar soni	Dastlabki test so‘rovi natijalari Ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirishi % larda	Keyingi test so‘rovi natijalari Ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirishi % larda
Tajriba guruhi	Kompyuter injiniringi” yo‘nalishi	25	45.%	49%
Taqqoslash guruhi	“Yengil Sanoat” yo‘nalishi	27	45%	51%



1-rasm Tajriba-sinov natijalarining qiyosiy diagrammasi

Ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, izlanuvchanlikka, fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshishiga ijodiy metodlardan foydalanish samarali usullardan biri ekanligi tajriba-sinov natijalari orqali aniqlandi.

Tadqiqot ijodiy fikrlash texnologiyalarining samaradorligini tasdiqladi.

Ta’lim oluvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik tizimlar ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu shart-sharoitlar va tizimlar ta’lim oluvchilarning ijodiy salohiyatini kengaytirishga, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga, shuningdek, o‘z fikrlarini erkin ifodalash va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar pedagogik tizimni amalga oshirishda, ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida samarali o‘zaro aloqalarni ta’minlashda, o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik shart-sharoitlar ta’limning samaradorligini oshiradigan, ta’lim oluvchilarni o‘qishga qiziqtiradigan va ularni faol ishtirok etishga undaydigan omillarni o‘z ichiga oladi. Unda pedagogik va didaktik tizimlar orqali o‘quvchilarning kognitiv, ijodiy va ilmiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun qanday imkoniyatlar mavjudligi, o‘quv jarayonini samarali tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi.

Darslarni noan’anaviy shakllarda tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va interaktiv vositalardan foydalanish ta’lim oluvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita sifatida ishlaydi. Bu usullar o‘quv jarayonini qiziqarli va motivatsion qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilarning o‘quv natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ta’lim oluvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik tizimlarning kompleks qo‘llanilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu jarayon o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondoshuvlarni qo‘llash va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini shakllantirishga imkon yaratadi.

Darslarni noan’anaviy shakllarda tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va interaktiv vositalardan foydalanish ta’lim oluvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita sifatida ishlaydi. Bu usullar o‘quv jarayonini qiziqarli va motivatsion qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilarning o‘quv natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ta’lim oluvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik tizimlarning kompleks qo‘llanilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu jarayon o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondoshuvlarni qo‘llash va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini shakllantirishga imkon yaratadi.

XULOSA

Innovatsion metodlarni keng qo‘llash orqali pedagoglarning va ta’lim oluvchilarning professional ta’limda pedagoglarning ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha yangi istiqbolli yo‘nalishlar belgilandi. Bular professional ta’lim pedagoglarida ijodkorlikni rivojlantirish va takomillashtirishning bir nechta yo‘llari mavjud. Ijodkorlik, pedagoglarning o‘quvchilarga yangiliklarni o‘rgatish, ijodiy g‘oyalar, fikr va yondashuvlarni tashkil etish, o‘quvchilarni o‘zlashtirishni rag‘batlantirish bilan bog‘liqdir. Bu yo‘llardan ba’zilari quyidagilardir:

1. O‘quvchilarni ijodiy mashg‘ulotlarga qo‘shish. Pedagoglar, o‘quvchilarga ijodiy mashg‘ulotlarni o‘tkazish orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratishi kerak. Bu misol uchun, fikr-mulohaza, ijodiy yozuvchi, tasviriy ish, loyihalash, dramatik ko‘rsatmalar va boshqa ijodiy mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin.

2. Ijodiy savollar va muammolar berish. O‘quvchilarga ijodiy fikrlarini va yondashuvlarini rivojlantirish uchun ularga ijodiy savollar va muammolar berish foydalidir. Bu, o‘quvchilarning o‘zlarini o‘ylab topish, muhokama qilish, yangi yechimlar izlash va ijodiy muammolarni hal qilishga o‘rgatadi.

3. Ta’limda ijodiy vositalardan foydalanish. Pedagoglar, o‘quvchilarga ijodiy vositalardan foydalanishni o‘rgatish orqali ularning ijodiylik darajasini oshirishlari mumkin. Bu, yangi texnologiyalar, audio va video vositalar, o‘yinlar, san’at asboblari va boshqalar kabi vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

4. Ijodiy guruh ishlari va hamkorliklarni rag‘batlantirish: O‘quvchilarning ijodiylik va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun guruh ishlari, ijodiy jamoalar va ta’limiy hamkorliklar katta ahamiyatga ega. Bu, o‘quvchilarning bir- biriga fikr almashish, qo‘shimcha ideyalar yaratish va ijodiy mahoratlarini boshqalarga taqdim etish imkoniyatlarini beradi.

Bu yondashuvlar orqali o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalar ham shakllantiriladi. Ushbu tadqiqot natijalari pedagogik metodlarni takomillashtirish va ijodkorlik yondashuvlar asosida dars jarayonini tashkil etishda foydalanilishi mumkin. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘quvchilarning ta’limda pedagoglarning ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishda faol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, mashg‘ulotlarning noan’anaviy shakl, metod va vositalar yordamida qiziqarli va mazmunli tashkil etish kutilgan samaralarni bera oladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni PF-5847 08.10.2019.

2. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi 2022-2026-yillar. 2022.01.28 PF-60.

3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.

4. Aripdjanova A. R. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. p.f.f.d (PhD) disser. avtoref. – T., 2017. 24

5. Andreev, A.L. Ta’limda kompetensiyaga asoslangan paradigma: falsafiy va uslubiy tahlil tajribasi [Matn] /A.L. Andreev // Pedagogika. – 2005. - No 4. – B.1926

6. Ananyev B. G. Shaxs, faoliyat predmeti, individuallik / B. G. Ananyev. - Moskva: To‘g‘ridan-to‘g‘ri media, 2008 yil.

7. Angelovski K. O‘qituvchilar va innovatsiyalar. O‘qituvchi uchun kitob [Matn] / K. Anjelovskiy. – M.: Ta’lim, 1991.

8. Artemov A. Modulli reyting tizimi / A. Artemov, D. Pavlov, T. Sidorova // Rossiyada oliy ta’lim. – 1999. – №4. – B. 121-124.

9. Arxangelskiy S.I. Oliy o‘quv yurtidagi o‘quv jarayoni, uning tabiiy asoslari va usullari. 2001.

10. Fayzullayeva N. “Pedagogik bilimlar “ o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi / Uzluksiz ta`lim jurnali. – T., 2006. 6- son. -102-bet

11. Hoshimova M.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2012. – 50 b.

12. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. 72-92-betlar.

13. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta’lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta’lim. 2012. - № 4. 8-12-betlar.

14. Асадов Ю.М. Индивидуально-психологические особенности учителя как факторы развития профессионализма: Автореф.дис. …канд. Психол. наук. – Ташкент: «НУУз», 2007.- 25 с.

15. Ibragimova G.I. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida o‘quvchi larning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: p.f.f.d. (PhD) disser. avtoref. – T., 2017. – 24 b.

16. Rahimov.J.Q. Pedagoglarda ijodkorlik komptentligini rivojlantirish texnologiyalarini ishlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish. Mug‘allim hem uzluksiz bilimlendirio‘ jurnali. 2024. 6/2-son. B. 60-64.

17. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta’lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta’lim. - 2012. - № 4. 8-12 betlar.

BO‘LAJAK MENEJERLARNING SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH BO‘YICHA AMALIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH



Mamatxanova Ziyoda

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Kelajakdagi menejerlarning kompetensiyalarini rivojlantirishda sun’iy intellektning o‘rni va ahamiyati ilmiy va nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda menejerlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda sun’iy intellekt asoslarini amaliyotga tatbiq etish konsepsiyasi asoslab beriladi. Shuningdek, menejerlarning kompetensiyalarini takomillashtirish va sun’iy intellektdan samarali foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribalar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, menejer, kontseptsiya, model, raqamli rivojlantirish, drayver.

KIRISH

XX va XXI asr davomida dunyoda mehnat jarayonlarida jismoniy mehnatning ulushi 90% dan 10% gacha qisqargan. Keyingi yillarda esa ushbu ko‘rsatkich 5% gacha pasayishi prognoz qilinmoqda. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 2022-yil holatiga ko‘ra, global miqyosda umumiy intellektual mehnat tarkibida sun’iy intellektning ulushi 5% ni tashkil qilgan. 2025-yilga kelib, dunyoda sun’iy intellekt bozori hajmi 23 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Shuningdek, uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hozirgi 17,1% dan 24,3% gacha oshishi prognoz qilinmoqda.

Sun’iy intellektni joriy etish sharoitida kapitalga asoslangan iqtisodiyot o‘rnini “iste’dodlar iqtisodiyoti” egallab borayotgani inobatga olinsa, inson kapitalini raqamli rivojlantirishga ustuvorlik berish zarurati yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday sharoitda menejerlarning sun’iy intellektdan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu, o‘z navbatida, mehnatga layoqatli aholining yangi texnologik davrda yashash va faoliyat yuritishiga tayyorgarligini oshirish hamda raqamli ko‘nikmalarini doimiy rivojlantirib borishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022- 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

XXI asr axborot asri bo‘lib, zamonaviy raqamli texnologiyalar deyarli barcha sohalarni qamrab oldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hozirda ilm-fan, innovatsiya va raqamli texnologiyalar kundan-kunga rivojlanib, sun’iy intellekt (SI) hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi.

Sun’iy intellekt – axborot tizimlari orqali inson ishtirokisiz qaror qabul qilish va muayyan vazifalarni bajarishga imkon beruvchi zamonaviy texnologiya. “Sun’iy intellekt” atamasi ilk bor 1956-yilda amerikalik olim John McCarthy tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, u ushbu sohaning asoschilaridan biri sifatida tarixda nom qoldirgan. Bugungi kunda sun’iy intellekt turli sohalarda qo‘llanilib, inson faoliyatini avtomatlashtirish va optimallashtirishda muhim rol o‘ynamoqda[1].

METODOLOGIYA VA METODLAR

Ushbu maqolada kelajak menejerlarining sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha amaliy tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni tahlil qilindi. Bunda nazariy tahlil, taqqoslash, statistik tahlil va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Birinchi bosqichda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajribalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda tadqiqot obyekti sifatida tashkilotlarda menejerlarning sun’iy intellektdan foydalanish kompetensiyalari o‘rganildi. Statistik tahlil orqali menejerlarning soni, kasbiy rivojlanish tendensiyalari va texnologik o‘zgarishlarning ish samaradorligiga ta’siri baholandi. Shuningdek, tajribaviy tahlil usuli yordamida sun’iy intellekt texnologiyalarining menejerlar faoliyatiga integratsiyasi va uning natijalari o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar asosida menejerlarning sun’iy intellekt bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik yondashuvlari ishlab chiqildi.

Sun’iy intellektning mehnat bozori, ish o‘rinlari va inson kapitalini rivojlantirishga doir muammolari hamda ularning o‘ziga xos yechimlari bo‘yicha Ye.Brinjolfson, M.Ueb, A.Agarval, T.Gries, P.Kapelli, F.Fosin, H.Uilson, D.Ajemog‘li, I.Yamomoto, Ye.Felten, D.Kard, Djoshua Angristlarning tadqiqotlarida kuzatish mumkin.

Shuningdek, avtomatlashtirish va sun’iy intellektning ko‘p sohalarda inson mehnatidan voz kechish imkoniyatini yaratish mumkinligi hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish masalalari MDH olimlari Ye. V. Shirinkina, N.R. Kelchevskaya, S.A. Dyatlov, S.D. Vladimirovalarning ilmiy ishlarida bayon qilingan.

O‘zbekistonda sun’iy intelekt va uni joriy etish sharoitlarida mehnat bozori transformasiyasi, raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish, aholini ish bilan bandligini ta’minlash, masalalari akad. K.X.Abdurahmonov, N.K.Zokirova, B.X.Umurzakov, Sh.D.Kudbiyev, B.B.Berkinov, A.T.Yusupov, A.Sh.Bekmurodov, G.K.Abduraxmonova, Z.Ya.Xudoyberdiyev kabi olimlar ilmiy ishlarida yetarlicha tadqiq etilgan.

Sun’iy intellekt – bu biror-bir ish yoki jarayonni bajarish uchun axborot tizimi orqali inson omilisiz qaror qabul qilish imkoniyatini amalga oshiruvchi zamonaviy texnologiya.

1-jadval

Sun’iy intellekt texnologilari bilan almashtirilishi ehtimoli eng past va eng yuqori bo‘lgan ayrim kasblar[2]

Reytingi	Kasb turi	Almashtirish imkoniyati (%)
Almashtirish imkoniyati past bo‘lgan kasblar		
1	Sun’iy intellekt bo‘yicha olim va tadqiqotchi	0.10
2	Tadbirkor	0.22
3	Psixolog	0.26
4	Diniy ulamolar	0.35
5	Mexmonxona va turizm menejeri	0.41
6	Bosh direktor	0.52
7	Bosh marketing direktori	0.64
8	Sog‘likni saqlash xizmati sohasidagi menejerlar	0.76
9	Ta’lim muassasalari ekspertlari	0.89
10	Maxsus fan o‘qituvchilari	0.98
Almashtirish imkoniyati yuqori bo‘lgan kasblar		
1	Yig‘ish liniyasi sifat inspektori	96.2
2	Telemarketolog	97.3
3	Buxgalter, ish xaqi hisobchisi	98.0
4	Bank yoki pochta bo‘limi xodimi	95.4
5	Moliyaviy xizmatlar xodimlari	94.8
6	Yig‘ish liniyasi ishchisi	98.5
7	Qo‘ng‘iroq markazi operatori	99.2
8	Dasturiy ta’minot inspektori	93.2
9	Mashinist yoki yozuv xodimlari	99.1
10	Greyder yoki tafsilotchilar	97.6

Shunday bo‘lsa-da, sun’iy intellekt faqat inson intellektual mehnatining bir qismini almashtirishi mumkin va ko‘plab intellektual mehnat hali ham inson ijodiga, tasavvuriga va nazoratiga tayanishi kerak.

Inson kapitalidan foydalanish sharti sifatida mamlakatning raqamli faolligini baholashga imkon beruvchi DigTech indeksi uchta sub indekslarning funksiyasidan iborat bo‘ladi:

[1] **McCarthy, J. (1956).** Dartmouth Summer Research Project on Artificial Intelligence. Dartmouth Conference Proceedings.

[2] Frey C, Osborne M A. The future of employment: The level of accountability for jobs? [J]. Technological forecasting and social change, 2017, 114: 254-280.

$$IDT = f(IDT1;\ IDT2;\ IDT3). \quad (1)$$

bunda,

IDT1 – Internetdan faol foydalanuvchilarning umumiy aholi sonidagi ulushi bo‘yicha sub-indeks;

IDT2 - raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi bo‘yicha sub-indeks;

IDT3– raqamli texnologiyalarga investitsiyalar bo‘yicha sub-indeks.

Har bir sub-indeks quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$IDTi = \frac{Ifact - Imin}{Imax - Imin}, \quad (2)$$

Inson kapitalini raqamli rivojlanishiga ko‘maklashuvchi ijtimoiy sohaning raqamlashish darajasini baholash uchun DigSoc (Digitalization of the social sphere) indeksi quyidagi sub indekslarni o‘z ichiga oladi:

IDS1 – ta’lim muassasalari va ta’lim jarayonlarining raqamlashish darajasi bo‘yicha sub-indeks;

IDS2 – sog‘liqni saqlash tizimi va tibbiy xizmatlar ko‘rsatishning raqamlashganligi bo‘yicha sub-indeks;

IDS3 – aholini ijtimoiy himoya qilish tiziminig raqamlashganlik darajasi bo‘yicha sub-indeks;

IDS4 – raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha sub-indeks;

DigSoc indeksini hisoblash quyidagi o‘rtacha geometrik qiymatini aniqlash formulasi bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$\mathbf{IDS} = \sqrt[4]{\prod_{i}^{4} * \mathbf{IDS}i}, \quad (3)$$

Sun’iy intellekt texnologiyalarining barcha shakl va turlari mutlaqo beqiyos darajalardagi o‘ta tezkorlikda va juda keng ko‘lamlarda tarqalmoqda, deb ta’kidladi BMT Bosh kotibi. A.Guterrishning fikricha, sun’iy intellekt texnologiyalari rivojini matbaa uskunasining tatbiq etilishiga qiyoslash to‘g‘ri emas.

Chunki matbaa uskunalarining mahsuli bo‘lmish kitoblar butun Yevropa bo‘ylab keng tarqalishi uchun ellik yildan ortiq vaqt kerak bo‘lgan. Sun’iy intellekt chatboti – ChatGPT esa atigi ikki oy ichida 100 million nafar foydalanuvchiga ega bo‘ldi, – deydi Bosh kotib.

Ma’lumotlarga qaraganda, ChatGPT (Chat generative pre-trained transformer) – AQSHning «OpenAI» kompaniyasi tomonidan yaratilgan sun’iy intellekt chatbotidir. Mazkur kompaniyaning asosiy vazifasi inson miyasi bajara oladigan hamma narsani qiluvchi sun’iy intellektni yaratishdan iborat.

ChatGPT turli savollarga javob qaytarishi, dasturchilar uchun kod yozishga yordamlashishi, talabalar uchun kurs ishlarini yozib berishi mumkin. Mazkur bot hattoki she’r va insholar ham yoza oladi.

Shu bois keng jamoatchilikda ushbu texnologiya kopirayterlar, jurnalistlar, maktab o‘qituvchilari va boshqa soha vakillarini ishsiz qoldirishi mumkin degan qo‘rquv paydo bo‘lgan. Ayniqsa, ChatGPTning insholar “yozish” qobiliyatidan o‘qituvchilar ko‘proq tashvishga tushmoqda. Misol uchun, talabalar allaqachon bot tomonidan “yozilgan” insholarni o‘z ijod mahsuli sifatida taqdim qilishni boshlagan.

Lekin sun’iy intellektning eng katta muammolaridan biri ham aynan shu – tom ma’nodagi ijodkorlik iqtidorining mavjud emasligi bo‘lib qolmoqda. Sodda qilib aytganda, ChatGPT chatboti hozircha yangi g‘oyalarni taqdim qila olmaydi.

XMT: Sun’iy intellekt ish o‘rinlarini egallamaydi, balki ularni to‘ldiradi.

Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqoti ko‘pchilik ish o‘rinlari faqatgina qisman avtomatlashtirilishi hamda ChatGPT kabi generativ sun’iy intellekt ish o‘rinlarini egallamasligi, balki ularni to‘ldirishini ko‘rsatdi. Kanselyariya ishlari ko‘proq xavf ostida.

XTM tadqiqotida ko‘pchilik ish o‘rinlari va sohalar qisman avtomatlashtiriladi hamda ChatGPT singari generativ sun’iy intellekt katta ehtimol bilan ish o‘rinlari o‘rnini egallamaydi, balki ularni to‘ldiradi degan xulosaga kelindi.

Bundan tashqari, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”[3] Strategiyasiga muvofiq oliy ta’lim muassasalarida tegishli sohalarda “Buyumlar interneti”, robototexnika, SI texnologiyalarini qo‘llash va o‘rganish bo‘yicha laboratoriyalar, shuningdek, xorijiy korxonalarni ushbu sohaga jalb qilishni tashkil qilish nazarda tutilgan. Shu bilan birga, o‘quvchilarni bilimini baholash bo‘yicha samarali avtomatlashtirilgan axborot tizimi doirasida SI funksiyasidan foydalanib o‘quvchilar bilimini baholash natijalariga ko‘ra ularni oliy ta’lim muassasalaridan biriga o‘qishga kirish uchun hujjat topshirish bo‘yicha tavsiya berish imkoniyatlarini yaratish vazifalari qo‘yilgan.

2-jadval

“Sun’iy intellekt” tushunchasining turli talqinlari

“Sun’iy intellekt” tushunchasining mohiyati (sun’iy intellekt - bu)	**Mualliflar**
Xorijiy olimlar	
Vizual idrok etish, nutqni aniqlash, qaror qabul qilish va tilni tarjima qilish kabi odatda inson aql-zakovatini talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir kompyuter tizimlarining nazariyasi va amalga oshirilishi	Yangi Oksford Amerika lug‘ati, 3-nashr.
Tan olish, tushunish, harakat qilish va o‘rganish orqali odamlarga kuch beradigan tizim	Pol Doherti, Jeyms Uilson
Sabab-ta’sir munosabatlarini tahlil qilish va ularning harakatlarini to‘g‘rilash orqali insonning xatti-harakati va o‘zini o‘zi o‘rganishga taqlid qilishga qodir dasturlar va echimlar	ICD[4]
Mashinalarni aqlli qilish faoliyati va intellekt - bu ob›ektga atrof-muhitni adekvat ishlashi va oldindan ko‘ra bilish imkonini beradigan sifat	Etzioni A., Etzioni O
Inson aqli, aqli va ongining tabiatini tushunish uchun ularni model bo‘yicha o‘rganish uchun insonning kognitiv funktsiyalarini modellashtirish	Jon Makkarti
MDH olimlari	
Aqlli mashinalar, ayniqsa aqlli kompyuter dasturlarini yaratish fan va texnologiyasi	Москвин В.А.
Ma’lum bir algoritmlar to‘plami, muammolarni hal qilish uchun neyron tarmoq usullari	Хрулев А. (ЦРТ)
Biznesning raqamli transformatsiyasini ta’minlaydigan, nafaqat uni o‘zgartirishga, balki jahon bozoridagi raqobat formatini o‘zgartirishga va mamlakatlarning iqtisodiy va texnik rivojlanish darajasi bo‘yicha yanada tabaqalanishiga yordam beradigan vositalar to‘plami	Смирнов Е.Н., Лукьянов С.А.
Mahalliy olimlar	
Tahlil qilish, idrok etish, harakat qilish va moslashtirishga qodir dastur	Begalov B.A., Abdullayev M.K.[5]

[3] https://lex.uz/docs/5030957.

[4] Официальный сайт IDC [Электронный ресурс]. URL: https://www.idc.com/ (дата обращения: 19.10.2019).

[5] B.A. Begalov, M.K. Abdullayev. “Raqamli iqtisodiyot” / Darslik. – T.: «Iqtisodiyot», 2023. - 362 b.

Shu o‘rinda, SI texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta’minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2021-yil 2-fevralda “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori[6] qabul qilindi. Unga ko‘ra, SI texnologiyalarini mamlakatimizda rivojlantirish, ushbu soha bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish bo‘yicha muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

2025-yil 1-sentyabrgacha loyihalar va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash maqsadida qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq barcha axborot xavfsizligi choralarini ko‘rgan holda «katta ma’lumotlar» bazasi yaratiladi.

2026-yil 1-maygacha sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish loyihalari doirasida ma’lumotlarni qayta ishlash uchun mo‘ljallangan hisoblash quvvatlari ishga tushiriladi.

“Sun’iy intellekt texnologiyalaridan maksimal foyda olish uchun korxonalar o‘z biznes jarayonlarini qayta ko‘rib chiqishi va ularga moslashishi lozim. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish – operatsiyalar moslashuvchanligi, vazifalarni bajarish tezligi, biznesni miqyoslashtirish, qarorlar sifati yoki ma’mulot va xizmatlarni shaxsiylashtirish qobiliyati kabi asosiy sohalarni aniqlash - samarali yechimlarni ishlab chiqishga birinchi qadamdir. Bu yondashuv nafaqat joriy faoliyatni optimallashtirishga, balki yangi innovatsiyalar va rivojlanish imkoniyatlarini ochishga shu tariqa kompaniyalari tez o‘zgarib turuvchi dunyoda raqobatbardoshga aylantirishga yordam beradi”[7].

Korxona va tashkilotlarda menejerlarning sun’iy intellektdan foydalanishi quyidagi amaliy natijalarga olib keladi:

– Xodimlarni uzluksiz rivojlantirish – kadrlar malakasini oshirish, bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish, iste’dodlarni tarbiyalash va qo‘llab-quvvatlash uchun qulay sharoit yaratish.

– Tashkiliy qarorlarni samarali qabul qilish – menejerlarning kompetensiyalarini kengaytirish orqali strategik va operatsion qarorlar sifatini oshirish.

– Korporativ madaniyatni mustahkamlash – tashkilot ichida umumiy qadriyatlar tizimini shakllantirish va barcha xodimlarni bu jarayonga jalb etish.

– Moslashuvchan boshqaruv tizimini yaratish – inson resurslaridan samarali foydalanish va xodimlarning ijodiy-intellektual faolligini oshirish.

– Tashkilotning rivojlanishini ta’minlash – xodimlarning o‘zgarishlarga tez moslashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

– Ichki kommunikatsiyalar va shaffoflikni oshirish – o‘zaro axborot almashinuvini yaxshilash, uzluksiz ta’lim va kasbiy rivojlanish muhitini yaratish.

– Mehnat samaradorligini boshqarish – xodimlarning salohiyatini rivojlantirish, ularning ta’limga ehtiyojlarini aniqlash va qondirish orqali mehnat unumdorligini oshirish.

– Mukofotlash tizimlarini takomillashtirish – moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini yanada samarali tashkil etish.

Ushbu yondashuv menejerlarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishiga imkon yaratadi.

Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasida kelajakdagi menejerlarning sun’iy intellektdan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga oid mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish yakunlanmoqda. Endilikda xodimlarni boshqarish hamda korxonada kadrlar xizmati faoliyatini tashkil etishning muvofiqligini baholash zarurati paydo bo‘lmoqda.


Hozirgi vaqtda korxona va tashkilotlar personalini boshqarish konsepsiyasining asosi menejer shaxsining roli ortib borayotganligi bilan bog‘liq. Menejer korxona va tashkilot oldida turgan vazifalarga mos ravishda asosiy yo‘nalishlarni belgilash, strategik qarorlarni shakllantirish va ularni samarali amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Shu bois, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining umumiy yig‘ilishida kelajak menejerlarining sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy tayyorgarligini takomillashtirish shartlari tashkilot hujjatlarida aniq belgilab berilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida bozor iqtisodiyotining samarali rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan institutsional asoslar va shart-sharoitlar yaratildi. Bu jarayonda iqtisodiy raqobatni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar muhim ahamiyat kasb etib, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini qo‘llash va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda menejerlarning kasbiy salohiyatini oshirish dolzarb masala sifatida e’tirof etilmoqda.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish menejerlarning qaror qabul qilish samaradorligini oshiradi va resurslarni boshqarish jarayonini optimallashtiradi. Shuningdek, sun’iy intellekt menejerlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularning strategik rejalashtirish va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini kuchaytiradi.

2020-yilda ma’muriy-boshqaruv personali 26 nafar bo‘lsa, 2022-yilga kelib 28 kishini tashkil etgan, ya’ni ularning ko‘payganini ko‘rish mumkin. Texnik personal 2020-yilga 15 ta bo‘lsa, 2022-yilga kelib 6 nafar qolganini ko‘rsatyapti, bunga sabab, korxonani yangi texnika-texnologiya bilan ta’minlanganligidan dalolat beradi. Xizmat ko‘rsatish personali 2020-yilda 16 nafar bo‘lsa, 2022-yilga kelib ham 16 nafarni tashkil etgan. Asosiy ishlab chiqarish personali va asosiy ishlab chiqarish personali mutaxassislari 2021-yilga 756 kishi bo‘lsa, 2022-yilga kelib 760 nafarga etgan, ya’ni ko‘paygan, aholi ish bilan ta’minlanganligidan dalolat beradi.



1-rasm. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasida faoliyat olib borayotgan menenjerlarlarning ma’lumoti bo‘yicha tarkibi, kishi

[6] https://lex.uz/docs/5297046.

[7] Pomerol J-C(1997) Artefikalintelegence and human decision making //Eur J Oper Res.-1997.-№ 99.3-25

Har qanday zamonaviy korxonaning boshqaruv jarayonidagi asosiy vazifasi – bu yuqori malakali xodimlarni topish, barcha xodimlarni yagona maqsadga chorlash va ruhlantirish, eng yuqori ijtimoiy va iqtisodiy natijalarga erishish uchun ularni jipslashtirish, o‘zgaruvchan bozor munosabatlari sharoitida goho keskin sur’atlarda rivojlanish, goho inqiroz mashaqqatlari sharoitidan chiqib ketish tadbirlarini qo‘llashni talab qiladi. Mamlakatimizda ro‘y berayotgan innovatsion jarayonlar, avvalo, kadrlar siyosatida ham o‘zgarishlarni talab qiladi. Alohida qayd etish lozimki, ushbu atama amaliyotda anchadan beri qo‘llaniladi, ammo har bir korxonada uning ishlash tartibi qandayligi, kadrlar siyosatini o‘z ichiga olgan masalalar qay darajada olib borilayotganligiga bog‘liq.

Bugungi kunda, ishlab chiqarishda inson omilidan samarali foydalanish muammolarini hal etishga kompleks yondashuvni ta’minlovchi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kadrlarni boshqarishning qulay mexanizmini yaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, kadrlar bilan ishlash hammasida bilim va ko‘nikma yig‘indisiga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali jarayonlarni yo‘lga qo‘yish zarurati yuzaga keladi.

Hozirda, sun’iy intellekt (SI) yutuqlari tufayli boshqaruvda juda ko‘p o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. SI qobiliyatlari doimiy ravishda rivojlanib borar ekan, menejerning an’anaviy roli hech qachon tasavvur qilib bo‘lmaydigan tarzda o‘zgarmoqda va bu yangi davrni boshlab bermoqda.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari sun’iy intellektning menejerlar faoliyatida tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi. Zamonaviy HR texnologiyalarining rivojlanishi sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, ishga qabul qilish jarayonida obyektivlikni oshirish va xodimlarning kompetensiyalarini samarali baholashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt menejerlarning qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish, strategik rejalashtirish va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirishga yordam beradi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining kelajakda boshqaruv va liderlik sohalarida keng qo‘llanilishi, shu jumladan, iste’dodlarni rivojlantirish va tashkilot ichidagi jarayonlarni samarali boshqarishda muhim rol o‘ynashi kutilmoqda.

XULOSA

Malakaviy amaliyot davomida «Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish» qo‘mitasi faoliyati doirasida kadrlar boshqaruvi, rejalashtirish, rivojlantirish, xodimlar mehnatini tashkil etish, ularning ijtimoiy himoyasi va rag‘batlantirish, shuningdek, kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish bo‘yicha tahlil o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida ilgari mavjud bo‘lgan kadrlar siyosati tamoyillari va texnologiyalaridan voz kechish talab etilmoqda. Chunki ilgari qo‘llanilgan kadrlar siyosati tor, mafkuralashgan va markazlashgan bo‘lib, menejerlarning faoliyati va boshqaruv mexanizmlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Tadqiqot davomida menejerlarning sun’iy intellektdan samarali foydalanishi uchun amaliy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi hamda quyidagi xulosalarga kelindi:

“Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish” qo‘mitasi mamlakat mustaqillikka erishgandan buyon iqtisodiy va tuzilmaviy islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ushbu islohotlar tarmoq samaradorligini oshirish va investitsion imkoniyatlarni kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi lozim. Rivojlanish istiqbollari bugungi kundagi ehtiyojlarga bog‘liq. Sun’iy intellekt bilan bog‘liq menejerlik faoliyatining joriy etilishi intellektual, axloqiy, ruhiy va kasbiy sifatlarni shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining muhim qismidir.

Bugungi kunda asosiy vazifalardan biri qo‘mitani malakali menejerlar bilan ta’minlash, bozor sharoitida samarali ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish va personalni boshqarish tizimini takomillashtirishdir. Menejerlar boshqaruv tizimida bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi va muayyan darajada uyushgan kichik tizim sifatida qaraladi. Ular o‘zaro harakat qiluvchi boshqaruv subyekt va obyektlari sifatida tashkilotning kadrlar salohiyatini shakllantirish va undan samarali foydalanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Menejerlarning sun’iy intellektdan samarali foydalanish uchun amaliy tayyorgarligi qo‘mita boshqaruv tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, u tashkilot ehtiyoj va manfaatlarini hisobga olgan holda rivojlantirilishi lozim.

Kadrlarni tanlash va joylashtirish jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish – Menejerlarning kasbiy malakasi, ishga munosabati, axloqiy sifati va faoliyat natijalarini tahlil qilish uchun sun’iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini joriy etish.

– Ishga qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta’minlash – Sun’iy intellekt yordamida ochiq va adolatli tanlov jarayonlarini ishlab chiqish hamda menejerlarning texnologik tayyorgarligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish.

– Kadrlar siyosatini takomillashtirish – Kadrlar bilan bog‘liq qarorlarni ishlab chiqishda umumiy majburiy andozalarni ishlab chiqish va tasdiqlash, xodimlarning mehnat faoliyatini demokratik va kollektiv tarzda baholash tizimini rivojlantirish.

– Kadrlar tarkibini doimiy ravishda yangilab borish – Barcha yoshdagi xodimlarning malaka va salohiyatidan samarali foydalanish, kadrlar tarkibini muntazam yangilash hamda vorislik prinsipini saqlash va mustahkamlash.

– Mehnat munosabatlarini raqamlashtirish – Menejerlarning sun’iy intellektdan foydalanish ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy talablarni ishlab chiqish va ularga qat’iy rioya qilish orqali kadrlar boshqaruvining qonuniyligini ta’minlash.

Ushbu yondashuv menejerlar faoliyatini optimallashtirish bilan birga, kadrlar boshqaruvining samaradorligini oshirish va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda tashkilotning strategik maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”-gi PF–14-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-avgustdagi “Ma’muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-108 son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 18-maydagi PQ–

246-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2024–2026-yillarga mo‘ljallangan raqobatni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori

6. “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ-358-son, 14.10.2024.) qabul qilindi. 1. Bamburov, V.A. Sun’iy intellekt texnologiyalarini korporatsiyada qo‘llash

7. Abbosov, M.Sh. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimida sun’iy intellektni qo‘llash / M.Sh. Abbosov // Menejment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi.

8. Dushkin R.V. Sun’iy intellekt / Dushkin R.V. Movchan D.A. – M.: DMK matbuoti, 2019. – 280 b.

9. Barratt D. Insoniyatning so‘nggi ixtirosi: Sun’iy intellekt va Homo Sapiens davrining oxiri: Ommaviy fan / Barratt D., Lisova N. – M.: Alpina NoFiction, 2016. – 304 p.

10. Boshqaruv / V.A. Bamburov // Davlat xizmati. – 2018. – V. 20-son, 3-son (113). – 23-bet.

11. Tish, A.T. Korporativ boshqaruvda sun’iy intellekt: imkoniyatlar va qo‘llash chegaralari / A.T. Tish, K.S. Petrova // Davlat boshqaruvi. Elektron byulleten. – 2022. – No 94. – B. 173-187.

12. Ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar: O‘n birinchi xalqaro jurnallar Petropavlovsk-Kamchatskiy: Kamchatka davlat texnika universiteti, ilmiy-amaliy konferensiya, 2022-yil 26-27-may. 2022. – B. 85-89.

13. Alekseev, A.V. Rossiyada sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi / A.V. Alekseev // Yangi texnologiyalar. – 2020-yil. – 3-son. B. 89-98.

14. Kalashnikova, I.V. O‘zgarishlarni boshqarish: korporativ o‘zgarishlarning arxetiplari va menejmentning muammoli sohasi / I.V. Kalashnikova, M.A. Sigitova // Tinch okeani universiteti xabarnomasi. – 2022. – No 3 (66). – B.63-74.

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/ 0009-0009-7925-2385

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA O‘QUV AMALIYOTLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Vasila Abidjanova



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv amaliyotini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish, interfaol usullar va yangi ta’lim texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, 4+2 tartibi tahlil qilingan va bu yondashuvlarni ilmiy asoslashdagi kamchiliklar aniqlangan. Maqola malakali boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash uchun o‘quv amaliyotini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiya, ta’lim jarayoni, kreativlik, ta’limda axborot-kommunikatsiya, o‘quv amaliyoti, kasbiy tayyorgarlik, 4+2 tartibi

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining o'quv amaliyotini samarali tashkil etish orqali kasbiy bilimlarni chuqur egallash, sifatli ta'limni ta'minlash uchun individual dasturlarni ishlab chiqish, ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya hamda pedagogik texnologiyalarni joriy etish asosida o'quv-uslubiy jihatdan imkoniyatlarni kengaytirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim omillardan biriga aylanmoqda. Ta'limni global axborotlashtirish va masofaviy ta'limning jadal rivojlanishi yangi o'quv kompyuter dasturlarini yaratishni ham talab qilyapti. Internet texnologiyalaridan keng foydalanish, multimedia, kompyuter grafikasi va raqamli ma'lumotlar algoritmlari talabalarni virtual borliqqa jalb etish, kelajakdagi kasbiy faoliyat muhitini simulyatsiya qilish orqali o'qitishning yangi usullarini ishlab chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Finlandiyada ta'lim tizimi o'qituvchilarni tayyorlashda yuqori standartlarga javob beradi. O'quv amaliyotlari o'qituvchilik kursi bilan teng boshlanadi va talabalar maktab hayotiga erta kirishadi. Amaliyotlar davomida talabalar tajribali o'qituvchilar bilan birga ishlashadi va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishadi. Singapurda ham o'qituvchilarning amaliy tayyorgarligiga katta e'tibor beriladi. Talabalar o'quv amaliyotlarini maktablarda erta boshlashadi va ular amaliyotda dars o'tish, o'quvchilarni kuzatish va o'qitish jarayonini tahlil qilish ko'nikmalarini egallashadi.

Avstraliyada bo'lajak o'qituvchilar amaliyot davomida tajribali mentor – o'qituvchilar bilan ishlaydi. Mentorlar talabalarni qo'llab-quvvatlaydi, ularga yo'l yo'riqlar ko'rsatadi va professional o'sishga yordam beradi. Kanadada o'quv amaliyotlari nafaqat maktabda, balki o'quv markazlari va boshqa ta'lim muassasalarida ham o'tkaziladi. Bu talabalarga turli muhitlarda o'qituvchilik tajribasini oshirishga yordam beradi. Mentorlik dasturlari ham talabalarni qo'llab-quvvatlashda muhim ro'l o'ynaydi.

Buyuk Britaniyada o'quv amaliyotlari o'quvchilarning refleksiya qilish va o'z o'qitish amaliyotlarini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Talabalar amaliyot davomida darslarini yozib olishadi va ularni keyinchalik mentorlar bilan birgalikda tahlil qilishadi. AQShda o'quv amaliyotlarining turli shakllari qo'llaniladi, jumladan, maktabda dars o'tish loyihalarda ishtirok etish, o'quvchilar bilan individual ishlash va o'quv materiallarni ishlab chiqish. Shunungdek, reflektiv amaliyot va o'z-o'zini tahlil qilishga katta e'tibor beriladi. Ko'plab Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida o'quv amaliyotlari davomida virtual ta'lim platformalarning onlayn resurslari va interaktiv taxtalardan faol foydalaniladi.

O'zbekistonda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv amaliyotlarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha qator yangiliklar kuzatilmoqda. Jumladan, integratsion ta'lim texnologiyalari tobora keng joriy qilinib, fanlararo yondashuv asosida o'quv materiallarini tayyorlash va darslarni integratsiyalashgan holda o'tish yo'lga qo'yilyapti. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning fundamental va kasbiy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, raqamli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi ham kengaymoqda. Elektron tizimlar orqali ta'lim jarayonini tashkil etish o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirib, o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu yondashuv, ayniqsa masofaviy ta'lim jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etib, talabalarni zamonaviy texnologiyalarga moslashishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli farmoniga asosan "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur" ishlab chiqildi[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroride[2] "Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2–4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, ya'ni darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishi" belgilandi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" hamda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq xalq ta'limi vazirligining pedagog kadrlarni kompetensiyalarga asoslangan va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalar bo'yicha o'qitish amaliyotini joriy qilish yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, tabaqalashtirish, variativ o'quv rejalari, fanlarni o'qitishda o'quvchilarni hayotga tayyorlash tamoyillarini keng joriy qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Pedagogika sohasi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun o'zgaruvchan o'quv reja va dasturlarni joriy etish..." vazifalari belgilanib, talabaning aqliy, intellektual va jismoniy kuchlarini ma'lum bir maqsadga yo'naltirish, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirish, bilimlarni, dizaynni, kommunikativ-nutq hamda tashkiliy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish asosida nazariy bilim, amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar asosida fanlararo integratsiyaning samarali mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Tadqiqotning vazifalari o'quv amaliyotini tashkil etishning ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish, tahlil qilish hamda umumlashtirish, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv amaliyotlarini 4+2 tartibi asosida tashkil etish mexanizmlarining shakllari, metodlari va vositalarini o'rganish, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv amaliyotlarini 4+2 tartibi asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini asoslash, o'quv amaliyotlarini tashkil etishda 4+2 tartibi asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish va olingan natijalarni matematik-statistik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida – bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv amaliyotlarini tashkil etish jarayoni tanlab olindi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Hozirgi davrda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv va pedagogik amaliyot tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan. Pedagog kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq ko'plab tadqiqot ishlarida o'quv amaliyotini

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli farmoni. Toshkent sh., 2022-yil 11-may.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-sonli qarori. Toshkent sh., 2022-yil 21-iyun.

tashkil etish masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Pedagogik amaliyotni tashkil etish XX asrning 30-40-yillaridan alohida ta'limni tashkil etish shakli sifatida qo'llanila boshlangan. Dastlab bu jarayon ekskursiya-tadqiqotchilik, metodik-pedagogik amaliyot, stajyor-pedagogik ko'rinishlarida tashkil etilgan bo'lsa, keyinchalik ijtimoiy-pedagogik amaliyot, yozgi pedagogik amaliyot, o'quv-tarbiyaviy amaliyot shaklida keng qo'llangan. Bu borada ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

N.Kosharna, L.Petryk "Organization of future primary school teachers' professional practice within the optional block "Foreign language" ushbu maqola bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining professional amaliyotini tashkil etish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, u pedagogika mutaxassisligi "Boshlang'ich ta'lim" bo'yicha oliy ta'limning birinchi (bakalavriat) darajasida "Chet tili" tanlov bloki kontentida amalga oshiriladi [3]. Ish jarayonida tadqiqot muammosi bo'yicha milliy va xorijiy maxsus adabiyotlar tahlil qilindi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash masalalari, xususan uning amaliy professional tarkibi bo'yicha yetakchi Yevropa mamlakatlaridagi normativ-huquqiy hujjatlar va hisobotlar inobatga olingan.

Shuningdek, Jon Dewey: Tajribaviy ta'lim nazariyasida kasbiy bilimlarni amaliyot orqali o'zlashtirishni ta'kidlaydi. Bu yondashuv talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivoijlantirishda samarali usul ekanligiga alohida e'tibor bergan[4].

Donald Schon: Kasbiy refleksiv amaliyot nazariyasida kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish haqida so'z yuritadi. Uning fikriga ko'ra talabalarning kasbiy bilimlari va amaliyotdagi ko'nikmalari kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishning muhim ko'rsatkichi ekanligiga to'xtalib o'tgan[5]. D.Z.Raxmanova "Развитие творческих способностей будущих учителей начальных классов в процессе педагогической практики [6]" bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlari va pedagogik qobiliyatlarini amaliyot jarayonida rivojlantirish uchun kerakli tavsiyalar bergan.

B.X.Urazimbetovaning izlanishlariga ko'ra, agar talaba ta'lim va tarbiya masalalarini mohirona hal qilmasa, sinfdan tashqari mashg'ulotlarni samarali o'tkazishni bilmasa fanni o'qitish metodikasi bo'yicha yetarlicha tayyorgarlik ko'rmagan, deb hisoblashadi. Umuman, aksariyat hollarda uzluksiz pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ba'zilarida amaliyotga nisbatan loqaydlik, davomatning pastligi, dars jarayonlariga yaxshi tayyorgarlik ko'rmaslik, o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'ota olmaslik kabi loqayd munosabat shakllangan bo'ladi. Bunday salbiy holatlarga pedagogik amaliyot nazoratining sustligi, bo'lajak o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari ustida muntazam ishlamasligi, kelajakda ota-onalarning qistovi bilan kasb tanlash, ta'lim muassasalarida korrupsiya holatlarining mavjudligi kabilar sabab bo'lishi mumkin [7].

S.X.Sulliyeva va Q.G'.Zokirovning "Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish" monografiyasida pedagogik amaliyotning ahamiyati, maqsad va vazifalarini yoritish asosida shu amaliyotning bosqichlari bo'yicha mazmuni, tashkiliy masalalari ochib berilgan, barcha sohalari bo'yicha nazariy yo'l yo'riqlarni pedagogik amaliyotga qanday tatbiq qilish to'g'risida tegishli maslahat va tavsiyalar berilgan [8].

D.U.Jalilovaning fikricha, har bir bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyatga ongli ravishda qiziquvchanlik bilan yondashishini shakllantirish, o'z kasbiga muhabbat bilan qarash, zamon talablariga javob beradigan kasbiy mahoratlarni egallashga ko'maklashish, qolaversa, bo'lajak pedagoglarning oliy ta'limda egallagan bilim va ko'nikmalarini yanada churuqlashtirish va mustahkamlash pedagogik amaliyotning muhim vazifalaridan hisoblanadi [9].

N.S.Sayidaxmedov "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" darsligida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ijod, mahorat ko'nikmalarini hosil qilish, hozirgi zamon ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiya loyihalari orqali yondashish, pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratning qirralari yoritilib, o'qitish jarayonini tashkil qilish shakllariga izoh berilgan, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlar, nutq madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish kabi masalalar o'z aksini topgan [10].

N.S.Sayidaxmedov "Yangi pedagogik texnologiyalar [11]" bu modulda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarining innovatsion ta'lim texnologiyalariga doir bilimlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, joriy etish, ta'lim amaliyotida qo'llash va yaratish ko'nikma hamdaa malakalarini tarkib toptirish, shuningdek, pedagogik kompetentlik, kreativlik asoslari, pedagogik mahorat, pedagogik takt, pedagogik texnika, madaniyat nazariyasi va amaliyoti bo'yicha bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlash kerakligi haqida so'z yuritilgan.

T.T.Hamroqulov "Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar [12]" ushbu maqolada shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon uchun yosh avlodni munosib ravishda tayyorlab borish, tarbiyalash, zamonaviylik tushunchasi bilan, insoniylik xususiyatlarini chambarchaslikda ular onggiga singdira olish ota-ona bilan bilan teng qatorda o'qituvchilardan ham ko'p mehnat talab qilishi va ta'limda innovatsiyalardan, ped-texnikalardan unumli foydalanish haqida so'z boradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish yo'nalishida zaruriy tushunchalarga ega bo'lgan, yoshlar psixologiyasini yaxshi biladigan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq eta oladigan, yuksak pedagogik mahorat va ulkan kasbiy tajribaga ega bo'lgan pedagog shaxsini ifodalaydi.

Yuqoridagi nazariy qarashlarni o'rgangan holda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv amaliyotini tashkil etishning zamonaviy texnologiyasini takomillashtirish maqsadida tadqiqot olib borildi.

---

[3] N.Kosharna, L.Petryk Organization of future primary school teachers' professional practice within the optional block Foreign language // непрерывное профессиональное образование: теория и практика (серия: педагогические науки). – 2021. –№ 4 (69). –Б. 51-53.

[4] Jon Dewey Experience and education. – West Lafayette, Indiana : Kappa Delta Pi, – 1998. – 98-p

[5] Donald Schon The reflective practitioner, How profesionals think in action. – Printed in the United States of America Dui&ned by Vincent Torre, - 1988y. – 60p

[61] Raxmanova D.Z. Развитие творческих способностей будущих учителей начальных классов в процессе педагогической практики: Автореферат. кандидата педагогических наук. – Душанбе, 2013. – 26 б.

[7] Urazimbetova B.X. "Talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etishning ayrim dolzarb masalalari // Global dunyoda ilm-fan va ta'limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari". – 2022. -B. 173-182.

[8] Sulliyeva S.X., Zokirov Q.G'. "Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish". – Termiz, 2021. – 55 b.

[9] Jalilova D.U. "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik amaliyotning ahamiyati" // International scientific and practical conference. – T., 2024. 1038 b.

[10] Sayidaxmedov N.S., Ochilov A., "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". Darslik. – T.: RTM, 2000. – 55 b.

[11] Sayidaxmedov N.S. "Yangi pedagogik texnologiyalar: Nazariya va amaliyot". – Toshkent: Moliya, 2003.

[12] Hamroqulov T.T. "Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" // Scientific Journal. – 2022. –№2(7). – B. 154-158.

Maqola uchun tadqiqot davomida mavzuga oid ilmiy-metodik, pedagogik-psixologik adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, suhbat, savol-javob, so‘rovnoma, o‘quv jarayonini kuzatish, tarixiy-xronologik tahlil, prognozlash, baholash, pedagogik tajriba va matematik statistika metodlaridan foydalanildi.

Amaliyot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ta’lim metodlarini qo‘llashni, sinf bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni va o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olib darslarni tashkil qilishni o‘rganadilar. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ham muhim bo‘lib, masalan, interaktiv doskalar, onlayn ta’lim platformalari va multimedia resurslari orqali darslarni yanada qiziqarli qilish mumkin.

Pedagogik amaliyot – mutaxassislarni tayyorlashning bir qismi bo‘lib, uning maqsadi amaliy ko‘nikmalarni egallash, shuningdek, olingan nazariy bilimlarni qo‘llashdir. Oddiy qilib aytganda, amaliyotda talabalar kelajakda nima qilishlari kerak bo‘lsa, ish joyida shuni bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

NATIJALAR

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida bir necha zamonaviy pedagogik usullar tanlab olindi va shakllantirilib, amalda qo‘llanildi.

Talabalar uchun o‘quv amaliyotini qiziqarli va mazmunli tashkil etish maqsadida quyidagi innovatsion shakl va usullardan foydalanish mumkin:

1. Loyihalash faoliyati: talabalar maktabda ta’lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan loyihalar ustida ishlashlari mumkin. Bunga yangi o‘qitish usullarini ishlab chiqish, o‘quv materiallarini yaratish yoki maktab o‘quvchilari uchun tadbirlarni tashkil etish kiradi.

2. O‘qitish jarayonida faollik: o‘quvchilar oddiy kuzatish o‘rniga o‘qituvchi rahbarligida individual mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali darslarda faol ishtirok etishlari mumkin. Bu ularga bolalar bilan ishlashda amaliy tajriba orttirish va ta’lim faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

3. Raqamli texnologiyalardan foydalanish: zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Talabalar interaktiv darslarni ishlab chiqishlari, **onlayn platformalardan foydalanishlari va** video materiallar yaratishlari mumkin.

4. Jamoada ishlash: o‘quvchilarni jamoa bo‘lib ishlashga undash kerak, bu esa muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular birgalikda darslarga tayyorgarlik ko‘rishlari, o‘qitish jarayoni haqidagi taassurotlarini muhokama qilishlari va ish natijalarini tahlil qilishlari mumkin.

5. Teskari aloqa va o‘z-o‘zini baholash: o‘quvchilarning o‘qituvchilar va o‘zlaridan fikr-mulohazalarini olishlari uchun imkoniyat yaratish muhimdir. Bu ularga o‘z faoliyatini baholashga va yaxshilash kerak bo‘lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi.

6. Individual amaliyot rejalari: har bir talaba o‘z qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda individual amaliyot rejasini tuzishi mumkin. Bu jarayonni shaxsiylashtirilgan va rag‘batlantiruvchi ta’sirga ega qiladi.

7. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda qatnashish: o‘quvchilarni turli sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga, masalan, to‘garaklar, sport seksiyalari, qiziqish to‘garaklariga jalb qilish mumkin. Bu ularning o‘quv jarayoni haqidagi tushunchalarini kengaytiradi va o‘quvchilar bilan yaqinroq aloqa o‘rnatish imkonini beradi.

8. Case Study: munozaralarga yordam berish va real hayotdagi o‘qitish holatlarini tahlil qilish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

9. Psixologik-pedagogik treninglar: Muloqot psixologiyasi va pedagogika bo‘yicha treninglar o‘tkazish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, ushbu shakl va usullardan foydalanish uzluksiz o‘qitish amaliyotini talabalar uchun yanada qiziqarli va ma’rifiy qiladi, ularning kasbiy o‘sishiga va ta’lim sohasidagi kelajakdagi ishiga moslashishiga yordam beradi.

O‘quv amaliyoti davomida tahlil qilish talabalarga kuzatishlarini tizimlashtirishga, bolalar bilan ishlash tajribasini tushunishga va kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi. Tahlil qilishda talaba dars yoki sinfning barcha muhim daqiqalarini - maqsadlarini, usullarini, talabalar bilan o‘zaro munosabatini, natijalarini qayd etadi. Bu qaysi yondashuvlar ishlayotganini va qaysi biri keyingi rivojlanishni talab qilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Darslarni tahlil qilish jarayoni o‘quvchidan o‘z faoliyatini xolisona baholashni taqozo etadi, bunda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati shakllanadi. Tahlil daftarlari va o‘qitish amaliyoti uchun kundaliklardagi eslatmalar talabalarga o‘z ishlarini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish yo‘llarini topish imkonini beradi. Tahlil asosida talaba oldingi darslarning yutuq va kamchiliklarini hisobga olgan holda keyingi darslar uchun rejalar tuza oladi. Muntazam mulohaza yuritish kasbiy o‘sishga va pedagogik malakalarning rivojlanishiga yordam beradi. Tahlillar imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish, hisobot yoki tezislarni yozishda foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos amaliyot kundaligi bo‘lib xizmat qiladi. Ulardan o‘qituvchilar va hamkasblar bilan muhokama qilish uchun ham foydalanish mumkin. O‘qituvchilik amaliyoti davomida tahlillar o‘tkazish bo‘lajak o‘qituvchining malakasini oshirishning muhim vositasidir. Quyida dars tahlil daftarining to‘ldirish uchun mo‘ljallangan beti namunasini keltiramiz.

Talabalar bilan suhbat va so‘rovnoma o‘tkazish jarayonida ularning fikri va tavsiyalari olindi. Tahlil daftarini ko‘rib chiqish jarayonida amin bo‘ldikki, ko‘pchilik talabalar o‘qituvchining kamchiliklari yoki xatoliklarini ko‘rsata olmaydilar. Buni ularda tajriba va malaka yetishmasligi bilan asoslaydilar, lekin har bir talaba o‘z qarashlariga ega.

Ushbu jadvalga yangi ustun qo‘shishni taklif qilamiz: “Qo‘llanilgan metod o‘rniga men ...”. Ushbu ustun talabalarning darsni o‘tkazish bo‘yicha qarashlarini tavsiflash maqsadida qo‘shilgan, darsning tahliliga ushbu ustunni kiritish talabalarga ijodiy bo‘lishiga va darsga boshqa nuqtai nazardan qarashga imkon beradi.

O‘quv amaliyotida darslarni baholash uchun mo‘ljallangan jadvalga “Qo‘llanilgan metod o‘rniga men ...” yangi rukni qo‘shilishi o‘quv jarayoni sifatini oshirish, talabalarni tahlilda faol ishtirok etishga jalb etish yo‘lidagi muhim qadamdir. O‘qitish usullarini takomillashtirish. Keling, ushbu tashabbusning bir nechta jihatlarini batafsil ko‘rib chiqaylik:

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Yangi ustun talabalarni o‘qituvchi ishlatadigan usullar o‘rniga qanday usullardan foydalanish mumkinligi haqida o‘ylashga undaydi. Bu ulardan vaziyatni tahlil qilish, turli yondashuvlar haqida o‘ylash va muayyan usulni tanlash sabablarini tushunishni talab qiladi. Bunday tahlil zamonaviy ta’limning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ijodiy yondashuv: Muqobil usullarni taklif qilish o‘quvchilarga o‘z ijodini namoyon etish va innovatsion yechimlarni taklif qilish imkoniyatini beradi. Bu o‘quvchilarning materialni tushunishini kuchaytiradigan yangi texnologiyalar, interfaol formatlar yoki boshqa innovatsion yondashuvlardan foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Mustaqillik va mas'uliyat: Talabalar o'z ma'lumotlarining passiv iste'molchilari emas, balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchilari sifatida ko'rishni boshlaydilar. Ular ta'lim sifati uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olishni o'rganadilar va uni yaxshilash yo'llarini taklif qiladilar. Bu mustaqil va mas'uliyatli mutaxassislarni shakllantirishda muhim qadamdir.

O'qituvchilar uchun fikr-mulohazalar: O'qituvchilar talabalarning turli xil o'qitish usullarini qanday qabul qilishlari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bu ularga o'z yondashuvlarini o'zgartirish va ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Talabalarning fikr-mulohazalarini o'z ichiga olishi o'quv jarayonini yanada moslashuvchan va talabalarning haqiqiy ehtiyojlariga yo'naltirilgan qiladi.

Reflektor ko'nikmalarini takomillashtirish. Ushbu ustunni to'ldirish talabalardan nafaqat muqobil usullarni taklif qilishlarini, balki bu usullarning nima uchun samaraliroq ekanligiga ishonishlarini ham tushuntirishlarini talab qiladi. Bu o'z nuqtai nazarini asosli tarzda ifodalash va o'z qarorlarini asoslash qobiliyatini rivojlantiradi, bu muvaffaqiyatli professional faoliyat uchun muhimdir.

Fikrlarning xilma-xilligi. Har bir talabaning o'ziga xos tajribasi va dunyoqarashi bor, shuning uchun ularning takliflari bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bu o'qituvchilarni yangi echimlar va ishlash usullarini topishga ilhomlantiradigan g'oyalar va yondashuvlarning boy palitrasini yaratadi.

Motivatsiyani oshiring. O'qitish usullarini yaratish va muhokama qilishda ishtirok etish o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishini oshiradi. Ular o'zlarini ta'lim tizimining muhim va qadrli a'zolari sifatida his qilishadi, bu ularning motivatsiyasi va faolligiga ijobiy ta'sir qiladi.

Shunday qilib, "Qo'llaniladigan metod o'rniga men..." ruknining kiritilishi o'quv amaliyotida darslarni tanqidiy tahlil qilishni takomillashtirishga qaratilgan muhim tashabbusni ifodalaydi. Bu talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, mustaqillik va mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi va ta'lim dasturlarini takomillashtirish uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalariga tayangan holda, emperik tadqiqotimiz Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Boshlang'ich ta'lim fakultetida olib borildi. Bunda tadqiqotning asosiy obyektini 2, 3, 4-kurs talabalari bilan tashkil etildi. Tadqiqotimizda jami – 77 nafar pespondentlar ishtirok etishdi.

Tajriba-sinov boshida barcha respondentlar ikkita guruhga bo'lindi: tajriba-sinov va nazorat guruhlar. Tajriba-sinov guruhida 32 nafar talaba, nazorat guruhida – 35 nafar talaba. Barcha respondentlarning pedagogik ko'nikmalari shakllanganlik natijalari jadvalda keltirildi.

1-jadval

Tajriba boshida talabalarning pedagogik ko'nikmalar shakllanganlik darajasi

	Tajriba-sinov guruhi (32)			Nazorat guruhi (35)		
	Yuqori (5)	O'rta (4)	Past (3)	Yuqori (5)	O'rta (4)	Past (3)
Tajriba boshida	6	13	13	7	13	15

Jadvalda keltirilgan natijalarni Pirsonning ($\chi 2$) statistik formulasi asosida tahlil qilib chiqamiz.

$$T_{kuzatuv} = \frac{1}{32 \cdot 35} \cdot \left[\frac{(32 \cdot 7 - 35 \cdot 6)^2}{6+7} + \frac{(32 \cdot 13 - 35 \cdot 13)^2}{13+13} + \frac{(32 \cdot 15 - 35 \cdot 13)^2}{13+15} \right] =$$

$$= \frac{1}{1120} \cdot \left[\frac{(14)^2}{13} + \frac{(-39)^2}{26} + \frac{(25)^2}{28} \right] = \frac{1}{1120} \cdot \left[\frac{196}{13} + \frac{1521}{26} + \right.$$

$$\left. + \frac{625}{28} \right] = \frac{1}{1120} \cdot [\,15,1 + 58,5 + 22,3\,] = \frac{95,9}{1120} = 0,086$$

Ushbu jadvalda keltirilgan natijalar Pirsonning ($\chi 2$) statistik formulasi asosida tekshirilib, pedagogik ko'nikmalar shakllanganlik bo'yicha $T_{kuzatuv}$=0,086 ga teng bo'ldi. Tanlangan 3 ta bilim darajasi uchun T_{kr}= 5,991. Olingan $T_{kuzatuv}$ qiymati T_{kr} qiymatidan kichik. Bundan ko'rinidagi dastlabki natijalardagi tajriba va nazorat guruhlarining ko'nikmalar darajasi bir xil hisoblanadi. Demak, tajriba va nazorat guruhlar to'g'ri tanlandi.

TDPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-4-kurs talabalarning pedagogik bilimlarini shakllantirish maqsadida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining so'nggi bosqichida berilgan tavsiyalarning samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlandi.

Belgilangan me'yorlarni baholashda quyidagi mezonlarga amal qilindi:

2-jadval

T/r	Baho	Izoh
1.	Past daraja (3)	O'rganilayotgan jarayonni qisman biladi, lekin berilgan topshiriqlarni mustaqil hal qila olmaydi. Mantiqiy fikrlash qobiliyati past darajada.
2.	O'rta daraja (4)	O'rganilayotgan jarayon haqida mustaqi fikr yurita oladi. Topshiriqlarni mustaqil bajara oladi.
3.	Yuqori daraja (5)	Jarayon haqida yaxshi fikr yurita oladi. Mustaqil ravishda topshiriqlarni tahlil qilib, bajara oladi. Mantiqiy fikrlash darajasi yaxshi rivojlangan.

Yuqoridagi vazifalar asosida tajriba-sinov ishlarining yakuniy natijalari jadvalda keltirildi va ular yuzasidan tahliliy ishlar amalga oshirildi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari va tavsiya etilgan metodikadan foydalanish samaradorligi bo'yicha ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

(2-jadvalga qarang).

3-jadval

Tajriba natijalari (shakllantiruvchi bosqich)

	Tajriba-sinov guruhi (32)			Nazorat guruhi (35)		
	Yuqori (5)	O'rta (4)	Past (3)	Yuqori (5)	O'rta (4)	Past (3)
Tajriba oxirida	16	9	7	7	16	12

Quyida olingan natijalar asosida (3-jadval) χ^2 mezoninig $T_{kuzatuv}$ statistik qiymatini topamiz. $n_1 = 32$, $n_2 = 35$, $C = 3$.

$$T_{kuzatuv} = \frac{1}{32 \cdot 35} \cdot \left[\frac{(32 \cdot 7 - 35 \cdot 16)^2}{16+7} + \frac{(32 \cdot 16 - 35 \cdot 9)^2}{9+16} + \frac{(32 \cdot 12 - 35 \cdot 7)^2}{7+12} \right] =$$

$$= \frac{1}{1120} \cdot \left[\frac{(-336)^2}{23} + \frac{(197)^2}{25} + \frac{(139)^2}{19} \right] = \frac{1}{1120} \cdot \left[\frac{112896}{23} + \frac{38809}{25} + \right.$$

$$\left. + \frac{19321}{19} \right] = \frac{1}{1120} \cdot [\,4908,5 + 1552,4 + 1016,9\,] = \frac{7477,8}{1120} = 6,68$$

$T_{kuzatuv} = 6,68 > 5,991 = T_{kr}$, demak, N_1 gipoteza qabul qilinadi – olib borilgan tajriba sinov ishlari samarali. Guruhlarining o'zlashtirishlarini taqqoslash maqsadida o'zlashtirish bahosining o'rtacha qiymati formulasi:

$$\bar{x} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{3} n_i x_i$$ bo'yicha hisoblaymiz.

Bu yerda

x_i – o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho qiymati),

n_i – baholarning takrorlanishlar soni,

n – tajribada ishtirok etayotgan respodentlar soni.

$$\overline{x} = \frac{1}{n_1}\sum_{i=1}^{3} n_{1i}x_i = \frac{1}{32}(5 \times 16 + 4 \times 9 + 3 \times 7) =$$


$$= \frac{1}{32}(80 + 36 + 21) = \frac{137}{32} = 4,28$$

$$\overline{y} = \frac{1}{n_2}\sum_{i=1}^{3} n_{2i}y_i = \frac{1}{35}(5 \times 7 + 4 \times 16 + 3 \times 12) =$$

$$= \frac{1}{35}35 + 64 + 36) = \frac{135}{35} = 3,86$$

$$\overline{x} = 4,28 > 3,86 = \overline{y}$$

Demak, tajriba-sinov guruhlarida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-4-kurs talabalarning pedagogik bilimlarini shakllantirish bo‘yicha olingan natijalarni diagramma ko‘rinishida (% da) 1-rasmda va 3-jadvalda keltirilgan:



1-rasm. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-4-kurs talabalarning pedagogik bilimlarini shakllantirish bo‘yicha olingan natijalar (% da)

4-jadval

Tajriba natijalari foizda (shakllantiruvchi bosqich)

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-4-kurs talabalarning pedagogik bilimlarini shakllantirish bo‘yicha olingan natijalar (% da)				
Darajalar	Tajriba-sinov guruhida		Nazorat guruhida	
	32		35	
	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
Yuqori	18,8 %	50,0 %	20,0 %	20,0 %
O‘rta	40,6 %	28,1 %	37,1 %	45,7 %
Past	40,6 %	21,9 %	42,9 %	34,3 %

Tajriba-sinov ishlarning samaradorligini foizda aniqlash uchun tajriba-sinov guruhlardagi yuqori va o‘rta darajali respondentlar soni foizidan nazorat guruhlardagi yuqori va o‘rta darajali respondentlar soni foizi ayrilib topildi. Tajriba-sinov guruhida bolalarning rivojlanish samaradorligi 18,7 %, nazorat guruhida bolalarning rivojlanish samaradorligi 8,6 % ni tashkil etdi, farqi 10,1 %. Demak tajriba-sinov ishlarining samardorligi o‘rtacha 10,1 % ga teng.

Olingan natijalardan samaradorligini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, qo‘yilgan pedagogik gipoteza va statistik hisob natijalariga ko‘ra tajriba guruhidagi o‘zlashtirish nazorat guruhidagi o‘zlashtirishdan yuqori ekanliligi aniqlandi. Bundan TDPU “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-4-kurs talabalarning pedagogik bilimlarini shakllantirish maqsadida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining samardorligi o‘rtacha 10,1 % ga oshganligi to‘g‘risida xulosaga kelish mumkin.

XULOSA

1. Xalqaro tajribani o‘rganish natijasida bugungi kunda o‘qituvchilar malakasini oshirish sohasida pedagogik amaliyotni tashkil etish bo‘yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Pedagogik amaliyotni tashkil etishda turlicha va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlardan foydalanish shaxsga yo‘naltirilgan, rivojlantiruvchi ta’limga asoslangan umumiy pedagogik konsepsiyasini yaratishga yordam beradi.

2. Boshlang‘ich ta’lim o‘quv rejasining mazmuni va tuzilishi, talabalar bilan ishlash shakllari va o‘qitishning innovatsion usullari, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shartlarini aniqlash pedagogik amaliyotni to‘g‘ri tashkil etishni ta’minlaydi.

3. O‘quv amaliyotini tashkil etishda axborot platformasidan foydalanish o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish, talabalarga uslubiy yordam ko‘rsatish, hisobot materiallarini baholash va geolokatsiya ma’lumotlarini qayd etish orqali ularning ishini tezkor nazorat qilish, oshkoralik va bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatini ob’yektiv baholash uchun shuningdek, sharoitlar yaratish uchun zarurdir.

4. Tavsiya etilgan maxsus metodikaning samaradorligini asoslovchi va ta’kidlovchi tajribalar natijalarini o‘zaro qiyosiy o‘rganish, statistik tahlil qilish olib borilgan sinov ishlari va tadqiqotning ilmiy-pedagogik jihatdan muvaffaqiyatli tashkil etilganligini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”. 2022-yil 11-may // https://lex.uz/docs/-6008663?ONDATE=11.05.2022%2000

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2022-yil 21-iyun // https://lex.uz/uz/docs/-6079561

3. Donald Schon The reflective practitioner, How profesionals think in action. – Printed in the United States of America Dui&ned by Vincent Torre, - 1988y. – 60p

4. Jon Dewey Experience and education. – West Lafayette, Indiana : Kappa Delta Pi, – 1998. – 98-p

5. Sulliyeva S.X., Zokirov Q.G‘. “Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o‘tkazish”. – Termiz, 2021. – 55 b

6. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A., “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. Darslik. – T.: RTM, 2000. – 55 b.

7. Sayidaxmedov N.S. “Yangi pedagogik texnologiyalar”: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Moliya, 2003.

8. Hamroqulov T.T. “Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” // Scientific Journal. – 2022. –№2(7). – B. 154-158

9. Khan N. Organization of teaching practice of future primary school teachers in the context of dual training system // International Journal of Educational Management. – 2018. –№32(5). –B. 186.

10. N.Kosharna, L.Petryk Organization of future primary school teachers’ professional practice within the optional block Foreign language // неперервна професійна освіта: теорія і практика (серія: педагогічні науки). – 2021. –№ 4 (69). –Б. 51-53.

11. Urazimbetova B.X. “Talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etishning ayrim dolzarb masalalari” // Global dunyoda ilm-fan va ta‘limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari. – 2022. -B. 173-182.

12. Raxmanova D.Z. Развитие творческих способностей будущих учителей начальных классов в процессе педагогической практики: Автореферат. кандидата педагогических наук. – Душанбе, 2013. – 26 б.

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0001-6543-1050

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARINI TAYYORLASHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH METODIKASI



Nozimabonu Tojiboyeva

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, usullari va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayoniga joriy etilishi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda qanday ijobiy o‘zgarishlar keltirib chiqarishi yoritib beriladi.

Interaktiv usullar, raqamli vositalar, onlayn platformalar va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o‘qituvchilarning o‘quvchilarga individual yondashuvi, ta’lim jarayonining samaradorligi va ijodkorlikni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: metodologiya, innovatsion yondashuv, ta’lim texnologiyalari, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari, texnologiya integratsiyasi, gamifikatsiya, o‘yin elementlari

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni qo'llash so'nggi yillarda dolzarb yo'nalishga aylandi. Rivojlangan davlatlar pedagogik jarayonlarni modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratib, o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni tadqiq etmoqdalar. Xususan Finlyandiyada boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. O'quv dasturlari shaxsiylashtirilgan o'quv jarayonini tashkil qilishga yo'naltirilgan. Interaktiv platformalar va virtual o'quv xonalari orqali pedagogik mashg'ulotlar o'tkaziladi. O'qituvchilarni tayyorlashda turli texnologik vositalar, masalan, EdTech va Gamification texnologiyalari qo'llaniladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkorligi oshgani va ta'lim jarayonini samarali tashkil eta olish ko'nikmalari shakllangani qayd etilgan.

AQShda esa boshlang'ich ta'limda STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta'limini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda Learning Management Systems (masalan, Google Classroom, Canvas) va raqamli ta'lim resurslari orqali dars o'tish malakalari o'rgatiladi. Ta'limni personalizatsiya qilish uchun Artificial Intelligence (AI) va Adaptive Learning texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali o'qituvchilarning talabalarga individual yondashuv imkoniyati oshgani kuzatilgan.

Yaponiya ta'lim tizimida Virtual sinflar, Augmented Reality (AR) va Virtual Reality (VR) texnologiyalari yordamida amaliy mashg'ulotlar tashkil qilinadi. Bunday texnologiyalar bo'lg'usi o'qituvchilarning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan qiziqarli va samarali ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Elektron o'quv materiallari va Smart Classroom texnologiyalaridan foydalaniladi. O'qituvchilarni o'rgatish uchun MOOC (massive open online courses) va Blended Learning usullari keng qo'llaniladi.

Singapurda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda Problem-Based Learning (PBL) va Collaborative Learning texnologiyalari o'rgatiladi. Jahon ta'lim tizimida bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion texnologiyalar yordamida tayyorlash bo'yicha izlanishlar ko'p jihatdan ta'limni personalizatsiya qilish, ijodkorlikni rivojlantirish va texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan.

Ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda, o'quvchilarning fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik darsning samaradorligini pasaytirib yuboradi. Bugungi kunda axborot ko'lami juda keng. Dars mavzulari kundalik hayotdagi dolzarb voqealar bilan bog'lab o'tilsa, turli innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa darsning samaradorligiga erishish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarga innovatsion usullardan foydalanib, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga e'tibor ortmoqda. Boisi an'anaviy ta'limda o'quvchi, talabalar faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchlik funksiyasini bajaradi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovotsion texnologiyalarning o'rni va ro'li kattadir. Pedogogik texnologiya va pedogog mahoratiga oid bilim, tajriba va intiraktiv metodlar o'quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni hamda 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq shu nomli vazirlik tashkil etilgan bo'lib, uning vazifalari qatoriga ijtimoiy rivojlanishga, shu jumladan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga innovatsiyalarni joriy etish ham kiritilgan.

Maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning o'qitilishidagi muammolarni aniqlash, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'qitishda yangi metodlarni amaliyotga tadbiq qilish, qiziqishini yanada oshirishga qaratilgan tavsiyalar berish va yangi metodlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratamiz. Maqola uchun tadqiqot obyekti sifatida Xalqaro Nordik universitetining Boshlang'ich ta'lim 2-kurs talabalari tanlab olindi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini innovatsion ta'lim texnologiyalariga o'rgatish masalasida bir qator yetakchi olimlarning fikrlari mavjud. Ushbu fikrlar ko'plab tadqiqotlar va maqolalar asosida shakllangan.

Jahon olimlari o'quvchilarda innovatsion ta'limga bo'lgan qiziqishlarini turlicha ta'riflashgan. Hamada va Oura, adaptiv ekspertiza (adaptive expertise)ni ta'riflashda o'qituvchilarning o'z bilimlarini yangicha va moslashuvchan tarzda qo'llay olish qobiliyatini ta'kidlaydilar. Ular yangi vaziyatlarga moslasha olish uchun yangi strategiyalarni tanlash qobiliyatini rivojlantirishlari kerak, bu esa innovatsion ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash uchun muhimdir. (Adaptiv ekspertiza (adaptive expertise) – bu ta'lim va professionallar sohasida o'qituvchilar va boshqa mutaxassislarning yangi va noan'anaviy vaziyatlarga moslashuvchanligi, muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvlarini rivojlantirish qobiliyati. Bu konsept, o'qituvchilarning ta'lim jarayonida samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar to'plamini ifodalaydi.) .[1]

Wang va boshqalar (2021) o'tkazgan tadqiqotda, innovatsion ta'lim modellarini o'rganish uchun o'qituvchilarni tayyorlashda texnologiya integratsiyasining ahamiyati ko'rsatilgan. O'qituvchilar o'z pedagogik qobiliyatlarini yaxshilash va texnologiyalardan samarali foydalanishni o'rganishlari zarur.[2]

O'zbekiston olimlarining innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'yicha fikrlari va tavsiyalari turli manbalarda yoritilgan. Quyida ba'zi muhim fikrlar va manbalar keltirilgan:

O. Qo'ysinovning innovatsion ta'lim haqidagi fikrlari o'ziga xos va zamon talablari bilan bog'liq. U innovatsion ta'limni ta'lim tizimining rivojlanishida muhim omil, deb biladi. Unga ko'ra, innovatsion ta'lim texnologiyalari yangi pedagogik yondashuvlarni va metodlarni o'z ichiga olib, o'quvchilarga yanada samarali va ilg'or ta'lim berishni maqsad qiladi. O.Qo'ysinov, ayni paytda, ta'lim jarayonida kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, talabalarning mustaqil fikrlashini

[1] https://www.frontiersin.org/journals/education/articles/10.3389/feduc.2023.1267459/full
[2] https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2022.900806/full

shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u ta'lim tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, onlayn va raqamli resurslardan samarali foydalanish, ta'limni individuallashtirish va individual ehtiyojlarga moslashtirish kabi masalalarni muhim deb hisoblaydi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish va yangi avlodni zamonaviy dunyo talablari darajasida tayyorlashga yordam beradi.[3]

Abdulla Abduqodirovning o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy qilish zarurligini ta'kidlaydi. U raqamli platformalar orqali ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish muhim, deb hisoblaydi. [4]

Gulnoza Sharipovaning ham innovatsion ta'lim haqida bir qancha qarashlari mavjud. Sharipova ta'limda EdTech startaplarini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini aytadi. Uning fikricha, bu innovatsiyalar o'quv jarayonini yaxshilash va ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.[5]

Raxmatilla Mirzaxodjaev o'z qarashlarida, shaxsiylashtirilgan ta'lim tizimlarini yaratish zarurligini ta'kidlaydi. Har bir talabaning o'rganish yo'lini o'ziga xos qilish ta'lim samaradorligini oshirishda muhimdir.[6]

Karimov VR va AR texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi o'quvchilarni yanada faol ishtirok etishga undaydi, bu esa bilim olish jarayonini rivojlantiradi, deb qayd etgan.[7]

Maqola uchun tadqiqot olib borish jarayonida o'quvchilarga tadqiqot to'g'risida ma'lumotlar taqdim etildi. Shundan so'ng tanlab olingan 3 ta metodikaning yo'riqnomalari bilan tanishtirildi. Berilgan vaqt oralig'ida har bir o'quvchi so'rovnoma varaqasini yo'riqnoma asosida to'ldirib berdi. Taqdiqiqot davomida o'quvchilarda yuzaga kelgan barcha savollarga oydinlik kiritildi.

O'quvchilarga qiyinchilik tug'dirmaslik uchun barcha kerakli ko'rsatmalar va yordamlar berildi. Ularni rag'batlantirish maqsadida, faol ishtirokini ta'minlash uchun bir qancha qo'shimcha usullar qo'llanildi. Tadqiqotning har bir bosqichida o'quvchilarni to'g'ri yo'nalishda boshqarish va yo'riqnomalarga amal qilinishi uchun o'qituvchilar va psixologlarning ko'magi muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari tahlil qilinayotganda o'quvchilarning individual ehtiyojlari va ularning o'qishdagi muvaffaqiyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar inobatga olindi. Olingan natijalar asosida o'quvchilarning psixologik va ta'lim jihatdan qanday qo'llab-quvvatlanishi kerakligi haqida tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot yakunida o'quvchilar, o'qituvchilar o'rtasida samarali hamkorlik aloqalari rivojlandi, bu esa tadqiqotning muvaffaqiyatli o'tkazilishiga zamin yaratdi.

S.Shomurodovaning "Bilimlarni tartibga solish" metodikasidan foydalandik. Ushbu metodika har bir talabaning individual ishlashi va bilimlarini aniq yuzaga chiqarishiga yordam beradi. Buni innovatsion metodika deya olamiz. Bu metodikada talaba ona tili fanidan talabalar olgan bilimlarini yanada mustahkamlash uchun yordam beradi. U quyidagicha ishlaydi:

Misol sifatida ona tili fanida leksikologiya va morfemika bo'limlarini olsak bo'ladi. Ushbu bo'limlarda talabalar uch xil tahlil amalga oshirishlari mumkin. Harflar tahlili (harflar uch tomonlama tasniflanishi, ya'ni hosil bo'lish o'rniga va usuliga, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra) bo'g'in (ochiq yoki yopiq bo'g'inligiga ko'ra) Fonetik o'zgarishi (uch tomonlama amalga oshiriladi: tovush tushushi, tovush ortishi, tovush almashishi) yuzasidan amalga oshiramiz. Shu tariqa morfemik va leksik tahlillarni ham yozib chiqamiz. Bitta gap olinadi va tahlil amalga oshiriladi. Har bir o'quvchiga alohida gap olish yoki variantlar orqali amalga oshirish mumkin. Ushbu metodika orqali talaba fanni qanday o'zlashtirganligini amalda ko'rib, tahlil qilishimiz va qaysi bo'limda oqsayotganining yaqqol nomoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Xulosa sifatida talabalar o'zlashtirishini olib, ularning eng oqsayotgan tarafi bilan qayta ishlash maqsadga muvofiqdir. Agar har bir talaba bilan alohida gaplar asosida ishlansa ularda bir-biridan ko'chirish imkoniyati umuman yo'qoladi. Quyida 4 ta namuna berilgan:

Talabaning ismi:

Yo'nalishi:

Mehmon, dasturxonga qarang, chanqog'ingizni bosing.

Ushbu gapni fonetik, leksik va morfem tahlil qiling.

1.Fonetik tahlil:

Harflar	1-tahlil	2-tahlil	3-tahlil	Bo'g'in	Fonetik o'zgarishlar

2.Leksik tahlil:

So'z	Ko'chma ma'no turi	Omonim	Sinonim	Antonim	Paronim

3. Morfem tahlil:

So'z	O'zak	Asos	So'z yasovchi	Lug'aviy shakl	Sintaktik shakl

Ushbu metodikadan nafaqat ona tili fanida balki tabiatni o'qitish metodikasi fanida ham foydalanish mumkin. Metodika talabalarni bir fanni chuqur o'rganishiga zamin yaratadi. Bir-biriga bog'liqlik, darsni yaxshi o'zlashtirmagan o'quvchi uchun bu metodda ishlash noqulaylik tug'diradi va ballarining pas bo'lishiga olib keladi. Baholash jarayoni ham o'ziga xos hisoblanib, bir so'z tahlili kesimida amalga oshiriladi. Bu metodikani quizis testga joylash esa yanada qiziqarliligini ta'minlaydi.

"Matematik bilimlar piramidasi" metodikasi matematika o'qitishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilimlarini oshirishda katta yordam beradi. Biz bilamizki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari asosan matematika hamda ona tili fanlarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari zarur. Matematika fani doirasida talabalar bilimlarini samarali oshirish maqsadida "Matematik bilimlar piramidasi" yordamga keladi. Matematik bilimlar piramidasi metodi – bu matematik bilimlarni mantiqiy ravishda bosqichma-bosqich o'zlashtirish va mustahkamlash uchun foydalaniladigan o'quv metodi. Ushbu metodda tushunchalar piramida shaklida tartiblanib, asosdan yuqoriga qarab murakkablik darajasi

[3] Qo'ysinov O.A. "Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik asoslari", 2008.

[4] Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". – Toshkent: Iste'dod, 2008.

[5] Sharipova D. "Ta'limda innovatsion texnologiyalarning mazmun va mohiyati". – Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,

[6] Qobiljon Karimov. "Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish" – maqolada ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. (cyberleninka.ru)

[7] Karimovning ta'lim texnologiyalari bo'yicha fikrlari (https://tatu.uz/)


oshib boradi. Bu usul yordamida talabalar bilimlarni tizimli ravishda tushunib, ularni bir-biriga bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Metodning asosiy tamoyillari

1. Asosdan murakkablik sari: Piramidaning pastki qismi asosiy bilimlarni ifodalaydi, yuqoriga qarab esa murakkabroq tushunchalar joylashtiriladi.

2. Tizimlilik: Har bir qatlam o‘zidan yuqori va pastki qatlamlar bilan bog‘liq.

3. Amaliyotga asoslanganlik: Har bir tushuncha misollar va amaliy mashqlar bilan mustahkamlanadi.



Piramidaning tuzilishi

— Piramida asosi (eng pastki qatlam): bu qatlamga matematikaga oid eng asosiy tushunchalar joylashtiriladi (masalan, raqamlar, oddiy matematik amallar). Misol: “Natural sonlar”, “Qo‘shish va ayirish”.

— Ikkinchi qatlam: asosiy tushunchalar asosida shakllangan kengroq bilimlar joylashtiriladi. Misol: “Ko‘paytirish va bo‘lish”, “Butun sonlar”, “Kasr sonlar”.

— Uchinchi qatlam: bu bosqichda murakkabroq mavzular, masalan, tenglamalar, proporsiyalar yoki algebraik ifodalar kiritiladi. Misol: “Bir noma’lumli tenglamalar”, “Proporsiyalar”.

— Yuqori qatlam (eng yuqori nuqta): piramidaning yuqori qismiga eng murakkab va umumlashtirilgan bilimlar kiritiladi. Misol: “Funksiyalar”, “Geometriya teoremalari”, “Murakkab masalalar”.

Metodni darsda qo‘llash:

— Boshlang‘ich tayyorgarlik: mavzuga doir asosiy tushunchalarni aniqlab, piramida shaklida tartibga soling. Har bir qatlamda nimalarni o‘rganish kerakligini belgilab oling.

— Tushunchalarni joylashtirish: talabalarga mavzuni qism-qism qilib tushuntiring. Har bir tushunchani piramidaning mos qatlami bilan bog‘lang.

— Amaliy mashqlar: har bir qatlam uchun alohida misollar va masalalar bering. Talabalar har bir bosqichni yechgach, navbatdagi murakkabroq bosqichga o‘tsin.

Umumlashtirish: piramidaning yuqori qismida barcha bilimlarni umumlashtirish uchun murakkab masalalar ustida ishlang. Misol: matematik piramida mavzusi – “Kasr sonlar” 1-qavat (Asos): Kasr sonlar tushunchasi (oddiy kasr, aralash son). 2-qavat: Kasr sonlar ustida amallar (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish). 3-qavat: Kasr sonlarni oddiylashtirish va tenglamalar yechish. 4-qavat (Yuqori qism): Kasrlar bilan murakkab masalalar (masalan, geometriyadagi kasrlar).

Afzalliklari: talabalar bilimlarni tizimli va bosqichma-bosqich o‘zlashtiradi. Har bir qatlam o‘zlashtirilganida keyingi bosqichga o‘tish osonlashadi. Mustahkam asos yaratiladi, bu esa murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi. Ushbu metodni turli matematik mavzular va darajalarga moslashtirish mumkin.

“Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini kasbga tayyorlash metodi – bu o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga amaliy, nazariy va psixologik jihatdan tayyorlashni ko‘zda tutadigan yondashuvlar to‘plamidir. Ushbu metod o‘qituvchi bo‘lishni istagan talabalarni kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish va ularni real ish sharoitlariga moslashtirishga qaratilgan.

Metodning maqsadi: bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish. Amaliyot va nazariy bilimlarni birlashtirib, kasbiy faoliyatga tayyorlash. O‘quvchilarga moslashish va pedagogik mas’uliyatni his qilish qobiliyatini rivojlantirish. Talabalar guruhlarga bo‘lingan holda bu metodda 7 ta bosqichdan o‘tadi.

Muammo asosidagi o‘qitish (PBL). Talabalarga boshlang‘ich ta’lim jarayonida uchraydigan muammoli vaziyatlar taqdim etiladi va ular bu muammoni hal qilish bo‘yicha yechim topadilar. Misol: “O‘quvchilarning darsda faol ishtirok etmayotganligi” muammosini tahlil qilish va strategiyalar ishlab chiqish.

Reflektiv metodlar: talabalar o‘z tajribalarini tahlil qilib, o‘z-o‘zini baholashni o‘rganadilar. Kasbiy bilimlari qay holda ekanligini oldindan bashorat qiladilar.

Integratsion yondashuv: talabalarni o‘qitishda nazariy fanlarni (pedagogika, psixologiya) amaliyot bilan birlashtirish. Misol: “Bolalar psixologiyasi” fanidan o‘rgangan bilimlarni real o‘quvchilar bilan ishlashda qo‘llash.

Kasbiy loyihalar yaratish: talabalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun dars ishlanmalari, interaktiv o‘yinlar yoki metodik qo‘llanmalar ishlab chiqadilar. Loyihalarni himoya qilish orqali tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Kuzatish va tahlil qilish. Boshqa guruh ishini kuzatish va ularning metodlarini tahlil qilish. Interaktiv metodlar. Rol o‘ynash: Talabalar turli pedagogik vaziyatlarni jonlantiradilar (masalan, ota-ona bilan suhbat, o‘quvchini motivatsiyalash). Munozara va debatlar: turli pedagogik masalalar bo‘yicha fikr almashish.

Texnologiyalardan foydalanish. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va qo‘llash. Misol: elektron darsliklar, smart-doskalar va ta’lim platformalaridan foydalanib, raqib guruhga oldindan tayyorlab kelingan mavzuni tahlil qilib berish.

Metodning asosiy bosqichlari:

— Nazariy tayyorlov: pedagogik va psixologik bilimlarni chuqur o‘zlashtirish. Boshlang‘ich ta’limning maqsadi, vazifalari va metodikalarini o‘rganish.

— Amaliy mashg‘ulotlar: dars rejalari tuzish, o‘quv materiallarini ishlab chiqish 3. Refleksiya: o‘z faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash.

— Ko‘nikmalarni mustahkamlash: kasbiy malakalarni rivojlantirish uchun maxsus topshiriqlarni bajarish va loyihalar yaratish.

Natijalar:

— Talabalarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash uchun yetarli darajada nazariy va amaliy tayyorgarlik shakllanadi.

— Mustaqil fikrlash, o‘zini boshqarish va o‘qituvchilikka moslashish ko‘nikmalari rivojlanadi.

— Ta’lim jarayonida real muammolarni hal qilishga qodir mutaxassislar yetishib chiqadi.

Ushbu metodlarni birlashtirib qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali tayyorlashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

NATIJALAR

Psixologik-pedagogik nazariya va me'yoriy hujjatlar tahlili asosida amaliyot jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi bo'yicha metodikalarni ishlab chiqdik va nazariy jihatdan asosladik. Modelni eksperimental tekshirish va amalga oshirish jarayonida maqsadlar, vazifalar va qarorlarni qo'yish talab qilinadi.

Shundan kelib chiqib, tajriba-sinov ishining maqsadi aniqlandi: farazda ilgari surilgan pedagogik sharoitlarni tekshirish va asoslash. Kutilayotgan natija – darsda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda metodlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Ushbu maqsadga muvofiq biz tajriba-sinov ishining vazifalarini aniqladik.

Aniqlovchi tajriba: talabalarni innovatsion ta'lim texnologiyalariga bo'lgan qiziqish darajasini ishlab chiqish; talabalarning metodlar orqali kasbiy kompetentligi rivojlanishining hozirgi shakllangan darajasini aniqlash.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov: ishlab chiqilgan modelni uning samaradorligini aniqlash uchun sinab ko'rish.

Nazorat tajriba-sinovi: shakllantiruvchi tajriba materiallari asosida talabalarning innovatsion metodlar haqidagi bilimlarini rivojlantirish darajasini aniqlash.

Ikkinchi bosqich – amalga oshirish – dastlab farazda aytilgan va tajriba-sinovning tayyorlangan materiallariga ko'chirilgan g'oyalarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Bu yerda asosiy narsa – pedagogik tajriba-sinovning sofligi, olingan ma'lumotlarning yetarlicha ishonchli bo'lishini ta'minlash.

Ushbu bosqichda malaka oshirish sharoitida talabalarning metodlar orqali bilimini takomillashtirish modelini realizatsiya qilish amalga oshiriladi. Modelni amaliy realizatsiya qilish texnologiyasi quyida tavsiflanadi.

Uchinchi bosqich – aniqlash – bu natijalarning miqdoriy va sifat xususiyatlarini aniqlash, ularga kirish imkoniyatiga va ishonchlilikka ega bo'lgan qiymatlar va belgilangan qonuniyatning mohiyatini ochiq namoyon etuvchi ma'lumotlarni olish uchun tegishli ishlov berishga qaratilgan barcha ishlar majmuini ifodalaydi.

To'rtinchi bosqich – talqin qilish – to'plangan faktlar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi, statistik qonuniyatlar belgilanadi, rivojlanish tendensiyalari, barqarorlik zonalari, eksperimental tadqiqot ob'yektida ma'lum fazilatlar shakllanishidagi sakrash vaqtlari aniqlanadi. Induktiv va deduktiv usullarni qo'llash natijasida haqiqiy material umumlashtiriladi, uning ilmiy ahamiyati aniqlanadi. Eksperimental ma'lumotlarning daliliy talqini talabalarning ilmiy bilimini shakllantirish va innovatsion ta'limni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalarni taklif qilish imkonini beradi, bu malaka oshirish amaliyotida ham, shuningdek, oliy o'quv yurtlari faoliyatida ham qo'llanilishi mumkin.

Quyidagi jadvalda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish jarayonida o'quvchilar bilim darajasi dinamikasining o'zgarishi (son va % hisobida) keltirilgan. (1.1-jadval)

Har bir bosqich uchun ikkita o'quv fani, "bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi" mavzusi bo'yicha sonli ma'lumotlar olingan.

O'quvchilarning "innovatsion faoliyat" bo'yicha mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarining shakllanganlik ko'rsatkichlari:

1-jadval

Tajriba bosqichi va o'quv yili		O'zlashtirish darajasi	Tajriba guruhlarida		Nazorat guruhlarida	
			Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
2022-2023 o'quv yili	XNU	Eng yuqori (a'lo) 5	10	16	8	11
		Yuqori (yaxshi) 4	9	12	12	13
		O'rta (qoniqarli) 3	10	1	10	6

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" mavzusi bo'yicha muammoli vaziyatli topshiriqlar vositasida shakllanganlik darajasi

2 - jadval

№	Ko'rsatkichlar	OTM	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
			Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
1	O'rtacha arifmetik qiymat $(\overline{x}, \overline{y})$	XNU	4	4,5	3,9	4,1
2.	Samaradorlik ko'rsatkichi (h)	XNU	1,12		1,05	
3.	O'rtacha qiymat ishonch oralig'i $(a_x \in, a_y \in)$	XNU	[3,7; 4,30]	[4,1;4,84]	[3,6 ; 4,17]	[3,7;4,46]
4.	O'rtacha qiymat standart xatoligi (S_x, S_y)	XNU	0,82	0,93	0,76	1
5.	Aniqlanish ko'rsatkichi (S_x, S_y)	XNU	3,86 %	3,90 %	3,61 %	4,5 %
6.	Student (T) mezoni	XNU	2,08		0,86	
7.	Ko'rsatkichlar natijasi	XNU	N_1 faraz qabul qilinadi.		N_0 faraz qabul qilinadi.	

Demak, 1-2–jadvallarga asosan tajriba guruhida qo'llanilgan metodika nazorat guruhiga nisbatan samarali ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalar tahliliga asosan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini muammoli vaziyatli topshiriqlar vositasida shakllanganligini uch daraja bo'yicha baholandi:

1. Yuqori daraja – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentigini aniqlashda muammoli vaziyatli topshiriqlarga eng muqobil yechimni mustaqil topa olish; muammoli o'qitishning darajalaridan to'la xabardor bo'lish; muammoli ta'limning zamonaviy sharoitda ijtimoiy subyektlar hayotida tutgan o'rni, roli va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojini ta'minlashdagi ahamiyatini to'la anglaydi; kasbiy kompetentlikni shakllantirishga faol intiladi; muammoli vaziyatga mustaqil yechim topa olish (mustaqil fikrlash, bilish, bashoratlash, tanqidiy baholash, kreativ, ijodiy izlanish, modellashtirish, innovatsion va texnologik yondashuv qobiliyati, loyihalash ko'nikma-malakalari, ijodiy tafakkur)ga egalikni yaqqol namoyon qila oladi.


2. O'rta daraja – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qituvchisining kasbiy kompetentigini aniqlashda muammoli vaziyatli topshi-

riqlar va muammoning darajalari haqida ma'lumotga ega, muammoli vaziyatga bir nechta variantda yechim bera oladi; muammoli ta'limning zamonaviy sharoitda ijtimoiy subyektlar hayotida tutgan o'rni, roli va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojini ta'minlashdagi ahamiyatini muayyan darajada anglaydi; kasbiy kompetentligini shakllantirishga intiladi; muammoli vaziyatga yechim topa olish (mustaqil fikrlash, bilish, bashoratlash, tanqidiy baholash, kreativ, ijodiy izlanish, modellashtirish, innovatsion va texnologik yondashuv qobiliyati, loyihalash ko'nikma-malakalari, ijodiy tafakkur)ning namoyon bo'lishiga egalikni yaqqol namoyon qila olmaydi.

3. Past darajada – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentigini aniqlashda muammoli vaziyatli topshiriqlar va muammoning darajalari haqida juda kam darajada xabardor; muammoli ta'limning zamonaviy sharoitda ijtimoiy subyektlar hayotida tutgan o'rni, roli va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojini ta'minlashdagi ahamiyatini bir qadar anglaydi; kasbiy kompetentlikni shakllantirishga bo'lgan intilishda sustkashlikka yo'l qo'yadi; muammoli vaziyatga yechim berish (mustaqil fikrlash, bilish, bashoratlash, tanqidiy baholash, kreativ, ijodiy izlanish, modellashtirish, innovatsion va texnologik yondashuv qobiliyati, loyihalash ko'nikma-malakalari, ijodiy tafakkur) ga ega emas.

Yuqorida aytib o'tilganidek, tajriba ishlarini olib borishda e'tibor qaratiladigan eng muhim jihat – **sinov avvali (ta'kidlovchi tajriba-sinov) hamda yakuni (ta'limiy tajriba-sinov)** da mazkur jarayonga jalb etilgan guruhlarda qayd etilgan natijalar o'rtasidagi farqni aniqlash hisoblanadi. Binobarin, aniqlangan farq – o'rganilgan muammo bo'yicha tadqiqotchi tomonidan tavsiya etilgan g'oya asosida sinov ishlari uchun taqdim etilgan dasturning qay darajada samara berganligini tasdiqlovchi dalil sanaladi. O'tkazilgan tajriba-sinov natijalari "innovatsion ta'lim texnologiyasi" bo'yicha talabalarda muammoli vaziyatlarga yechim topa olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda tajriba guruhlarida 1,12 barobar va nazorat guruhlarida 1,05 barobar samaradorlikka erishilganligini ko'rsatdi.

Tadqiqotlardan olingan natijalar asosida talabalarning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha muammoli vaziyatlar bilan ishlash, bilimlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili quyidagi gistogrammada berildi (3.1-rasm).



Gistogrammadan ko'rinib turibdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida shakllantirish, topshiriqlar vositasidan unumli foydalangan holda shakllantirish o'z natijasini bergan. Yuqori baho olgan tajriba guruhi o'quvchilarida muammoli vaziyatli topshiriqlar bilan ishlash ko'nikma va malakalarining shakllanganlik ko'rsatgichlari natijalariga ko'ra 3.86 % dan 3.90 % foizga, nazorat guruhlarida 3.61% dan 4.5% foizga oshgan.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan quyidagilarni xulosa qilamiz.

1. Tadqiqot mavzusini yaritishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasi ta'lim jarayonining sifatini yaxshilashda va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalar o'qituvchining o'quvchilarga ilmiy izlanishlarni samarali tashkil etish, tadqiqotga oid metodlarni o'rgatish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'quvchilarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish, ularni yangiliklarga qiziqtirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning roli beqiyosdir.

2. Pedagogik texnologiyalarni tadqiqot mavzusini yaratishda qo'llash o'qituvchiga darslarni interaktiv tarzda tashkil etishga yordam beradi. Masalan, onlayn platformalar, simulyatsiyalar va multimedia materiallari yordamida o'quvchilar tadqiqot jarayonining turli bosqichlarini yaxshiroq tushunishlari va faol ishtirok etishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarga mavzu bo'yicha chuqur bilim olish, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish va ilmiy ishlarda erkin fikr yuritishni o'rganishga imkon beradi.

3. Pedagogik texnologiyalarning yana bir afzalligi shundaki, ular o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishga imkon beradi. Masalan, o'qituvchi darsni har bir o'quvchining o'ziga xos talablariga moslashtirishi, qo'shimcha materiallar yoki yordamchi vositalar yordamida qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida o'quvchilar o'z tadqiqotlarini yanada sifatli va o'ziga xos tarzda olib boradilar.

4. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarni tadqiqot mavzusini yaratishda qo'llash o'qituvchining ilmiy va pedagogik kompetensiyalarini oshirishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar orqali o'qituvchi ta'lim metodologiyasini yanada takomillashtirishi, yangi pedagogik usullarni o'zlashtirishi va bu orqali o'quvchilarga ilg'or ta'limni taqdim etishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarda ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Pedagogik texnologiyalarni tadqiqot mavzusini yaratishda samarali qo'llash metodikasi, shuningdek, o'quvchilarga guruh bo'lib ishlash, hamkorlik qilish va ma'lumotlarni baham ko'rish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu metodika o'quvchilarda jamoaviy ishlarni tashkil etish, fikr almashish va muammolarni hal qilishda o'z fikrlarini erkin ifodalash qobiliyatlarini kuchaytiradi.

Yakuniy natijada, pedagogik texnologiyalarni tadqiqot mavzusini yaratishda qo'llash, nafaqat ilmiy izlanishlarni amalga oshirish, balki o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va innovatsion ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu metodika ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga, o'quvchilarni yangi g'oyalar va ilmiy ishlarga jalb qilishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. N.S.Bazarov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari” Pedagogika fanlari doktori. 2015

2. N.K.Bazarov “Ta’limda yangi texnologiyalar”. Pedagogika fanlari nomzodi. 2018

3. R.X.Sattarova “Boshlang‘ich sinfda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash”. Pedagogika fanlari doktori 2020.

4. O.K.Shamsutdinov “Pedagogik texnologiyalar: nazariy asoslar va amaliyot”, O.K.Shamsutdinov (Pedagogika fanlari doktori) Nashr yili: 2017.

5. M.M.Qodirov “Boshlang‘ich ta’limda interaktiv metodlar”. Pedagogika fanlari nomzodi, 2019.

6. Penny Tarrant, Jill Bourne “Innovative Teaching and Learning in Primary Education” 2017

7. Richard B. Smith, John P. Norris “Innovations in Learning and Teaching: The Role of Information and Communication Technologies”2015

8. Smit, J. (2019). “Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini oshirish: virtual reallik simulyatsiyalarining o‘rni”. Ta’lim texnologiyasi jurnali, 25(2), 45-62.

9. Jonson, A. va Uilyams, B. (2020). “Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun video konferensiyadan foydalanish”. Xalqaro o‘qituvchilar ta’limi jurnali, 12(3), 78-94.

10. Braun, C. va Devis, E. (2021). “Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun onlayn muloqot kurslari: Samarali strategiyalarni o‘rganish. Ta’limda kasbiy rivojlanish jurnali, 35(4), 213-230.

11. Qo‘ysinov O.A. “Kasb ta’limi yo‘nalishi bakalavr o‘qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta’limning ilmiy-metodik asoslari”, 2008.

12. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. – Toshkent: Iste’dod, 2008.

13. Sharipova D. “Ta’limda innovatsion texnologiyalarning mazmun va mohiyati”. – Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,

14. Qobiljon Karimov. “Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish” – maqolada ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. (cyberleninka.ru)

15. Karimovning ta’lim texnologiyalari bo‘yicha fikrlari (https://tatu.uz/)

Internet saytlar

1.https://www.frontiersin.org/journals/education/articles/10.3389/feduc.2023.1267459/full

2.https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2022.900806/full

TA’LIM MUASSASASI RAHBARLARINING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

(Oliy ta’lim yo‘nalishi misolida)

Nishonova Dilso‘z



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Boshqaruv kompetensiyasi rahbarning tashkilotni boshqarish, resurslarni taqsimlash, muammolarni hal qilish va xodimlarga motivatsiya berish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Maqolada, rahbarlarning ko‘nikmalarini takomillashtirishga doir bir qator metodik va amaliy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Bunga boshqaruvni zamonaviy usullar bilan yangilash, rahbarlarni doimiy ravishda malaka oshirish kurslari va treninglar bilan ta’minlash, shuningdek, ularda rahbarlik fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik yondashuvlar kiradi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun tahlil va monitoring tizimlarini yaratish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: rahbarlik kompetensiyasi, boshqaruv kompetensiyasi, tashkiliy boshqaruv, pedagogik boshqaruv, resurslarni boshqarish, rahbarlik ko‘nikmalari, innovatsion boshqaruv metodlari, rahbarlik fazilatlari.

KIRISH

Dunyoda ijtimoiy va ta'lim sohalarining innovatsion rivojlanishi ijodiy fikrlash va yetakchilik salohiyatiga ega boshqaruv xodimlariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida sifatli ta'lim yo'nalishida har bir insonni qamrab oluvchi odil va yuqori sifatli ta'lim tizimini ta'minlash hamda rag'batlantirish, ta'limning barcha sohalarida inson resurslarini rivojlantirishning sinergik ta'sirini aniqlash, kasbiy qiziqishlar va ehtiyojlarga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Dunyo bo'ylab boshqaruv kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlashning innovatsion modellarini ishlab chiqish va joriy etish, ta'lim menejerlarining yetakchilik va boshqaruv vakolatlarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi (EUA), Oliy ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha Yevropa tarmog'i (EAQA) kabi tashkilotlarda inson resurslarini rivojlantirish infratuzilmasini takomillashtirish, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish va baholash uchun yaxlit platformalarni yaratish, tarkib, shakl, usullar va vositalarni takomillashtirishga alohida e'tibor beriladi. Mamlakatimizda ham oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv ko'nikmalari va yetakchilik salohiyatini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim tizimida rahbar xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. Ushbu vazifalarni bajarish oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun uzluksiz malaka oshirish jarayonini yo'lga qo'yishni, integratsiyalashgan axborotni takomillashtirishni va innovatsion yondashuvlar asosida boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishni uslubiy ta'minlashni talab qiladi.

Ta'lim muassasasi rahbari nafaqat ma'muriy-xo'jalik ishlarini boshqaruvchi, balki pedagogik jarayonlarni tashkil qiluvchi, yo'naltiruvchi, jamoa a'zolarini ruhlantirib, qo'llab-quvvatlovchi, ilhomlantiruvchi va innovatsion g'oyalarni amalga oshiruvchi yetakchi bo'lishi lozim[1]. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari rahbarlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu masala O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va 2030-yilgacha bo'lgan davrda oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida ham o'z aksini topgan[2]. Shuningdek, Prezident Farmonlari va hukumat qarorlari bilan mustahkamlangan.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 29-dekabrdagi "Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ta'lim muassasalari rahbarlarining malakasini oshirish, boshqaruvni zamonaviy usullar bilan tashkil etish hamda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu Farmon rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasini oshirishga yo'naltirilgan islohotlarni davom ettirishni maqsad qilgan[3]. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi hamda "Ilm, ta'lim va innovatsiyalarni rivojlantirish yili" doirasidagi strategik maqsadlar ushbu masalaning dolzarbligining dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmonida oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, boshqaruv tizimi va o'quv jarayonlarini elektronlashtirish, "Elektron universitet" platformasiga o'tish kabi chora-tadbirlar nazarda tutilgan. "Oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2012-yil 26-sentyabrdagi 278-son qarorga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar ta'lim muassasasi rahbarlari va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Ushbu qarorda ularning innovatsion texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini takomillashtirish maqsadlari ko'zda tutilgan. Bunday islohotlar, aynan liderlik qobiliyatining shakllantirilishi, ta'lim jarayonlarini boshqarishni zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. Shu bilan birga, bu hujjatlar oliy ta'lim muassasalarida ijodiy muhit yaratish, muammolarni hal qilishda noan'anaviy yondashuvlardan foydalanish va innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish masalasi O'zbekiston ilmiy-amaliy tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Ilmiy izlanishlarda rahbarlikning boshqaruv funksiyalari, rahbarlikning psixologik asoslari, ta'lim muassasasining tashkiliy tizimi va rahbarlarning innovatsion yondashuvlari tadqiq etilgan. Masalan, professor X. Xudoyberganov, doktor B. Abdurahmanov kabi mutaxassislar rahbarlik kompetensiyasini rivojlantirishga oid ilmiy ishlanmalarni taqdim etgan[4]. Ular rahbarlarning tashkiliy va pedagogik boshqaruvdagi rolini, shuningdek, rahbarlarning shaxsiy fazilatlarini muhim omil sifatida ta'kidlagan.

Rahbarlik kompetensiyasining nazariy asoslari: rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalarini o'rganish nazariyalari asosan boshqaruv jarayonlarining sotsial-psixologik, pedagogik va iqtisodiy jihatlarini o'rganishga qaratilgan. M.Veber, P.Druker va H.Fayol kabi olimlar boshqaruvning klassik nazariyalarini ishlab chiqqan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar I.Adizes, K.Levin va Kotter tomonidan taklif qilingan. Ushbu nazariyalarda rahbarlarning qaror qabul qilish, liderlik va tashkiliy o'zgarishlarni boshqarish kabi kompetensiyalariga urg'u berilgan.

Ta'lim sohasida boshqaruv kompetensiyasi: ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyati pedagogik jarayonlarni tashkil etish, sifat monitoringini olib borish va kadrlarni boshqarish bilan uzviy bog'liq. Ushbu yo'nalishda T.Parsons, J.Hargreaves, va S.Sergiovanni kabi olimlar ta'lim muassasalari rahbarligining mohiyati va ularning ta'lim sifatiga ta'sirini o'rgangan.

O'zbekiston tadqiqotchilarining hissasi: O'zbekiston ta'lim tizimi islohotlari va rahbarlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar G'.Q. Abdukarimov, Z.A.Muminova va A.R.Sodiqov kabi mahalliy olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ular boshqaruv kompetensiyasini milliy konteksda tahlil qilib, rahbarlarning professional malakasini oshirish dasturlari samaradorligini o'rganishgan.

Xalqaro tajribalar: ta'lim boshqaruviga oid xalqaro tajribalar AQSh, Buyuk Britaniya, Finlyandiya va Singapur kabi davlatlarda keng o'rganilgan. D.Fullan, M.Senge va A.Hargreaves singari tadqiqotchilar rahbarlarning innovatsion yondashuvlarini va ularning ta'lim tizimi samaradorligiga ta'sirini tadqiq qilgan. Xususan, Finlyandiyada ta'lim rahbarlari uchun tizimli treninglar va boshqaruvni raqamlashtirish bo'yicha tajribalar katta e'tiborga loyiq.

---

[1] Akramov S.S. Ta'lim tizimida liderlik va samarador boshqaruv. Toshkent: O'qituvchi, 2019.

[2] Abdullayeva Sh (2023). Oliy ta'lim muassasalarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent: Fan.

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni: «Ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida». PQ-4884-son. 6.11.2020. Toshkent.

[4] Abduqodirov A.A. Ta'lim boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan, 2018.

M.Veberning boshqaruv byurokratiya modeli boshqaruv jarayonlarining strukturaviy tashkil etilishiga asoslangan bo‘lib, rahbarning rasmiylik va nazoratni ta’minlashdagi roli tahlil qilingan.

P.Drukerning menejment nazariyasi esa rahbarlarning asosiy vazifasi sifatida natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv faoliyatini ta’minlashni ko‘rsatadi.

D.Fullanning o‘zgarishlarni boshqarish modeli ta’lim muassasalarida innovatsiyalarni samarali joriy etish uchun rahbarlarning strategik qaror qabul qilish va jamoani boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

A.R.Sodiqovning tadqiqotlari O‘zbekiston sharoitida ta’lim muassasalari rahbarlarini tayyorlash va malakasini oshirish masalalariga bag‘ishlangan. U ta’lim tizimida innovatsion boshqaruv texnologiyalarini qo‘llashga oid amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqan [6].

K. Levinning o‘zgarishlar modeli rahbarlarning psixologik va kommunikatsion ko‘nikmalarini rivojlantirishning boshqaruv jarayoniga ta’sirini o‘rganadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirishga doir ilmiy ishlar ko‘plab mamlakatlarda amalga oshirilgan, ammo mahalliy sharoitda xalqaro tajribalarni moslashtirish jarayonlari to‘liq o‘rganilmagan. Raqamli texnologiyalarni boshqaruvda qo‘llashning ilmiy-amaliy asoslari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasi ta’lim tizimi natijalariga qanday o‘zgarishlar olib kelishi bo‘yicha chuqur ilmiy tahlillar kam.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi natijasida zamonaviy dunyoda ilmiy bilimlar, tushunchalar va tasavvurlar hajmi keskin ortmoqda. Bunday vaziyatda innovatsion va ijodiy boshqaruv salohiyatiga ega pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib, ulardan yuqori darajadagi kasbiy mahorat va kompetentlik talab qilinmoqda.

Oliy ta’lim bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omillaridan biri bo‘lib, davlatning iqtisodiy o‘sishi, intellektual salohiyati va innovatsion liderlik imkoniyatlari ta’lim tizimini boshqarishning zamonaviy usullarini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir. Maqolada boshqaruv kompetensiyasi, ta’lim muassasasi rahbariyati va innovatsion boshqaruv, boshqaruvning ijodiylik tushunchalari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Ular ta’lim muassasasi rahbarining samarali faoliyatini ta’minlash uchun bir-birini to‘ldiruvchi asosiy elementlar hisoblanadi.

Ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirishni o‘rganish jarayonida bir qator muhim tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniqlash lozim. Bu tushunchalar maqolaning ilmiy asosini tashkil qilib, metodologik yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribalarda yana bir necha olimlar tomonidan olib borilgan tajriba va amaliyotlar o‘tkazilgan. Shunday olimlardan T.Parsons ta’lim muassasalarining sotsial tizim sifatida tahlil qilinishini taklif etadi. Uning fikriga ko‘ra, oliy ta’lim muassasasi rahbari ta’lim muassasasining tashqi-atrof muhit bilan o‘zaro aloqasi bo‘lishi, ta’lim jarayonlarini tashkil etishda ta’limning sotsial va iqtisodiy tizimga tasirini inobatga olish, rahbarning liderlik qobiliyati, tashabbuskorligi, vazifalarni o‘z vaqtida muvofiqlashtira olishi kabi omillarni inobatga olishi lozim. A. Giddensning fikricha, oliy ta’lim muassasalari rahbarlari globalizatsiya va axborot texnologiyalari ta’sirini hisobga olib, o‘z boshqaruv uslublarini doimiy ravishda takomillashtirishi kerak. U oliy ta’limda institutsional rivojlanishning yangi modellari va texnologiyalardan foydalanishni tavsiya etadi.

O‘zbek olimlari ham ta’lim boshqaruvi menejmentlik kompetensiyalariga doir bir necha ilmiy izlanishlar olib borgan. Shunday olimlardan biri G‘.Abdukarimovdir. Uning tadqiqotlari O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan. U rahbarlarning menejerlik qobiliyatlarini rivojlantirish, sifat menejment tizimini joriy qilish va ta’limning raqamli transformatsiyasiga alohida e’tibor qaratgan.

Boshqaruv kompetensiyasi – bu rahbarning tashkilotda strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlari yig‘indisi. Ushbu tushuncha zamonaviy menejment nazariyasida muhim o‘rin tutib, tashkilotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Boshqaruv kompetensiyasi tarkibiga quyidagi asosiy komponentlar kiradi:

* *Tahliliy kompetensiya:* tashkilotning mavjud holatini baholash, ma’lumotlarni tahlil etish va qarorlar qabul qilish;
* *Strategik boshqaruv kompetensiyasi:* uzoq muddatli rejalashtirish va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadi;
* *Kommunikativ kompetensiya:* rahbarning xodimlar bilan samarali aloqa o‘rnatish va jamoaviy ishlash qobiliyati;
* *Innovatsion kompetensiya:* yangi texnologiyalarni joriy etish va o‘zgarishlarni boshqarish qobiliyati;
* *Emotsional intellekt:* rahbarning o‘z hissiyotlarini boshqarish, xodimlarni rag‘batlantirish va motivatsiyani oshirish ko‘nikmalari.

Maqola yozish jarayonida tadqiqot quyidagi bosqichlar asosida o‘tkazildi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Asosiy bosqich;
3. Yakuniy bosqich.

Tadqiqotning tayyorlov bosqichida – tashkilotning tashkiliy tuzilmasi, vazifa va funksiyalari bilan tanishildi. Bajariladigan ishlar rejasi tuzildi.


Asosiy bosqichda esa tadqiqot o‘tash dasturini bajarish bo‘yicha reja-jadvalda nazarda tutilgan ishlar bajarildi.

Yakuniy bosqichda tadqiqot o‘tash davrida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijasi ko‘rib chiqildi, tahlil qilindi. Ularning dastlabki boshqaruv salohiyati darajasi baholanib, keyinchalik boshqaruv jarayonida innovatsion boshqaruv metodlari joriy qilindi. Rahbarlar, o‘qituvchilar va boshqa xodimlar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazilib, boshqaruvdagi zaif tomonlar aniqlandi. Monitoring va kuzatuv jarayonida ta’lim va boshqaruv amaliyotlarini kuzatish orqali mavjud muammolar qayd etildi. Tahliliy hisob-kitoblarda muassasalar faoliyati natijalari statistik va iqtisodiy tahlil qilindi

Maqola uchin tadqiqot davomida so‘rovnomalarda kuzatuvlar, hujjatlarni tahlil qilish orqali sifat va miqdoriy ma’lumotlar yig‘ildi, tahlil qilindi va umumlashtirildi. Kuzatuvlar natijalari rahbarlar boshqaruvi samaradorligining yuqori va quyi ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun tahlil qilindi. Ma’lumotlarni quyidagi grafik va diagrammalarda ko‘rishingiz mumkin.

1-rasm

Oliy ta’lim muassasalari kafedra mudirlarining vazifalari, yutuq va kamchiliklari




Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot o‘tkazilgan rahbarlarning yutuqlari bilan birga bir qator kamchiliklari ham bor. Jumladan, xalqaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish, ilmiy tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish, mahalliy aloqalarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va hokazo. Sinov uchun ikkita asosiy guruh shakllantirildi:

Tajriba guruhi: takomillashtirish dasturidan foydalanadigan rahbarlar.

Nazorat guruhi: an’anaviy boshqaruv usullaridan foydalanadigan rahbarlar. Rahbarlarning mavjud boshqaruv ko‘nikmalari darajasini aniqlash, raqamli boshqaruv, strategik rejalashtirish, stressni boshqarish kabi yo‘nalishlarda trening dasturlari tayyorlash. Tajriba va nazorat guruhlariga rahbarlarni bo‘lish. Tajriba guruhida rahbarlar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etildi. Liderlik ko‘nikmalari, vaqtni boshqarish, jamoaviy boshqaruv texnikalari. Rahbarlarga yangi boshqaruv uslublarini amalda sinab ko‘rish vazifalari yuklanadi. Masalan: raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish, strategik qarorlar qabul qilish. Har ikkala guruh faoliyati davomida rahbarlarning yondashuvlari va natijalari kuzatiladi.

1-gistogramma

Tajriba-sinov natijalarining qiyosiy diagrammasi



Liderlik sifatini oshirib, boshqaruvda yangi texnologiyalarining samaradorligini tasdiqladi.

Xodimlar orasida kreativ yondashuvlarni qo‘llash nafaqat o‘quv jarayonini boyitadi, balki ularni zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan menejmentlar sifatida shakllantiradi. Ushbu jarayonda quyidagi vositalarning ahamiyati muhimligi aniqlandi: Sotsiologik so‘rovnomalar: ta’lim muassasasi xodimlari va rahbarlari bilan intervyular - bunda ta’lim muassasasidagi rahbar xodimlar, kafedra mudirlari, o‘quv bo‘limi rahbarlari, universitet mas’ul rahbar xodimlaridan turli boshqaruv usullari, boshqaruvning samaradorlik jihatlari haqida intervyulardan foydalanish [8].

Amaliy kuzatish va tajriba o‘tkazish - bunda rahbar xodimlar faoliyatini kuzatish ular bilan turli zamonaviy kompetensiyalarni qo‘llagan holda treninglar, so‘rovnomalar tashkil etish. Ma’naviy-tarbiyaviy boshqaruv uchun Sharq adabiyotlaridan foydalanish: Amir Temurning boshqaruv uslublari, Forobiy asarlari, Konfutsiyning inson va jamoani boshqarishga doir hikmatli so‘zlaridan foydalanish. O‘quv jarayonini modernizatsiya qilish. Pedagog xodimlarning darslarni noan’anaviy shaklda tashkil etish uchun ilg‘or texnologiyalarni joriy qilishini doimiy nazorat qilish.

Samarali ijodiy boshqaruvni joriy qilish: pedagoglarga loyihaviy ishlar va mustaqil ijodiy vazifalar yuklash. Tadqiqotning yakuniy bosqichida barcha natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar oliy ta’lim tizimida zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan boshqaruv usullari, metodik qo‘llanmalar va boshqaruvning interfaol texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini ko‘rsatdi. Xulosalar nazariy qarashlar, eksperimental natijalar va kuzatuv ma’lumotlari bilan uyg‘unlashib, ta’lim jarayonini boshqarishning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim uslubiy ko‘rsatmalarni taklif etdi. Shu tariqa, tadqiqot muammosini yechish jarayoni keng qamrovli va tizimli tahlil asosida amalga oshirilib, nazariyadan amaliyotgacha bo‘lgan barcha bosqichlar qamrab olindi.

Quyida boshqaruv rahbarlarida zarur kompetensiyalarni rivojlantirishga oid trening dasturi berib o‘tiladi. Boshqaruv malakasini rivojlantiruvchi psixologik trening (4 soat amaliy mashg‘ulot). Pedagogik jamoa samarali boshqaruv malakasini rivojlantiruvchi omillar: har bir xodimning ijobiy tomonlarini topa olish, ularga hurmat va mehr bilan qaray olish, kuzatuvchanlik, diqqat-e’tiborlilik, topshiriqning yuqori darajada rivojlanishini ta’minlovchi psixologik mexanizmlar, boshqaruv muomalasining mexanizmlari, odamlarni idrok etish tiplariga ko‘ra ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olish qobiliyatlarini o‘zida diagnostika qilish, rivojlantirish usullari bilan tanishish, qo‘llab ko‘rish, vaziyatlarni psixologik tahlil qilish va ularning mohiyatini tushunib yetish. Rahbar shaxsning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish va tajriba almashish.

Mavzuning texnologik xaritasi

“Boshqaruv malakasini rivojlantiruvchi psixologik trening” mashg‘uloti.			
Kalit so‘zlar:	Rahbar shaxs, rahbar tayyorgarligi, ijtimoiy-psixologik va pedagogik muhit, psixologik to‘siqlar, jamoadagi psixologik iqlim, xodimlarning o‘zaro munosabatlari, vaqtni boshqarish malakalari.		
Mavzuning qisqacha tarifi:	Pedagogik jamoada samarali boshqaruv malakasini rivojlantiruvchi omillar: har bir xodimning ijobiy tomonlarini topa olish, ularga hurmat va mehr bilan qaray olish, kuzatuvchanlik, diqqat-e’tiborlilik, topshiriqning yuqori darajada bajarilishini ta’minlovchi psixologik mexanizmlar boshqaruv muomalasinining mexanizmlari, odamlarni idrok etish tiplariga ko‘ra ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olish qobiliyatlarini o‘zida diagnostika qilish, rivojlantirish usullari bilan tanishish, qo‘llab ko‘rish, vaziyatlarni psixologik tahlil qilish va ularning mohiyatini tushunib yetish. Rahbar shaxsning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish va tajriba almashish.		
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi			
Metod:	Kuzatish, suhbat, tezkor so‘rov, aqliy hujum metodi.		
Forma:	Amaliy mashg‘ulot, savol-javob, individual va jamoaviy ishlash, kichik guruhlarda ishlash.		
Vositalar	(texnik va didaktik): tarqatma material, 10 ta vatman qog‘oz, ma’ruza asosida tayyorlangan prezentatsiya slaydlari, markerlar, skotch, doska, kompyuter, proyektr.		
Nazorat :	Kuzatish, nazorat savollari. O‘z-o‘zini nazorat qilish testi orqali.		
Baholash:	Rag‘batlantirish, guruhlar ishini baholash, o‘z-o‘zini baholash.		
Amaliy mashg‘ulot maqsad va vazifalari:			
Ma**qsadlar:** Ta’limiy rahbar shaxsda: 100 professional qobilyatlarni shakllantirish. Tarbiyaviy rahbarlikka xos xislatlar, professional mutaxassislik sifatlariga ega bo‘ladi. Rivojlantiruvchi: Boshqaruv malakasini, jamoada faollikni shakllantirishga ko‘maklashish.	**Vazifalar:** **Rivojlantiruvchi mashqlar;** 1. SWOT - tahlili 2. Yoqimli so‘zlar mashqi 3. Sabrli tinglovchi mashqi		
Kutilayotgan natijalar:			
Amaliy mashg‘ulot yakunida tinglovchi biladi (Bilim): Boshqaruvda psixologik bilimlarning ahamiyati. Rahbarlarning o‘zaro munosabatlarida yuz beradigan psixologik to‘siqlarni anglash va ularga qo‘yiladigan psixologik talablar samarali boshqaruvga to‘siqlik qiluvchi shaxs xislatlarini bartaraf etish.	**Qaysi mashqlar berildi:** 1. SWOT – tahlili		
Amaliy mashg‘ulot yakunida tinglovchi tushunadi (Ko‘nikma). Boshqaruv faoliyat natijalarini izohlaydi. Mazkur mavzu bo‘yicha egallangan bilimlar kelajakda qayerlarda qo‘llanilishi mumkinligi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.	Qaysi mashqlar orqali ko‘nikma hosil qilinadi: 1. Yoqimli so‘zlar mashqi 2. “Robinzon Kruzo“ mashqi.		
Amaliy mashg‘ulot yakunida tinglovchi bajara oladi. (Malaka): Rahbarning shaxs sifatida shakllanishiga oid ma’lum psixologik malakasi shakllanadi			
Amaliy mashg‘ulot jarayoni va uning bosqichlari:			
Ishning nomi:	Bajariladigan ish mazmuni:	Metod	Vaqt
1-bosqich: Tashkiliy qism	Tinglovchilarni trening mashg‘ulotini o‘tkazish tartibi, qoidalari bilan yaqindan tanishtirish.	Savol-javob	3 min
2-bosqich. Refleksiya.	Mavzuga doi tegishli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish ehtiyojlarini aniqlash.	Og‘zaki	8 min
3-bosqich: Mavzu asosida amaliy ish bayoni	1. SWOT–tahlili 2 “Robinzon Kruzo” mashqi 3 ”Yoqimli so‘zlar” 4. Sabrli tinglovchi mashqlari 5. Psixologik razminka	Yakka tartibda Guruhlar jamoa bo‘lib ishlash	10 min 10 min 10 min 10 min 5 min

4-bosqich. Mustahkamlash	Psixotrening mashg'ulotida o'zini qanday his qilganligi termometr yordamida baholaydi va o'z fikrlarini bildiradi	Guruh-larda ishlash	15 min
5-bosqich. Baholash. Dars yakuni.	Darsning yakunida mavzuga oid qilingan tajriba va bilimlarning kelajakda qayerda qo'llanilishi mumkinligi haqida xulosalar chiqariladi.	O'z-o'ziga baho berish	10 min
6-bosqich. Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar (uyga vazifa)	Berilgan topshiriqlar natijalarini juftliklarda, so'ngra kichik guruhlarda muhokama qilish va eng munosibini tanlab olish. 1.Muammoning jamoali tarzda yechimini topish usul va vositalari. 2. Muammoni jamoali tarzda hal etish bo'yicha ustuvor g'oyani baholash.	Nazorat uchun savol-javoblar	10 min

Amaliy mashg'ulotning borishi:

1-bosqich. a) Tashkiliy ishlarni kuzatish: Treningda kerakli jihozlarga e'tibor qaratish, proyektor, flipchart, marker, skoch, vatman, kartochkalar, rangli qog'ozlar tarqatiladi. O'qituvchi mavzuga oid tushuncha beradi. b) Mavzuni tanishtirish, mavzuning dolzarbligi haqida tushunchalar berish.

2-bosqich: Mavzuga tegishli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilishdagi ehtiyojlari aniqlanadi.

3-bosqich: Tinglovchilar mashqlarni ketma-ket bajarib boradilar, ular quyidagicha keltirilgan:

1-mashq. "SWOT "– tahlili. Aniq misol asosida tahlil jadvalni to'ldiring. Bu mashqda tinglovchilar rahbar shaxs hislari va xulq-atvoridagi o'zgarishlari haqida tahlil qiladilar. Bu quyidagi shaklda to'ldiriladi: So'ng har bir tinglovchi o'z SWOT-tahlilini o'qib eshittiradi. Bunda zarur bo'lgan maslahatlar beriladi. Tinglovchi o'z-o'ziga to'g'ri baho beradilar.

2-mashq. "Robinzon Kruzo". Bunda guruh ishtirokchilari tasavvurlarida "Robinzon Kruzo" kinofilmi eslatiladi. Topshiriq: Siz jamoangiz bilan kimsasiz orolga tushib qoldingiz. Bu orolda sizning jamoangiz o'zini qanday boshqaradi, qanday ishlar taqsimotini qiladi va nimalarga ahamiyat berasiz? Mashq yakunida ishtirokchilar o'zlarini qanday his qilganliklari va kim qanday yo'l-yo'riqlar ko'rsatganligi so'raladi.

3-mashq. "Yoqumli so'zlar". Bu mashqda tinglovchilar guruhlarda ishlaydilar. Xodimlarga yoqimli so'zlarni qay darajada ishlata oladi, rolli o'yin qilib ko'rsatib berish kerak. "Hushomad", "Maqtov"larning ta'sir kuchi qanday ekanligi bo'yicha fikrlarini bildiradi. So'ng unga psixologik to'g'ri yo'nalishlar ko'rsatiladi.


4-mashq. "Sabrli tinglovchi". Har qanday rahbar oldiga kelgan xodimining arzini sabr-qanoat bilan tinglashi zarur. Bu o'rinda shoshma-shosharlik zarar keltiradi. Har xil xodim bo'ladi: biri o'z arz-dodini qisqa va lo'nda qilib ifodalaydi, boshqasi esa cho'zadi, asl maqsadga tez o'tmasdan vaqtingizni oladi. Siz shunday vaziyatda boshqaruv muloqotining muhim usulini qo'llashingiz zarur, bu usulni qo'llashning psixologik mexanizmini tuzing! Tinglovchilarga 5 daqiqa vaqt beriladi, so'ngra ular tuzgan muloqot mexanizmini psixologlar bergan tavsiyalari bilan solishtirishga qaratamiz va tinglovchilar xulosasi eshitiladi.

NATIJALAR

Shu kabi treninglarni tashkil qilganimizdan so'ng tinglovchilarda quyidagicha ko'rsatkichlar kuzatildi. So'rovnomalar, kuzatuvlar, hujjatlarini tahlil qilish orqali sifat va miqdoriy ma'lumotlar yig'ildi, tahlil qilindi ва umumlashtirildi. Kuzatuvlar natijalari rahbarlar boshqaruvi samaradorligining yuqori va quyi ko'rsatkichlarini aniqlash uchun tahlil qilindi. Ma'lumotlarini quyidagi grafik va diagrammalarda ko'rishingiz mumkin.

1-gistogramma

Tajriba-sinov natijalarining qiyosiy diagrammasi



Ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv kompetentligini takomillashtirishda rahbar kadrlarni boshqaruv munosabatlarga kirishishida, rahbarning bilimi, qadriyatlari, tarbiyasi va boshqaruv uslubi katta ahamiyatga ega. Boshqaruvchi rahbarlarga boshqaruv haqida tushunchalar berish, turli treninglar o'tkazish orqali ularda mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik, hisob-kitobni yuritish ko'nikmalari shakllanadi.

XNU boshqaruv rahbarlarida boshqaruv kompetentligini takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari olib borilib, ushbu jarayonda 12 nafar o'rta bo'g'in menejerlari va 59 nafar quyi menejerlar ishtirok etdilar. Ulardan 12 nafari tajriba guruhi sifatida, 59 nafari esa nazorat guruhi sifatida qatnashdilar. Nazorat guruhida an'anaviy tarzda boshqaruv jarayonlari olib borildi va kuzatildi. Tajriba guruhida esa boshqaruv kompetentligini rivojlantiruvchi turli treninglar tashkil etish orqali takomillashtirildi.

O'rta bo'g'in menejerlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantiruvchi treninglar auditoriyada, auditoriyadan tashqari bo'lgan holatlarda topshiriqlarni bajarishga esa amaliy vaziyatlarni hal etish uslublari va vositalari bo'lgan - muammoli vaziyatlar, keys-stadi, loyihalar qo'llanildi. Keys-stadi o'quv uslubi bo'lib, u tashkilot, shaxslar guruhi yoki alohida shaxslar hayotidan olingan real vaziyat yoki talabalarni muam-

moni aniqlash va uni maqsadga muvofiq yechish variantlarini qidirishga yo‘naltiruvchi, tashkiliy hayotda vujudga keladigan muammolarni aks ettiruvchi yasama (sun’iy) vaziyatga asoslangan. Keysda tavsiflangan aniq vaziyat o‘rganishni voqelikka bog‘lab qo‘yadi: muammoni hal etish bo‘yicha vaziyatni tahlil qilish, taxminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash, qo‘shimcha ma’lumotni yig‘ish, taxminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi.

Bu jarayonlarning amalga oshirilishi natijasida menejerlar to‘plagan baholari qo‘yib borildi. Quyidagi jadvalda o‘zlashtirish darajalari shundan dalolat beradiki, tajriba olib borgan guruhda nazorat guruhiga nisbatan ko‘rsatkichlar yuqoriligi bilan ajralib turdi, jumladan, an’anaviy tarzdagi kuzatishlarda “a’lo” baholarni olgan menejerlar 25 % ni, “yaxshi” baholarga ega bo‘lganlar 35 % ni tashkil qilsa, zamonaviy pedagogik ва psixologik texnologiyalarni qo‘llagan holda, menejerlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishda innovatsion yondashilganda boshqaruv bo‘yicha “a’lo” baholarni 42 %, “yaxshi” baholarni esa 25 % rahbar o‘zlashtirib borgan (2-jadval).

2-jadval

Tajriba davomida rahbarlar kompetensiyalarni o‘zlashtirish darajalari

№	O‘zlashtirish darajalari	Guruh turlari			
		Nazorat guruhi (n=59)		Tajriba guruhi (n=12)	
		miqdor	*foizi*	*miqdor*	*foizi*
1.	85,1% - 100% → «A’lo»	15	25%	5	42%
2.	70,1% - 85% → «Yaxshi»	21	35%	3	25%
3.	55,1% - 70% → «Qoniqarli»	19	32%	3	25%
4.	0% - 55% → «Qoniqarsiz»	4	6,7%	1	8%


Tajriba guruhi: takomillashtirish dasturidan foydalanadigan rahbarlar

Nazorat guruhi: an’anaviy boshqaruv usullaridan foydalanadigan rahbarlar.

Rahbarlarning mavjud boshqaruv ko‘nikmalari darajasini aniqlash, Raqamli boshqaruv, strategik rejalashtirish, stressni boshqarish kabi yo‘nalishlarda trening dasturlari tayyorlash. Tajriba va nazorat guruhlariga rahbarlarni bo‘lish. Tajriba guruhida rahbarlar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etildi. Liderlik ko‘nikmalari, vaqtni boshqarish, jamoaviy boshqaruv texnikalari, rahbarlarga yangi boshqaruv uslublarini amalda sinab ko‘rish vazifalari yuklanadi. Masalan: Raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish, strategik qarorlarni qabul qilish. Har ikkala guruh faoliyati davomida rahbarlarning yondashuvlari va natijalari kuzatiladi. Tadqiqot, liderlik sifatini oshirib, boshqaruvda yangi texnologiyalarning samaradorligini tasdiqladi. Tajriba sinovlarining natijalari ta’lim muassasalarini boshqaruvchi rahbarlar uchun innovatsion metodlar va yangi kompetensiyalar boshqaruv yondashuvlarining samaradorligini baholash imkonini taqdim etdi.

Tajriba-sinov tahlili

Конец формы



XULOSA

Ushbu tadqiqot ta’lim muassasalarini boshqaruvchi rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu mavzu mamlakat ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruratidan kelib chiqadi. Tadqiqot davomida olib borilgan ilmiy-tahliliy ishlar asosida quyidagi umumiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Hozirgi davrda ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishda rahbar- xodimlarning kompetensiyasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va ta’limga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar rahbar kadrlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishni strategik maqsad sifatida belgilagan. Tadqiqot ushbu hujjatlar va xalqaro tajriba asosida o‘ziga xos ilmiy-amaliy yondashuvni ishlab chiqdi.

2. Boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish orqali rahbar xodimlarning liderlik salohiyatini oshirish uchun rahbarlarning kasbiy faoliyatini samarali baholash mezonlari ishlab chiqildi.

3. O‘rganilgan ilmiy nazariyalar asosida rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik materialli tizimi rivojlantirildi. Eksperimental va taqqoslash guruhlari ishtirokida tadqiqot o‘tkazilib, rahbarlarning boshqaruv qobiliyatlariga menejmentlik sifatlariga innovatsion yondashuvlarning ta’siri aniqlandi.

4. Eksperimental guruh natijalarida taqqoslash guruhiga nisbatan sezilarli darajada o‘sish aniqlandi, boshqaruv samaradorligi, jamoaviy ishlash, innovatsion yondashuv va liderlik qobiliyatlarida o‘sish kuzatildi. Bunday natijalar innovatsion pedagogik texnologiyalarni boshqaruv tizimiga joriy qilishning samaradorligini isbotlaydi.

Maqola uchun tadqiqot natijalari asosida ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimini rivojlantirish borasida quyidagi takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Rahbarlar uchun yangi metodologiyalar va didaktik materiallarni ishlab chiqish hamda ularni malaka oshirish kurslarida qo‘llash, ta’lim boshqaruvi tizimiga innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish.

2. Rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasini oshirishga qaratilgan maxsus o‘quv dasturlari va treninglar tashkil qilish.

3. Innovatsion boshqaruv yondashuvlari va xalqaro tajribalarni o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish.

4. Oliy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini baholash uchun sifat ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va muntazam monitoring o‘tkazish.

5. O‘zbekiston ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv modellarini qo‘llash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Kitob va turkum nashrlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni: “Ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-4884-son. 6.11.2020. Toshkent.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori: “Oliy ta’lim tizimini isloh qilish dasturi to‘g‘risida”. PF-5847-son 08.10.2019. Toshkent.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli farmoni asosida qabul qilingan “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

5. Abdullayev, S. (2023). Oliy ta’lim menejmenti: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan.

6. Abdullayeva Sh (2023). Oliy ta’lim muassasalarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent: Fan.

7. Abduqodirov A.A. “Ta’lim boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti”. Toshkent: Fan, 2018.

8. Akramov S.S. “Ta’lim tizimida liderlik va samarador boshqaruv”. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

9. Bespalko V.P. “Pedagogik texnologiya shartlari”.- M., 19897.

10. Hamidova, M., & Karimova, S. (2021). “Ta’lim Boshqaruvi va Menejmenti”. Toshkent.

11. Karimov B.B. “Boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion metodlari. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.

12. Karimov, B. (2022). “Oliy ta’lim muassasalarini boshqarishning innovatsion usullari. Ta’lim va innovatsiyalar”, 3(1), 45-58.

13. Anderson, L.W., & Krathwohl, D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman, 2001.

16. OECD. Education at a Glance: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2022.

17. UNESCO. Educational Leadership and School Management. Paris: UNESCO Press, 2021.

18. Nordik universiteti hisobotlari va metodik qo‘llanmalar (2023).

Jurnallardagi maqolalarga havolalar:

1. Hakim A. Contribution of competence teacher (pedagogical, personality, professional competence and social) on the performance of learning // The

2. International Journal of Engineering and Science. 2015.V. 4. №2. P. 1-12.

Fullan, M. Leading in a Culture of Change. San Francisco: Jossey-Bass, 2001. Bartram, D. (2005). The Great Eight competencies: a criterion-centric approach to validation. Journal of applied https://doi.org/10.1037/0021- 9010.90.6.1185

Internet manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi rasmiy veb-sayti: www.edu.uz

2. OECD ma’lumotlar bazasi: www.oecd.org

HTTPS://ORCID.ORG/0009-0004-6995-5312

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING USUL VA VAZIFALARI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Magistrlik dissertatsiyasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari va vazifalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ishda o‘qituvchilik faoliyatidagi muloqotning nazariy jihatlari ko‘rib chiqiladi, shuningdek, o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. O‘qituvchining o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan o‘zaro munosabatlarini yaxshilashga yordam beradigan samarali muloqot strategiyalarini ishlab chiqishning amaliy jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Ta’lim berishning ilg‘or texnologiyalari va xorijiy tajribalar asosida o‘qituvchilarni ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy usullar bilan tanishtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantirish kerakligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ ko‘nikmalar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, kasbiy rivojlanish, hikoya qilish, fikr-mulohazalar va baholash, muloqot, ommaviy nutq, jamoatchilik ishtiroki, doimiy kasbiy rivojlanish.

KIRISH

Hozirgi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish juda katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ayni kunlarda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal qilish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va ularni xolisona baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil fikrlaydigan, jamiyatimiz uchun yetuk shaxslar kerak.

Yuqoridagi ta’kidlangan fikrlar asosida aytish mumkinki, ushbu maqola mavzusi ham juda dolzarb. Chunki bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish kommunikativ jarayon orqali amalga oshiriladi.

Jahonda bir qator olimlar mazkur mavzu yuzasidan ko‘plab izlanishlarni amalga oshirganlar. O‘qituvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha ham turli xil ishlar olib borilganligini ko‘rish mumkin. Ma’lumotlar bazalari yordamida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha bir qancha manbalar mavjud. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish usullari va vazifalarini o‘rganish uchun tegishli adabiyotlar tahlil qilindi.

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishning usul va vazifalarini o‘rganish yuzasidan xorijlik olimlardan Brown H.D. [15], Harmer J. [22], Marzano R.J., Pickkering D., Pollock J.E. [28]lar o‘zlarining tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Ilmiy izlanishlar va olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari mahalliy olimlardan R.Jumaniyozov, R.X.Djurayev, U.I.Inayatov, Z.K-.Ismailova, N.A.Muslimov, Qo‘ysinov, M.Jurayev [25], Sh.Abduraimov, D.Mamatov, L.Zaripov, G.Abduraimova O.A.Qo‘ysinov [26] va boshqalarning ishlarida ham yoritilgan.

Bo‘lajak mutaxassislar hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayondagi muammolarning yechimini hal etish, o‘z sohasi va kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, zamonaviy ta’lim paradigmasi oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan ma’lum kompetensiyalarni shakllantirish bilan belgilanadi, bu Boloniya ta’lim tizimida o‘z aksini topadi. Yevropada ta’limga yondashuvlardagi o‘zgarishlarning boshlanishi Yevropa davra suhbatining “Yevropada ta’lim va kompetensiyalar” (1989) hisoboti bo‘lib, u nashr etilgan paytdan boshlab “bilim”-ni “kompetentlik” bilan almashtirdi. Diqqatning “bilim” komponentidan xulq-atvor jihatiga o‘tishi mavjud, chunki kompetensiyalar rivojlangan xulq-atvor reaksiyalari tizimi kabi bilim emas [43].

Bir qator mahalliy olimlarning (A.A. Abdukodirov, N.N.Azizxo‘jayeva, R.X.Djurayev, R.G.Isyanov, I.V.Morxova, N.A.Muslimov va boshqalar) fikricha, kommunikativ kompetensiyaga asoslanish ta’lim sifatini oshirishning samarali usuli hisoblanadi [10].

Hozirgi davrdagi ilm-fan va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi natijasida axborotlar hajmining keskin ortishi, rivojlangan davlatlar darajasidagi raqobatbardosh va yetuk malakali kadrlar tayyorlash masalasi uzluksiz ta’limning bosh bo‘g‘ini hisoblangan boshlang‘ich ta’lim tizimi uchun yuksak pedagogik-kasbiy mahoratga ega bo‘lgan malakali o‘qituvchilarni tayyorlashni ham taqozo etmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim sohasida o‘qituvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy yangi texnologiyalar orqali metodlarni ham takomillashtirish zarur. Chunki hozirgi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shu bilan birga, zamon talablariga mos ravishda har tamonlama yetuk va salohiyatli, intiluvchan va erkin fikrlay oladigan yosh avlodni yetkazib berish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bu esa yangi metodlar yaratish va ularni takomillashtirishni taqozo etadi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Boshlang‘ich ta’limda kompetensiyaviy yondashuv yangi pedagogik voqelik kasb etadi. Bunday yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik jihatdan talqin qilish hamda ta’limning an’anaviy uch elementi bo‘lgan “Bilim – ko‘nikma – malaka”ni oltita birlik: “Bilim – ko‘nikma – malaka – amaliy faoliyat tajribasi – kompetensiya – kompetentlik” tarzida tahlil qilish juda muhim hisoblanadi [10].

Hozirgi davrda o‘quvchilarda ma’lum o‘quv predmeti yuzasidan faqatgina bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishning o‘zi yetarli emas. Ta’lim muassasasini muvaffaqiyatli tamomlagan ayrim o‘quvchilar hayotda ko‘p muaffaqiyatsizliklarga uchrashi mumkin. Oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisi, ya’ni yosh mutaxassis universitet yoki institutda o‘z kasbiga oid bilim va ko‘nikmalarni yetarli darajada olgan bo‘lsa-da, ish joyiga ko‘nikishi uzoq vaqt davom etishi mumkin. Bunday holatlardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, maktabda olingan bilim va ko‘nikmalar hayotiy vaziyatlarga to‘g‘ri kelmaydi yoki umuman hayotida kerak bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo‘llashga o‘rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvni ta’lim jarayoniga qo‘llash zaruriyati yuzaga keladi. Tadqiqotchi A.V.Xutorskoy “kompetensiya” haqida o‘z fikrini quyidagicha bayon etadi: “Kompetensiya – talabaning ma’lum bir sohada samarali faoliyati uchun zarur bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talabdir” [44]. Kompetentlik esa o‘z faoliyatida nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi.

I.A.Zimnayaning fikriga ko‘ra, kompetentlilik “insonning ijtimoiy-kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bilimlar hamda insonning aqliy va shaxsiy xususiyatlariga asoslangan tajriba”dir, “kompetensiya” esa “qo‘llanilmagan”, “yashirin”, “potensial” zaxiradir [46].

Mahalliy olimlardan N.A.Muslimov, M.B.Urazovalarning ta’kidlashicha, kompetensiya nazariy bilimlardan o‘qituvchilik faoliyatida samarali foydalanish, kasbiy mahorat, qobiliyat va iste’dodni yuqori darajada namoyon etishdir [31].

E.A.Seytxalilova, B.X.Rahimov va I.U.Majidovlar muallifligidagi pedagogik lug‘at-ma’lumotnomada “kompetentlik” tushunchasi ma’lum bir kasbiy sohadagi shaxsning bajaradigan vazifalari va hal etayotgan muammolarning murakkablik darajasiga muvofiqlik mezoni sifatida talqin etiladi.

E.G.Azimov va A.N.Shchukinlar muallifligidagi “Uslubiy atama va tushunchalarning yangi lug‘ati”da “kompetentlik – ma’lum bir fanni o‘qitish jarayonida shakllangan bilim va ko‘nikmalar, shuningdek, olingan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida har qanday faoliyatni amalga oshirish qobiliyati” sifatida ta’riflangan.

A.M.Novikovning fikriga ko‘ra, “kompetentlik” atamasi “mahorat” tushunchasi bilan belgilanadi, bu esa insonning olingan bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi asosida muayyan harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini anglatadi. Mahoratni shakllantirish har qanday ta’lim jarayonining asosiy maqsadi bo‘lishi kerak. Qobiliyatlar asosida shaxs tomonidan olingan hayotiy tajriba, shaxsiy qadriyatlar, moyillik va amaliy faoliyat, ya’ni kompetensiyalar shakllanadi.

Ko‘rinadiki, “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekan. Ushbu ikki tushunchaning umumiy komponenti – faoliyat bilan izohlanadi, biroq “kompetentlik” ancha keng ma’noga ega.

Ma’lum bir kompetensiya bir nechta kompetensiyalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Shuni inobatga olib, kommunikativ ko‘nikmalarga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning bir qismi sifatida qaraldi.

Boshlang‘ich sinflar uchun yaratilgan ona tili dasturi tilshunoslikning bir qancha bo‘limlarini qamrab olgan. Bu bo‘limlar o‘zaro ichki bog‘lanishda bo‘lib, boshlang‘ich sinflarda ularni o‘rganish tilni bir butun tizim sifatida o‘zlashtirishni ta’minlasa-da, o‘ziga xos murakkabliklarni ham keltirib chiqaradi. Masalan, tilshunoslikning “Fonetika”, “Grafika”, “Orfoepiya”, “Orfografiya” bo‘limlari materiallari boshlang‘ich ta’limda birgina “Tovushlar va harflar” bo‘limiga, barcha so‘z turkumlari birgina “So‘z“ bo‘limiga, butun sintaksis “Gap“ bo‘limiga birlashtirilgan. Tilning barcha bo‘limlarini nazariy o‘rganish jarayonida leksika va imloni o‘zlashtirib borish ham nazarda tutiladi.

Boshang‘ich sinf ona tili darsliklari tahlilida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish quyidagi ikki talabga asoslanadi:

1) fonetik, leksik, grammatik birliklardan maqsadga muvofiq foydalana olish;

2) o‘quvchilarning mavjud nutqiy ko‘nikmalarini turli topshiriqlar va usullar asosida rivojlantirish.

Ona tili darsliklari kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning quyidagi uch yo‘nalishi asosida tahlil qilindi:

1. O‘quvchilar nutqini lug‘aviy birliklar bilan boyitish imkoniyati.

2. So‘zlardan fikr ifodasida to‘g‘ri foydalana olishlariga tayyorlash imkoniyati.

3. Og‘zaki va yozma madaniy-badiiy nutqining savodlilik darajasini ta’minlash imkoniyati.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili ta’limi jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda darslik materiallari muhim o‘rin tutadi. Avvalo, darslik materiallari kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish borasida boy imkoniyatlarga ega bo‘lishi, o‘quvchini o‘ziga ta’sirchanligi bilan jalb eta olishi, ikkinchidan, til materiallari ustida ishlashda o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarni nutqiy faoliyatga yo‘llashga qaratilgan bo‘lishi zarur. O‘quvchilar bog‘lanishli nutqining o‘sish darajasi uning lug‘at zaxirasi bilan belgilanadi.

O‘quvchilarga nutq namunalarini berish kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy shartlaridandir. Nutq namunalariga ota-onaning nutqi, qarindosh-urug‘lar va o‘rtoqlarning nutqi, xalq og‘zaki ijodi va badiiy adabiyot, radio va televideniye, kino va teatr, o‘qituvchi, maktab ma’muriyati va xodimlari nutqi, darslik va o‘quv qo‘llanmalar tili kiradi. Shu jihatni hisobga olganda, nutq namunalari til birliklariga boy, rang-barang va to‘g‘ri bo‘lishi lozimligi anglashiladi. Bu kabi nutqiy vositalar material tomonidan ham adabiy, ham badiiy, ham madaniy me’yorlarga javob berishi lozim.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan lingvistik tushunchalardan kelib chiqib, mashqlarni fonetik, leksik, so‘z yasalishi, so‘z tarkibi, grafik, orfografik, orfoepik, grammatik mashqlarga ajratish mumkin. Bunday mashqlar asosida amalga oshiriladigan tahlil o‘quvchilarning nazariy tushunchalarni o‘zlashtirishlariga yordam berishi, lug‘atini boyitishi, bog‘lanishli nutqini o‘stirishi jihatidan keng qamrovli bo‘lib, o‘quvchilarning tilni har tomonlama o‘zlashtirishlarini ta’minlashini nazarda tutadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish maqsadida “zanjir”, “mantiqiy ketma-ketlik”, “juftni top”, “yo‘qolgan so‘zni top”, “sinonim va antonimni top”, “seriyani davom ettir”, “hamma narsani bir so‘z bilan nomlash” va boshqa didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Tajriba guruhlarida o‘rganish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin bo‘lgan quyidagi interfaol usullar qo‘llanildi: rolli o‘yinlar – hayotdan turli vaziyatlarni modellashtirish, bunda o‘quvchilar rol o‘ynaydi va bir-biri bilan muloqot qiladi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi, davra suhbati – barcha ishtirokchilar stol atrofida o‘tirib, taklif qilingan mavzuni muhokama qiladigan, fikr almashadigan guruh ishining shakli, loyiha usuli – talabalardan harakatlarni rejalashtirish va natijalarni muhokama qilishni talab qiladigan qiziqarli mavzu bo‘yicha qo‘shma ish. Ushbu usullar bolalarda muloqot qilish, o‘z fikrlarini ifoda etish, jamoada ishlash va boshqalarning fikrini hurmat qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida mavzuga oid ilmiy-metodik, pedagogik-psixologik adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, suhbat, savol-javob, so‘rovnoma, o‘quv jarayonini kuzatish, tarixiy-xronologik tahlil, prognozlash, baholash, pedagogik tajriba va matematik statistika metodlaridan foydalanildi.

Ishlab chiqarilgan rejaga binoan birinchi galdagi vazifa sifatida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, ularni o‘tkazish bosqichlari hamda tajriba-sinov maydonchalari aniqlab olindi. Rejaga ko‘ra tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichi ta’kidlovchi xarakter kasb etib, unda maxsus ishlab chiqilgan so‘rovnoma va savolnoma vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirilganlik darajasi aniqlab olindi. O’tkazilishi rejalashtirilgan tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifalari, mazmuni va qo‘llanilishi uchun asos bo‘lgan metodik tuzilmasi ishlab chiqildi, bajariladigan ishlar mazmuni belgilandi.

Tajriba-sinov ishlari Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va Xalqaro Nordik universitetida “Ona tili va uni o‘qitish metodikasi” fanidan auditoriya mashg‘ulotlari doirasida o‘tkazildi. Tajriba guruhlariga (TG) 134 nafar talaba va nazorat guruhlariga (NG) - 117 nafar talaba respondent sifatida tanlandi, guruhlar soni bo’yicha ma’lumotlar 1-jadvalda ko’rsatilgan.

1-jadval

Tajriba va nazorat guruhlarning soni bo’yicha ma’lumotlar

	2-kurs		3-kurs		Jami	
	TG	NG	TG	NG	TG	NG
Nizomiy nomidagi TDPU	59	61	55	56	114	117
Xalqaro Nordik universiteti	8		12		20	0
Jami	67	61	67	56	134	117

Nazorat va tajriba guruhlarga bo’linishda tajriba-sinov ishlarning ta’kidlovchi bosqichidagi natijalar asosida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarining taxminan bir xil darajaga ega bo‘lgan guruhlarga ajratildi. Nazorat va eksperimental guruhlarga bo’linishning to‘g‘riligi Pirson statistik mezoni (xi-kvadrat) yordamida isbotlangan.

2-jadval

Ballar bo‘yicha kommunikativ kompetentlik darajasini aniqlash jadvali

Kommunikativ kompetentlik darajasi	Ball
Past daraja	20 — 33
O‘rtacha daraja	34 — 47
Yuqori daraja	48 — 60

Jadvaldan foydalanib, umumiy ballni hisoblash va kommunikativ kompetentlik darajasini aniqlash so‘raldi.

Tajriba va nazorat guruhlarida kommunikativ kompetensiya shkalasi bo‘yicha 20 dan 33 ballgacha to‘plagan talabalar bu boradagi ko‘nikmalarning quyi darajada rivojlanganligini ko‘rsatmoqda. Bu shuni anglatadiki, bunday talaba orqada turishni va tinglashni afzal ko‘radi, faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘ralganda o‘z fikrini aytadi. Bunday talaba tanqiddan o‘zini noqulay his qiladi va boshqa izohlardan qochishga harakat qiladi. U nizolarni oldini olish uchun qarama-qarshi fikrlarga ega bo‘lgan odamlar bilan muhokama qilishdan qochadi. Yangi odamlar bilan muloqot qilishda tashabbus juda kam uchraydi. U boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tan olishda qiynaladi va u nima bo‘layotganini har doim ham tushunmaydi. Bunday talaba har qanday vosita bilan ziddiyatli vaziyatlardan qochishga harakat qiladi. U suhbatdoshni tinglaydi, lekin ko‘pincha chalg‘itadi. Fikrlarni og‘zaki ifodalash, ayniqsa, murakkab masalalarga kelganda, unga sezilarli qiyinchiliklar tug‘diradi. U boshqa odamlarning fikr-mulohazalarini qiyinchilik bilan qabul qiladi va xafa bo‘lishi mumkin. Bunday talaba omma oldida nutq so‘zlashga tayyorlanmaydi va tinglovchilar oldida nutq so‘zlash talab qilinganda juda asabiylashadi. Suhbat ishtirokchilari o‘rtasida e’tibor notekis taqsimlanadi.

Tajriba va nazorat guruhlarida kommunikativ kompetentsiya shkalasi bo‘yicha 34 dan 47 ballgacha to‘plagan talabalar bu boradagi ko‘nikmalarning o‘rtacha darajada rivojlanganligini ko‘rsatmoqda. Bu shuni anglatadiki, u guruh muloqotida o’rtacha faol, o‘z fikrini bildira oladi, lekin buni tartibsiz qiladi. U tanqidga adekvat javob bera oladi, garchi ba’zida uni yuragiga sig‘dira oladi. Bunday talaba hatto qarama-qarshi fikrga ega bo‘lganlar bilan ham hurmatli suhbatlar o‘tkazishga harakat qiladi, lekin g‘azablanishni boshdan kechirishi mumkin. U yangi tanishlardan qochmaydi, lekin ularni faol ravishda izlamaydi. Boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tan olish uning uchun biroz qiyin, lekin ko‘p hollarda u ularni to‘g‘ri tushunadi. Mojaroli vaziyatlar bunday talaba uchun qiyinchiliklar tug‘diradi, lekin u ularni hal qilishga harakat qiladi, garchi bu biroz harakat talab qiladi. U suhbatdoshini qanday tinglashni biladi, lekin har doim ham aniq savollarni so‘ramaydi. Fikrlarni og‘zaki ifodalash, ayniqsa, murakkab masalalarga kelganda, unga biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Bunday talaba jamoaviy ishda qatnashishni juda xohlamaydi, lekin u aniq maqsadni ko‘rsa, baribir buni qiladi. Yozma muloqot ham unga biroz qiyinchilik tug‘diradi, ayniqsa o‘z fikrlarini aniq ifodalashda.

Tajriba va nazorat guruhlarida kommunikativ kompetensiya shkalasi bo‘yicha 48 dan 60 ballgacha to‘plagan talabalar bu boradagi ko‘nikmalarning yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatmoqda. Bunday talaba guruhda o‘z fikrini faol ifodalaydi va muhokamalarni qo‘llab-quvvatlaydi. U tanqidni o‘zini rivojlantirish imkoniyati sifatida qabul qiladi va unga konstruktiv javob beradi. Qarama-qarshi fikrlarga ega bo‘lgan odamlar bilan muloqot qilganda u murosaga erishishga harakat qilib, hurmat bilan muloqot qiladi. Bunday talaba ko‘pincha yangi odamlar bilan muloqot qilishni boshlaydi va osongina aloqa o‘rnatadi. U boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tan olishda va bu bilimlarni muloqotda ishlatishda yaxshi. Bunday talaba uchun ziddiyatli vaziyatlar oson, u yaxshi munosabatlarni saqlab, ularni samarali hal qiladi. Diqqat bilan tinglash va faol so‘roq qilish uning muloqotining ajralmas qismidir. Ovz fikrlarini og‘zaki ifodalash unga hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi va u tinglovchilar oldida ishonch bilan gapiradi. Bunday talaba jamoaviy ishlarda ishtirok etishga undaydi va ishontirish qobiliyatidan muvaffaqiyatli foydalanadi. U noverbal muloqot vositalaridan ongli va samarali foydalanadi.

Ta’kidlovchi tajriba-sinov ishlarining natijalarini tahlil qilish mobaynida tadqiqotning keyingi bosqichi hisoblangan izlanuvchi tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifalariga, qo‘llaniladigan metodikaning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratildi.

Tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichida talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar ajratib olib kuzatildi. Ular mazkur bosqichda bir qator ta’limiy topshiriqlarni bajarib, o‘zlarida shakllangan kommunikativ kompetensiyalarni namoyish qildilar. Bu o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha materiallarni tanish va notanish vaziyatlarda mustaqil qayta tiklash evaziga yangi axborotlarni qo‘lga kiritish bilan tavsiflandi.

Talabalarning kommunikativ kompetensiyalarni o‘rganishning uzoq muddatga mo‘ljallangan shaklida ularda tez-tez takrorlanib turadigan qiziqishlarni o‘rganish va aniqlash:

Talabada o‘quv-tarbiya jarayoniga nisbatan qiziqish mavjudmi?

Agar bo‘lsa aynan nimalarga nisbatan ko‘proq qiziqadi?

Talabadan alohida olingan bir fanga nisbatan qiziqish bormi?

Mazkur predmetda uni quyidagilardan aynan nima qiziqtiradi?

O‘quv fani mazmuni;

Yangi bilimlarni egallash metodlari;

Misol va masalalar yechish metodlari;

Tashqi natijalar-baho, obro‘ va boshqalar.

Kuzatishdan tashqari turli shakl va mazmundagi anketa so‘rovlari, insholar tanlovi, suhbatlarni amalga oshirish ham mumkin.

kommunikativ kompetensiyalarni o‘rganish va shakllantirish quyudagi algoritm asosida olib borildi:

Ta’limning maqsadini aniqlash va belgilash.

Kommunikativ kompetensiyani tarkibiy qismlarni aniqlash.

Kommunikativ kompetensiyaning boshlang‘ich o‘rnini aniqlash, o‘rganish.

O‘zgarish (kamayish, ko‘payish, doimiy) sabablarini o‘rganish.

Yutuqlarni baholash va keyingi ishlarni rejalashtirish.

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishning usul va vazifalarini o‘rganish yuzasidan xorijlik olimlardan Brown H.D. [15], Harmer J. [22], Marzano R.J., Pickkering D., Pollock J.E. [28]lar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari mahalliy olimlardan R.Jumaniyozov, R.X.Djurayev, U.I.Inayatov, Z.K.Ismailova, N.A.Muslimov, Qo‘ysinov, M.Jurayev [25], Sh.Abduraimov, D.Mamatov, L.Zaripov, G.Abduraimova O.A.Qo‘ysinov [26] va boshqalarning ishlarida ham yoritilgan.

Bo‘lajak mutaxassislar hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayondagi muammolarning yechimini hal etishi, o‘z sohasi va kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, zamonaviy ta’lim paradigmasi oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan ma’lum kompetensiyalarni shakllantirish bilan belgilanadi, bu Boloniya ta’lim tizimida o‘z aksini topadi. Yevropada ta’limga yondashuvlardagi o‘zgarishlarning boshlanishi Yevropa davra suhbatining “Yevropada ta’lim va kompetensiyalar” (1989) hisoboti bo‘lib, u nashr etilgan paytdan boshlab “bilim”-ni “kompetentlik” bilan almashtirdi. Diqqatning “bilim” komponentidan xulq-atvor jihatiga o‘tishi mavjud, chunki kompetensiyalar rivojlangan xulq-atvor reaksiyalari tizimi kabi bilim emas [43].

Bir qator mahalliy olimlarning (A.A. Abdukodirov, N.N.Azizxo‘jayeva, R.X.Djurayev, R.G.Isyanov, I.V.Morxova, N.A.Muslimov va boshqalar) fikricha, kommunikativ kompetensiyaga asoslanish ta’lim sifatini oshirishning samarali usuli hisoblanadi [10].

XULOSA

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini o‘rganish bo‘yicha xulosalar:

1. Asosiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish: Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faol tinglash, savol berish va fikr-mulohazalarni bildirish kabi asosiy muloqot qobiliyatlari bo‘yicha yuqori malakani namoyish etadilar. Bu samarali o‘qitish faoliyatiga tayyorligini ko‘rsatadi.

2. Emotsional kompetentsiyani rivojlantirish: Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarda empatiya va boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyatlari rivojlangan, bu boshlang‘ich maktab o‘quvchilari bilan ishlashning muhim jihati hisoblanadi.

3. Og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan vositalardan foydalanish: Tadqiqot ishtirokchilari turli xil aloqa vositalarini, jumladan, ma’lumotni yetkazishning og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan usullarini ishonchli egallashlarini ko‘rsatdilar. Bu ularning turli yoshdagi va temperament tipidagi talabalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatidan dalolat beradi.

4. Nizolarni hal qilishga tayyorlik: Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalarining ko‘pchiligi konfliktli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, bu ayniqsa, boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega.

5. Nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarning integratsiyasi: Natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalar muloqot nazariyasi bo‘yicha olgan bilimlarini amaliy faoliyatlarida muvaffaqiyatli qo‘llaydilar, bu esa o‘quv jarayoni sifatini oshirishga yordam beradi.

6. Pedagogik ustozlikning o‘rni: Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning muhim omili bo‘lib amaliy mashg‘ulotlar va fikr-mulohazalar orqali o‘quvchilarning malakasini oshirishga yordam beradigan malakali murabbiylarning mavjudligi hisoblanadi.

7. Zamonaviy texnologiyalarning ta’siri: Tadqiqot shuningdek, raqamli vositalar va platformalardan foydalanishning o‘quvchilarning zamonaviy o‘quv sharoitlariga moslashish imkonini beruvchi muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sirini ham aniqladi.

8. Keyinchalik takomillashtirish zarurati: Aksariyat ishtirokchilarning yuqori ko‘rsatkichlariga qaramasdan, tadqiqot jamoaviy ish va guruh dinamikasini boshqarish kabi aloqa kompetentsiyasining ba’zi o‘ziga xos jihatlarini rivojlantirish bo‘yicha doimiy ish olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli qonuni. 2020-yil 23-sentabr.
Shu bilan birga, ushbu muammoning ayrim jihatlari chuqur o'rganilmagan bo'lib, ayniqsa, maktabgacha ta'lim uslubchilari uchun maxsus mo'ljallangan metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari, amaliy usullari va baholash mezonlari bo'yicha izlanishlarni davom ettirish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz tomonidan qator farmon, qaror va farmoyishlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2024-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-152-sonli farmoni, 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2707-sonli, 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-5198-sonli farmoni, 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarorlari ilmiy tadqiqot ishining metodologik asosi hisoblanadi.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion texnologiyalarning qo'llanilish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki ta'lim tashkiloti faoliyatiga innovatsiyalarning joriy etilishi maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning eng muhim shartidir. Pedagogik innovatsiyalar deganda pedagogik faoliyatga yangiliklar kiritish, samaradorligini oshirish maqsadida ta'limning mazmuni va texnologiyasidagi o'zgartirishlarni tushunish lozim. Innovatsiyalar jarayoni yangilik mazmuni va tashkil etilishining shakllanishi va rivojlanishidan iborat.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi barcha uslubchilar uchun "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati"ni tashkil etish ish hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish hamda unga ijodiy yondashgan holda qat'iy amal qilish tartibini belgilaydi. Maqsad maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya va metodik ishlarni zamon talablari darajasida yangicha yondashuv kompetentligini rivojlantirilgan holda tashkil etish hamda hujjatlar yuritilishida ta'lim mazmuni samaradorligini oshirishga qaratilganligini ta'minlashdan iborat.

Metodologiya va metodlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-152-son farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 8-noyabrda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi buyrug'i qabul qilindi.

Ushbu buyruq asosida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy rivojlanishi uzluksizligini ta'minlash uchun zarur

[1] httrs://uzbekistan.un.org/uz/206419 yunesko butunjahon konferensiyasi erta yoshdagi bolalar tarbiyasi
[2] httrs://www.yeoas.ubc.ca/yeducation/yeducational nitiatives/cwsei-carl-wiyeman-sciyence-yeducation

shart-sharoitlar yaratish, ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini muntazam oshirib borish orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlarining sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari (shakllari)ni tashkil etish rejalashtirilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti uslubchisining avvalo, bilimli bo‘lishi, o‘z vazifasini to‘g‘ri bajara olishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo‘lishi, shu bilan birga umumiy va maktabgacha ta’lim pedagogikasi, bolalar psixologiyasi va fiziologiyasi kabi fanlarni mukammal egallagan bo‘lishi lozim.

Bunga quyidagilar kiradi:

1. Bolaning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash

2. Aqliy qobiliyatini o‘stirish.

3. Milliy qadriyatimiz va ma’naviyatimizning g‘oyaviy-aqliy tamoyillariga mos keluvchi e’tiqod va qarashlarini tarkib toptirish.

4. Ona vatanga muhabbatini, ijtimoiy faollikni shakllantirish.

5. Yosh avlodda do‘stlik hissini, halollik va mehnatsevarlikni tarbiyalash zarur.

Bola shaxsini shakllantirishda pedagog mahorati alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida mas’ul bo‘lishi taqozo etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy malakasi ta’lim jarayonini tashkil etish samaradorligining shartidir. Pedagogning bilimlari, tajribasi va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlari integratsiyalashuvi uning kasbiy faoliyatini samarali bajarish qobiliyatini aks ettiradi.

Bu masala ko‘plab olimlarning e’tiborida bo‘lgan. Masalan, Irina Borisovna Bicheva pedagogning kasbiy malakasini o‘rgandi. Olimlarning (Vadim Nikolayevich Vedinskiy, Irina Alekseyevna Zimnyaya, Nina Vasilyevna Kuzmina, Margarita Ivanovna Lukyanova, Ayelita Kapitonovna Markova, Larisa Andreyevna Petrovskaya, Galina Stepanovna Suxobskaya va boshqalar) asarlarida quyidagi asosiy tushunchalar sohasi bilan bog‘liq.

A.K.Markova eng ko‘p o‘qituvchi mehnatining kasbiy kompetentligi asoslarini qidirgan pedagog olim[3]. Uning fikri bo‘yicha o‘qituvchining mehnati u o‘z faoliyatini – talabalarni o‘qitish va tarbiyalashni yuqori darajada amalga oshirsa kompetentlikka aylanadi. Ushbu asoslar bilan birga o‘qituvchining kasbiy kompetentligini to‘rtga bo‘lib o‘rganadi: Maxsus yoki faoliyatli kasbiy kompetentlik – bu faoliyatni yuqori kasbiy darajada olib borishi. Maxsus kasbiy kompetentlik nafaqat maxsus bilimlardan, balki bu bilimlarni amalga oshirishdan iborat;

Nemis olimi Kayzer (KAISER) quyidagi misollarni keltiradi: Usul, Muammoli vaziyat, Axborot olish, Muammoni hal qilish, Keys stadi usuli - (didaktik kazuistiya: bitta ishni o‘rganish): Trening davomida huquqshunoslikka intiluvchilar (individual) ish bo‘yicha o‘qitildi: ular ishni elementlar bo‘yicha ishlashga yaroqli bo‘lgan alohida qismlarga ajratdilar, o‘zlarining yechimlarini qidirdilar, ishda turli rollarni o‘ynadilar, yechimni modellashtirdilar va ishni bir butun sifatida tanqidiy muhokama qildilar. Keys tadqiqotlari, ayniqsa, yaqinda o‘zining professional o‘qituvchilik faoliyatini boshlaganlar va amaliyotchilar uchun juda qimmatlidir, chunki ular kasbiy yo‘nalishga muhim hissa qo‘shadilar, chunki ular kelajakdagi kasbiy faoliyatning haqiqiy shartlarini muhokama qiladilar.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan, 2024-yil 30-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2024-2025-yillarda maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-152-sonli farmoni, 2020-yil 22-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to‘g‘risi”dagi 802-sonli qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” qarori shak-shubhasiz ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan.

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari tashkilotchilarining va Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashining vazifalari quyidagilardan iborat:

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari uchun dasturlar va o‘quv materiallarini ishlab chiqish bo‘yicha sohaning malakali mutaxassislaridan iborat master-trenerlar guruhini shakllantiradi;

guruh tomonidan “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari o‘quv materiallarining (o‘quv reja, o‘quv dasturi, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallari) ishlab chiqilishini tashkil qiladi, tasdiqlaydi va muntazam yangilab borilishini ta’minlaydi;

trener (mentor)larni tayyorlash uchun qisqa muddatli o‘quvlarning o‘quv-metodik ta’minotini (o‘quv-mavzu reja, o‘quv dasturi, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar materiallarini, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallarini) ishlab chiqilishini tashkil qiladi;

trener (mentor)larni tayyorlash uchun maxsus treninglarni tashkil qiladi;

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining o‘quv materiallarini hududiy ishchi guruhlarga yetkazilishini ta’minlaydi;

Tayanch davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi o‘quvlar va davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi metodik mahorat tadbirlarining tashkil etilishini saylanma tarzda o‘rganadi va aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashining ishchi organi hisoblanadi.

Hududiy ishchi guruhlarning vazifalari quyidagilardan iborat: tayanch davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ro‘yxatini shakllantiradi;

tuman (shahar) ishchi guruhlari tomonidan taqdim etilgan trener (mentor)lar tarkibini tasdiqlaydi;

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etadi, nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi;

pedagog xodimlarning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlaridagi davomati va faol ishtiroki, uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo‘yicha “Virtual kasbiy rivojlantirish” elektron dasturidagi o‘quv mashg‘ulotlariga ishtirokini doimiy nazorat qiladi;

Tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlaydi hamda Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashiga taqdim etadi.

Hududiy pedagogik mahorat markazi tegishli hududiy ishchi guruhning ishchi organi hisoblanadi.

Tuman (shahar) ishchi guruhlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

tayanch davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlaydi. Tasdiqlangan reja va dasturlarga binoan ishtirokchilarning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini, shu jumladan, o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishga malakali mutaxassislarni trener (mentor) sifatida jalb qiladi.

[3] https://www.dissercat.com/content/formirovanie-metodicheskoi-kompetentnosti-u-budushchikh-uchitelei-inostrannogo-yazyka-v-uslo

Doimiy seminarlar metodistlarga zamonaviy o‘qitish texnikasi bo‘yicha mavjud bilim va ko‘nikmalarni beradi, bu ularga fan bo‘yicha mutaxassislar bilan muloqot qilish va o‘qituvchilarga yordam berishda qo‘llashi mumkin bo‘lgan yangi strategiya va taktikalarni o‘rganish uchun hamkasblari bilan hamkorlik qilish imkonini beradi.

Mentorlik dasturlari yangi boshlanuvchi metodistlarni ko‘proq tajribali amaliyotchilar bilan bog‘lash orqali bilimlarni uzatish va ko‘nikmalarni rivojlantirishni osonlashtiradi. Amaliy mashg‘ulotlar va murabbiylik qilish uchun bunday imkoniyatlar tufayli intiluvchan metodistlarning o‘z rollariga bo‘lgan ishonchi va samaradorligi sezilarli darajada oshishi mumkin.

Metodologlar onlayn kurslar tufayli metodologiya bo‘yicha uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun moslashuvchan alternativlarga ega, bu ularga o‘z tezligida o‘qish imkonini beradi va ularga yetakchi akademiklar va amaliyotchilarning ko‘plab resurslari va ma’lumotlariga kirish imkonini beradi.

Muntazam so‘rovlar yoki takliflar qutilari kabi tizimli qayta aloqa mexanizmlarini yaratish metodistlarga o‘z muammolari va tajribalarini uslubiy jarayonlar bilan bo‘lishish imkonini beradi. Ushbu fikr-mulohazalarga asoslanib, metodistlarning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun kasbiy rivojlanish dasturlarini sozlash mumkin. Bundan tashqari, xodimlar uchrashuvlari davomida mazmunli muhokamalar o‘tkazish ochiq muloqot va doimiy takomillashtirish ongini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moslashuvchanlik va fikr-mulohazalarni birinchi o‘ringa qo‘yadigan tashkilotlar maqsadlariga erishishda ko‘proq muvaffaqiyat qozonishadi.

Reflektiv amaliyotlar

1. O‘z-o‘zini baholash vositalari: Metodologlar o‘z malakalarini baholash va rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash uchun malaka nazorat ro‘yxati yoki aks ettiruvchi so‘rovnomalar kabi o‘z-o‘zini baholash vositalaridan foydalanishlari mumkin. Ushbu vositalar o‘z-o‘zini aks ettirishni rag‘batlantiradi va odamlarga martaba rivojlanishi uchun aniq maqsadlar qo‘yishga yordam beradi. Masalan, metodist bolaning rivojlanish nazariyalarini o‘rganishi va bu sohada mutaxassis bo‘lishi kerakligini aniqlashi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘z-o‘zini baholash kasbiy ta’limda motivatsiya va javobgarlikni oshirish bilan bog‘liq.

2. Reflektiv jurnallar: Reflektor daftarlarini yuritish orqali metodistlar maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan muntazam aloqada bo‘lishlari natijasida o‘zlarining fikrlari, tushunchalari va kashfiyotlarini hujjatlashtirishlari mumkin. Bu usul ularning ta’lim strategiyalari va qaror qabul qilish jarayonlarini yaqindan ko‘rib chiqishga undaydi. O‘zlarining jurnal yozuvlarini tez-tez ko‘rib chiqish orqali metodistlar o‘z amaliyotidagi tendensiyalarni aniqlashlari va vaqt o‘tishi bilan ularning evolyutsiyasini kuzatishlari mumkin. Tadqiqotlar aks ettiruvchi jurnalni tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va professional samaradorlik bilan bog‘ladi.

3. Harakat tadqiqoti: Metodologlar harakat tadqiqotini o‘tkazish orqali o‘z faoliyatidagi muayyan masalalarni sinchkovlik bilan tahlil qilgan holda faol ravishda yechim izlashlari mumkin. Masalan, metodist yangi o‘qish dasturini amalga oshirish va uning samaradorligi haqida ma’lumot to‘plash orqali savodxonlik natijalarini yaxshilashga e’tibor qaratishi mumkin. Ushbu takrorlanadigan jarayon nafaqat individual asosda kasbiy rivojlanishga yordam beradi, balki kengroq ta’lim hamjamiyatiga qimmatli tushunchalarni beradi. Harakat tadqiqotlari o‘qituvchilarga o‘z ishiga nisbatan egalik tuyg‘usini rivojlantirish va o‘zgarishlarga ta’sir qilish qobiliyatini oshirish orqali ularga kuch berishini ko‘rsatdi.

NATIJALAR

Adabiyotlar tahlilini o‘rganib quyidagilarni keltirishimiz mumkin – kasbiy kompetentlik 4 jihatni o‘z ichiga oladi.[4]

Uslubchining kompetensiyasini aniqlashda metodlardan foydalanishga qaror qildik. Maktabgacha ta’lim uslubchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda so‘rovnoma usulidan foydalanishni afzal ko‘rdik. Bu usulda 10 ta savoldan foydalangan holda amaliyotda qo‘lladik. Bunda uslubchilar bilan onlayn va yozma tarzda savollarga javob oldik. Bu orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlarida uslubchilarning bilim salohiyatini va muammolarini o‘rgandik. Shu usuldan foydalangan holda ancha ma’lumotlarga ega bo‘ldik.

Ushbu tadqiqotda so‘rovnoma usuli orqali bir qator savollar respondentlarga yo‘llangan. So‘rovnoma usulidan kutilgan natija maktabgacha ta’lim tashkiloti uslubchisining kasbiy kompetensiyasi oshirishda qaysi usullardan foydalanishini belgilash va ularning mahoratlarini oshirish uchun nima ishlar qilish kerakligiga ilmiy yechimlar berish.

Uslubchining kasbiy mahorati to‘g‘risida o‘tkazilgan so‘rovnomada quyidagilar ma’lum bo‘ldi:


1-rasm. “Siz o‘zingizni professional kasbiy kompetensiyalarga ega uslubchi deb hisoblaysizmi? ” nomli so‘rovnoma natijalari.

Olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, 80 nafar respondentning 40% i ha javobini, 60 % respondentlar yesa yo‘q javobini berishgan. (1-rasm).



2-rasm. Uslubchining kasbiy kompetensiyasini oshirishda kompyuter dasturlari va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish natijalari


Uslubchining kasbiy kompetensiyasini oshirishda kompyuter dasturlari va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi muhim deb hisoblaysizmi? Ushbu savolga respondentlar tomonidan quyidagi natijalar olinganligini jadvalda ko‘rishimiz mumkin.




3-rasm. Xorij tajribalaridan turli metod va usullarni olib kirganligi natijalari

Maktabgacha ta’lim tashkilotingizga xorij tajribalaridan turli metod va usullarni olib kirganmisiz? Ushbu savolga quyidagi natijaning guvohi bo‘ldik. 50 % ha, 40 % yo‘q va 10 % ba’zan javobini berganlar.

[4] Line, M. "Creating Caring Qualified Early Childhood Teachers: An exrloration Of The Relationshir Between Teacher Yefficacy And Leaner-Centeredness Among Yearly Childhood Rroffesionals In Arkansas". Rublished by RroQuyest(2016)



4-rasm. Ta'limga oid bilim va yangiliklardan doimiy xabardor ekanligi va amaliyotda qo'llaganligi natijalari



5-rasm. Ishlash jarayonida direktor va boshqa tashkilot uslubchilari bilan doimiy muloqotni qo'llaganligi natijalari

Ta'limga oid bilim va yangiliklardan doimiy xabardormisiz va amaliyotda qo'llaysizmi? degan savolimga natijalari shuni ko'rsatadiki, 80 % ha javobini, 20 % esa yo'q javobini oldim.

Ishlash jarayonida direktor va boshqa tashkilot uslubchilari bilan doimiy muloqotda bo'lasizmi? Quyidagi savolimizga uslubchilar 60 % ha, 20 % yo'q, 20 % yesa ba'zan javobini berganlar.




6-rasm. Seminar treninglarda faol ishtirok etganligi natijalari

Seminar treninglarda faol ishtirok etasizmi degan savolga 40 % ha, 30 % yo'q va 30 % ba'zan degan javobni oldik.




7-rasm. Ota-onalar bilan doimiy hamkorlikda ish olib borilganligi natijalari

Ota-onalar bilan doimiy hamkorlikda ish olib borasizmi, degan savolimizga uslubchilar quyidagicha javob berdilar. 90 % ha javobini, 10 % yo'q javobini oldik. Bundan ko'rinib turibdiki, uslubchilarimizning aksariyati ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib boradi ekan. Chunki bola tarbiyasida hamkorlik asosiy o'rinni egallaydi.



8-rasm. Bilim malaka va mahoratga ega ekanligi natijalari

Hozirgi zamon uslubchilari yetarlicha bilim malaka va mahoratga egami? Degan savolimizga mana bunday natijaga ega bo'ldik. Ha 50 %, yo'q 50 % natijalarimiz tenglikni ko'rsatdi.



Tajriba-sinov ishlarini sarhisob qilsak, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uslubchilarining uslubiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasining o'sish dinamikasi ham nazorat, ham tajriba-sinov guruhlarda mavjudligini ta'kidlaymiz. Uslubiy kompetensiya ta'lim muhitida turli metodologiyalardan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim metodistlari pedagogik nazariyalar, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, baholash usullari va o'qitish strategiyalarini tushunishlari kerak. Shuningdek, u analitik fikrlash, muammolarga yechim topish va o'zgaruvchan ta'lim talablariga moslashish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Uslubiy kompetensiyaning ahamiyati

1. Metodistlar maktabgacha ta'limning umumiy sifatini oshirish va yosh tarbiyalanuvchilar rivojlanishining ijobiy natijalarini rag'batlantirish maqsadida ta'lim amaliyoti nafaqat belgilangan standartlarga rioya qilishini, balki bolalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2. Pedagoglar uchun maxsus kompleks mashg'ulot dasturlari va materiallarini ishlab chiqish orqali metodistlar tarbiyachilarga ilmiy tadqiqotlar va ilg'or tajribalarga asoslangan samarali o'qitish metodikasini joriy qilish imkoniyatini beradi. Natijada maktabgacha yoshdagi bolalar yanada qiziqarli va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitidan foyda ko'radilar.

3. Metodistlar yangi tadqiqot natijalari va innovatsion o'qitish strategiyalarini maktabgacha ta'lim dasturlariga faol integratsiyalash orqali ta'limda innovatsiyalarni rivojlantiradilar. Bularga texnologiyadan foydalanish, fanlararo ta'lim imkoniyatlarini hisobga oladigan madaniy jihatdan sezgir o'qitish usullari kiradi.

XULOSA

Maqola uchun olib borilgan tadqiqot natijalaridan quyidagilarni xulosa qilamiz. Maktabgacha ta'lim metodistlari erta yoshdagi bolalar ta'limi darajasini oshirish uchun o'zlarining uslubiy ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Ushbu maqolada bu sohada professional rivojlanishni rag'batlantirishning samarali strategiyasi sifatida aks ettiruvchi va hamkorlikdagi amaliyotlarning qiymati qayd etilgan. Hamkorlik va tashkillashtirilgan qayta aloqa mexanizmlarini yaratish orqali metodistlar ijodkorlik va uzluksiz o'sishni rag'batlantiradigan muhit yaratishi mumkin. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) uslubchilarning metodik kompetentligini yo'lga qo'yishga innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalar yo'riqnomasi kerakdir.

Bundan tashqari, harakat tadqiqotlarini aks ettiruvchi jurnallar, variativ dasturlar yaratish va o'z-o'zini baholash vositalari metodistlarga o'zlarining professional o'sishini nazorat qilish imkonini beradi. Biz olib borgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosaga keldik.

1. MTT uslubchisi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi zarur. Bunda innovatsion ta'lim metodikasi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonini rejalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu yanada qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratish uchun interaktiv doskalar, kompyuter dasturlari, o'quv dasturlari va boshqa texnologik vositalardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin.

2. Kompetentlik mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishi, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

3. Yangi tendensiyalar va innovatsion yondashuvlar raqamli ta'lim resurslari va texnologiyalar, onlayn platformalar va elektron manbalar – uslubchilar uchun interaktiv metodik yordamlar, video darslar va vebinarlardan foydalanishga yordam beradi.

4. Geymifikatsiya va o'yin o'rgatish tarbiyachilarni geymifikatsiya usullari bilan tanishtirish va o'rnatishda yordamlash. Bolalarni qiziqtiruvchi o'quv o'yinlari, rolli o'yinlar va interaktiv qurilmalardan foydalanish.

5. Pedagoglar uchun professional rivojlanish platformalari LMS (Learning Management System) – pedagoglar uchun onlayn kurslar va resurslarni qayta ishlash. Vebinarlar va onlayn konferensiyalar – o'zlashtirish va yangi bilimlarni o'zlashtirish.

6. Mentorlik va kouching tizimi – yosh tarbiyachilarga ustozlik qilish va tajriba almashish. Maktabgacha ta'lim tizimidagi uslubchilarning metodik kompetentligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim resurslari, shaxsiylashtirilgan ta'lim va ijodkorlik yondashuvlaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Bu esa o'qishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kitob va turkum nashrlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" RF-269-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-iyuldagi "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" RF-98-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" RF-152-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" RQ-231-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida" RQ-232-son hamda 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" RQ-345- sonli Qarori.
6. Saidova D. (2022). "Maktabgacha ta'limda o'yin orqali o'qitish". Toshkent.
7. Toshpulatova N. (2023). "Pedagogik texnologiyalar va ularning amaliyoti". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
8. Yusupova L. (2020). "Ota-onalar bilan hamkorlik: nazariya va amaliyot". Toshkent: O'zbekiston ta'limi.
9. Mamatqulova G. (2021). "Maktabgacha ta'limda metodik kompetentlikni rivojlantirish". Toshkent: Ta'lim va innovatsiyalar.
10. Rahmonova F. (2022). "Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalar". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
11. Avanesov V.S. Bilimlarni o'rgatish va nazorat qilishning zamonaviy usullari / V.S.Avanesov. - Vladivostok: DSTU nashriyoti, 1999. — 125 r
12. Adolf V.A. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi: Monografiya / V.A. Adolf. - Krasnoyarsk: KSU, 1998. — 310 r.
13. Maktabgacha ta'lim. Atamalar lug'ati / [Tuz. Vinogradova N.A. va boshqalar] - M.: Iris-press, 2005. — 400 b.

Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati:

1. Gushchina T.N. Malaka oshirish jarayonida bolalar uchun qo'shimcha ta'lim muassasalar pedagogik xodimlarining uslubiy kompetensiyasini shakllantirish. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. Yaroslavl, 2001-yil

Jurnallardagi maqolalarga havolalar:

1. Valiyeva F. (2024) "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini rejalashtirishga innovatsion yondashuv" International scientific journal "Modern sciyence and research"

Internet saytlar:

1.https://universalconference.us/universalconference/index.php/icms/article/view/33662. https://yuz.uz/uz/news/
2.https://scientific-jl.com/obr/article/view/2062

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/0009-0007-5469-7279

NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINI ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstrakt: Ushbu maqola nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy yondashuv asosida boshqarishni takomillashtirishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda, boshqaruvni takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan innovatsion metodlar, texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot boshqaruvning samaradorligini oshirishda zamonaviy boshqaruv tizimlarining ahamiyati, shuningdek, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining boshqaruv jarayonida samaradorlikni oshirishga yordam beruvchi zamonaviy yondashuvlar va amaliy metodlarning amaldagi holati va potensialini o‘rganishga qaratilgan.

Maqoladagi tadqiqot natijalari nodavlat maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruvni yanada samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti, rahbar, xodim, boshqaruv tizimi va funksiyalari, raqamlashtirish, innovatsion yondashuv, platforma.

KIRISH

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ro‘yxatidagi eng yuqori o‘rinlarda turuvchi davlatlar taraqqiyotida, eng avvalo, ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rivojlantirish masalalariga e’tibor muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Amerikaning “National Association for the Education of Young Children”[1] assotsiatsiyasi hamda “Partnership for 21st sentury skills”[2] tashkiloti tomonidan rahbarlarning raqobatbardoshligini ta’minlashda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda jamiyatimiz taraqqiyotini ta’minlashda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy innovatsion yondashuv asosida boshqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi raqamlashtirish va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanish davrida maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish, komil insonni tarbiyalash, ularga zamonaviy ta’lim berish masalalari yetakchi o‘rinda turadi. Aynan, maktabgacha ta’limni isloh qilishda bolaning maktabga tayyorgarligi bilan belgilanuvchi ta’lim sifatini oshirish muhim va zaruriy omil bo‘lib hisoblanadi. Bunda raqobat muhitida sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishni tashkil etish va ta’lim tashkilotlarining boshqaruv samaradorligini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy vositalar yordamida boshqarish asosida uning sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda keyingi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tubdan yaxshilash, zamonaviy yondashuvlar asosida boshqarish va uning sifatini oshirish hamda ushbu sohada raqobat muhitini yaratish bo‘yicha yuqori darajada amaliy ishlar boshlandi. Zamonaviy boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda tarbiya jarayonini sifat jihatidan yuqori darajaga ko‘tarish va faoliyat ko‘rsatish tartibidan rivojlanish tartibiga o‘tishini ta’minlash uchun sa’y-harakatlar olib borilmoqda. Ta’lim tashkilotining pedagogik amaliyotiga innovatsion faoliyatni joriy etish, birinchi navbatda, maktabgacha ta’limni boshqarishni yangilash strategiyasini ishlab chiqish va natijada xodimlar bilan innovatsion metodik ishlarni tashkil etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 5 ming 211 tadan 19 ming 316 ga yetkazildi. 2026-yilga kelib 6 yoshli bolalarni 100 foiz maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish kutilmoqda. Buning uchun esa 7 mingdan ortiq nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish, 160 mingdan ko‘proq kadrlar malakasini oshirish maqsad qilingan. Xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 847 tasi xususiy, 1 ming 388 tasi davlat-xususiy sherikchilik asosidagi va 24 ming 927 tasi oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etadi.

Boshqarish nazariyasining dastlabki kurtaklari qadim zamonlarga borib taqalib, Yu.Sezar, A.Makedonskiy, Turkistonda esa o‘rta asrlarda Amir Temur hukmronligi vaqtidan shakllana boshlagan[3]. Buyuk Sohibqiron Amir Temur esa “Tuzuklar” asarida “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tartibsiz va loqayd kishilardan yaxshidir”, degan fikrlarni ilgari suradi[4].

Menejment ta’limotining yaratilishi va uning rivojlanishiga xorijlik olimlar ulkan hissa qo‘shganlar. Fredrix Teylor – boshqarishni “aniq qonun va qoidalarga tayanadigan haqiqiy ilm, shuningdek, nima qilish kerakligini aniq bilish va uni puxta hamda arzon usulda bajarish san’ati”, deb baholagan[5].

A. Emerson esa “Mehnat unumdorligining 12 prinsipi” nomli asarida boshqarish va mehnatni tashkil qilishning kompleks sistemali tizimini ishlab chiqqan[6]. A.Fayol boshqaruvni universal jarayon kabi ko‘rib chiqdi, bu rivojlantirish va tashkil qilish kabi bir nechta bir-biri bilan bog‘langan funksiyalardan iborat edi[7].

Piter Druker aytganidek, “Boshqaruv alohida faoliyat turi bo‘lib, boshqarilmagan betartib ommani, bir maqsadga yo‘naltirilgan samarali va unumli guruhga, jamiyatga aylantiradigan, ijtimoiy o‘zgarishlarni rag‘batlantiruvchi element hisoblanadi[8]”.

I.A.Kitovning ta’rif berishiga ko‘ra: “boshqaruv – bu insonlarni boshqarish, ular bilan ishlash[9]”. R.M.Kerjentsev boshqaruv yo‘nalishida juda katta ahamiyat kasb etuvchi ishlarni amalga oshirgan bo‘lib, uning boshqarish bo‘yicha “Mehnatni ilmiy tashkil etish”, “Boshqarishni tashkil qilish tamoyillari”, “Vaqt uchun kurash” kabi asarlari boshqarish yo‘nalishida darsliklarni yozishda asos qilib olingan[10].

Akademik M.Sharifxo‘jayev menejmentga quyidagicha o‘zining fikrini bayon etadi: “Menejment – bu boshqaruv, ya’ni resurslarni, odamlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko‘paytirish jarayonidir”. Boshqaruv – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir[11]”.

R.X.Djurayev va S.T.Turg‘unovlarning ta’tifiga ko‘ra, “ta’lim muassasasini boshqarish – bu rahbarlar bilan pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatidan iborat bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarish, mazkur jarayon ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ta’limda boshqaruvning asosiy maqsadi ta’lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarish hamda ishtirokchilari faoliyatini o‘rganish va nazorat qilishdan iborat[12].

Akademik S.S.G‘ulomov esa “Boshqaruv-bu tashkilotning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishi uchun yo‘naltirilgan jarayondir. Bu boshqaruv faoliyati harakatining ketma-ket bajarilish jarayoni bo‘lib, firmaning bir qator ishlab chiqarish va ijtimoiy masalalarini yechish va ularni amalga oshirish uchun zarur. Bu harakat boshqaruv vazifalarini bajarish deb ataladi”, degan fikrni bildiradi[13].

K.Yu.Belaya o‘z tadqiqotlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshqaruviga tizimli yondashuvni amalga oshirishni ko‘rsatib o‘tdi. Uning so‘zlariga ko‘ra, “maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishni yangilash ushbu boshqaruvning yaxlit tizimining joriy etilishi bilan bog‘liq[14]”.

---

[1] https://www.naeyc.org/resources/pd
[2] 21 st_century_skills_standards.
[3] Sharifxo‘jayev.M., Abdullayev.Yo. Menejment. Darslik.-T.: O‘qituvchi, 2001.-702 b.
[4] Bobobekov H. N., Qurbonbekov A., Sulaymonov I. Temur tuzuklari. -T.: Ijod-press. 2019.-160 b.
[5] Тейлор Ф.У. Принципы научного менеджмента.- М.: Liverezon, 2022.-224 с.
[6] Emerson H. The Twelve Principles of Efficiency-New York.: Legare Street. 2022. - 446 p.
[7] Fayol H. General and Industrial Management.1916.-116 p.
[8] Yo‘ldashev N.Q, Qozoqov O.S. Menejment. O‘quv qo‘llanma. T.: Fan 2004.
[9] Djurayev R.X.,Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. Qo‘llanma.-T.: Voris nashriyoti. 2006. -266 b.
[10] Djurayev R.X.,Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. Qo‘llanma.-T.: Voris nashriyoti. 2006. -266 b.
[11] Sharifxo‘jayev.M., Abdullayev.Yo. Menejment. Darslik. -T.: O‘qituvchi, 2001.-702 b.
[12] Djurayev R. X.,Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. Qo‘llanma.-T.: Voris nashriyoti. 2006. -266 b.
[13] G‘ulomov S. S. Menejment asoslari. Darslik. -T.: Sharq, 2022-366 b.
[14] Белая К. Ю. Инновационная деятельность в ДОУ: Методическое пособие. М.: ТЦ Сфера, 2005.-64 с.

Boshqarish nazariyasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini bilish bizga maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshqaruvining mohiyati va ilmiy asoslarini tushunish uchun zarur bo‘lgan boshqaruv faoliyatining metodologik asoslarini aniqlash imkonini berdi. S.A.Yezopovaning fikriga ko‘ra, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruv faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish umuman ta’lim tizimida boshqaruv faoliyatini nazariyasi va amaliyotining ilmiy asoslarini tarixiy-pedagogik tahlil qilishni talab qiladi, chunki faqat shu holatda maktabgacha ta’lim tashkilotida boshqaruv faoliyatining xususiyatlari va tamoyillarini hamda pedagogik fanlarda ushbu muammoning shakllanish dinamikasini aniqlash mumkin bo‘ladi[15].

L.P.Pozdnyak va N.N.Lyashenkolarning taqdiqotlarida maktabgacha ta’lim tashkilotining zamonaviy rahbariga nisbatan talablari shakllantirilgan[16].

M.T.Xamdamovaning tadqiqot ishlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy (funksional, intellektual, jarayonli, ijtimoiy) funksional komponentlari (mazmunli, texnologik, tashxislash) mazmuni motivatsion-maqsadli, metodologik yondashuvlar (kompetentli, faoliyatli, kreativ) asosida ishlab chiqilgan va malaka oshirish jarayonida rahbarlarning mantiqiy fikrlash, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, malaka va ko‘nikmalari hamda boshqaruv qadriyatlarini shakllantirish orqali maktabgacha ta’lim rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini shakllantirish (“Loyihalash”, “Qisman izlanishli”, “Tadqiqotchilik” metodlari orqali), personalni rivojlantirish asosida takomillashtirilgan[17].

G.N.Nigmatovaning izlanishlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarining iqtisodiy qobiliyatini aks ettiruvchi maxsus kompetensiyasini shakllantirish jarayoni shaxning ajralmas sifati hamda rahbarning iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashda loyihalovchi, korreksiyalovchi, shakllantiruvchi va refleksiv bosqichlarining uzviyligini ta’minlash orqali takomillashtirishi ilmiy jihatdan asoslangan[18].

T.Kalmuratov o‘zining dissertatsiya ishida davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining boshqarish mexanizmini boshqaruvning axborot-tahlil, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish funksiyalari hamda tizimlilik, pog‘onaviylik va o‘z-o‘zini nazorat qilish tamoyillari asosida takomillashtirilgan[19].

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish, uning o‘zini va sifatini boshqarish bilan birgalikda ushbu jarayonni zamonaviy va innovatsion boshqaruv uslullarini qo‘llagan holda boshqarishga ham bog‘liq bo‘ladi. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish, bizningcha – bu iste’molchilar talabini qondirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, sifatini baholash va nazorat qilishdir.

Yuqoridagi nazariy qarashlarni o‘rgangan holda nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy yondashuv asosida boshqarishni takomillashtirish maqsadida tadqiqot olib borildi. Maqola uchun o‘tkazilgan tadqiqotning vazifalari nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshqaruv faoliyatini tahlil qilish, umumlashtirish hamda sohadagi muammolarni o‘rganish orqali metodologik asoslari va pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini raqamli texnologiyalar vositasida zamonaviy innovatsion yondashuv asosida boshqarish usullarini aniqlash va tahlil qilish, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruv vositalaridan foydalanish samaradorligi oshganligini baholash ko‘rsatkichlarini aniqlashlashtirish, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent shahar Yunusobod tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi “Baby akademiya” nomli nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tanlab olindi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, boshqarish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari tatbiq etilib, ularga tayangan yondashuvlar qaror topmoqda.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimiga va uning samaradorligiga davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan katta e’tibor, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining zamonaviy tarzda yangi texnologiyalar bilan jihozlanishi hamda ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish uchun kerakli sharoitlarning yaratilishi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining bugungi kun talabiga javob berishlari uchun o‘z ustida ishlashi, izlanishlar olib borishi hamda boshqaruv faoliyatini takomillashtirishni taqozo etadi.

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarish hamda jamoada zamonaviy ta’lim muhitini shakllantirishi uchun boshqaruvning turli xil usullarini bilishi va ularga asoslanishi, ilg‘or xorijiy tajribalar, fan va texnika yutuqlarini muntazam o‘rganib borishi, o‘z faoliyatida tatbiq etishi, boshqaruv jarayonida innovatsion faoliyatni tashkil eta olishi zarur hisoblanadi. Raqamli boshqarish usullarini takomillashtirishning innovatsion modellarini ishlab chiqish, ta’lim sifatini boshqarish tizimini o‘zgartirish, sifat menejmentini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu, o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli muhitda ta’lim bazasini o‘z ichiga olgan platforma yaratish zaruratini keltirib chiqaradi.

Quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini raqamli boshqarish metodikasini takomillashtirish masalasini o‘rganish maqsadga muvofiq:

1. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat va jamiyatning maktabgacha ta’limga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradigan, ularda ta’lim sifatini ta’minlash katta ahamiyatga ega bo‘lgan tashkilotlardir.

2. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat hollarda nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi mavjud vaziyat tufayli direktor ta’lim sifatini nazorat qilishda ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu jarayonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining raqamli muhitida boshqaruv sharoitlarini yaratish bilan birga, ta’lim

[15] Xamdamova M. T. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. doktori (PhD) dis. -T.:. 2020

[16] Xamdamova M. T. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. doktori Ped. fan. doktori (PhD) dis. avtorefarat -T.:. 2020

[17] Xamdamova M. T. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. doktori (PhD) dis. avtorefarat -T.: 2020

[18] Nigmatova G.N. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining iqtisodiy kompetentligini shakllantirish. Ped. fan. doktori dis. avtorefarat -T -2019.

[19] Kalmuratov T. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish.// Avtoref.dis... ped Phd doktori-Toshkent.-2023.

jarayoni to‘g‘risidagi axborotni to‘plash va qayta ishlash chora-tadbirlari orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmini takomillashtirish kun tartibidagi muhim talab hisoblanadi.

Xalq olimlari U.Inoyatov, Ya.Ismadiyarov, M.Mirsoliyeva, S.Turg‘unov, M.Yo‘ldoshevlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida kadrlar tayyorlash, innovatsion menejmentni shakllantirish va ta’lim sifatini boshqarishni takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ta’lim muassasalarida, ayniqsa, ta’lim muassasalarini boshqarish sohasida U.Begimqulovning ilmiy-tadqiqot ishlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni boshqarish bo‘yicha yagona axborot-ta’lim muhitini shakllantirish, oliy pedagogik ta’lim tizimiga kiritilishi va u orqali baholash va rivojlanish monitoringini o‘tkazish belgilandi[20].

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar barcha sohalarga, jumladan, ta’lim tizimiga chuqur kirib bormoqda. Ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati ta’lim tashkilotlari rahbarlari faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimining boshqaruv jarayonlari raqamli vositalardan foydalanishga moslashtirilgan taqdirda, ish samaradorligini oshirish, ma’lumotlarni tizimli boshqarish, shaffoflikni ta’minlash va qarorlar qabul qilish tezligini oshirishi mumkin. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarini raqamli boshqaruv faoliyatiga tayyorlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim sohasida raqamli boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish darajasi past bo‘lib, rahbarlarning bu boradagi malakasi yetarli emasligi kuzatilmoqda. Bu holat, o‘z navbatida boshqaruv sifatining pasayishiga, vaqt va resurslarning samarasiz ishlatilishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, rahbarlarni raqamli vositalardan samarali foydalanishga tayyorlashni tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot davomida biz tomondan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi boshqaruv tizimini zamonaviy usullar asosida takomillashtirish yuzasidan “baby-akademiya.uz” platformasi ishlab chiqildi.

“baby-akademiya.uz” platformasi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatida qog‘oz hujjatlar bilan ishlashni kamaytirish, ma’lumotlarni qayta ishlab bilan bog‘liq ishga sarf bo‘ladigan vaqtni qisqartirish va boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish hamda rahbarning o‘z faoliyatini to‘g‘ri va samarali tashkil etishiga yordam beradi. Shuningdek, “baby-akademiya.uz” elektron platformasi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati samaradorligini oshirish, ma’lumotlarni tizimli boshqarish, shaffoflikni ta’minlash va qarorlar qabul qilish tezligini oshirish maqsadida ishlab chiqildi. Quyida “baby-akademiya.uz” platformasidan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar keltirilgan.

Platformaga “baby-akademiya.uz” sayti orqali kiriladi.



1-rasm. **“baby-akademiya uz” platformasining bosh sahifasi**

Foydalanuvchi “baby-akademiya.uz” elektron platformasidan muvaffaqiyatli ro‘yxatdan o‘tgach, platformaning interfeys oynasida “Baby akademiya” nomli nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan bayram tadbirlari ta’lim-tarbiya jarayonlari aks etgan fotosuratlarni, ota-onalarning tashkilot haqidagi fikrlarini, tashkilotdagi guruhlar, ularning tarbiyachilari va yosh guruhlari hamda guruhlar sig‘imi haqida ma’lumotlarni va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida tasdiqlangan hafta mavzulariga mos ravishda kunlik ta’lim-tarbiya jarayonlari aks etgan rasmlarini ko‘rishi mumkin. Elektron platforma maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari, tarbiyachilar va ota-onalar uchun qimmatli vosita bo‘lib, bolalarning rivojlanishi va ta’lim tashkilotining samarali strategiyalari bo‘yicha eng so‘nggi ma’lumotlarni uzluksiz almashishga yordam beradi.

“Baby-akademiya.uz” platformasi bosh sahifasida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotida amalga oshiriladigan madaniy tadbirlar, ma’rifiy ishlar to‘g‘risidagi faoliyatlar ham kiritilgan. Bu esa, ota-onalar uchun ham maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati bilan ham tanishib borish imkoniyatini beradi. Shuningdek, platformada maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatining kelajagini rivojlantirish masalalari ham keltirib o‘tilgan.

“Baby-akademiya.uz” platformasi bosh sahifasida mazkur maktabgacha ta’lim tashkilotidagi mavjud bo‘lgan guruhlar va ular faoliyati bilan tanishtirib borilgan. Hosil bo‘lgan interfeys oynasida biz “Home”, “Bizning bog‘cha”, “Guruhlar”, “Asosiy sahifa”, “To‘garaklar”, ”Biz bilan bog‘lanish” bo‘limlarini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi [8].

Biz ushbu bo‘limlardan “Bizning bog‘cha” bo‘limini tanlaymiz va kursorni mazkur bo‘lim ustiga olib borgan holda sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosish orqali bo‘limga murojaat qilamiz.

“Bizning bog‘cha” bo‘limida NMTTning dastlabki ma’lumotlari (tashkilot nomi, manzili, tashkil topgan yili, umumiy yer maydoni, xodimlar soni, NMTT quvvati, guruhlar soni, ish tartibi, ish vaqti)ni o‘z ichiga olgan “Bizning bog‘cha” bo‘limi ishlab chiqilib, foydalanuvchilar bu orqali nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti to‘g‘risida umumiy ma’lumotga ega bo‘ladilar.



2-rasm. **“baby-akademiya uz” platformasi bosh sahifasi**

“Baby akademiya” ma’muriyati kichik bo‘limida ma’muriyat xodimlari va ular bilan bog‘lanish imkoniyati yaratilgan. Xodimlar va bolalar davomatida esa ularning nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelgan, kelmagan va kech qolgan kunlari hisobi yuritiladi. “Uchrashuv belgilang” bo‘limida ta’lim tashkiloti faoliyati bilan qiziqayotgan foydalanuvchilar uchun rahbarga xabar yuborish imkoniyati berilgan. “Biz haqimizda nima deyishadi” bo‘limida esa ota-onalarning ta’lim tashkiloti haqidagi fikr-mulohazalari aks etadi.

“Baby-akademiya.uz” elektron platformasining “Menyu” nomli kichik bo‘limida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining 5 kunlik

[20] Begimqulov U. Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. doktori dis. avtorefarat -T.: 2007.-265 b.

menyusi kiritilgan bo‘lib, har bir kun uchun nonushta, 2-nonushta, tushlik, 2-tushlik va kechki ovqatlanishda beriladigan ratsion joylashtirildi. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari va ota-onalar bu bo‘lim orqali kunlik ovqatlanish ratsionini nazorat qilib turishlari mumkin bo‘ladi.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda “Matematik savodxonlik” mashg‘ulotlari va darslari o‘rtasidagi uzviylik	
Maktabgacha tayyorlov guruhi “Elementar matematik taasurotlarni shakllantirish” mashg‘ulotining mavzular ketma-ketligi	1-sinf matematika mashg‘uloti mavzulari ketma-ketligi
MT-01-01 10 gacha bo‘lgan sonlarni to‘g‘ri va teskari sanash malakalarini mustahkamlash. 10 gacha sonlarni oldin va keyin keladigan sonni topish	***BT-01-01*** 0 dan 10 gacha sonlar tarkibi
	BT-01-02 1 dan 5 gacha bo‘lgan sonlar. 2 va 3 sonlarining tarkibi. 4 va 5 sonlarining tarkibi
	BT-01-03 6 va 7 sonlarining tarkibi. 8 va 9 sonlarining tarkibi
MT-02-01 Ikkita kichik sonlardan katta sonni hosil qilishni o‘rgatish. 10 gacha bo‘lgan sonlarni yozuvda farqlashni o‘rgatish	***BT-02-01*** 0 dan 10 gacha bo‘lgan sonlarni taqqoslash
MT-03-01 15 gacha tartib bilan sanashga o‘rgatish. Narsalarni 15 tagacha sanashga o‘rgatish	***BT-03-01*** 11 va 12 sonlari. 13 va 14 sonlari.
	BT-03-02 11 dan 15 gacha bo‘lgan sonlarni xona birliklariga ajratish
MT-04-01 20 gacha bo‘lgan sonlar bilan tanishtirish va tartib bilan sanashga o‘rgatish	***BT-04-01*** 11, 12 va 13, 14 dan 18 gacha sonlar tarkibi
BT-04-02 0 dan 20 gacha bo‘lgan sonlarni aniqlash, ularni o‘qish, yozish va taqqoslash	***BT-04-02*** 15 va 16 sonlari. 17, 18 va 19 sonlari

[1] Abdiraxmanova L.A. Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarga yondashuv // India international scientific online conference The theory of recent scientific research in the field of pedagogy: – T., 2023. 48 b.

[2] Nigmatova M.M., Erkinova D.E. Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi hamkorligi // Международный научный журнал Научный импульс. – 2022. № 4 (100). – T. – 1306 b.

[3] Abdullaeva L.U. Maktabgacha ta’lim muassasasi va maktab hamkorligi yo‘llari // Academic Research in Educational Sciences – 2022. №3 (12). ISSN: 2181-1385. -695 b. https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-muassasasi-va-maktab-hamkorligi-yo-llari

MT-05-01 Narsalarni 2, 4, 8, 10 ta teng qismga bo‘lishga hamda qiymatining yarim, chorakta (to‘rtdan bir), nim-chorakta (sakkizdan biri) kabi atalishini bilishga o‘rgatish	***BT-05-01*** Yassi shakllarni bo‘laklarga ajratish
	BT-05-02 Uchburchak tuzish va bo‘laklarga ajratish
MT-06-01 Narsalarni bo‘yi va enini shartli o‘lchov birligida o‘lchash va taqqoslash. “Qalin-yupqa”, “katta-kichik” “uzun-kalta” narsalarning o‘lchamini aniqlashga o‘rgatishni davom ettirish	***BT-06-01*** Uzunlik. Uzunlikni o‘lchash. Uzunlikni taqqoslash
	BT-06-02 Chizg‘ich va santimetr bilan tanishish. Chizg‘ich yordamida turli narsalarning uzunligini aniqlash. Matnli masalalar yechish
MT-07-01 Narsalarni bo‘lish usuli bilan 2 va 4 ta teng qismga bo‘lishni o‘rgatish	***BT-07-01*** Buklash orqali simmetriya chizig‘ini topish. Simmetriya chizig‘i. Shakllar yordamida simmetrik chizilgan rasm yaratish
MT-08-01 Qo‘shish va ayirishga doir sodda arifmetik masalalar tuzish va yechishni o‘rgatish	***BT-08-01*** Qo‘shish. Ayirish. 0 dan 10 gacha bo‘lgan sonlarni ayirish va qo‘shish
	BT-08-02 100 gacha bo‘lgan sonlarga 10 ni qo‘shish va ayirish. Ikki xonali songa bir xonali sonni qo‘shish
	BT-08-03 100 gacha bo‘lgan sonlarga 10 ni qo‘shish. 100 gacha bo‘lgan sonlardan 10 ni ayirish
MT-09-01 Suyuq va to‘kiluvchi jismlarning shartli o‘lchov birligi bilan hajmini aniqlash	***BT-09-01*** Gramm, Kilogramm, Litr va millilitr sig‘im massa o‘lchov birligi
MT-10-01 Turli xil o‘lchamdagi narsalar orasidan bir xil o‘lchamdagi narsalarni ajratish va farqlash	***BT-10-01*** Narsalarning to‘plamlari. Narsalarning tevarak-atrofda o‘zaro joylashuvi. Narsalarni tasniflash
MT-11-01 20 gacha bo‘lgan har bir sonni bittaga ottirish va kamaytirishga o‘rgatish. Ikkinchi 10 lik sonlarini hosil qilish. 0 dan 20 gacha bo‘lgan sonlarni qo‘shish va ayirish	***BT-11-01*** 16 dan 19 gacha bo‘lgan sonlarni xona birliklariga ajratish 20 sonini xona birliklariga ajratish
	BT-11-02 Qo‘shish jadvalini tuzish. Qo‘shish jadvali asosida qonuniyatni aniqlash. Qo‘shish jadvali yordamida, sonlarni qo‘shish va ayirish
MT-12-01 Kichik shakllardan kattaroq shakllarni tuzish	***BT-12-01*** Piktogramma. Ramli piktogramma va diagramma. Ustunli va qatorli piktogramma tuzish
	BT-12-02 Shakllardan shakllar tuzishni o‘rgatish. Qiziqarli uchburchak. Narsalarning siluetlarini tuzishga
	BT-12-03 Shakllarni belgilari bo‘yicha ajratish
	BT-12-04 Shakllardan foydalanib rasm chizish. Turli shakllardan foydalangan holda narsalar yasash
MT-13-01 Ko‘p burchak bilan tanishtirish. Ko‘pburchakning qirralari, tomonlari o‘zaro bog‘liqligini tushuntirish.	***BT-13-01*** Geometriya va algebraik mulohaza yuritish
MT-14-01 Geometrik shakllarni turli belgilari: ko‘rinishi, o‘lchami, rangiga ko‘ra guruhlarga ajratish	***BT-14-01*** Yassi shakllarning xossalariga ko‘ra farqi.
MT-15-01 Tayoqchalar yordamida turli shakllarni yasash. Yetishmagan shaklni topishga doir mantiqiy masalalar echishga	***BT-15-01*** To‘g‘ri to‘rtburchak perimetri. Shaklning perimetrini topish. Narsalarning perimetrini aniqlash
	BT-15-02 Chiziq, nuqta, egri chiziq. To‘g‘ri, siniq va egri chiziq, yassi shakllar
	BT-15-03 Katakli qog‘ozdan foydalanib, to‘g‘ri to‘rtburchak va kvadratlarningperimetrini topish
MT-16-01 Kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak, to‘rtburchakning turli ko‘rinishlari bor ekanligi haqida tasavvurni shakllantirish	***BT-16-01*** 100 gacha bo‘lgan sonlar jadvali. 1 dan 100 gacha bo‘lgan sonlar va ularning xonabirliklari
	BT-16-02 1 dan 120 gacha bo‘lgan sonlar jadvali. 100 dan 120 gacha bo‘lgan sonlarni xona birliklariga
MT-17-01 Sutka qismlari-ertalab, kunduzi, kechqurun, tun haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Vaqtning eng kichik birliklari-sekund va minut haqida tushuncha berish. Yil fasllarining ketma-ketligi haqidagi bilimlarni mustahkamlash.	***BT-17-01*** Soat bilan tanishish. Soatda vaqtni tasvirlash
	BT-17-02 Vaqtni aniqlash. Vaqtga doir masalalar
MT-18-01 Fazoda yo‘nalishni aniqlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurish, yugurish paytida harakat yo‘nalishini o‘zgartirish. Qog‘oz sathini aniqlash. Qog‘oz varag‘ining o‘ng-chap, yuqori-past va o‘rtasini aniqlash.	***BT-18-01*** Amaliy jarayonlarda qo‘llashni boshlaydi

Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizlik bolalarning shaxsiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqsadga erishishda quyidagi pedagogik texnologiyalar va usul (metod)larda keng qo‘llaniladi:

2-jadval

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda qo‘llaniladigan pedagogik texnalogiyalar va usul (metod)lar	
Xususiyatlari	
O‘yin texnologiyalari	Modulli o‘qitish texnologiyalari
O‘yin orqali bilim berish va qiziqishini oshirish va qobiliyatini aniqlash mumkin. Bolalar uchun qulay va tabiiy, yaxlit o‘qitish muhiti yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi.	O‘quv mazmuni kichik modullarga bo‘linadi va bu esa tarbiyalanuvchilarning o‘zlashtirishini osonlashtiradi. Har bir modul ma’lum bir mavzuni yoki mavzu qismlarini yoritadi va uni o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Bolalarda o‘z faoliyatini mustaqil tashkil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.
Qo‘llanilishi	

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilariga beriladigan barcha bilim, ko'nikma va malaka o'yin orqali o'rgatiladi. Maktabgacha ta'limda ranglarni, shakllarni va sonlarni o'rgatish, jonli va jonsiz narsalarni o'rgatish juda qulay. Boshlang'ich ta'limda matematik o'yinlar, mantiqiy masalalar yechish mumkin	Maktabgacha ta'limda oddiy modullar: ranglarni, shakllarni, hayvonlar nomlarini o'rganish Boshlang'ich ta'limda murakkabroq mavzular: harflarni o'qitish, matematik qoidalarni o'rgatish Elementar matematika, nutq o'stirish mashg'ulotlarida
Tavsifi	
O'yin orqali bilim berish va bolalarning qiziqishini oshirish	Ta'lim mazmunini kichik modullarga ajratib, har bir modulni chuqur o'rganish.
Misollar	
1. "Kim tez?" (sonlarni sanash musobaqasi). 2. "Qaysi rang qayerga mos?" (ranglarni tanlash o'yini). 3. Rol o'yinlari: "Do'kon" (muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish)	1. Modul: "Harflar olami" — alifboni o'rganish. 2. Modul: "Geometrik shakllar" — shakllarni tanish, nomlash, bir-biriga bog'lash.
Interfaol va reflektiv texnologiyalar	Muammoli o'qitish texnologiyasi
Xususiyatlari	
Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida faollikni oshiruvchi va har ikki tomonni ham qiziqtiruvchi metod. Guruh va jamoaviy ishlarni rivojlantiradi.	Bolalarni qiziqtiradigan savollar va muammoli vaziyatlarni yaratish. Mustaqil fikrlash va mantiqiy tahlil qilishni rivojlantirishga yordam beradi.
Qo'llanilishi	
Maktabgacha ta'limda jamoaviy o'yinlar va guruh mashg'ulotlari. Boshlang'ich ta'limda savol-javob, muhokama va "Aqliy hujum" usullari.	Maktabgacha ta'limda qiziqarli savollar va muammoli vaziyatlarni muhokama qilish.
Tavsifi	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish.	Bolalarga muammoli vaziyat yaratib, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish.
Misollar	
1. "Bilimlar aylanmasi" (bolalar bir-birlariga savol beradilar). 2. "Aqliy hujum" — o'quvchilar o'z fikrlarini erkin aytadilar, eng yaxshi yechim tanlanadi.	1."Qaysi hayvon qishda uxlaydi?" (muhokama uchun savol). 2."Agar quyosh bo'lmasa nima bo'ladi?" (ijodiy tahlil).
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)	Integrativ o'qitish texnologiyasi
Xususiyatlari	
Bolalarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish. Vizual va interaktiv materiallar orqali bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi.	Bolalarda tasavvur qilish, ijodkorlik va yangilik yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. Amaliy faoliyatga asoslangan
Qo'llanilishi	
Maktabgacha ta'limda multimedia vositalari orqali rang-barang materiallar taqdimoti. Boshlang'ich ta'limda kompyuter dasturlari va o'quv platformalaridan foydalanish.	Maktabgacha ta'limda qog'ozdan narsa yasash, chizish. Boshlang'ich ta'limda guruhiy loyihalarni amalga oshirish.
Tavsifi	
Multimedia, interaktiv doskalar va dasturlar yordamida o'qitish.	Bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ularga yangi narsalar yaratishni o'rgatish.
Misollar	
1. Interaktiv darslar, video va animatsiyalar orqali mavzularni tushuntirish. 2. Elektron kitoblar va o'yinlar yordamida o'qitish. 3. Raqamli o'yinlar orqali alifbo o'rganish.	1. Loyihalar: "Mening orzu bog'im" (bolalar rasm chizish orqali o'z bog'larini tasavvur qilishadi). 2. "Tabiat mo'jizasi" (daraxt barglari yoki gullardan kollej yaratish).

Yuqoridagi texnologiyalarning ahamiyati quyidagilardan iborat:

– uzviylikni ta'minlaydi: baktabgacha ta'limda olingan bilim, ko'nikma va malakalar boshlang'ich ta'limda yanada rivojlantiriladi;

– uzluksizlikni saqlaydi: bosqichlar o'rtasida bilim va ko'nikmalarni davom ettirishga va takommilashishiga yordam beradi;

– shaxsiy rivojlanishga yordam beradi: bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalar shakllanadi va amaliyotga joriy etishiga yordam beradi;

– o'qitish sifatini oshiradi: zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilishini ta'minlaydi. Bolalarning qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularga o'z imkoniyatlarini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

NATIJA

"Matematik savodxonlik" fanidan o'tkazilgan pedagogik tajribani tashkil etish va uni o'tkazish metodikasi haqida fikr yuritildi. Ushbu qismda esa tajriba natijalarining tahlili bilan tanishamiz. Tajriba natijalarini tahlil qilishda matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Quyidagi jadvalda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish jarayonida o'quvchilar bilim darajasi dinamikasining o'zgarishi (son va % hisobida) keltirilgan (3-jadval).

Har bir bosqich uchun ikkita o'quv fani, "Matematik savodxonlik" fani bo'yicha sonli ma'lumotlar olingan.

3-jadval

O'quvchilarning "Matematik savodonlik" fani bo'yicha mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarining shakllanganlik ko'rsatgichlari

Tajriba bosqichi va o'quv yili	102-sonli DMTT	O'zlashtirish darajasi	Tajriba guruhlarida		Nazorat guruhlarida	
			Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
2023-2024 o'quv yili		Eng yuqori (a'lo) 5	6	12	9	11
		Yuqori (yaxshi) 4	5	8	4	6
		O'rta (qoniqarli) 3	8	5	7	7
		Yomon (qoniqarsiz) 2	11	5	10	6

Tajriba boshida tarbiyalanuvchilardan yuqoridagi natijalar qayd etildi va ko'rsatkichlar qayd etib borildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha 4 ta o'zlashtirish darajalariga ajratildi.

4-jadval

Tajriba va nazorat guruhlarining tajriba boshi va oxiridagi ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	MTT	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
			Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
1	O‘rtacha arifmetik qiymat $(\overline{x}, \overline{y})$	102-sonli DMTT	3,2	3,9	3,4	3,7
2.	Samaradorlik ko‘rsatkichi (η)	102-sonli DMTT	1,21		1,08	
3.	O‘rtacha qiymat ishonch oralig‘i ($a_x \in$, $a_y \in$)	102-sonli DMTT	[2,8; 3,6]	[3,6;4,2]	[3 ; 3,8]	[3,3;4,1]
4.	O‘rtacha qiymat standart xatoligi (S_x, S_y)	102-sonli DMTT	1,17	1,1	1,22	1,14
5.	Aniqlanish ko‘rsatkichi (S_x, S_y)	102-sonli DMTT	6,7 %	5,2 %	6,6 %	5,7 %
6.	Styudent (T) mezoni	102-sonli DMTT	2,6		1,15	
7.	Ko‘rsatkichlar natijasi	102-sonli DMTT	N_1 faraz qabul qilinadi.		N_0 faraz qabul qilinadi.	

Tajriba boshida respondentlarning “Elementar matematik tassurotlarni shakllantirish” frontal mashg‘uloti o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi 3,2 ni tashkil qildi. Tajriba oxirida esa 3,9 ko‘rsatkichi qayd etildi. Respondentlarning tajriba boshi va tajriba oxiridagi samaradorlik ko‘rsatkichi 1,21 ni ekanligi aniqlandi. Tarbiyalanuvchilarga olib borilgan mashg‘ulotda turli texnologiyalarni qo‘llash, xususan, modulli, integrativ, interfaol, reflektiv, muommoli o‘qitish hamda axborot-texnologiya vositalaridan foydalangan holda mashg‘ulotni olib borishi natijasida yuqori ko‘rsatkichlarga erishildi. Bundan tashqari ota-onalar bilan ishlash ham yuqori samara berdi. Ularning ham uy sharoitida farzandlari bilan shug‘ullanishi hamda ularni qo‘llab-quvvatlashlari samaradorlikni ma’lum darajada oshishiga sababchi bo‘ldi. Demak, 3-4-jadvallarga asosan tajriba guruhida qo‘llanilgan metodika nazorat guruhiga nisbatan samarali ekanligi aniqlandi.

Uzluksiz ta’lim yuksak malakali kadrlar tayyorlashning asosini tashkil etib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish mazmun-mohiyatini ifoda etadi[4]. Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha olimlarimiz turli fikrlarga ega.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko‘ra “maktabga tayyorgarlik” tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi: aqliy, shaxsiy, jismoniy[5]. Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarni 1-sinfda erkin va to‘laqonli ta’lim olishi uchun aqliy, shaxsiy va jismoniy xususiyatlarga e’tibor qaratish kerak ekanligini ta’kidlagan. Maktabga kirish bola hayotidagi oddiy turmush tarzi, atrofdagilarning munosabat sistemasining o‘zgarishiga aloqador muhim davrdir.

XULOSA

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim uzviyligi va uzliksizligini ta’minlash mexanizmini rivojlantirish” mavzusidagi tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang‘ich o‘quv dasturlari bo‘yicha matematik tushunchalarni o‘zida mujassamlashtirgan yaxlit asosga ega bo‘lish zarurligi ta’kidlaydi. U rivojlanish bosqichlariga mos keladigan tuzilgan o‘quv dasturini ishlab chiqish, o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlikda o‘qitish yondashuvlarini rivojlantirish va yosh o‘quvchilarni jalb qiluvchi innovatsion pedagogik usullardan foydalanish kabi asosiy strategiyalarni belgilaydi. Tadqiqot o‘qituvchilarning matematika bo‘yicha ta’lim ko‘nikmalarini oshirish uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish muhimligini, shuningdek, uyda matematik tushunchalarni mustahkamlashda ota-onalarning ishtirokining rolini ifodalaydi. Bundan tashqari, u o‘qitishni samarali tarzda moslashtirish uchun bolalarning matematik qobiliyatlarini formativ baholash orqali baholash zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu o‘zaro bog‘liq elementlarni o‘rnatish orqali tadqiqot nafaqat bolalarning matematik ko‘nikmalarini oshiribgina qolmay, balki ularni kelajakdagi akademik muvaffaqiyatga tayyorlaydigan yaxlit yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi.

Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim jarayonida matematikani o‘qitishda izchillik va uzluksizlikni ta’minlash mavzusi matematik tushunishda mustahkam poydevor yaratish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil turli jihatlarni, jumladan, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, pedagogik strategiyalar, o‘qituvchilarni tayyorlash va ota-onalarning ishtiroki rolini o‘rganadi. Ushbu bo‘limda asosiy e’tibor 2022-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan statistik ma’lumotlarga qaratiladi.

1. O‘quv dasturlarini ishlab chiqish. Bu jarayon bolalarning rivojlanish bosqichlari o‘rtasidagi uzluksizlikni, ularning bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarini izchil rivojlantirishni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

2. Pedagogik strategiyalar. O‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan rejalashtirilgan usullar va yondashuvlar hamda ta’lim texnologiyalari majmuasidir. Ular o‘qituvchiga darslarni mazmunli, qiziqarli, sifatli va samarali tashkil etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

3. O‘qituvchilar tayyorlash. O‘qituvchilar ta’lim mazmuni, metodlari va yondashuvlarini muvofiqlashtirish orqali maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni yaratadi va samaradorlikni oshiradi. Bu o‘quvchilarga yangi bosqichga o‘tishda moslashishni osonlashtiradi.

4. Ota-onalar ishtiroki. Ota-onalar bolalarning tarbiyasida faol ishtirok etganida, maktabgacha ta’lim va maktabda olingan bilimlar va ko‘nikmalar oilada ham mustahkamlanadi. Bu bola uchun barqaror rivojlanish, yaxlit muhitni yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim davrida matematika mashg‘ulotlarida izchillik va uzluksizlikni ta’minlash bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta omillarni o‘z ichiga oladi: rivojlanish bosqichlariga mos keladigan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, samarali pedagogik strategiyalar, o‘qituvchilarni tayyorlashning mustahkam dasturlari va ota-onalarning faol ishtiroki.

So‘nggi yillardagi statistik ma’lumotlar yosh o‘quvchilarda kuchli matematik asoslarni shakllantirish uchun muhim bo‘lgan ushbu sohalarni takomillashtirishga qaratilgan ijobiy tendensiyalarni ko‘rsatadi.

[4] Qodirova F.R, Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. –Toshkent: Tafakkur, 2019. – 376 b.

[5] Djurayeva B.R., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘Z pfiti, 2015. – 86 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – 112 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘RQ 637-sonli Ta’lim to‘g‘risida. 2020-yil 23-sentabr // https://sbtsue.uz/ru/news/view/323

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2020-yil 6-noyabr // https://lex.uz/docs/-5085887

4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi. 2019-yil 22-oktabr // https://lex.uz/docs/-4646908

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqidan. Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish to‘g‘risida. 2017-yil 19-oktabr // https://president.uz/oz/lists/view/1162

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 802-sonli qarori. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida. 2020-yil 22-dekabr // https://lex.uz/docs/-5179335

7. O‘zbekiton Respublikasining 999-sonli qarori. Boshlang‘ich ta’limga bolalarni majburiy bir yilliktayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2018-yil 8-dekabr // https://lex.uz/docs/-4097076

8. Qodirova F.R, Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 376 b.

9. Djurayeva B.R., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘Zpfiti, 2015. – 73 – 86 b.

10. Timoti Uoker. Finlandiya ta’lim mo‘jizasi. – Toshkent: Global books, 2023: – 148 b.

11. Baxtiyorova M.I. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim jarayoni uzviyligini ta’minlashning zaruriyati // Science and Education Scientific Journal. – 2023. –№4(3) – B. ISSN 2181-0842.

12. Abdiraxmanova L.A. Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarga yondashuv // India international scientific online conference The theory of recent scientific research in the field of pedagogy: – T., 2023. 48 b.

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/0009-0008-5320-9680

INKLYUZIV TA’LIM SOHASIDA TARBIYACHI PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Lola Djurakulova



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu maqolada O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT) mutaxassislarini kasbiy tayyorlash va maktabgacha ta’lim tizimi samaradorligini orttirish masalasi yoritilgan. Ta’lim tizimining global rivojlanish sharoitlarida bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarning tayyorlash olimlar tomonidan ko‘p omilli tarkibiy tuzilishga ega, kasbiy ishlab chiqarishni shakllantirish, bolalar va ota-onalar bilan ishlashga doimiy qiziqishini, shuningdek, faoliyatda muvaffaqiyatni rivojlantirish kabi aspektlari bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, tarbiyachi-pedagog, kommunikativ-kompetensiya, integratsiya, empatiya, muloqatchanlik, sabr-bardosh, eruditsiya, aspekt, tarbiyachi-pedagoglar.

KIRISH

Jahonda zamonaviy ta'lim siyosatining istiqbolli yo'nalishlaridan biri inklyuziv ta'lim muhitida jismoniy holatidan qat'i nazar ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, ularga bilim berish va rivojlantirish modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. 1993-yil 1-dekabrda 153 mamlakatda bolalar huquqlari haqidagi Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi vositasida, ularda bolalar kelajagini muhofaza qilishga tayyor ekanligi namoyish etildi[1]. Konvensiya butun jahon bolalar huquqlari haqidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomasidir.

Konvensiya – bola huquqlari haqidagi universal rasmiy Kodeksdir. Konvensiyada bolalar huquqlari to'rt toifaga ajratib berilgan bo'lib, ular 54 moddani o'z ichiga qamrab olgan. 1994-yilda YUNESKO «Maxsus ta'lim zaruriyati» nomli hujjatni tayyorlab, unda maxsus ta'limga muhtoj bolalar va yoshlar uchun ta'limni tashkil etish hamda takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqdi. Ushbu ta'lim turida asosiy o'rin reabilitatsiya masalalariga ajratilgan. Hujjatda*:* "Maxsus ta'limni alohida yordamga muhtoj kishilarga tashkil etishdan maqsad – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar va o'smirlarni mustaqil, hamma qatori yashash sharoitida jamiyatga tiklash", deb ta'kidlangan[2].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining 15 foizini nogironlar tashkil etadi va ularning 80 foizdan ortig'i rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Dunyodagi har 7 kishidan biri turli xil nogironlikdan aziyat chekmoqda. Dunyo aholisi 8 milliardga yetganini hisobga olsak, nogironlar soni 1 milliarddan oshadi. Afsuski, ularning 100 milliondan ortig'i bolalardir. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning rasmiy e'lon qilingan soni aholining 2,1 foizini tashkil etadi[3].

Respublikamizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda raqobatbardosh mutaxassislar bilan ta'minlash, inklyuziv ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish va joriy etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish"[4] ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy va jismoniy rivojlantirish, inklyuziv ta'limni uzluksiz amalga oshirish, bo'lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta'lim sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik asoslarini takomillashtirishning to'liq imkoniyatlar yaratilmoqda.

L.N.Davidova, M.A.Kolokolseva va Y.V.Ryabovalarning fikricha, inklyuziv ta'limning etik negizini "Uch toifa tashkil etadi – tenglik, erkinlik, adolat. Agarda ta'lim shu ustunlar asosida qurilsa, bunday g'oyalar bolalar ongiga tabiiy ravishda o'rnashadi, chunki ular o'zlarining "alohida xususiyatlarga ega bo'lgan" tengdoshlarining haq-huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish tamoyillariga asoslangan munosabatlar ishtirokchisiga aylanadi"[5].

M.L.Mitina[6] pedagogik kompetentlik deganda predmet haqidagi bilimlar, o'qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko'nikma va malakasi, shuningdek o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg'un birlashishini tushungan.

Tadqiqotchi D.Kaxarova quyidagicha ta'rif beradi: "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi (ITT) – uzluksiz ta'lim tizimida maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun mehribonlik bilan tizimli yondashadigan, individuallashgan, sharoitga qarab o'zgaruvchan, maxsus o'quv dasturlari, materiallari, vositalari va metodlari yordamida ta'lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik jihatlarini zamonaviy talablarga mos olib boriladigan jarayondir[7]"

D.M.Abdurazakovaning fikricha, "gumanizm keng ma'noda inson hayotining o'z qadrini tan olishi asosida hayot tarzini yo'lga qo'yishning umumiy tamoyilini anglatadi. Bunday ko'rinishda u dunyoning deyarli barcha xalqlarning ma'naviy tarixida kuzatiladi va bu uning universalligi, mukammalligidan dalolat beradi. "Insoniylik" tushunchasi insonning o'z-o'zini anglash va atrofdagi olamni "insoniylashtirish"ni anglatgan holda mazkur holatning protsessualligini aks ettiradi"[8].

METODOLOGIYA VA METODLAR

Bo'lajak tarbiyachi pedagoglarning inklyuziv ta'lim sohasida kommunikativ kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. L.S.Vygotskiy quyidagilarni ta'kidlagan: "maxsus maktablarning asosiy kamchiligi shundaki, ular o'z o'quvchilarini jamoaning tor, bir xil doirasiga kiritadilar" ushbu tuzatish muassasasi haqiqiydan cheklangan hayot makon, maxsus bolalarning ijtimoiylashuviga hissa qo'shmaydi, aksincha, yanada ko'proq izolyatsiyaga olib keladi". Aynan L.S.Vygotskiy birinchilardan bo'lib integratsiyalashgan ta'lim g'oyasini asoslab berdi, maxsus ta'limga muhtoj bolalarni oddiy bolalar muhitiga kiritish zarurligi haqida ta'kidlab o'tgan[9].

O'qituvchilarning inklyuziv ta'limda ishlashga tayyorligi 2 asosiy metod orqali ko'rib chiqiladi: kasbiy tayyorgarlik va psixologik tayyorgarlik.

Kasbiy tayyorgarlikning tuzilishi:

- axborotga tayyorlik;
- pedagogik texnologiyalarni egallash;
- psixologiya va korreksion pedagogika asoslarini bilish;
- bolalarning individual farqlarini bilish;
- o'qituvchilarning darsni modellashtirish va o'zgaruvchanlikdan foydalanishga tayyorligi o'quv jarayoni;
- turli nogiron bolalarning individual xususiyatlarini bilish rivojlanishda;
- kasbiy hamkorlik va ta'limga tayyorlik.

Psixologik tayyorgarlikning tuzilishi:

- har xil turdagi nogiron bolalarni emotsional qabul qilish (qabul qilish-rad etish);
- turli turdagi nogiron bolalarni o'z ichiga olishga tayyorlik darsdagi faoliyat (inklyuziv-izolyatsiya);
- o'zining o'qituvchilik faoliyatidan qoniqish.

---

[1] "Bola huquqlari to'g'risida" Konvensiya (29.07.1994 y.) //https://lex.uz/docs/2595913//

[2] https://inclusive-education.uz/uz https://uz.wikipedia.org/wiki/UNESCO

[3] http://inclusive-education.uz/uz/news/82.htm

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60- son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

[5] Давыдова Л.Н., Колоколцева М.А., Рябова Е.В. Инклюзивное образование и нравственные взаимоотношения: грани одной проблемы. – М.: УРСС, 2017. – Стр200.

[6] Митина Л.М. (2004). Психология труда и профессионального развития учителя. – М.: Академия. – 320 с.

[7] Kaxarova D.S. Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limning pedagogikpsixologik jihatlarini takomillashtirish. Avtref. P.f.f.d. (PhD). Samarqand 2019. – 52.

[8] Абдуразакова Д.М., Исмаилова С.А. Содержание и структура готовности педагогов к обеспечению прав ребёнка // Мир науки, культуры, образования. 2015. № 30. – S.46-61.

[9] Л.С.Вигоцкий. Психология развития человека. – М: Изд-во Смисл Эксмо, 2005. – 136.

NATIJALAR

Inklyuziv ta'lim muhitida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash bo'yicha ta'limiy-pedagogik dasturning samaradorligini baholash maqsadida so'rovnomalar o'tkazildi. Pedagogik tajriba-sinov natijalari umumiy statistik tahlil qilindi. Bo'lajak tarbiyachilarning inklyuziv ta'lim muhitida kasbiy tayyorgarligi mezonlari aniqlab olindi. Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda bo'yicha so'rovnomaga oid umumiy tajriba-sinov natijalari ifodalangan (1-jadval).


1-jadval

Inklyuziv ta'lim sohasi haqidagi bilim darajasini anqilash so'rovnomasi natijalari

№	Savolnomalar orqali korreksion ko'rsatkichlarni baholash	Samaradorlik darajalari (sonlarda)					
		TDPU talabalari (60)			MDMTT (60)		
		yuqori	o'rta	past	yuqori	o'rta	past
1	Bo'lajak pedagogning bola ta'lim-tarbiyasidagi mas'uliyatni his etishi	17	14	29	22	20	18
2	Alohida ehtiyojli bola rivojlanishi bosqichlari va uning yosh, individual xususiyatlarini bilishi	12	13	35	12	25	23
3	Samarali inklyuziv ta'lim metod va usullaridan xabardorligi	16	15	29	23	19	18
4	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda bag'rikengligi	18	18	24	24	25	11
5	Pedagogik-psixologik bilim darajasi	17	19	24	20	21	19
6	Bo'lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatga qiziqish darajasi	15	18	27	29	22	9
7	Alohida ta'lim ehtiyojlaribo'lgan bolaning o'ziga xos xususiyatlaridan xabardorligi	13	19	28	28	25	7
8	Bolaning ehtiyojlari qondirilishi	11	17	32	34	19	7
9	Bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlay olishi	19	15	26	24	26	10
10	Tarbiyachi va bola munosabatlarining barqarorligi	10	19	31	27	25	8
11	Bo'lajak tarbiyachining kommunikativ kompetentligi	13	13	34	29	20	11
12	O'zini-o'zi nazorat qila olishi	18	16	26	25	26	9
13	Bo'lajak tarbiyachining inklyuziv muhitda ijtimoiy moslashganligi	19	14	27	21	27	13
14	Inklyuziv ta'lim tamoyillarini qo'llay olishi	15	19	26	34	22	4
	J a m i:	**213**	**229**	**398**	**352**	**322**	**167**
	Pasti:	10	13	24	12	19	4

Inklyuziv ta'lim sohasi haqidagi bilim darajasini aniqlash so'rovnomasi natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak tarbiyachi pedagoglar inklyuziyaga qarshilik bosqichida, psixologik va pedagogik jihatdan ham shuni ko'rsatadiki, inklyuziv amaliyotga ham tayyor emas. Ta'lim jarayoniga qo'shilish uchun kasbiy tayyorgarlik amaliyotning ajralmas qismiga aylansa, ularda inklyuziv ta'lim haqidagi bilim va ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, MDMTT da faoliyat olib borayotgan tarbiyachi pedagoglarning 18 nafarida inklyuziv ta'lim sohasidagi bilimlari yetarli darajada emasligi aniqlandi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning o'ziga xos xususiyatlaridan xabardorligi ko'rsatkichi bo'yicha esa 3-kurs talabalarining 28 nafari past natija qayd etilgan.

Sabr-bardoshlilikda o'z-o'zini baholash so'rovnomasi natijalari bo'lajak tarbiyachilarning inklyuziv ta'lim muhitida kasbiy tayyorgarligi past (13.5%) ko'rsatkich qayd etildi. MDMTT tarbiyachi-pedagoglarda esa sabr-bardoshlilik darajasi 24.8 % ni tashkil edi. Ulardagi ish faoliyati bilan hamda tajribaning oshishi natijasida o'zlaridagi sabr-toqatlilik xususiyati ham rivojlanib borganini ko'rishimiz mumkin. Baholar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz o'rinlidir, chunki MDMTT tarbiyachi-pedagoglar ish tajribasiga ega va inklyuziv ta'lim kundalik ish faoliyatiga yaqinligidir. Natijalar ko'rsatkichi 1-rasmda.



1-rasm. Sabr-bardoshlilikda o'z-o'zini baholash testi natijalari


Muloqotchanlikning umumiy darajasini aniqlash so'rovnomasi V.F.Ryaxovskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, muloqatchanlikning umumiy darajasini aniqlash maqsadida qo'llanadi va so'rovnoma natijalarining tahlilidan shuni anglash mumkinki, bo'lajak tarbiyachi pedagoglarga kommunikativ kompetensiyasi 302-guruhda 14,5%, 304-guruhda 15,6% past ko'rsatkichga ega bo'lgan. Ulardagi yoshga oid xususiyatlar, faqatgina ta'lim olish bilan faoliyatlarini cheklaganliklari va amaliy hayotga kirib kelmaganliklari sababli ham ularda ijtimoiy kommunikatsiyalarga kirishish rivojlanmagan. Demak, bo'lajak tarbiyachi, ya'ni talabalar o'zlaridagi kommunikativ kompetensiya nafaqat kasbiy jarayonda, balki shaxsiy hayotda ham zarurligini anglab yetmagan.

2-jadval

Muloqotchilikning umumiy darajasini aniqlash so'rovnomasi

№	Guruglarning nomlanishi	Tajribada		Natijalar foizda
		Tajriba guruxi	Nazorat guruxi	
1	**302-guruh**	30		14,5%
2	**304-guruh**	30		15,6%
3	**560-sonli MDMTT**		24	25,6%
4	**480-sonli MDMTT**		15	23,8%
5	**442-sonli MDMTT**		21	20,5%
Jami		**60**	**60**	**100,0%**

Faoliyat yuritib kelayotgan Maxsus maktabgagacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglarning ko'rsatkichlari 560-sonli MDMTT 25,6%, 480-sonli MDMTT-23,8%, 442-sonli MDMTT 20,5%ni tashkil etadi.



3-rasm **"O'zgalarni tinglay olasizmi?"**

“O‘zgalarni tinglay olasizmi?” testi natijalari shuni ko‘rsatadiki, MDMTTda faoliyat olib borayotgan tarbiyalanuvchilar 25.7 % ni ko‘rsatdi. Tarbiyachilardagi ish tajribasi, ijtimoiy hayotda faolliklari, kasbiy qobiliyatlarga ega ekanligi, yoshga oid xususiyatlari ularning o‘zgalarni tinglay olish ko‘nikmalarining rivojlanishiga turtki bergan. Ish jarayonida hamkasblar va bolalar bilan muloqot olib borish zarurati boshqa insonlarni tinglashini taqozo etadi. Lekin bitiruvchi kurs talablarida esa o‘zgalarni tinglash ko‘nikmalari past darajada ekanligi ko‘rindi. Sababi ularning aksariyat qismi faqat o‘qish va juda tor doiradagi ijtimoiy munosabatlar bilan chegaralangan.

3-jadval

Empatiya qobiliyatini o‘rganish metodikasi natijalari

№	Guruglarning nomlanishi	Tajribada		Natijalar foizda
		Tajriba guruxi	Nazorat guruxi	
1	302-guruh	30		13,5%
2	304-guruh	30		12,6%
3	560-sonli MDMTT		24	17,6%
4	480-sonli MDMTT		15	28,8%
5	442-sonli MDMTT		21	27,5%
Jami		60	60	100,0%

Ushbu natijalarning qiyosiy tahliliga ko‘ra har ikkala guruhlarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlar TDPU talabalarida ko‘rsatkichlari juda past. Jumladan, yuqori darajadagi o‘zlashtirish guruhlarida 302-guruhda 13,5%ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 304- guruhda 12,6%ni ko‘rsatdi, bu esa past darajadagi ko‘rsatkichlar va 560-sonli MDMTT da 17,6% 480-sonli MDMTT da 28,8%, 442-sonli MDMTT 27,5%ni tashkil etadi. Bu esa talabalarning dastlabki natijalarda har ikkala guruhlarda o‘zgarish mavjud emasligini, ya’ni bilim darajasi dastlab taxminan bir xil ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSALAR

Xulosa sifatida MDMTT tarbiyachi pedagoglar va maktabgacha ta’lim mutaxassisligi bitiruvchi talabalarining inklyuziv ta’lim sohasi bo‘yicha bilim darajalari hamda alohida ehtiyojli bola rivojlanishi bosqichlari va uning yosh, individual xususiyatlarini haqidagi bilim darajalari yetarli emas. MDMTT tarbiyachi pedagoglarning muloqotchanlik, o‘zgalarni tinglay olish, empatik qobiliyatlari hamda sabr-bardoshlilik sifatlari o‘rta darajada bo‘lib, ularda bu ko‘rsatkichlar yuqori taraqqiy etmagan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim mutaxassisligi bitiruvchi talabalarining mulqotga kirishuvchanligi, o‘zgalarni tinglay olish, emotsiyalarni tushunish va boshqarish qobiliyatlari hamda ularda sabrlilik sifatlari yetishmasligi dalillandi. MDMTT tarbiyachi pedagoglar va maktabgacha ta’lim mutaxassisligi bitiruvchi talabalarining inklyuziv ta’lim sohasi bo‘yicha bilim darajalari hamda kommunikativ kompitentsiyalarini rivojlantiruvchi trening dasturi samaradorligiga erishildi.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil 8-yanvardagi // https://lex.uz/acts/1297315

2.“Bola huquqlari to‘g‘risida” Konvensiya (29.07.1994.) //https://lex.uz/docs/2595913//

3. O‘zbekiton Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. 16-dekabr 2019-yil, O‘RQ-595-son. https://lex.uz/uz/docs/-4646908

4. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr)” ratifikasiya qilish haqida”gi O‘RQ 695-son Qonuni. 29.05.2021. https://lex.uz/uz/docs/-5447413

5. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni. 2020-yil 24-avgustdagi O‘RQ 637-sonli. – Toshkent. https://lex.uz/uz/docs/-5013007

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312 sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/-4327235

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4860 sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5044711

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-5841063

10. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – 35 b.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar” kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.

(http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm)

12. Prezident Shavkat Mirziyoevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. //https://president.uz//.

13. Митина Л.М. (2004). Психология труда и профессионального развития учителья. – М.: Академия. – 320 с.

14. Л.С.Вигоцкий. Психология развития человека. – М: Изд-во Смисл Эксмо, 2005. – 136.

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/0009-0008-5320-9680

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TA’LIM-TARBIYASINI TASHKIL ETISHDA XALQ ERTAKLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim tizimidagi ta’limiy jarayonda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni xalq ertaklari orqali tarbiyalash, o‘qitish, yangi bilimlar berish tizimining joriy etilishi mohiyati, xalq ertaklarining ta’lim jarayonini tashkil etishdagi pedagogik va nazariyalar ustuvorligi, ta’limiy faoliyatiga ta’sir etuvchi psixologik va pedagogik omillar hamda mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishning psixologik mexanizmlarini tadqiq etishning maqsad va vazifalari, modeli, uning tarkibiy qismlari tahlil etildi va yechimi so‘ralgan masala bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: o‘yin, sahnalashtirish, ta’limiy jarayon, ta’limiy o‘yin, ertak, kitobxonlik, tarbiya, mahorat, jamoaviy yondashuv, mustaqil o‘qish, ta’lim, didaktik jarayon, o‘zlashtirish, didaktik vositalar, mustaqil fikrlash, sifat, samardorlik, og‘zaki va yozma savodxonlik.

KIRISH

Jahonda maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi va nutqiy faoliyat jarayonida o'qish madaniyatini tubdan rivojlantirish hamda kitobxonlikka tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Finlandiya, Rossiya, Angliya kabi davlatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ertak o'qishga qiziqishlari bo'yicha muayyan tajribalar to'planmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limning nazariy va amaliy asosidagi pedagogik tizimda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasini rivojlantirish bo'yicha salmoqli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2020-2025-yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturidagi farmonda aholi, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko'maklashish, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlash; mutolaa madaniyatini yuksaltirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va metodlarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadini ta'kidlagan ko'rsatib o'tgan[1].

Ilmiy-metodik adabiyotlar, izlanishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son Qarori "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartida 1-ilova bilan "Ilk qadam davlat o'quv dasturi"da belgilangan beshta rivojlanish markazlari integratsiyasi asosida bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi[2].


So'nggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasini rivojlantirish hozirgi dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Ana shu nuqtayi nazardan maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasini xalqaro tajribalardan andoza olgan holda yuqori saviyada rivojlantirish tarbiyachi pedagoglar va ta'lim subyektlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim–tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasini rivojlantirishda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan bo'lgan O'zbek xalq ertaklaridan "Bo'ri bilan echki", "Qizg'anchiq it", "Maqtanchoq quyon", "Ikki echki", "Fil bilan xo'roz" kabilarni kiritish mumkin, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar adiblari Mahmud Murodovning "To'p", "Batanika haqidagi ertak", A.Irisovning "Mehnat teri", S.Saydullayevning "Suv bolalari" kabi bolalarga tanish qalam sohiblari yaratgan ertaklar ham ertak hajmining ixchamligi, kam personajliligi, tilning sodda, ravon hamda tushunarliligi jihatlari va milliy xususiyatlari bilan kichik guruh yoshdagi bolalar ruhiga mos keladi.

Mahmud Murodov[3]ning "Ko'prik", "Kim eng kuchli", T.G'oyibovning "Makkajo'hori,"Tovus va xakka", A.Abdurozzoqovning "Ola zarak", "Ayyorning jazosi" va boshqa ertaklarida xuddi shu san'atdan foydalanib, xar hil g'oyalar ifoda etilgan. O.I.Nikiforovaning aytishicha, ertakni tinglashda bola maktab yoshigacha o'ziga xos ichki faoliyatni namoyon etadi – u go'yo ertakda sodir bo'layotgan voqealar va o'zi anglagan voqealarda sherikka aylanadi. Ertak – maktabgacha yoshdagi bolalarni "Atrof-muhit to'g'ridan-to'g'ri qabul qilingan chegaradan tashqariga chiqarib, u odamning xatti-harakatlarining mumkin bo'lgan keng modellari bilan xayoliy olamlarga singdirib, ularga yo'naltirgan, boy nutqni ta'minlaydigan universal rivojlanish va tarbiyalash vositasini belgilaydi"[4].

METODOLOGIYA VA METODLAR

Qiziqish – inson shaxsiyatining voqeligini o'rab turgan narsalar yoki hodisalarga tanlab yo'naltirilganligi. Bizningcha, maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasini rivojlantirish, ularning kognitiv va kreativ yondashuvlar hamda intellektual faoliyatga bo'lgan hissiy va bilish munosabati, ertak kitoblariga qiziqishni rivojlantirishning birinchi elementar bosqichidir.



Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish natijasida tarbiyalanuvchining estetik-madaniy ongini rivojlantirishga hissa qo'shadi, uning fikrlash va tafakkur olami takomiliga asos bo'ladi. Bu esa aksiologik kompetentlik rivoji taraqqiyotiga zamin tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklari qahramonlarining g'oyasini birgalikda suhbat olib borish, qayta hikoyani interaktiv ishlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq ertaklari Buyuk Karimov, Fattoh Abdullayev, Mansur Afzalov, Komiljon Imomov, G'ayrat Jalolov, Xudoyberdi egamov, Tojiboy G'oziboyev, Ro'zimboy Safarov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o'g'li, Husanboy Rasul o'g'li, Nurali Nurmat o'g'li, Rahmon buva kabi o'nlab ertakchilardan ertaklarni yozib olganlar, tahlil qilganlar va nashrga tayyorlaganlar. Jumladan, o'zbek xalq ertaklari, topishmoqlari, maqol va matallari

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. 2020-yil 2-mart // https://lex.uz/docs/-4751561

[2] O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartlari to'g'risida. 2020-yil 22-dekabr // https://lex.uz/docs/-5179335

[3] Муродов М. Олтин сандиқ очилди. – Т.: Ўқитувчи, 1994. -120 б.

[4] Никифорова, О.И. Психология восприятия художественной литературы. – М.: «Академия», 2002. – 152 с.

hamda og‘zaki teatr namunalarini to‘plash va nashr etishda rus missioneri N.P.Ostroumovning xizmatlari ham salmoqlidir. U bir necha marta o‘zbek xalq ertaklarini nashr ettirdi, topishmoqlar to‘plamini tuzdi.

G‘.Jalolovning “O‘zbek xalq ertaklari poetikasi” monografiyasida esa sehrli-fantastik ertaklarning genezisi va morfologiyasi masalalari tahlil qilinadi. O‘zbek folklorining ikkinchi epik turi ertaklar haqidagi birinchi yirik tadqiqot M.Afzalovning[5] “O‘zbek xalq ertaklari haqida” kitobidir. Mavzuni o‘rganishimizda ushbu to‘plamlardagi ertaklar ham bizga manba vazifasini o‘tadi.

D.R.Babayeva maktabgacha yoshdagi bolalarda til tuyg‘usini rivojlantirish, shuningdek, eslab qolish va obrazli ravishda ko‘paytirish qobiliyatini o‘rgangan, aniq adabiy iboralarni aniqlagan. U badiiy adabiyotlardan foydalanishni tavsiya qiladi. K.N.Qodirov[6] ertaklar va badiiy ertakni idrok etishning rivojlanishidagi ikki yosh davrini belgilab berdi.

Birinchi davr – ikki yildan besh yilgacha. Bu yoshda go‘daklar hayotni san’atdan ajrata olmaydi. Badiiy matnni tushunish ularning shaxsiy tajribalariga bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Voqealar zanjiri bir-birini ta’qib qilganda, ular yengil, ongli aloqalarni o‘rnatadilar. Ertaklarda asosiy xarakterga katta e’tibor beriladi, maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda asosiy xarakterga bo‘lgan munosabat kuchli hissiy tajribalarni keltirib chiqaradi. Ammo ular xatti-harakatlar va harakatlarning motivlarini tushunmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasini rivojlantirish modelini ishlab chiqishda ijtimoiy ehtiyoj, zarurat va maqsad asos qilib olindi. Boshlang‘ich sinfga tayyorlashning vazifalari, tamoyillari, metodlari ishlab chiqildi. Mazkur jarayonning asosiy mohiyati maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlay oladigan qilib tarbiyalash, jamiyatda ro‘y berayotgan voqea va hodisalarga ongli tarzda munosabat bildira olish qobiliyatlarini o‘stirish hamda ijodiy fikrlashiga imkon yaratishdan iboratdir.

Tamoyillar	Komponentlar
Ilmiylik	maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasiga oid rivojlantirish jarayonidan kutilayotgan natijalarga erishishni ko‘zda tutadigan muayyan darajada bilimlarni shakllantirish
Individuallashtirish	maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasiga xos kontentlarini tajribasi, tayyorgarlik darajasi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yakka holda shakllantirish
Tizimlilik va uzviylik	maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanishning maqsadi, mazmuni, shakllari, metod va vositalari, kutilayotgan natijalar va baholashning bir-biriga muvofiqligini aniqlash;
Dolzarblashtirish	maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish ijtimoiy va ta’limiy ehtiyoj hamda talablarning yangilanishini inobatga olgan holda kasbiy rivojlantirish jarayonida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llash
Mazmundorlik	Ertaklardan foydalanishni rivojlantirishning mazmuni, shakl va vositalari, metodlari, manbalari, muddati, vaqti va o‘quv joyini tanlashda muayyan mazmuniy bog‘liqligini belgilash;
Uzluksizlik	jamiyatning o‘zgaruvchan va yangilangan talablari asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishning dolzarbligi nuqtayi nazaridan o‘quv kurslarining davomiyligi va uzluksizligini ta’minlash

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi – talabalarning zamonaviy ta’lim talablariga mosligi va maqsadga muvofiqligi darajasini oshirishdan iborat. Bunda empirik ma’lumotlarni yig‘ishning turli-tuman metodlari majmuidan foydalanildi: oliy ta’lim muassasasida pedagogik jarayonni kuzatish, oliy ta’lim muassasasi talabalari bilan individual suhbatlar; so‘rovnomalari; pedagogik hujjatlar tahlili.

Texnologiyalarning turli-tumanligi zarur asosli materialni olishni ta’minladi. Qo‘yilgan vazifalarga mos ravishda o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari uch asosiy qismdan tashkil topdi: ta’kidlovchi, shakllantiruvchi va tajriba-sinov bosqichlari.

Tajriba-sinov ishlarining ta’kidlovchi bosqichi. Ushbu bosqichdagi asosiy maqsad oliy ta’lim muassasasining tahsil oluvchi talabalarini kasbiy tayyorgarlik sifatini baholashdan iborat edi. Shunga muvofiq, biz quyidagi vazifalarni belgiladik: umumta’lim oliy ta’lim muassasasida tahsil oladigan talabalarning kasbiy faoliyat holatini tahlil qilish; kasbiy faoliyatga tayyorlash tajribasini o‘rganish; talabalar bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma savollari va suhbatlar asosida ularning maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga bo‘lgan munosabatini ularning kasbiy faoliyatning tarkibiy qismi va maktabgacha ta’lim muassasalarida yuqori malakali va kompetent mutaxassisni rivojlantirishdagi rolini aniqlash.

Buning uchun biz turli xil metodlardan foydalandik: aynan – so‘rovnoma o‘tkazish, ilmiy, o‘quv, uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish. Ta’kidlovchi tajriba-sinov bosqichi uchta 3 ta guruhda o‘tkazildi.

1-jadval. Tajriba sinov ishlariga jalb qilingan sinflarlar va talabalar son

№	Guruhlarning nomlanishi	Tajriba boshida			Tajriba yakunida		
		Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami
1	101-MT	13	12	**25**	13	12	**25**
2	102-MT	14	14	**28**	14	14	**28**
	Jami	**27**	**26**	**53**	**27**	**26**	**53**

Tajriba-sinov ishlari uchun asos bo‘ladigan tadbirlari bilan bir qatorda biz talabalar orasida so‘rovnoma o‘tkazdik. 53 nafar talaba bilan so‘rovnoma o‘tkazildi. Bu so‘rovnomalarni o‘tkazish uchun, biz olima M.I.Gennadevnaning tadqiqot ishlarida foydalanilgan so‘rovnomalardan foydalandik. 1-sonli va 2-sonli so‘rovnoma (1-ilova va 2-ilova) 1-guruh talabalariga taklif qilingan. 2-guruh talabalariga 2-sonli so‘rovnoma taklif qilindi. Olingan ma’lumotlarni umumlashtirib, biz ko‘pchilik bo‘lajak tarbiyachilar oliy matematika fani, ularni mutaxassis sifatida rivojlantirish jarayonida muhim va zarur deb hisoblamasliklari, kasbiy faoliyatni bo‘lajak tarbiyachilarning umumiy faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri deb hisoblamasliklari, tabiatshunoslik va matematik bilimlarni kelajakdagi kasbiy faoliyatida bilish vositasi sifatida ko‘rmasliklari haqidagi xulosaga keldik. Bayon qilingan sabablarga ko‘ra, ushbu fan sohasini o‘rganish uchun motivatsiyaning past darajasi mavjud.

[5] Афзалов М., Х. Расулев, З.Хусаинова. 2 жилдли Ўзбек халқ эртаклари. Адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент – 1972.

[6] Қодиров К.Н. Ўзбек сеҳрли эртакларида замон ва макон талқини. Фил.фан.ном. дис. авт. – Т., 2004. – 23 б.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishning aniqlovchi bosqichida biz talabalarning kasbiy ta'limi masalasi dolzarb ekanligi, hal qilishni talab qilishini va ilgari surilgan tadqiqot farazi o'z vaqtida ekanligi va qonuniy ekanligi haqidagi xulosaga keldik. Biz qo'yilgan vazifani bajarish yo'llarini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasi tashkil etishga yangi yondashuvlarni izlashda ko'ramiz.


Dastlabki tajriba sinov ishida yuqorida tanlab olingan talabalardan nazorat ishi olindi. Jumladan, tajriba-sinov ishning shakllantiruvchi bosqichida matematik bilimlarning umumiy darajasini baholash uchun talabalarga 10 ta topshiriqdan iborat: matematikaning eng muhim bo'limlaridan, masalan, darajalar va ildizlar, modul, logarifmlar, tenglamalar, tengsizliklar, funksiyalar, trigonometriyani qamrab oladigan kirish nazorat testi taklif etildi. Har bir taklif qilingan topshiriq besh balli shkala bo'yicha baholandi.

Kirish nazorat ishini o'tkazishda olingan natijalar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Dastlabki tajriba sinov ishi natijalari

Guruhlar nomi	Guruhlar	Respondent-talabalar soni	O'zlashtirish darajalari					
			Yuqori		Urta		Past	
			5	foizda	4	foizda	3	foizda
101-MT	Tajriba guruhi	13	2	15,4%	3	23,1%	8	61,5%
	Nazorat guruhi	12	1	8,3%	3	25,0%	8	66,7%
102-MT	Tajriba guruhi	14	3	21,4%	4	28,6%	7	50,0%
	Nazorat guruhi	14	3	21,4%	4	28,6%	7	50,0%
Jami	**Tajriba guruhi**	**27**	**5**	**18,41%**	**7**	**25,82%**	**15**	**55,77%**
	Nazorat guruhi	**26**	**4**	**14,88%**	**7**	**26,79%**	**15**	**58,33%**

Ushbu natijalarning qiyosiy tahliliga ko'ra har ikkala guruhlarda o'zlashtirish ko'rsatkichlar deyarli bir xilligini ko'rsatadi. Jumladan, yuqori darajadagi o'zlashtirish tajriba guruhlarida 18,41%ni tashkil etgan bo'lsa nazorat guruhlarida bu ko'rsatkich 14,88% ni, o'rta darjadagi ko'rsatkichlar esa mos ravishda 25,82 va 26,79% ni, past darajadagi ko'rsatkichlar esa 55,77 va 58,33%ni tashkil etadi. Bu esa talabalarning dastlabki natijalarda har ikkala guruhlarda o'zgarish mavjud emasligini, ya'ni bilim darajasi dastlab taxminan bir xil ekanligini ko'rsatadi.



2-rasm. Dastlabki natijalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Biz quyida tajriba-sinovda keyingi bosqichlarda o'tkazilgan sinov ishlarining natijalari bilan tanishamiz. Bu uch turdagi kompetensiyalarda amalga oshirildi.

1. O'quvchilarning maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasi asosida kasbiy rivojlanishiga ko'rsatiladigan pedagogik ta'sirlarni tashxislashga qaratilgan fanga oid va refleksiv-baholash kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini aniqlash uchun ikkita baholash turi tanladi. Bular yuqori va asosiy ko'rsatkichli baholash turlaridir.

2. Talabalarda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasi asosida kasbiy kompetentlik elementlarini rivojlantirish texnologiyasini amaliy sinovdan o'tkazdi. Bunda talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori, o'rta va past darajada baholash ishlari olib borildi

O'quvchilarning maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasi asosida kasbiy rivojlanishiga ko'rsatiladigan pedagogik ta'sirlarni tashxislashga qaratilgan fanga oid va refleksiv-baholash kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi bo'yicha olingan natijalar (3-jadvalga qarang).

Olingan natijalarda fanga oid kompetensiyalarning shakllanganlik ko'rsatkichlarida yuqori darajadagi o'zlashtirish tajriba guruhlarida 39,60% ni, nazorat guruhlarida esa 14,42% ni, asosiy o'zlashtirish ko'rsatkichlari 60,41% va 85,59% ni tashkil etdi va tajriba guruhlarida bu ko'rsatkichlar yuqori ekanligi tahlili qilindi.

Refleksiv-baholash kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi esa yuqori darajasi tajriba guruhlarida 36,98% ni, nazorat guruhlarida esa 15,9% ni, asosiy o'zlashtirish ko'rsatkichlari 63,03% va 84,11% ni tashkil etdi va tajriba guruhlarida yuqori darajadagi ko'rsatkichlar katta ekanligi tahlili qilindi.

3-jadval. Baholash kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi


Mezonlar	Guruhlar nomi	Guruhlar	Respondent-talabalar soni	O'zlashtirish darajalari	
				Yuqori	Asosiy
				foizda	foizda
Fanga oid kompetensiyalar	101-MT	Tajriba guruhi	13	43,48%	56,52%
		Nazorat guruhi	12	15,79%	84,21%
	102-MT	Tajriba guruhi	14	35,71%	64,29%
		Nazorat guruhi	14	13,04%	86,96%
	Jami	Tajriba guruhi	**27**	**39,60%**	**60,41%**
		Nazorat guruhi	**26**	**14,42%**	**85,59%**

Mezonlar	Guruhlar nomi	Guruhlar	Respondent-talabalar soni	O'zlashtirish darajalari	
				Yuqori	Asosiy
				foizda	foizda
Refleksiv-baholash kompetensiyalar	101-MT	Tajriba guruhi	13	35,71%	64,29%
		Nazorat guruhi	12	13,04%	86,96%
	102-MT	Tajriba guruhi	14	38,24%	61,76%
		Nazorat guruhi	14	18,75%	81,25%
	Jami	Tajriba guruhi	**27**	**36,98%**	**63,03%**
		Nazorat guruhi	**26**	**15,90%**	**84,11%**


Olingan natijalarda fanga oid kompetensiyalarning shakllanganlik ko'rsatkichlarida yuqori darajadagi o'zlashtirish tajriba guruhlarida 39,60% ni, nazorat guruhlarida esa 14,42% ni, asosiy o'zlashtirish ko'rsatkichlari 60,41% va 85,59% ni tashkil etdi va tajriba guruhlarida bu ko'rsatkichlar yuqori ekanligi tahlili qilindi.

Refleksiv-baholash kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi esa yuqori darajasi tajriba guruhlarida 36,98%ni, nazorat guruhlarida **esa 15,9%ni, asosiy o'zlashtirish ko'rsatkichlari 63,03% va 84,11% ni tashkil etdi va tajriba guruhlarida yuqori darajadagi ko'rsatkichlar katta ekanligi tahlili qilindi**.

4-jadval



Ushbu natijalarga ko'ra, talabalarda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasi asosida kasbiy kompetentlik rivojlanganlik ko'rsatkichlarining yuqori darajasi tajriba guruhlarida 29,67% ni, nazorat guruhlarida esa 11,9% ni o'rta darajasi tajriba guruhlarida 55,49% ni, nazorat guruhlarida esa 11,9% ni, past darajadagilar tajriba guruhlarida 14,84% ni, nazorat guruhlarida esa 61,31% ni tashkil etdi. Bu esa tajriba guruhlarida yuqori va o'rta darajadagi ko'rsatkichlar oshganligini, past darajadagilar esa kamayganlini anglatadi.



4-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim – tarbiyasini tashkil etishda xalq ertaklaridan foydalanish metodikasi asosida kasbiy kompetentlik rivojlanganlik ko'rsatkichlari.

XULOSA

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq ertaklariga oid tushunchalarni shakllantirish muammosini ko'rib chiqishga ma'lum bir hissa qo'shadi.

1. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va bolalar oilasida bolalarning ta'lim-tarbiyasida xalq ertaklariga oid tushunchalarni shakllantirish uchun pedagogik va psixologik shartlarni qayta ko'rib chiqish muhimligi aniqlangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq ertaklariga oid tushunchalar, agar bolalar ta'lim-tarbiyasida xalq ertaklariga nisbatan ongli munosabatga ega bo'lsa shakllanadi. Kitoblarni nazariy tahlil qilish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda ertaklarga oid tushunchalarni shakllantirish usullari va vositalari aniqlangan. Bunday usullarga didaktik va syujet-rol o'yinlari, badiiy adabiyot, mahsuldor va predmet-amaliy faoliyat kiradi. Ish shakllariga mashg'ulotlar, bolalar bilan trening o'yinlari, ota-onalar uchun maslahatlar tashkil etish, ota-onalar konferensiyalarini o'tkazish kiradi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasida xalq ertaklaridan foydalanish metodikasiga oid tushunchalarni shakllantirishda an'anaviy usullarga suhbat, kuzatish, tushuntirish, ishontirish, ijobiy va salbiy misollar, odatlarni shakllantirish usullari, mashq qilish, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usullari kiradi.

3. Aniqlangan, asoslangan va joriy etilgan pedagogik shartlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq ertaklariga oid tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan rivojlantiruvchi muhitning mavjudligi; bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yoshiga mos ravishda ertaklarning o'yin tariqasida tarbiyani mazmunli tashkil qilish bilan to'ldirish; maktabgacha yoshdagi bolalarning xalq ertaklariga bo'lgan o'zaro tushunchalarini rag'batlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq ertaklaridan foydalanish madaniyatini tarbiyalash metodikasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: kognitiv, reproduktiv-faoliyat, emotsional-kreativ. Har bir bosqich uchun ta'lim maqsadlari, mazmuni, usullari va

amalga oshirish shakllari belgilangan suhbatlar, hikoyalar tuzish, mavzuli mashg‘ulotlar, o‘yin vaziyatlari, didaktik, ertakni sahnalashtirish, syujet-rol o‘yinlari, didaktik mashqlar, o‘yin-vaziyatlar, harakatli, musiqali-harakatli o‘yinlar, bular orqali taklif etilgan pedagogik shartlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi ta’minlangan.

4.Taqdim etilgan materiallar maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasida xalq ertaklari ahamiyatiga oid tushunchalarni shakllantirishda pedagoglarning qobilyatidan foydalanilishi mumkin. Tadqiqotning kelajakdagi istiqbollari – ishlab chiqilgan dasturini yanada sinovdan o‘tkazish va uni kattaroq yoshdagi bolalarga moslashtirishdir.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida. 2020-yil 2-mart // https://lex.uz/docs/-4751561

2. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartlari to‘g‘risida. 2020-yil 22-dekabr // https://lex.uz/docs/-5179335

3. Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30-sentabrdagi PQ-3305-sonli Qarori.

5. Божович, Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – М.: «Просвещение», 2008. – 286

6. Дўстхўжаева. И.Н. Ўзбек сеҳрли эртакларининг структуал таҳлили. фил. ф. ном. авт. – Т., 1999. – 26 б

7. Жамолхонов Ҳ. «Ҳозирги ўзбек адабий тили» дарслик. – Т.: «Талқин» 2005.

8. Муродов М. Олтин сандиқ очилди. – Т.: Ўқитувчи, 1994. –120 б.

9. Немов, Р.С. Общие основы психологии – М.: «Просвещение», 2005. – С. 348.

6. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. Darslik. – T., 2013.

7. Афзалов М., Х. Расулев, З. Хусаинова. 2 жилдли Ўзбек халқ эртаклари. Адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 1972.

8. Қодиров К.Н. Ўзбек сеҳрли эртакларида замон ва макон талқини. Фил.фан.ном. дис. авт. – Т., 2004. – 23 б.

9. Matrizayeva B.S “Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasida ertaklarning ahamiyati” Ta’lim fidoyilari. ISSN: 2180-2130 VOL.1,ISSUE 1 IYUN(2022).

10. Мардонова Г.А. Аллаларда маънавий-ахлоқий тарбия масалалари Баркамол авлод тарбиясининг маънавий-ахлоқий, ҳуқуқий, экологик, валеологик, акмеологик ва иқтисодий масалалари: республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти, 2010. – Б. 342–343.

11. Очилов М. Ўқитиш усули – педагогик технологияларнинг асосий компоненти // Халқ таълими. 1999. №6.3235б.

ORCID: HTTPS://ORCID.ORG/0009-0008-5320-9680

MTT PEDAGOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TRENINGLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI



Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Abstract: Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, treninglar orqali ularning bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan. Unda pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi treninglarning metodologiyasi ishlab chiqilgan va ularning samaradorligi tajriba-sinov yo'li bilan tasdiqlangan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kasbiy kompetentlik, trening metodikasi, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, innovasion ta'lim texnologiyalari, kompetentsiya yondashuvi, ta'lim sifatini oshirish, indikatorlar.

KIRISH

Jahonda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining sifatini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi[1]. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga sifatli ta'lim berish, ta'lim-tarbiya beradigan pedagoglarning kasbiy kompetentligiga bog'liq.

Ta'lim jarayoniga tatbiq etilayotgan innovatsion metodlar samarasi pedagogning kasbiy kompetentligining xarakteriga va uning rivojlanganligi darajasiga bevosita bog'liq. Sarbon dekloratsiyasi (Sorbonne Declaration)[2], Ta'lim barcha uchun (Edukation For All (EFA))[3], Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millenium Devolopment Goals (MDGs))[4] va kasbiy malakalar to'g'risidagi Lisabon Konvensiyalari kasbiy kompetenttligi kadrlar tayyorlashning innovatsion yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda ta'limning innovatsion rivojlanishning global vazifalaridan biri pedagog kadrlarda kasbiy kompetenttlikni shakllantirishdir. YUNESKO kattalar ta'limini XXI asrda "eshiklarni ochuvchi kalit" deb e'tirof etadi[5]. Rivojlangan mamlakatlarning eng ilg'or ta'lim markazlari (Center for Creative Leadership Courses, IEDP, MOOC, CPC)da[6] maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentliklarini rivojlantiruvchi treninglarni tashkil etish va samaradorligini oshirish, yangi uslublarini ishlab chiqish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalqaro pedagogik tajribalarga ko'ra maktabgacha ta'lim pedagoglarini aynan rivojlantiruvchi treninglar orqali kasbiy kompetenttligini rivojlantirishda, innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, qisqa muddatli o'quv dasturlar orqali androgogik ta'lim tamoyillarni ilmiy asoslab berish borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, rivojlantiruvchi treninglar orqali maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va ularning kasbiy faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda ham so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori[7] maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi. Qaror bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da[8] maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim jarayonida dolzarb va yechimini kutayotgan muammolardan biridir. Ushbu muammo nafaqat pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini yangilashni, balki ularning kasbiy faoliyatga yangicha yondashuvlarini shakllantirishni ham talab qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning kompetentligini rivojlantirishga oid treninglar samaradorligini ta'minlash uchun ilmiy asoslangan, puxta rejalashtirilgan va tajriba asosida tekshirilgan usullardan foydalanish zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini treninglar vositasida rivojlantirishga qaratilgan metodikani ishlab chiqish va uning samaradorligini amaliyotda sinashdan iborat bo'lgani sababli, muammoni yechish uchun bir qator usullar qo'llanildi. Ushbu usullar orqali pedagoglarning kompetentlik darajasini oshirishga qaratilgan treninglarning nazariy asoslari belgilandi, ularning amaliyotga tatbiq etilishi uchun zamonaviy yondashuvlar ishlab chiqildi va natijalar tahlil qilindi. Har bir usulning tanlanishi tadqiqotning maqsadi va vazifalariga mos ravishda asoslantirildi, bu esa muammoning ilmiy va amaliy jihatdan samarali yechim topishiga imkon berdi.

Muammoni yechish jarayonida milliy va xorijiy tajribalar tahlili, treninglarning samaradorligini baholashga qaratilgan eksperimental faoliyat va matematik-statistik tahlillar birgalikda olib borildi. Bunda nafaqat treninglarning nazariy asoslari o'rganildi, balki amaliy mashg'ulotlar yordamida pedagoglarning real ta'lim jarayonidagi rivojlanish dinamikasi kuzatildi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan usullar o'zaro integratsiyalashgan holda, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan yondashuv asosida amalga oshirildi, bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy qiymatini oshirdi[9].

1. Nazariy tahlil usuli. Tadqiqotning dastlabki bosqichida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi bo'yicha ilmiy-adabiy manbalar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ushbu tahlil natijasida kompetentlikni rivojlantirishning psixologik va pedagogik asoslari aniqlanib, treninglarni qo'llashning samaradorligi nazariy jihatdan asoslab berildi.

2. Eksperimental usul. Tadqiqot doirasida trening metodikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari orasida tajriba-sinovdan o't-kazildi. Trening mashg'ulotlari maxsus ishlab chiqilgan dastur asosida

---

[1] https://ru.unesco.org/themes/vedushchaya-rol-yunesko-v-realizacii-globalnoy-povestki-dnya-obrazovanie-2030

[2] https://www.ehea.info/page-sorbonne-declaration-1998

[3] https://www.un.org/en/academic-impact/education-all

[4] https://www.gavi.org/our-alliance/global-health-development/millennium-development-goals?gad_source=1&gclid=CjwKCAiAibeuBhAAEiwAiXBoJGCsSlwWqsi70OfQ4WjgZ-pYh2rlVwO0ovON10l9LXME97TOMFlxghoCuVYQAvD_BwE

[5] https://fanvatalim.uz/uz/article/89/

[6] https://www.ccl.org/leadership-programs/leadership-development-program/

[7] https://lex.uz/docs/-4327235

[8] https://lib.fbtuit.uz/assets/files/1.-2030yilgacharivojlantirishkontseptsiyasi.pdf

[9] Abdullajonova M., Isaqova M., Zokirova M., Isroiljonov S. Ijtimoiy psixologik treningdan praktikum. – F.: FarDU. 2003. – 68 b. Abdullayeva N. Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish. // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). dis. –T., 2020. 135 b. Жуков Ю.М. Тренинг как метод совершенствования коммуникативной компетентности: дис. ... д-р. псих, наук / Ю.М.Жуков. – Москва, 2003. – 356 с. Mo'minova N.S Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglarining mediakompetensiyasini rivojlantirish. Ped.fan.doktori (PhD) dis.avtoreferat – T., 2022. 8 b. Мотвационный тренинг: практ.рук. Е.В.Сидоренко СПб.: Речь, 2015. – 234 с. Qosimova Sh.N. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining uzluksiz malakasini oshirishni ta'minlash texnologiyalari. // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiya. – T., 2023. – 47 b.

tashkil etilib, pedagoglarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlari kuzatildi. Eksperimentda ishtirok etgan pedagoglar guruhlarga bo‘linib, ular bilan interfaol metodlar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

3. Diagnostik usul. Trening samaradorligini baholash uchun diagnostik usullar – so‘rovnomalar, kuzatish, test va baholash mezonlaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali pedagoglarning treningdan avval va keyingi kompetentlik darajasi solishtirildi. Misol uchun, treningdan oldin va keyin pedagoglar o‘rtasida “Innovatsion metodlarni qo‘llash ko‘nikmalari” bo‘yicha test sinovlari o‘tkazilib, ularda rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi.

4. Interfaol usul. Tadqiqot jarayonida pedagoglarning faol ishtirokini ta’minlash uchun treninglarda interfaol usullar qo‘llanildi. Bu usullar pedagoglarni o‘zaro fikr almashishga, jamoaviy ishlashga va amaliy masalalarni hal qilishga jalb etdi. Masalan, “Bolalar bilan muloqotni yaxshilash bo‘yicha texnikalar” mavzusida pedagoglar kichik guruhlarda ishlash orqali o‘zaro tajriba almashdilar va yangi yondashuvlarni ishlab chiqdilar.

5. Matematik-statistik tahlil usuli. Tajribadan olingan natijalarni tahlil qilish va trening samaradorligini aniqlash uchun matematik-statistik usullar qo‘llanildi. Natijalar dinamikasi grafiklar, diagrammalar va jadval shaklida taqdim etilib, pedagoglarning kompetentlik darajasidagi o‘zgarishlar aniq raqamlarda ko‘rsatildi. Bu usul tajriba jarayonining obyektiv baholanishini ta’minladi.

Treninglarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun didaktik tizimlar ishlab chiqildi. Ushbu tizimlar trening jarayonining mantiqiy tuzilmasini tashkil etuvchi va natijadorligini ta’minlovchi asosiy vositalar sifatida namoyon bo‘ldi.

Tajribaviy ishlarni o‘tkazish tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini sezilarli darajada modernizatsiya qilish, tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentliklari rivojlanishining umumiy darajasini oshirish va ko‘zga ko‘rinadigan natijalarga erishish imkonini berdi.

NATIJA

Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov natijalariga matematik-statistika metodlari asosida ishlov berildi. Pedagogik tajriba-sinov natijalarini qayta ishlashda matematik-statistika metodlari formulalaridan foydalanildi.

1-jadval

Tarbiyachi-pedagoglar kasbiy kompetentligini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan nazorat turlari

Baholash turlari	Ajratilgan umumiy bali	Baholash mezoni		
		Yuqori	*O‘rta*	*Past*
Kasbiy bilim va uni maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash darajasi aniqlash bo‘yicha test va amaliy topshiriqlar	40	32-40	24-31	18-23
Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayoniga oid axborotlar trening tahlilini o‘tkaza olish va ulardan foydalanish bo‘yicha nazorat	30	25-30	19-24	12-18
Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonida kasbiy kreativ imkoniyatlarini qo‘llay olish bo‘yicha muammoli topshiriqlar	30	25-30	19-24	12-18
Jami	**100**	**80-100**	**58-79**	**42-59**

Tanlab olingan tajriba-sinov va nazorat guruhlarining o‘zlashtirishlarini taqqoslash maqsadida ushbu guruhlarda o‘zlashtirish bahosining o‘rtacha qiymati $X=\frac{\sum x_i m_i}{N}$ deb olindi. Bu yerda x_i – o‘zlashtirish ko‘rsatkichi (baho qiymati) bo‘lib, ular past, o‘rta, yuqori (3, 4, 5) qiymatlarni qabul qiladi. m_i – baholarning takrorlanishlar soni, N – tajribada ishtirok etayotgan tarbiyachi-pedagoglarning soni.

Quyidagi matematik-statistik formulalardan foydalanib pedagogik tajriba-sinov natijalari tahlil qilindi:

1. O‘rtacha qiymatlar aniqlash ko‘rsatkichlari:

$$C_S^T=\frac{S_T}{\sqrt{N_T}\,\overline{x}}\cdot 100\%;\quad C_S^H=\frac{S_H}{\sqrt{N_H}\,\overline{x}}\cdot 100\%; \tag{1}$$

bu yerda N_T va N_H lar orqali har ikki guruhdagi tarbiyachi-pedagoglar sonini

$$S_T=\sqrt{S_T^2}\quad \text{ва}\quad S_H=\sqrt{S_H^2} \tag{2}$$

lar orqali esa mos standart xatoliklarni belgiladik.

$S^2=\frac{1}{N}\sum_i m_i\left(x_2-\overline{x}\right)^2$ tanlanma dispersiya

2. Ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini baholovchi o‘rtacha qiymat tajriba-sinov va nazorat guruhlari o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining o‘rtacha arifmetik qiymatlari nisbatidir, ya’ni samaradorlik koeffitsiyenti:

$$\eta=\frac{X_T^*}{X_H^*} \tag{3}$$

Bu yerda X_T^* – tajriba-sinov guruhi o‘zlashtirish natijalarining o‘rtacha arifmetik qiymati. X_N^* – nazorat guruhida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining o‘rtacha arifmetik qiymati.

3. Bosh to‘plamlarning noma’lum o‘rta qiymatlari a_T va a_H lar uchun ishonch oraliqlari:

$$a_T\in\left[\overline{x_T}-\frac{t}{\sqrt{N_T}}S_T;\ \overline{x_T}+\frac{t}{\sqrt{N_T}}S_T\right]$$
$$a_H\in\left[\overline{x_H}-\frac{t}{\sqrt{N_H}}S_H;\ \overline{x_H}+\frac{t}{\sqrt{N_H}}S_H\right] \tag{4}$$

Bu yerdagi t – normallashgan chetlanish ishonch ehtimoli p asosida aniqlanadi. Masalan, p=0,95 deb olsak, t=1,96.

4. O‘rta qiymatlarning tengligi haqidagi $H_0: a_T=a_H$ gipotezani, unga qarama-qarshi $H_1: a_T\neq a_H$ gipoteza olindi.

Gipotezaga nisbatan Styudentning

$$T=\frac{\left|\overline{x_T}-x_H\right|}{\sqrt{\frac{S_T^2}{N_T}+\frac{S_H^2}{N_H}}} \tag{5}$$

statistikasi orqali tekshiramiz. Agar $T>T_{0,95}(k)$ bo‘lsa, H_1 qabul qilinadi, aks holda esa H_0 qabul qilinadi.


Ushbu statistik ma’lumotlarga ko‘ra, tajriba-sinov ishlarida amalga oshirilgan matematik hisoblar va statistik tahlil natijalar qarab chiqiladi.

Tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘rtacha qiymat:

$$\overline{X_T} = \frac{1}{58}[24 \cdot 5 + 22 \cdot 4 + 12 \cdot 3] = \frac{1}{58}(120 + 88 + 36) = \frac{244}{58} = 4{,}2$$
$$\overline{X_H} = \frac{1}{55}[15 \cdot 5 + 21 \cdot 4 + 19 \cdot 3] = \frac{1}{55}(75 + 84 + 57) = \frac{216}{55} = 3{,}9$$

Samaradorlik koeffitsiyenti:

$$\eta = \frac{4{,}2}{3{,}9} = 1{,}08$$



1-rasm. Barcha MTT pedagoglarida o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalarining umumlashgan holati (foizda)

Tajriba-sinov va nazorat guruhlaridagi tanlanma dispersiya va standart xatolik qiymatlarini hisoblaylik.

$$S_T^2 = \frac{1}{58}[120 \cdot (5 - 4{,}2)^2 + 88 \cdot (4 - 4{,}2)^2 + 36 \cdot (3 - 4{,}2)^2] = 2{,}28$$
$$S_T = \sqrt{2{,}28} = 1{,}51$$
$$S_H^2 = \frac{1}{55}[75 \cdot (5 - 3{,}9)^2 + 84 \cdot (4 - 3{,}9)^2 + 57 \cdot (3 - 3{,}9)^2] = 2{,}51$$
$$S_H = \sqrt{2{,}51} = 1{,}58$$

Aı ılanish ko‘rsatkichlari

$$C_S^T = \frac{1{,}51}{\sqrt{58} \cdot 4{,}2} \cdot 100\% = 4{,}7\ \%$$

$$S_S^H = \frac{1{,}58}{\sqrt{55} * 3{,}9} \cdot 100\% = 5{,}4\%$$

$$\overline{x_T} - \frac{t \cdot S_T}{\sqrt{N_T}} = 4{,}2 - \frac{1{,}96 \cdot 0{,}67}{\sqrt{58}} = 4{,}12$$
$$\overline{x_T} + \frac{t \cdot S_T}{\sqrt{N_T}} = 4{,}2 + \frac{1{,}96 \cdot 0{,}67}{\sqrt{58}} = 4{,}26$$
$$\overline{x_H} - \frac{t \cdot S_H}{\sqrt{N_H}} = 3{,}9 - \frac{1{,}96}{\sqrt{55}} \cdot 0{,}74 = 3{,}54$$
$$\overline{x_H} + \frac{t \cdot S_H}{\sqrt{N_H}} = 3{,}9 + \frac{1{,}96}{\sqrt{55}} \cdot 0{,}74 = 3{,}70$$

Statistik qiymatni va Styudent kriteriyasi ozodlik darajasi hisoblaymiz.

$$T = \frac{4{,}2 - 3{,}9}{\sqrt{\frac{2{,}28}{58} + \frac{2{,}51}{55}}} = 2{,}11$$
$$K = 58 + 55 - 2 = 111$$
$$t_{0{,}95}(111) = 1{,}97$$

Demak, olib borilgan hisob kitoblarga ko‘ra:

$T = 2{,}11 > T_{0{,}95}\ (111) = 1{,}96$ bo‘lgani uchun N_0 gipotezani qabul qilishga asos yo‘q, shuning uchun N_1 gipoteza qabul kilinadi.

Ushbu olingan natijalar va amalga oshirilgan hisob-kitoblar hamda diagrammadagi ko‘rsatkichlardan aniqlanadiki, pedagogik tajriba-sinov ishlaridagi natijalarning samaradorligi matematik-statistika usullari orqali o‘z tasdig‘ini topdi.

XULOSA

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini treninglar vositasida rivojlantirish metodikasi ishlab chiqildi va uning samaradorligi eksperimental tadqiqotlar orqali tasdiqlandi. Uning natijalari ta’lim jarayonida zamonaviy metod va texnologiyalarni joriy qilish, pedagoglarning kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvni shakllantirish va o‘quv jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy izlanish doirasida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid zamonaviy metodik yondashuvlar ishlab chiqildi. Bunda psixologik, pedagogik va metodik omillar tizimli tahlil qilinib, trening jarayonining mazmuni, shakli va metodlari belgilab berildi. Treninglar orqali pedagoglarning bilim va ko‘nikmalari aniq maqsadli rivojlantirilib, ularning innovatsion fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlari oshirildi.

Eksperimental tadqiqotlar natijasida maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratish – pedagoglarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, treninglarni o‘tkazish uchun qulay muhit yaratildi. Bu ularning o‘quv jarayonida faol ishtirokini ta’minladi va o‘z bilimlarini boyitishga imkon berdi.

Innovatsion metodlarni qo‘llash – treninglar davomida interfaol usullar, rolli o‘yinlar, guruhli muhokamalar va multimedia vositalari samarali qo‘llanildi. Bu yondashuvlar pedagoglarning amaliyotda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash qobiliyatini rivojlantirdi.

Ta’lim jarayonining sifatini oshirish – treninglar orqali pedagoglar o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, muammolarni hal etish va individual yondashuvni amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘ldilar. Bu ta’lim jarayonida natijadorlikni oshirishga yordam berdi.

Trening samaradorligini baholash – tadqiqotda o‘tkazilgan diagnostika va testlar natijasida trening ishtirokchilarida kompetentlik darajasining yuqori o‘sishi aniqlandi. Bu metodikaning amaliyotda qo‘llash uchun samarali vosita ekanini tasdiqlaydi.

Ushbu izlanish natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kasbiy rivojlanishni ta’minlashda treninglarning muhim o‘rnini namoyon etdi. Ishlab chiqilgan metodika maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim jarayoni sifatini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarning amaliyotda qo‘llanilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu ish kelgusida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar uchun ilmiy va amaliy zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli qonuni. // https://lex.uz/docs/4646908.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni. // https://lex.uz/docs/5841063.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-son farmoni. // https://lex.uz/docs/3362886.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori. // https://lex.uz/ru/docs/4327235.

5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 487-sonli qarori. // https://lex.uz/uz/docs/4372737.

6. Abdullajonova M., Isaqova M., Zokirova M., Isroiljonov S. Ijtimoiy psixologik treningdan praktikum. – F.: FarDU. 2003. – 68 b.

7. Abdullayeva N. Maktabgacha ta’limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish. // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). dis. –T., 2020. 135 b.

8. Djurayeva B.R., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari // Toshkent, O‘zPFITI. – 2015. 112 bet.

9. Жуков Ю.М. Тренинг как метод совершенствования коммуникативной компетентности: дис. ... д-р. псих, наук / Ю.М.Жуков. – Москва, 2003. – 356 с.

10. Ibragimova G.N. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimi. // ... Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. – Tashkent, 2021.

11. Mo‘minova N.S Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglarining mediakompetentsiyasini rivojlantirish. Ped.fan.doktori(PhD) dis.avtoreferat. – T., 2022. 8 b.

12. Мотвационный тренинг: практ.рук. Е.В.Сидоренко СПб.: Речь, 2015. – 234 с.

13. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: p.f.d. (DSc) dis... materiallari. – Toshkent: TDPU, 2019. – 161 b.

14. Qosimova Sh.N. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining uzluksiz malakasini oshirishni ta’minlash texnologiyalari. // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiya. – T., 2023. – 47 b.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI HUZURIDAGI
OLIY ATTESTATSIYA
KOMISSIYASI

100047, Toshkent sh., Y. G‘ulomov ko‘chasi, 70
Tel.: (71) 233-28-83. Fax: (71) 233-06-47
e-mail: info@oak.uz https://oak.uz

SUPREME ATTESTATION
COMMISSION
AT THE MINISTRY OF HIGHER
EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

70, Y. Gulomov str., Tashkent, 100047
Tel.: (71) 233-28-83. Fax: (71) 233-06-47
e-mail: info@oak.uz https://oak.uz

Javob qaytarganda shu № ko‘rsatilsin
When you answer show this №

№01-08/2656 «8» 08 2024 y.

Халқаро Нордик университетига

Олий аттестация комиссияси Халқаро Нордик университетининг мурожаатига кўра *иқтисодиёт* фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражалари бўйича диссертацияларнинг асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган миллий илмий нашрлар рўйхатига *“Нордик” илмий-амалий электрон журнали* киритилганлигини маълум қилади.

Асос: Халқаро Нордик университети мурожаати (09.07.2024 й., №01-524); ОАК иқтисодий ва рақамли иқтисодий интеграцион тадқиқотлар бўйича эксперт кенгаши (29.07.2024 й., №9) тавсияси; ОАК тартиб-қоида комиссияси қарори (29.07.2024 й., №7/25а); ОАК Раёсати қарори (02.08.2024 й., №359/5).

Бош илмий котиб в.в.б **О.Қ.Махманов**

Ижрочи: К.Тухтабеков

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI HUZURIDAGI
OLIY ATTESTATSIYA
KOMISSIYASI

100047, Toshkent sh., Y. G‘ulomov ko‘chasi, 70
Tel.: (71) 233-28-83. Fax: (71) 233-06-47
e-mail: info@oak.uz https://oak.uz

SUPREME ATTESTATION
COMMISSION
AT THE MINISTRY OF HIGHER
EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

70, Y. Gulomov str., Tashkent, 100047
Tel.: (71) 233-28-83. Fax: (71) 233-06-47
e-mail: info@oak.uz https://oak.uz

Javob qaytarganda shu № ko‘rsatilsin
When you answer show this №

№01-08/2615 «5» 08 2024 y

Халқаро Нордик университетига

Олий аттестация комиссияси Халқаро Нордик университетининг мурожаатига (09.07.2024 й., №01-524) кўра **педагогика** фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари юзасидан диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган миллий илмий нашрлар рўйхатига **“Нордик”** илмий-амалий электрон журнали миллий нашрлар рўйхатига киритилганлигини маълум қилади.

Бош илмий котиб в.в.б. **О.Маҳманов**

Ижрочи: Т.Маматмусаев

Nordic scientific-practical e-journal

Volume- 4

Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali

4-son

ISBN: 3030-3400

Bosishga ruxsat etildi 2025-yil 20.12.
Qog‘oz bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$ «Montserrat, Poppins» garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 5. Adadi 50 nusxa.
Buyurtma raqami № 0102 . Baxosi shartnoma asosida.
“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” bosmaxonasida chop etildi.

Manzilimiz:
100143, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Chilonzor tumani, Bunyodkor shox ko‘chasi, 8/2-uy
+998 95 505 44 00 +998 91 215 56 44

TAHRIRIYAT KENGASHI HAY'ATI



Sherzod MUSTAFAKULOV

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi raisi



Odil QO'YSINOV

Pedagogika fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi bosh muharriri



Oybek RAXIMBERDIYEV

Akademik ishlar departamenti boshlig'i

Tahririyat kengashi mas'ul kotibi



Abdurauf TO'QLIYEV

Tayanch doktorant

Tahririyat kengashi texnik muharriri



Muxtasar ISAQOVA

Matbuot kotibi, jurnalist

Tahririyat kengashi a'zosi, matn muharriri



Akbar MANSUROV

Web dasturchi

Tahririyat kengashi a'zosi, texnik xodim



Sherzod URALOV

Web dasturchi

Tahririyat kengashi a'zosi, texnik xodim



Hasan MAQSUDOV

Dizayner

Tahririyat kengashi a'zosi, sahifalovchi-dizayner









www.journal.nordicuniversity.org